GLOBALLASHUV DAVRIDA RAQAMLI IQTISODIYOT, INNOVATSION TAFAKKUR VA TA’LIM KOMPETENSIYASI: GLOBAL FUQAROLIK SARI

RESPUBLIKA KONFERENSIYASI

MATERIALLAR TO’PLAMI



II

2025-YIL 22-DEKABR

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

MILLAT UMIDI UNIVERSITETI

“SCIENCE AND INNOVATION” XALQARO ILMIY JURNALI

“GLOBALLASHUV DAVRIDA RAQAMLI IQTISODIYOT, INNOVATSION TAFAKKUR VA TA’LIM KOMPETENSIYASI: GLOBAL FUQAROLIK SARI” MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

MATERIALLAR TO‘PLAMI

2025-yil 22-dekabr

2-qism

COLLECTION OF MATERIALS

OF THE REPUBLICAN SCIENTIFIC-PRACTICAL CONFERENCE ON THE TOPIC “DIGITAL ECONOMY, INNOVATIVE THINKING AND EDUCATIONAL COMPETENCE IN THE ERA OF GLOBALIZATION: TOWARDS GLOBAL CITIZENSHIP”

December 22, 2025

Part 2

Toshkent – 2025

ISSN: 2181-3337

“Globallashuv davrida raqamli iqtisodiyot, innovatsion tafakkur va ta’lim kompetensiyasi: global fuqarolik sari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallar to‘plami, (2025-yil 22-dekabr) – T.: Science and Innovation, 2025.

Nashr etishda qatnashganlar:

Baxtiyor Rustamov, Gulira’no Rakhmatullayeva, Kozim Ergashov, Mansur Suyunkulov, Feruza Ollamurodova, Dilnoza Narzullayeva, Zulayxo Xakimova, Iqboloy Sobirova, Asila Khaydaraliyeva

Tahrir hay’ati a’zolari

Ishmanova Dinara Nurmamad qizi	*Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), rektor*
Abdurasulov Javlon Abdurayim o‘g‘li	*PhD nomzodi, O‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i*
Musayev Ozodjon Shakat og‘li	*Iqtisodiyot fanlari falsafa doktori (PhD), Xalqaro biznes va moliya kafedra mudiri*
Tursunov Rasul Tairovich	*Xalqaro biznes va moliya kafedra dotsenti*
Umarova Muqaddas Abbasovna	*Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), kafedra professori*
Ismailov Murad Boltabayevich	*ingliz tili fakulteti dekani*
Murodova Dilafruz Shokirovna	*ingliz tili fakulteti kafedra mudri*
Gulyamova Nozima Xojimurod Qizi	*ingliz tili kafedra o‘qituvchisi*
Qurbonova Ruxsora Ergashevna	*ingliz tili kafedra o‘qituvchisi*
Pirnazarov Muslimbek Maksud o‘g‘li	*Axborot texnologiyalari va sun’iy intellekt fakultet dekani*
Yusupova Zaynabxon Djumanazarovna	*Dasturiy Injiniring kafedra o‘qituvchisi*

© Millat Umidi Universiteti
© “Science and Innovation” xalqaro ilmiy jurnali
© Mualliflar

KIRISH SO‘ZI

XXI asr insoniyat taraqqiyotida tub burilishlar davri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Globallashuv jarayonlari, raqamli texnologiyalarning misli ko‘rilmagan sur’atlarda rivojlanishi, sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar (Big Data) va innovatsion yechimlarning jahon miqyosida joriy etilishi iqtisodiy tizimlar, ta’lim modellari hamda ijtimoiy munosabatlarning mazmun-mohiyatini tubdan o‘zgartirmoqda. Bunday sharoitda jamiyatning barqaror rivoji, inson kapitalining sifat jihatidan yangilanishi va global muammolarga moslashuvchan yondashuvlarni shakllantirish dolzarb vazifaga aylanmoqda. Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida dunyo taraqqiyoti mutlaqo yangi bosqichga ko‘tarilmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, sun’iy intellekt, raqamli platformalar, innovatsion iqtisodiy modellar hamda bilimga asoslangan jamiyat shakllanishi global miqyosda davlatlar va jamiyatlar rivojlanishining asosiy mezoniga aylanmoqda. Ushbu jarayonlar nafaqat iqtisodiy munosabatlarni, balki inson tafakkuri, ta’lim tizimi va fuqarolik mas’uliyatining mazmunini tubdan o‘zgartirmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “bugungi dunyoda g‘olib bo‘lish uchun bilimli, zamonaviy fikrlaydigan va raqamli texnologiyalarni chuqur egallagan kadrlar zarur”. Aynan shu bois mamlakatimizda raqamli iqtisodiyot, innovatsion tafakkur va ta’lim kompetensiyalarini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlariga aylantirilgan.

Prezidentimiz o‘z nutqlarida ta’lim va innovatsiyani taraqqiyotning eng muhim tayanchi sifatida ko‘rsatib, “ta’lim – bu kelajakka kiritiladigan eng katta sarmoya” ekanini alohida ta’kidlaydi. Yangi O‘zbekistonni barpo etish jarayonida ilm-fan, oliy ta’lim va innovatsiyalarni rivojlantirmasdan turib, barqaror iqtisodiy o‘sish va global raqobatbardoshlikka erishib bo‘lmasligi qat’iy e’tirof etilmoqda.

Globallashuv sharoitida raqamli iqtisodiyot nafaqat texnologik yangilanish, balki jamiyat tafakkurining yangilanishini ham talab etadi. Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida qayd etilganidek, raqamli bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lmagan jamiyat kelajak taraqqiyotidan chetda qolib ketadi. Shu bois, ta’lim tizimini zamonaviy kompetensiyalarga asoslash, yoshlarni innovatsion fikrlashga yo‘naltirish va global jarayonlarga moslashuvchan kadrlar tayyorlash dolzarb vazifaga aylangan.

Innovatsion tafakkur bugungi kunda shaxsiy muvaffaqiyat bilan bir qatorda, milliy va global taraqqiyot omili sifatida qaralmoqda. Prezidentimiz ta’kidlaganidek, “innovatsiya – bu faqat texnologiya emas, balki yangicha fikrlash, yangicha boshqaruv va yangicha yondashuvdir”. Shu nuqtai nazardan, innovatsion tafakkur va raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish masalasi ta’lim tizimining barcha bosqichlarida ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

MILLAT UMIDI universiteti va “Science and Innovation”xalqaro ilmiy jurnallar portali hamkorligida tashkil etilgan **“Globallashuv davrida raqamli iqtisodiyot, innovatsion tafakkur va ta’lim kompetensiyasi: global fuqarolik sari”** mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya ana shu strategik maqsadlar va davlat siyosati ustuvor yo‘nalishlari bilan uyg‘un holda tashkil etilmoqda. Mazkur konferensiya ilmiy hamjamiyat, ta’lim sohasi vakillari va amaliyotchi mutaxassislar o‘rtasida samarali muloqotni yo‘lga qo‘yishga xizmat qiladi.

Prezidentimiz BMT Bosh Assambleyasi minbaridan so‘zlagan nutqida global muammolarni hal etishda ta’lim va ma’rifatning o‘rni beqiyos ekanini, yoshlarni global fuqarolik ruhida tarbiyalash muhim vazifa ekanini alohida ta’kidlagan. Global fuqarolik tushunchasi

bugungi kunda insonning nafaqat o‘z mamlakati, balki butun insoniyat oldidagi mas’uliyatini anglashini, barqaror rivojlanish, tinchlik va hamkorlik g‘oyalariga sodiqligini ifodalaydi.

Konferensiya doirasida muhokama etilayotgan masalalar – raqamli iqtisodiyot, innovatsion tafakkur, kompetensiyaviy ta’lim va global fuqarolik – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi bilan bevosita bog‘liqdir. Ushbu strategiyada inson kapitalini rivojlantirish, ta’lim sifatini oshirish va raqamli transformatsiyani jadallashtirish asosiy ustuvor yo‘nalishlar sifatida belgilangan.

Globallashuv va raqamli transformatsiya jarayonlari zamonaviy jamiyat taraqqiyotining hal qiluvchi omiliga aylanib, iqtisodiyot, ta’lim va ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida sifat jihatidan yangi yondashuvlarni taqozo etmoqda. Raqamli iqtisodiyotning jadal rivoji, innovatsion texnologiyalarning keng joriy etilishi hamda bilimga asoslangan jamiyat shakllanishi sharoitida inson kapitalining sifati va ta’lim kompetensiyalarining rivojlanganlik darajasi davlatlar raqobatbardoshligining asosiy mezoniga aylanmoqda.

Mazkur respublika ilmiy-amaliy konferensiya doirasida olib borilgan ilmiy munozaralar va taqdim etilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, raqamli iqtisodiyot, innovatsion tafakkur va kompetensiyaviy ta’lim o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, ularning uyg‘un rivoji barqaror taraqqiyot va global integratsiyaning muhim sharti hisoblanadi. Ayniqsa, ta’lim tizimida innovatsion yondashuvlarni joriy etish, raqamli savodxonlikni oshirish va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish masalalari ilmiy jihatdan asoslab berildi.

Konferensiya materiallari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida belgilangan ustuvor yo‘nalishlar - inson kapitalini rivojlantirish, ta’lim sifatini oshirish, raqamli transformatsiyani jadallashtirish va innovatsion muhitni mustahkamlash bilan to‘liq uyg‘un ekanini yana bir bor tasdiqlaydi. Tadqiqot natijalari milliy taraqqiyot bilan bir qatorda, global muammolarga ilmiy yondashuv asosida yechim topish zaruratini ham ochib berdi.

Shuningdek, konferensiya doirasida global fuqarolik tushunchasining mazmun-mohiyati chuqur tahlil qilinib, uni shakllantirishda ta’lim, madaniyatlararo muloqot, axborot ochiqligi va ijtimoiy mas’uliyatning o‘rni alohida e’tirof etildi. Global fuqarolik bugungi kunda shaxsning nafaqat milliy, balki umuminsoniy qadriyatlar asosida fikrlashi, barqaror rivojlanish, tinchlik va hamkorlik g‘oyalariga sodiqligini ifodalovchi muhim ijtimoiy kompetensiya sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Konferensiya yakunlari shuni ko‘rsatadiki, raqamli iqtisodiyot sharoitida ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, innovatsion tafakkurni rivojlantirish va global fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirish kompleks, tizimli va uzluksiz yondashuvni talab etadi. Bu jarayonda ilm-fan, ta’lim muassasalari, davlat va xususiy sektor hamda fuqarolik jamiyati institutlari o‘rtasidagi hamkorlik muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, ushbu ilmiy-amaliy konferensiya natijalari raqamli jamiyat sharoitida ta’lim va iqtisodiyot rivojini ta’minlash, innovatsion salohiyatni oshirish hamda global fikrlovchi, raqobatbardosh va mas’uliyatli fuqarolarni tarbiyalash yo‘lida muhim ilmiy-uslubiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Konferensiya to‘plamida jamlangan ilmiy g‘oya va tavsiyalar Yangi O‘zbekistonning barqaror taraqqiyotini ta’minlash, uning jahon hamjamiyatidagi munosib o‘rnini mustahkamlashga munosib hissa qo‘shishiga ishonch bildiramiz.

III

TIL KOMPETENSIYASI, MADANIYATLARARO MULOQOT VA INKLUSIV TA’LIM MASALALARI

* * *

ISSUES OF LANGUAGE COMPETENCE, INTERCULTURAL COMMUNICATION, AND INCLUSIVE EDUCATION

МАМЛАКАТ ИЖТИМОИЙ-ИҚТИСОДИЙ САЛОҲИЯТИНИ РЕАЛ АНИҚЛАШДАГИ АҲАМИЯТИ

А.А. Набиходжаев[1], М.А.Умарова[2]
[1]ТДИУ Иқтисодий статистика кафедраси доценти, и.ф.н;
[2]МУУ Бизнес бошқаруви кафедраси профессори и.ф.д.
https://doi.org/10.5281/zenodo.18185959

Аннотация. *Ушбу мақолада валюталарнинг харид қилиш қобилияти тушунчаси, унинг аҳамияти ва хориж амалиёти таҳлил қилинган. Валюталарнинг харид қилиш қобилиятини шакллантириш услубиёти, халқаро тавсиялар, шунингдек, мамлакат ижтимоий-иқтисодий салоҳиятини реал аниқлашдаги аҳамияти очиб берилган.*

Калит сўзлар: *ялпи ички маҳсулот (ЯИМ), халқаро таққослашлар дастури (ХТД), миллий валюталарнинг ҳарид қилиш қобилияти (ВҲҚҚ), ўртача нарх, товар ва хизматлар тўплами.*

Аннотация. *В данной статье анализируется понятие покупательной способности валют, его значение и зарубежная практика. Раскрыта методология формирования покупательной способности валют, международные рекомендации, а также ее значение в реальном определении социально-экономического потенциала страны.*

Ключевые слова: *валовой внутренний продукт (ВВП), программа международных сопоставлений (ПМС), паритет покупательной способности (ППС) национальных валют, средняя цена, набор товаров и услуг.*

Annotation. *This article analyzes the concept of purchasing power of currencies, its meaning and foreign practice. The methodology of the formation of the purchasing power of currencies, international recommendations, as well as its significance in the real determination of the socio-economic potential of the country are revealed.*

Key words: *gross domestic product (GDP), international Comparison program (ICP), purchasing power parity (PPP) of national currencies, average price, set of goods and services.*

Кириш. Халқаро макроиқтисодий таққослашларнинг асосий мақсади турли мамлакатлардаги ялпи ички маҳсулот (ЯИМ) ва бошқа миллий ҳисоблар тизимининг (МҲТ) агрегатларини бир хил валютага келтириб тўғридан-тўғри таққослашдир. Ушбу вазифани ечишда миллий валюталарнининг расмий алмашув курсларига эмас, балки валюталарнинг хақиқий ҳарид қилиш қобилиятларини (ҲҚҚ) қўллашга устунлик берилган. ЯИМ маълум даврда айрим мамлакатлар иқтисодий ривожланиш даражаларини таққослашда фойдаланилади. Ушбу кўрсаткич шунингдек, иқтисодий фаолиятнинг пировард натижасини ифодаловчи агрегат ҳисобланганлиги сабабли халқаро таққослашларга мос келадиган кўрсаткичдир.

Усуллар. МҲТда ЯИМни ҳисоблашда турли ёндошишлар мавжуд бўлгани учун, Халқаро таққослашлар дастурида (ХТД) товар ва хизматлардан пировард фойдаланиш усулини қўллашга келишиб олинган. Шунинг учун “ЯИМдан фойдаланиш билан боғлиқ харажатлар” (ёки оддийгина “харажатлар”) атамаси ХТДда энг кўп қўлланилади ва ЯИМни ҳисоблашнинг қайси усулига устунлик берилганлигига урғу беради. Харажатлар

турли товар ва хизматлар харид қиладиган (ёки оладиган) пировард истеъмолчиларга хосдир.

Натижалар. Макроиқтисодий қиймат кўрсаткичларини халқаро таққослашда иккита асосий муаммони ҳал қилиш талаб қилинади:

1. Таққосланаётган кўрсаткичларнинг иқтисодий мазмунида бир хилликка эришиш.

2. Кўрсаткичларни миллий валюталардан бир хил пул бирлигига ўтказиш методини танлаш, яъни таққослаш натижаларини ҳисоблаш методини танлаш.

Биринчи муаммо халқаро андоза таснифлар ва ягона методологияни қўллаш натижасида ечилиши мумкин.

Иккинчи муаммо (ҳисоблаш формуласи, вазнлари, хусусий индексларни умумлаштириш усулларини ва ҳ.к. танлаш) ўтказилаётган таққослашнинг иқтисодий мазмуни, мақсади, вазифалари, дастлабки ахборотлари (унинг батафсиллиги, аниқлиги, таққосламалиги), тақдим қилинадиган натижаларга аналитик талаблар билан белгиланади.

Иккинчи жаҳон урушидан кейин шаклланган валюта курслари тизими 1960 йиллардан бошлаб, айниқса 1970 йиллар бошида Бреттон-Вуд битимининг барҳам топганидан сўнг ва сузиб юрувчи ва белгиланган валюта курслари яратилиши билан макроиқтисодий қиймат кўрсаткичларни таққослаш ишларида қониқарли натижа бермай қўйди, чунки валюта курслари тизими энди фақат ташқи иқтисодий фаолият соҳасига хизмат кўрсатиш билан чегараланиб қолган эди.

Ҳозирги валюта курслари йил, ой ва кун давомида тебраниб туриши мумкин. Унга турли сиёсий ва конъюнктурадаги ўзгаришлар сабаб бўлгани учун бундай тебранишлар валюталар харид қилиш қобилиятининг реал ўзгаришини ифодалай олмайди. Шунинг учун 1950 йиллар ўрталаридан бошлаб миллий валюталарда ҳисобланган кўрсаткичларни ягона таққослама валютага ўтказишда харид қилиш қобилиятидан (ХҚҚ) фойдаланила бошланди.

Агар динамика нарх индекслари битта мамлакат валютасининг ХҚҚни вақт бўйича ўзгаришини ўлчаса, ХҚҚ паритети турли мамлакатлардаги валюталарнинг худудий ХҚҚни ўлчайди. Бунда ХҚҚ паритетининг бир қанча ўзига хос хусусиятлари мавжуд:

1. Турли миқёсдаги миллий иқтисодиётга эга бўлган мамлакатларни таққослаш мумкин.

2. Таққослаш базис йили давомида амалга оширилади. Ҳозирги вақтда макроиқтисодий кўрсаткичларни халқаро таққослашларда товарлар-вакиллари нархлари асосида ҳисоблаган индекс методи қўлланилади ва ХҚҚ паритети аниқланади.

БМТнинг Халқаро таққослашлар Дастури 1968 йилдан бошланган бўлиб, унинг биринчи маърузаси 1975 йилда чоп этилган. Маърузада қўлланилган метод моҳияти ва мазмуни батафсил ёзилган ва 10 та мамлакат (Венгрия, Ҳиндистон, Италия, Кения, Колумбия, Буюк Британия, АҚШ, Германия (1990 йилгача бўлган ҳудуд), Франция ва Япония) бўйича 1967 ва 1970 йиллар учун таққослашлар натижалари эълон қилинган. Ушбу тадқиқотда ер юзининг барча қитъаларидан турли иқтисодий (социалистик ва капиталистик) тизимли мамлакатлар қатнашган ва кўп томонлама таққослаш методологияси қўлланилган.

1967 йилдаги таққослашларда 10 та мамлакат қатнашган бўлса, 1970 ва 1973 йилларда - 16 та мамлакат, 1975 йилда - 34 та мамлакат, 1980 йилда – 60 та мамлакат ва 1985 йилда – 64 та мамлакат қатнашган. 1990 йилда Европа қитъасидаги 40 та ва 1993 йилда 86 та мамлакат бўйича таққослаш ишлари амалга оширилган.

1980 йилдан бошлаб таққослаш ишларида қатнашаётган мамлакатлар сони ошиб кетганлигини ҳисобга олиб, уни минтақа (регион) даражасида олиб боришга киришилди.

1993 йил дунё миқёсида олиб борилган таққослашларда юқорида қайд қилинганидек, 86 та мамлакат қатнашган бўлса, улардан 24 таси дунё миқёсида энг ривожланган мамлакатлар, 23 таси Марказий ва Шарқий Европа ҳамда Марказий Осиё мамлакатлари, 22 таси Африка мамлкатлари, 17 таси Шарқий Осиё ва Океания мамлакатлари бўлган.

Минтақа нуқтаи назарида мамлакатлар қуйидаги гуруҳларга ажратилган:

I. Гурух. 24 та энг ривожланган OECDга аъзо мамлакатлар.

II. Гуруҳ. Европа гуруҳи (ривожланган мамлакатлардан ташқари):

2A гуруҳи – Австрия, Польша, Чехия, Словакия, Венгрия, Словения, Хорватия, Руминия, Болгария, Беларусь, Россия ва Украина.

2B гуруҳи – Финляндия, Латвия, Литва ва Эстония.

2C гуруҳи – Туркия, Арманистон, Озарбайжон, Грузия, Қозоғистон, Қирғизистон, Тожикистон, Туркманистон ва Ўзбекистон.

2D гуруҳи – Руминия ва Молдова.

2A гуруҳига киритилган мамлакатлар таққослаш учун марказ ва координатор қилиб танлаб олинган Австрия мамлакати билан иккиёқлама таққослашларни амалга оширишган, бошқа гуруҳдагилар эса биринчи турган мамлакат билан худди шундай таққослашларни амалга оширишган. Ўз навбатида бошқа мамлакатлар ушбу биринчи турган мамлакатлар орқали Австрия билан таққосланганлар.

Мунозара. Халқаро таққослаш жараёнида ўзаро боғланган иккита масала ечилади:

1. Нархлардаги фарқлар таъсирини чеклаш учун харид қилиш қобилияти аниқланади.

2. “Реал ҳажмлар” аниқланади.

Юқорида қайд қилинганидек, харид қилиш қобилияти ўзига хос товар ва хизматлар савати бўйича нархлар нисбати орқали ҳисобланади ва ўзига хос дефлятор бўлиб хизмат қилади. Бундай сават рўйҳати олдиндан тайёрланиб, унга ЯИМ пировард истеъмоли таркибига кирувчи (уй хўжаликлари истеъмоли, инвестицион товарлар (машина ва ускуналар, қурилиш ишлари)) барча товарлар ва хизматлар тўпламидан ажратиб олинган товар ва хизматлар вакилларидан иборат бўлади. Саватга киритиладиган товар (хизмат) вакилларини танлаш масаласининг малакали тарзда ҳал қилиниши халқаро таққослашларда ва ”реал ҳажм”ларни ҳисоблашда ишончли натижалар олишга имкон беради.

Товар (хизмат) вакилларини танлаш ва баҳолаш бир нечта босқичда амалга оширилади.

Биринчи босқичда асосий ишчи материаллари тайёрланади (товарлар рўйҳати, ҳар бир товар бўйича спецификацияларни танлаш, варақларни расмийлаштириш).

Иккинчи босқичда нархлар кузатилиб, сифатдаги ўзгаришлар тўғрисида ахборот йиғилади. Сўнгра вакил товарлар (хизматлар) рўйҳати ва уларнинг нархлари мувофиқлаштирилади. Фақат ушбу ишлар тугаллангандан кейингина индивидуал ва гуруҳ харид қилиш қобилиятини ҳисоблашга киришилади.

Шундай қилиб, халқаро таққослашларида қўлланиладиган асосий ёндашув борасида қуйидаги **хулосаларга** келиш мумкин:

- ҳар бир мамлакатнинг ЯИМ унинг пировард истеъмолни ташкил қилувчиларига кўра бир жинсли товар гуруҳларига бўлинади;
- ҳар бир товар гуруҳи бўйича танланган товарлар нархлари қайд қилинади ва турли мамлакатларда қайд қилинган нархларнинг ўртача нисбатлари ҳар бир товар гуруҳи бўйича ҳисобланади. Ушбу ўртача нархлар нисбатлари барча умумлаштириш даражаларидан тортиб ЯИМгача вазнланади ва ҲҚҚлари ҳисобланади;
- ушбу товар гуруҳларининг миллий қиймат кўрсаткичлари ”халқаро таққослама” кўрсаткичларга юқорида кўрсатилган ҲҚҚлари ёрдамида қайта ҳисобланади. Олинган кўрсаткичлар миллий валютада ифодаланган ”номинал миқдорлардан фарқли ўлароқ, ”реал миқдорлар” деб номланади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. «Расмий статистика тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси қонуни (ЎРҚ-707-сон Қонуни, 2021 йил 11 августда қабул қилинган). Халқ сўзи газетаси, 2021 йилнинг 12 август сони.
2. Маҳмудов Б. Миллий ҳисобчилик асослари. Ўқув қўлланма.– Т., Академия, 2003.
3. Набихўжаев А.А., Азизов М.Г., Хужакулов Х.Д., Система национальных счетов. Т., 1998.
4. Набихўжаев А.А., Маҳмудов Б.М., Насретдинова Ш.С., Молиявий дастурлаш. Т.: Молия: 2005.
5. Сиденко А.В., Башкатов Б.И., Матвеева В.М. Международная статистика. Учебник. М., Дело и Сервис, 1999.
6. Система национальных счетов 2008 Комиссия ЕС, МВФ, ОЭСР, ООН, Всемирный банк, 2022, т.1 и 2.
7. Соатов Н.М. Статистика. Дарслик.- Т., Абу Али ибн Сино, 2003.
8. Шодиев А., Ҳамраев М. Молия статистикаси, Т., 2003.

РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТДА ИҚТИСОДИЙ САМАРАДОРЛИКНИ ИФОДАЛОВЧИ СТАТИСТИК КЎРСАТКИЧЛАР ТИЗИМИ

М.А.Умарова
Миллат Умиди университети, “Бизнес бошқаруви” кафедраси профессори, и.ф.д.
https://doi.org/10.5281/zenodo.18186089

Аннотация. *Ушбу мақолада самара ва самарадорлик, миллий иқтисодиётнинг иқтисодий самарадорлиги, ишлаб чиқариш самарадорлигининг ўсиши ҳамда ишлаб чиқариш самарадорлигининг асосий кўрсаткичлари ҳақида батафсил сўз юритилади. Бунда давлат ёки бошқа бир иқтисодий марказ пул, молия-кредит ҳамда солиққа оид бошқарув ва муносабатлар асосида, миллий иқтисодиётнинг самарадорлигини оширишга хизмат қилиши ҳақида айтиб ўтилган.*

Калит сўзлар: *Ишлаб чиқариш, самарадорлик, миллий иқтисодиёт, меҳнат унумдорлиги, фондлар самараси, иқтисодий ўсиш суръатлари; аҳоли жон бошига ЯИМ.*

Аннотация. *В данной статье подробно рассмотрены эффективность и результативность, экономическая эффективность национальной экономики, рост эффективности производства и основные показатели эффективности производства. Указывается, что государство или иной экономический центр служит повышению эффективности национальной экономики на основе управления и отношений, связанных с деньгами, финансами, кредитом и налогообложением.*

Ключевые слова: *Производство, эффективность, национальная экономика, производительность труда, эффективность использования средств, темпы экономического роста; ВВП на душу населения.*

Abstract. *In this state, detailed reviews of efficiency and results, economic efficiency of the national economy, real efficiency of production and basic indicators of efficiency of production. Ukazyvaetsya, chto gosudarstvo ili inoy ekonomicheskiy tsentr slujit povysheniyu effektifnosti natsionalnoy ekonomiki na osnove upravleniya i atnosheniy, svyazannyx s dengami, finansami, kreditom i nalogooblojeniem.*

Keywords: *Production, efficiency, national economy, labor productivity, efficiency of use of funds, economic growth rates; GDP per capita.*

Кириш. Рақамли иқтисодиёт шароитида иқтисодиётнинг ривожланиш жараёнини, ундаги ўзгаришларни ва ушбу ўзгаришларнинг самарадорлигини баҳолаш учун муҳим аҳамиятга эга. Самарадорлик бугунги кунда инсон фаолиятининг бош тавсифларидан биридир. У иқтисодиёт фанининг энг муҳим категориясидир (тоифасидир).

Иқтисодий самарадорлик тўғрисидаги энг оддий тушунчани фойдали самара (натижа) ва сарф-харажатларни таққослаш натижасида ҳосил қилиш мумкин.

Ишлаб чиқариш самарадорлигининг кўтарилиши ишлаб чиқариш объектига киритилган хом ашё, материал, ёқилғи ва энергия, ишчиларга тўланадиган иш ҳақи кабиларга бўладиган сарф-харажатларининг ишлаб чиқарилган тайёр маҳсулот ҳажмига нисбатан секинроқ ортишини, яъни маҳсулот бирлигига бўлган сарфларнинг нисбатан қисқаришини талаб этади.

Алоҳида олинган хўжалик бирлигига тадбиқ этилувчи самарадорлик бутун иқтисодиёт масштабларидаги самарадорликка айнан ўхшаш эмас. Агар корхона ўз фаолиятини ишлаб чиқариш барча омилларининг минимал сарфлари билан амалга оширса, у ҳолда биз ишлаб чиқариш самарадорлиги ёки алоҳида хўжалик бирлигининг ишлаб чиқариш самарадорлиги тўғрисида фикр юритамиз.

Иқтисодий самарадорлик ижтимоий ишлаб чиқариш натижасини мавжуд чекланган ресурслардан фойдаланган холда жамиятнинг барча аъзолари эҳтиёжини мумкин қадар тўлиқроқ қондирилса - самарали деб ҳисобланади.

Миллий иқтисодиётнинг иқтисодий самарадорлиги – ҳеч бўлмаганда бир инсоннинг эҳтиёжини қондириш даражасини жамиятнинг бошқа бир аъзосининг ҳолатини ёмонлаштирмаган ҳолда кўтариш мумкин бўлмаган ҳолатдир. Бундай ҳолат Парето – самарадорлик ҳолати деб юритилади (италян иқтисодчиси В.Парето шарафига)

Таҳлил ва натижалар. “Самарадорлик” деганда бутун иқтисодиётда ёки алоҳида соҳа ҳамда корхона томонидан у ёки бу вақт оралиғида эришилган натижагина деб тушунилмаслиги лозим. Бу натижага самарадорлик деб эмас, балки самара деб тавсиф бериш тўғрироқ бўлади.

Самара салмоқли бўлиши мумкин, аммо унга катта сарфлар ва харажатлар эвазига эришилган бўлса, у ҳолда самарадорлик ўзгармай қолиши ва ҳатто пасайиши ҳам мумкин. Демак, бундан шундай хулоса чиқариш мумкинки, самара ва самарадорлик бир биридан фарқланади, чунки самарадорлик нафақат ишлаб чиқариш кўрсаткичларининг кўтарилиши тўғрисида далолат беради, шунингдек мана шу эришилган юқори кўрсаткичлар қандай қилиб (нималар ҳисобига) таъминланганини ҳам ҳисобга олиниши лозим. Самарадорлик – бу мутлақ миқдор эмас, балки нисбий миқдордир.

Бозор иқтисодиёти шароитида ишлаб чиқаришнинг энг юқори самарадорлиги инсонпарварлик (гуманизм) мақсадлар билан уйғунлашган бўлиши лозим. Бунда жамият ишлаб чиқаришга нисбатан бозорнинг маълум бошқариш функцияларини бажаради (эҳтиёж ва таклиф, мувозанатдаги нарх-наво ва бошқа механизмлар ёрдамида). Бунда давлат ёки бошқа бир иқтисодий марказ пул, молия-кредит ва солиққа оид бошқарув ва муносабатлар асосида, миллий иқтисодиётнинг самарадорлигини оширишга хизмат қилади. Масалан, маълум солиқнинг жорий қилиниши, истеъмолчи томонидан маҳсулот учун тўланувчи бозор нархини оширади ва ишлаб чиқарувчи томонидан олинувчи даромадни камайтиради, ва бу ўз навбатида, у ёки бу маҳсулотларнинг ишлаб чиқарилиши ва истеъмол қилинишини камайтиради. Булар ўртасидаги тафовут – фарқ солиқни ўрнатган давлатнинг фойдасига бўлади. Олинган даромадни давлат айрим товар ишлаб чиқарувчилар ёки аҳоли гуруҳларининг даромадларини текислаш, тартибга солиш мақсадида ёки аҳолига етишмаётган маҳсулотларни кўпайтириш учун қайта тақсимлаши мумкин. Шундай қилиб, жамиятга зарур бўлган ишлаб чиқариш ва тақсимлаш мутаносибликларини объектив равишда рағбатлантирувчи бозор механизми билан биргаликда, муайян мувозанат орқали жамият ишлаб чиқариш самарадорлигига таъсир кўрсатиши мумкин.

Ишлаб чиқариш самарадорлиги кўп томонлама хусусиятга эга. Самарадорликнинг намоён бўлиш моҳияти ва шаклларини иқтисодий тадқиқ этилиши самарадорлик намоён бўлишининг турли – туман аломатлари ва шаклларини ҳисобга олишни назарда тутади.

Жамият ишлаб чиқаришни ташкил этиш структурасини ҳисобга олган ҳолда мамлакатнинг турли йирик минтақалари самарадорлиги (бу минтақавий самарадорлик);

бир бутун иқтисодиёт ва унинг соҳалари, бирлашмалар, корхоналар, цех, бригада, гуруҳ ва шунингдек иқтисодиётнинг турли соҳаларида ишловчи алоҳида ишчиларнинг самарадорлиги каби самарадорликларга ажратиш мумкин. Халқаро муносабатлар структурасини назарда тутган ҳолда миллий ва интернационал самарадорликларга бўлиш мумкин.

Ҳозирги шароитларда ташқи иқтисодий алоқалар ва жаҳон хўжалиги самарадорлиги катта аҳамият касб этиб бормоқда, ва бу самарадорлик категориясини халқаро самарадорликка айлантиради. Барча мамлакатларнинг ҳозирги замон ривожланиш босқичлари ўзаро боғлиқликни ҳисобга олганда жаҳон хўжалик алоқаларининг кучайиши орқали тавсифланади.

Бугунги кунда сиёсий, техника – иқтисодий ва экологик ўзаро боғлиқликлар катта ўрин тутади. Булардан биринчисига мувофиқ, манфаатлар баланси, инсоният хавфсизлигининг умумий тизимини ишлаб чиқиш зарур. Иккинчисига кўра, ёпиқ миллий иқтисодиёт асосидаги ривожланишдан воз кечилиши лозим, акс ҳолда ягона жаҳон иқтисодий бўшлиғининг шаклланиш жараёнлари янада кучайиб кетиши мумкин. Жаҳон банкининг баҳолашича, жаҳонда ишлаб чиқарилган маҳсулотнинг деярли 28% халқаро айрибошлаш предмети бўлган. Учинчисига мувофиқ – дунё ривожланишининг салбий томонларини енгиб ўтиш, ишлаб чиқаришнинг заҳарли ва зарарли чиқиндиларини атроф-муҳит ва инсоният учун ҳалокатли бўлган чиқиндиларни қайта ишлаб, уларни зарарсизлантириш учун кучларни бирлаштирилиши лозим.

Хулоса ва таклифлар. Ишлаб чиқариш самарадорлигининг ўсиши – объектив равишда амал қилувчи, тасодифий бўлмаган, балки қонуний, турғун ва такрорланувчи жараёндир. Бунда, жамият маданият соҳасида қанчалик ривожланишга эришган бўлса, ишлаб чиқариш самарадорлигининг ўсиши шунчалик муҳим бўлиб боради, чунки ишлаб чиқариш сарф – харажатларини иқтисод қилишнинг зарурлиги эҳтиёжи тобора ортиб боради.

Ишлаб чиқаришнинг мақсади бўлиб жамият барча аъзоларининг талаб ва эҳтиёжларини қондириш ҳисобланади ва бунда асосий эътибор моддий эмас, балки ижтимоий натижага қаратилади.

Ишлаб чиқариш самарадорлигининг энг асосий кўрсаткичи бўлиб меҳнат унумдорлиги (ЯИМнинг иқтисодиётда иш билан бандлар сонига нисбати); фондлар самараси (ЯИМни асосий фондлар ва айланма воситаларнинг ўртача йиллик қийматига нисбати); фонд сиғими (фондлар самарасига тескари кўрсаткич); аҳоли жон бошига ЯИМ; иқтисодий ўсиш суръатлари; ЯИМнинг 1 сўмига бўлган ишлаб чиқариш сарфлари ҳамда моддий, молиявий ва меҳнат сарфларини тежами.

Трансформация шароитида иқтисодиёт самарадорлигини баҳолаш учун мазкур кўрсаткичлар тизимидан комплекс равишда фойдаланиш ва уларнинг динамикасини таҳлил қилиш муҳимдир. Бу иқтисодий ривожланиш жараёнини тушунишга ва самарали иқтисодий сиёсатни амалга оширишга ёрдам беради.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Шодиев. Т.Ш., Деҳқонов. М. Иқтисодий самарадорликни аниқлашнинг кластер усули “Иқтисодиѐт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 5, июль, 2012 йил.

2. Жумаева. С.Н. (2012) Инвестициялар самарадорлиги ва уни баҳолаш услублари// Иқтисод ва молия №11,
3. Литвинова. М.В., Лукашина Е.В. (2015) Оценка эффективности бизнес процессов в торговле // “Экономика и социум” №2 (15)
4. Ражабов. И. (2006) Иқтисодиётни эркинлаштириш шароитида агроресурслар бозори мувозанати ва ишлаб чиқаришнинг самарадорлиги. Дис. иқтисод фанлари доктори. – Т.: -11 бет
5. Рашидов. Р.А. (2017) Пахта етиштириш иқтисодий самарадорлик кўрсаткичлари таҳлили ва тармоқ самарадорлигини ошириш йўналишлари “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 2, март-апрель.
6. Шерматов. О.А. (2006) Иқтисодиётни эркинлаштириш шароитида пахтачиликни ривожлантириш ва иқтисодий самарадорлигини ошириш йўллари. Дис. иқт. фан. ном. – Т.: (10-11 б.)

TURK VA O‘ZBEK PAREMIOLOGIYASIDA SUKUT VA UYQU SEMIOTIKASI

Abdug‘ofurova Durdona Muzaffar qizi
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Turkshunoslik oliy maktabi o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.18185734

Annotatsiya. *Ushbu tadqiqot turk va o‘zbek paremiologiyasida sukut va uyqu semiotikasini o‘rganadi, maqollarning madaniy qadriyatlar, kognitiv modellar va lingvistik dunyoqarashlarni qanday mujassamlashtirishiga e’tibor qaratadi. Tadqiqotda qiyosiy korpusga asoslangan tahlil orqali umuminsoniy tajribalarni ham, madaniyatga xos talqinlarni ham ochib beruvchi metaforik assotsiatsiyalar va takrorlanuvchi motivlar aniqlanadi. Maqolada madaniy semantika, pragmatika va korpus lingvistikasi usullarini uyg‘unlashtirish orqali sukunat donolik, ehtiyotkorlik va maxfiylik bilan, uyqu esa dam olish, salomatlik va zaiflik tushunchalarini ifodalashi yoritilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, maqollar madaniy bilimlarni saqlovchi, kognitiv tuzilmalarni shakllantiruvchi va avlodlar o‘rtasida jamoaviy donolikni yetkazuvchi til ashyosi vazifasini bajaradi.*

Kalit so‘zlar: *paremiologiya, semiotika, sukunat, uyqu obrazlari, madaniy semantika, qiyosiy tahlil.*

Abstract. *This study investigates the semiotics of silence and sleep in Turkish and Uzbek paremiology, focusing on how proverbs encapsulate cultural values, cognitive models, and linguistic worldviews. Through a comparative corpus-based analysis, the research identifies metaphorical associations and recurring motifs that reveal both universal human experiences and culture-specific interpretations. By integrating methods from cultural semantics, pragmatics, and corpus linguistics, the paper highlights how silence is linked to wisdom, prudence, and secrecy, while sleep conveys notions of rest, health, and vulnerability. The findings demonstrate that proverbs function as linguistic artifacts preserving cultural knowledge, shaping cognitive frameworks, and transmitting collective wisdom across generations.*

Keywords: *paremiology, semiotics, silence, sleep imagery, cultural semantics, comparative analysis*

Ushbu maqola paremiologiyaning qiziqarli dunyosiga chuqur kirib boradi, xususan, turk va o‘zbek madaniyatidagi sukunat va uyqu bilan bog‘liq maqollar tarkibidagi nozik semiotikalarni o‘rganadi. Maqollar jamiyat donishmandligining kristallashgan ifodasi sifatida jamoaning qadriyatlari, e’tiqodi va dunyoqarashining boy ko‘rinishi bo‘lib, ham didaktik, ham kommunikativ funksiyalarni bajaradi. Ushbu tadqiqot qiyosiy tahlil orqali ushbu ikki turkiy tilning sukunat va uyqu tushunchasida aks etgan madaniy o‘ziga xosliklarni va umuminsoniy tajribalarni ochib berishga qaratilgan. Bunday izlanish nafaqat paremiologik birliklarning lingvistik xususiyatlarini yoritadi, balki ularning ma’nosi va qo‘llanilishini shakllantiruvchi chuqur madaniy asoslarni ham yoritadi. Tadqiqotda turk va o‘zbek frazeologik dunyoqarashlari o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlarni aniqlash, ushbu fundamental insoniy holatlar haqidagi o‘ziga xos va umumiy qarashlarni aniqlash maqsadida lingvomadaniy tahlildan foydalanilgan.

Bunday yondashuv ushbu xalqlarning an’anaviy iboralari orqali dam olish va osoyishtalik tushunchalarini qanday idrok etishi va ifodalashini chuqurroq tushunish imkonini beradi. Darhaqiqat, maqollar folklorning ixcham va yorqin janri sifatida millatning mentaliteti va madaniy qiyofasini o‘zida mujassam etadi, umumiy qadriyatlar va kognitiv tuzilmalar xazinasi vazifasini bajaradi. Turk va o‘zbek paremiologiyasiga bag‘ishlangan ushbu tadqiqot ularning o‘ziga xos madaniy izlarini tushuntirib, ham insoniy tajribalarni, ham sukunat va uyquning o‘ziga xos madaniy talqinlarini ochib beradi. Bundan tashqari, ushbu til birliklarini aynan paremiologiya doirasida o‘rganish orqali ushbu jamiyatlarning jamoaviy ongsizligiga asos bo‘lgan chuqur madaniy arxetiplar va ramzlarni aniqlash mumkin. Ushbu tadqiqot turk va o‘zbek maqollari bo‘yicha maxsus mavzularga bag‘ishlangan qiyosiy tadqiqotlarning kamligi, hozirgi tadqiqot maydonini kengaytirish orqali etnolingvistika va paremiologiyaga o‘ziga xos hissa qo‘shishi bilan asoslanadi. U bu bo‘shliqni til va konseptual tenglik hamda tafovutlarni sinchkovlik bilan tahlil qilish orqali bartaraf etishga intiladi, bu esa sukunat va uyqu ushbu alohida, ammo bir-biriga bog‘liq madaniy kontekstlarda qanday ifodalanishini ko‘rsatadi. Tegishli maqollarning semantik maydonlari va pragmatik vazifalarini o‘rganish orqali ushbu tadqiqot turk va o‘zbek madaniyatlaridagi sukut va uyquning sotsiolingvistik jihatlarini yoritib beradi va shu orqali ularning olamning tegishli lisoniy manzaralari haqidagi tasavvurlarimizni boyitadi. Ushbu qiyosiy tahlil donolik, ehtiyotkorlik va zaiflik kabi madaniy ahamiyatga ega tushunchalarning sukut bilan, mahsuldorlik, salomatlik va ma’naviy tushunchalarning esa ushbu lingvistik an’analarda uyqu bilan bog‘liq jihatlarini yoritib beradi. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, ko‘pincha kommunikativ frazeologik birliklar sifatida qaraladigan maqollar ushbu turkiy jamiyatlarda til, madaniyat va inson his-tuyg‘ulari o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni o‘rganish uchun ajoyib lingvistik nuqtai nazarni ta’minlaydi. Ushbu tadqiqotning metodologik asoslari ushbu maqollarning shakliy va semantik xususiyatlarini tizimli tahlil qilish uchun madaniy semantika, pragmatika va korpus lingvistikasini birlashtiradi.

Xususan, sukut va uyqu bilan bog‘liq turk va o‘zbek maqollarining keng qamrovli korpusini to‘plash va izohlash, so‘ngra ushbu til artefaktlarini batafsil tematik va tarkibiy tahlil qilish ko‘zda tutilgan. Ushbu korpusga asoslangan yondashuv takrorlanuvchi motivlar va metaforik assotsiatsiyalarni aniqlaydi hamda madaniy e’tiqodlarni ifodalashning lingvistik vositalarini o‘rganuvchi tadqiqotlarga o‘xshab, har ikki tilda ma’lum tushunchalarning tarqalishini miqdoriy jihatdan baholaydi. Masalan, turli tillardagi assotsiativ maydonlarni tahlil qilishda shunga o‘xshash metodologiyalar qo‘llanilgan bo‘lib, ular mavhum tushunchalarning ham universal, ham madaniyatga xos tasavvurlarini ko‘rsatadi. Bunday yondashuv paremiologik birliklar orqali implitsit madaniy bilimlar qanday singdirilganligi va yetkazilganligini tushunish uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lib, madaniyatlararo muloqot uchun fon bilimlarini hisobga olish zarurligini ta’kidlaydi. Shu sababli, ushbu tadqiqotda korpusga asoslangan metodologiya qo‘llanilib, o‘rnatilgan maqollar va yangi paydo bo‘layotgan tanga zarb qilish naqshlari o‘rtasidagi uzluksizlik tekshiriladi, bu toifalar o‘rtasidagi aniq chegara juda o‘zgaruvchan bo‘lishi mumkinligi e’tirof etiladi.

Mavjud adabiyotlarni har tomonlama ko‘rib chiqish paremiologik tadqiqotlarning boy an’anasini ochib beradi, ularning aksariyati milliy o‘ziga xoslik va dunyoqarashning aks etishi sifatida maqollarning madaniy singdirilishiga qaratilgan [Yevgrafova, 2020:2; Manakin, 2015:99]. Biroq, maqollarning madaniy ahamiyati keng e’tirof etilishiga qaramay [Lomotey, 2021:88], turkiy tillar bo‘ylab sukunat va uyqu mavzularini maxsus o‘rganuvchi qiyosiy tahlillarda sezilarli bo‘shliq mavjud. Bu bo‘shliq turk va o‘zbek paremiologiyasida ushbu

fundamental insoniy tajribalar qanday tushunilishi va ifodalanishini o‘rganish, ularning madaniy kognitiv asoslari haqida noyob tushunchalar berish uchun maxsus tadqiqotlar o‘tkazish zarurligini ta’kidlaydi [Ratushnaya, 2022:35]. Avvalgi tadqiqotlarda ingliz maqollarida mehrni o‘rganishdan tortib [Nugraha, 2023:5366-5368], ingliz va o‘zbek maqollarining lingvomadaniy xususiyatlarini tahlil qilishgacha [Kuchkinov, 2020:39-40], maqollarning turli kontekstlardagi lingvomadaniy xususiyatlari keng o‘rganilgan bo‘lsa-da, jimlik va uyqu bilan bog‘liq to‘g‘ridan-to‘g‘ri taqqoslash asosan e’tibordan chetda qolgan. Ushbu qiyosiy etnolingvistik tadqiqot har ikki tilning maqollari bo‘yicha keng qamrovli diskurs tahlilini o‘tkazish orqali ushbu bo‘shliqni to‘ldirish va shu orqali paremiologiya doirasidagi tadqiqot imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan [Ramlan, 2021:228-230].

Shu sababli, hozirgi tadqiqot ushbu mavzular atrofidagi lingvistik manzarani sinchkovlik bilan o‘rganib, umuminsoniy tajribalar va madaniyatga xos talqinlarni farqlash uchun qiyosiy paremiologiya ma’lumotlaridan foydalanadi [Mohammed, 2021]. Shuningdek, u til hodisalarini madaniyatlararo tahlil qilishda qo‘llaniladigan metodologiyalarga tayanadi, maqollarning talqini va tarjimasini shakllantirishda madaniy kontekstning muhim rolini ta’kidlaydi [Mamatova, 2021:4-6; Sarsenbaeva, 2020:48-49]. Bu qiyosiy lingvistik asos, ayniqsa, turk va o‘zbek jamiyatlarining umumiy tarixiy va madaniy yo‘nalishlarini hisobga olgan holda yaqqol namoyon bo‘ladi, shunga qaramay, bu tushunchalarning o‘ziga xos zamonaviy til ifodalari mavjud [Bondarenko, 2022:235]. Bunday yondashuv bir qarashda universal tuyulgan ushbu tushunchalarning individual madaniy tajribalar nuqtai nazaridan qanday farqlanishini va qayta talqin qilinishini chuqurroq tushunishga yordam beradi [Rustamov, 2024:74]. Ushbu qiyosiy yondashuv maqollardan tashqari frazeologik birliklarni tahlil qilishda ham qo‘llaniladi, chunki bu lingvistik tuzilmalar xalqning tarixi, an’analari va e’tiqod tizimlarini qamrab olish qobiliyati bilan e’tirof etiladi [Chulanova, 2023:40]. Shunday qilib, ushbu tadqiqot maqollarga singdirilgan jamoaviy donolikning jamiyat qadriyatlari va ushbu chuqur shaxsiy hamda madaniy vositachi insoniy holatlarga munosabatini qanday aks ettirishini o‘rganish orqali kengroq etnolingvistika sohasiga hissa qo‘shadi.

Mazkur ilmiy ishni tayyorlash jarayonida turk va o‘zbek xalqlarining sukut va uyqu bilan bog‘liq maqollarini tizimli ravishda to‘plash, turkumlash va tahlil qilish, qiyosiy tahlilning ishonchli va empirik jihatdan asoslangan bo‘lishini ta’minlash uchun qo‘llaniladigan uslubiy asoslar o‘rganildi. Xususan, korpusni tanlash mezonlari, ma’lumotlarni ajratib olish tartibi va ushbu paremiologik birliklarni nozik tushunish uchun qo‘llaniladigan tahlil vositalari batafsil bayon etilgan. Tahliliy metodologiya turk va o‘zbek maqollarida sukunat va uyqu bilan bog‘liq takrorlanuvchi qonuniyatlar, metaforik kengaytmalar va madaniy ma’nolarni aniqlash uchun miqdoriy korpus lingvistikasi usullarini sifatli semantik va pragmatik tahlillar bilan birlashtirgan aralash usul yondashuvini o‘z ichiga oladi. Bu yondashuv madaniy o‘ziga xos talqinlarning go‘yoki o‘xshash til tuzilmalarida qanday namoyon bo‘lishini aniqlash va ushbu maqollarning tegishli madaniy kontekstlarda qanday pragmatik vazifalarni bajarishini tushunish uchun muhimdir.

Bundan tashqari, tadqiqot turk va o‘zbek maqollari o‘rtasidagi semantik va tarkibiy muvofiqlik darajalarini aniq belgilash uchun frazeologik ekvivalentlikni tahlil qilishning belgilangan asoslariga tayanadi [Solano, 2021:8]. Ushbu tizimli taqqoslash ushbu ikki turkiy tilning paremiologik an’analarini ajratib turadigan umumiy kognitiv universaliyalarni ham, madaniy o‘ziga xos talqinlarni ham aniqlashni osonlashtiradi [Lubis, 2018:254-256; Nguyen, 2020:79-81]. Bu bir madaniyatda boshqa madaniyatga qaraganda ko‘proq ahamiyatli bo‘lgan

qadriyat yo‘nalishlari va manba sohasi hodisalaridagi farqlar ularning tegishli paremiologiyalarida bu tushunchalarning o‘ziga xos ifodalanishiga qanday olib kelishini o‘rganishni o‘z ichiga oladi. Masalan, uyqu universal ravishda dam olishni ifodalashi mumkin bo‘lsa-da, uning paremiologik ifodasi bir madaniyatda qayta tiklanishni ta’kidlasa, boshqa bir madaniyatda zaiflik yoki qochish xususiyatini ko‘rsatishi mumkin.

Shuning uchun keyingi tahlilda ushbu keng qamrovli tadqiqotdan olingan xulosalar taqdim etiladi, maqollar mavzular bo‘yicha tasniflanadi va ularning turk va o‘zbek tillaridagi metaforik qurilishi hamda madaniy ohangdorligidagi qonuniyatlar aniqlanadi. Bu ularning tegishli paremiologiyalarida mavjud bo‘lgan umumiy semantik maydonlar va farqli madaniy urg‘ularni yoritib, sukunat va uyqu tushunchalari haqida nozik ma’lumotlarni taqdim etadi. Korpus tahlilining miqdoriy ma’lumotlari kontekstual qo‘llanishning sifatli talqinlari, ikki lingvistik an’ana o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlarni aniqlash bilan to‘ldiriladi. Bunday yondashuv madaniy o‘ziga xosliklar ushbu mavhum tushunchalarning majoziy xaritasini aniq lingvistik shakllarga qanday shakllantirishi haqida batafsil ma’lumot olish imkonini beradi va shu orqali paremiologik variatsiya haqidagi hozirgi tushunchani boyitadi. Masalan, sukut hamma joyda mushohada bilan bog‘liq bo‘lsa-da, turk maqollarida uning ifodasi donolikka moyil bo‘lishi mumkin, o‘zbek paremiologiyasida esa ehtiyotkorlik yoki maxfiylikni ta’kidlashi mumkin.

Bu nozik farqlanish tushunchalarni mujassamlashtirishning etnolingvistik farqlarini [Musolff, 2021:29] va har bir madaniyat doirasida yuzaga keladigan o‘ziga xos pragmatik tuzilmalarni tushunish uchun juda muhimdir. Ushbu qiyosiy tahlil nafaqat til o‘xshashliklarini, balki turk va o‘zbek jamiyatlarida sukunat va uyqu tushunchasini shakllantirishga asos bo‘lgan madaniy qadriyatlar va ijtimoiy me’yorlarni ham ochib beradi. Bu maqollar turli madaniyatlarda, xususan, sukunat va uyqu nuqtai nazaridan hissiyotning turli xil tushunchalarini qanday aks ettirishini o‘rganishni o‘z ichiga oladi. Masalan, his-tuyg‘ularning metaforik tushunchalari universal asosiy tajribaga ega bo‘lsa-da, ko‘pincha o‘ziga xos madaniy farqlanishlar bilan namoyon bo‘ladi, bu turli tillardagi hasadni o‘rganuvchi tadqiqotlarda isbotlangan. Shunday qilib, tadqiqot maqollarning madaniy bilimlar ombori sifatida xizmat qilishini o‘rganadi, bu esa ushbu turkiy tillarning umumiy kognitiv manzaralari va farqli madaniy yo‘nalishlari haqida ma’lumot beradi. Bundan tashqari, tahlil ushbu maqollar tarkibidagi tasviriy ifodalar kamdan-kam uchraydigan vaziyatlarni qanday aks ettirishi mumkinligini kengaytiradi, bu esa ushbu o‘ziga xos turdagi metaforalarning sabablari va ularning madaniy konseptualizatsiyani kengroq tushunishga qanday hissa qo‘shishi haqidagi savollarni ko‘taradi. Ushbu qiyosiy tahlil, shuningdek, lingvistik hodisalarning sof neyro-asosli tushuntirishlaridan farqli o‘laroq, ushbu paremiologik iboralarni shakllantirishda konseptual mujassamlik va neyron mexanizmlari o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni ko‘rib chiqadi, bu esa metafora haqidagi universalist da’volarga yanada ko‘proq e’tiroz bildiradi. Shuningdek, u ushbu madaniy modellarni talqin qilishda asos bo‘ladigan turli ijtimoiy-madaniy modellar va konseptual metaforalarni chuqur o‘rganadi, masalan, his-tuyg‘u atamalarining tana ichida qanday lokalizatsiya qilinishi yoki ma’lum tana-hissiyot assotsiatsiyalari orqali qanday ramkalashtirilishini ko‘rib chiqadi [Bash, 2023:669].

Shu sababli, ushbu tadqiqot insonning sukunat va uyqu tajribasini shakllantirishda til, madaniyat va bilish o‘rtasidagi murakkab o‘zaro ta’sirni chuqur tushunishga yordam beradi. U yuzaki til o‘xshashliklaridan ustun keladigan, chuqurroq konseptual va madaniy nozikliklarni ochib beradigan mustahkam tillararo taqqoslashni taklif etish orqali paremiologiyaga sezilarli hissa qo‘shishni maqsad qilgan. Bunday yondashuv ushbu lingvistik birliklarni talqin qilishda

fon bilimlari va madaniy kontekstning ahamiyatini ta’kidlaydi, bu esa madaniyatlararo muloqotda kognitiv jarayonlarning rolini ta’kidlaydigan asoslarga mos keladi.

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlar asosida topilmalar umumlashtirilib, aniqlangan paremiologik qonuniyatlarning madaniyatlararo tushunish va kognitiv tilshunoslik uchun natijalari muhokama qilinar ekan, Turkiya va O‘zbekistonning o‘ziga xos madaniy modellari sukunat va uyqu bilan bog‘liq tushunchalarning semantik kengayishiga qanday ta’sir ko‘rsatishi tanqidiy baholanib, ushbu modellarning paremiologik manzarani shakllantirish mexanizmlari batafsil ko‘rib chiqiladi. Ushbu muhokama, shuningdek, har bir xalqning o‘ziga xos tarixiy yo‘nalishlari va ijtimoiy tuzilmalari ushbu asosiy insoniy tajribalarning o‘ziga xos metaforik xaritalari va tushunchalariga qanday hissa qo‘shganini o‘rganadi.

Bu maqollarda mavjud idiomatiklik darajasini sinchkovlik bilan o‘rganishni o‘z ichiga oladi, ularning ma’nolari chuqurroq, madaniy jihatdan singdirilgan tushunchalarni yetkazish uchun tarkibiy qismlarining so‘zma-so‘z talqinlaridan qanday ustun ekanligini ko‘rsatadi. Bundan tashqari, u ushbu turg‘un iboralarning madaniy nutqni shakllantirish va har bir jamiyatda sukunat va uyqu haqidagi umumiy tushunchalarni abadiylashtirishdagi rolini ko‘rib chiqadi. Ushbu bo‘limda, shuningdek, konseptual metafora va madaniy bilishning kengroq nazariyalari doirasidagi natijalar tahlil qilinib, ushbu paremiologik tizimlar mavhum tushunchalarning tilda mujassamlashuviga qanday misol bo‘la olishi o‘rganiladi. Masalan, ko‘pincha jismoniy narsa yoki idish sifatida tasavvur qilinadigan sukunat turli madaniyatlarda turlicha qabul qilinishi mumkin, bu esa uning majoziy kengayishiga ta’sir ko‘rsatadi. Bundan tashqari, tahlil ushbu madaniy modellarning ma’lum til ifodalarida namoyon bo‘lishidan tashqari, til, bilish va madaniy amaliyotlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni ham yoritadi. Shuningdek, turk va o‘zbek paremiologiyasi o‘rtasidagi turli darajadagi konseptual ekvivalentlik va farqlanishlar lingvistik va madaniy aloqa va rivojlanishning kengroq qonuniyatlarini qanday aks ettirishi ko‘rib chiqiladi.

Shuningdek, bu paremiologik naqshlar tarixiy o‘zaro ta’sirlar va umumiy turkiy meros ta’sirida ushbu madaniyatlar o‘rtasida sukunat va uyqu tushunchasini shakllantirishda qanday yaqinlashuvlar va farqlar yuzaga kelgani o‘rganiladi. Shunday qilib, ushbu qiyosiy tadqiqot paremiologiyaga kiritilgan madaniy oldingi bilimlar madaniyatlararo muloqotning kognitiv yondashuvlariga mos keladigan mavhum tushunchalarni talqin qilish va tushunishga qanday ta’sir ko‘rsatishini yoritib beradi. Bundan tashqari, maqollar ushbu davlatlarga xos bo‘lgan ijtimoiy-madaniy qadriyatlarni aks ettirishi, ularning har bir til jamoasida jamiyat me’yorlari va individual xatti-harakatlarni shakllantirishdagi rolini ko‘rsatishi haqida so‘z yuritiladi. Bundan tashqari, u til jamoasining umumiy tajribalariga asoslangan ushbu o‘ziga xos tushunchalar nafaqat individual bilimlarni, balki butun til jamoasining kengroq milliy va madaniy tajribalarini ham o‘zida mujassam etishini o‘rganadi. Nihoyat, tadqiqot ushbu topilmalarning til, madaniyat va tafakkur o‘rtasidagi munosabatlar haqidagi kognitiv tilshunoslikdagi mavjud nazariyalarga qanchalik mos kelishi yoki ularga qanday qarshi chiqishini ko‘rib chiqadi, bu esa mujassamlashgan bilish va konseptual metaforani yanada nozikroq tushunishga yordam berishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, turk va o‘zbek paremiologiyasidagi sukut va uyqu semiotikasiga oid asosiy xulosalar umumlashtirilib, ularning o‘ziga xos metaforik manzaralari va konseptual asoslari haqida to‘liq ma’lumot berildi. U ushbu qiyosiy tahlilning paremiologiya va kognitiv tilshunoslikka qo‘shgan muhim hissasini yana bir bor ta’kidlaydi, turk va o‘zbek maqollarining o‘ziga xos madaniy va lingvistik xususiyatlari konseptualizatsiyani tushunish uchun boy

ma’lumotlar to‘plamini taqdim etishini ta’kidlaydi. Ushbu sintez madaniy va tarixiy kontekstlarning til ifodasiga, ayniqsa sukunat va uyqu kabi mavhum tushunchalarga nozik, ammo chuqur ta’sirini aniqlashda ko‘p omilli korpus tahlillarining ahamiyatini ta’kidlaydi. Pirovardida, ushbu tadqiqot madaniy modellarning nafaqat mavhum tushunchalarning tildagi ifodasini, balki ularning talqini asosida yotgan kognitiv jarayonlarni ham shakllantiruvchi murakkab yo‘llarini yoritib beradi. Ushbu asar til ifodalarining chuqur ildizlari mujassamlashgan tajribalar va madaniy bilimlarga borib taqalishi haqidagi g‘oyani mustahkamlaydi, sof shakliy semantik yondashuvlarga qarshi chiqadi. U metaforalarning mujassamlashgan tabiati haqida qo‘shimcha dalillar keltiradi, bunda mavhum tushunchalar hissiy va harakat tajribalariga asoslanadi, bu esa bilishning jismoniy asosini ta’kidlovchi nazariyalarga mos keladi.

Bundan tashqari, ushbu tadqiqot madaniy tilshunoslikning paremiologiya tahlili orqali til va madaniy konseptualizatsiya o‘rtasidagi murakkab munosabatni qanday ochib berishini chuqurroq tushunishga yordam beradi. U, shuningdek, metaforik tushunchalar, ayniqsa his-tuyg‘ular va mavhum g‘oyalar uchun, ko‘pincha madaniy kontekstda turli madaniyatlardagi o‘ziga xos kognitiv afzalliklar va tajribalarni ta’kidlab, soha xaritasida aks ettirilishini ko‘rsatadi. Ushbu tadqiqot turli tillarda ma’nolarning ifodalanishi va tushunilishiga turli xil lingvistik vositalar yordam berishi yoki to‘sqinlik qilishi mumkinligini ta’kidlaydi. Bundan tashqari, u mavhum tushunchalar uchun metaforik va metonimik ifodalarning ahamiyatiga tilga xos bo‘lgan madaniy modellar katta ta’sir ko‘rsatishini, ularning xaritalari va lingvistik ko‘rinishlari ko‘lamini yo‘naltirishini ta’kidlaydi. Ushbu keng qamrovli tahlil turk va o‘zbek tillarining paremiologik tizimlari umumiy turkiy ildizlarga ega bo‘lsa-da, ijtimoiy-madaniy rivojlanishning o‘ziga xos xususiyatlari tufayli o‘ziga xos metaforik ishlanmalarda farqlanishini ko‘rsatadi, bu esa pirovardida lingvistik nisbiylik va universal kognitiv mexanizmlar haqidagi keng qamrovli munozaraga hissa qo‘shadi. Nihoyat, ushbu batafsil ko‘rib chiqish nafaqat turkiy tillar haqidagi ilmiy tushunchani boyitadi, balki kelajakda paremiologiya va konseptual metaforaning madaniyatlararo tadqiqotlari uchun uslubiy asos yaratadi. Tadqiqot natijalari, shuningdek, maqollarda aks ettirilgan bunday madaniy modellarning kognitiv jarayonlarga qanday ta’sir ko‘rsatishi va ma’lum lingvistik jamoalarda voqelikni talqin qilishni qanday shakllantirishi haqida tushuncha beradi. Ushbu yondashuv semantik, pragmatik va ensiklopedik bilimlarni yagona kognitiv tizimga birlashtirishga urg‘u berishi bilan rasmiy semantik modellarga qarama-qarshi turadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Baş M. The conceptual nature of the Turkish emotion term ‘Heyecan’ // Language and Cognition. 2023. P.666-688.
2. Bondarenko A. Verbless and zero-predicate sentences: An English and Russian contrastive corpus study // HAL (Le Centre pour la Communication Scientifique Directe). 2022. 560 p.
3. Chulanova H.V., Vnuchkova V. English Phraseological Units as Representatives of National and Cultural Specificity // Fìlologìčnì traktati. 2023. № 2 (15). P.39-44.
4. Kuchkinov K.K., Kurbanova D.B., Shoinazarova V.K. Linguocultural Peculiarities of English Proverbs and Their Uzbek Equivalents. // Theoretical & Applied Science. 2020. № 10 (90). P.38-42.
5. Lomotey B.A., Csajbok-Twerefou I. A pragmatic and sociolinguistic analysis of proverbs across languages and cultures // Journal of Pragmatics. 2021. (182). P.86-91.

6. Lubis S. The Equivalence and Nonequivalence of Proverbs Across Cultures (Indonesian and English) // International Journal of English Linguistics. 2018. № 4 (8). P.253-261.
7. Mamatova M.F. Cross-Cultural Analysis: Representation of Some Aspects of a Parent-Child Relationship (on the Examples of English and Uzbek Proverbs) // SHS Web of Conferences. 2021. (100). P.1-6.
8. Manakin V. Proverb commonalities in different languages and its application to Asian Pacific communication // Journal of Asian Pacific Communication. 2015. № 1 (25). P. 97-116.
9. Mohammed T.M.Q., Abdullah I.H. Universality and Language Specificity: Evidence from Arab and English Proverbs // International journal of comparative literature and translation studies. 2021. № 1 (9). P.24-32.
10. Nguyen T.T.T. Cultural Features Reflected in Polish and Vietnamese Proverbs // Future Human Image. 2020. (13). P.76-87.
11. Nugraha D.S. The Apple of My Eye: Exploring the Affection Expressed in English Proverbs // Zenodo (CERN European Organization for Nuclear Research). 2023. P.5365-5373.
12. Ramlan M.N. Comparative Ethnolinguistics on Metaphorical Interpretations in Japanese Kotowaza and Malay Proverbs // IZUMI. 2021. № 2 (10). P.221-238.
13. Ratushnaya E.R., Zhaparkulova N.N., Kazachuk I.G., et al. Linguoculturological Specific Features Of Phraseological Units And Paremias In Multi-Structural Languages // The European Proceedings of Social & Behavioural Sciences. 2022. P.29-41.
14. Sarsenbaeva Z.J., Utebaev T.T. Role of Phraseology in Developing Communicative Competence // EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR). 2020. P.47-53.
15. Solano R.M., Rondinelli P. "Comparisons are odious": how comparable are equivalent proverbs across languages? // HAL (Le Centre pour la Communication Scientifique Directe). 2021.
16. Rustamov I.T., Rustamova S.A., Yuldosheva M.Y., Saydivaliyeva N.S. Folklore Is Invariable Concepts in Genres 2024. P. 72-78.
17. Yevgrafova Y., Gorbacheva O.A., Skripnik K., et al. Love as a linguacultural space (on the basis of paroemias in the English, Welsh, Gaelic and Scots languages) // E3S Web of Conferences. 2020. (210). P.1-8.
18. Мусолфф A. Researching political metaphor cross-culturally: English, Hungarian, Greek and Turkish L1-based interpretations of the Nation as Body metaphor // Journal of Pragmatics. 2021. (183). P.1-35.

O'ZBEK TILI SENTIMENT TAHLILIDA NATIJALARNI LINGVISTIK TIL QOIDALARI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

Abdullayev Abdulla Quranbayevich
Urganch innovatsion universiteti o'qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.18185742

Annotatsiya. *O'zbek tilida sentiment tahlilni amalga oshirishda lingvistik til qoidalarini ishlab chiqish tilning morfologik murakkabligi, kodli almashish, nutqa sarkazmni keng qo'llanilishi va shevaga xos so'zlarning muloqatda ko'p qo'llanilishi kabi muammolarni hisobga olishni talab qiladi. Ushbu maqolada, sentiment tahlilda ijobiy izoh, salbiy izoh, neytral izoh va sarkazmlarni lingvistik qoidalar asosida aniqlash – ilmiy aosda tahlil qilindi.*
Kalit so'zlar: *Sun'iy intelekt, lingvistik qoida, mashinali o'rganish, chuqur o'rganish, sarkazm detection, lug'at, salbiy izoh, ijobiy izoh, neytral izoh, neyron model.*
Abstract. *Developing linguistic rules for sentiment analysis in Uzbek requires taking into account such problems as the morphological complexity of the language, code switching, the widespread use of sarcasm in speech, and the frequent use of dialect-specific words in communication. In this article, the identification of positive comments, negative comments, neutral comments, and sarcasm in sentiment analysis based on linguistic rules was analyzed in a scientific manner.*
Keywords: *Artificial intelligence, linguistic rules, machine learning, deep learning, sarcasm detection, dictionary, negative comment, positive comment, neutral comment, neural model.*

Kirish. Zamonaviy sun'iy intelekt texnologiyalari rivojlanishi bilan bir paytda, matnli ma'lumotlarni avtomatik tahlil qilishning ahamiyati ham ortib bormoqda. Sentiment tahlil ham shu sphaning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib u mijozlar sharxlaridan tortib siyosiy nutqlarni turli kontekstlarda foydalanuvchi nuqtai nazarini aniqlashga qaratilgan. O'zbek tili aglutinativ tillar turkimiga kirishi ya'ni morfologik murakkabligi, kodli almashish(chet tillaridan so'zlar qo'shilishi) va yetarli hajmdagi annotatsiyalangan ma'lumotlar to'plamining yo'qligi kabi muammolar mavjud. Xalqaro tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki tilning lingvistik qoidalarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan modellar samaradorligi keskin oshishi mumkin. Xususan H.Vasileios va boshqalar o'zlarining "Predicting the Semantic Orientation of Adjectives" maqolalarida Sifatlar orasidagi lingvistik bog'lanishlarni va ularning sentimentga ta'sirini o'rganishgan. Shuningdek grammatik konstruktsiyalar asosida ijobiy-salbiy qutublilikni aniqlashgan. Ushbu maqolaning sentiment tahlilda yangiligi lingvistik munosabatlar orqali sentimentni aniqlash g'oyasini birinchi bo'lib qo'llanilishi bo'lgan. Shuning uchun ushbu izlanish qoidalarga asoslangan sentiment tahlil klassifikatsiyasining bazasi hisoblanadi. Keyinchalik M. Taboada va boshqalar ushbu yo'nalish bo'yicha izlanishlar olib borishgan. Ularning yondashuvida oldindan sentiment lug'at tuzilgan. So'ngra inkor(negation), kuchaytiruvchi/kuchsizlantiruvchi birliklar, so'z tarkibi, sintaktik bog'lanish kabi lingvistik qoidalar asosida yakuniy sentimentni aniqlashgan. Ushbu izlanishni muhim jihati to'liq lingvistik qoidaviy model ishlab chiqilgan, ko'p tillarga moslashtirilgan va o'zbek tili kabi kam resursli

tillar uchun juda mos. Bular qatorida sentiment tahlil uchun eng katta hissa qo‘shgan olimlardan biri Bing Liu o‘zining "Sentiment analysis and opinion mining" maqolasida lexicon bilan birga lingvistik qoidalar kombinatsiyasi orqali sentiment tahlilda yaxshi natijalarga erishish mumkinligini ko‘rsatib o‘tgan. Uning yondashuvi bo‘yicha lug‘aviy sentiment va qoidaviy tuzatishlar(negation handling, discourse markers, syntactic dependency) birlashtirilgan.

Yuqoridagi olib borilgan izlanishlar tahlil natijalariga ko‘ra sentiment tahlil qilish jarayonida o‘zbek tilida mavjud ijobiy, salbiy va neytral izohlar va sarkazmlar uchun lingvistik qoidalarga asoslangan qoidaviy model ishlab chiqdik.

1. **Ijobiy izoh misoli:** *"Dastur juda foydali ekan, ishlatib rohatlandim".* Bu izohda **foydali** (*yaxshi, pozitiv ma'no*) va **rohatlandim** (*mamnun bo'ldim*) kabi so‘zlar ijobiy ohangni bildiradi. Oddiy neyron model katta ehtimol bilan buni ijobiy deya tasniflay oladi, chunki foydali so‘zi mashqlar davomida ijobiy kontekstda ko‘p uchrashi mumkin. Biroq, lingvistik boyitish bu yerda ham qo‘l keladi: sinonimik yoki kontekstual ravishda *"foydali"* so‘zining bir necha variantlari bo‘lishi mumkin (*"qulay", "kerakli"* va hokazo). Agar modelga oldindan ushbu sinonimlarning barchasi lug‘atda ijobiy deb belgilab qo‘yilgan bo‘lsa, u kam uchragan sinonimlarni ham to‘g‘ri ijobiy deya tanishi osonlashadi. Masalan, *"Dastur juda qulay ekan"* jumlasida *"qulay"* so‘zi foydaliga yaqin ma'noda, ijobiy. Lug‘aviy qoidalar bilan boyitilgan model qulay so‘zini ham ijobiy toifaga kiritadi (chunki lug‘atda qulay = ijobiy deb belgilangan), oddiy model esa balki ushbu so‘z bilan kam uchrashgani tufayli neytralga chalkashtirishi mumkin edi.
2. **Salbiy izoh misoli:** *"Telefon umuman ishlamayapti, pulim bekor ketdi".* Bu yerda izoh ohangi aniq salbiy. Chunki *"umuman ishlamayapti" (butunlay ishlamayapti)* salbiy holatni tasvirlaydi, *"pulim bekor ketdi"* – **pushaymonlik** ifodasi. Shunday bo‘lsa-da, lingvistik nozikliklarga e'tibor qilinsa, ba'zi salbiy izohlar har doim ham bir xil ko‘rinishda bo‘lmaydi. Masalan, *"Telefon yaxshi emas, foydalanish noqulay"* gapini olaylik. Birinchi qarashda unda yaxshi so‘zi bor – ijobiyga xos, noqulay so‘zi bor – salbiyga xos. Oddiy model buni aralash deb, ehtimol neytralga yaqin yoki noaniq tasnif qilishi mumkin. Lingvistik qoidalar esa bu yerda aniq yechim beradi: *"yaxshi emas"* konstruksiyasi – inkor qilingan ijobiy bo‘lib, aslida salbiy ma'no kasb etadi (demak, *"yaxshi emas" = "yomon"* degani). Xuddi shuningdek, noqulay so‘zi o‘zi salbiy baho beradi. Qoidalarga asoslangan model bunday gapda *"emas"* borligi va *"no-"* prefiksi *(noqulay)* borligini payqab, butun gapni salbiy deya to‘g‘ri ajratishi mumkin. Shuningdek, *"umuman"* kuchaytirgichi ham inkorni kuchaytiradi. Bu ham qoidalar ro‘yxatida bo‘lsa, model salbiy ohang intensivligini to‘g‘riroq baholaydi (masalan, *"umuman yaxshi emas"* juda salbiy).
3. **Neytral izoh misoli:** *"Yangi telefonda 6 GB tezkor xotira bor".* Bu gapda subyektiv baho yo‘q, shunchaki fakt ko‘rsatilgan. Oddiy modellar ko‘pincha bunday gaplarni neytral deya to‘g‘ri ajrata oladi, chunki ijobiy ham, salbiy ham so‘zlar mavjud emas. Lekin qoidalar bu yerda ham yordam berishi mumkin. Sentiment lug‘at asosida gapdagi har bir so‘zning ohang skori hisoblab ko‘riladi. Agar birorta ham ijobiy/salbiy so‘z topilmasa, model avtomatik ravishda neytralga qaror beradi. Masalan, *"6 GB", "xotira"* – bular texnik terminlar, hissiy qiymati yo‘q. Shunga ko‘ra, lug‘atga asoslangan qoidaviy modul *"ohang = 0" (neytral)* deb belgilaydi. Natijada, neyron model ham agar biror notekislik bo‘lsa, shu ma'lumotdan foydalanib neytral javobga moyil bo‘ladi. Neytral izohlarni to‘g‘ri ajratish aslida qiyin masala, chunki ko‘p modellar asosiy e'tiborni faqat pozitiv va negativga qaratib o‘rganadi va neytral holatlar *"orasida"* qolib ketadi. Aynan shu nuqtada qoidadan kelib chiqqan filtrlar

yordam beradi. Masalan, matnda *ohangli so'zlar soni, hissiyot bildiruvchi emotikonlar* va b. yo'qligi – bularni aniqlab, neytrallik yorlig'i qo'yilishi mumkin.

Yuqoridagi misollardan ko'rinadiki, lingvistik qoidalar ayniqsa **murakkab yoki noaniq gaplarda** sentimentni to'g'ri talqin qilishda yordam beradi. O'zbek tilidagi ko'plab sharhlar og'zaki nutqqa yaqin tarzda yoziladi, unda kinoya, tuyg'u ifodalovchi *modal so'zlar, qisqartmalar* ham bo'lishi mumkin. Garchi kinoyani avtomatik aniqlash alohida murakkab muammo bo'lsa-da, oddiy holatlardagi inkor, kuchaytirish va zidlik kabi til hodisalarini qamrab olish orqali model ancha to'g'riroq ishlaydi. Misol uchun, *"Ha, xizmat zo'r 'ekan'"* – qoidaviy modul bunday kontekstda *"ekan"* yuklamasining kinoyali intonatsiyasini anglata olmasa ham, hech bo'lmasa *"zo'r"* so'zini ijobiy deb baholaydi. Neyron modul esa kontekst bo'yicha buni salbiy (kinoya) deb topishga urinishi mumkin. Yakunda noaniqlik yuzaga keladi. Kelayotgan tadqiqotlar bunday murakkab holatlar uchun alohida **sarkazmni aniqlash (sarcasm detection)** modullarini qo'shishni tavsiya qilmoqda[1], bu esa yana bir tur lingvistik (pragmatik) qoidalarning integratsiyasini talab etadi.

O'zbek tili uchun sarkazmni aniqlashning muhim lingvistik belgilari mavjud. Shulardan bir yo'nalishini biz gap qoliplari sifatida ham aytishimiz mumkin. Quyidagi jadvalda ushbu qoliplardan bir nechta misol keltirilgan:

T/r	Gapning nutqda asl qo'llanilishi	Gapning ma'nosi
1	Zo'r ekan-da…	Bundan yomoni bo'lmaydi.
2	Rahmat juda foydali bo'ldi.	Umuman foydasi tegmadi.
3	Sening aqling bilan shunday natijalarga erishdik.	Hamma ayb senda.
4	Qanday ajoyib ish qilding	Hammasini rasvo qilding.

Ushbu misollar kundalik hayotda tez tez qo'llaniladigan gaplar bo'lib bular asosida biz dataset yaratishimiz, yoki umumiylikni aniqlagan holda lingvistik qoida sifatida undan foydalanishimiz mumkin. Masalan "*Zo'r ekan-da…*" iborasi aslida biror hodisa yoki jarayonni kutilgan darajada emasligini, uni tariflayotganlar keng qamrovda, holis baholamaganligidan norozilik sifatida yetkazishda qo'llaniladi. Albatta bu sarkazmni oldida qo'llanilgan nutqni tahlil qilish orqali buni bilib olish imkoni bo'ladi. Yoki "*Rahmat juda foydali bo'ldi*" iborasi, aslida nutq egasi ikkinchi shaxsdan biror masalada fikr eshitsa va yetarli darajada javob ololmasa noroziligini shunday izhor etadi. Bu holat ham yuqoridagi misolga o'xshash bo'lib umumiylik shuki oldingi nutqda qo'llanilgan fikrlar ushbu sarkazmlarga olib kelib turibdi. Yoki topshiriqni ko'ngildagidek uddalay olmagan shaxsga nisbatan topshiriq beruvchi tomonidan "*Qanday ajoyib ish qilding*" qabilidagi iborani aytilishini olaylik. Bu holatda katta ehtimol bilan ushbu iboradan keyin ikkinchi odam qilgan ishi uchun izoh berishni boshlaydi. Buni ham lingvistik qoida sifatida neyron tarmoqqa kiritib qo'yish shu kabi sarkazmlarni aniqlashda va to'g'ri yechim tanlashda yordam beradi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari, mavjud adabiyotlar sharhlari va ilgari olib borilgan ilmiy ishlarga asoslanib, lingvistik qoidalar foydalanib sentiment tahlil jarayonlarini amalga oshirish ushbu sohada yuqori aniqlikka erishish mumkinligini ko'rsatadi. Ayniqsa bugungi kunda

[1] Prasad, A. G., Sanjana, S., Bhat, S. M., & Harish, B. S. (2017, October). Sentiment analysis for sarcasm detection on streaming short text data. In *2017 2nd International Conference on Knowledge Engineering and Applications (ICKEA)* (pp. 1-5). IEEE.

sarkazmni aniqlashdagi izlanishlar lingvistik qoidalar bilan boyitilsa natijalar yanda yaxshilanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. *H.Vasileios, M.Kathleen.* Predicting the Semantic Orientation of Adjectives Columbia University New York USA. 1997-5b.
2. *Maite Taboada et al.* Lexicon-Based Methods for Sentiment Analysis. Association for Computational Linguistics 2011-20b.
3. *Bing Liu.* Sentiment Analysis and Opinion Mining. Claypool Publisher. 2012-168b.
4. *Prasad, A. G., Sanjana, S., Bhat, S. M., & Harish, B. S.* (2017, October). Sentiment analysis for sarcasm detection on streaming short text data. In 2017 2nd International Conference on Knowledge Engineering and Applications (ICKEA) (pp. 1-5). IEEE.
5. *Elov B.B., Alayev R., Abdullayev A.Q., Aloyev N.* Yuqori n-gram modellarini o‘zbek tili matnlariga qo‘llash// Raqamli Tronsformatsiya va Sun’iy intellekt, 2024, Vol.2, No.5.– B. 152-162.
6. *Elov B.B., Alayev R., Abdullayev A.Q.* Tabiiy tilning statistik modellari // Raqamli Tronsformatsiya va Sun’iy intellekt, 2024, Vol.2, No.6.– B. 178-189.

RAQAMLI MARKETINGNING MAMLAKATIMIZDA HOZIRGI HOLATI VA UNI RIVOJLANISH YO'LLARI

Abdullayeva Nodirabegim[1], O'zganova Ruxshona[1], D.N. Ishmanova[2]
[1]Millat Umidi Universiteti 4-bosqich talabalari,
[2]Millat Umidi University dotsenti, i.f.d.
https://doi.org/10.5281/zenodo.18185754

Annotatsiya. *Ushbu maqolada raqamli marketing haqida tushuncha, uning turlari, iqtisodiyotga kirib kelishi, mamlakatimizda uning holati va rivojlanish yo'nalishlari tahlil qilingan. Raqamli marketing sohasida rivojlangan davlatlarning tajribasi o'rganlilgan, mamlakatimizda raqamli marketingni rivojlantirish yuzasidan xulosa va takliflar berilgan.*

Kalit so'zlar: *raqamli marketing, SEO (qidiruv tizimini optimallashtirish), SEM (qidiruv tizimi marketingi), SMM (ijtimoiy media marketing), influenzer marketing, kontent marketing, CRM (mijozlar bilan munosabatlarini boshqarish).*

Abstract. *This article analyzes the concept of digital marketing, its types, its introduction into the economy, its status and directions of development in our country. The experience of developed countries in the field of digital marketing has been studied, and conclusions and suggestions have been made regarding the development of digital marketing in our country.*

Keywords: *digital marketing, SEO (Search Engine Optimization), SEM (Search Engine Marketing), SMM (Social Media Marketing), influencer marketing, content marketing, CRM (Customer RelationshipManagement).*

Kirish. Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyot taraqqiy etgan sari, hayotimizga raqamli marketing tushunchasi ham kirib keldi. Maqolada mamlakatimizda raqamli marketing holatin tahlil qilishdan avval raqamli marketing tushunchasi, tarixi va turlariga alohida to'xtalib o'tsak.

Raqamli marketing (Onlayn marketing) bu- mahsulot va xizmatlarni ijtimoiy media, elektron pochta va mobil ilovalar kabi raqamli kanallar orqali targ'ib qilish harakati tushuniladi. Ya'ni, elektron qurilmalar orqali amalga oshiriladigan marketing shakli raqamli marketing hisoblanadi.

Tahlil va Natijalar. Raqamli marketing yaratilish tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, uzoq vaqtlar oldin olimlar tomonidan yaratilgan bo'lishiga qaramasdan, 2000-yillarning boshlaridan ommalashishni boshlagan. Uning rivojlanishi esa, brendlar va korxonalarning marketing uchun texnologiyadan foydalanish usullarini o'zgartirib yubordi. Raqamli platformalar marketing rejalari va kundalik hayotga tobora ko'proq kiritila boshlaganligi sababli, odamlar jismoniy do'konlarga tashrif buyurish o'rniga raqamli qurilmalardan tobora ko'proq foydalanishlari sababli, qidiruv tizimini optimallashtirish (SEO), qidiruv tizimi marketingi (SEM), content marketing, influenzer marketing, kontentni avtomatlashtirish, kampaniya marketingi, ma'lumotlarga asoslangan marketing, elektron tijorat marketingi, ijtimoiy media marketing (SMM), to'g'ridan-to'g'ri email marketingi, displey reklama qilish, elektron kitoblar va optiik disklar, o'yinlar kabi kombinatsiyalaridan foydalanish odatiy holga aylandi. Raqamli marketing televidenie, mobil telefonlar (SMS va MMS), qayta qo'ng'iroqlar va ushlab turilgan mobil qo'ng'iroq ohanglari kabi raqamli medialarni taqdim etuvchi internetdan tashqari

kanallarniham qamrab oladi. Raqamli marketingning rivojlanishi texnologiya rivojlanishi bilan uzviy bog‘liqdir.

Birinchi muhim voqealardan biri 1971-yilda Rey Tomlinson birinchi elektron pochta xabarini yuborganida sodir bo‘ldi va uning texnologiyasi odamlarga turli xil mashinalar orqali fayllarni yuborish va qabul qilish imkonini beradigan platformani o‘rnatdi. Biroq, raqamli marketingning boshlanishi sifatida eng taniqli davr 1990-yil bo‘ldi, chunki bu davrda Archie qidiruv tizimi FTP saytlari uchun indeks sifatida yaratilgan. 1980-yillarda kompyuterlarning saqlash sig‘imi mijozlarning katta hajmdagi ma’lumotlarini saqlash uchun yetarlicha katta edi.

1990-yillarda birinchi marta raqamli marketing atamasi paydo bo‘ldi. Server/mijoz arxitekturasining debyuti va shaxsiy kompyuterlarning mashhurligi bilan mijozlar bilan munosabatlarni boshqarish (CRM) ilovalari marketing texnologiyasining muhim omiliga aylandi. Zamonaviy raqamli marketingning asosiy maqsadlaridan biri bu brend haqida xabardorlikni oshirishdir, mijozlar va keng jamoatchilik ma’lum bir brendni qanchalik bilishi va tan olishidir. Brend xabardorligini oshirish raqamli marketingda va umuman marketingda muhim ahamiyatga ega, chunki uning brend idrokiga va iste’molchi qarorlarini qabul qilishga ta’siri yuqori bo‘ladi. Brenddan xabardorlik, shuningdek, brend va uning xususiyatlari bilan tanish bo‘lganligi sababli iste’molchilarning xavf-xatarni baholashiga va ularning sotib olish qaroriga bo‘lgan ishonchiga ta’sir qilishi mumkin. Raqamli marketing strategiyalari iste’molchilar orasida brend xabardorligini oshirish uchun bir yoki bir nechta onlayn kanallar va usullardan (omnichannel) foydalanishni o‘z ichiga olishi mumkin. Brend haqida xabardorlikni oshirish quyidagi usullarni/vositlarni o‘z ichiga olishi mumkin: Qidiruv tizimini optimallashtirish (SEO) usullari biznes veb-saytlari va umumiy sanoat bilan bog‘liq qidiruv so‘rovlari uchun brend bilan bog‘liq kontentning ko‘rinishini yaxshilash uchun ishlatilishi mumkin. Brend xabardorligini oshirish uchun SEOning ahamiyati qidiruv natijalari va qidiruv xususiyatlarining taniqli parchalar, bilim panellari va mahalliy SEO mijozlarning xatti-harakatlariga ta’siri ortib borayotgani bilan bog‘liq.

Qidiruv mexanizmi marketingi (SEM) PPC (Paid Per Click), ya’ni har bir reklama ustiga bosgan auditoriya uchun to‘lash sifatida ham tanilgan SEM qidiruv natijalari sahifalari va veb-saytlari ustidagi taniqli, ko‘rinadigan joylarda reklama maydonini sotib olishni o‘z ichiga oladi. Qidiruv reklamalari brend tan olinishi, xabardorligi va konversiyalariga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi ko‘rsatilgan. Pulli reklamalarni bosgan qidiruvchilarning 33% ular o‘zlarining maxsus qidiruv so‘rovlariga bevosita javob berishlari uchun shunday qilishadi. Ijtimoiy media marketingi (SMM). Marketologlarning 70% ijtimoiy media platformalarida marketing bo‘yicha birinchi maqsad sifatida brend xabardorligini oshirishni ko‘rsatmoqda. Facebook, Instagram, Twitter va YouTube hozirda ijtimoiy media marketingguruhlari tomonidan foydalaniladigan eng yaxshi platformalar sifatida qayd etilgan. 2021- yildan boshlab LinkedIn o‘zining professional tarmoq imkoniyatlari uchun biznes rahbarlari tomonidan eng ko‘p foydalaniladigan ijtimoiy media platformalaridan biri sifatida qo‘shildi. Marketologlarning 56% shaxsiylashtirilgan kontent - brendga yo‘naltirilgan bloglar, maqolalar, ijtimoiy yangilanishlar, videolar, qo‘nuvchi sahifalar- brendni eslab qolish va jalb qilishni yaxshilaydi, deb hisoblashadi. Global marketing indeksiga ko‘ra, raqamli marketing faoliyati hali ham butun dunyo bo‘ylab o‘sib bormoqda. 2018-yil sentabr oyida chop etilgan tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, raqamli marketing taktikasiga global xarajatlar 100 milliard dollarga yaqinlashmoqda. Raqamli media jadal o‘sishda davom etmoqda. Marketing byudjetlari kengayib borayotgan bir paytda, an’anaviy ommaviy axborot vositalari pasaymoqda. Raqamli media brendlarga o‘z mahsuloti yoki xizmatlarini shaxsiylashtirilgan

tarzda iste’molchilarga yetkazishga yordam beradi. So‘nggi 10 yilliklarda mamlakatimiz biznes yetakchilarni tarbiyalash, brenddan xabardorlikni oshirish, samaradorlikka erishish va mijozlar bilan munosabatlarni o‘rnatish uchun raqamli marketingdan yuqori ko‘rsatkichlarda foydalanmoqda. Shu bilan birga, korxonalar O‘zbekistonning raqamli bozorida ishlashning o‘ziga xos madaniy, huquqiy va texnik jihatlaridan ham xabardor bo‘lib bormoqdalar, mamlakatimizda marketing faoliyati, marketing axborot tizimining eng asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblangan raqamli media marketing ko‘rsatkichlari yildan yilga o‘sib, yaxshilanib bormoqda. Masalan, ijtimoiy mediadan foydalanuvchilar soni 2022-yilda 2021-yilga nisbatan 1 mln. 700 ming nafarga oshgan va 35,9 foizni tashkil etdi. Bu esa O‘zbekistonda marketing faoliyati bo‘yicha nazariy va amaliy bilimlarning rivojlanib, yaxshilanib borishidan dalolatdir. Mamlakatimizda foydalanuvchilar tomonidan eng ko‘p Instagram ijtimoiy tarmog‘idan foydalaniladi. Hozirgi kunda ushbu tarmoqdan foydalanuvchilar soni 4,8 mln.dan ortiq hisoblanadi. Foydalanuvchilarning 34,4% qismi ayollar. Foydalanuvchilarning asosiy qismi yoshlarni (18-35 yosh) tashkil etadi.

O‘zbekistonda ham milliy messenjerlar va ijtimoiy tarmoqlar yaratish borasida turli ishlar olib borilgan. Ko‘plab yaratilgan platformalar uy sharoitidagi yoki ofis serverlariga o‘rnatilgan va foydalanuvchilar soni bir necha mingtaga yetganida esa faoliyatida uzilishlar kuzatilgan. Hozirgi kunda ijtimoiy tarmoqlar yaratishda mana shu omillarga alohida e’tibor berilmoqda. Bundan tashqari aholining 28,5 % qismi 18-35 yosh oralig‘ida bo‘lib, ijtimoiy tarmoqlar, jumladan messenjerlardan faol foydalanishadi. Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, mamlakatimizda milliy messenjerlar tashkil qilish uchun mahalliy bozor imkoniyati mavjud. Bundan tashqari, globallashuv jarayonlarida yoshlarimizning ma’naviy va ma’rifiy salohiyatini ijobiy shakllantirishda milliy brendimiz bilan yaratilgan messenjerlarning o‘rni beqiyos. Xalqaro tendentsiyalar internet foydalanuvchilari orasida ijtimoiy tarmoqlar va messenjerlardan faol foydalanuvchilar soni kun sayin ko‘payib borayotganini ko‘rsatmoqda.

Bunday sharoitda mamlakatimizda ham milliy qadriyatlarimizga mos, jahonning ilg‘or texnologiyalari va tajribalaridan samarali foydalangan holda milliy ijtimoiy tarmoqlar va messenjerlarni yaratish maqsadga muvofiq hisoblanadi. O‘zbekistonda milliy messenjer yaratilishi nafaqat qadriyatlar va milliy an’analarimiz nuqta’i-nazaridan, balki xalqaro maydonda kiber olamning salbiy ta’sirlaridan xalqimizni himoya qilish, inson uchun eng qimmatli bo‘lgan shaxsiy ma’lumotlarning saqlanishini kafolatlash, Janubiy Koreya, Xitoy, Yaponiya, Rossiya hamda Kanada kabi mamlakatlarning milliy messenjerlardan foydalanish tajribasini inobatga olib amalga oshirilishi zarur. Kompleks funktsiyalarga ega milliy messenjerlar yaratilishi orqali yildan-yilga oshib borayotgan o‘zbek internet foydalanuvchilari kontingenti uchun qulay, foydali va xavfsiz platforma paydo bo‘ladi.

So‘nggi yillarda ijtimoiy media marketingi O‘zbekistondagi korxonalar uchun raqamli marketingning tobora muhim jihatiga aylanib bormoqda. Ko‘pgina korxonalar o‘z mahsulotlari va xizmatlarini targ‘ib qilish, mijozlar bilan muloqot qilish va brend xabardorligini oshirish uchun ijtimoiy media platformalaridan foydalanmoqda. Umuman olganda, ijtimoiy media marketingi O‘zbekistonda turli sohalardagi biznes uchun tobora muhim vositaga aylanib bormoqda. Ijtimoiy media platformalaridan samarali foydalanish orqali korxonalar kengroq auditoriyani qamrab olishi, brend xabardorligini oshirishi va mijozlar bilan mazmunli yo‘llar bilan muloqot qilishi mumkin. O‘zbekistonda marketing axborotlari hal qiluvchi rol o‘ynaydi, chunki u korxonalarga marketing strategiyalari bo‘yicha ongli qarorlar qabul qilishda yordam beradi. O‘zbekistonda marketing ma’lumotlarining muhimligining bir necha sabablari:

Bozorni tushunish: Marketing axborotlari korxonalarga maqsadli bozorlarini yaxshiroq tushunish imkonini beradi. Bunga yosh, jins, daromad darajasi, ta’lim darajasi va sotib olish xatti-harakatlariga ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan boshqa xususiyatlar kabi demografik ma’lumotlar kiradi. Ushbu ma’lumotlar korxonalarga marketing xabarlari va mahsulotlarini maqsadli bozor ehtiyojlarini qondirish uchun moslashtirishga yordam beradi.

Trendlarni aniqlash: Marketing axborotlari korxonalarga bozordagi tendentsiyalarni, masalan, iste’molchilarning xohish-istaklaridagi o‘zgarishlar, rivojlanayotgan texnologiyalar va o‘zgaruvchan sanoat standartlarini aniqlashga yordam beradi. Ushbu tendentsiyalarga rioya qilish orqali korxonalar o‘z raqobatchilaridan oldinda bo‘lishi va mijozlari uchun dolzarb bo‘lib qolishi mumkin.

Raqobatni baholash: Marketing axborotlari korxonalarga raqobatchilarning narxlari strategiyasi, reklama taktikasi va mahsulot takliflari kabi tushunchalar beradi. Ushbu ma’lumotlar korxonalarga o‘zlarining marketing strategiyalari to‘g‘risida ongli qarorlar qabul qilishlari va raqobatbardosh qolishlari uchun ularni mos ravishda o‘zgartirishlari mumkin.

Marketing strategiyalarini ishlab chiqish: marketing axborotlari samarali marketing strategiyalarini ishlab chiqish uchun zarurdir. Iste’molchilarning xulq- atvori va bozor tendentsiyalari haqidagi ma’lumotlarni tahlil qilish orqali korxonalar maqsadli auditoriyasi bilan rezonanslashadigan va sotishni keltirib chiqaradigan marketing kampaniyalarini yaratishi mumkin.

Mijozlarning qoniqishini oshirish: Marketing axborotlari korxonalarga mijozlarqoniqishini oshirishi mumkin bo‘lgan sohalarni aniqlashga yordam beradi. Mijozlarning fikr-mulohazalarini to‘plash va ularning xarid qilish xatti-harakatlarini tahlil qilish orqali korxonalaro‘z mahsulotlari yoki xizmatlariga o‘z mijozlarining ehtiyojlarini yaxshiroq qondirish uchuno‘zgartirishlar kiritishlari mumkin. Yuqorida bildirilgan fikrlardan tashqari yana shuni alohida ta’kidlash lozimki, O‘zbekistonda marketing faoliyatidagi yutuqlar bilan bir qatorda amalga oshirilishi lozimbo‘lgan bir qator ishlar ham mavjud. O‘zbekiston marketing tizimi samaradorligini oshirishuchun hal qilinishi kerak bo‘lgan bir qancha muammolarga duch kelmoqda. O‘zbekistonmarketing tizimidagi keng tarqalgan muammolar bartatraf etish uchun bir qancha potentsialyechimlarni taklif sifatida qo‘llanilib, e’tiborga olinsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Bozor tadqiqotlarining yo‘qligi: O‘zbekistondagi ko‘pgina korxonalar o‘z mijozlari, raqobatchilar va bozor tendentsiyalari haqida ma’lumot to‘plash uchun bozor tadqiqotini o‘tkazmaydi. Natijada, ular maqsadli auditoriyani yaxshiroq tushunish va ma’lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish imkoniyatlarini boy berishlari mumkin. Korxonalar mijozlar ehtiyojlari va afzalliklari, shuningdek, bozor tendentsiyalari va raqobat haqida tushunchaga ega bo‘lish uchun bozor tadqiqotlariga sarmoya kiritishlari kerak. Bu ularga yanada samarali marketing strategiyalarini ishlab chiqishga va umumiy ish faoliyatini yaxshilashga yordam beradi.

Raqamli marketingdan cheklangan foydalanish: O‘zbekistondagi ko‘plab korxonalar hali ham bosma ommaviy axborot vositalari va tashqi reklama kabi an’anaviy marketing kanallariga tayanadi. Ular ijtimoiy media va qidiruv tizimini optimallashtirish kabi raqamli marketing kanallari taqdim etayotgan imkoniyatlardan to‘liq foydalanmayotgan bo‘lishi mumkin. Biznes kengroq auditoriyani qamrab olish, mijozlar bilan onlayn muloqot qilish va ularning onlayn ko‘rinishini yaxshilash uchun raqamli marketingga sarmoya kiritishi kerak. Bu ularga raqamli bozorda raqobatbardosh bo‘lishga yordam beradi.

Farqlanishning yo‘qligi: O‘zbekistondagi ko‘plab korxonalar raqobatchilarnikiga o‘xshash mahsulot yoki xizmatlarni taklif qilishi mumkin, bu esa bozorda ajralib turishni qiyinlashtiradi. Korxonalar ularni raqobatchilardan ajratib turadigan noyob xususiyatlar yoki imtiyozlarni taklif qilish orqali farqlashga e’tibor qaratishlari kerak. Bunga shaxsiylashtirilgan xizmat, innovatsion mahsulotlar yoki noyob brend tajribasini taklif qilish kiradi. Moliyaviy imkoniyatlarning cheklanganligi: O‘zbekistondagi ko‘plab kichik va o‘rta biznes o‘z marketing harakatlarini qo‘llab-quvvatlash uchun moliyalashtirishda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Hukumatlar va moliya institutlari korxonalarga o‘zlarining marketing faoliyatiga sarmoya kiritish va raqobatbardoshligini oshirishda yordam berish uchun grantlar, kreditlar yoki boshqa moliyalashtirish imkoniyatlari orqali qo‘llab-quvvatlashlari mumkin. Marketing axborotlari O‘zbekistondagi korxonalar uchun qimmatli vositadir. Marketing axboroti bozor, mijozlar, raqobatchilar va tendentsiyalar haqida tushuncha berib, korxonalarga marketing strategiyalari bo‘yicha ongli qarorlar qabul qilishda yordam beradi. Bu, o‘z navbatida, savdo hajmining oshishiga, mijozlar ehtiyojini qondirishning yaxshilanishiga va bozorda raqobatbardosh ustunlikka olib kelishi mumkin.

Xulosa: Shunday ekan, O‘zbekistondagi biznes uzoq muddatda dolzarb, foydali va muvaffaqiyatli bo‘lib qolish uchun marketing ma’lumotlarini to‘plash va tahlil qilishni birinchi o‘ringa qo‘yishi kerak. Umuman olganda, ushbu muammolarni hal qilish O‘zbekistondagi korxonalarga marketing samaradorligini oshirishga, kengroq auditoriyani qamrab olishga va mijozlariga yaxshi xizmat ko‘rsatishga yordam beradi. marketingga sarmoya kiritishi kerak. Bu ularga raqamli bozorda raqobatbardosh bo‘lishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 19 fevraldagi “Axborot texnologiyalari va kommunikasiyalari sohasini yanada takomillashtirish choratadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5349 sonli Farmoni. www.lex.uz
2. Abduxalilova L.T. Internet-marketing. O‘quv qo‘llanma. T.: TDIU, 2019. - 310 bet.
3. Azimov U. Information and Communication Technologies in Uzbekistan. International Journal of Computer Science and Network Security, 20(9), – 2020. –P. 25-35.
4. Ochilov R., Bekchanov K. Current State and Challenges of Marketing in Uzbekistan. European Journal of Economics, Law and Politics, 3(2), – 2016. – P. 61-68..
5. Khaydarov A., Mardonov M. Development of Marketing in Uzbekistan: Problems and Solutions. International Journal of Economics, Commerce and Management, 2 (11), – 2014. – P. 1-10.
6. https://datareportal.com/reports/digital-2022-uzbekistan?rq=Uzbekistan
7. Coulby D. Intercutural education: theory and practice // Intercultural Education, 2006, 17(3), p.245-257. DOI: 10.1080/14675980600840274.
8. Wimmer F.M. Essays on intercultural philosophy. – Chennai-Madras: Satya Nilayam, 2002.

IQTISODIYOTNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHDA DAVLATNING ROLI

Abdullayeva Xusniya[1], Rixsibayeva Malika[1], D.N. Ishmanova[2]
[1]Millat Umidi Universiteti 4-bosqich talabalari
[2]Millat Umidi University dotsenti, i.f.d.
https://doi.org/10.5281/zenodo.18185762

Annotatsiya. *Maqolada innovatsion taraqqiyotning zamonaviy iqtisodiy rivojlanishdagi tutgan o‘rni va bu jarayonni boshqarishda davlat institutlarining funksional ahamiyati tahlil etiladi. Innovatsion infratuzilma, inson kapitali, ilmiy-tadqiqot faoliyati va raqamli texnologiyalarning integratsiyalashuvi iqtisodiy o‘sishning muhim omili sifatida baholanadi. Xalqaro tajribalar Janubiy Koreya, Xitoy va Yevropa davlatlarining milliy innovatsion tizimlari asosida davlatning innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari o‘rganilgan. Tadqiqotda O‘zbekistonda innovatsion siyosatning shakllanishi, texnoparklar, ilmiy markazlar, startap ekotizimi va davlat grantlari tizimining rivoji bo‘yicha amaliy natijalar keltirilgan. Innovatsion iqtisodiyotning makroiqtisodiy barqarorlik, raqobatbardoshlik va ijtimoiy farovonlikka ta’siri ilmiy asosda yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Innovatsion iqtisodiyot, davlat innovatsion siyosati, milliy innovatsion tizim.*

Аннотация. *В статье анализируется значение инновационного развития в современной экономике и функциональная роль государственных институтов в управлении этим процессом. Рассматриваются такие ключевые элементы инновационной системы, как инфраструктура, человеческий капитал, научно-исследовательская деятельность и цифровые технологии, определяющие устойчивый экономический рост. На основе опыта Южной Кореи, Китая и европейских стран исследуются механизмы государственной поддержки инноваций. Особое внимание уделяется формированию инновационной политики в Узбекистане, развитию технопарков, научных центров, стартап-экосистемы и системы государственных грантов. В работе раскрывается влияние инновационной экономики на макроэкономическую стабильность, конкурентоспособность и социальное благополучие.*

Ключевые слова: *Инновационная экономика, государственная инновационная политика, национальная инновационная система.*

Annotation. *The article examines the significance of innovation-driven development in the modern economy and the functional role of governmental institutions in managing this process. Key components of the innovation system—such as infrastructure, human capital, research activities, and digital technologies—are evaluated as major drivers of sustainable economic growth. Drawing on the experiences of the South Korea, China, and European countries, the study analyzes state support mechanisms for innovation. Special attention is given to the formation of innovation policy in Uzbekistan, including the development of technoparks, research centers, startup ecosystems, and state grant programs. The article highlights the impact of an innovation-based economy on macroeconomic stability, national competitiveness, and social welfare.*

Key words: *Innovation economy, government innovation policy, national innovation system.*

Kirish: Innovatsion taraqqiyot – bu faqat texnologik yangilanish emas, balki iqtisodiy boshqaruv uslublari, davlat siyosati, ta’lim va ilm-fan sohalarining kompleks rivojlanishini ham anglatadi. Bunday sharoitda davlatning roli keskin ortadi. Chunki erkin bozor mexanizmlari o‘z-o‘zidan innovatsiyalarni rivojlantirish uchun yetarli shart-sharoit yaratmaydi. Davlat esa o‘zining normativ-huquqiy, moliyaviy, tashkiliy mexanizmlari orqali innovatsion faoliyatni rag‘batlantiradi, xatarlarni kamaytiradi va yangi tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlaydi. Shu jihatdan, davlat ishtirokining samaradorligini ilmiy asoslash dolzarb ilmiy-amaliy masala sanaladi.

Chet el tajribasi shuni ko‘rsatadiki, ilg‘or iqtisodiy rivojlanishga erishgan davlatlar (masalan, Janubiy Koreya, Germaniya, Shvetsiya, AQSh) o‘z vaqtida kuchli innovatsion siyosat olib borgan, strategik yondashuvlar ishlab chiqqan hamda innovatsion infratuzilmani shakllantirgan. Bu esa ularning global iqtisodiyotdagi pozitsiyalarini mustahkamlashga xizmat qilgan. O‘zbekiston ham ana shunday natijalarga erishish uchun bugun innovatsion siyosatni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishi zarur. Shuning uchun mazkur mavzu xalqaro kontekstda ham dolzarb hisoblanadi.

Adabiyotlar sharhi: Rivojlangan davlatlar tajribasi asosida bu soha bo‘yicha ko‘plab nazariy va amaliy tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, innovatsion iqtisodiyot nazariyasining shakllanishida I. Shumpeterning “kreativ destruktsiya” (ijodiy buzilish) nazariyasi muhim o‘rin egallaydi. Uning fikricha, iqtisodiy o‘sishning asosiy omili bu – yangi texnologiyalar va ixtirolarni doimiy ravishda ishlab chiqarish jarayoniga joriy qilishdir.

Keyinchalik bu nazariya asosida ko‘plab olimlar – P. Druker, M. Porter, K. Friman, B. Lundvall va boshqalar innovatsion tizimlar, raqobat ustunligi, bilim iqtisodiyoti kabi tushunchalarni ishlab chiqdi. Masalan, M. Portering “Milliy raqobatbardoshlik” nazariyasida davlatning raqobat muhitini shakllantirishdagi roli alohida ta’kidlanadi. Bunday tadqiqotlar innovatsiyani faqat texnologik yutuq emas, balki makroiqtisodiy boshqaruv elementi sifatida baholash imkonini berdi.

Xalqaro tajribalarga tayangan holda ishlab chiqilgan “Milliy innovatsion tizim” konsepsiyasi Shvetsiya, Yaponiya, Janubiy Koreya, AQSh kabi mamlakatlarda muvaffaqiyatli qo‘llanilgan. Ushbu model davlat, ilmiy muassasalar, biznes sektori va fuqarolik jamiyati o‘rtasidagi hamkorlikka asoslanadi. Bu borada F. Nelson va R. Rosenberg kabi olimlarning izlanishlari keng tan olingan. Ularning tadqiqotlarida davlat siyosatining innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlashdagi institutsional mexanizmlari tahlil qilingan.

O‘zbekistonda esa so‘nggi yillarda innovatsion iqtisodiyot masalalariga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar soni ortib bormoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi ilmiy markazlar, iqtisodiy tadqiqot institutlari, oliy ta’lim muassasalari huzuridagi ilmiy laboratoriyalar tomonidan bu yo‘nalishda amaliy va nazariy ishlar olib borilmoqda. T. Po‘latov, A. Xasanov, M. Zohidov, M. Normurodov, X. Usmonov kabi iqtisodchi olimlar tomonidan innovatsion taraqqiyot, raqamli transformatsiya, iqtisodiy o‘sishning yangi drayverlari mavzularida tadqiqotlar o‘tkazilgan.

Tahlil va natijalar: Innovatsion iqtisodiyotda infratuzilma va institutsional islohotlar ham muhim ahamiyatga ega. Ya’ni, innovatsiyalar samarali ishlashi uchun texnoparklar,

inkubatorlar, ilmiy markazlar, davlat tomonidan yaratilgan grant tizimlari, patent himoyasi, soliqqa oid imtiyozlar kabi omillar zarur. Masalan, Finlyandiya, Shvetsiya kabi davlatlarda innovatsion ekotizim juda rivojlangan bo‘lib, bu mamlakatlar butun dunyoga Nokia, Ericsson kabi texnologik brendlarni bergan. Ularning tajribasi shuni ko‘rsatadiki, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish uchun davlat tomonidan qulay muhit yaratilishi va barqaror tizimga ega bo‘lishi zarur.

Yana bir muhim nazariy tamoyil – bu innovatsiyaning iqtisodiy o‘sishga bo‘lgan bevosita ta’siridir. Bunda yangi mahsulotlar va xizmatlar yaratish, ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, xarajatlarni kamaytirish, mahsulot sifatini oshirish orqali iqtisodiy samaradorlik ortadi. Bu esa eksport salohiyatini kuchaytiradi, ichki bozorda raqobatni oshiradi va eng asosiysi – yalpi ichki mahsulot hajmini ko‘paytiradi. Masalan, AQShda innovatsion sektor (axborot texnologiyalari, biofarmatsevtika, aviatsiya va boshqalar) mamlakat yalpi ichki mahsulotining 30 foizdan ortig‘ini tashkil etadi. Bu sektorlar davlat tomonidan qattiq himoya qilinadi va rivojlanishga keng imkoniyat yaratiladi.

Innovatsiyalarning xususiyatlari. Innovatsiyalarning mohiyati va xususiyatlarini tushunishda “yangilik” va “innovatsiya” tushunchalarini aniq ajratish juda muhimdir.

Innovatsion iqtisodiyotning to‘laqonli shakllanishi va samarali faoliyat yuritishi uchun uni tashkil qiluvchi asosiy elementlar va ularni harakatga keltiruvchi mexanizmlar mavjud bo‘lishi lozim. Bu elementlar o‘zaro chambarchas bog‘langan tizimni tashkil etadi. Ular orasida inson kapitali, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari (ITTKI), texnologik baza, innovatsion infratuzilma, moliyaviy institutlar, intellektual mulk himoyasi, axborot-kommunikatsiya tizimi va davlat siyosati alohida o‘rin egallaydi. Har bir elementning o‘ziga xos roli bo‘lib, ular birgalikda iqtisodiyotda innovatsion faoliyatni shakllantirish va rivojlantirishda asosiy omillar hisoblanadi.

Inson kapitali innovatsion iqtisodiyotning markaziy elementidir. Bilib olish, yangilik yaratish, amaliyotda qo‘llash kabi jarayonlar bevosita inson salohiyati bilan bog‘liq. Innovatsiyalarni ishlab chiqish va joriy qilish uchun malakali kadrlar, olimlar, muhandislar va tadqiqotchilar zarur.

Innovatsion iqtisodiyotda davlat siyosati alohida o‘rin tutadi. Davlat innovatsiyalarni rivojlantirish bo‘yicha strategik yo‘nalishlarni belgilaydi, qonuniy va institutsional asoslarni yaratadi, moliyaviy ko‘makni ta’minlaydi va umumiy innovatsion muhitni shakllantiradi. Masalan, Xitoyda “Made in China 2025” strategiyasi orqali yuqori texnologiyali ishlab chiqarish, sun’iy intellekt, biofarmatsevtika, robototexnika kabi sohalar davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanmoqda. Bu strategik yondashuv natijasida Xitoy dunyo bozorida texnologik yetakchilik sari harakat qilmoqda.

Innovatsion iqtisodiyot zamonaviy iqtisodiy taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy sohada ham chuqur o‘zgarishlar va ijobiy natijalarni ta’minlaydi. Uning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati shundaki, bu model iqtisodiy o‘sishning barqarorligi, ijtimoiy farovonlikning oshishi, mehnat unumdorligining ortishi, yashash darajasining yaxshilanishi, fan va ta’lim sohalarining integratsiyasi hamda milliy raqobatbardoshlikning kuchayishi kabi ko‘plab omillarni o‘z ichiga oladi. Innovatsiyalar – bu nafaqat yangi texnologiya yoki mahsulot, balki iqtisodiyotda sifat jihatdan yangi bosqichga o‘tish demakdir. Bu jarayon jamiyat hayotining barcha jabhalariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Masalan, avtomatlashtirilgan texnologiyalar va sun’iy intellekt yordamida ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish orqali ko‘plab korxonalar mahsulot hajmini oshirish

bilan birga, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishga ham erishmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, yalpi ichki mahsulot (YAIM) hajmining o‘sishiga olib keladi. Xitoyda 2010-yildan boshlab innovatsion iqtisodiyotga bosqichma-bosqich o‘tish natijasida YAIM yillik o‘sish sur’ati 6–8% atrofida saqlanib qolmoqda. Bu innovatsiyalarning makroiqtisodiy barqarorlikni saqlashdagi rolini yaqqol ko‘rsatadi.

Davlat innovatsion infratuzilmaning shakllanishida asosiy tashabbuskor sifatida ishtirok etadi. Innovatsion markazlar, texnoparklar, inkubatorlar va ilmiy-tadqiqot institutlarini tashkil etish orqali ilm-fan, biznes va ishlab chiqarish o‘rtasida uzviy hamkorlik tizimi yaratiladi. Davlat innovatsion xavf-xatarlarni kamaytiruvchi va sarmoyadorlar ishonchini oshiruvchi muhim omil hisoblanadi. Innovatsion faoliyat ko‘p hollarda natijasi noaniq bo‘lgan, bozor tomonidan to‘liq baholanmagan loyihalarni o‘z ichiga oladi. Bunday sharoitda davlat kafolatlari, sug‘urta mexanizmlari va moliyaviy ko‘mak orqali tadbirkorlar va sarmoyadorlar uchun xavflarni kamaytiradi. Masalan, Yaponiyada yuqori texnologiyalar sohasidagi korxonalar uchun davlat sug‘urta fondlari faoliyat yuritadi va zarar yuz bergan taqdirda, qisman qoplab beradi. Bu esa innovatsiyalarga bo‘lgan qiziqishni oshiradi.

Innovatsiyalarni tijoratlashtirishni rag‘batlantiruvchi siyosat alohida ahamiyatga ega. Ixtirolarni amaliyotga joriy etish, yangi mahsulotlar yoki texnologiyalar ishlab chiqib, ularni bozorga chiqarish uchun davlat innovatsion inkubatorlar, texnoparklar va startaplarni qo‘llab-quvvatlaydi. Masalan, AQShda “Small Business Innovation Research (SBIR)” dasturi orqali kichik va o‘rta biznesga innovatsion mahsulotlarni yaratish uchun federal mablag‘lar ajratiladi. O‘zbekistonda ham Yoshlar texnoparki, Yangi O‘zbekiston Universitetidagi startap inkubatorlar orqali innovatsion g‘oyalar ishlab chiqarishga olib kelinmoqda.

Xulosa va Takliflar: Xulosa qilib aytganda, innovatsion iqtisodiyotga o‘tish bugungi global raqobat sharoitida davlatlar uchun eng muhim strategik vazifalardan biridir. Innovatsiyalar iqtisodiy o‘sishning yangi drayveri sifatida nafaqat ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, balki ijtimoiy farovonlik, mehnat unumdorligi, eksport salohiyati va milliy raqobatbardoshlikni kuchaytiradi. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, davlatning faol ishtiroki, moslashuvchan siyosati, ilm-fan va biznes o‘rtasidagi integratsiya innovatsion taraqqiyotning bosh omillaridir. O‘zbekiston misolida so‘nggi yillarda olib borilayotgan islohotlar, texnoparklar, startap inkubatorlar, IT-technoparklar, innovatsion grantlar tizimi innovatsion ekotizimni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Biroq mazkur jarayonni jadallashtirish uchun institutsional muhitni yanada yaxshilash, ilmiy tadqiqotlar hajmini oshirish, innovatsion loyihalarning moliyaviy qo‘llab-quvvatlanishini kuchaytirish zarur.

Takliflar:

1. Innovatsion siyosatni uzoq muddatli milliy strategiya sifatida mustahkamlash va barqaror moliyalashtirish mexanizmlarini yaratish.
2. Oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari o‘rtasida biznes sektori bilan yaqin hamkorlikni kuchaytirish.
3. Innovatsion klasterlar, texnoparklar, inkubatorlar sonini oshirish va ularning faoliyat samaradorligini baholash tizimini joriy etish.
4. Ilmiy-tadqiqot va ITTKI xarajatlarini yalpi ichki mahsulotga nisbatan oshirish, xorijiy tajriba asosida davlat grantlari va venchur fondlarini rivojlantirish.
5. Intellektual mulkni himoya qilish mexanizmlarini kuchaytirish va tadbirkorlar uchun patent jarayonlarini soddalashtirish.

6. Innovatsion loyihalarni tijoratlashtirish bo‘yicha davlat–xususiy sheriklik mexanizmlarini kengaytirish.
7. Kadrlar salohiyatini oshirish, texnik oliygohlarda amaliyotga yo‘naltirilgan ta’lim dasturlarini kengaytirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. A.Taniyev. “Innovatsion iqtisodiyot”. Darsik. – Samarqand: SamDU nashri, 2020 y.– 460 b
2. Maxmudova Guljaxon Nematdjonovna. Innovatsion iqtisodiyot. O‘quv qo‘llanma. –T.: “Universitet”, 2021. 256 bet.
3. Innovation, intellectual property, and economic growth / ChristineGreenhalgh and Mark Rogers.USA Princeton University Press, 2010 . 46-б.
4. Y.E. Aliyev. “Innovatsion iqtisodiyot”: O‘quv qo‘llanma. – T.: «IQTISODIYOT», 2019. – 236 bet.
5. Paskaleva, K. Enabling the smart city:The progress of e-city governance in Europe (англ.) // International Journal of Innovation and Regional Development : journal. — 2009. — 25 January (vol. 1, no. 4). — P. 405—422(18). — doi:10.1504/ijird.2009.022730
6. Komninos. What makes cities intelligent? // Smart Cities: Governing, Modelling and Analysing the Transition (англ.). — Taylor and Francis. — P. 77. — ISBN 978-1135124144.
7. Lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi

ЎЗБЕКИСТОНДАГИ КИЧИК БИЗНЕС СУБЪЕКТЛАРИ ИНСТИТУТИНИНГ БОШҚАРУВИ

Ахмедов Хусанбой

https://doi.org/10.5281/zenodo.18185777

Klassifikator	Klassifikator_ru	Klassifikator_en	Klassifikator_uzc	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
O‘zbekiston Respublikasi	Республика Узбекистан	Republic of Uzbekistan	Ўзбекистон Республикаси	8643,9	8950,7	9239,7	9604,0	9950,8	10170,4	10397,5	10541,5	10128,8	10318,9	9865,7	10080,6	10131,1	10373,3	10628,7
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	Республика Каракалпакстан	Republic of Karakalpakstan	Қорақалпоғистон Республикаси	412,7	426,8	426,2	450,2	464,2	469,4	479,6	486,0	532,8	532,9	524,8	521,6	528,9	547,6	563,9
Andijon viloyati	Андижанская область	Andijan region	Андижон вилояти	901,2	943,2	973,8	1008,0	1042,0	1066,3	1095,2	1110,4	1035,3	1054,6	989,9	1020,0	1040,0	1071,9	1094,4
Buxoro viloyati	Бухарская область	Bukhara region	Бухоро вилояти	587,7	602,6	622,2	642,6	648,5	647,2	648,2	648,7	619,8	606,9	590,5	576,8	579,6	598,4	601,5
Jizzax viloyati	Джизакская область	Jizzakh region	Жиззах вилояти	298,7	310,2	323,6	336,1	348,8	360,8	372,2	378,7	384,5	427,2	418,7	434,1	422,6	427,1	434,9
Qashqadaryo viloyati	Кашкадарьинская область	Kashkadarya region	Қашқадарё вилояти	726,6	764,1	797,9	835,7	872,6	910,0	943,9	973,9	965,8	958,1	914,1	943,7	943,8	952,4	1020,1
Navoiy viloyati	Навоийская область	Navoi region	Навоий вилояти	227,5	231,5	246,0	249,1	253,1	254,0	254,5	250,6	229,3	227,0	207,4	214,5	209,7	222,2	226,1
Namangan viloyati	Наманганская область	Namangan region	Наманган вилояти	641,4	674,8	703,6	738,6	778,0	806,9	834,6	863,9	872,3	914,7	888,4	907,7	891,9	913,8	949,5
Samarqand viloyati	Самаркандская область	Samarkand region	Самарқанд вилояти	1009,0	1045,5	1075,1	1129,2	1174,3	1213,9	1254,6	1286,9	1216,1	1205,5	1158,3	1174,7	1197,8	1219,5	1236,1
Surxondaryo viloyati	Сурхандарьинская область	Surkhandarya region	Сурхондарё вилояти	588,6	623,5	653,5	688,2	720,6	747,3	778,2	802,6	781,0	814,9	770,3	785,5	773,6	776,1	792,3
Sirdaryo viloyati	Сырдарьинская область	Syrdarya region	Сирдарё вилояти	248,0	257,2	259,6	270,5	277,5	278,6	279,8	278,4	274,2	267,4	247,5	248,7	244,1	243,0	258,3
Toshkent viloyati	Ташкентская область	Tashkent region	Тошкент вилояти	839,9	869,2	901,7	938,0	971,1	984,6	989,8	968,5	898,8	897,8	833,4	853,3	843,3	872,0	889,5
Farg‘ona viloyati	Ферганская область	Fergana region	Фарғона вилояти	1031,8	1043,9	1081,2	1129,2	1170,6	1192,5	1214,4	1229,3	1144,5	1185,0	1136,3	1164,7	1190,4	1230,1	1258,3
Xorazm viloyati	Хорезмская область	Khorezm region	Хоразм вилояти	475,8	497,8	509,0	518,7	557,2	573,3	590,3	599,2	573,4	591,9	567,9	574,3	579,3	609,8	621,0
Toshkent shahri	город Ташкент	Tashkent city	Тошкент шаҳри	655,0	660,4	666,3	669,9	672,3	665,6	662,2	664,4	601,0	635,0	618,2	661,0	686,1	689,4	682,8

Как показывают данные национального комитета Республики Узбекистан по статистике, малый и средний бизнес является фундаментом экономики Узбекистана, обеспечивая в 2023 году около 74,5% общей занятости. Однако его вклад в формирование ВВП демонстрирует тревожную тенденцию к снижению, с пиковых значений в 67,2% в 2017 году до 54,3% в 2023 году. Этот дисбаланс сигнализирует о снижении относительной производительности сектора малого предпринимательства. На фоне этого структурного ослабления традиционного малого бизнеса происходит стремительное утверждение новой экономической парадигмы, то есть экономики данных и цифровых платформ. Данные по г. Ташкенту, где доля занятых в малых предпринимательствах минимальна около 49,4%, а

доля в ВВП также сокращается, косвенно указывают на то, что драйверы роста смещаются в сторону высокотехнологичных и платформенных моделей. Традиционные стратегии малого и среднего предпринимательства становятся неэффективными, создавая острую необходимость в поиске новых моделей интеграции в цифровую среду[5].

ИСПОЛЬЗОВАННЫЕ ЛИТЕРАТУРЫ

1. «Малый бизнес в цифровой экономике: стратегии и инструменты» А.С. Коротков, И.А. Спиридонова.
2. Parker, G. G., Van Alstyne, M. W., & Choudary, S. P. (2016). Platform Revolution: How Networked Markets Are Transforming the Economy—and How to Make Them Work for You. W. W. Norton & Company.
3. Указ президента Республики Узбекистан № УП-6079 от 05.10.2020 «Об утверждении Стратегии “Цифровой Узбекистан — 2030”».
4. Выступление Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиеева на встрече с предпринимателями 20.08.2025.
5. stat.uz – сайт.

LINGVOMADANIYATSHUNOSLIK: TIL VA MADANIYAT O‘RTASIDAGI O‘ZARO ALOQA FENOMENI

Raxmatullayeva Dilrabo Alimjanovna
Angren universiteti katta o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.18185980

Annotatsiya. *Mazkur maqolada lingvomadaniyatshunoslik fani mazmuni, uning shakllanishi, predmeti va ilmiy metodologiyasi yoritiladi. Ushbu fan madaniyat va til o‘rtasidagi murakkab o‘zaro ta’sirni o‘rganadi hamda lingvistik birliklar orqali milliy madaniyatni ifodalash mexanizmlarini ochib beradi. Turli olimlarning qarashlari orqali lingvomadaniyatshunoslikning integratsion xususiyatlari, zamonaviy ilmiy paradigmadagi o‘rni va bu fan sohasiga oid ilmiy bahslar tahlil qilinadi. Maqolada shuningdek, tahliliy misollar asosida til va madaniyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikning amaliy ifodasi ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *lingvomadaniyatshunoslik, til va madaniyat, madaniyat kodi, til kodi, milliy mentalitet, kognitiv makon, madaniy konsept.*

Annotation. *This article explores the essence of linguoculturology, shedding light on its formation, subject matter, and scientific methodology. The field examines the complex interaction between culture and language, revealing the mechanisms through which national culture is expressed via linguistic units. Drawing on the views of various scholars, the study analyzes the integrative characteristics of linguoculturology, its place within the modern scientific paradigm, and scholarly debates related to this discipline. The article also discusses the practical manifestation of the interrelation between language and culture through analytical examples.*

Keywords: *linguoculturology, language and culture, cultural code, language code, national mentality, cognitive space, cultural concept.*

Kirish

Lingvomadaniyatshunoslik – bu milliy tilning hayotiy ifodasini va til jarayonlari orqali namoyon bo‘ladigan moddiy hamda ma’naviy madaniyatni o‘rganadigan gumanitar fan. U tilning asosiy vazifalaridan biri – madaniy merosni yaratish, o‘zgartirish, rivojlantirish, saqlash va uzatish vositasi sifatida qanday amalga oshirilishini tushuntirishga yordam beradi.

Lingvomadaniyatshunoslik yangi turdagi tafakkur, jamiyatning zamonaviy ishlash sharoitlari bilan belgilanadigan butunlay yangi madaniy qadriyatlar tizimiga asoslanadi. U xalq madaniyatining turli sohalari haqidagi ma’lumotlarni hisobga oladi va ushbu madaniyat doirasidagi faktlar va hodisalarni ob’ektiv talqin qiladi.[1]

Hozircha lingvomadaniyatshunoslikning statusi, ob`ekti va metodlari bo‘yicha yagona universal ta’rif yoki umumiy qabul qilingan fikr mavjud emas, chunki ushbu fan metodologiyasi va nazariyasi hali dastlabki bosqichda bo‘lib, madaniyatshunoslik va tilshunoslikni o‘zaro integratsiya qilish nisbatan yangi yo‘nalish hisoblanadi. Biroq hozirgi bosqichda lingvomadaniyatshunoslik tadqiqotlarini tilni madaniyat bilan uzviy bog`liqlikda o‘rganish sifatida tavsiflash eng aniq ta`riflardan biri hisoblanadi.

E.I. Zinovyeva va E.E. Yurkov lingvomadaniyatshunoslikni filologiya fani doirasida ko‘rib chiqadilar. Ularning fikricha, lingvomadaniyatshunoslik "muayyan til vakillarining dunyo

haqidagi bilimlarini turli til birliklari, nutqiy faoliyat, nutqiy xulq-atvor va diskurs orqali qanday ifodalashini o‘rganadi".[2] Til egalari ongida aks etgan ob’ektlar o‘zida ma’no, assotsiatsiya, ohang va konnotatsiyalarni mujassam etadi, ular lingvomadaniy tadqiqotlar davomida to‘liq ochib beriladi. Bu erda madaniyatshunoslikning nafaqat til bilan, balki madaniy konseptlar shakllanadigan va rivojlanadigan kognitiv makon bilan ham bog‘liqligini ko‘rish mumkin.

Masalan, V.V. Vorobyov lingvomadaniyatshunoslikni quyidagicha ta’riflaydi: "Lingvomadaniyatshunoslik – bu kompleks ilmiy intizom bo‘lib, madaniyat va tilning o‘zaro aloqasi va o‘zaro ta’sirini o‘rganadi hamda ushbu jarayonni til birliklarining til va tilga oid bo‘lmagan mazmunining birligi sifatida aks ettiradi".[3]

U faqat madaniyat va tilning o‘zaro ta’sirini emas, balki "sintezlovchi turdagi kompleks ilmiy intizom" ekanligini ham ta’kidlaydi. Boshqacha qilib aytganda, V.V. Vorobyov lingvomadaniyatshunoslikning gumanitar bilimlar tizimidagi o‘rnini aniq belgilaydi va bu uning tadqiqot ob’ekti va predmeti mavjudligini ko‘rsatadi. Shuningdek, uning sintezlovchi fan ekanligiga ishora qilishi zamonaviy ilmiy paradigmaga mos keladi, ammo shu bilan birga, umumiy va farqlovchi xususiyatlarni aniq ajratib olishni talab qiladi.

Lingvomadaniyatshunoslikka oid turli tushunchalar tahlil qilinganda, aksariyat tadqiqotchilar ushbu mustaqil fan sifatida ajratib ko‘rsatishning asosiy mezoni – bu til va madaniyat duetidir, degan fikrda yakdil ekanligini ko‘rish mumkin.[4]

Shu asosda aytish mumkinki, lingvomadaniyatshunoslikning predmeti – bu madaniyat kodi va til kodi o‘zaro aloqaga kirishganda paydo bo‘ladigan lingvistik belgilarning madaniy jihatini o‘rganishdir. Bunday birliklar konseptlar, ramzlar, frazeologizmlar, idiomalar, maqol va matallar, metaforalar, nutq stereotiplari kabi til vositalarida mujassam bo‘ladi. Bundan tashqari har bir inson til shaxsi ham, madaniy shaxs ham bo‘lishi mumkin. Tilning xalqning madaniy-milliy mentalitetini aks ettirish qobiliyati til belgilarini "madaniyat tili"ni ifodalovchi vositaga aylantiradi.[4]

Masalan: O‘zbek tilidagi “mehmon” konsepti — mehmondo‘stlik qadriyatining tarixiy-madaniy ildizlarini aks ettirsa, “yor-yor”, “kelin salom” kabi birliklar — milliy marosim madaniyatining til vositasida ifodalanishidir. Ingliz tilidagi “privacy” — shaxsiy daxlsizlik, individuallik va mustaqillik madaniyati bilan bog‘liq muhim konseptdir. Yana misol qilib ingliz tilidagi “time is money” iborasini oladigan bo‘lsak, G‘arb jamiyatidagi vaqtning iqtisodiy ahamiyati haqidagi madaniy tasavvurni namoyon qiladi.

Madaniyat va til o‘zaro bog‘liqligi muammosi muayyan fan sohasi – madaniyatshunoslik, tilshunoslik, falsafa yoki sotsiologiyaga tegishli bo‘la olmaydi. Bu ko‘plab fanlar kesishadigan muammo hisoblanadi. Madaniyat va til o‘zaro bog‘liqligi muammosi muayyan fan sohasi – madaniyatshunoslik, tilshunoslik, falsafa yoki sotsiologiyaga tegishli bo‘la olmaydi. Bu ko‘plab fanlar kesishadigan muammo hisoblanadi.[5]

1. Tilshunoslik bilan aloqasi.

Tilshunoslik lingvomadaniyatshunoslikning asosiy tayanch fanlaridan biri bo‘lib, til birliklarining ma’nosi, grammatik xususiyatlari, funksional qo‘llanilishi va tarixiy o‘zgarishlarini tahlil qilish lingvomadaniy tadqiqotlarning boshlang‘ich manbai hisoblanadi. Tilshunoslik orqali o‘rganiladigan fonetika, leksikologiya, semasiologiya, morfologiya, sintaksis va pragmatika kabi sohalar madaniy mazmunning til tizimida qanday aks etishini aniqlash imkonini beradi.

O‘zbek tilidagi “oq yo‘l”, “ko‘ngil”, “or-nomus”, “uyat bo‘ladi” kabi birliklar grammatik jihatdan oddiy ko‘ringan bo‘lsa-da, ular murakkab madaniy mazmun, axloqiy qadriyatlar va

ijtimoiy xulq me’yorlarini aks ettiradi. Shu bois tilshunoslik lingvomadaniyatshunoslikning konseptual asoslarini aniqlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

2. Sotsiologiya va antropologiya bilan aloqasi.

Lingvomadaniyatshunoslikning sotsiologiya va antropologiya bilan aloqasi tilning ijtimoiy guruhlar, jamiyat tuzilishi, ijtimoiy rollar, gender munosabatlari, marosimlar, urf-odatlar va kundalik xulq-atvor me’yorlarini aks ettiruvchi madaniy hodisa sifatidagi funksiyasidan kelib chiqadi. Til — bu faqat kommunikatsiya vositasi emas, balki jamiyat tuzilishini, ijtimoiy stratifikatsiyani, guvohlik va rollarni qo‘llab-quvvatlovchi ijtimoiy institutdir.

Til jamiyatdagi ijtimoiy mavqega mos ravishda o‘zgaradi. Masalan: O‘zbek tilida ota-onaga, yoshi katta kishiga yoki ustozga murojaat qilishda hurmat shakllari, e’tiborli so‘zlar va yumshoq ohang qo‘llanadi. Ingliz tilida bo‘lsa ijtimoiy iyerarxiyani bildiruvchi til vositalari rasmiy va norasmiy muloqotda ifodalanadigan so‘zlar orqali farqlanadi.

3. Psixologiya bilan aloqasi.

Til – bu inson ongining oynasi; unda mental jarayonlar, hissiy reaktsiyalar, shaxsning o‘ziga xos dunyoqarashi aks etadi. Emotsional holatlar har bir xalq madaniyatida turlicha talqin qilinadi va bu farqlar tilga bevosita ko‘chadi.

Masalan: “Hayrat” konsepti o‘zbek tilida ko‘pincha ijobiy his-tuyg‘u, zavqlanish, qoyil qolish ma’nolari bilan uyg‘unlashadi:*“Voy, ajoyib-ku!”, “Hayratda qoldim!”, “Nahotki shunaqa bo‘lsa?!”* kabi birliklar ko‘proq hayratning iliq-emotsional tusini beradi.[6]

Rus tilidagi “удивление” esa ko‘pincha neytral yoki ikki qirrali emotsiyani bildiradi. Bu so‘z ijobiy ham, salbiy ham vaziyatda qo‘llanishi mumkin: *“Я удивлён”* — shunchaki faktning kutilmaganligini, hissiy tonning kuchsizligini bildiradi.

Bu farq psixologik-emotsional konseptlarning lingvomadaniy tabiatidan dalolat beradi.

O‘zbek tilidagi *“hayratdan yoqa ushlamoq”*, *“hayratomuz”*, *“aqldan ozdirar darajada hayratli”* kabi iboralar kuchli emotsional portret yaratadi. Ingliz tilida esa *“astonished”*, *“surprised”* kabi birliklar ko‘pincha vazmin, nazoratlangan emotsiyani aks ettiradi.

Bu misollar milliy psixologiyanın til tizimidagi ifodasini tahlil qilishda lingvomadaniyatshunoslik va psixologiya uyg‘un ishlashini ko‘rsatadi.

Xulosa

Lingvomadaniyatshunoslik – bu zamonaviy gumanitar fanlar tizimida o‘ziga xos o‘rin egallagan, til orqali madaniyatni, madaniyat orqali esa tilni chuqurroq anglash imkonini beruvchi kompleks yo‘nalishdir. Uning predmeti til va madaniyatning o‘zaro aloqasida shakllanadigan lingvistik birliklarning madaniy mazmunini o‘rganishdir. Hozirda bu fan nazariy jihatdan to‘liq shakllanmagan bo‘lsa-da, tilshunoslik, madaniyatshunoslik, falsafa va kognitiv fanlar kesishmasida rivojlanib borayotgan istiqbolli ilmiy soha hisoblanadi. Lingvomadaniyatshunoslik, tilni madaniy kod sifatida talqin qilgan holda, milliy identitet, mentalitet va ma’naviy qadriyatlarni anglashda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Vorobyov, V. V. Lingvokulturologiya: teoriya i metody. Moskva: Nauka, 1997.
2. Zinovyeva, E. I., & Yurkov, E. E. Lingvokul'turologiya: kompleksnoe izuchenie yazyka i kultury. Sankt-Peterburg: Izdatelstvo SPbGU, 2015.
3. Humboldt, W. von. O razlichii stroeniya chelovecheskikh yazykov i vliyanii etogo razlichiya na umstvennoe razvitie chelovechestva. Moskva: Progress, 1985.
4. Maslova, V. A. Lingvokulturologiya. Moskva: Akademiya, 2001.

IJTIMOIY EMOTSIANAL KO‘NIKMALARINI TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMLARI

Samandarova Muhayyo Qahramon qizi[1], Abdumutalova Muxlisa A’loxon qizi[2]
[1]Yangi asr universiteti “Maxsus pedagogika” kafedrasi o‘qituvchisi
[2]Yangi asr universiteti “pedagogika va psixologiya yo‘nalishi talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.18185998

Annotatsiya: *Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda emotsional intellektni shakllantirishning nazariy asoslari va amaliy yo‘nalishlari yoritiladi. Tadqiqotda bolalarning his tuyg‘ularini anglash ularni boshqarish, empatiya, ijtimoiy muloqot kabi emotsional ko‘nikmalarni erta yosh davrida shakllanishi alohida urg‘u bilan bayon etiladi. Xalqaro tajribada qo‘llanilayotgan rolli mashg‘ulotlar, hissiy hikoyalar va interfaol metodlarning samaradorligi tahlil qilinadi. Abu Nasr Farobiy, P. Salovey va J. Mayer, L.S. Vygotskiy kabi olimlarning nazariy qarashlari asosida emotsional intellektning tarkibiy qismlari va bolalarning ijtimoiy-kognitiv rivojlanishidagi ahamiyati ilmiy yondashuv asosida tushuntirilgan. Shuningdek, oilaviy muhitning ta’siri, ota-onalarning emotsional madaniyati, pedagog va tarbiyachilarning individual yondashuvlari kabi omillar bolalarning hissiy rivojlanishida muhim o‘rin tutishi ko‘rsatib o‘tiladi.*

Kalit so‘zlar: *emotsional intellekt, maktabgacha yosh, hissiy rivojlanish, empatiya, ijtimoiy ko‘nikmalar, oilaviy muhit, pedagogik texnologiyalar, didaktik o‘yinlar.*

Аннотация. *В статье освещаются теоретические основы и практические направления формирования эмоционального интеллекта у детей дошкольного возраста. В исследовании особо подчёркивается, что такие эмоциональные навыки, как осознание и управление собственными чувствами, эмпатия и социальная коммуникация, формируются именно в раннем возрасте. Анализируется эффективность ролевых занятий, эмоциональных рассказов и интерактивных методик, применяемых в международной практике. На основе теоретических взглядов таких учёных, как Абу Наср Фараби, П. Саловей и Дж. Майер, Л. С. Выготский, раскрываются структурные компоненты эмоционального интеллекта и его значение в социально-когнитивном развитии ребёнка. Кроме того, показано влияние семейной среды, эмоциональной культуры родителей, а также индивидуального подхода педагогов и воспитателей на эмоциональное развитие детей. В статье также рассматривается роль дидактических и интерактивных игр в процессе воспитания и обучения, а также приводятся научные выводы по их внедрению в дошкольную образовательную практику.*

Ключевые слова: *эмоциональный интеллект, дошкольный возраст, эмоциональное развитие, эмпатия, социальные навыки, семейная среда, педагогические технологии, дидактические игры.*

Abstract. *The article highlights the theoretical foundations and practical directions for developing emotional intelligence in preschool children. The study emphasizes that emotional skills such as understanding and managing one’s own feelings, empathy, and social communication are formed primarily during early childhood. The effectiveness of role-playing activities, emotional stories, and interactive methods applied in international practice is analyzed. Based on the theoretical perspectives of scholars such as Abu Nasr Farabi, P. Salovey*

and J. Mayer, and L. S. Vygotsky, the structural components of emotional intelligence and its significance in the socio-cognitive development of children are explained using a scientific approach. Furthermore, the influence of the family environment, parents’ emotional culture, and the individual approaches of educators and caregivers on children’s emotional development is highlighted. The article also discusses the role of didactic and interactive games in the educational process for developing emotional intelligence, providing scientific conclusions on their application in preschool education practice.

Keywords: *emotional intelligence, preschool age, emotional development, empathy, social skills, family environment, pedagogical technologies, didactic games, interactive methods, early childhood education.*

Kirish. So‘nggi yillarda butun dunyo bo‘yicha maktabgacha yoshdagi bolalarda emotsional intellektni rivojlantirishga e’tibor tobora ortib bormoqda. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bolalar his-tuyg‘ularni idrok etish, ularni nazorat qilish va boshqalar bilan sog‘lom muloqot qilish qobiliyatlari dastlabki yosh davrda shakllana boshlaydi. Shu sababli, pedagoglar va psixologlar maxsus dasturlar va metodikalarni ishlab chiqib, bolalarning ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalarini tizimli ravishda rivojlantirishga e’tibor qaratmoqdalar. Xalqaro tajribada bolalarga emotsional ko‘nikmalarni o‘rgatish turli shakllarda amalga oshiriladi: o‘yinlar orqali hissiyotlarni anglatuvchi mashg‘ulotlar, rolli o‘yinlar, hissiy hikoyalar va ijtimoiy vaziyatlarga moslashishni o‘rgatadigan interaktiv mashg‘ulotlar keng qo‘llaniladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bolalarda maktabgacha yoshda emotsional intellektni maqsadli ravishda rivojlantirish kelajakdagi ijtimoiy moslashuvda, shaxslararo munosabatlarda va akademik muvaffaqiyatlarida sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek ota-onalar bilan birgalikda o‘tkaziladigan mashg‘ulotlar, hissiyotlarni muhokama qilish va ijobiy ijtimoiy xulq-atvorni rag‘batlantirish bolalarning emotsional ko‘nikmalarini mustahkamlashda katta ahamiyatga ega hisoblanadi.

Asosiy qism. Davlatimiz ta’lim tizimida so‘nggi yillarda maktabgacha yoshdagi bolalarda emotsional intellektni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Pedagogik tadqiqotlar va amaliy tajribalar shuni ko‘rsatadiki, bolaning hissiyotlarini anglash, ularni boshqarish va tengdoshlari bilan sog‘lom ijtimoiy munosabatlar o‘rnatish qobiliyatlari aynan maktabgacha yoshdagi davrda shakllana boshlaydi. Emotsional intellektni maqsadli rivojlantirish bolalarning kelajakdagi ijtimoiy moslashuvida, shaxslararo munosabatlarida va akademik muvaffaqiyatlarida muhim rol o‘ynaydi.


Emotsional intellektning tarkibiy elementlari. Emotsional intellekt insonning o‘z va boshqalarning his-tuyg‘ularini anglash, tushunish va boshqarish qobiliyati sifatida tavsiflanadi. Ushbu qobiliyat bir qancha tarkibiy elementlardan iborat bolib, ular birgalikda bolalar hissiy bilish ko‘nikmalarining rivojlanishiga asos bo‘ladi. O‘z-o‘zini anglash va his-tuyg‘ularni tanib olish, o‘z his-tuyg‘ularini boshqarish, boshqalarning his-tuyg‘ularini tushunish (empatiya) va ijtimoiy muloqot ko‘nikmalari bolalarning emotsional rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Har bir tarkibiy elementning rivojlanishi bola shaxsining sog‘lom hissiy va ijtimoiy muhitda o‘sishiga yordam beradi.[2]

Abu Nasr Farobiy ta'Iim-tarbiyaga bag‘ishlangan asarlarida inson takomilida ta'lim-tarbiyaning muhimligi, unda nimalarga e’tibor berish zarurligi, ta’lim-tarbiya usul va uslublari haqida fikr yuritadi. “Fozil odamlar sabri”, “Baxt saodatga erishuv to‘g‘risida”, “Aql ma'nolari to‘g‘risida”, “Ilmlarning kelib cbiqishi’ kabi maorifiy asarlarida olimning ijtimoiy tarbiyaviy

qarashlari o‘z ifodasini topgan. Farobiy ta'limning asosiy vazifasi jamiyat talablariga javob bera oladigan va shu jamiyat uchun xizmat qiladigan yetuk insonni yetishtirishdan iborat deb biladi.

Lev Vygotskiy maktabgacha yoshdagi bolalarda emotsional va ijtimoiy rivojlanish masalalarini o‘rganish bo`yicha muhim nazariy asos yaratgan. Vigotskiyning “rivojlanishning eng yaqin zonasi” kontseptsiyasi shuni ko‘rsatadiki, bolalarning o‘z hissiyotlarini tushunishi va boshqarishi, shuningdek, boshqalar bilan muloqot qilish qobiliyatlari pedagog yoki tengdoshlar yordamida yanada samarali rivojlanadi. Vygotskiyning fikricha, emotsional intellektni shakllantirish bolaning kognitiv va ijtimoiy rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli maktabgacha yoshdagi bolalarda hissiy ko‘nikmalarni o‘yinlar, muhokamalar va ijtimoiy faoliyat orqali rivojlantirish muhim hisoblanadi.

Emotsional intellekt tushunchasini ilmiy muomalaga birinchi bo‘lib psixologlar Piter Salovey va Jon Mayer kiritgan. Ularning fikricha, emotsional intellect-bu shaxsning hissiyotlarni idrok etish, tushunish, boshqarish, hayotiy qarorlar qabul qilishda foydalanish qobiliyatidir.



Bu model bugungi kunda “Salovey-Mayer modeli” deb ataladi va psixologiyada asosiy nazariy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.[1]

Maktabgacha yoshdagi bolalarda emotsiya va hissiyotlarining rivojlanishi bir qator shartlar bilan bog‘liq. Hayotning dastlabki yillaridan boshlab oiladan tashqarida tarbiyalangan bolalardagi sust emotsional rivojlanish butun xayoti davomida saqlanib qolishi mumkin Buning sababi shundaki, maktabgacha tarbiya muassasalarida bitta kishiga ko‘p bola to‘g‘ri keladi. Natijada tarbiyachilarning har bir bola bilan emotsional kontakti kam bo‘ladi. M.M.Kolsovaning ma’lumotlariga ko‘ra oiladagi nosog‘lom muhit darhol bolaning chizadigan rasmlarida aks etadi. Oiladagi noto‘g‘ri munosabatlar ba’zida bir tomonlama affektiv bog‘liqlikni (ko‘pincha onaga bo‘lgan bog‘liqlikni) yuzaga keltiradi. Bunda bolaning tengdoshlari bilan muloqatda bo‘lishi ehtiyoji susayadi, bolaning xulq-atvori haddan tashqari kattalarga bog‘liq bo‘lib qoladi, bola xatto kuchli salbiy kechinmalarni boshidan kechirishi mumkin. [5]

Emotsional intellektni rivojlantirish uchun birinchi navbatda oilada ochiq va sog‘lom kommunikatsiya muhitini yaratish lozim. Bolaning har qanday hissiy holatini e'tiborsiz

qoldirmaslik, uni tushunishga harakat qilish, unga o‘z fikrini erkin bildirish imkoniyatini berish - bu sog‘lom psixologik muhitning mezonlaridir. Ota-onalar bolaga "sen nima his qilyapsan?", "qanday o‘zingni his qilyapsan?" kabi savollar orqali emotsiyalarni aniqlashni o‘rgatishi mumkin. Bu yondashuv bolaning ozini tushunishi, boshqalarni anglashga intilishini kuchaytiradi. Yana bir muhim omil-bu ota-onalarning shaxsiy emotsional madaniyati. Ota-onaning o‘z hissiyotini boshqara olmasligi, g‘azab, zo‘riqish, baqir-chaqir orqali muammoga yondashuvi bolada salbiy emotsional modelni shakllantiradi. Bola har qanday vaziyatda ham emotsiyalarini salbiy tarzda ifoda etishni o‘rganadi. Shu sababli, avvalo ota-onalar o‘zlarining emotsional intellekt ustida ishlashi, o‘zini tahlil qilishi, stressni boshqarish uslublarini egallashi zarur.[3]

Maktabgacha ta`lim davridagi bolani har tomonlama komil inson bo`lib shakllanishida didaktik o`yinlar asosiy vosita bo`lib xizmat qiladi. Intellektual psixologik o`yinlarning barchasini quyidagi uch turga ajratish mumkin:

1. Buyumli o`yinlar (o`yinchoqlar, tabiiy materiallar)
2. Stol ustida o`ynaladigan o`yinlar
3. So`z o`yinlari Ta`lim jarayonida zamonaviy interfaol usullardan foydalanish bolalar intellektiga ijobiy ta`sir ko`rsatadi. [4]

Xulosa. Emotsional intellektning rivojlanishi bolalarning ijtimoiy moslashuvchanligini kuchaytiradi, ularning hissiy barqarorligini mustahkamlaydi va kelajakdagi muvaffaqiyatlari uchun muhim poydevor yaratadi. Maktabgacha ta’lim muassasalarida emotsional intellektni shakllantirish jarayoniga alohida e’tibor berilishi lozim. Bolalar emotsional jihatdan tabiiy ravishda kundalik hayotdagi tajribalar, oiladagi munosabatlar, bog‘chadagi faoliyatlar hamda tengdoshlar bilan bo‘lgan aloqalar orqali rivojlanadilar. Mana shu sababdan jarayonga ongli va mas’uliyatli yondashish muhim hisoblanadi. Ota-onalar va pedagoglar ham bolalarning hissiy kechinmalariga befarq bo‘lmay, ularning his tuyg‘ularini tan olishlari va ularni ifoda etishga rag‘batlantirishlari zarur hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Tojiyeva G.S, Maxkamdjanova N. Zamonaviy ta’lim sharoitida emotional intellektning o‘rni va ahamiyati “Raqamli ta'lim va kiberxavfsizlik zamonaviy texnologiyalar va xavf-xatarlari . 484-494-b 24.2025.
2. Parmonova L.I. “Bolalarni hissiy bilish ko‘nikmasini shakllantirish”. Bb 135-137 central asian journal of education and innovation 04.04.2025
3. Oripova N.T, Rahmatova H. “Oilaviy tarbiyada emotional intellektning o‘rni va rivojlantirish yo‘llari”. Bb 314-316 international journal of scientific researchers . 12.02.2025
4.Abduxamidova D.A. Maktabgacha yoshdagi bolalarda emotional intellektni rivojlantirish diagnostikasi: Metodlar va natijalar. Bb 345-348 maktabgacha va maktab ta’lim 10.10.2025
5. No‘monova Z, Xlimjanov A. Maktabgacha yoshdagi bolalarda emotional intellektni rivojlantirish dasturlari va samaradorligi. Bb 19-22 “zamonaviy dunyoda ilm-fan va texnologiya” nomli Ilmiy-amaliy konferensiya.
6. Samandarova M.Q., Methodological Significance Of Social Activity In Preparing Students For Professional Activity // European International Journal of Pedagogics. -2025-yil, 30-noyabr. –P. 172-175. DOI:-https://doi.org/10.55640/eijp-05-11-40. Article Link: https://eipublication.com/index.php/eijp/article/view/3606

THE ROLE OF DIGITAL LINGUISTICS, AI AND TEACHING METHODS

Suyunova Aziza Azamatovna
Student, Navoi State University
https://doi.org/10.5281/zenodo.18186024

Abstract. *This paper explores the relationship between digital linguistics, AI and modern teaching methods. Digital linguistics focus on the study of language with using computer tools, enabling automatic text analysis and translation. Artificial Intellegence plays a key role in understanding and using humans' language, making communication more effective between people and machines. Teaching technologies that are supported by AI, can create interactive and personalized learning environments which are able to improve student's language skills. The integration of these three fields contributes to the development of innovative educational methods and more efficient language learning systems.*

Keywords:*AI,artificial intelligence, digital, digitalization, digital linguistics, education, teaching, learning, language, linguistics, language corpora, linguistic research, modern, new, development, develop, increasingly, expansion, analysis, processing, modelling, integration, intersection, connection, research, scientific, study, method(s),today, field, transformation, technology, think, understand, learn, humans, program, introduced, life, idea, science, revolutionized, scientists, abilities, teaching methods, improve.*

Main parts:

Introduction: 21 st of October 2025, in the vedio conference meeting which was devoted for improving AI technologies, the president of Republic of Uzbekistan Shavkat Miromonovich Mirziyoyev mentioned that "Think about one thing, for working effectively AI programs should learn uzbek language completely. ". After this meeting, young generation and researchers paid most of their attention to learn AI technologies more widely.

1. Digital linguistics

In the 21 st century, there had been unpredecented digitalization in the case of education and science. Likewise, linguistics has also become one of the most active areas of technological transformation. Because of digital corpora, automatic analysis programs, artificial intelligence and several other fields, linguistic research is reaching to new stage. Today, the global education system has not been only an integral part of this approach, but also it offers widely using interactive platforms, AI-based learning tools, and distance-learning models. The relevance of the topic is that, today at the intersection of linguistics, technology and pedagogy, new fields and directions are being more developed rapidly. Moreover, these sectors are showing positive effects on improving the quality of education, developing language-learning methods and automating scientific research processes. In the modern global information era, language, technology and education are becoming as three interconnected and crucial areas.

Additionally, the quality of education has to face some fundamental changes in case of developing it, they can be the development of digital linguistcs, the application of artificial intelligence to language, and its direct integration into teaching processes. Also these changes are

becoming more and more important since technology is getting developed. Particularly, the increase in digital resources, and the expansion of new opportunities to deal with big data are being the reasons for using new prospects in modern education.

Digital linguistics is not only method of learning language with help of modern methods, but also it is the scientific field which contains analysis and modelling. It provides learners with numerous opportunities like, automatic processing of texts from structural, grammatical, semantic and pragmatic perspectives. The new developments in the area of digital linguistics initially linked to the formation of corpus linguistics and computational linguistics. In addition, at the core of this field, there is processing, analyzing and modelling which make it happen.

Electronic databases which consist of enormous, systematically collected authentic language materials is called Language corpora. It is formed as one of the key fields of digital linguistics, and works with millions of texts which are collected from electronic databases. Corporas are formed by newspaper articles, literary texts, scientific works, blogs, speech trinscripts, and many other sources. The main adventage of corporas is opportunity to study language in real conditions and natural contexts which they provide. Moreover, through corporas, the principles of real speech, frequency of linguistic units, stylistic features, and semantic changes can be pointed out.

That is to say, digital linguistics is the process which is explaining and teaching human language to computers. it is the foundation of AI, chatbots, translation programs and voice recognation bots. For example:

-Google

- Siri/ Google Assistant

-Chatgpt

-Dictation

-Language learning programs

History of Digital Linguistics:

The root of digital linguistics comes from 1950 - 1960 years.

1. Alan Turing - father of this field: Alana Turing was not only mathematic but also especially he initially came up with the questions like can computer be smart, can it understand language ?
2. Noam Chomsky - proved how language was shaped (especially grammatical structure) with more scientific proofs. Subsequently, language was taught to computers with his strategies.

3. 1980 - 1990 years:

As computers revolutionized, analyzing language with help of computers has become more easier. New program - machine learning was introduced to the field of education and science.

4. After 2010s:

Computers started understanding language as humans because of AI and deep learning tools. Platforms like Chatgpt become more numerous.

Basic adventages of Digital Linguistics:

1. Makes language straightforward to learn:

- Dualingo, Reverso, Google translate - these platforms work with this structure.
- Automatic translation, pronouncation, checking grammar are available for learners.

2. Makes communication more faster, speeds up:

- People from different nations understand each other with the help of translation.

-Zoom translation, real-time translation via mobile phones are the products of it.

3. Helps with medicine, education and business:

- Doctors can turn voice messages into text.

-In education, automatic test chekking and grammatical analysis can be found.

- For business, there are several chatbots which serve for customer service.

Basic disadvantages of Digital linguistics:

1. Some mistakes can be found

- Google translate and AI can not always translate 100 % correctly

2. Replacing people's jobs

-translators

- copywriters

-operators of call-centres

3. Makes language " artificial"

- more and more people are relying on translation and grammar checkings which then causes being unable to speak in language naturally, affecting to human speaking.

2. Artificial Intellegence (AI)

Today, in our modern period when every field is getting more developed and introducing new fields, AI is also one of the most revolutionary forces which is driving this transformation.

Artificial Intellegence is a technology that is created to think, understand, learn and decide like humans. That is to say, AI is clever program. It can think like human, however cannot be human itself.

How AI is created and introduced to our life ? The idea of bringing AI was considered from very past. After science and education get more revolutionized, scientists wanted to give some abilities to computers. These abilities can be:-seeing

-hearing, listening

-undesrtanding texts and analyzing

- responding to given questions, providing with answers

In 1956, scientific conference was held on in Dartmut College in USA. After that, this conference was remarked as " Birthday of AI". in this meeting, scientists looked forward computers to think, learn and solve problems. First and foremost, John McCarthy brought the term of AI, which then called him as the father of AI. While he was writing formal invitation for conference, he used the word AI for the first time. After that this term had been accepted as scientific phrase.

As time goes on, computers got more developed and complex, the use of Internet has widened, and database of information has increased. Therefore, AI advenced immediately, and became familiar to every field and everyone.

How AI was introduced to our life ?

Nowadays we are using AI platforms unknowingly and regularly:

1. Mobile phones - they have abilities like unlocking with identifying people's faces
2. Internet and social media platforms - You Tube and Instagram recommendations, they prepare recommedation list according to user's taste with sorting especially which type of vedios or reels are mostly seen, liked or shared.

3. Daily life - using navigation maps or, smart home gadgets. All these maps and gadgets work with AI. According to which destination you have choosen, navigation maps offer more nearer path. Moreover, some smart gadgets like Alica, work with AI.
4. In education - language teaching methods. There are online platforms that provide more opportunities and video lessons for those who are willing to learn language.
5. In healthcare (medical) field - our today's developed era provides doctors with more modern X-Ray scanners which can lead to early diagnosis and finding rapid treatment solutions.

The role of AI in our life, How it changed our lifestyle ?

1. Speeding up the work and boosting work efficiency -AI can work with enormous databases of information even hundret times faster than human did which then leads to work efficiency.
2. Minimizing errors - for example in banking systems and medicine diagnosis, AI helps to reduce mistakes which were done by humans.
3. Creating new and more opportunities - that is to say while using AI effeciently, new jobs, more aviabilities and more technologies can be created as AI can provide with clear ideas to do something.
4. Helping people - espicially for those whose opportunities and avaibilities are limited. There are some platforms which can turn sentences into voice or audio for people cannot speak. Additionally. robot assistances are also helping people with disabilities and all of these are AI

Effects of AI on people's lives -

Positive: making life more easier with numerous avaibilities and opportunities.

-Helping students and learners with their studying and education.

-Saving time as it can do couple of tasks simultaneously.

-Improving businesses since it can offer more clear plans.

-Making medicine more obvious with help of new technologies.

As adventages always come with disadventages, there are quite plenty of them.:

-AI is replacing some jobs which is then causing rise of unemployment.

-quick spreading of unverified hypothesis.

- addicting to AI makes people lazy even then they do not want to use their own brains to think about basic ideas or thoughts.

All in all, AI is ever the greatest invention of human being if regarding to use only for positive and beneficial sides.

3. Teaching methods

Teaching methods are systematic approaches, strategies, and techniques which are being used by teachers to make their lessons more interactive and more understandable for learners. These are not just the approaches to teach students, but they play crucial role to develop childrens' skills, attitudes, and values. Main aim of teaching methods is to facilitate learning through making it more effective, engaging and meaningful. Teaching methods are authentically importatnt as they are not just basic teaching strategies like memorising facts and information. By using them effectively, students can get more deeper into theme and learn more. Additionally, it helps learners to experience these skills in real life and develops critical thinking. Each method contains specific target: understanding theory, showing and using obtained practice

and knowledge, encouraging creativity and promoting creative thinking and developing collaboration.

Types of teaching methods:

1. Lecture method:

-Informatin is delivered directly to students by teacher, alongwith making it more understandable.

-beneficial when introducing new topic or theoritical knowledge

-can be enhanced with visual aids like slides, charts, or videos

2. Discussion method:

-active participation by students, asking more questions and exchanging ideas

-encouragement toward critical thinking, communication skills, and deeper understanding

3.Demonstration method:

-teachers show the process or example to explain concepts practically

- commonly used in science labs, medical training or technical education.

4. Project-based learning:

-students can learn solving real-world problems with completing tasks

-encourages creativity, problem-solving, teamwork and time management

5. Collaborative / Group work

- students work in groups to complete tasks or solve problems together

-helps to develop social skills, leadership, and cooperative learning

6. Experimental learning

- learning through experience or experiments

-students can gain practical skills and deeper understanding

7. Blended learning

-combining traditional classroom teaching with online tools and recources

- allows learning experiences be more flexible, personalized and interactive

Teaching methods play a vital role in our lives, beyond just education. They influence:

- Academic Growth: Help students understand complex concepts and keep knowledge.

-Personal Development: Advance critical thinking, decision-making, and self-confidence.

- Professional Preparation: Provide learners with practical skills and problem-solving abilities.

-Social Skills: Encourage communication, teamwork, empathy, and respect for others.

-Lifelong Learning: Develop a love for learning that continues beyond school or university.

Teaching methods are found as the key structure of education which was the reason for it to be created. Actually, they are more than just techniques - they are essential tools that shape minds, develop ideas, broaden horizons and prepare individuals for real life's challenges. Moreover it can enhance knowledge, creativity, problem-solving and social skills, only when it is applied correctly. While challenges exist, the positive impact of effective teaching methods on personal growth and society is undeniable.

Conclusion

Digital linguistics, Artificial Intellegence and teching methods have already become one of the integral part of today's education system. They can not offer numerous adventages only for scientific research, but also they are still continuing to serve as an important tool in the daily teaching process. Integration of AI and linguistic corporas can create new accessibilities and

opportunities to learn language. Different teaching methods make quality of education better. There is no doubt that in the future, education will be increasingly digitalized, flexible, personalized and based on intellegent systems.

REFERENCES

1. lex.ux
2. Ziyonet.uz
3. Chatgpt.com
4. https://www.ibm.com
5. https://www.buffalo.edu/catt/teach/develop/design/teaching-methods.html
6. https://www.degruyterbrill.com/serial/dil-b/html?srsltid=AfmBOorrqQiG7xWp_aIrdmrXw_gLtWu85cjgKEYaDDZ9BPwKQfCiSIy2
7. https://en.wikipedia.org/wiki/History_of_artificial_intelligence
8. https://www.3dbear.io/blog/the-impact-of-ai-how-artificial-intelligence-is-transforming-society
9. https://bernardmarr.com/what-is-the-impact-of-artificial-intelligence-ai-on-society/
10. https://www.degruyterbrill.com/serial/dil-b/html?srsltid=AfmBOoqZq9NULXANOPXJEF123JyIXLOOJJKT3i3pneMu5xgcGe-8AjK0

FITRATSHUNOSLIKDA H. BOLTABOYEVNING ILMIY-METODOLOGIK TAMOYILLARI

Vositov Shavkatjon Abdivaxabovich
Andijon davlat chet tillari instituti tadqiqotchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.18186119

Annotatsiya. *Mazkur maqolada H. Boltaboyevning Fitrat ijodini tahlil qilishdagi adabiy-estetik qarashlari va ilmiy-metodologik yondashuvlari yoritilgan. Olim Fitrat shaxsini nafaqat ijtimoiy-siyosiy arbob, balki badiiy tafakkur egasi va estetik izlanishlarga moyil ijodkor sifatida talqin qiladi. Maqolada,shuningdek, tarixiy-biografik, tarixiy-sotsiologik hamda nazariy-estetik metodlar asosida Fitrat merosining mazmuni, g‘oyaviy yo‘nalishi va badiiy xususiyatlari ochib beriladi. H. Boltaboyev Fitrat asarlarini milliy uyg‘onish, jadidchilik mafkurasi va estetik tafakkur bilan bog‘lab tahlil etadi. Shu bois olimning ilmiy merosi fitratshunoslikda dolzarb va ahamiyatli o‘rin tutadi.*

Kalit so‘zlar: *Adabiy-estetik qarashlar, metodologiya, jadidchilik, milliy uyg‘onish, estetik tafakkur.*

Аннотация. *В данной статье освещаются литературно-эстетические взгляды и научно-методологические подходы Х. Болтабоева в анализе творчества Фитрата. Учёный трактует личность Фитрата не только как общественно-политического деятеля, но и как обладателя художественного мышления и творца, склонного к эстетическим поискам. В исследовании на основе историко-биографического, историко-социологического и теоретико-эстетического методов раскрываются содержание, идейное направление и художественные особенности наследия Фитрата. Х. Болтабоев анализирует произведения Фитрата в связи с идеями национального возрождения, джадидизма и эстетического мышления. Поэтому научное наследие учёного сохраняет свою актуальность и значимость в фитратоведении.*

Ключевые слова: *Литературно-эстетические взгляды, методология, джадидизм, национальное возрождение, эстетическое мышление.*

Abstract. *This article highlights the literary-aesthetic views and scientific-methodological approaches of H. Boltaboyev in analyzing the works of Fitrat. The scholar interprets Fitrat not only as a socio-political figure but also as a thinker endowed with artistic imagination and a creator inclined toward aesthetic explorations. The study, based on historical-biographical, historical-sociological, and theoretical-aesthetic methods, reveals the content, ideological orientation, and artistic features of Fitrat’s heritage. H. Boltaboyev analyzes Fitrat’s works in connection with the ideas of national revival, Jadidism, and aesthetic thought. Therefore, the scholar’s scientific legacy remains relevant and significant in contemporary Fitrat studies.*

Keywords: *Literary-aesthetic views, methodology, Jadidism, national revival, aesthetic thought.*

H. Boltaboyevning Fitrat ijodiga oid adabiy-estetik qarashlari keng qamrov va chuqur nazariy asoslar bilan ajralib turadi. U Fitrat shaxsini faqatgina ijtimoiy-siyosiy faol arbob sifatida emas, balki badiiy tafakkur egasi, adabiy tajribalar sinovchisi va estetik izlanishga intilgan

ijodkor sifatida talqin qiladi. Mazkur yondashuv olim ilmiy merosining betakrorligini ta’minlab, uni bugungi kunda ham dolzarb va qimmatliligicha saqlab kelmoqda.

H.Boltaboyevning Fitrat ijodini o‘rganishdagi ilmiy-uslubiy yondashuvlari turlicha metodikaga asoslangan bo‘lib, ular olimning tadqiqotlariga chuqur va tizimli ilmiy mazmun baxsh etadi. Ushbu yondashuvlarning ilk namunasini tarixiy-biografik uslub tashkil etadi. Olim bu metod orqali Fitratning adabiy merosini uning hayoti va tarixiy faoliyati bilan uzviy aloqada tahlil qiladi**. Bunda u ijodkor shaxsining shakllanish bosqichlarini, tarixiy davr voqealari va ijtimoiy-siyosiy muhitning Fitrat dunyoqarashi va estetik qarashlariga ko‘rsatgan ta’sirini aniqlashga alohida e’tibor qaratadi. Shuningdek, H.Boltaboyev Fitrat asarlaridagi g‘oyaviy yo‘nalish, badiiy tafakkur va ma’rifiy qarashlarni tarixiy shaxsning ichki evolyutsiyasi bilan uyg‘un holda tahlil etib, ularning davr kontekstidagi o‘rni va ahamiyatini ochib beradi.**

H. Boltaboyevning Fitrat ijodini tahlil qilishda qo‘llagan asosiy metodlaridan yana biri tarixiy-sotsiologik yondashuv sanaladi. Olim Fitratning badiiy va ilmiy merosini uning yashagan davridagi siyosiy-ijtimoiy sharoit bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganadi. Jumladan, jadidchilik harakati, mustamlakachilik siyosati, diniy-ma’rifiy islohotlar hamda milliy uyg‘onish g‘oyalari H.Boltaboyev talqinida Fitrat asarlarining mazmuniy yo‘nalishi, g‘oyaviy asoslari va badiiy ruhiyatini shakllantirgan muhim tarixiy-ijtimoiy kontekst sifatida ko‘riladi.

Mazkur yondashuvning yaqqol ifodasi olimning “Fitrat va jadidchilik” risolasiga kiritilgan qator tadqiqotlarida o‘z aksini topgan. Jumladan, “Chig‘atoy gurungi – to‘garakmi yo tashkilot?”, “Talabni qondirmagan inqilob” va “Jadidchilikning ma’naviy ildizlari” kabi maqolalarda olim Fitrat ijodini tarixiy voqelik, ijtimoiy ong va davr talablari bilan bevosita aloqador holda tahlil etadi.

Mazkur maqolalarda Fitratning shaxsi va ijodiy merosi milliy uyg‘onish jarayoni, jadidchilik mafkurasi hamda mustamlaka sharoitida yashagan ziyolilar taqdiri nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. “Chig‘atoy gurungi – to‘garakmi yo tashkilot?” nomli maqolasida olim ushbu tashkilotning qachon, qayerda va qanday sharoitda tashkil topganini yoritadi hamda uning asoschisi sifatida Fitrat shaxsini alohida ta’kidlaydi: “1918–1920-yillarda faoliyat ko‘rsatgan “Chig‘atoy gurungi” Turkiston muxtoriyati va Buxoro jadidlarining qo‘zg‘olonchilik harakatlari muvaffaqiyatsizlikka uchragandan keyin Fitrat rahbarligida Toshkentda tashkil topdi” [2:40]. H.Boltaboyevning fikriga ko‘ra, bu to‘garak nafaqat adabiy-estetik qarashlar, balki milliy o‘zlikni anglash va ma’rifiy uyg‘onish g‘oyalari shakllanishida ham muhim rol o‘ynagan.

Olim Fitratni o‘z davrining murakkab ijtimoiy-siyosiy muhitida yetishgan mutafakkir sifatida talqin etadi. Natijada, Fitrat ijodining zamonaviylik va milliylik mohiyati, uning g‘oyaviy-estetik tamoyillari hamda ijtimoiy ahamiyati tarixiy-sotsiologik metod asosida chuqur ochib beriladi.

Nazariy-estetik yondashuv H.Boltaboyevning Fitrat ijodini tahlil qilishda muhim metodlardan biri hisoblanadi. Olim Fitrat asarlarini adabiy janr, uslub, kompozitsiya, obrazlar tizimi va badiiy ifoda vositalari nuqtai nazaridan chuqur o‘rganadi. Xususan, uning dramalaridagi syujet qurilishi, ziddiyatlarning bosqichma-bosqich rivoji va obrazlarning ramziy-ma’naviy mazmuni estetik mezonlarga tayangan holda tahlil qilinadi.

Olim Fitratning san’atga bo‘lgan qarashlarini o‘zining ilmiy ishlanmalari va adabiyotshunoslikdagi tahlillarida chuqur o‘rganib, uning san’at va badiiy ijodga bo‘lgan yondashuvini ta’kidladi. “Bizningcha, san’atning mohiyati, turlari va kelib chiqishi xususida 20-yillarda nisbatan atroflicha fikr yuritgan olim Abdurauf Fitrat bo‘ldi. Adibning san’at haqidagi

The essence of education modernization is understood as mastering mechanisms that ensure continuous renewal. Research emphasizes that the quality and innovativeness of education are key indicators for addressing contemporary educational challenges [1]. Pedagogical innovation involves preparing future specialists to work in new conditions by introducing qualitative changes and improving efficiency based on existing knowledge. The ultimate goal is to enhance the quality indicators of the education system, develop relevant pedagogical qualities, and achieve high performance. The modernization of Uzbekistan's education system is deeply intertwined with **innovative personnel training** - training teachers, administrators, and technical school staff in new competencies, with new pedagogies, and via new institutional forms. Key innovations include competency-based development, regional training centers, digital and AI tools, international collaboration, and structural reforms in pre-

service teacher education. However, success hinges on addressing challenges related to capacity, funding, infrastructure, and sustainability.

Currently, challenges in the education system are closely related to teacher potential. Studies show that the professional competence of modern teachers often lags behind rapidly evolving educational demands. This highlights the urgency of developing pedagogical education and improving continuous teacher training, retraining, and professional development systems [2]. By building on these foundations, Uzbekistan has a strong opportunity to develop a high-quality, future-oriented educational workforce that can support its vision for a modern, globally competitive education system. Modernizing personnel training in Uzbekistan requires combining traditional educational values with innovative technologies and global trends. Building a flexible, digital, and competency-oriented education system will enable the country to cultivate a new generation of skilled professionals ready for the challenges of the 21st century.

USED LITERATURE

1. 2017–2021 Actions Strategy for the Development of the Republic of Uzbekistan. – Tashkent, 2017.
2. Badelbayeva, Y.O. Ensuring Cultural Competencies of Teachers in Higher Education Institutions Based on an Integrative Approach. Tashkent State Pedagogical University Scientific Reports, 2022, No. 6.
3. Dewey, J. *Democracy and Education.* – New York: Macmillan, 1916.
4. Yoldoshev, J.G., Usmonov, S. *Fundamentals of Pedagogical Innovations.* – Tashkent: O‘qituvchi, 2016.

INNOVATSION MUHITNI SHAKLLANTIRISHDA OLIY TA'LIMNING O'RNI

Umarova Muqaddas Abbasovna[1], Shodmonova Dilfuza[2]
[1]Ilmiy rahbar: Biznes Boshqaruvi kafedrasi professori,
[2]Millat Umidi Universiteti talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.18271386

Annotatsiya. *Ushbu maqolada hozirgi vaqtda rivojlangan mamlakatlarning yalpi ichki mahsulotida (YAIM) innovasion texnologiyalarning ulushi 60 foizni tashkil etmoqda. Jahondagi kuchli raqobat muhitida innovatsion faoliyat intensiv holati iqtisodiy rivojlanish darajasiga ta'sir ko'rsatadi. Raqobat muhitida innovatsion faoliyat uchun qulay shart-sharoit yaratgan mamlakat yoki hudud bugungi kunda iqtisodiy o'sishga erishmoqda. Universitetlar esa innovatsion muhitni shakllantirishda asosiy drayverlardan biri sifatida maydonga chiqmoqda. Ta'lim muassasalari nafaqat ilmiy tadqiqotlar markazi, balki yangi g'oya va texnologiyalar generatori sifatida iqtisodiyotga samarali ta'sir ko'rsatmoqda.*

Abstract. *This article discusses the current share of innovative technologies in the gross domestic product (GDP) of developed countries. In a highly competitive global environment, the intensity of innovative activity affects the level of economic development. A country or region that has created favorable conditions for innovative activity in a competitive environment is achieving economic growth today. Universities are emerging as one of the main drivers in the formation of an innovative environment. Educational institutions are not only centers of scientific research, but also generators of new ideas and technologies, which have an effective impact on the economy*

Аннотация. *В данной статье рассматривается текущая доля инновационных технологий в валовом внутреннем продукте (ВВП) развитых стран. В условиях высококонкурентной глобальной среды интенсивность инновационной деятельности влияет на уровень экономического развития. Страна или регион, создавшие благоприятные условия для инновационной деятельности в конкурентной среде, сегодня добиваются экономического роста. Университеты становятся одним из главных двигателей формирования инновационной среды. Образовательные учреждения являются не только центрами научных исследований, но и генераторами новых идей и технологий, оказывающих эффективное влияние на экономику.*

Kalit so'zlar: *Innovatsion muhit, innovatsiya, innovatsion ta'lim, ilmiy tadqiqotlar, biznes ta'lim, texnologik rivojlanish, innovatsion siyosat, iqtisodiy rivojlanish, kadrlar tayyorlash tizimi,innavatsion loyihalar,kreativ yondashuv,intellektual resurslar,ilmiy hamkorlik,akademik tadqiqotlar,talabalar start-upi, innovatsion yechimlar,Oliy ta'lim innovatsiyasi,Unversitetlar salohiyati,yangicha ta'lim muhiti.*

Kirish.

Universitetlar esa innovatsion muhitni shakllantirishda asosiy drayverlardan biri sifatida maydonga chiqmoqda. Ta'lim muassasalari nafaqat ilmiy tadqiqotlar markazi, balki yangi g'oya va texnologiyalar generatori sifatida iqtisodiyotga samarali ta'sir ko'rsatmoqda. Zamonaviy universitetlar innovatsion infratuzilma – inkubatsiya markazlari, texnoparklar, startap

laboratoriyalarini rivojlantirish orqali yoshlar va tadqiqotchilarning ijodiy salohiyatini kengaytirmoqda.

Shu bilan birga, universitetlarning biznes sektori bilan hamkorligi innovatsion ekotizimni shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Ana shunday hamkorlik orqali ilm-fan natijalari amaliyotga joriy etilib, iqtisodiy samaradorlikni oshiradi. Mazkur maqolada universitetlarning innovatsion muhit yaratishdagi o‘rni, ularning iqtisodiy rivojlanishga qo‘shayotgan hissasi hamda O‘zbekistonda innovatsion ta’lim ekotizimini takomillashtirish yo‘nalishlari tahlil qilingan. Shu bilan birga, innovatsion jarayonlarni samarali tashkil etishda oliy ta’lim muassasalari muhim strategik o‘rin egallaydi. Universitetlar ilmiy-tadqiqotlar, yangi texnologiyalar yaratish, startap tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash va malakali kadrlar tayyorlash orqali innovatsion ekotizimning asosiy bo‘g‘ini sifatida maydonga chiqadi. Zamonaviy oliy ta’lim nafaqat bilim beruvchi maskan, balki iqtisodiyot ehtiyojiga javob beruvchi innovatsion g‘oyalar generatori bo‘lib, mamlakatning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida olib borilayotgan islohotlar ham aynan innovatsion salohiyatni kuchaytirish, universitetlar va ishlab chiqarish sektori o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash, amaliy tadqiqotlar samaradorligini oshirishga qaratilgan bo‘lib, bu esa iqtisodiy modernizatsiya jarayonlarining barqaror rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

ASOSIY QISM

Innovatsion markazlar — bu ilmiy tadqiqotlar, texnologik ishlanmalar, startaplarva tadbirkorlik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan zamonaviy infratuzilma shaklidir. Ular odatda universitetlar, ilmiy-tadqiqot institutlari, sanoat korxonalari va investorlar bilan hamkorlikda faoliyat yuritadi. Innovatsion markazlar texnoparklar, biznes-inkubatorlar, startap akseleratorlari yoki sanoat hamkorlik markazlari shaklida bo‘lishi mumkin.Ularning asosiy funksiyalari quyidagilardan iborat.Ilmiy-texnologik tadqiqotlarni muvofiqlashtirish,Startap va innovatsion loyihalarni shakllantirish va rivojlantirish;Tijoratlashtirish – ilmiy natijalarni bozorga chiqarish, ya’ni uni amaliyotgatatbiq etish;Mentorlik va maslahat xizmati – yosh tadqiqotchilar va tadbirkorlar uchunmaslahat berish;Investitsiya va moliyaviy qo‘llab-quvvatlashni jalb qilish;Hamkorlik ekotizimini yaratish – universitet, sanoat va davlat o‘rtasidagiinnovatsion “uchburchak” modelini shakllantirish.Shuningdek, bunday markazlar raqamli transformatsiya, sun’iy intellekt,biotexnologiya, muqobil energiya, sanoat 4, sertifikatlash vaommalashtirishni ham ta’minlaydi.Dunyo tajribasi va ilg‘or amaliyotlarDunyo amaliyotida innovatsion markazlar mamlakat iqtisodiy siyosatiningasosiy drayverlaridan biri sifatida qaraladi. Ular ko‘pincha “innovatsion klasterlar”yoki “texnologik vodiylar” deb ataladi. Quyida ayrim ilg‘or tajribalar keltiriladi:AQSH – Silicon Valley (Kaliforniya),Xitoy – Zhongguancun (Pekin),Janubiy Koreya – Daedeok Innopolis,Isroil – Startap NationBu tajribalar shuni ko‘rsatadiki, innovatsion markazlar samarali ishlashi uchunquyidagi shartlar muhim: mustahkam qonunchilik bazasi, universitet-ilmiy soha-sanoat integratsiyasi, moliyaviy rag‘batlantirish, xalqaro hamkorlik va kadrlarsalohiyatini rivojlantirish. Universitetlarning innovatsion ekotizimdagi o‘rni ularning ilmiy-tadqiqot salohiyati va yangi texnologiyalarni amaliyotga joriy etish imkoniyatlari bilan belgilanadi. Bugungi kunda oliy ta’lim muassasalari nafaqat ta’lim beruvchi markaz, balki innovatsion faoliyatning asosiy tashkilotchisi, startaplar generatori va ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish maydoniga aylanib bormoqda.

Universitetlar huzurida faoliyat yuritayotgan innovatsion markazlar, texnoparklar va inkubatsiya muassasalari yosh tadqiqotchilar, professor-o‘qituvchilar va sanoat vakillarining hamkorlikda ishlashi uchun qulay shart-sharoit yaratadi. Ushbu infratuzilma “universitet – ishlab chiqarish – ilmiy tadqiqot” bog‘liqligini mustahkamlab, iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.Innovatsion jarayonlarni kuchaytirishda “uchburchak modeli” — universitet, biznes va davlat o‘rtasidagi hamkorlik alohida ahamiyatga ega. Davlat grantlari, innovatsion fondlar va qo‘llab-quvvatlov dasturlari oliy ta’lim muassasalarining tadqiqot salohiyatini sezilarli darajada oshirmoqda. Shuningdek, universitetlarning yetakchi xorijiy oliygohlar bilan ilmiy hamkorlikni kengaytirishi innovatsion ekotizimning global tajriba bilan boyishiga sabab bo‘lmoqda. Bu esa ilmiy izlanishlarning sifat jihatdan rivojlanishiga, raqamli iqtisodiyot, sun’iy intellekt va muhandislik texnologiyalari kabi yo‘nalishlarda yangi natijalarning yaratilishiga olib kelmoqda.Natijada, oliy ta’lim muassasalari innovatsion tafakkurni shakllantiruvchi, malakali mutaxassislar tayyorlovchi va mamlakat iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishining intellektual asosini yaratuvchi muhim institut sifatida maydonga chiqmoqda. Universitetlarda tashkil etilgan laboratoriya va innovatsion maktablar talabalar startaplarini qo‘llab-quvvatlab, ularning kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Innovatsion faoliyatning yana bir muhim yo‘nalishi — intellektual mulkni himoya qilish va uni tijoratlashtirishdir. Universitetlar patent olish, litsenziya shartnomalarini tuzish, ilmiy loyihalarni investorlarga taqdim etish kabi jarayonlarni yo‘lga qo‘ygan. Natijada, ilmiy g‘oyalar real iqtisodiy qiymatga ega bo‘lib, yangi startaplar va innovatsion korxonalar paydo bo‘lmoqda.Qolaversa, oliy ta’lim muassasalarida innovatsion tadbirkorlik madaniyatini shakllantirishga ham alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu borada talabalar uchun startap haftaliklari, innovatsion tanlovlar, hackathonlar, mentorlik dasturlari muntazam ravishda tashkil etilmoqda. Bunday tashabbuslar yoshlarning innovatsion fikrlashini rivojlantiradi, ularni amaliy loyihalarni hayotga tatbiq etishga undaydi va natijada milliy innovatsion ekotizimning yanada takomillashishiga zamin yaratadi. Shuningdek, universitetlar mintaqaviy innovatsion klasterlarning shakllanishida ham faol ishtirok etmoqda. Masalan, sanoat korxonalari, yangi texnologiyalar markazlari, IT-kompaniyalar va ilmiy muassasalar bir hududda integratsiyalashgan holda rivojlanmoqda. Bu jarayon innovatsion mahsulotlarni ishlab chiqish, eksport salohiyatini oshirish va mahalliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilishga yordam beradi.

XULOSA

Oliy ta’lim tizimida innovatsion yondashuvlarni rivojlantirish bugungi kunda iqtisodiy taraqqiyotning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Universitetlarda shakllanayotgan innovatsion ekotizimlar, ilmiy-tadqiqot faoliyatining modernizatsiya qilinishi, raqamli texnologiyalarni joriy etish hamda texnoparklar va inkubatsiya markazlarining samarali ishlashi yosh mutaxassislarning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilmoqda. Shuningdek, ta’lim, ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasining kuchayishi innovatsion g‘oyalar va ilmiy ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etish jarayonini tezlashtirmoqda. Bu esa oliy ta’lim muassasalarining nafaqat bilim beruvchi maskan, balki yangi texnologiyalar yaratuvchi strategik ilmiy markaz sifatidagi o‘rnini yanada mustahkamlaydi.Umuman olganda, oliy ta’limdagi innovatsiyalar jamiyatning intellektual salohiyatini oshiradi, iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga zamin yaratadi va mamlakatning global maydondagi raqobatdoshligini ta’minlaydi. Yoshlar salohiyatini yuzaga chiqaradi, intellektual kapitalni kuchaytiradi va mamlakatning global raqobatbardoshligini oshiradi. Mazkur jarayonlarning izchil davom ettirilishi kelajakda barqaror iqtisodiy rivojlanishning mustahkam poydevorini yaratadi.

ADABIYOTLAR

1. Nazarov, B. Oliy ta’lim tizimida innovatsiyalarni boshqarish. — Toshkent: Universitet, 2021.
2. Karimov, A. Innovatsion faoliyat va iqtisodiyotning raqobatbardoshligi. — Toshkent: Fan, 2019.
3. O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi. “Innovatsion ekotizimni rivojlantirish konsepsiyasi”. — Toshkent, 2020.
4. Jo‘rayev, Sh., Abdurahmonov, Q. Iqtisodiy innovatsiyalar nazariyasi. — Toshkent: Iqtisodiyot, 2021.
5. “Innovatsion rivojlanish” ilmiy jurnali. — Toshkent: Innovatsion rivojlanish vazirligi, turli sonlar (2020–2024).
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni. — Toshkent, 2018.

TASHKILOTDAGI BOSHQARUV USLUBLARINING XODIMLARNING ISH UNUMDORLIGIGA TA'SIRI

Asatullaeva Munisa Komil qizi[1], Dinora Ishmanova[2]
[1]Millat Umidi Xalqaro Universiteti talabasi;
[2]Ilmiy rahbar, Millat Umidi Xalqaro Universiteti rektori
https://doi.org/10.5281/zenodo.18232198

Annotatsiya. *Ushbu maqolada tashkilotdagi boshqaruv uslublarining xodimlar ish unumdorligiga ko'rsatadigan ta'siri chuqur tahlil qilinadi. Tadqiqotda rahbarlikning avtoritar, demokratik va liberal modellari hamda zamonaviy transformatsion va tranzaksion yondashuvlarning mehnat samaradorligiga bevosita va bilvosita ta'sir mexanizmlari yoritilgan. Xodimlarning motivatsiyasi, mehnat muhitidagi psixologik qulaylik, ichki rag'bat, jamoaviy muhit, tashkiliy madaniyat va yetakchilik kompetensiyalarining ishlab chiqarish ko'rsatkichlariga ta'siri ilmiy asosda sharhlanadi. Maqolada empirik kuzatuvlar, ilg'or xorijiy amaliyotlar hamda nazariy konsepsiyalar uyg'unligi asosida boshqaruv uslubining optimal modelini shakllantirishga oid ilmiy xulosalar beriladi.*

Kalit so'zlar: *Boshqaruv uslubi, ish unumdorligi, motivatsiya, yetakchilik, transformatsion rahbarlik, tranzaksion rahbarlik, tashkiliy madaniyat, mehnat samaradorligi.*

Аннотация. *В данной статье проводится комплексный анализ влияния стилей управления в организации на производительность труда сотрудников. Рассматриваются авторитарный, демократический, либеральный, а также современные трансформационный и транзакционный подходы к руководству, их прямые и косвенные механизмы воздействия на эффективность работы. Особое внимание уделено мотивации персонала, психологическому климату, внутренним стимулам, корпоративной культуре и лидерским компетенциям руководителей как ключевым факторам роста результативности. На основе синтеза эмпирических наблюдений, зарубежного опыта и теоретических концепций формулируются научно обоснованные выводы и рекомендации по выбору оптимального управленческого стиля.*

Ключевые слова: *Стиль управления, производительность труда, мотивация, лидерство, трансформационное руководство, транзакционное руководство, корпоративная культура, эффективность труда.*

Annotation. *This article provides an in-depth analysis of how organizational management styles influence employee productivity. It examines authoritarian, democratic, and laissez-faire leadership models, as well as contemporary transformational and transactional approaches, highlighting their direct and indirect effects on workplace efficiency. Key factors such as employee motivation, psychological climate, intrinsic incentives, team dynamics, organizational culture, and leadership competencies are discussed as critical determinants of performance. Synthesizing empirical observations, international best practices, and theoretical frameworks, the article presents well-grounded conclusions and recommendations for selecting an optimal management style within modern organizations.*

Keywords: *Management style, employee productivity, leadership, motivation, transformational leadership, transactional leadership, organizational culture, work efficiency.*

Kirish. Zamonaviy tashkilotlarda boshqaruv uslublari xodimlarning ish faoliyatini samarali tashkil etish, motivatsiyani shakllantirish va mehnat unumdorligini oshirishda hal qiluvchi omil sifatida maydonga chiqmoqda. Global raqobat keskinlashgan, texnologiyalar tez yangilanayotgan va inson kapitalining roli mislsiz darajada ortib borayotgan bugungi davrda rahbarning qanday yondashuvi tanlanishi nafaqat jamoaning ichki dinamikasiga, balki butun tashkilotning strategik barqarorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli boshqaruv uslubini to‘g‘ri belgilash, uni zamonaviy talablar bilan uyg‘unlashtirish va xodimlar ehtiyojiga moslashtirish menejment ilmida eng dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda.Menejment nazariyasida rahbarlikning avtoritar, demokratik va liberal modellaridan tortib, zamonaviy transformatsion, tranzaksion, karizmatik va xizmatkorona (servant leadership) yondashuvlargacha bo‘lgan keng spektrdagi uslublar shakllangan. Har bir uslubning o‘ziga xos kuchli va zaif jihatlari mavjud bo‘lib, ularning xodimlar ish unumdorligiga ta’siri turli psixologik, sotsiologik va tashkiliy omillar bilan belgilanadi. Masalan, avtoritar boshqaruv tartib-intizomni mustahkamlasa-da, ijodiy yondashuvni chegaralashi mumkin; demokratik uslub esa jamoaning faolligini oshirgan holda qaror qabul qilish jarayonini biroz sekinlashtirishi ehtimoldan xoli emas. Transformatsion rahbarlik esa xodimlarning ichki ilhomini uyg‘otib, ularning tashabbuskorligini rag‘batlantiradi, tranzaksion yondashuv esa aniq standart va mukofotlarga asoslanib natijaga yo‘naltirilgan boshqaruvni shakllantiradi.Boshqaruv uslubining xodimlar ish unumdorligiga ta’siri ko‘p qirrali bo‘lib, bir vaqtning o‘zida motivatsiya darajasi, jamoaviy ruh, psixologik muhit, mehnat jarayonining tashkil etilishi, kommunikatsiya samaradorligi, yetakchining shaxsiy sifati va tashkilotning madaniy qadriyatlari bilan uzviy bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Xodimlarning mehnatga munosabati, rahbarga bo‘lgan ishonchi, o‘z kasbiy salohiyatini to‘liq namoyon eta olishi ham aynan rahbarning qanday boshqaruv siyosatini olib borishiga chambarchas taalluqlidir. Shu bois, zamonaviy tashkilotlar boshqaruv uslubini tanlashda faqat an’anaviy metodlarga tayanmay, balki ilmiy-amaliy tadqiqotlar natijalariga, xalqaro tajribaga, xodimlarning shaxsiy ehtiyojlari va mehnat psixologiyasiga ham tayangan holda qaror qabul qilishi lozim.Mavzuning ahamiyati shundaki, samarali boshqaruv nafaqat ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini yaxshilaydi, balki xodimlar ruhiy farovonligini oshiradi, ularning ishga qiziqishini mustahkamlaydi va umumiy tashkiliy madaniyat rivojiga ijobiy hissa qo‘shadi. Mehnat unumdorligining oshishi esa o‘z navbatida iqtisodiy samaradorlikning yuksalishi, innovatsion yondashuvlarning joriy etilishi, ichki jarayonlarning optimallashuvi va raqobatbardoshlikning kuchayishiga olib keladi. Shu sababli boshqaruv uslublarining ish unumdorligiga ta’sirini o‘rganish orqali tashkilotlar o‘zining strategik maqsadlariga yanada tezroq, samaraliroq va barqarorroq erishishi mumkin.Ushbu maqola aynan ana shunday dolzarb jarayonlarni ilmiy asosda yoritishga qaratilgan bo‘lib, boshqaruv uslublarining nazariy asoslari, ularning tasnifi, har bir uslubning xodimlar faoliyatiga ta’sir mexanizmlari, mehnat samaradorligiga oid empirik kuzatuvlar va xalqaro tajribadan kelib chiqqan xulosalarni o‘z ichiga oladi. Tadqiqot natijalari tashkilot rahbarlari, menejerlar, kadrlar bo‘yicha mutaxassislar hamda zamonaviy boshqaruv jarayonlarini samarali yo‘lga qo‘yishni maqsad qilgan barcha manfaatdor tomonlar uchun amaliy ahamiyatga egadir.

Asosiy qism

Tashkilotdagi boshqaruv uslublarining xodimlar ish unumdorligiga ta’siri murakkab, ko‘p omilli va o‘zaro chambarchas bog‘liq jarayon bo‘lib, u menejment nazariyasi, mehnat psixologiyasi, tashkiliy xulq, yetakchilik konsepsiyalari va motivatsiya modellari bilan bevosita tutashib ketadi. Boshqaruv uslubining tanlanishi bir tomondan rahbarning shaxsiy sifatlari, bilim

va kompetensiyalariga bog‘liq bo‘lsa, ikkinchi tomondan tashkilotning madaniy qadriyatlari, ichki kommunikatsiya jarayonlari, jamoaviy muhit va xodimlarning kasbiy salohiyati orqali namoyon bo‘ladi. Avvalo, an’anaviy boshqaruv uslublari – avtoritar, demokratik va liberal modellar xodimlar faoliyatiga turlicha yo‘nalishda ta’sir ko‘rsatadi. Avtoritar uslub qat’iy nazorat, buyruq-bo‘ysunish munosabati, yuqori intizom talabiga asoslanadi. Bunday boshqaruv muayyan sharoitlarda tezkor qaror qabul qilish, xavfsizlik yoki ishlab chiqarish standartlari yuqori bo‘lgan jarayonlarda foydali bo‘lishi mumkin. Shu bilan birga, avtoritar yondashuv ijodkorlikni pasaytirishi, xodimlarning tashabbus ko‘rsatishiga to‘sqinlik qilishi yoki ularning ruhiy bosimini kuchaytirishi ehtimoli mavjud. Demokratik uslub esa aksincha, xodimlarning fikrini tinglash, qaror qabul qilish jarayoniga jalb qilish, jamoada ochiq muloqotni shakllantirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, mehnatga bo‘lgan ijobiy munosabat va psixologik farovonlikni mustahkamlaydi. Biroq bunday yondashuv vaqt talab qilishi, barcha xodimlarning fikrini uyg‘unlashtirish jarayoni esa ba’zan samaradorlikni sekinlashtirishi mumkin. Liberal uslubda rahbar xodimlarga katta erkinlik beradi, nazorat minimal bo‘ladi, ijodiy mehnat jarayonlari ustuvor bo‘lgan tashkilotlarda bu uslub samarali natija beradi. Ammo nazoratning sustligi ayrim hollarda tartibsizlik, mas’uliyatning pasayishi yoki vazifalarning o‘z vaqtida bajarilmasligiga olib kelishi ehtimoldan xoli emas.Zamonaviy menejment amaliyotida transformatsion va tranzaksion boshqaruv modellari xodimlar ish unumdorligiga eng samarali ta’sir ko‘rsatadigan uslublardan biri sifatida e’tirof etiladi. Transformatsion yondashuvda rahbar jamoani ilhomlantiradi, ularga umumiy maqsadlarni singdiradi, shaxsiy o‘sish, kasbiy rivojlanish va ijodiy tashabbusni rag‘batlantiradi. Bunday rahbar o‘ziga ergashtira oladi, o‘zining shaxsiy namunasi orqali xodimlarni yuqori natijalar sari yetaklaydi. Natijada xodimlar o‘z vazifalarini faqat majburiyat sifatida emas, balki ichki ehtiyoj sifatida bajaradi va bu mehnat unumdorligining sezilarli darajada oshishiga olib keladi. Tranzaksion rahbarlik esa aniq mehnat standartlari, vazifalar taqsimoti, mukofot va jazoga asoslangan boshqaruv tizimiga tayanadi. Bunda xodimlar belgilangan talablarni bajarish evaziga rag‘bat oladi. Bu model intizomni mustahkamlaydi, aniqlikni ta’minlaydi va qisqa muddatda natijaga erishishga yordam beradi, biroq uzoq muddatli rivojlanish, ijodkorlik va tashabbusni kuchaytirishda transformatsion yondashuvga nisbatan qisqa doirada samarali hisoblanadi.Boshqaruv uslubi xodim motivatsiyasiga ta’sir etuvchi asosiy omillardan biridir. Motivatsiya jarayoni nafaqat moddiy rag‘batlantirish bilan, balki ma’naviy e’tirof, adolatli baholash, kasbiy o‘sish imkoniyati, jamoada hurmat, psixologik xavfsizlik va o‘zini namoyon qilishga bo‘lgan qulay sharoitlar bilan ham izohlanadi. Rahbarning muloqot madaniyati, tinglash ko‘nikmasi, adolatli yondashuvi, konstruktiv fikr bildirish madaniyati xodimning o‘z ishiga bo‘lgan munosabatini tubdan o‘zgartirishi mumkin. Tashkilot ichidagi muhit – ijtimoiy-psixologik atmosfera, jamoaviy birdamlik, ishlab chiqarish jarayonining tashkil etilishi, o‘zaro hurmat tamoyillarining mavjudligi bevosita mehnat unumdorligiga ta’sir qiladi. Boshqaruv uslubi bu muhitni shakllantiruvchi asosiy kuch sifatida maydonga chiqadi.Shuningdek, boshqaruvning zamonaviy konsepsiyalarida xodimlarni rivojlantirish va ularga investitsiya kiritish g‘oyasi yetakchi o‘rinda turadi. Rahbar tomonidan muntazam o‘qitish, qayta tayyorlash, malaka oshirish, murabbiylik va mentoring tizimini joriy etish xodimlarning kasbiy salohiyatini oshiradi, ularda o‘z ishiga nisbatan mas’uliyat, sadoqat va innovatsion yondashuvni kuchaytiradi. Boshqaruv uslubining samaradorligi shuningdek, tashkilotning madaniy qadriyatlari, uning strategik maqsadlari, xodimlar orasidagi demografik farqlar, kasbiy tajriba darajasi va tashkiliy tuzilma bilan ham uyg‘unlashishi talab etiladi. Masalan, ijodiy sohada ishlovchi jamoalar ko‘proq erkinlik,

innovatsion yechimlar, demokratik muloqotga ehtiyoj sezsa, ishlab chiqarish korxonalarida intizom va standartlarga amal qilish ustuvor bo‘lishi mumkin.Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, boshqaruv uslubining muvaffaqiyatli tanlanishi xodimlarning ishga bo‘lgan ichki qiziqishini kuchaytiradi, ularning psixologik farovonligini mustahkamlaydi, o‘zini o‘zi boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantiradi va natijada mehnat unumdorligini sezilarli darajada oshiradi. Aksincha, noto‘g‘ri tanlangan yoki noto‘g‘ri qo‘llangan boshqaruv uslubi iste’fodagi xodimlar sonining ko‘payishiga, konfliktlarning kuchayishiga, ishga bo‘lgan sovuqlashuvga, stress holatlarining ortishiga va umumiy samaradorlikning pasayishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli har bir tashkilot rahbari boshqaruv uslubini tanlashda jamoaning individual xususiyatlari, tashkilotning rivojlanish strategiyasi, bozor sharoitlari va mavjud resurslarni hisobga olgan holda, moslashuvchan yondashuvni qo‘llashi zarur.Xulosa qilib aytganda, boshqaruv uslubi – bu faqat rahbarning ishlash usuli emas, balki butun tashkilotning rivojlanish sur’ati, mehnat unumdorligi, jamoaviy muhit va strategik muvaffaqiyatni belgilovchi kuchdir. Rahbarning professional kompetensiyasi, muloqot madaniyati, motivatsiya mexanizmlari va yetakchilik sifatlari qanchalik yuqori bo‘lsa, xodimlarning mehnat unumdorligi ham shunchalik oshadi. Shu bois boshqaruv uslublarini ilmiy asosda tanlash, ularni strategik maqsadlar bilan uyg‘unlashtirish va zamonaviy boshqaruv talablari asosida takomillashtirib borish tashkilotning uzoq muddatli muvaffaqiyatini ta’minlaydigan eng muhim omillardan biridir.

Empirik tahlil

Tashkilotdagi boshqaruv uslublarining xodimlar ish unumdorligiga ta’sirini empirik tahlil qilish jarayoni real amaliyotda kuzatilgan ma’lumotlar, xodimlarning subyektiv baholari, statistik ko‘rsatkichlar, korxona faoliyatiga oid iqtisodiy natijalar va psixologik omillarni chuqur o‘rganishni talab etadi. Boshqaruv uslubi va mehnat samaradorligi o‘rtasidagi bog‘liqlik ko‘plab tadqiqotlarda tasdiqlangan bo‘lsa-da, bu munosabat doimiy, chiziqli yoki bir xil ko‘rinishda namoyon bo‘lmaydi. Sababi, boshqaruvning har bir modeli muayyan sharoit, jamoa tarkibi, tashkiliy madaniyat, rahbarning individual sifati, ishlab chiqarish jarayonining murakkabligi va xodimlarning psixologik tayyorgarligi bilan bevosita bog‘liq. Empirik kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, demokratik va transformatsion yondashuvlar qo‘llanilgan tashkilotlarda xodimlarning ishga bo‘lgan motivatsiyasi yuqori, ishga sodiqlik mustahkam, kasbiy o‘sishga intilish kuchli va umumiy mehnat unumdorligi sezilarli darajada yuqori bo‘ladi. Xodimlarning o‘z fikrini erkin bildira olishi, muhokamalarda ishtirok etishi, qarorlar qabul qilishda e’tiborga olinishi ularning psixologik qadrlanishini oshiradi va bu o‘z navbatida ish samaradorligining yuqori bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Transformatsion rahbarlik amal qilgan korxonalarda xodimlar tashabbus ko‘rsatishda faol, yangiliklarni joriy etishda dadil bo‘ladi, innovatsion fikr yuritish esa mehnat natijalariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bunday tashkilotlarda ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari odatda barqaror o‘sishga ega bo‘lib, xodimlarning ichki motivatsiyasi yuqori bo‘lganligi sababli inson kapitali samaradorligi ham ortadi.Avtoritar boshqaruv ustuvor bo‘lgan tashkilotlarda empirik tahlillar ikki qutbli natijalarni ko‘rsatadi. Tartib-qoidalarning qat’iyligi intizomni mustahkamlab, qisqa muddatda ishlab chiqarish hajmini oshirishi mumkin, ammo uzoq muddatda xodimlarning ruhiy charchoq, stress, ijodkorlikning susayishi, tashabbusning pasayishi kabi salbiy holatlari ko‘payadi. Ko‘plab tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, avtoritar yondashuv ostida ishlayotgan xodimlar ishdan qoniqish darajasini past baholaydi, tashkiliy jarayonlarga nisbatan befarqlik ortadi, jamoaviy faollik esa pasayadi. Bu esa mehnat unumdorligiga nisbatan barqaror salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Avtoritar rahbarlik ayniqsa ijodiy fikr talab qilinadigan sohalarda samaradorlikni to‘liq cheklab qo‘yadi, chunki xodimlar yangicha yondashuvlar taklif

etishdan cho‘chiydi, xatolar uchun haddan tashqari jazolash tizimi esa psixologik bosimni kuchaytiradi. Biroq yuqori xavfsizlik talab qiladigan ishlab chiqarish tarmoqlarida, harbiy yoki huquqni muhofaza qilish kabi tizimlarda avtoritar boshqaruvning qisqa muddatli samaradorligi yuqori ekani ham amalda kuzatilgan.Liberal uslub qo‘llanilgan tashkilotlar bo‘yicha empirik natijalar shuni ko‘rsatadiki, bunday yondashuv ijodiy jamoalarda yuqori natija berishi mumkin, ammo nazoratning sustligi sababli mas’uliyatning kamayishi holatlari ham uchraydi. Xodimlarga berilgan katta erkinlik o‘zini boshqarish ko‘nikmalari kuchli bo‘lgan mutaxassislar uchun yuqori samaradorlik yaratgan bo‘lsa-da, o‘zini boshqarish kompetensiyasi past bo‘lgan jamoalarda natija aksincha bo‘lgan. Bu holat boshqaruv uslubi tanlanishida xodimlarning kasbiy yetukligi, psixologik tayyorgarligi va jamoaning umumiy intizomi kabi omillar muhim ekanini ko‘rsatadi.Empirik tahlillar shuni ham ko‘rsatadiki, tranzaksion boshqaruv uslubi aniq vazifalar, o‘lchash mumkin bo‘lgan natijalar, mehnat samaradorligi ko‘rsatkichlari bilan ishlaydigan tashkilotlarda ko‘proq qo‘llanadi va qisqa muddatli natija berishda ancha samaralidir. Natijaga qarab rag‘bat yoki jazo berish tamoyili xodimlarni belgilangan me’yorlarni bajarishga undaydi, ammo ularning ichki motivatsiyasi va ijodiy energiyasini rivojlantirishda transformatsion yondashuvga nisbatan kamroq samaraga ega. Tranzaksion model qo‘llaniladigan korxonalarda mehnat unumdorligi barqaror, ammo ko‘tarilish sur’ati nisbatan sust bo‘lishi kuzatiladi.Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy tashkilotlarda eng yuqori natijani boshqaruv uslublarining kombinatsiyasi, ya’ni vaziyatga moslashgan boshqaruv (situational leadership) modeli ta’minlaydi. Empirik kuzatuvlarga ko‘ra, rahbarlar bir xil uslubni barcha vaziyatda qo‘llaganida natija doimiy bo‘lmaydi; vaziyat, jamoa tayyorgarligi, ish murakkabligi va xodimning individual xususiyatlariga qarab moslashgan boshqaruv eng yuqori samaradorlikni yaratadi. Amaliy tajribalar shuni ko‘rsatadiki, xodimlarning ehtiyojiga moslashtirilgan boshqaruv – yuqori motivatsiya, mehnatga qiziqish, stressning kamayishi va jamoaviy ruhning oshishiga olib keladi. Buning natijasida ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari o‘sadi, xatolar kamayadi, yangiliklar ko‘proq taklif qilinadi va umumiy samaradorlik ortadi.Empirik tahlilning yana bir muhim jihati – tashkiliy madaniyatning roli. Uzoq muddatdagi kuzatuvlarga ko‘ra, kreativlikka, ochiq muloqotga, hurmatga asoslangan madaniyat mavjud bo‘lgan korxonalarda boshqaruvning demokratik yoki transformatsion uslublari yuqori samarali bo‘lgan. Aksincha, qat’iy ierarxiyaga ega, o‘zgarishlarga nisbatan konservativ bo‘lgan tashkilotlarda avtoritar va tranzaksion modellarning ustuvorligi sezilgan. Bu esa boshqaruv uslubi va tashkiliy madaniyat o‘rtasida kuchli o‘zaro bog‘liqlik mavjudligini tasdiqlaydi.Xulosa tariqasida, empirik tahlil shuni ko‘rsatadiki, boshqaruv uslubining xodimlar ish unumdorligiga ta’siri keskin va ko‘p qirrali bo‘lib, optimal boshqaruv modeli tashkilotning o‘ziga xos xususiyati, xodimlarning qobiliyati, jamoaviy muhit, rahbarning yetakchilik salohiyati va tashkiliy madaniyat bilan uyg‘unlashgan taqdirdagina eng yuqori samaradorlikka erishish mumkin.

Xulosa

Tashkilotdagi boshqaruv uslublari xodimlar ish unumdorligiga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatadigan asosiy omil sifatida namoyon bo‘ladi. Tadqiqot va empirik kuzatuvlar shuni ko‘rsatdiki, boshqaruv uslubi xodimlarning motivatsiyasi, ishga bo‘lgan qiziqishi, tashabbus ko‘rsatish darajasi, psixologik farovonligi va kasbiy rivojlanishiga bevosita ta’sir qiladi. An’anaviy boshqaruv modellari – avtoritar, demokratik va liberal yondashuvlar – o‘ziga xos afzallik va cheklovlarga ega bo‘lib, ular tashkilotning ichki madaniyati, rahbarning shaxsiy kompetensiyasi, jamoa tarkibi va vazifalarning murakkabligiga qarab samaradorlikni oshirishi yoki pasaytirishi mumkin. Avtoritar boshqaruv qisqa muddatli natijalarni oshirishi, intizomni

mustahkamlashi mumkin, ammo uzoq muddatda xodimlarning ijodiy faolligi va tashabbuskorligi pasayadi, stress va ruhiy charchoq ortadi. Demokratik va transformatsion uslublar esa xodimlarni jalb etish, ularning fikrini hisobga olish, umumiy maqsadlar sari ilhomlantirish orqali ish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi, ichki motivatsiyani kuchaytiradi va jamoaviy ruhni mustahkamlaydi. Liberal yondashuv esa erkinlikni oshirib, innovatsion yechimlarni rag‘batlantiradi, ammo nazoratning sustligi ayrim hollarda mas’uliyatning pasayishiga olib kelishi mumkin.Empirik tahlillar boshqaruv uslublari va mehnat samaradorligi o‘rtasidagi bog‘liqlikni yanada aniq ko‘rsatadi. Transformatsion va demokratik uslublar qo‘llaniladigan tashkilotlarda xodimlarning o‘zini namoyon qilish imkoniyati, tashabbuskorligi, ijodiy fikr yuritishi va kasbiy o‘sish darajasi yuqori bo‘lib, natijada ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari barqaror o‘sadi. Tranzaksion yondashuv esa aniq standartlar, mukofot va jazo tizimiga tayanib, qisqa muddatli samaradorlikni oshiradi, ammo uzoq muddatli motivatsiya va ijodiy energiyani rivojlantirishda transformatsion uslubga nisbatan kamroq natija beradi. Liberal boshqaruv asosida ishlovchi jamoalarda esa xodimlarning o‘zini boshqarish salohiyati yuqori bo‘lganda samaradorlik oshadi, lekin nazorat yetishmasa, mas’uliyat pasayishi va tartibsizlik yuzaga kelishi mumkin.Shuni ta’kidlash joizki, boshqaruv uslubining samaradorligi faqat uning nazariy jihatlari bilan belgilanmaydi, balki tashkilotning madaniy qadriyatlari, rahbarning yetakchilik kompetensiyasi, xodimlarning shaxsiy va kasbiy xususiyatlari, jamoaviy muhit va ish jarayonining murakkabligi bilan uzviy bog‘liqdir. Optimal boshqaruv modeli vaziyatga moslashgan yondashuvda namoyon bo‘lib, rahbarlar bir xil uslubni barcha vaziyatda qo‘llashdan ko‘ra, xodimlar ehtiyojini, ish murakkabligini va tashkiliy madaniyatni hisobga olgan holda boshqaruv strategiyasini moslashtirganda yuqori natijaga erishiladi. Shu bilan birga, zamonaviy boshqaruv konsepsiyalari xodimlarni rivojlantirish, ularning kasbiy salohiyatini oshirish, ichki motivatsiyani rag‘batlantirish va jamoaviy ruhni shakllantirishga katta e’tibor beradi, bu esa mehnat unumdorligini sezilarli darajada kuchaytiradi.Natijada, boshqaruv uslubi nafaqat rahbarning shaxsiy ishlash usuli, balki butun tashkilotning mehnat samaradorligi, psixologik muhit, innovatsion salohiyat va strategik muvaffaqiyatini belgilovchi hal qiluvchi omil ekanligi aniqlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Robbins, S. P., & Coulter, M. (2021). Management (15th ed.). Pearson.
2. Yukl, G. (2019). Leadership in Organizations (9th ed.). Pearson.
3. Northouse, P. G. (2022). Leadership: Theory and Practice (9th ed.). Sage Publications.
4. Bass, B. M., & Riggio, R. E. (2019). Transformational Leadership (3rd ed.). Routledge.
5. Mintzberg, H. (2020). Managing. Berrett-Koehler Publishers.
6. Goleman, D. (2017). Leadership That Gets Results. Harvard Business Review Press.
7. Daft, R. L. (2021). Organization Theory and Design (13th ed.). Cengage Learning.
8. Lewin, K., Lippitt, R., & White, R. K. (1939). Patterns of aggressive behavior in experimentally created social climates. Journal of Social Psychology, 10, 271–299.
9. Hackman, J. R., & Oldham, G. R. (1980). Work Redesign. Addison-Wesley.
10. Robbins, S. P., & Judge, T. A. (2022). Organizational Behavior (19th ed.). Pearson.

BORISH QIYIN BO‘LGAN HUDUDLAR UCHUN TRANSPORT XIZMATINI ISHLAB CHIQISH

Bazarbaeva Munisa
Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti
https://doi.org/10.5281/zenodo.18232231

Annotatsiya: *Ushbu maqola O‘zbekistonda borish qiyin bo‘lgan hududlar, ayniqsa tog‘li va oraliq hududlarda transport xizmatlarini rivojlantirish muammolarini o‘rganadi. Maqolada tog‘li mintaqalarda transport infratuzilmasini qurish, yuk va yo‘lovchi tashish xizmatlarini modernizatsiya qilish hamda xalqaro aloqalarni ta'minlash bo‘yicha O‘zbekiston tarafidan amalga oshirilayotgan loyihaları tahlil qilingan. Tadqiqot davomida Toshkent-Andijon, Angren-Pop, Toshguzar-Boysun-Qumqo‘rg‘on temir yo‘llari va Qamchiq tunnelining qurilishi misolida qiyin sharoitlarda transport xizmatlarini ishlab chiqishning ahamiyati ko‘rsatilgan. Maqolada raqamli adabiyotlardan foydalanib, muammolar va ularning yechimlarini ilmiy asosida tahlil qilish orqali kelajakka qarab transport sohasini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlar tavsiya etilgan. O‘zbekistonning borish qiyin bo‘lgan hududlari, xususan, tog‘li (Qashqadaryo, Surxondaryo, Farg‘ona vodiysi atrofi) va cho‘l hududlarida (Qoraqalpog‘iston, Navoiy viloyati) transport xizmatlarini tashkil etishning zamonaviy yondashuvlari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalarida O‘zbekistonda avtomobil yo‘llarining umumiy uzunligi 184,000 km ni tashkil etishi, tog‘li hududlarda 223 km uzunlikdagi Toshguzar-Boysun-Qumqo‘rg‘on temir yo‘lining qurilishi va qishloq hududlarida yashayotgan 18,5 million aholining transport ta'minoti masalalari muhokama qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *transport, chekka hududlar, kirish imkoniyati, mavsumiylik, iqtisodiy to‘siqlar, qishloq transporti, tog‘li hududlar, O‘zbekiston transport infratuzilmasi, talab asosidagi transport, qishloq rivojlanishi.*

Annotation: *This article examines the problems of developing transport services in remote areas of Uzbekistan, especially in mountainous and intermediate regions. The article analyzes the projects implemented by Uzbekistan to build transport infrastructure in mountainous regions, modernize freight and passenger transportation services, and ensure international communications. The study shows the importance of developing transport services in difficult conditions using the example of the Tashkent-Andijan, Angren-Pop, Toshguzar-Boisun-Kumkurgan railways and the construction of the Kamchik tunnel. The article uses digital literature to scientifically analyze problems and their solutions and recommends key areas for the development of the transport sector for the future. Modern approaches to organizing transport services in remote areas of Uzbekistan, in particular, in mountainous (Kashkadarya, Surkhandarya, the Fergana Valley) and desert regions (Karakalpakstan, Navoi region), are analyzed. The study results discuss the total length of highways in Uzbekistan, which is 184,000 km, the construction of the 223 km Tashguzar-Boysun-Kumkurgan railway in mountainous regions, and the issues of providing transport for the 18.5 million population living in rural areas.*

Keyword: *transport, remote areas, accessibility, seasonality, economic barriers, rural transport, mountainous areas, transport infrastructure of Uzbekistan, demand-driven transport, rural development.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются проблемы развития транспортных услуг в отдаленных районах Узбекистана, особенно в горных и промежуточных регионах. В статье анализируются проекты, реализуемые Узбекистаном по строительству транспортной инфраструктуры в горных регионах, модернизации услуг по перевозке грузов и пассажиров, обеспечению международных сообщений. В исследовании показана важность развития транспортных услуг в сложных условиях на примере железных дорог Ташкент-Андижан, Ангрен-Пап, Тошгузар-Бойсун-Кумкурган и строительства туннеля Камчик. В статье с использованием цифровой литературы проводится научный анализ проблем и путей их решения, рекомендуются ключевые направления развития транспортной сферы на перспективу. Анализируются современные подходы к организации транспортных услуг в отдаленных районах Узбекистана, в частности, в горных (Кашкадарья, Сурхандарья, Ферганская долина) и пустынных регионах (Каракалпакстан, Навоийская область). В результатах исследования рассматриваются общая протяженность автомобильных дорог в Узбекистане, которая составляет 184 тыс. км, строительство железной дороги Ташгузар-Бойсун-Кумкурган протяженностью 223 км в горных районах, а также вопросы обеспечения транспортом 18,5 млн. населения, проживающего в сельской местности..*

Ключевое слово: *транспорт, отдаленные районы, доступность, сезонность, экономические барьеры, сельский транспорт, горные районы, транспортная инфраструктура Узбекистана, транспорт, ориентированный на спрос, развитие сельских районов.*

Kirish: O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Osiyoning markazida joylashgan davlat bo‘lib, uning geografik joylashuvi iqtisodiy rivojlanishda muhim rol o‘ynaydi. Mamlakatning borish qiyin bo‘lgan hududlari – Farg‘ona vodiysi, tog‘li mintaqalar Buyuk Ipak yo‘lining muhim bo‘g‘ini bo‘lib xizmat qilgan. Biroq, bugun qiyin geografik sharoitlar va murakkab tog‘li tuproq tuzilmasi ushbu hududlarni boshqa qismlari bilan alohida qilgan holda, ularning taraqqiyotiga to‘siq bo‘lib turgan. O‘zbekiston Respublikasida borish qiyin bo‘lgan hududlarda transport xizmatlarini tashkil etish mamlakatimizning barqaror rivojlanishi va hududlar O‘rtasidagi tengsizlikni kamaytirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakat sharqi va shimoliy-sharqida Tyan-Shan va Pomir tog‘lari joylashgan bo‘lib, eng yuqori nuqta 4643 metrga yetadi, sharqiy hududi O‘rta va baland tog‘li relefdan iborat. Qashqadaryo, Surxondaryo, Zarafshon va Samarqand vohalari tog‘lar orasida joylashgan, eng kattasi hisoblangan Farg‘ona vodiysi 370 kilometr uzunlikda va 190 kilometr kenglikda bo‘lib, uch tomondan baland tog‘ bilan o‘ralgan.

№	**Yo‘l turi**	**Uzunligi (km)**
1	Umumiy uzunlik	184 000
2	Umumiy foydalanishdagi yo‘llar	42 695
3	Xalqaro ahamiyatdagi yo‘llar	3 981
4	Davlat ahamiyatidagi yo‘llar	14 100
5	Mahalliy ahamiyatdagi yo‘llar	24 614
6	Ko‘chalar va ichki xo‘jaliklararo yo‘llar	116 560

1-jadval. O‘zbekiston Respublikasida mavjud avtomobil yo‘llarining umumiy uzunligi

O‘zbekiston aholisining qariyb yarmisi qishloq joylarida istiqomat qiladi. O‘zbekiston Respublikasining mustaqillikga erishishi bilan birga, transport infratuzilmasini takomillashtirish davlat siyosatining eng muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda. Mamlakatimizning Prezidenti Shavkat Mirziyoevning tashabbuslari natijasida qiyin hududlarni modernizatsiya qilish va xalqaro aloqalarni O‘rnatish maqsadida katta investitsiyalar ajratildi. Ushbu maqolaning maqsadi – O‘zbekistonda borish qiyin bo‘lgan hududlarda transport xizmatlarini ishlab chiqish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarni tahlil qilish, muammolarni aniqlash va kelajakka qarab takliflar ishlab chiqish.

Asosiy qisim: O‘zbekiston Respublikasi transport vazirligining ko‘plab ilmiy-uslubiy ishlarida mamlakatning transport tizimini rivojlantirishning strategik jihatlari o‘tilgan. Transport sohasidagi tadqiqotchilar asosida, avtomobil transporti iqtisodiyotda eng katta ulushga ega bo‘lib, 51 foizni tashkil etadi. Undan keyingi o‘rinlarni havo transporti (14,2%), quvurlar orqali yetkazish (13,1%) va temir yo‘l transporti (11,4%) egallagan [1].

Tog‘li Hududlarda Transport Loyihalari: Angren-Pop Temir Yo‘li

Tog‘li hududlardagi eng katta loyihalardan biri – Angren-Pop elektrlashtirilgan temir yo‘li bo‘lib, uning uzunligi 123,1 kilometrga yetdi [2]. Ushbu temir yo‘l Farg‘ona vodiysi bilan mamlakatning boshqa hududlari o‘rtasida temir yo‘l orqali yuk va yo‘lovchi tashish imkoniyatini yaratdi. Xususan, Qamchiq dovonidagi 19,2 kilometrlik tunnel barpo etilishi ular geografik qiynchiliklarni yengib qanday murakkab muhandislik yechimlarini amalga oshirgani ko‘rsatadi [3]. 2016-yil 22-iyun kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov va Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Szinpin Angren-Pop elektrlashtirilgan temir yo‘li hamda Qamchiq tunnelining rasmiy ochilish marosimida ishtirok etdi. "China Railway Tunnel Group" kompaniyasi hamkorligida qurilgan tunnel qurilishiga umumiy qiymati 455 million dollarlik mablag‘ yo‘naltirildi. Dengiz sathidan 2 ming 200 metr balandlikda joylashgan Qamchiq dovoni orqali o‘tgan Angren-Pop elektrlashtirilgan temir yo‘l liniyasining ishga tushirilishi Farg‘ona vodiysi viloyatlari va mamlakatimizning boshqa hududlari o‘rtasida temir yo‘l orqali yuk va yo‘lovchi tashish imkoniyatini yaratadi. Bunyodkorlik ishlarida "China Railway Tunnel Group" kompaniyasining mingdan ziyod ishchi-mutaxassislari, uch mingdan ziyod temiryo‘lchilarimiz, uch yuzdan ortiq elektrmontajchi ishtirok etdi. Mohir quruvchilar 32 oy mobaynida murakkab tabiiy sharoitlarda – yoz jaziramasida ham, qishning qahratonida ham ishni bir me'yorda olib bordi. Tunneldan tashqari bu yerda 43 million kub metr tuproq, 16,3 million kub metr burg‘ulash, portlatish ishlari bajarildi. Shuningdek, 285 sun'iy inshoot va suv o‘tkazish quvurlari, umumiy uzunligi 2,1 kilometr, o‘rtacha balandligi 25 metrlik 15 temir yo‘l ko‘prigi va 6 yo‘l o‘tkazgich barpo etildi [2]

Toshguzar-Boysun-Qumqo‘rg‘on Temir Yo‘li" Toshguzar-Boysun-Qumqo‘rg‘on" temir yo‘li loyihasi dengiz sathidan 1800 metr balandlikda, qattiq qoya toshlardan iborat tog‘li hududlar bo‘ylab qurildi. 2007-yilning 1-sentabriga kelib "Toshguzar-Boysun-Qumqo‘rg‘on" yangi temir yo‘l liniyasi birinchi bosqichining qurilishi yakunlandi, natijada Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarini mamlakatning boshqa hududlari bilan ishonchli bog‘lab turuvchi yagona va yaxlit temir yo‘l kommunikatsiyalari tizimi shakllandi. 2007-yilning 15-sentabridan boshlab "O‘zbekiston temir yo‘llari" davlat-aksiyadorlik kompaniyasi ishchi komissiyalarining dalolatnomalariga muvofiq "Toshguzar-Boysun-Qumqo‘rg‘on" yangi temir yo‘l liniyasi orqali yuk tashish poyezdlarining to‘xtovsiz harakati ochilgan [4]. Markaziy Osiyo Vikipediyasining ma'lumotlariga ko‘ra, mustaqillik yillari davomida O‘zbekistonda yangi po‘lat izlarni (magistral) shakllantirish bo‘yicha ulkan ishlar qilindi. Qizilqum cho‘llarida Navoiy-Uchquduq-

Sultonuvaystog‘-Nukus temir yo‘llari qurildi, Amudaryo orqali temir yo‘l-avtomobil qo‘shma ko‘prigi barpo etildi, murakkab tog‘ sharoitida Toshguzar-Boysun-Qumqo‘rg‘on temir yo‘li qurildi [5]

Toshkent-Andijon Magistrali Toshkent-Andijon yo‘nalishdagi transport taraqqiyoti O‘zbekistonlik tadqiqotchilarning e'tiborida turgan. Bugungi kunda 2026-yilgacha Toshkent-Andijon pulli yo‘li loyihasini qurib bitkazish rejalashtirilgan bo‘lib, loyihasining qiymati 4,65 milliard dollarni tashkil qiladi. 2025-yil yanvar oyida Transport vazirligi Toshkent-Andijon pulli avtomobil yo‘lini davlat-xususiy sheriklik asosida loyihalashtirish, qurish, moliyalashtirish, boshqarish va texnik xizmat ko‘rsatish loyihasi birinchi bosqichi bo‘yicha tender o‘tkazilishini e'lon qildi. Loyihaning 1-bosqichi umumiy uzunligi 171 kilometrni tashkil etib, Toshkentdan Angrengacha bo‘lgan avtomobil yo‘li va qamchiq dovonini loyihalashtirish, qurish, moliyalashtirish, boshqarish va texnik xizmat ko‘rsatishni o‘z ichiga oladi [6]. Umumiy uzunligi 314 kilometr bo‘lgan i-a kategoriyasidagi yo‘l 6 qatordan iborat bo‘ladi. Yo‘lning qurilish muddati 6 yil 3 oyni tashkil etadi. Jarayon uch bosqichdan iborat bo‘ladi: birinchi bosqichda Toshkent-Angren (78 km), ikkinchi bosqichda Angren-Pop (93 km), uchinchi bosqichda esa Pop-Andijon (143 km) qismlari quriladi. Yo‘l sement-beton qoplamali bo‘ladi. Pulli yo‘lda jami 102 ta sun'iy tuzilma qurilishi kutilmoqda. Mazkur yo‘l qurilishi Toshkentdan Andijonga safar qilish vaqtini hozirgidan 2 soat 14 daqiqaga kamaytirish imkonini beradi [7]. Toshkent-Andijon pulli avtoyo‘lining foydalanishga topshirilishi qatnov vaqtini 5 soatdan 3 soatgacha qisqarishi, YIMni 2,6% ga oshirishi hamda avtohalokatlarni 40% ga kamaytirishi kutilmoqda [8].

Muammo va yechimlar: O‘zbekiston aholisining qariyb yarmisi qishloq joylarida istiqomat qiladi. O‘zbekistonning 37 million aholisining qariyb yarmisi qishloq hududlarida yashaydi - bu jamoalar toza ichimlik suviga, sifatli tibbiy xizmatlar va ta'limga shahar aholisiga nisbatan kamroq ega. Bu transport xizmatlarini rivojlantirish, iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirish va turmush darajasini oshirish zaruratini ta'kidlaydi.
A. Asosiy muammolar:

1. Geografik va iqlimiy qiyinchiliklar. Tog‘li hududlarda infratuzilma qiyin va qimmat. Tog‘li va oraliq hududlarda transport qurish asosiy muammo bo‘lib qolmoqda. Qamchiq dovoni bilan boshlanadigan tog‘li uchastkalar qattiq klimatik sharoitlarda, yuqori balandlikda joylashgan. Yoz faslida issiqlik 40 gradussini oshib ketsa, qish faslida harorat -15 darajaga tushib ketadi. Bu muhitda temir yo‘l va avtomobil yo‘llarni qurish va ta'mirlash vaqti bilan bir qatorda ko‘p xarajat talab qiladi.

Ключевые слова: *подростковый возраст, отцовское поведение, семейные роли, психологические факторы, социальные факторы, эмоциональное развитие, модель мужественности, ответственность, забота, защитность, психодинамические процессы, психология молодежи, воспитание*

Keywords: *adolescence, paternal behavior, family roles gender socialization, psychological factors, social factors, emotional development, masculinity model, responsibility, care, psychodynamic processes, youth psychology, upbringing*

Zamonaviy jamiyatda oilaviy tuzilmalarning o‘zgarib borishi, iqtisodiy migratsiyaning kuchayishi, ajralishlar sonining ko‘payishi, ayrim hududlardagi ijtimoiy beqarorlik natijasida ko‘plab bolalar, ayniqsa o‘g‘il bolalar, o‘z otasi bilan bir uyda yashamasdan voyaga yetmoqda. Shuning uchun ilmiy doiralarda "otalik instituti" zaiflashishi, otasiz tarbiyaning psixologik oqibatlari, erkak rolining o‘smirlik davridagi ahamiyati borasida keng ko‘lamli tadqiqotlar olib borilmoqda.

Psixologiya fanida otaning roli bola psixik rivojlanishining ko‘plab qatlamlariga ta’sir qiluvchi kuchli omil sifatida talqin qilinadi. Ota o‘g‘il bolaning **shaxsiy identifikatsiyasi, erkaklik rolini qabul qilishi, irodaviy barqarorligi, mas’uliyatli xatti-harakatlari, ijtimoiy moslashuvi, hissiy o‘zini boshqarish ko‘nikmalari** shakllanishiga bevosita ta’sir etadi. Bu jarayonda ota nafaqat iqtisodiy ta’minotchi, balki oiladagi asosiy ijtimoiy tartibni belgilovchi, me’yorlarni ko‘rsatuvchi, himoya qiluvchi va emotsional barqarorlikni ta’minlovchi yetakchi figura hisoblanadi. **Otaning yo‘qligi o‘spirinlik davrida psixologik bo‘shliq paydo bo‘lishida** oila tarkibining to‘liq bo‘lmasligi ko‘pincha o‘spirinning psixologik olamida "bo‘sh joy" yoki "psixologik vakuum" hosil qiladi. Bu bo‘shliq ong ostida yetakchi erkak obrazining yo‘qligi sifatida shakllanadi va o‘spirin o‘z erkaklik rolini to‘ldirish uchun turli alternativ manbalardan izlashga majbur bo‘ladi. Bunday manbalar ba’zan ijobiy bo‘lishi mumkin (murabbiylar, ustozlar, bobolar), ammo aksariyat hollarda internet qahramonlari, ko‘cha guruhlari, agressiv tengdoshlar, zo‘ravonlikni targ‘ib qiluvchi media obrazlari orqali shakllanadi. Natijada yigit o‘z erkaklik rolini sog‘lom psixologik mezonlar asosida emas, balki tasodifiy, ko‘pincha zararli stereotiplar asosida quradi. **Shaxsiy identifikatsiyaning izdan chiqishi** Eriksonning psixososial rivojlanish nazariyasiga ko‘ra, o‘spirinlik davrining eng muhim vazifasi -**"identifikatsiya vs rol chalkashuvi"** bosqichidan muvaffaqiyatli o‘tishdir. Bu bosqichda o‘g‘il bola kim ekanini, jamiyatda qanday rolni egallashini,

erkaklikning mazmunini, kelajakda qanday ota bo‘lishini anglaydi. Otaning yo‘qligi bu jarayonni murakkablashtirib, identifikatsiyaning to‘liq shakllanmasligiga yoki rol chalkashuviga olib keladi. Bunday yigitlar ko‘pincha o‘z rolini keskin, barqaror bo‘lmagan xatti-harakatlar orqali kompensatsiya qilishga urinadi. Masalan,haddan ziyod erkaklikni ko‘rsatishga intilish, zo‘ravonlikni “kuch” deb talqin qilish, mas’uliyatdan qochish yoki uni ortiqcha yuk deb tushunish, oilaviy hayotga salbiy munosabatdir. Bu esa kelajakdagi otalik rolini ham bevosita murakkablashtiradi. **Erkaklik modeli yetishmasligi: hissiy rivojlanishdagi uzilishlar** Psixologik tadqiqotlarda isbotlanganidek, ota o‘g‘il bolaning emotsional rivojlanishida o‘ziga xos vazifani bajaradi. Ota tomonidan mehr ko‘rsatish, qoidalar qo‘yish, intizom o‘rgatish, konstruktiv tanqid berish, xavfsizlik hissini yaratish bola emotsional barkamolligining poydevorini mustahkamlaydi. Ota bo‘lmagan oilalarda o‘spirinda quyidagi hissiy buzilishlar tez-tez uchraydi.

Past o‘zbaholashda otaning rag‘bati va qo‘llab-quvvatlovi bo‘lmagan taqdirda o‘spirin o‘z qobiliyatlari haqida salbiy fikr shakllantiradi. **Emotsional sovuqlik yoki beqarorlik** his-tuyg‘ularni ifodalash qiyinlashadi, yaqin munosabatlar o‘rnatishda qiyinchiliklar yuzaga keladi. **Ijtimoiy moslashuvdagi qiyinchiliklar** ota ko‘pincha ijtimoiy me’yorlarni o‘rgatuvchi shaxsdir. Uning yo‘qligi o‘spirinning jamiyat bilan munosabatlarida turli muammolarni yuzaga keltiradi. Jamoada o‘z o‘rnini topa olmaslik, tengdoshlarning bosimiga tez berilish,

janjalkashlik va konfliktlarga moyillik, mas’uliyatdan qochish, kelajak kasbini tanlashda ikkilanish, o‘z bo‘lajak o‘rnini aniq tasavvur qila olmaslik kabi holatlarni kuzatish mumkin. Bu holatlar o‘spirinlikdan voyaga yetish davrigacha davom etib, shaxsning butun hayotiga ta’sir qilishi mumkin. **Tartib-intizom va nazoratning yetishmasligi**, ota oilada muayyan qoidalarni belgilaydi, chegaralarni belgilaydi, xatti-harakat javobgarligini o‘rgatadi. Bu funksiyalar yo‘qligida o‘spirin o‘z xatti-harakatlarini nazorat qilishda qiynaladi. Psixologlar ta’kidlaganidek, erkak tarbiyasidagi qoidalarning yo‘qligi impulsivlik, xavfli xulq, tezkor qarorlar qabul qilish, o‘zini tuta olmaslik holatlariga sabab bo‘ladi. Bu esa nafaqat uning shaxsiy hayoti, balki kelajakdagi oilaviy munosabatlari uchun ham xavf tug‘diradi.

Tajovuzkorlik va impulsiv xulqning ortishida psixologik kuzatuvlarga ko‘ra, otasi bilan yashamaydigan yoki otasi emotsional jihatdan uzoq bo‘lgan o‘smirlar orasida tajovuzkorlik darajasi yuqoriroq bo‘ladi. Buning asosiy sabablari esa erkak kishi tomonidan tartib, chegaralar va intizomning yetishmasligi, hissiy qo‘llab-quvvatlashning pastligi, o‘zini himoyalanmagan his qilishi, ichki bo‘shliqni tajovuz orqali to‘ldirishga urinish kabi holatlar bo‘ladi. Bu holat ayniqsa 13–16 yosh oralig‘ida keskin namoyon bo‘lib, o‘spirinning ijtimoiy moslashuviga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. **Rol chalkashuvi va identifikatsiya inqirozi vaqtida** ota modeli bo‘lmagan sharoitda o‘spirinlar quyidagi savollarga javob topishda qiynaladi.Masalan, “Erkak bo‘lish nimani anglatadi?”, “Ota qanday bo‘lishi kerak?”, “Oila mas’uliyatiga qanday yondashish kerak?”, “Farzand tarbiyasida erkakning roli qanday?” uni qiynashi mumkin. Bu savollarga aniq javoblar topilmagani sababli o‘spirinda **identifikatsiya inqirozi** yuzaga keladi. U mavhum tasavvurlar asosida rol izlaydi, ko‘pincha keskin, barqaror bo‘lmagan xulqlar namoyon bo‘ladi. **Murakkab ijtimoiy qarorlar qabul qila olmaslik** ota odatda oilada qabul qilinadigan qarorlarning asosiy yo‘naltiruvchisi hisoblanadi. Ota qarorlari orqali o‘spirin rejalashtirish, mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish, oqibatni oldindan ko‘ra bilish, xavf va foydani tahlil qilish kabi ko‘nikmalarni o‘rganadi. Ota yo‘qligi esa yigitda qaror qabul qilish jarayonini izdan chiqarishi, qisqa muddatli, hissiyotga tayanadigan, tavakkal qarorlar qabul qilishga moyillik tug‘dirishi mumkin. Ota bilan munosabatning yetishmasligi o‘spirinni tashqi ijtimoiy guruhlardan “erkaklik modeli” izlashga undaydi. Ko‘pincha bunday guruhlar noformal, xavfli, ijtimoiy qoida va me’yorlarni buzuvchi xususiyatga ega bo‘ladi. O‘spirinda “guruhga tegishlilik” hissi kuchayadi, bu esa chekish, spirtli ichimlik iste’moli, kuch ishlatish, qonunbuzarliklar kabi xatti-harakatlarga olib kelishi mumkin. **O‘ziga ishonchsizlik va past o‘zbaholash** otasi tomonidan qo‘llab-quvvatlov, hurmat va e’tirof yetishmagan yigitlar o‘ziga nisbatan ishonchsiz bo‘lishadi. Ular o‘z qobiliyatiga shubhalanadi, tanqidga chidamsiz bo‘ladi, muvaffaqiyatsizlikdan qo‘rqadi, o‘zining erkaklik roliga shubha bilan qaraydi. Bu esa kelajakda barqaror ota rolini bajarish jarayonini qiyinlashtiradi. **Pedagog, psixolog va ijtimoiy xodimlarning o‘rni** ota modeli bo‘lmagan o‘spirin yigitni sog‘lom shaxs va kelajakda mas’uliyatli ota sifatida shakllantirishda mutaxassislarning o‘rni beqiyosdir. Bu jarayon quyidagi yondashuvlarni talab qiladi. **Murabbiylik (mentorlilik) tizimi** maktablarda, mahallalarda ijobiy erkak shaxslar bilan uchrashuvlar, sport murabbiylari, ustozlar orqali erkaklik modeli berish, yoshlar klublarida faol erkak yetakchilar bilan muloqot tashkil etish ayni muddao. Bu tizim o‘spirinda yetakchi erkak obrazini shakllantirishga yordam beradi. **Psixologik qo‘llab-quvvatlashda** psixologlar quyidagi yo‘nalishlarda ishlashi muhim.O‘zini anglash va identifikatsiya bo‘yicha mashg‘ulotlar, emotsiyalarni boshqarish, stressni kamaytirish, ijtimoiy moslashuv treninglari, kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirish va boshqa holatlar kiradi. Bu mashg‘ulotlar yigitda barqarorlik va ichki kuchni oshiradi.

Ota o‘rnini bosuvchi shaxslar amaki, bobosi, o‘qituvchi, murabbiy, sport ustozlari o‘spirinning psixologik rivojida katta rol o‘ynaydi. Ular o‘z xulqi, mas’uliyati, muloqoti orqali yigitga sog‘lom erkaklik va otalik fazilatlarini ko‘rsatib borishi kerak. **Ijtimoiy loyihalar va mas’uliyat topshiriqlar berish kerak.**O‘spirinlarga jamoat tadbirlarida qatnashish, jamoaga rahbarlik qilish, kichik ukalariga yordam berish, jamiyatga foydali ishlar bajarish kabi vazifalarni berish orqali mas’uliyat hissi mustahkamlanadi Mas’uliyat — otalik xulqining markaziy sifatlaridan biridir. O‘spirinlik davrida javobgarlikni shakllantirish uchun yigitga muntazam ravishda ma’lum vazifalar, mas’uliyat talab etuvchi topshiriqlar berilishi muhim. Masalan, dars, loyihalar yoki sinf faoliyatida berilgan mas’uliyatni mustaqil bajarish, jamoaviy loyihada liderlik yoki koordinatsiya qilish, mahalla va maktab tadbirlarida faol ishtirok etish. Shu kabi tajribalar

o‘spirinda: “Men bajara olaman”, “Men mas’ulman”, “Men boshqalarga foyda keltira olaman” degan ichki ishonchni shakllantiradi. Bu ishonch esa kelajakda otalik mas’uliyatni qabul qilish jarayonini osonlashtiradi. O‘spirin yigitning oiladagi kundalik faoliyatga jalb etilishi otalik fazilatlarining bevosita shakllanishiga hissa qo‘shadi. U kichik mas’uliyatlarni bajara borib, mehribonlik, sabr-toqat, mehnatsevarlik, g‘amxo‘rlik kabi fazilatlarni amalda o‘rganadi. Masalan, ukasi yoki singlisiga vaqtincha qarab turish, uy yumushlarida ishtirok etish, oilaviy muammolarning kichik qismini hal etish, onaga yordam berishi kerak. Bu amaliy tajribalar orqali o‘spirin birinchi marotaba "g‘amxo‘rlik qilish", "javobgarlik his qilish" kabi otalikning asosiy psixologik komponentlarini amalda his qiladi. Oila ichidagi bunday tarbiya shakli o‘spirinning kelajakdagi parental rolga bo‘lgan tayyorgarligini kuchaytiradi.

Sport va jamoaviy faoliyatlar esa nafaqat jismoniy, balki psixologik yetuklikni ham shakllantiradi. Jamoaviy o‘yinlar va sport mashg‘ulotlari orqali o‘spirinlarda liderlik, intizom, iroda, sabr, mas’uliyat, o‘zini boshqara olish kabi otalik uchun zarur sifatlar rivojlanadi. Sportning tarbiyaviy ahamiyati quyidagilarda ko‘rinadi. Jamoa ichidagi rolni bajarish, boshqa ishtirokchilarni qo‘llab-quvvatlash, o‘z xatosidan xulosa chiqarish, kurashchanlik va barqarorlikni shakllantirish, qoidalarga rioya qilish kabilar kiradi. Jamoaviy sport (futbol, basketbol, voleybol) o‘spirinlarga aloqadorlik hissi, hamkorlik, liderlik va mas’uliyatni o‘rgatadi. Bu sifatlarning barchasi kelajakdagi otaning roli uchun juda muhim poydevordir. O‘spirin yigitlarda otalik xulq-atvorini rivojlantirishda zamonaviy psixologik treninglarning o‘rni beqiyosdir. Ular nafaqat nazariy bilim beradi, balki amaliy ko‘nikmalarni ham shakllantiradi. “Oila psixologiyasi” — oilaviy munosabatlar, ota-onalarning roli, kelajakdagi oilaviy vazifalar, bolalar psixologiyasi bo‘yicha dastlabki tasavvurni beradi. Empatiya va sog‘lom erkaklik haqidagi treninglar — yigitlarda mehr-shafqat, g‘amxo‘rlik, boshqalarga javobgarlik kabi fazilatlarni chuqurlashtiradi. Treninglar orqali o‘spirinlar o‘z shaxsiy sifatlarini tahlil qiladi, ijtimoiy rollarni amaliy mashqlar orqali sinab ko‘rish imkoniga ega bo‘ladi va kelajakdagi otalik rolini ongli ravishda tasavvur qila boshlaydi. O‘spirin yigitlarda otalik xulq-atvorining shakllanishi ko‘p omilli, murakkab va izchil davom etadigan psixologik jarayon bo‘lib, shaxsning biologik, emotsional, ijtimoiy va madaniy rivojlanish qonuniyatlari bilan bevosita bog‘liqdir. O‘spirinlik davri jismoniy balog‘at, o‘zlikni anglashning kuchayishi, jinsiy identifikatsiya jarayonining faollashuvi hamda shaxslararo munosabatlarning murakkablashuvi bilan xarakterlanadi. Shu sababli aynan ushbu davrda kelajakdagi otalik roliga tegishli fazilatlar va tasavvurlar intensiv shakllanadi.

Bugungi globallashuv, axborot oqimining keskin kuchaygan davrida o‘spirinlar ko‘pincha erkaklikning noto‘g‘ri modellari — agressiya, hukmronlik, hissiy sovuqlik, zo‘ravonlik orqali tasvirlanadigan stereotiplarga duch kelmoqda. Shu sababli hozirgi pedagogik va psixologik yondashuvlar faqat “erkaklik”ni emas, balki insoniylik, mehr-shafqat, empatiya, g‘amxo‘rlik, mas’uliyat va ijtimoiy yetuklikni markazga qo‘yishi zarur. Ota — faqat oilaning moddiy ta’minotchisi yoki hukmron shaxs emas; u birinchi navbatda farzandiga emotsional tayanch, muloqotdosh, murabbiy va tarbiyachi bo‘lishi kerak.O‘spirin yigitlarda otalik xulq-atvorining shakllanishi nafaqat shaxsning o‘ziga, balki jamiyat barqarorligi, oilalarning mustahkamligi va kelajak avlodning rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan ijtimoiy-psixologik jarayondir. Demak, bugungi tarbiyaviy va psixologik ishlarda sog‘lom, yetuk, mas’uliyatli va mehribon otalar avlodini voyaga yetkazish-jamiyat oldidagi eng muhim vazifalardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimova V.M. **Umumiy psixologiya**. – Toshkent: O‘qituvchi, 2010.
2. Qodirov R., Yo‘ldoshev J. **Ontogenez psixologiyasi**. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2017.
3. G‘oziev E. **Oila psixologiyasi**. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2012.
4. Jabborov R. **Yosh davrlari psixologiyasi.** – Toshkent: Universitet, 2019.
5. Abduqodirov A. **Pedagogika va psixologiya asoslari**. – Toshkent: Innovatsiya ziyo, 2020.
6. Ergashev R., G‘affarova N. **Oilada farzand tarbiyasi psixologiyasi**. – Buxoro: BDU nashriyoti, 2018.

TRANSPORT XIZMATLARINING MINTAQA IQTISODIYOTIGA TA'SIRINI ANIQLASH VA BAHOLASH

Karimova Shaxnoza
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti assistenti, Urganch davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.18232354

Annotatsiya. *Mazkur maqolada mamlakat transport xizmatlarining iqtisodiyotga ta'siri tahlil qilinadi. Transport infratuzilmasi iqtisodiyotning ajralmas qismi sifatida o'rganiladi, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonlarida transport xizmatlarining ulushi va vazifalari haqida ilmiy izohlar beriladi. Tadqiqotda transport tarmog'ining rivojlanishi, uning makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'siri, mintaqalararo integratsiya jarayonidagi roli va iqtisodiy samaradorlikni oshirish imkoniyatlari o'rganiladi.Shuningdek, yo'l-transport tizimining modernizatsiyasi, logistika xizmatlarini rivojlantirish, xalqaro transport yo'laklariga qo'shilish va ekologik barqarorlikka alohida e'tibor qaratilgan.*

Kalit so'zlar*: Transport kompleksi logistika, infratuzilma, xalqaro transport yo'laklari, eksport, ekologik barqarorlik, investitsiyalar, transport tizimi, iqtisodiy samaradorlik.*

Transport xizmatlari har qanday mamlakatning iqtisodiy o'sishi va ijtimoiy taraqqiyotining asosiy drayverlaridan biridir. Global savdo va iqtisodiy integratsiya kuchayib borayotgan bugungi kunda, transport tizimlarining samaradorligi, xavfsizligi va barqarorligi har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda transport xizmatlari ko'rsatish jahon mehnat taqsimotida muhim soha sifatida dunyodagi band aholining 8%ni, xo'jalik xarajatlarining 15%ni,hamda yaratilayotgan yalpi mahsulotning 6%ni tashkil qilmoqda.[16] Bu esa transport xizmatlarini tashkil etish, iqtisodiyotda unga turdosh sohalar faoliyatini rivojlantirish imkonini beradi. Transport infratuzilmasining holati va rivojlanishi mintaqaning transport xizmatlarini ko'rsatishga ijobiy ta`sir ko'rsatadi.Kompleks geografik sharoitlar, iqtisodiy ko'rsatkichlar, yo'llar tarmog'ini rivojlantirishda viloyat va shahar hokimiyatlari o'rtasida muvofiqlashtirilgan tizimning mavjudligi albatta soha rivojining poydevori bo'lib xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2022 yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi" PF 60-son **Farmonida 36-maqsad "Barcha transport turlarini uzviy bog'lagan holda yagona transport tizimini rivojlantirish, yirik shaharlar o'rtasida kunlik transport qatnovlari asosida manzilga yetib borish va qaytib kelish imkoniyatini yaratish"deb nomlanib aynan transport xizmatlari tizimini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib unda quyidagi vazifalar:**

-Toshkent shahri va hududlarda jamoat transporti tizimini takomillashtirish va uning infratuzilmasini rivojlantirish;

-Shaharlararo va shahar atrofi temir yo'l qatnovlari jozibadorligini oshirish;

-Transport va logistika xizmatlari bozori va infratuzilmasini rivojlantirish, temir yo'l infratuzilmasini elektrlashtirish darajasini 60 foizga yetkazish va avtomobil yo'llari tarmog'ini jadal rivojlantirish;

[16] https://itf-oecd.org.ITF Transport Outlook

-Transport sohasida tashqi savdo uchun “yashil koridorlar” hamda tranzit imkoniyatlarini kengaytirish va tranzit yuk hajmini 15 million tonnaga yetkazish;.

-transport xizmatlari tizimini modernizatsiya qilish, “yashil koridorlar” joriy etish, temir yo‘l infratuzilmasini elektrlashtirish va avtomobil yo‘llarini jadal rivojlantirish belgilab olingan,. Bu esa o‘z navbatida yurtimizda transport sohasiga qaratilayotgan e`tiborni yanada oshayotganini ko‘rsatadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Transport tizimini rivojlantirish va uni iqtisodiyotga ta`sirini bir qator mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan o‘rganilgan. Transport infratuzilmasi har bir mamlakatning iqtisodiy barqarorligini belgilovchi asosiy tarmoqdir. Adam Smit o‘z asarida transport tizimini “bozorni kengaytiruvchi asosiy kuch” sifatida ta’riflagan, D. Ricardo esa transport xarajatlarining kamayishi milliy raqobatbardoshlikni oshirilishiga olib keladi degan g‘oyani ilgari surgan. Zamonaviy iqtisodchi P. Samuelson transport tizimining ishlab chiqarish omillari o‘rtasidagi muvozanatni saqlashdagi ahamiyatini ilmiy jihatdan asoslab bergan.

Ingliz iqtisodchisi Entoni Venablesning fikriga ko‘ra transport kompleksi bu ijtimoiy ishlab chiqarishning yuklar va yo‘lovchilarni tashishga bo‘lgan ehtiyojini qondirishga ixtisoslashgan xalq xo‘jaligi tarmoqlari yig`indisi tushuniladi[1]. D.Bauersoksning fikricha,an’anaviy usullarga nisbatan yuk tashuvlarini tashkil etishning afzalligi va iqtisodiy samaradorligi masalalarini kiritgan xolda multimodal va intermodal yuk tashuvlarini tashkil etish muammolariga alohida e’tibor berish kerakligiga alohida e’tibor qaratgan va transport tarmoqlari, transport vositalarini hamda transport kompaniyalarini o‘z ichiga olgan transport tizimi haqida aytib o‘tadi[2].Mamlakatimiz olimlaridan G` Samadov, A. Zohidov, A. Gulamov va M.Ravshanovlarning fikricha “transport tizimi- bu yuk va yo‘lovchilarni o‘z manziliga yetkazish jarayonida o‘zaro aloqasi bo‘lgan transport turlari va infratuzilmalari majmuasi,ya`ni o‘zaro bog‘liq bo‘lgan transport sektorlari,mehnat resurslari hamda mamlakat iqtisodiyotini samarali boshqarishda transportning barcha turlarini boshqaruv tizimi tushuniladi [3]. O‘zbekistonda transport sohasida modernizatsiyasi, logistika tizimlarining joriy etilishi va raqamli texnologiyalarga o‘tish jarayonlari iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Tahlil va natijalar.

Iqtisodiyotda transport tizimi juda muhim o‘rin tutadi, chunki u ishlab chiqarish, savdo, xizmat ko‘rsatish va aholining ijtimoiy hayotini bog‘lab turuvchi asosiy sohadir. Quyida transport tizimining asosiy funksiyalari keltirilgan:

1. Iqtisodiy bog‘lovchi (integratsion) funksiya:transport turli hududlar, sanoat tarmoqlari va bozorlarni o‘zaro bog‘laydi.Masalan, ishlab chiqarilgan mahsulotni xom ashyo manbaidan iste’molchigacha yetkazadi.Shu orqali ichki va tashqi iqtisodiy aloqalar rivojlanadi.

2. Ishlab chiqarish infratuzilmasi funksiyasi:transport ishlab chiqarish jarayonining ajralmas qismi bo‘lib, mahsulot aylanishini ta’minlaydi.Tovarlar, xom ashyo, yoqilg‘i, asbob-uskunalar transport orqali yetkaziladi.

3. Hududiy mehnat taqsimotini rivojlantirish funksiyasi:Turli hududlar o‘z resurslariga moslashgan iqtisodiy faoliyat bilan shug‘ullanadi.Transport tizimi esa bu hududlar o‘rtasidagi mahsulot va xizmat almashinuvini ta’minlaydi.


4. Bozorlarni shakllantirish va kengaytirish funksiyasi:Tovar va xizmatlarning erkin harakatini ta’minlaydi:yangi bozorlar, eksport-import imkoniyatlari yaratiladi.

5. Bandlik va ijtimoiy barqarorlik funksiyasi:transport sohasida ko‘plab ish o‘rinlari yaratiladi. Aholining turmush darajasini oshirishga xizmat qiladi.

6. Hududiy rivojlanishni rag‘batlantirish funksiyasi: yangi yo‘llar, temir yo‘llar, aeroport va portlar barpo etilishi orqaligina iqtisodiy hududlar rivojlanadi.Aholining harakatchanligi ortadi, sarmoyalar jalb qilinadi.

7. Xalqaro iqtisodiy integratsiya funksiyasi:transport tizimi mamlakatning jahon xo‘jalik tizimiga qo‘shilishida asosiy vositadir.

O‘zbekiston Respublikasi milliy iqtisodiyotida band bo‘lgan jami mehnat resurslarining asosiy qismi 52,7%i xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatmoqda. O‘zbekiston Respublikasi milliy iqtisodiyot sohalarida bandlik va mehnat unumdorligi tahlili shuni ko‘rsatadiki,milliy iqtisodiyotda bandlikni o‘sishi bilan uning sanoat, qishloq xo‘jaligi va xizmat ko‘rsatish sohalarida bandlikni o‘sishi o‘rtasida farqni kuzatish mumkin. 2023 yil davomida metropolitenda 172 mln, yo‘lovchi poyezdlarda,9mln 300ming yo‘lovchi tashilgan bo‘lsa,2024-yilda metropolitenda 270 mln yo‘lovchi,poyezdlarda 10 mln 70 ming,shuningdek,avtomobil transportida 8 mlrddan ortiq yo‘lovchilarni tashishga erishilgan.Bundan tashqari 2024-yil davomida temir yo‘l transportida 102,7 mln tonna yuk tashilgan bo‘lsa, avtomobil transportida 2 mlrd tonnadan ortiq yuk tashilgan. Tahlillardan ko‘rinib turibdiki, bir yil davomida tashilgan yo‘lovchi va yuk tashishga bo‘lgan talab qanchalik yuqori ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Transport infratuzilmasining holati va rivojlanishi mintaqaning transport xizmatlarini ko‘rsatishga ijobiy ta`sir ko‘rsatadi.Kompleks geografik sharoitlar, iqtisodiy ko‘rsatkichlar, yo‘llar tarmog‘ini rivojlantirishda viloyat va shahar hokimiyatlari o‘rtasida muvofiqlashtirilgan tizimning mavjudligi albatta soha rivojining poydevori bo‘lib xizmat qiladi.O‘zbekiston iqtisodiy tizimida transport xizmatlari o‘sish sur’atlari so‘nggi yillarda barqarorlik bilan davom etmoqda. 2025-yilning yanvar–avgust oylarida transport xizmatlari hajmi 113 trillion so‘mdan oshib, 2024-yilning shu davriga nisbatan 112 foiz o‘sish sur’atini qayd etdi.Tarkibiy jihatdan: Avtomobil transporti xizmatlari — 50 foizdan ortiq, Havo transporti — 15 foiz, Temiryo‘l transporti — 8 foiz, Quvur transporti — 12 foizdan yuqori ulushni tashkil etmoqda. Transport va logistika tizimlarini rivojlantirish natijasida mintaqalararo aloqalar mustahkamlanib, eksport-import operatsiyalari samaradorligi oshmoqda. So‘nggi yillarda mahalliy tashuvchilarni qo‘llab-quvvatlash natijasida yuk avtomobillari soni 7 barobarga oshib, 26 mingga yetgan, xalqaro tashishdagi ulushi esa 35 foizdan 60 foizga ko‘tarilgan.Quyida O‘zbekistonda transport xizmatlari hajmining o‘sishini ko‘rishimiz mumkin (1-rasm)



1-rasmda keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra, transport xizmatlari hajmi yildan-yilga ortganini ko‘rsatmoqda. Bu holat mamlakat ichki bozori bilan bir qatorda, xalqaro savdo aloqalari, eksport-import operatsiyalarining kengayib borayotganini ham tasdiqlaydi.Transport xizmatlari tarkibida avtomobil transporti yetakchi o‘rinda bo‘lib, uning ulushi o‘rtacha 50 foiz atrofida saqlanmoqda. Bu soha, ayniqsa, mintaqalararo yuk tashish va logistika xizmatlarini rivojlantirishda asosiy harakatlantiruvchi kuch sifatida e’tirof etiladi. Shu bilan birga, temir yo‘l transportining elektrlashtirilishi, logistika markazlari tarmog‘ining kengaytirilishi va “yashil transport” konsepsiyasining bosqichma-bosqich joriy etilishi sohaning uzoq muddatli barqaror rivojlanishiga zamin yaratmoqda.Umuman olganda, 2020–2024 yillar tahlili shuni ko‘rsatadiki, transport xizmatlari O‘zbekiston iqtisodiyotida yalpi ichki mahsulot o‘sishiga, bandlik darajasining oshishiga va mintaqaviy iqtisodiy integratsiyaga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda.

Xulosa va takliflar

Transport tizimi O‘zbekiston iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida muhim strategik o‘rin egallaydi. So‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida mamlakat transport infratuzilmasi yangilanmoqda, logistika xizmatlari takomillashmoqda va xalqaro transport yo‘laklari kengayib bormoqda. Shu bilan birga, ayrim hududlarda transport infratuzilmasining eskirganligi, raqamli texnologiyalarni joriy etishning sustligi, ekologik talablarning to‘liq bajarilmagani kabi muammolar mavjud.Ularni bartaraf etish uchun transport tizimini kompleks modernizatsiya qilish, raqamli boshqaruv va “yashil transport” dasturlarini keng joriy etish, xalqaro transport yo‘laklari bilan integratsiyani kuchaytirish hamda xususiy sektor ishtirokini kengaytirish zarur. Shuningdek, transport xizmatlari sifatini oshirish, yangi logistika markazlarini tashkil etish va ekologik toza transport vositalaridan foydalanishni qo‘llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etadi.Tadqiqotdan kelib chiqqan holda ushbu takliflar ishlab chiqildi:

1. Transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish hududlar o‘rtasida iqtisodiy tenglikni ta’minlash maqsadida yangi avtomobil va temir yo‘l yo‘nalishlarini qurish. Eskirgan transport vositalarini bosqichma-bosqich energiya tejamkor va ekologik toza transport bilan almashtirish.

Transport tarmoqlarini turizm, sanoat va qishloq xo‘jaligi markazlari bilan uyg‘unlashtirish orqali ichki bozorni jonlantirish.

2. Raqamli transformatsiya va boshqaruvni takomillashtirish“Smart transport” va “Raqamli logistika” tizimlarini joriy etish orqali yuk va yo‘lovchi tashish jarayonlarini onlayn boshqarish. Transport sohasida yagona elektron ma’lumotlar bazasini yaratish, bu orqali tranzit, bojxona va eksport-import jarayonlarini soddalashtirish. Sun’iy intellekt asosida yo‘l harakati va logistika tahlillarini amalga oshirish.

3. Transport-logistika markazlarini rivojlantirish har bir viloyatda strategik joylashgan logistika hublarni tashkil etish.Mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun eksportga yo‘naltirilgan transport xizmatlariga imtiyozli tariflar joriy etish.

Umuman olganda, transport tizimini har tomonlama rivojlantirish O‘zbekiston iqtisodiy o‘sishining muhim omillaridan biri bo‘lib, mamlakatning xalqaro savdo, turizm va investitsiya sohalaridagi raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Natijada, O‘zbekiston Markaziy Osiyoning transport-logistika markazlaridan biriga aylanishi uchun mustahkam zamin yaratiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. The World Bank: World Development Indicators. http: //data.worldbank.org/indicator
2. https://gov.uz/oz/activity_page/digital_technology
3. Venables, A. J. (2007). Evaluating Urban Transport Improvements: Cost–Benefit Analysis in the Presence of Agglomeration and Income Taxation. Journal of Transport Economics and Policy, 41:173–188 p.
4. Коврижных И.В. Анализ и оценки эффективности управления в организации / И.В. Коврижных. – Барнул: АФ СибАГС, 2016. – 86с.
5. Fayzullayev J.S. Improvement of Economic Efficiency of Development of Railway // Asian Journal of Technology & Management Research (AJTMR) ISSN: 2249 –0892 Vol9 Issue–2, Dec -2019.
6. Зоҳидов А.А. Марказий осиё транспорт тизимини самарали бошқариш механизмини такомиллаштириш. Икт. фан. док. ... дис. Автореф., Тошкент 2018.
7. Frederick Starr S., Filat Yildiz, Martina reiser etc. The New Silk roads: Transport and trade in Greater Central Asia. Monograph Central AsiaCaucasus institute & Silk Road Studies Programm, Washington, D.C.: Johns Hopkins University-SAIS, 2007. – 514 p.
8. Jo‘raev, A. (2021). “Transport tizimining iqtisodiy rivojlanishdagi roli.” Iqtisodiyot va innovatsiyalar jurnali, №3.
9. Karimov, N. (2022). “Transport xizmatlari va barqaror iqtisodiy o‘sish.” O‘zbekiston iqtisodiyoti jurnali, №5.
10. Samadov, G., Zoxidov, A., G‘ulamov, A., Ravshanov, M. (2020). Transport tizimi va iqtisodiy boshqaruv. Toshkent: TDIU nashriyoti.
11. UNCTAD (2023). Transport and Trade Logistics Report**.**
12. The World Bank (2024). World Development

INNOVATSION MENEJMENT USULLARINI OPTIMALLASHTIRISH

Kamoldin Kenjayev Paxriddin o'g'li[1], Abdug'ani Ne'matov Ikrom o'g'li[1], Dinora Ishmanova[2]

[1]Millat Umidi universiteti 4-kurs talabalari, BA-401;

[2]Ilmiy rahbar, Iqtisodiyot fanlari doktori DSc

https://doi.org/10.5281/zenodo.18232375

Annotatsiya. *Ushbu maqolada O'zbekiston korxonalarida innovatsion menejmentni joriy qilish jarayonidagi asosiy qiyinchiliklar va ularning samarali yechimlari o'rganilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi mahalliy sharotiga mos innovatsion boshqaruv mexanizmlarini ishlab chiqishdan iborat. Maqolada O'zbekiston korxonalari uchun moslashtirilgan Agile, Lean Startup va Design Thinking metodologiyalarining amaliy qo'llanilishi tahlil qilingan bo'lib, innovatsion menejmentni optimallashtirish orqali resurslardan samarali foydalanish, vaqtni qisqartirish va raqobatbardoshlikni oshirish yo'llari ko'rsatilgan.*

Kalit so'zlar*: innovatsion menejment, mahalliy moslashtirish, resurs samaradorligi, loyiha boshqaruv, O'zbekiston korxonalari, raqobatbardoshlik.*

Аннотация. *В данной научной статье исследуются основные трудности и эффективные решения внедрения инновационного менеджмента на предприятиях Узбекистана. Основная цель исследования заключается в разработке механизмов инновационного управления, адаптированных к местным условиям. В статье проанализировано практическое применение методологий Agile, Lean Startup и Design Thinking, адаптированных для узбекистанских компаний. Показаны пути оптимизации инновационного менеджмента для эффективного использования ресурсов, сокращения времени и повышения конкурентоспособности.*

Ключевые слова: *инновационный менеджмент, локальная адаптация, эффективность ресурсов, управление проектами, предприятия Узбекистана, конкурентоспособность.*


Abstract. *This scientific article examines the main challenges and effective solutions for implementing innovation management in enterprises of Uzbekistan. The primary research objective focuses on developing innovation management mechanisms adapted to local conditions. The article analyzes the practical application of Agile, Lean Startup, and Design Thinking methodologies adapted for Uzbek companies. It demonstrates ways to optimize innovation management for efficient resource utilization, time reduction, and competitiveness enhancement.*

Keywords*: innovation management, local adaptation, resource efficiency, project management, Uzbek enterprises, competitiveness.*

Kirish: Zamonaviy globallashuv sharotida innovatsion menejment korxona va tashkilotlarning muvaffaqiyatli faoliyati uchun hal qiluvchi omilga aylanmoqda. O'zbekiston iqtisodiyoti chuqur islohotlar davrini boshidan kechirayotgan bo'lib, ushbu jarayonda innovatsion yondashuvlar asosida raqobatbardoshlikni oshirish dolzarb vazifalardan biridir. So'nggi yillarda mamlakatimizda innovatsion faoliyatni rivojlantirish bo'yicha bir qator qonun

hujjatlari qabul qilingan, turli davlat dasturlari amalga oshirilmoqda. Biroq, amaliyotda O‘zbekiston korxonalari innovatsion menejmentni joriy etish va samarali boshqarishda bir qator qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Tadqiqotda ilmiy adabiyotlar tahlili, so‘rov va monitoring natijalari, shuningdek, statistik ma’lumotlar asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Maqola O‘zbekiston korxonalari rahbarlari, menejerlari va tadbirkorlari, shuningdek, ushbu soha bo‘yicha ta’lim olayotgan talabalar uchun amaliy qo‘llanma vazifasini bajaradi. Optimallashtirish deganda, mavjud innovatsion menejment usullarini samarali**,** tez va kam xarajat bilan ishlashini ta'minlash tushuniladi

O‘zbekiston korxonalarida innovatsion menejmentning hozirgi holatini tahlil qiladigan bo‘lsak, tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, korxonalarda innovatsion menejmentni joriy etishda quyidagi asosiy muammolar mavjud:




1-rasm. Mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan korxonalarning innovatsion menejmenti holati tahlili[17]

Bugungi kunda innovatsion menejment usullarini optimallashtirish yo‘nalishlari O‘zbekiston sharotiga mos innovatsion menejmentni optimallashtirish uchun quyidagi yo‘nalishlar taklif etiladi:

1. **Bosqichma-bosqich joriy etish** - barcha usullarni bir vaqtda emas, balki bosqichma-bosqich joriy qilish
2. **Mahalliy madaniyatga moslashtirish** - xalqaro usullarni mahalliy mentalitet va ish tartibiga moslashtirish
3. **Kadrlarni tayyorlash** - innovatsion menejment bo‘yicha mutaxassislar tayyorlash tizimini yaratish
4. **Davlat-qusim korxona hamkorligini rivojlantirish** - innovatsion loyihalarni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish

[17] Muallif ishlanmasi

Tadqiqot natijalari asosida O‘zbekiston korxonalari uchun quyidagi innovatsion menejment modeli taklif etiladi:



2-rasm. O‘zbekiston korxonalari uchun moslashtirilgan innovatsion menejment modeli[18]

Yuqorida aks ettirilgan modelning asosiy afzalligi u O‘zbekiston korxonalarining haqiqiy ehtiyojlari va imkoniyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan bo‘lib, bosqichma-bosqich amalga oshiriladi va mahalliy sharotga to‘liq moslashtirilgan.

Mamlakatimizda ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish bo‘yicha davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar belgilangan bo‘lib, so‘nggi yillarda Respublikada iqtisodiy va ijtimoiy sohalarni innovatsion rivojlantirishga doir aniq maqsadli dasturlar amalga oshirildi, hamda mamlakatni innovatsiyalar sohasida global 50 ilg‘or davlatlar qatoriga kiritish strategiyasi tasdiqlandi. Ilmiy loyihalarni moliyalashtirishning yangi mexanizmlari joriy etildi. Shu bilan birga, zamonaviy bosqichda ilm-fan va innovatsiya sohasida davlat boshqaruvi mexanizmlarini takomillashtirish, davlat dasturlarini shakllantirishda shaffoflikni oshirish hamda hududlarda innovatsion texnologiyalarni joriy etish zarurati tadqiq etildi.

Adabiyotlarning tahlili: Innovatsion menejment sohasidagi zamonaviy yondashuvalar va ularning O‘zbekiston sharoitida moslashuvini o‘rganish maqsadida quyidagi ilmiy manbalar chuqur o‘rganildi: *Clayton Christensen*ning "Innovator's Dilemma" (2016) asarida buzuvchi innovatsiya nazariyasi tahlil qilingan bo‘lib, korxonalarning muvaffaqiyatga erishishlari, ayniqsa raqobat sharoitida qanday yangiliklar yaratishlari haqida qimmatli tushunchalar beradi. Uning

[18] Muallif ishlanmasi

ta'kidlashicha, barqaror innovatsiyalar nafaqat texnologik, balki biznes-model innovatsiyalarini ham o‘z ichiga olishi kerak. *Eric Ries*ning "The Lean Startup" (2011) asari O‘zbekiston kabi rivojlanayotgan bozorlar uchun ayniqsa dolzarbligini isbotladi. Uning taklif qilgan MVP (Minimum Viable Product) konsepsiyasi va "qurish-o‘rganish-moslashish" tsikli resurslar cheklangan bo‘lgan korxonalar uchun optimal yechimdir. *Peter Drucker*ning innovatsion menejmentga oid ishlarida, ayniqsa "Innovation and Entrepreneurship" (1985) asarida, innovatsiyani tizimli va boshqariladigan jarayon sifatida ko‘rish muhimligi ta'kidlangan.

O‘zbekistonlik olimlardan *Islomov B.T.*ning "Innovatsion iqtisodiyot: nazariya va amaliyot" (2020) asarida mamlakatimizda innovatsion faoliyatni rivojlantirishning huquqiy va institutsional aspektlari o‘rganilgan. Muallif O‘zbekiston sharotida innovatsion menejmentning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlashga yo‘naltirilgan takliflar ishlab chiqqan**.** *Raximov O.O.*ning "Zamonaviy innovatsion menejment usullari" (2022) maqolasida xalqaro innovatsion menejment usullarini mahalliy sharotiga moslashtirishning ilmiy asoslari yoritilgan**.**

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston sharotida innovatsion menejmentni joriy etishda g‘arb mamlakatlarining tajribasidan foydalanish zarur, ammo uni mahalliy madaniyat, iqtisodiy tizim va mentalitetga moslashtirish zaruriyati tug‘iladi.

Hozirgi global iqtisodiyotda innovatsion menejmentning bir qancha samarali usullari mavjud bo‘lib, ular orasida quyidagilar alohida o‘rin tutadi:

Agile metodologiyasi - bu dinamik muhitda loyihalarni boshqarishga qaratilgan iterativ yondashuv bo‘lib, u doimiy o‘zgarishlarga moslashish imkoniyatini beradi. Uning asosiy afzalliklariga tezkor natijalarga erishish, mijozlar ehtiyojlariga aniq javob berish va xarajatlarni samarali boshqarish kiradi.

Lean Startup usuli yangi mahsulot yoki xizmatlarni ishlab chiqishda resurslarni tejashga qaratilgan bo‘lib, uning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

Minimal hayotiy mahsulot (MVP) yaratish

Doimiy o‘rganish va moslashish

Mijozlar fikriga asoslangan qarorlar qabul qilish

Design Thinking - bu foydalanuvchi ehtiyojlariga chuqur tushunish orqali muammolarni hal qilishga qaratilgan yondashuv bo‘lib, besh bosqichdan iborat:

Hamdardlik (Empathize)

Muammoni aniqlash (Define)

G‘oya yaratish (Ideate)

Prototip yaratish (Prototype)

Sinash (Test)

Innovatsion menejment usullarini optimallashtirish yo‘nalishlari bo‘yicha, O‘zbekiston sharotiga mos innovatsion menejmentni optimallashtirish uchun quyidagi yo‘nalishlar taklif etsa bo‘ladi :

1. Bosqichma-bosqich joriy etish - barcha usullarni bir vaqtda emas, balki bosqichma-bosqich joriy qilish
2. Mahalliy madaniyatga moslashtirish - xalqaro usullarni mahalliy mentalitet va ish tartibiga moslashtirish
3. Kadrlarni tayyorlash - innovatsion menejment bo‘yicha mutaxassislar tayyorlash tizimini yaratish
4. Davlat-xususiy korxona hamkorligini rivojlantirish - innovatsion loyihalarni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish

Tahlil va natijalar: Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, O‘zbekiston korxonalari innovatsion menejment usullarini qo‘llashda quyidagi natijalarga erishdilar:

Agile usuli:

Loyiha muddati 35% qisqardi

Xarajatlar samaradorligi 28% oshdi

Mahsulot sifati 42% yaxshilandi

Lean Startup:

Loyiha muddati 42% qisqardi

Xarajatlar samaradorligi 35% oshdi

Mahsulot sifati 38% yaxshilandi

Design Thinking:

Loyiha muddati 28% qisqardi

Xarajatlar samaradorligi 22% oshdi

Mahsulot sifati 45% yaxshilandi

Korxonalarning qiyinchiliklari

So‘rov natijalariga ko‘ra:

65% korxona moliyaviy resurs yetishmasligini

58% malakali kadrlar kamligini

- 47% texnologik muammolarni

72% an'anaviy boshqaruv usullarining to‘sqinligini bildirdi

Takliflar: Tadqiqot natijalariga asoslanib, O‘zbekiston korxonalarida innovatsion menejmentni optimallashtirish uchun quyidagi takliflar ishlab chiqildi: Korxona Rahbariyati uchun takliflar**:** Strategik Rejalashtirish Innovatsion menejmentni korporativ strategiyaga integratsiya qilish. Har bir korxona uchun moslashtirilgan model yaratish, bosqichma-bosqich o‘tish rejasini ishlab chiqish, kadrlar siyosati . innovatsion menejment bo‘yicha mutaxassislar tayyorlash . Menejerlarni malakasini oshirish kurslari tashkil etish. Yosh ixtisodchilarni rag‘batlantirish tizimi joriy etish. Boshlovchi korxonalar uchun, Agile metodologiyasidan boshlash, kichik loyihalarda sinab ko‘rish, doimiy monitoring tizimini o‘rnatish.

Ushbu takliflar amalga oshirilishi O‘zbekiston korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish va innovatsion rivojlanishini ta'minlashga yordam beradi

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, innovatsion menejment usullarini optimallashtirish va ularni mahalliy sharoitga moslashtirish O‘zbekiston korxonalariga quyidagi imkoniyatlarni beradi:Raqobatbardoshlikni oshirish – korxonalar bozor talablariga tez moslashadi va raqobatchilardan ustun bo‘lish imkoniga ega bo‘ladi.Yangi bozorlarni zabt etish – innovatsion mahsulot va xizmatlar orqali yangi iste’molchilarni jalb qilish va bozor ulushini oshirish mumkin. Iqtisodiy rivojlanishga hissa qo‘shish – korxonalar samaradorligini oshirish va yangi texnologiyalarni joriy etish orqali mamlakat iqtisodiyotining innovatsion rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, innovatsion menejmentning muvaffaqiyati korxonaning kadr salohiyati, moliyaviy resurslari va texnologik tayyorgarligiga bog‘liq. Shuning uchun, taklif etilgan optimallashtirish choralarini qo‘llash korxonalarga strategik afzallik yaratadi va uzoq muddatli barqaror rivojlanishni ta’minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. Ilmiy adabiyotlar:

1. Islomov B.T. *Innovatsion iqtisodiyot: nazariya va amaliyot*. Toshkent: Iqtisodiyot, 2020.
2. Raximov O.O. “Zamonaviy innovatsion menejment usullari”. *O‘zbekiston iqtisodiyoti jurnali*, 2022, №3.
3. Xasanov A.A. *Yangi O‘zbekiston iqtisodiyotida innovatsion jarayonlar*. Toshkent: Fan, 2021.

2. Xalqaro adabiyotlar:

1. Christensen, C. M. *The Innovator's Dilemma*. Harvard Business Review Press, 2016.
2. Ries, E. *The Lean Startup*. Crown Business, 2011.
3. Brown, T. *Design Thinking*. Harvard Business Review, 2008.

3. Ilmiy maqolalar va tadqiqotlar:

1. “Agile metodologiyasining O‘zbekiston korxonalarida qo‘llanilishi”. *Innovatsion texnologiyalar jurnali*, 2023.
2. “Lean Startup usulining rivojlanayotgan bozorlarda samaradorligi”. *Xalqaro biznes jurnali*, 2022.

4. Elektron resurslar:

1. www.innovation.uz – O‘zbekiston Innovatsion rivojlanish vazirligi portali.
2. www.stat.uz – O‘zbekiston Respublikasi Statistika qo‘mitasi.
3. www.mit.edu/innovation – MIT innovatsion menejment markazi.

5. Tadqiqot hisobotlari:

1. O‘zbekiston korxonalarida innovatsion menejment holati tahlili (2023 yil monitoring natijalari).

AKSIONERLIK JAMIYATLARIDA ICHKI AUDITNING RISKGA ASOSLANGAN YONDASHUVINI KENGAYTIRISH

Mamarasulov Diyorbek Alijon o‘g‘li
Farg‘ona Davlat Texnika Universiteti tayanch doktoranti
https://orcid.org/0009-0006-9794-7488
https://doi.org/10.5281/zenodo.18232395

Annotatsiya. *Maqolada aksionerlik jamiyatlarida ichki audit faoliyatini takomillashtirishda riskga asoslangan yondashuvning ahamiyati va qo‘llanish mexanizmlari yoritilgan. Zamonaviy korporativ boshqaruv tamoyillariga muvofiq, ichki auditning asosiy vazifasi tashkilotning risk-menejment, ichki nazorat va korporativ boshqaruv jarayonlarining samaradorligini baholashdan iborat. Tadqiqotda uch chiziqli mudofaa konsepsiyasi, COSO risk boshqaruv modeli va OECD korporativ boshqaruv standartlari asosida aksionerlik jamiyatlarida risklarni aniqlash, baholash va ustuvorlashtirish jarayonlari tahlil qilingan. Shuningdek, komplayens nazorati, audit qo‘mitasi va kuzatuv kengashi bilan integratsiyada ishlash, strategik va operatsion risklarni audit jarayonlariga kengroq tatbiq etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan. Maqola ichki audit xizmatining mustaqilligi va samaradorligini oshirish, resurslarni risk darajasiga qarab taqsimlash hamda aksionerlar uchun qo‘shimcha qiymat yaratishga xizmat qiluvchi amaliy tavsiyalarni o‘z ichiga oladi.*

Kalit so‘zlar: *ichki audit, riskga asoslangan audit, aksionerlik jamiyati, ERM, COSO, OECD, IIA, audit qo‘mitasi, korporativ boshqaruv, komplayens, uch chiziqli mudofaa.*

KIRISH.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida aksionerlik jamiyatlarining barqaror faoliyati, ularning moliyaviy shaffofligi va investitsion jozibadorligini ta’minlash samarali korporativ boshqaruv tizimini joriy etishni talab etadi. Ushbu tizimning ajralmas bo‘g‘ini bo‘lgan ichki audit instituti so‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida tubdan modernizatsiya qilinmoqda. Xususan, “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonun (2014-y., yangi tahrir), hamda unga muvofiq qabul qilingan normativ hujjatlar korporativ boshqaruvning eng muhim talablaridan biri sifatida ichki audit xizmatining mustaqilligi, faoliyat samaradorligi va risklarni boshqarish jarayoniga integratsiyasini belgilab qo‘ygan.

Davlat rahbari tashabbusi bilan korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish bo‘yicha qator hujjatlar qabul qilindi. Jumladan:

- PF–5992-son Prezident farmoni (2020-y.) — korporativ boshqaruv tizimini isloh qilish, aksionerlik jamiyatlarga xalqaro boshqaruv standartlarini joriy etish;
- PQ–4699-son qaror (2020-y.) — aksionerlik jamiyatlarda ichki audit, komplayens va risk-menejment tizimlarini kuchaytirish;
- PQ–5563-son qaror (2022-y.) — davlat ishtirokidagi korxonalarda ichki auditning rolini oshirish va xalqaro standartlar asosida qayta tashkil etish;
- Vazirlar Mahkamasining 207-son qarori (2019-y.) — ichki audit xizmatlari faoliyati bo‘yicha minimal talablarni, audit rejalashtirish, hisobot berish va kuzatuv kengashi bilan o‘zaro aloqalarni belgilab bergan.

Mazkur hujjatlar ichki auditni korxona faoliyatidagi risklarni aniqlash, baholash va ularni kamaytirish bo‘yicha tizimli yondashuvga o‘tishni qat’iy talab etmoqda.

Bugungi kunda aksionerlik jamiyatlari faoliyati murakkablashib borayotgan operatsion jarayonlar, biznes risklarining ortishi, raqamli transformatsiya, global iqtisodiy o‘zgaruvchanlik va komplayens talablarining kuchayishi sharoitida ishlamoqda. Shuning uchun ichki audit an’anaviy tekshiruv mexanizmidan strategik riskga asoslangan yondashuvga o‘tishi zarur.

Riskga asoslangan ichki audit (RBIA) O‘zbekiston qonunchiligidagi talablarga mos ravishda nafaqat moliyaviy va xo‘jalik operatsiyalarini tekshiradi, balki korxonaning risk-menejment, ichki nazorat va korporativ boshqaruv tizimi samaradorligini baholaydi. OECD prinsiplari, COSO ERM modeli va uch chiziqli mudofaa konsepsiyasi bo‘yicha moslashtirilgan yondashuvlar aksionerlik jamiyatlarida auditning yangi mavqeini belgilab bermoqda.

Shu nuqtai nazardan, mazkur maqola O‘zbekiston aksionerlik jamiyatlarida riskga asoslangan ichki auditni kengaytirish zarurati, uning normativ-huquqiy asoslari, amaldagi muammolar va xalqaro standartlarga mos takomillashtirish yo‘llarini ilmiy nuqtai nazardan tahlil qiladi.

ASOSIY QISM.

Ichki auditning riskga asoslangan yondashuvi (Risk-Based Internal Audit — RBIA) bo‘yicha ilmiy adabiyotlar oxirgi o‘n yillikda sezilarli darajada kengaydi. Dastlabki nazariy asoslar 1990-yillarda shakllangan bo‘lsa-da, ushbu yo‘nalishning zamonaviy konsepsiyasi COSO, IIA va OECD kabi xalqaro tashkilotlar tavsiyalari asosida rivojlanib bormoqda.

RBIAga oid eng muhim manbalardan biri — The Institute of Internal Auditors (IIA) tomonidan e’lon qilingan *International Professional Practices Framework (IPPF)* bo‘lib, unda ichki auditning riskga asoslangan rejalashtirish, auditning bosqichlari va nazorat samaradorligini baholash bo‘yicha metodologik asoslar belgilangan. Shuningdek, IIAning *Practice Guide: Reliance on the Work of Other Assurance Providers (2015)* qo‘llanmasi uch chiziqli mudofaa modeli va ichki auditning u yerdagi o‘rnini aniq izohlaydi.

COSO ERM (Enterprise Risk Management) – 2017 hujjati esa risk-boshqaruv jarayonlariga integratsiyalashgan ichki audit tizimini yo‘lga qo‘yishning konseptual asosini yaratadi. COSOning "Internal Control – Integrated Framework (2013)" nashri nazorat muhitining samaradorligini baholash mezonlarini aniqlab bergan.

Akademik adabiyotlar orasida Spencer Pickett (2010)ning “The Essential Guide to Internal Auditing” asari RBIA jarayonining amaliy ko‘rinishlarini chuqur yoritadi. *Mihret & Grant (2017)* esa ichki audit samaradorligining omillarini tahlil qilib, riskga asoslangan yondashuvni tashkilot ichidagi boshqaruv madaniyati bilan bevosita bog‘laydi.

Sarens & Christopher (2019) ta’kidlaganidek, ichki auditning rolini kengaytirish uchun audit qo‘mitasi bilan doimiy aloqadorlik, risklar bo‘yicha umumiy ma’lumotlar bazasini shakllantirish va auditorlar malakasini oshirish muhim ahamiyatga ega.

Raqamli audit bo‘yicha Vasarhelyi, Alles & Williams (2020) tadqiqotlari esa “continuous auditing” — ya’ni uzluksiz monitoringga asoslangan audit tizimining RBIA uchun zarurligini asoslaydi. Xususan, axborot texnologiyalaridan foydalanish risklarni real vaqt rejimida baholash imkonini beradi.

O‘zbekiston olimlari ham so‘nggi yillarda ichki audit, korporativ boshqaruv va risk-menejment bo‘yicha qator tadqiqotlar olib bordilar. D.Kudbiyev va D.Mamarasulov (2024) tomonidan chop etilgan maqolalarda asosiy vositalar hisobi, riskga asoslangan audit jarayonining milliy amaliyotga integratsiyasi va IFRS bo‘yicha tahliliy yondashuvlar berilgan. X.Ro‘ziyev

(2022) ichki auditning nazariy asoslari, uning korporativ boshqaruvdagi o‘rni va xalqaro amaliyot bilan taqqoslanishini yoritadi. Sh.Toshqulov (2021)ning ilmiy ishlari risk-menejment tizimini O‘zbekistondagi aksionerlik jamiyatlarida joriy etishning institutsional muammolarini tahlil qiladi. G.Aminova (2023) ichki nazorat tizimi va audit samaradorligining korporativ natijalarga ta’sirini empirik tahlil qilib bergan. Mahalliy ilmiy jurnal va konferensiyalarda e’lon qilingan *“Ichki auditni takomillashtirishning dolzarb masalalari”*, *“Korporativ boshqaruv va risk-menejment”* kabi maqolalar ichki auditning modernizatsiyasi uchun metodik tavsiyalar beradi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, AKT Vazirligi hamda Davlat aktivlarini boshqarish agentligi tomonidan o‘tkazilgan konferensiyalar va maruzalarda (2021–2024 yillar) RBIAning davlat korxonalarida qo‘llanish tajribasi yoritilgan.

Tadqiqotda huquqiy-hujjatlar tahlili, ilmiy adabiyotlarni solishtirma tahlil qilish, shuningdek AJlarning amaldagi ichki audit amaliyotini kuzatish va ekspert intervyulari metodlaridan foydalanildi. Olingan ma’lumotlar asosida ichki auditning riskga asoslangan rejalashtiruvini takomillashtirish bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqildi.

Uch chiziqli mudofaa modeli (Three Lines Model) — bu xalqaro ichki audit instituti (IIA) tomonidan ishlab chiqilgan korporativ boshqaruv va risklarni boshqarishning eng samarali konsepsiyalaridan biridir. Mazkur model tashkilotda risklar, nazoratlar va audit vazifalari o‘rtasidagi rollarni aniq chegaralab berib, mas’uliyatlarni takrorlanishini yoki bo‘sh qolishini oldini oladi. Model quyidagi chiziqlardan iborat:

1-chiziq: Operatsion boshqaruv (biznes jarayon egalari)

- Risklarni aniqlash, baholash va boshqarish bo‘yicha asosiy mas’ul shaxslar.
- Jarayon ichidagi nazoratlarni yaratadi va ularga rioya qiladi.
- KPI, jarayon xaritalari, siyosat va protseduralarni amalda qo‘llaydi.

2-chiziq: Risk-menejment va komplayens funksiyalari

- 1-chiziqning risklarni boshqarish jarayonini nazorat qiladi va konsultativ yordam beradi.
- Risk-reyestrni yuritadi, siyosatlarni ishlab chiqadi, komplayens monitoringini olib boradi.
- Risk indikatorlari (KRI) monitoringini amalga oshiradi.

3-chiziq: Ichki audit

- Ichki nazoratlar va risk boshqaruvi tizimining samaradorligini mustaqil baholaydi.
- Audit qo‘mitasiga bevosita hisobot beradi.
- Tashkiliy mustaqillik va obyektivlikni ta’minlaydi.

Ushbu modelning asosiy afzalligi risklarni boshqarishda aniq funksional chegaralash, rollar to‘qnashuvining kamayishi va mas’uliyatning ravshanligi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston aksionerlik jamiyatlarida ushbu modelning to‘liq joriy etilishi hali ham bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. O‘rgailgan AJdagi ichki audit hisobotlari, nizomlar va risk reyestrlari o‘rganilganida quyidagi holatlar kuzatildi:

1-chiziqning zaif ishlashi. Ko‘pgina jamiyatlarda risklarni biznes bo‘limlari emas, balki ichki audit yoki komplayens bo‘limi aniqlamoqda. Jarayon egalari risk tushunchasini yetarli bilmaydi, siyosat-protseduralar amalda qo‘llanmaydi hamda 1-chiziqning javobgarligi notayin.

2-chiziqning cheklangan roli. Risk-menejment funktsiyasi ko‘pchilik AJlarda shakllantirilmagan yoki kadr bilan to‘liq ta’minlanmagan. Komplayens bo‘limi ko‘proq hujjat

aylanishi va tekshiruvlarga e’tibor beradi. Risk indikatorlari va risk kartalari yaratilmagan bo‘ladi.

3-chiziqning yuklamasi ortiqcha. Ichki audit deyarli barcha nazorat faoliyatini o‘z zimmasiga olgan, natijada mustaqillik tamoyili buziladi. Rejalashtirish jarayonida riskga asoslangan yondashuv to‘liq qo‘llanilmaydi. Audit qo‘mitasining faoliyati formal xarakterga ega.

Rollarning chalkashligi. 1–2-chiziqlar o‘z vazifalarini bajarmagani sabab ichki audit barcha funksiyalarni bajarishga majbur. Bu esa uch chiziqli mudofaa modelining asosiy maqsadini buzadi.

1-jadval. Uch chiziqli modelning ta’siri

Ko‘rsatkich	**Model joriy etilgan AJlar**	**Model joriy etilmagan AJlar**
Xatoliklar soni	−32%	O‘zgarmagan
Audit aniqlagan kamchiliklar jiddiyligi	−27%	5%
Risk reyestri yangilanishi	Har chorak	Yiliga 1 marta
Ichki audit yuklamasi	−40%	O‘ta yuqori
Komplayens samaradorligi	45%	Past

Ushbu jadval uch chiziqli mudofaa modeli joriy etilgan va joriy etilmagan aksiyadorlik jamiyatlari o‘rtasida risk boshqaruvi samaradorligidagi sezilarli tafovutlarni ko‘rsatadi. Modelni tatbiq etgan tashkilotlarda xatoliklar sonining 32 foizga kamayishi va ichki audit tomonidan aniqlangan kamchiliklarning jiddiyligi 27 foizga pasaygani birinchi va ikkinchi chiziqlarning mas’uliyati oshgani, jarayonlar muntazam nazoratda ekani bilan bog‘liq. Risk reyestrining har chorakda yangilanishi korporativ boshqaruvning barqaror va dinamik yondashuvini ta’minlaydi, bu esa ichki audit yuklamasini 40 foizga qisqartirib, auditorlar strategik risklarga ko‘proq e’tibor qaratishiga imkon yaratadi. Komplayens samaradorligining 45 foizga oshgani esa modelning integratsiyalashgan monitoring tizimi natijasida yuzaga kelib, umumiy nazorat muhiti kuchayganini anglatadi. Modelni joriy etmagan AJlarda esa xatoliklar darajasi o‘zgarmasdan qolgan, jiddiy kamchiliklar esa ortgan bo‘lib, risk boshqaruvi bo‘yicha tizimli yondashuv yetishmasligi oqibatida nazorat funksiyalari samaradorligi pastligicha qolmoqda.

XULOSA.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, aksionerlik jamiyatlarida ichki auditning riskga asoslangan yondashuvini kengaytirish korporativ boshqaruv samaradorligini oshirishning eng muhim omillaridan biridir. Ayniqsa, uch chiziqli mudofaa modeli to‘liq joriy etilgan korxonalarda risklarni boshqarish madaniyati shakllangan, xatoliklar soni 30 foizgacha kamaygan, ichki auditning ortiqcha yuklamasi esa 40 foizga qisqargan. Bu esa rollarning aniq taqsimlanganligi, jarayon egalari tomonidan risklarning o‘z vaqtida aniqlanishi va komplayens faoliyatining tizimli yo‘lga qo‘yilganligini ko‘rsatadi.

Tahlil jarayonida aniqlanishicha, ko‘plab aksionerlik jamiyatlarida birinchi chiziq – biznes bo‘limlarning risklarni boshqarishdagi mas’uliyati yetarli darajada bajarilmayapti. Risk-reyestrlar muntazam yangilanmaydi, nazorat choralari formal xarakterga ega, natijada ichki audit 1–2-chiziqlarga tegishli vazifalarni ham bajarishga majbur bo‘lmoqda. Ikkinchi chiziq – risk-

menejment va komplayens bo‘limlarida metodologik asoslar, KRI tizimi va monitoring mexanizmlari to‘liq shakllanmagan. Bu esa mustaqil auditning obyektivligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Shu bilan birga, modelni to‘liq joriy etgan korxonalarda strategik, operatsion va moliyaviy risklarni boshqarish sezilarli darajada yaxshilangan, korporativ boshqaruv standartlari esa xalqaro talablarga yaqinlashtirilgan. Umuman olganda, uch chiziqli mudofaa modeli va riskga asoslangan audit yondashuvini integratsiya qilish aksionerlik jamiyatlarining investitsion jozibadorligi, shaffoflik darajasi va moliyaviy barqarorligini oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijasida quyidagi takliflarni ishlab chiqildi.

Birinchi chiziqni kuchaytirish: jarayon egalari tomonidan risklarni aniqlash va nazorat qilish bo‘yicha mas’uliyatni aniq belgilash, ularni risk-menejment metodologiyasi bo‘yicha muntazam o‘qitish.

Ikkinchi chiziqni rivojlantirish: COSO ERM asosida yagona risk-menejment tizimini shakllantirish, risk-reyestrni raqamlashtirish va asosiy risk indikatorlari (KRI) bo‘yicha monitoringni yo‘lga qo‘yish.

Uchinchi chiziq – ichki auditni mustahkamlash: Auditni to‘liq riskga asoslangan rejalashtirishga o‘tkazish, auditni IT, komplayens va strategik risklar bilan integratsiya qilish.

Audit qo‘mitasi samaradorligini oshirish: Mustaqil direktorlar ishtirokini kuchaytirish va audit hamda risk bo‘yicha hisobotlar muhokamasini analitik asosda olib borish.

Raqamli audit texnologiyalarini joriy etish: Data-analitika, doimiy monitoring va ERP-audit vositalarini keng qo‘llash orqali audit jarayonlarining chuqurligi va aniqligini oshirish.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi qonuni “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida” 06.05.2014 yildagi O‘RQ-370-son
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori “Moliyaviy hisob tizimini xalqaro talab va standartlarga muvofiq takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. 15.09.2025 yildagi No. PQ-282-son
3. The Institute of Internal Auditors. (2017). *International Professional Practices Framework (IPPF)*. IIA Global.
4. Committee of Sponsoring Organizations of the Treadway Commission (COSO). (2017). *Enterprise Risk Management — Integrating with Strategy and Performance*. COSO.
5. Pickett, S. (2010). *The Essential Guide to Internal Auditing* (2nd ed.). Wiley.
6. Mihret, D. G., & Grant, B. (2017). The role of internal audit in risk management: A literature review. *Journal of Accounting & Organizational Change*, 13(3), 336–356.
7. Toshqulov, Sh. (2021). Korporativ boshqaruv va risk-menejmentning milliy amaliyotdagi ahamiyati. *Iqtisodiyot va ta’lim*, 6(2), 45–52.
8. Aminova, G. (2023). Ichki nazorat tizimi samaradorligining korporativ boshqaruv natijalariga ta’siri. *Moliyaviy tahlil jurnali*, 4(1), 33–41.
9. Mamarasulov D.A. & Kudbiyev D. (2024). Preparation of reports for the first time according to international standards of financial reporting. Innovative Development in Educational Activities, 3(5), 28–37. https://doi.org/10.5281/zenodo.10823600
10. Mamarasulov D.A. (2024). IMPROVING INVESTMENT PROPERTY ACCOUNTING IN UZBEKISTAN: A FOCUS ON INTERNATIONAL FINANCIAL REPORTING STANDARDS (IFRS). Экономика и социум, (4-1 (119)), 308-316.

11. Mamarasulov D.A. (2024). Important issues of accounting for fixed assets according to the requirements of international financial reporting standards. Journal of Management Value & Ethics, India Gwalior-M.P. Jan-March 24 Special Issue, 88-94. http://jmveindia.com/journal/JAN-MARCH%2024_IS-2024.pdf
12. Кудбиев, Д., & Мамарасулов, Д. (2024). ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ УЧЕТА ОСНОВНЫХ СРЕДСТВ В СООТВЕТСТВИИ С МЕЖДУНАРОДНЫМИ СТАНДАРТАМИ ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ. Nashrlar, 3(M), 81–84. https://doi.org/10.60078/2024-vol3-issM-pp81-84
13. Diyorbek Alijon O‘G‘Li Mamarasulov (2022). MHXS BO‘YICHA BIRINCHI HISOBOT TAYYORLASH MUAMMOLARI. Scientific progress, 3 (4), 474-485.
14. Mamarasulov Diyorbek Alijon Ugli (2024). IMPROVING THE PREPARATION OF CONSOLIDATED FINANCIAL STATEMENTS OF FIXED ASSETS IN THE DIGITAL ECONOMY. Raqamli iqtisodiyot (Цифровая экономика), (7), 507-522.
15. Mamarasulov Diyorbek Alijon Ugli & Davlatbay, K. (2024). EXPLORING FIXED ASSET IMPAIRMENT ACCOUNTING PRACTICES IN UZBEKISTAN. Science and innovation, 3(Special Issue 24), 179-184.
16. Mamarasulov Diyorbek Alijon Ugli (2025). ANALYTICAL APPROACHES TO FIXED ASSET AUDITING IN THE CONTEXT OF ECONOMIC MODERNIZATION. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, (№003), 13-18. https://doi.org/10.55439/EIT/vol13_iss7/728
17. Diyorbek Mamarasulov Alijon Ugli (2024). IMPLEMENTATION OF ERP SYSTEMS: ACCOUNTING AND AUDITING IMPLICATIONS. Raqamli iqtisodiyot (Цифровая экономика), (8), 243-253.

KORPORATIV MADANIYATNI KOMPANIYA BOSHQARUVDAGI O‘RNI

Mamirova Nasiba[1], Ismailov Pirmuxammad Ollayor o‘g‘li[1], D.N. Ishmanova[2]
[1]Millat Umidi Universiteti Magistratura bosqichi talabalari,
[2]Ilmiy rahbar, DSc.ifd
https://doi.org/10.5281/zenodo.18232645

Annotatsiya. *Ushbu maqolada kompaniyalarda korporativ madaniyatning shakllanishi va uning boshqaruv jarayonlaridagi o‘rni keng yoritiladi. Korporativ madaniyat tashkilotning qadriyatlari, xulq-atvor me’yorlari, ichki tamoyillari va kommunikatsiya uslublarini belgilovchi muhim omil sifatida ko‘rib chiqiladi. Maqolada korporativ madaniyatning rahbarlik uslublari, xodimlarning motivatsiyasi, jamoada ishlash madaniyati va strategik qarorlar qabul qilish jarayoniga ta’siri tahlil etiladi. Shuningdek, kompaniyalarda korporativ madaniyatni shakllantirishga yordam beruvchi zamonaviy boshqaruv yondashuvlari, HR siyosatlari va ichki muloqot strategiyalari ko‘rib chiqiladi. Turli kompaniyalar tajribasi asosida korporativ madaniyatning tashkilot samaradorligini oshirish, jamoani birlashtirish va kompaniyaning bozorga moslashuvchanligini kuchaytirishdagi ahamiyati ochib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *korporativ madaniyat, kompaniya boshqaruvi, korporativ qadriyatlar, ichki kommunikatsiya, xodimlar motivatsiyasi, rahbarlik uslubi, tashkiliy xulq, mehnat samaradorligi*

Kirish

Korporativ madaniyat - bu kompaniyaning ish jarayonida shakllangan va jamoaning barcha a'zolari tomonidan birgalikda tashkil etilgan tashkilot ichidagi xatti-harakatlar modelidir. Bu xodimlar ichidagi qadriyatlar, me'yorlar, qoidalar, urf-odatlar va printsiplarning muayyan tizimi hisoblanadi. U qadriyatlar tizimini, rivojlanishning umumiy ko‘rinishini, munosabatlar modelini va "korporativ madaniyat" tushunchasini o‘z ichiga olgan barcha narsalarni belgilaydigan kompaniya falsafasiga asoslanadi.

Tashkilotning korporativ madaniyati nafaqat dam olish kunlari, logotipli bir xil ko‘ylaklarni kiyish va hamkasblar bilan madaniy munosabatda bo‘lish an'analari haqida emas. Agar ilmiy maqolalarning ta'riflariga e'tibor berilmasa va soddaroq gapiradigan bo‘lsak: bu ishni odatiy boshqarishdir. Suning bilan birga bu tushuncha hamma narsani o‘z ichiga oladi – jamoa ichidagi xatti-harakatlardan tortib, kompaniyaning tashqi muhitda gavdalanishiga qadar.

Korporativ madaniyat elementlari[19]:

1. Kompaniyaning rivojlanishi haqidagi tasavvur - tashkilot harakat qilayotgan yo‘nalish, uning strategik maqsadlari;
2. Qadriyatlar - kompaniya uchun eng muhim narsa;
3. An'analar-tarixi - vaqt o‘tishi bilan shakllangan odatlar, marosimlar;
4. Odob-axloq qoidalari - bu tashkilotning axloqiy kodeksi hisoblanib, unda muayyan vaziyatlarda qanday o‘zini tutish kerakligi haqida yozib qo‘yilgan bo‘ladi;
5. Korporativ uslub - kompaniya ofisining tashqi va ichki ko‘rinishi, korporativ ramzlar, xodimlarning kiyinish uslubi;

[19] https://www.linkedin.com/posts/hr-texnopark-uz_korporativ-madaniyat-bu-kompaniyaning-activity-7189573896721874944-PZEN

6. Munosabatlar — bo‘limlar va jamoaning alohida a'zolari o‘rtasida aloqa qoidalari va usullari;
7. Muayyan maqsadlarga erishish uchun jamoaning e'tiqodi va birligi, mijozlar, hamkorlar, raqobatchilar bilan muloqot qilish siyosati, odamlar - bu kompaniyaning korporativ qadriyatlarini baham ko‘rgan xodimlaridir.

Adabiyotlar tahlili

1.Edgar H. Schein, Peter A. Schein — Organizational Culture and Leadership “Organizational Culture and Leadership” klassik kitobi korporativ madaniyat va rahbarlik munosabatlarini tahlil qiladi, madaniyatning darajalari va boshqaruv jarayonlariga ta’sirini ko‘rsatadi. [20]

2.John P. Kotter & James L. Heskett — Corporate Culture and Performance Mualliflar korporativ madaniyat va kompaniya iqtisodiy samaradorligi o‘rtasidagi bog‘liqlikni tadqiq qilar ekan, mos madaniyat boshqaruv samaradorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini ta’kidlaydi. [21]

3.Kim S. Cameron & Robert E. Quinn — Diagnosing and Changing Organizational Culture: Based on the Competing Values Framework Kitob tashkilot madaniyatini aniqlash, tahlil qilish va o‘zgartirish uchun “Competing Values Framework” modelini taqdim etadi, boshqaruv samaradorligini oshirish yo‘llarini ko‘rsatadi. [22]

4.CIPD (Eric Barends & Denise Rousseau) — Organisational Culture and Performance: An Evidence Review CIPD tomonidan tayyorlangan ilmiy xulosada korporativ madaniyat va tashkilot samaradorligi bo‘yicha mavjud ilmiy dalillar tahlil qilinadi.[23]

5.Terrence E. Deal & Allan A. Kennedy — Corporate Cultures: The Rites and Rituals of Corporate Life Deal va Kennedy korporativ madaniyatni tashkilot ichidagi rituallar, xulq-atvor va qadriyatlar orqali tasvirlab, kompaniya boshqaruviga ta’sirini tushuntiradi.[24]

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu tadqiqotda korporativ madaniyatning kompaniya boshqaruviga ta’siri chuqur o‘rganildi. Tadqiqotning ilmiy asoslanganligini ta’minlash maqsadida bir nechta metodlardan kompleks tarzda foydalanildi. Avvalo, mavzuga oid ilmiy adabiyotlar, monografiyalar va ilg‘or xorijiy tadqiqotlar tahlil qilinib, korporativ madaniyatning nazariy asoslari hamda boshqaruv jarayonlaridagi o‘rni aniqlab olindi. Shuningdek, turli kompaniyalar tajribasi qiyosiy tahlil qilinib, ular o‘rtasidagi madaniy farqlar va boshqaruvdagi umumiyliklar yuzasidan xulosalar chiqarildi. Tadqiqot jarayonida real ish muhitini kuzatish orqali xodimlar o‘rtasidagi munosabatlar, ichki tartib-qoidalar, rahbariyatning xodimlarga bo‘lgan yondashuvi kabi omillar amaliy jihatdan baholandi. Xodimlar o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovnomalar esa ularning korporativ qadriyatlarga munosabati, ish motivatsiyasi va boshqaruv uslubiga nisbatan fikrlarini aniqlashga yordam berdi. Rahbariyat va mutaxassislar bilan o‘tkazilgan suhbatlar orqali esa korporativ madaniyatning strategik boshqaruvdagi roli haqida sifatli ma’lumotlar olindi. Tizimli yondashuv asosida madaniyatning barcha komponentlari — qadriyatlar, me’yorlar, rasm-rusumlar, kommunikatsiya jarayonlari va rahbarlik uslubi — boshqaruv tizimi bilan o‘zaro bog‘liq holda

[20] Organizational Culture and Leadership (Organizatsion Madaniyat va Rahbarlik) – Open Library Open Library
[21] Corporate Culture and Performance – Simon & Schuster UK simonandschuster.co.uk
[22] Diagnosing and Changing Organizational Culture – Google Books Google Books
[23] Organisational Culture and Performance (CIPD ilmiy xulosa, PDF) CIPD
[24] Corporate Cultures: The Rites and Rituals of Corporate Life – WorldCat WorldCat

tahlil qilindi. Ushbu metodlar majmuasi tadqiqot natijalarining ishonchliligi va amaliy ahamiyatini ta’minladi.

Muhokama va natijalar

Bugungi kunda mamlakatimizdagi aksariyat yirik korxonalar aksiyadorlik jamiyatlariga aylantirilib, ularda zamonaviy korporativ boshqaruv tizimi joriy etilmoqda. Chet el kapitali va xorijiy boshqaruv usullari asosida faoliyat yuritayotgan korxonalar iqtisodiyotimizning raqobatbardoshligini oshirish, ishlab chiqarish hajmini kengaytirish va yangi ish o‘rinlari yaratishda muhim o‘rin tutmoqda. 2015-yil 24-apreldagi Prezident farmoni korporativ boshqaruvni takomillashtirish va kompaniyalar faoliyatini zamonaviy talablarga moslashtirishda muhim hujjat bo‘ldi. Korporativ boshqaruv ilmiy-ta’lim markazi boshqaruv kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish, shuningdek, biznes va korporativ boshqaruv bo‘yicha ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib boradi. Markazda magistratura va maxsus o‘quv kurslari yo‘lga qo‘yilib, rahbar xodimlar biznesni boshqarish hamda korporativ boshqaruv bo‘yicha chuqur bilimlar olmoqdalar. Shuningdek, markazda xorijiy tajribani o‘rganish, zamonaviy boshqaruv usullarini sinovdan o‘tkazish, aksiyadorlik jamiyatlari boshqaruv tizimini xalqaro talablarga moslashtirish bo‘yicha ilmiy-uslubiy ishlanmalar amalga oshirilmoqda. Davlat vakillari, investitsiya boshqaruvchilari, kuzatuv kengashi a’zolari, qimmatli qog‘ozlar bozori va xususiylashtirish tizimi mutaxassislari uchun qayta tayyorlov kurslari tashkil etilgan. Xalqaro anjuman va uchrashuvlar esa tajriba almashish imkoniyatlarini kengaytirmoqda.[25]

O‘zbekistonda korporativ madaniyatga an'anaviy qadriyatlar, ijtimoiy normalar va madaniy meros ta'sir ko‘rsatadi. Ierarxiya va hokimiyatni hurmat qilish keng tarqalgan bo‘lib, rahbarlar qarorlar qabul qilishlari va xodimlar belgilangan tuzilmalarga rioya qilgan holda yo‘l-yo‘riq ko‘rsatishlari kutilmoqda. Hamkorlik va jamoaviy ish qadrlanadi, bu mamlakatning kollektivistik madaniyatini aks ettiradi. Mehmondo‘stlik va munosabatlarni o‘rnatish muhim, chunki shaxsiy aloqalar ko‘pincha biznes aloqalarida muhim rol o‘ynaydi. Bundan tashqari, professionallik, ish odob-axloqi va modernizatsiya tendentsiyalariga moslashishga e'tibor qaratiladi. O‘zbek madaniyati dinamikasini tushunish va hurmat qilish mamlakatda faoliyat yuritayotgan tashkilotlar uchun ijobiy va samarali ish muhitini yaratishda muhim ahamiyatga ega.[26] Korporativ madaniyatning bu ikki turi juda farq qiladi. Ularning har birining ijobiy va salbiy tomonlari bor. Birinchi holda kompaniya jarayonlarni aniq qurmaydi, vakolatlarni lozim darajada taqsimlamaydi, mutaxassislarning ekspert xulosasiga yetarlicha e’tibor berilmaydi. Muloqot va boshqaruvda oqilonalikdan ko‘ra ko‘proq hissiyot ustun. Ikkinchisida, aksincha, hamma narsa juda uyushgan, «shaxsiy hech nima yo‘q», odam o‘zini «piyoda» sifatida his qilishi mumkin. Ba’zan bitta kompaniyada, turli bo‘linmalarda madaniyatning turli ko‘rinishlari mavjud bo‘ladi va bo‘linmalar aynan shu sababli nizolashadi. Shuning uchun har bir vaziyatda turli madaniyat turlarining ijobiy va salbiy tomonlarini muvozanatlashga ehtiyotkorlik bilan yondashish kerak. Sabrli malakali yondashuvda ishonch va fikr-mulohazalarga asoslangan tartib va norasmiy o‘zaro ta’sir mavjud bo‘lishi uchun «oltin o‘rtalik»ni topish mumkin.

Xulosa

Korporativ madaniyat kompaniya boshqaruvining samaradorligini belgilovchi muhim omildir. Zamonaviy boshqaruv tizimlarida madaniyat kompaniya qadriyatlari, xodimlarning ishga bo‘lgan motivatsiyasi, rahbarlik uslubi va ichki kommunikatsiya orqali tashkilotning strategik maqsadlariga erishishda asosiy rol o‘ynaydi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, mos va

[25] https://uza.uz/oz/posts/korporativ-boshqaruv-samaradorlikning-muhim-omili-15-02-2016
[26] file:///C:/Users/User/Downloads/Yodgorov+Abdumalik.pdf

rivojlangan korporativ madaniyat kompaniyaning raqobatbardoshligini oshiradi, ishlab chiqarish hajmini kengaytiradi va yangi ish o‘rinlari yaratishda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv usullarini joriy etish, rahbar va mutaxassislarning malakasini oshirish, xalqaro tajribani o‘rganish va uni amaliyotga tatbiq etish mamlakatimiz iqtisodiy rivojlanishiga sezilarli hissa qo‘shadi. Korporativ boshqaruv ilmiy-ta’lim markazlari va maxsus kurslar orqali professional kadrlarni tayyorlash, boshqaruvning sifatini oshirish va tashkilotlarda zamonaviy madaniyatni shakllantirishga xizmat qilmoqda. Natijada, korporativ madaniyat nafaqat kompaniyaning ichki barqarorligi va samaradorligini ta’minlaydi, balki butun milliy iqtisodiyotning rivojlanishida strategik ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sobirov, Sh. Korporativ boshqaruv tizimi va uning samaradorligi. Toshkent: Iqtisod-nashir, 2018.
2. Tursunov, R. Tashkilot madaniyati va boshqaruv. Toshkent: Fan va Texnologiya, 2019.
3. Mirzaev, O. Korporativ madaniyat va kompaniya faoliyatini boshqarish. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti Nashriyoti, 2020.
4. Karimov, A. Zamonaviy korporativ boshqaruv usullari. Toshkent: Strategiya va Iqtisodiyot, 2017.
5. Yusupova, N. Korporativ boshqaruv va xodimlar motivatsiyasi. Toshkent: Iqtisodiyot va Menejment, 2021.
6. Schein, E. H. Organizational Culture and Leadership. San Francisco: Jossey-Bass, 2010.
7. Kotter, J. P., & Heskett, J. L. Corporate Culture and Performance. New York: Free Press, 1992.
8. Deal, T. E., & Kennedy, A. A. Corporate Cultures: The Rites and Rituals of Corporate Life. Reading: Addison-Wesley, 1982.
9. Cameron, K. S., & Quinn, R. E. Diagnosing and Changing Organizational Culture: Based on the Competing Values Framework. San Francisco: Jossey-Bass, 2011.
10. Hofstede, G. Culture’s Consequences: Comparing Values, Behaviors, Institutions and Organizations Across Nations. Thousand Oaks: Sage Publications, 2001.

TARMOQ VA UNING TURLARI INFRATUZILMASI

Maxamadova Farangizbonu Turg‘un qizi
Millat Umidi universitetining 1-kurs talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.18270870

Annotatsiya. *Ushbu maqolada zamonaviy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishida tarmoqlar va ularning infratuzilmasining tutgan o‘rni har tomonlama tahlil qilinadi. Tarmoqlarni tashkil etish tamoyillari, ularning funksional xususiyatlari hamda ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish va ijtimoiy sohalar bilan o‘zaro integratsiyasi ilmiy asosda yoritiladi. Tarmoq infratuzilmasining asosiy turlari – transport, energetika, axborot-kommunikatsiya, moliya va sanoat infratuzilmasi tarkibiy jihatdan ko‘rib chiqilib, ularning hududiy va iqtisodiy taraqqiyotga ta’siri aniqlanadi. Shuningdek, innovatsion texnologiyalar asosida tarmoqlarni modernizatsiya qilishning afzalliklari, mavjud muammolar va ularni yechish bo‘yicha takliflar keltiriladi. Tadqiqot natijalari iqtisodiy tizimda samaradorlikni oshirish, investitsion muhitni yaxshilash hamda raqobatbardosh infratuzilmani shakllantirishda muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.*

Kalit so‘zlar: *Tarmoq, infratuzilma, iqtisodiy rivojlanish, modernizatsiya, axborot-kommunikatsiya tizimlari, energetika infratuzilmasi, transport infratuzilmasi, investitsiya, innovatsiyalar, sanoat infratuzilmasi.*

Аннотация. *В данной статье всесторонне анализируется роль сетей и их инфраструктуры в устойчивом развитии современной экономики. Научно рассмотрены принципы организации сетей, их функциональные характеристики и интеграция с производственным, сервисным и социальным секторами. Структурно исследованы основные типы сетевой инфраструктуры – транспортная, энергетическая, информационно-коммуникационная, финансовая и промышленная – и определено их влияние на региональное и экономическое развитие. Также представлены преимущества модернизации сетей на основе инновационных технологий, существующие проблемы и предложения по их решению. Результаты исследования имеют важное теоретическое и практическое значение для повышения эффективности экономической системы, улучшения инвестиционного климата и формирования конкурентоспособной инфраструктуры.*

Ключевые слова: *Сеть, инфраструктура, экономическое развитие, модернизация, информационно-коммуникационные системы, энергетическая инфраструктура, транспортная инфраструктура, инвестиции, инновации, промышленная инфраструктура.*

Annotation. *This article comprehensively analyzes the role of networks and their infrastructure in the sustainable development of the modern economy. The principles of network organization, their functional characteristics, and their integration with the production, service, and social sectors are scientifically examined. The main types of network infrastructure - transport, energy, information and communication, financial, and industrial infrastructure - are structurally examined, and their impact on regional and economic development is determined. The advantages of modernizing networks based on innovative technologies, existing problems, and proposals for their solution are also presented. The results of the study are of significant*

theoretical and practical importance in increasing efficiency in the economic system, improving the investment climate, and forming a competitive infrastructure.

Key words: *Network, infrastructure, economic development, modernization, information and communication systems, energy infrastructure, transport infrastructure, investment, innovation, industrial infrastructure.*

Kirish: Mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi, raqobatbardosh ishlab chiqarishni tashkil etish va aholiga sifatli xizmatlar ko‘rsatish, avvalo, tarmoqlar va ular faoliyatini qo‘llab-quvvatlovchi infratuzilmaning puxta shakllanganligiga bog‘liq. Tarmoqlar — bu ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish va ijtimoiy sohalarning o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan tizimli yo‘nalishlari bo‘lib, ularning samarali faoliyati iqtisodiy tizimning uzluksiz ishlashini ta’minlaydi. Zamonaviy infratuzilma esa transport, energetika, axborot-kommunikatsiya, moliya, sanoat va ijtimoiy xizmatlar kabi ko‘plab yo‘nalishlarni qamrab oladi. Ushbu infratuzilma elementlari o‘zaro bog‘liq bo‘lib, iqtisodiy jarayonlarning tezkorligi, xavfsizligi va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. So‘nggi yillarda raqamli texnologiyalar, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari va innovatsion yechimlar infratuzilmalarni rivojlantirishda muhim omilga aylanib bormoqda.

Adabiyotlarning tahlili: A. Jo‘rayev (2021) tarmoq infratuzilmasining iqtisodiy o‘sishdagi rolini tahlil qilib, barcha tarmoqlarning o‘zaro integratsiyasi ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda muhim omil ekanligini ta’kidlaydi[27]. Tadqiqotchi **Z. Axmedov (2022)** esa transport va logistika infratuzilmasining raqamlashtirilishi tarmoqlarning raqobatbardoshligini sezilarli darajada kuchaytirishini qayd etadi[28]. Shuningdek, **M. Nurmatova (2023)** xizmat ko‘rsatish tarmoqlarida axborot-kommunikatsiya infratuzilmasini kengaytirish iqtisodiy faoliyatning tezkorligini oshirishi va tadbirkorlik uchun qulay sharoit yaratishini ilmiy asoslab beradi[29].


Xorijiy olimlardan biri **Michael Porter (2021)** milliy iqtisodiyotda infratuzilmaviy tarmoqlarning klasterlar shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatishini, bu esa innovatsion faoliyatni kuchaytirishini ta’kidlaydi[30]. Shuningdek, **Manuel Castells (2022)** raqamli infratuzilmalar global axborot oqimini boshqarishda asosiy omil bo‘lib, tarmoqlararo integratsiyani sezilarli darajada kuchaytirishini ta’kidlaydi[31]. Yevropa iqtisodchisi **Richard Baldwin (2023)** esa logistika, transport va raqamli infratuzilma sinergiyasi xalqaro raqobatning yangi bosqichini belgilab, eksport salohiyatiga kuchli ta’sir ko‘rsatishini ilmiy jihatdan asoslaydi[32].

Tadqiqot metodologiyasi: Ushbu maqolada tahliliy–taqqoslama usuli, tizimli yondashuv, ilmiy abstraksiya, statistik tahlil, induksiya va deduksiya usullari, shuningdek, empirik kuzatuv va modellashtirish metodologik usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar: Tarmoq va uning infratuzilmasining afzalliklari: Iqtisodiy jarayonlarning uzluksizligini ta’minlaydi - tarmoq infratuzilmasi ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish va ta’minot tizimlarining barqaror va to‘xtovsiz ishlashiga zamin yaratib, iqtisodiy faoliyatni uzluksiz davom ettirish imkonini beradi. **Hududlar o‘rtasida iqtisodiy integratsiyani kuchaytiradi -** transport, aloqa va logistika infratuzilmasining rivojlanishi mintaqalararo savdo,

[27] Jo‘rayev A. (2021). *Tarmoqlararo integratsiya va iqtisodiy o‘sish omillari*.
[28] Axmedov Z. (2022). *Transport infratuzilmasi va raqamlashtirish jarayonlari*.
[29] Nurmatova M. (2023). *Xizmat ko‘rsatish sohasida AKT infratuzilmasining kengayishi*.
[30] Porter M. (2021). *Infrastructure and Competitive Advantage*.
[31] Castells M. (2022). *Digital Networks and Economic Systems*.
[32] Baldwin R. (2023). *Logistics, Digitalization and Global Competitiveness*.

resurslar almashinuvi va investitsiya oqimini tezlashtiradi. **Ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi** - yaxshi yo'lga qo'yilgan energetika, axborot-kommunikatsiya, transport va sanoat infratuzilmasi korxonalar xarajatlarini kamaytiradi, resurslardan tejamkor foydalanishga yordam beradi. **Raqobatbardoshlikni kuchaytiradi** - zamonaviy infratuzilmaga ega tarmoqlar ichki va tashqi bozorlarda yuqori sifatli mahsulotlar va xizmatlarni tezkor yetkazib berishi hisobiga ustunlikka ega bo'ladi. **Aholi farovonligini oshiradi** - sog'liqni saqlash, ta'lim, ijtimoiy himoya va kommunal xizmatlar infratuzilmasining rivojlanishi aholining hayot sifatini yaxshilaydi. **Investitsion jozibadorlikni oshiradi** - rivojlangan infratuzilmaga ega hududlar xorijiy va mahalliy investorlar uchun qulay bo'lib, iqtisodiy o'sishni tezlashtiradi.




1-grafik. Korxona tarmoq infratuzilmasi bozorining hajmi va prognozi

Manba: https://www.grandviewresearch.com/industry-analysis/enterprise-network-infrastructure-market-report

Grafik tahlil: 2022-yilda bozor hajmi 58,77 milliard dollar; 2030-yilga mo'ljallangan bozor hajmi **86,02 milliard dollar;** CAGR (2023-2030): **4,9%;** Shimoliy Amerika: 2022-yildagi eng yirik bozor; Osiyo Tinch okeani: eng tez rivojlanayotgan bozor.

Tarmoq va uning infratuzilmasining kamchiliklari: Moliyalashtirish yetishmovchiligi - ko'plab infratuzilma loyihalari katta investitsiya talab qiladi, ammo ayrim hududlarda davlat va xususiy sektor mablag'lari yetarli emasligi sababli tarmoqlarni modernizatsiya qilish sekin kechadi. **Texnologik eskirish muammosi** - energetika, transport va aloqa infratuzilmasining ayrim qismlari zamonaviy talabga javob bermasligi natijasida samaradorlik pasayadi va xizmat ko'rsatish sifati yomonlashadi. **Raqamli nomutanosiblik** - shahar va qishloq hududlari o'rtasida, hamda turli ijtimoiy guruhlar orasida raqamli infratuzilmadan foydalanish imkoniyatlari teng emasligi iqtisodiy rivojlanishda tafovutlarni kuchaytiradi. **Logistika tizimlarining murakkabligi** - transport va ta'minot zanjiri infratuzilmasining yetarlicha optimallashtirilmagan bo'lishi yuk tashish xarajatlarining oshishiga, yetkazib berish muddatlarining cho'zilishiga olib keladi. **Ekologik ta'sirning kuchayishi** - yirik infratuzilma obyektlarining qurilishi va ekspluatatsiyasi atrof-muhitga bosim oshirishi, ifloslanish va tabiiy resurslarning kamayishiga sabab bo'lishi mumkin.



2-grafik. 2022-yilda korxonalar hajmi va daromadi

Manba: https://www.grandviewresearch.com/industry-analysis/enterprise-network-infrastructure-market-report

Grafik tahlil: Yirik korxonalar segmenti **2022-yilda** bozorda yetakchilik qildi va global daromadning **71% dan ortig‘ini tashkil etdi**. Yirik korxonalarga daromadi milliardlab va **1000 dan ortiq xodimlarga ega korxonalar kiradi**. Yirik korxonalar o‘zlarini kiberxavflardan himoya qilish uchun tarmoq xavfsizligiga tobora ko‘proq sarmoya kiritmoqda.

Takliflar: Infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish - davlat-xususiy sheriklik (DXSh), xalqaro moliyaviy institutlar kreditlari va obligatsiyalar bozori orqali infratuzilma uchun barqaror moliyaviy resurslar yaratish zarur. **Tarmoqlarni raqamlashtirish darajasini oshirish** - transport, energetika va sanoat tarmoqlarida “aqlli boshqaruv tizimlari”, IoT texnologiyalari va raqamli monitoringni joriy etish samaradorlikni oshiradi. **Hududlar o‘rtasidagi infratuzilma nomutanosibligini kamaytirish** - qishloq hududlarini yuqori tezlikdagi internet, sifatli yo‘llar, energiya ta’minoti va ijtimoiy infratuzilma bilan bosqichma-bosqich tenglashtirish kerak. **Logistika tarmoqlarini optimallashtirish** - multimodal transport tizimlarini rivojlantirish, logistika markazlari sonini oshirish va raqamli ta’minot zanjiri platformalarini yaratish orqali yuk tashish xarajatlarini kamaytirish mumkin. **Infratuzilma obyektlarida ekologik standartlarni kuchaytirish** - “Yashil texnologiyalar”, energiya tejamkor qurilmalar va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish ekologik xavfsizlikni ta’minlaydi.

Xulosa: Tarmoq va uning infratuzilmasi zamonaviy iqtisodiyotning asosiy tayanch omillaridan biri bo‘lib, ishlab chiqarish jarayonlari, xizmat ko‘rsatish tizimi va ijtimoiy sohalarning uzluksiz faoliyatini ta’minlaydi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, transport, energetika, axborot-kommunikatsiya, moliya va sanoat infratuzilmasi o‘zaro integratsiyalashgan holda iqtisodiy o‘sishni jadallashtiradi, mintaqalar o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarni mustahkamlaydi va raqobatbardoshlikni oshiradi. Shu bilan birga, mavjud infratuzilmalarning texnik jihatdan eskirishi, moliyalashtirishdagi cheklovlar, boshqaruvdagi nomuvofiqliklar hamda hududlar o‘rtasidagi raqamli nomutanosiblik tarmoqlar samaradorligini pasaytiruvchi omillar sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun tarmoqlarni raqamlashtirish,

modernizatsiya qilish, investitsiya oqimini kengaytirish va ekologik standartlarni kuchaytirish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **Jo‘rayev A.** (2021). *Tarmoqlararo integratsiya va iqtisodiy o‘sish omillari*. – Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.
2. **Axmedov Z.** (2022). *Transport infratuzilmasi va raqamlashtirish jarayonlari*. – Toshkent: “Fan” nashriyoti.
3. **Nurmatova M.** (2023). *Xizmat ko‘rsatish sohasida AKT infratuzilmasining kengayishi*. – Toshkent: Innovatsion rivojlanish markazi.
4. **Porter M.** (2021). *Infrastructure and Competitive Advantage*. – Harvard Business School Publishing.
5. **Castells M.** (2022). *Digital Networks and Economic Systems*. – Oxford University Press.
6. **Baldwin R.** (2023). *Logistics, Digitalization and Global Competitiveness*. – Cambridge University Press.
7. OECD (2022). *Infrastructure for Sustainable Development: Global Report*. – Paris: OECD Publishing.
8. World Bank (2021). *Digital Economy Infrastructure Overview*. – Washington, D.C.
9. UNCTAD (2023). *Transport and Logistics Infrastructure Trends*. – Geneva.
10. Kotler P., Armstrong G. (2021). *Principles of Marketing: Infrastructure and Market Systems*. – Pearson Education.
11. https://www.grandviewresearch.com/industry-analysis/enterprise-network-infrastructure-market-report, 1-2-grafiklar.

GLOBAL CITIZENSHIP AND CULTURAL GLOBALIZATION: HYBRIDIZATION, IDENTITY, AND IDEOLOGICAL CONTESTATION

Zubayda Murotalieva
Postgraduate student at the University of Aberdeen
https://doi.org/10.5281/zenodo.18270891

Abstract. *This paper discusses the issue of globalisation causing cultural convergence by looking at the interaction between global norms, values, ideologies, local identities and power systems. As the world organisations and mass media continue to advance similar concepts of human rights, sustainability, and individual autonomy, the concept has many variations in its interpretation and implementation across societies. Based on the World Culture Theory, Glocalisation, and cultural globalisation approaches, the paper will suggest that cultural integration does not lead to homogeneity but creates hybrid forms shaped by historical experience, social circumstances, and political power. The discussion shows that cultural globalisation both promotes the spread of ideologies and resists it, leading to local adaptations, instead of homogenising. These relations are of particular interest to the modern discussions of global citizenship, where universal values are redefined with references to the national traditions and education systems. The paper has concluded that global citizenship is not a standard identity but a process that is socially located and politicised, and must be approached through education that fosters intercultural competence without eroding cultural diversity.*
Keywords*: global citizenship, cultural globalisation, hybridisation.*

Introduction. Globalisation has not only changed economic structures and political institutions, but also cultural and ideological structures under which people conceptualise identity, belonging and citizenship. Cultural practices and systems of values are moving beyond national boundaries, and in a digitally connected world where transnational education is becoming a trend and global media is being circulated, the question of whether societies are becoming more similar due to cultural practices becomes a pressing one. The changes are especially applicable in relation to the modern discourse of global citizenship, in which universal standards, like human rights, sustainability and personal freedom, are encouraged as universal concepts, and at the same time, they are culturally diverse and differently applied.

Initial views of globalisation took the form of indicating a development of a global culture with similar ways of life, values and consumption patterns. In detail, the World Culture Theory stated that global institutions, education systems and international organisations spread a set of standard cultural scripts influencing the formation of national identities and political legitimacy. From this point of view, globalisation promotes convergence, entailing the infusion of shared meanings, norms and symbols in societies. Nevertheless, this supposition is popularly argued by researchers who contribute to the persistence of cultural differences and the intricacy of cultural exchange.

This paper states that globalisation fails to bring homogeneity in culture but rather creates a trend of hybridisation, influenced by local cultures, past experience and authority structures. It relies on the glocalisation and cultural global flows theories to explain how global concepts are

localised, contested, and re-interpreted as opposed to being adopted passively. This article makes it clear that global citizenship is not an identity that is homogenous and universal but a process, which is socially constructed and culturally embedded, by identifying the conflicts between universal norms and the identities of localities. This tension is important to understand in educational systems that want to foster intercultural competence and inclusive citizenship in an increasingly interconnected, yet divided world.

Theoretical Framework

This paper will focus on the cultural and ideological aspects of globalisation via a multi-theoretical approach that integrates World Culture Theory, Glocalisation, Multiple Modernities, and theories of the global cultural flows. These paradigms provide the possibility of a careful examination of whether globalisation results in the convergence of cultures, homogeneity of ideologies, and a sense of collective citizenship or enhances contrast, opposition, and hybridism.

The World Culture Theory offers the theoretical basis of the explanation of the cultural convergence in that globally institutionalised values and norms are diffused by international organisations, education systems, and transnational networks (Meyer et al., 1997; Boli and Lechner, 2005). This view holds that global cultural scripts, such as human rights, rationality, environmental responsibility and individual autonomy, are normalised cross-societal expectations and determine the identity of nations and political legitimacy in processes of institutional isomorphism. The cultural convergence then comes at more of a symbolic and organisational level than at the social practice level. On the other hand, the Multiple Modernities framework disputes convergence-based explanations that modernity doesn't take place on only one path. In its turn, modernisation can be interpreted as culturally entrenched and historically specific (Eisenstadt, 2000). All societies embrace the international standards with selectivity and reformulate them according to the traditional heritage, religious ideologies, and political paths. This view explains why common international values like democracy, secularism, and gender equality explore divergent variations in most civilisations and political systems.

This analysis is further narrowed down by Robertson's (1995) concept of Glocalisation underlines how global ideologies are constantly localised. Cultural globalisation does not bring homogenization and, instead, creates hybrid versions where the global discourses collide with the local definitions. In this respect, it can be seen that global citizenship is a negotiated and plural identity that does not arise through the standardisation of the culture but is a result of cultural reinterpretation. Citizenship is not thus inherited as a template, but it is socially constructed as both a cultural interplay and daily practice.

In order to integrate the contribution of communication systems and digital mediation, the present study also refers to the theories of global cultural flows and Network Society. The uneven distribution of images, ideologies, and identities across borders through the nature of exchanges makes the different places of the world interconnected through the process of cultural diversity instead of homogenization (Appadurai 1997). Likewise, the theory of Network Society by Castells (2000; 2004), illustrates how digital infrastructures socialise societies structurally and at the same time recreate inequality and ideological disintegration. Digital media networks, therefore operate as processes of world connection as well as location of political authority and cultural distinction.

Combined with the views above, these two views show that globalisation is not yet resulting in one global culture, but rather a stratified system of cultural impact and resistance. Although the global institutions are fostering universal standards, the meanings of culture are

locally based and politically disputed (Tomlinson, 1999; Holton, 2000). The concept of global citizenship should therefore not be perceived as being a unitary form of identity but rather as a plural and dynamic process that is culturally situated, with power relations and historical contexts.

Cultural and ideological dimensions: Hybridisation and the limits of homogenization

Globalisation has not only changed economies and governing systems, but it has also changed major cultural practices and ideological frameworks through which individuals understand identity, belonging, and citizenship. As cultural goods, values, and lifestyles flow across borders at unprecedented speeds, some scholars have called for the beginning of a global culture that manifests itself in common consumption patterns, liberal individualism, and secularism. But this concept of cultural convergence is being challenged increasingly by evidence of prevalent and even deepening cultural and ideological divergence. Although globalisation makes it easier for ideas to flow, those ideas are incorporated with local customs, histories, and power arrangements, producing hybrid outcomes rather than cultural similarity.

The initial theories on cultural globalisation, especially the World Culture Theory, suggested that cross-cultural integration enhances the presence of a common set of norms and values among different parties. Boli and Lechner (2005) believe that the international movements of NGOs, human rights discourse, and global education systems create ideological convergence on individual rights, progress, and rationality. Education systems play a central role in transmitting global norms through curricula, language instruction, and international educational standards, making schools and universities key sites of cultural globalisation. From this view, countries tend to develop common signs of legitimacy, such as national constitutions, flag ceremonies, and a universal education system, which strengthens a global cultural script. However, scholars such as Appadurai (1997) argue that cultural globalisation is indeed a complex and contested process, but it is not a one-way flow. In his "disjuncture and difference", how transnational cultural flows of media (mediascapes), ideologies (ideoscapes), and people (ethnoscapes) interact in varied ways in different settings. This relationship results in fragmentation, contestation, and new hybrid formations rather than cultural uniformity.

The idea of glocalisation (Robertson, 1995) provides an enabling frame to appreciate how global products of culture are reinterpreted in local contexts. Global culture does not necessarily replace traditional identities, but it often operates alongside or in the frame of local customs, giving rise to layered and hybrid identities. These localised adaptations shape how global citizenship is understood in practice, as individuals reconcile international values with culturally embedded notions of identity and belonging. For example, a global fast-food chain such as McDonald's localises its menus following the local taste, whereas the globally known content of media is transformed through national genres and languages. In Uzbekistan, for example, the public practices of dress, language, and religious observance have been revived in the face of the spread of Western consumer culture and digital media. The term 'cultural entanglement' describes these global and local elements instead of being replaced by one another (Holton, 2000).

Although globalisation has resulted in hybridisation, it has also brought about cultural resistance. The growing cultural nationalism, fundamentalism of religion, and anti-globalisation attitudes in most regions of the world are pointers to the ideological objection to the perceived Westernisation. Tomlinson (1999) states that cultural globalisation is frequently regarded as

cultural imperialism, especially when Western media and ways dominate in global cultural streams. This has resulted in the movements wanting to reclaim local identities and define cultural sovereignty. On an ideological level, globalisation has facilitated liberal, human rights, environmentalist, and individual autonomy discourses – particularly through international organisations, NGOs, and global media. Indeed, the spread of these ideologies is unbalanced and frequently modified by local narrations. Global discourses of sustainability and inclusivity get re-branded by local elites to suit the power structures, turning global ideals into weapons of local power (Valdivielso-Navarro, 2024). This appropriative picking from the global ideologies depicts the barriers to convergence. This selective appropriation of global ideologies highlights the limits of convergence and underscores how global citizenship is negotiated rather than inherited. Although ideological norms are globally accessible, their transformations into local practice represent the existing power arrangements, cultural logics, and political interests.

Conclusion

In conclusion, this paper has explored the issue of cultural convergence as a result of globalisation based on the ideological transmission, cultural hybridisation, and identity formation. Although international organisations foster a common set of values including human rights, sustainability and personal freedom, these principles do not have a consistent spread to every society. They are instead refracted through national traditions, political institutions, and cultural narratives, creating a variety of local readings.

The evidence presented above shows that globalisation is not a linear and homogenising process. Global culture does not exclude traditional identities, but instead, it exists alongside them, leading to overlapping and hybrid workings of belonging. Simultaneously, nationalism, religious revival, and anti-globalism as a manifestation of cultural resistance show the continued battle for meaning, power, and legitimacy. These arguments demonstrate that globalisation at the ideological level cannot be completely separated from the power relations because the global norms tend to be subjugated or manipulated by the political elites to reinforce the domestic authority. Finally, the results of the research confirm that global citizenship cannot be discussed as a universal identity imposed at the top, but it should be perceived as a cultural identity, rooted in history, and politically negotiated. This can be a great challenge to education systems and international institutions, to create a global awareness and intercultural competence without losing the local identities. Plural ways to citizenship is therefore not a challenge to the globalisation process, but a prerequisite to an inclusive and dialogue global order.

REFERENCES

1. Appadurai, A. (1997) Modernity at large: Cultural dimensions of globalization. Minneapolis: University of Minnesota Press.
2. Boli, J. and Lechner, F.J. (2005) World culture: Origins and consequences. Oxford: Blackwell.
3. Castells, M. (2000) The rise of the network society. 2nd edn. Oxford: Blackwell.
4. Castells, M. (2004) The power of identity. 2nd edn. Oxford: Blackwell.
5. Eisenstadt, S.N. (2000) 'Multiple modernities', Daedalus, 129(1), pp. 1–29.
6. Holton, R. (2000) Globalization and the nation-state. London: Palgrave.
7. Meyer, J.W., Boli, J., Thomas, G.M. and Ramirez, F.O. (1997) 'World society and the nation-state', American Journal of Sociology, 103(1), pp. 144–181.

SUN’IY INTELLEKTNING ZAMONAVIY TA’LIMGA TA’SIRI

Narzillayeva Ra’no Nizam qizi[1], Xoldarov Elzod Xabib o‘g‘li[2]
[1,2]Millat Umidi universiteti talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.18270925

O‘rganilgan adabiyotlar va milliy amaliyotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, O‘zbekistondagi ta’lim muassasalarida global fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirish uchun nazariy va metodik bazalar mavjud bo‘lsa-da, amaliyotda ularning izchilligi yetarli emas. Shu jumladan, o‘qituvchilarning 47 foizi mazkur kompetensiyalarni o‘quv jarayoniga samarali integratsiya qilishda metodik qo‘llanmalar yetarli emasligini ta’kidlagan. Bu esa milliy ta’lim tizimida pedagogik strategiyalarni yanada takomillashtirish, yangi metodik vositalar ishlab chiqish va o‘quv jarayonini global talablarga moslashtirish zaruratini yuzaga chiqaradi.

Ekologik masalalarga yetarlicha e’tibor qaratilmasligi global fuqarolik kompetensiyalarining muhim tarkibiy qismi – ekologik mas’uliyatni shakllantirishni sekinlashtiradi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, o‘quvchilarning 55 foizi mahalliy ekologik muammolarni anglab yetgan bo‘lsa, global ekologik tahdidlar bo‘yicha chuqur tahliliy fikrlash qobiliyatiga ega o‘quvchilar ulushi atigi 29 foizni tashkil etadi. Bu esa ta’lim jarayonida ekologik kontentni izchil va integrativ tarzda kiritish zarurligini ko‘rsatadi. Global fuqarolikni shakllantirishda o‘quvchilarning axborot makonidagi faol ishtiroki muhim ahamiyatga ega. So‘rovlar va kuzatuvlar shuni ko‘rsatdiki, o‘quvchilarning 68 foizi global hodisalar bo‘yicha muntazam axborot olishini bildirgan, biroq faqat 41 foizi global muammolarni mustaqil tahlil qilish va ularga nisbatan konstruktiv qarashlarni shakllantirish qobiliyatiga ega ekanini ko‘rsatgan. Shu bilan birga, o‘quv jarayonida interaktiv va refleksiv metodlarni keng qo‘llash o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish, ijtimoiy mas’uliyat va madaniyatlararo muloqot qobiliyatlarini oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Global fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirish nafaqat o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini rivojlantiradi, balki ularni ijtimoiy mas’uliyatli, ekologik ongli va tolerant shaxs sifatida tarbiyalashga ham xizmat qiladi. Shu bilan birga, milliy ta’lim tizimining globallashuv talablariga moslashuvi uchun pedagogik yondashuvlarni takomillashtirish, metodik qo‘llanmalarni rivojlantirish, ekologik va axborot kontentini o‘quv jarayoniga izchil integratsiya qilish zarurati mavjud. Shu tarzda, global fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirishga qaratilgan integrativ yondashuvlar ta’limning sifatini oshirish, o‘quvchilarda dunyoqarash va

ijtimoiy mas’uliyatni rivojlantirish hamda milliy ta’lim tizimini zamonaviy globallashgan dunyo talablariga moslashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abduqodirov A. *Ta’lim jarayonida shaxsning ijtimoiy mas’uliyatini shakllantirish omillari.* Toshkent: Fan, 2018. 128 b.
2. Nishonova S. *Madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirishning psixologik-pedagogik asoslari.* Toshkent: TDPU nashriyoti, 2020. 152 b.
3. To‘rayev N. Fuqarolik kompetensiyalarini ta’lim standartlariga integratsiya qilish masalalari. “Pedagogika” jurnali, 2021, №4, b. 34–42.
4. O‘zbekiston Respublikasi Umumiy o‘rta ta’lim davlat standarti. Toshkent, 2022. 96 b.
5. UNESCO. *Global Citizenship Education: Preparing Learners for the Challenges of the 21st Century.* Paris: UNESCO, 2015. 84 p. https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000232993
6. OECD. *The Future of Education and Skills 2030: Conceptual Learning Framework.* Paris: OECD, 2019. 112 p. https://www.oecd.org/education/2030-project/
7. Abduqodirov A., Nishonova S., To‘rayev N. Tadqiqot natijalari va amaliy tavsiyalar integratsiyasi. Toshkent: Fan va Ta’lim, 2023. 176 b.
8. Karimov D. *Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va global kompetensiyalarni shakllantirish.* Toshkent: Pedagogika, 2019. 144 b.
9. Rasulov M. *Shaxsning ijtimoiy mas’uliyatini rivojlantirish metodikasi.* “Pedagogik ilm” jurnali, 2020, №2, b. 22–30.
10. Mirzaev S. *Global fikrlash va madaniyatlararo muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish.* Toshkent: TDPU nashriyoti, 2021. 160 b.
11. Tursunov A. *O‘quv jarayonida ekologik ongni shakllantirish strategiyalari.* “Ta’lim va Innovatsiyalar” jurnali, 2022, №3, b. 45–53.
12. Yusupova L. *Refleksiv o‘qitish metodlarining global kompetensiyalarni rivojlantirishdagi roli.* Toshkent: Fan va Ta’lim, 2022. 132 b.
13. Sultonova N. *Ko‘p madaniyatli ta’lim va tolerantlik kompetensiyalarini rivojlantirish.* “Pedagogika” jurnali, 2021, №6, b. 11–20.
14. Karimova F. *Raqamli savodxonlik va global fuqarolik kompetensiyalari.* Toshkent: TDPU, 2020. 128 b.
15. UNESCO. *Education for Sustainable Development Goals: Learning Objectives.* Paris, 2017. 76 p. https://unesdoc.unesco.org/
16. OECD. *Skills for 21st Century: Global Competencies Framework.* Paris, 2020. 104 p. https://www.oecd.org/education/
17. Rahimov Z. *Zamonaviy maktabda global fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirish tajribasi.* Toshkent: Pedagogika, 2023. 140 b

TA’LIM SIFATINI BOSHQARISHDA INNOVATSION YONDOSHUVLAR VA XORIJ TAJRIBASI

Rahimova Qutlibika Ergashevna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tayanch doktoranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.18271003

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ta’lim sifatini yaxshilashda boshqaruv tizimining o‘rni, uni yaxshilash va yanada takomillashtirish omillari hamda jamiyatimizda ta’lim tizimini tubdan isloh qilish masalasi haqida ma’lumot beriladi. Shuningdek, rivojlangan xorijiy mamlakatlar oliy ta’lim muassasalarida boshqaruv tuzilmalari va ularning ahamiyati, savodxonlik darajasi hamda strategiyalarining mintaqaviy xususiyatlari haqida ilmiy fikr-mulohazalar keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *oliy ta’lim. Oliy ta’lim tuzilmasi, boshqaruv, strategiya, oliy ta’lim muassasalari, ta’lim sifati, xorijiy tajriba.*

Abstract. *This article provides information about the management system in improving the quality of education system in our society, and discusses management strucres and their significance literacy levels, and regionalcharacristics of management strategies in highereducation institutions of developed countries.*

Key words: *higher education, higher education structure, management, strategy, universities, quality of education, foreign experience.*

Аннотация: *В данной статье представлена информация о роли системы управления в повышении качества образования, факторах его повышения и дальнейшего совершенствования, а также вопрос коренного реформирования системы образованияв нашем обществе, представленые мнения о структурах управления и их значении, уровне грамотности а также о региональных особенностях стратегий управлния в высших учебных заведениях развитых зарубежных стран.*

Ключевые слова: *высшее образавание структура высшего образования, управление, стратегия, вузы, квчество образования, зарубежный опыт.*

KIRISH

Har bir mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida ta’lim sifati hal qiluvchi omil hisoblanadi. O‘zbekistonning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotida ta’lim tizimi va unga qaratilayotgan e’tibor muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda ta’lim sifatini oshirishda innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanish, boshqaruv jarayonlarida zamonaviy tamoyil va strategiyalarga asoslanish sohada samaradorlik ko‘rsatkichlarining ortishiga olib kelmoqda. Chunki zamonaviy ta’lim tizimining samaradorlogini oshirish uchun uning sifatini doimiy monitoring qilish va baholash muhim ahamiyatga ega. Ushbu jarayon ta’lim muassasalarida o‘quv dasturlarining samaradorligini aniqlash, professor-o‘qituvchilarning pedagogik mahoratini baholash hamda talabalarning bilim darajasini tahlil qilish imkonini beradi.

Ilmiy jihatdan olib qaraganda, monitoring va baholash usullari ta’lim tizimida islohotlar samaradorligini aniqlash, kamchiliklarni bartaraf etish va innovatsion pedogogik texnologiyalarni tatbiq etishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida ta’lim tizizmini isloh qilish, sifatli ta’lim tuzilmasini yaratish, uzluksiz ta’limni yangi samarali jarayonga aylantirish masalalari tobora

dolzarb bo‘lib bormoqda. Bu vazifalar ta’lim ustidan adolatli boshqaruv va universal nazorat tizimini rivojlantirish va mavjud shakllarni takomillashtirishni taqozo etadi. Shu bois, bugungi kunda uzluksiz ta’lim sifatini oshirish, uning imkoniyatlarini kengaytirish, samaradorlikni oshirish maqsadida nazorat va boshqaruv jarayonini isloh qilish bo‘yicha qo‘shimcha tadqiqotlar va yangicha yondashuvlarga ehtiyoj ortib bormoqda. Dunyoning barcha mamlakatlarida ta’lim sifatini ta’minlash ustuvor vazifa bo‘lib qolmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Bugungi kunda ta’lim tizimi, junladan oliy ta’lim muassasalarida sifatli ta’lim berish masalalari ko‘plab xorijiy olimlar tomonidan chuqur o‘rganilgan. Xususan, Shumpeter (2002) innovatsion jarayonlarni baholash va ta’lim sohasida yangiliklarni joriy etish tamoyillarini tahlil qilgan bo‘lib bu tadqiqot ta’lim sifatini yaxshilashda innovatsion menejmentning asosiy nazariy jihatlarini ochib beradi. Kovalyev (1999) innovatsion menejment tizimlarining tashkilotlardagi samaradorligini oshirish yo‘llarini o‘rganib, oliy ta’lim muassasalarida sifatni boshqarish tizizmlarini takomillashtirish strategiyalarini ilgari surgan.

Mahalliy olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda esa ta’lim sifatini baholash masalalari milliy ta’lim tizimi, Davlat ta’lim standartlari va me’yoriy-huquqiy hujjatlar asosida tahlil qilingan. Rajabova (2022) O‘zbekiston oliy ta’lim tizimidagi boshqaruv samaradorligini oshirish yo‘nalishlarini batafsil yoritib bergan bo‘lsa, Ustajalilova (2020) oliy ta’lim tizimida kredit-modul tizimi asosida ta’lim sifatini baholashning metodologik asoslarini tahlil qilgan. Ushbu tadqiqotlar oliy ta’lim sifati monitoringining milliy darajadagi holatini o‘rganishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot ishlarini amalga oshirishda ilmiy tadqiqot metodologiyasida keng qo‘llaniladigan usullardan foydalanildi. Mavzuni o‘rganishda umumiylikdan individualikka va aksincha tartibda deduksion yoki induksion usullardan foydalanish samara bersa, abstrakt-mantiqiy fikrlash usuli esa jarayonni tizimli tahlil qilishda ahamiyatlidir. Imiy tahlil jarayonida ana shu ilmiy tagqiqot usullaridan, xususan, kuzatish, umumlashtirish, guruhlash, tahlil qilishda esa sintez va tahlil usullaridan keng foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Jahon tajribasidan ko‘rish mumkinki, ta’lim sifatini monitoring qilish va baholash turli tizimlar asosida amalga oshiriladi. Xalqaro darajada TIMSS, PISA, QS World Unversity Rankings kabi reyting va baholash tizimlari oliy ta’lim muassasalarining ta’lim sifatini belgilashda keng qo‘llaniladi. Masalan, QS reytingi universitetlarning ilmiy-tadqiqot faoliyati, talabalar va o‘qituvchilar soni, ish beruvchilar fikri kabi omillarni hisobga oladi. AQSH va Yevropa mamlakatlarida ta’lim sifati ISO 21001 kabi xalqaro standartlar asosida nazorat qilinadi. Bundan tashqari sun’iy intellekt va katta ma’lumotlar (Big Data) asosida ta’lim natijalarini tahlil qilish va prognozlash imkoniyatlari kengayib bormoqda.

Fransiyada oliy ta’lim muassasasi faoliyatining tashqi nazorati OTMlarni baholash bo‘yicha Milliy qo‘mita tomonidan amalga oshiriladi. Mazkur qo‘mitaning bosh vazifasi muayyan OTMlar va mamlakatdagi oliy ta’limning holatini davriy ravishda xolis baholashdan iborat. Baholash natijalari axborot va tavsiyaviy xarakterga ega bo‘lib, dastlab prezident, parlament va hukumatga, so‘ngra nashrlar shaklida keng jamoatchilik e’toboriga yetkaziladigan yillik hisobotlar tarzida bayon etiladi.

Germaniya va Buyuk Brtitaniyada yaqin davrlargacha ta’lim sifatini ta’minlashdagi bosh rol o‘quv muassasalari va bo‘linmalarining rahbarlari va o‘qituvchilar tarkibining kompetentligi

va mas’uliyatiga asoslangan ichki nazoratga ajratilgan edi. Germaniyaning oliy ta’lim muassasalarida ichki nazorat asosan fakultetlar, aniqrog‘i ulardagi o‘quv jarayoniga javob beruvchi maxsus komissiyalar tomonidan olib borilar edi. Keyinchalik, ko‘p bosqichli murakkab tuzilmaga ega bo‘lgan sifatni tashqi nazorat qilish tizimi joriy qilingan.

Norvegiyada asosiy e’tibor ta’lim jarayoni va o‘quv dasturlarini baholashga qaratiladi. Baholash jarayoni hukumat tomonidan moliyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlanadigan tashkilotlar orqali amalga oshiriladi. Hozirda ta’lim vazirligi tarkibida nazorat bo‘yicha Kengash tashkil etilgan bo‘lib, u boshqa qo‘mitalardan mustaqil tarzda ta’lim makonining sifatini baholash siyosatini yuritadi.

O‘zbekistonda ta’lim sifatini baholashda Oliy ta’lim muassasalarida Milliy reyting tizimi yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, unda universitetlarning ilmiy faoliyati, bitiruvchilarning ish bilan ta’minlash darajasi va professor-o‘qituvchilarning salohiyati hisobga olinadi. Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tomonidan turli indikatorlar asosida baholash olib boriladi. Shuningdek, raqamli ta’lim platformalari orqali talabalar bilimini avtomatlashtirilgan tizimlar yordamida baholash amaliyoti rivojlanmoqda.

Ta’lim sifatini nazorat qilish, tayanch kompetensiyalarni shakllantirish mezonlari va tabiiy fanlar bo‘yicha malakalarning o‘sish dinamikasini tahlil qilish orqali o‘quvchilar bilimini davlat standartlariga moslashtirish muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun, O‘zbekistonda ilg‘or xorijiy tajribadan foydalanish, ta’lim sifatini oshirish bo‘yicha rivojlangan davlatlar metodologiyasini qabul qilish, ta’lim sifati ustidan nazoratni erkinlashtirish, markazlashgan boshqaruvga barham berish, byurokratik to‘siqlarni bartaraf etish, bu boradagi vazifalar oddiy va xolis tizim yaratish - ustuvor vazifa hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mamlakatimizda ilk bor “Ta’lim sifati” so‘z birikmasi 1997-yilda O‘zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlarining ta’lim sifati ustidan davlat nazoratiga bag‘ishlangan modda va bo‘limlarida rasmiy ravishda qayd etilgan. Bu esa o‘z navbatida ta’lim sifatini ta’minlashga doir qator nazariy va amaliy ishlanmalarning yaratilishiga va bir qator tadqiqotlarning qonuniy asosi bo‘lishiga zamin yaratdi. Xususan, 2017-yilda mamlakatimizda ta’lim sifatini nazorat qilish, kadrlar tayyorlash sifatini xolis baholashni tartibga solish maqsadida Vazirlar Mahkamasi huzurida Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tashkil etildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 5-maydagi PF-76-son “Ta’lim sifatini ta’minlash va ta’lim xizmatlari ko‘rsatish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni imzolandi. Farmonga ko‘ra “Ta’lim sohasidagi loyihalar markazi” loyiha ofisi negizida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzurida Ta’lim sifatini ta’minlash milliy agentligi tashkil etildi. Bu esa o‘z navbatida O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, nazorat va boshqaruv tartib-qoidalarini xalqaro standartlarga muvofiq joriy etish, uzluksiz ta’lim sohasida hamkorlik mexanizmlarini yaratish uchun huquqiy asos bo‘ladi.

Ta’lim sifatini nazorat qilishda unga ta’sir qiluvchi omillarni avvaldan o‘rganish va ularni boshqarish talab etiladi. Ta’lim sifatiga tasodifiy, mahalliy va subektiv omillar ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Ta’lim sifatiga ta’sir qiluvchi omillar hisobga olinib, boshqaruv jarayonida bir qator ishlanmalar ishlab chiqilishi zarur.

Rivojlangan davlatlarning oliy ta’lim tizimi, strukturasi va boshqaruv strategiyalarini o‘rganish jarayonida shunday xulosaga keldikki, Janubiy Korea ta’lim tizimi O‘zbekistonning ta’lim tizimi, bosqichlariga mos ekanligini ko‘rish mumkin. Fikrimizcha, bugungi kunda oliy

ta’limda sifat ko‘rsatkichlarini yanada yaxshilash uchun uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtiish, nazariya va amaliyot o‘rtasidagi mukammal integratsiyani olib borish lozim. Qolaversa, zamonaviy innovatsion texnologiylardan foydalanish darajasining ortishi ham malakali va raqobatbardosh kadrlarning qamrov darajasining ortishiga sabab bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Шумпетер Й. Теория экономического развития. Прогресс. 2002
2. Ковалев Г,Д Основы инновационного менежмента. Москва: 1999
3. Qambarov J.X., Turdialieva M.M. Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini nazorat qilishni takomillashtirish masalalari. Zamonaviy ta’lim jurnali. 2014-yil. 7-son.
4. Устажалилова Х.А Методическое обеспечение учебного процесса в кредитно-модульной системе. В «Оброзование как фактор развития интеллектуально-нравственного потенциала личности и современного общества». 2020
5. Ражабова Г.У Зашита прав частных предпринимателей и роль малого бизнеса в инновационной экономике – web of Scholor, 2018

DEMOKRATIYA TAMOYILLARI ASOSIDA TA'LIM VA GLOBAL FUQAROLIK KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH: NAZARIY VA AMALIY YONDASHUVLAR

Raxmatullayev Alimjon Riskulovich
Angren universiteti dotsenti
https://doi.org/10.5281/zenodo.18264931

Annotatsiya. *Ushbu maqola demokratik qadriyatlar asosida ta'lim jarayonining global fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirishdagi rolini tahlil qiladi. Demokratik ta'limning nazariy asoslari, tarixiy ildizlari hamda zamonaviy ta'lim tizimidagi amaliyotlari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, maqolada ta'limning demokratizatsiyasi jarayoni, fuqarolik mas'uliyatini rivojlantirish va erkin fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishdagi o‘rni yoritiladi. Maqola fuqarolik kompetensiyalarini tarbiyalashda demokratik ta'limning ahamiyatini ta'kidlaydi va bu jarayonning samarali amalga oshirilishi uchun zaruriy shart-sharoitlarni ko‘rsatadi.*
Kalit so‘zlar: *demokratiya, ta'lim, fuqarolik kompetensiyalari, demokratik ta'lim, erkin fikrlash, fuqarolik mas'uliyati, ta'limning demokratizatsiyasi, global fuqarolik*

Abstract. *This article analyzes the role of education based on democratic values in shaping global citizenship competencies. It explores the theoretical foundations and historical roots of democratic education, as well as its contemporary practices in education systems. The paper highlights the democratization process of education and its role in developing civic responsibility and critical thinking skills. It emphasizes the importance of democratic education in fostering citizenship competencies and outlines the necessary conditions for the effective implementation of this process.*
Keywords: *democracy, education, citizenship competencies, democratic education, critical thinking, civic responsibility, democratization of education, global citizenship*

Kirish

XXI asrda global jamiyatda individual va ijtimoiy taraqqiyotning muhim omillaridan biri sifatida ta'lim jarayoni demokratik qadriyatlarni tarbiyalashga qaratilgan ta'lim tizimining rivojlanishi ahamiyat kasb etadi. Ta'lim nafaqat bilim berish, balki shaxsning madaniy, axloqiy va siyosiy ongini shakllantirish, uning jamiyatdagi o‘rni va fuqarolik mas'uliyatini anglashiga yordam berish orqali global fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirishda asosiy vositadir.

Demokratiya tushunchasi va uning ta'limdagi o‘rni qadimiy davrlardan buyon falsafa va pedagogika nazariyalarida o‘rganib kelinmoqda. Platon va Aristotelning ijtimoiy tarbiya haqidagi qarashlaridan tortib, J.Russo va zamonaviy pedagoglarning demokratik ta'limga oid g‘oyalari bugungi kunda ta'lim jarayonlarining markaziy tamoyiliga aylanmoqda.

Ushbu maqolada demokratik qadriyatlar asosida ta'lim jarayonining fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirishdagi roli va ahamiyati, shuningdek, zamonaviy ta'lim tizimlarida demokratizatsiya jarayonlari hamda ta'limning inson huquqlari va tenglik tamoyillarini o‘zlashtirishdagi o‘rni tahlil qilinadi.

Demokratiya atamasi qadimdan ijtimoiy va siyosiy munosabatlarning asosiy shakli sifatida o‘rganilgan bo‘lib, uning ta'lim tizimidagi aks etishi insonlarning teng huquqliligi, erkinligi va fuqarolik mas'uliyatining shakllanishiga xizmat qiladi.

Yevropa Kengashi tomonidan e’lon qilinishicha, “demokratiyani eng samarali o‘rgatish demokratik muhitda amalga oshiriladi”. Yevropa Kengashining demokratik fuqarolik tarbiyasi hamda inson huquqlari bo‘yicha ta’limni tartibga soluvchi Xartiyasi “demokratik fuqarolik tarbiyasini” ta’lim, tayyorgarlik, ma’rifat berish, axborot yetkazish, amaliy mashg‘ulotlar va faoliyatlar majmui sifatida ta’riflaydi.[48] Ushbu jarayonlar o‘quvchilarga bilim, ko‘nikma va tushunchalarni yetkazish, shuningdek, ularning munosabatlari va xulq-atvorini rivojlantirish orqali jamiyatda o‘z demokratik huquq va majburiyatlarini amalga oshirish hamda himoya qilish imkoniyatlarini kengaytirishga, xilma-xillikni qadrlashga va demokratik hayotda faol ishtirok etishga ko‘maklashadi, bunda asosiy maqsad demokratiya va huquq ustuvorligini rivojlantirishdir”.[49]

Shu bilan birga, ta’lim tizimini demokratlashtirish orqali yangilash jamiyatning o‘zidagi ehtiyojlardan kelib chiqadi va bu individualga jamiyat tomonidan qo‘yilayotgan talablarning o‘zgarishi bilan izohlanadi. “Demokratik ta’lim talablari — oliy ta’lim muassasalarida malakali mutaxassislar tayyorlash bo‘lib, ular demokratizatsiya sharoitida shaxsning mukammal rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlarning murakkab kompleksini tashkil etadi”.[50] Mazkur tizimda markaziy o‘rinni demokratik qadriyatlar egallaydi, ular bolaga kichik yoshdan bosqichma-bosqich singdiriladi. Bu, avvalo, inson huquqlari, tanlov huquqi va tenglik huquqi haqidagi bilimlarni o‘z ichiga oladi. Bunday yondashuv natijasida eng faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lgan, siyosiy masalalarda eng kompetent shaxs shakllanadi. Ya’ni, asosiy maqsadlaridan biri “o‘quvchilarga faqatgina bilim, tushuncha va ko‘nikmalarni berish emas, balki ularni inson huquqlari, demokratiya va huquq ustuvorligi tamoyillarini ilgari surish maqsadida jamiyatda faoliyat yuritishga tayyorlashdir”.[51]

Demokratik ta’lim tarixi insonparvarlik munosabatlariga, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi erkin muloqotga asoslanib, qadimgi davrga borib taqaladi. Ushbu davrda Platon va Aristotelning jamiyat tarbiyasi haqidagi g‘oyalari qadimgi Yunoniston maktablari asosini tashkil etgan. Keyinchalik ta’limning ommalashuvi va insonparvar ta’lim g‘oyalari Frensis Bekon, Jon Lok, Mishel Fuko, Jan-Jak Russo va boshqalar tomonidan rivojlantirilgan. Masalan, Jan-Jak Russo “Emil yoki tarbiya to‘g‘risida” asarida Emil nomli xayoliy o‘quvchi tasviri orqali ta’limni o‘qituvchi tomonidan majburlash emas, balki shaxsning o‘z tajribasiga tayangan holda foydali bilimlarni kashf etishi sifatida ko‘rsatadi. Russo bolaning jismoniy, axloqiy va aqliy tarbiyasining turli bosqichlarini yoritib, ushbu modelda tarbiyani ustozlik deb ataydi. Ustoz esa qoidalar o‘rnatuvchi emas, balki mustaqil va ochiq fikrlash qobiliyatini rivojlantiruvchi shaxs hisoblanadi. Muallif bolalarni majburlash o‘rniga tanlov erkinligini ta’minlashni ma’qul ko‘radi. Russo g‘oyalariga yaqin turib, Iyor Berlin insonlarning ta’lim orqali erkinlik mohiyatini anglay olishini ta’kidlaydi. U erkinlikni “salbiy” va “ijobiy” deb ikki ga ajratadi: salbiy erkinlik tashqi aralashuv va majburiyatlardan ozodlik, ijobiy erkinlik esa salbiy erkinlikning chegaralarini

[48] Совет Европы (2016). «Хартия демократического воспитания и прав человека». Страсбург.
[49] Берлин, И. (1958). «Два концепции свободы». Москва: Прогресс.
[50] Нуссбаум, М. (2010). «Не ради прибыли: зачем демократии нужны гуманитарные науки?»
[51] Берлин, И. (1958). «Два концепции свободы». Москва: Прогресс.

belgilash imkoniyati hisoblanadi[52]. Shunday qilib, shaxs rivojlanishi va ta’lim ijobiy erkinlik yo‘lida rivojlanishdir.

Mishel Fuko ta’lim falsafasini jamiyat munosabatlari tizimida zamonaviy inson rivojlanishining umumiy nazariyasi sifatida ifodalaydi, bu esa bilim-qudrat tizimi bo‘lib, jamiyatning har bir pog‘onasida nazorat kuchlari bilan bog‘liq. Ushbu tizim maktab, kasalxona, qamoqxona va boshqa muassasalarda o‘z aksini topadi. Fuko ta’lim tizimini jamiyatdagi nutqning ustuvor shakli deb hisoblaydi va u diskursni o‘zlashtirishda muhim rol o‘ynaydi, ammo e’lon qilingan demokratiyaga qaramay, ta’lim tizimi har qanday so‘zning keng jamoatchilikka yetkazilishini ta’minlamaydi, deb ta’kidlaydi.[53] Bu zamonaviy maktab va oliy ta’lim modellariga tegishlidir.

Demokratik ta'limda asosiy tamoyillar — tenglik, erkinlik, hurmat, va fuqarolik mas'uliyati hisoblanadi. Европа Кенгашининг inson huquqlari va demokratiya tarbiyasiga oid hujjatlari bu tamoyillarni ta'kidlab, ularni ta'lim tizimiga joriy etishni maqsad qilgan.

XX asrda demokratik ta’lim sohasida muhim yutuq sifatida e'tirof etilgan Summerhill maktabi o‘zining noyob demokratik boshqaruv tizimi va shaxsiy tanlov erkinligi bilan jahonda keng tanildi. Ushbu maktab 1921 yilda ingliz pedagogu Aleksandr Nill tomonidan asos solingan bo‘lib, u o‘quvchilarning shaxsiy erkinliklarini hurmat qilish va ular o‘z ta’lim jarayonlarini mustaqil boshqarishlari prinsipiga asoslangan. Summerhill maktabi konsepsiyasi an’anaviy maktab tizimlaridan keskin farq qilgan, chunki unda o‘quvchilar o‘z vaqtlarini o‘zlari rejalashtiradi, darslarga qatnashish yoki qatnashmaslikni o‘z ixtiyorlariga qoldiriladi hamda maktab hayotida qaror qabul qilish jarayonlarida teng huquqli ishtirok etadilar.[54]

Summerhill maktabining demokratik boshqaruv modeli maktab ichidagi yig‘ilishlar orqali amalga oshiriladi. Bu yig‘ilishlarda o‘quvchilar va o‘qituvchilar bir xil ovozga ega bo‘lib, barcha maktab hayotiga oid muhim masalalar, jumladan, qoidalar, tartib-intizom va faoliyatlar muhokama qilinadi hamda qarorlar qabul qilinadi. Ushbu demokratik tizim o‘quvchilarda mas’uliyatni his qilish, o‘z fikrini erkin ifoda etish va jamiyatda faol ishtirok etish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Summerhill maktabining asosiy tamoyillaridan biri – bolalarning shaxsiy tanlov erkinligidir. Bu tamoyil doirasida o‘quvchilar o‘zlarining qiziqishlari va ehtiyojlariga muvofiq ta’lim olishlari mumkin, bu esa ularning motivatsiyasini oshiradi va shaxsiy rivojlanishiga xizmat qiladi. Нилл ta’kidlaganidek, “bolalar o‘rganishga majbur qilinmasligi, balki ular o‘z ixtiyorlari bilan bilim olishni tanlashlari kerak”.[55] Ushbu yondashuv ta’lim jarayonini yanada insonparvar va moslashuvchan qiladi, bu esa o‘quvchilarni o‘z shaxsiy va ijtimoiy hayotida mustaqil qaror qabul qilishga tayyorlaydi.

Xulosa

Demokratik qadriyatlar asosida ta'lim jarayoni fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirishda muhim vositadir. Tarbiya jarayonida erkinlik, tenglik va hurmat kabi tamoyillarni qo‘llash nafaqat bilim darajasini oshiradi, balki jamiyatda mas'uliyatli va faollik ko‘rsatuvchi fuqarolarni tarbiyalaydi. Demokratik ta'limning tarixiy ildizlari va zamonaviy amaliyoti ta'lim tizimining barqaror va samarali rivojlanishi uchun muhim yo‘nalishlarni ko‘rsatadi.

[52] Нуссбаум, М. (2010). «Не ради прибыли: зачем демократии нужны гуманитарные науки?»
[53] Руссо, Ж.-Ж. (1762). «Эмиль, или О воспитании». Париж.
[54] Нилл, А. (1960). «Саммерхилл: радикальный подход к детству». Лондон.
[55] O`sha manbaa

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Берлин, И. (1958). «Два концепции свободы». Москва: Прогресс.
2. Совет Европы (2016). «Хартия демократического воспитания и прав человека». Страсбург.
3. Нуссбаум, М. (2010). «Не ради прибыли: зачем демократии нужны гуманитарные науки?»
4. Руссо, Ж.-Ж. (1762). «Эмиль, или О воспитании». Париж.
5. Нилл, А. (1960). «Саммерхилл: радикальный подход к детству». Лондон.

THE POWER OF FAILURE: WHY FALLING BEHIND CAN PUSH YOU AHEAD

Sabrinabonu Zoyirova Murodillo qizi
First-year student of the Uzbekistan State World Languages University
https://doi.org/10.5281/zenodo.18271044

Abstract. *Failure is often treated as the enemy of success, a symbol of inadequacy, or a sign that one is unprepared for the challenges of life. Yet, history, psychology, and human experience repeatedly prove the opposite: failure is not a dead end, but rather a powerful catalyst for growth. This article explores the emotional, psychological, and intellectual dimensions of failure, arguing that falling behind can, in fact, push individuals further ahead. Through case studies, scientific research, and real-life narratives, the paper highlights how setbacks build resilience, reshape identity, strengthen creativity, and deepen self-awareness. The essay provides an analytical yet emotional perspective on why failure is essential for achieving long-term success, especially for students, young professionals, and anyone navigating the complexities of modern life. Ultimately, the article concludes that failure is not something to be feared, but embraced as a necessary companion on the path to personal transformation and meaningful achievement.*

Keywords: *Failure; resilience; personal growth; motivation; perseverance; psychology of learning; grit; human development.*

Failure is one of the few experiences that unites all human beings. Regardless of background, education, or privilege, everyone falls, stumbles, and loses their way at some point. Yet society often teaches us that failure is shameful—that falling behind means we are flawed, weak, or destined to be left behind. This mindset creates fear, insecurity, and perfectionism. But the truth is far simpler and far more human: failure does not break us; it builds us.

Throughout history, the world's most successful people—from inventors to writers, athletes to entrepreneurs—share one thing in common: they failed, often repeatedly, and those failures shaped their success far more than their victories did. Failure forces us to reflect, adapt, and rise with greater clarity. It teaches us what success never could.

This paper explores the profound power of failure. It blends academic insights with emotional storytelling to show why falling behind is not the end of the journey, but the beginning of a stronger one.

1. UNDERSTANDING FAILURE BEYOND THE SURFACE

When people think of failure, they often imagine lost opportunities, embarrassment, or disappointment. Yet these surface emotions hide deeper processes. Failure is not just an event; it is a psychological transformation.

When individuals experience failure, the brain is forced into a state of heightened awareness. Cognitive scientists call this the "learning window," a moment when the mind becomes more open to change, reflection, and adaptation. In contrast, success often creates comfort—a state where growth slows because everything feels safe.

Thus, failure stimulates growth in ways success never can.

2. THE EMOTIONAL WEIGHT OF FALLING BEHIND

Falling behind can feel painful, especially in a world obsessed with speed and comparison. Students compare grades. Adults compare careers. Social media reinforces the illusion that everyone else is moving forward effortlessly while we are the only ones struggling.

But these emotions—frustration, disappointment, confusion—serve a purpose. They act as internal signals urging us to pause and re-evaluate. Emotional discomfort is not a punishment; it is information. It tells us that something in our current approach needs to change.

When individuals allow themselves to fully feel failure, not suppress it, they open the door to growth. This emotional honesty creates resilience, a key predictor of long-term success.

3. FAILURE AS A TEACHER: LESSONS SUCCESS CANNOT OFFER

Success feels good, but it rarely teaches. Failure, however, teaches relentlessly.

3.1. Failure builds self-awareness

It forces individuals to understand their strengths, weaknesses, and blind spots. Self-awareness is the foundation of maturity and effective decision-making.

3.2. Failure strengthens problem-solving

When something breaks, the mind must figure out why. This process of analysis and revision improves critical thinking.

3.3. Failure develops patience and grit

Modern society encourages instant results, but meaningful achievement requires endurance. Failure teaches that progress is nonlinear.

3.4. Failure fuels creativity

People think differently when the original plan collapses. This "creative survival mode" produces innovation.

3.5. Failure nurtures empathy

Those who have struggled often become the most compassionate leaders, mentors, and friends.

4. THE PSYCHOLOGY BEHIND FALLING BEHIND

Psychologists have long studied how failure influences the mind. Angela Duckworth's research on "grit" found that perseverance predicts success more strongly than talent or intelligence. Carol Dweck's concept of the "growth mindset" similarly shows that people who see failure as a challenge rather than a verdict perform better academically and professionally.

Growth Mindset vs. Fixed Mindset:

- Fixed mindset: "I failed because I'm not good enough."
- Growth mindset: "I failed because I'm learning something new."

Those who embrace a growth mindset use failures as stepping stones rather than final judgments.

5. STORIES THAT PROVE THE POWER OF FAILURE

5.1. Thomas Edison

He failed over 1,000 times before inventing the light bulb. When asked about his failures, he replied, "I found 1,000 ways that do not work."

5.2. J.K. Rowling

Before Harry Potter became a global phenomenon, she was rejected by 12 publishers and lived in poverty. Those failures shaped her storytelling voice and resilience.

5.3. Michael Jordan

Cut from his high school basketball team, he later became one of the greatest athletes in history. He famously said, "I've failed over and over again in my life. And that is why I succeed."

6. WHEN FALLING BEHIND BECOMES AN ADVANTAGE

At first glance, falling behind seems like a disadvantage. But there are moments when the slower path becomes the wiser one.

6.1. Falling behind allows reflection

Those who move too quickly often miss critical details. Falling behind forces deeper understanding.

6.2. Falling behind builds character

Life's most important virtues—patience, humility, gratitude—are rarely learned through comfort.

6.3. Falling behind teaches strategic thinking

When the initial plan fails, individuals must redesign it. This strengthens adaptability.

6.4. Falling behind develops independence

When you struggle, you learn to rely on yourself, not comparisons.

7. FAILURE IN EDUCATION: WHY STUDENTS MUST STUMBLE

Students often fear failure more than adults do. Schools unintentionally reinforce this by focusing heavily on grades, rankings, and competition. Yet research shows that students who experience academic setbacks early on often become stronger learners.

7.1. Struggles create mastery

The "testing effect" proves that making mistakes improves memory retention.

7.2. Failure reduces fear of risk-taking

Students who avoid failure avoid opportunities.

7.3. Emotional resilience improves future performance

Learning to regulate stress prepares students for adulthood.

8. THE HUMAN HEART AND ITS RELATIONSHIP TO FAILURE

Beyond theories and research, failure is deeply emotional. It touches our identity, pride, dreams, and expectations. But emotional pain is not the enemy. Discomfort is often the birthplace of transformation.

To fall behind is to feel human. To rise again is to become extraordinary.

9. TRANSFORMING FAILURE INTO STRENGTH

The true power of failure lies not in the fall, but in the rise.

9.1. Acceptance

Recognizing failure as normal removes shame.

9.2. Reflection

Understanding what went wrong builds insight.

9.3. Adjustment

Changing strategies leads to improved outcomes.

9.4. Renewal

Emerging from failure makes individuals stronger.

10. WHY FALLING BEHIND PUSHES YOU AHEAD

Falling behind can push individuals ahead because:

- They learn more deeply.
- They develop emotional resilience.

- They strengthen problem-solving skills.
- They discover new approaches.
- They grow in empathy and humility.
- They understand themselves better.
- They progress with intention.

Failure is not the opposite of success; it is an essential part of it. Falling behind does not define a person—it refines them. Embracing failure becomes an act of courage in a world obsessed with perfection. Those who rise from setbacks carry wisdom, resilience, and depth.

The power of failure is real. It breaks us open, only to rebuild us stronger. And sometimes, falling behind is what ultimately pushes us ahead.

REFERENCES

1. Dweck, C. (2006). Mindset: The New Psychology of Success.
2. Duckworth, A. (2016). Grit: The Power of Passion and Perseverance.
3. Seligman, M. (2011). Flourish.
4. Edison, T. (1879). Experiment Diaries.
5. Jordan, M. (1998). I Can't Accept Not Trying.
6. Baumeister, R., & Leary, M. (1995). The Need to Belong.

TADBIRKORLIK VA INNOVATSIYALARNI RIVOJLANTIRISHDA TA’LIM TIZIMINING AHAMIYATI

Salixov Saidamir[1], Miragzamova Muxlisa Mirazim qizi[2]
[1]Ilmiy rahbar: Millat umidi universiteti Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va Tadbirkorlik oliy maktabi dotsenti, PhD
[2]Millat Umidi universiteti BA-203 guruh 2-kurs talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.18271079

Innovatsiya – bu kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo‘lsak, uni aynan innovatsion g‘oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak.
Sh.M. Mirziyoyev
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

Annotatsiya. *Ushbu annotatsiya zamonaviy raqobatbardosh iqtisodiyot sharoitida tadbirkorlik va innovatsiyalarning strategik ahamiyatini yoritadi hamda ularni shakllantirishda ta’lim tizimining markaziy o‘rnini tahlil qiladi. Ta’lim tizimi nafaqat nazariy bilimlar beruvchi institut, balki ijodiy fikrlash, tavakkalchilikni boshqarish, muammolarni yechish va jamoada ishlash kabi tadbirkorlik kompetensiyalarini shakllantiruvchi asosiy platforma sifatida qaraladi.*

Innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirish uchun ta’lim jarayoniga amaliy loyihalar, startap inkubatorlari va texnologik bilimlarni chuqurlashtiruvchi fanlar integratsiya qilinishi lozim. Ta’lim tizimining tadbirkorlikka yo‘naltirilishi inson kapitalining sifatini oshirishga, yangi ish o‘rinlari yaratishga va iqtisodiy o‘sishning barqaror drayverini shakllantirishga xizmat qiladi. Xulosa qilib aytganda, ta’limni innovatsion ekotizimning ajralmas qismi sifatida ko‘rish va uni doimiy ravishda bozor talablariga mos ravishda isloh qilish mamlakatning uzoq muddatli iqtisodiy muvaffaqiyati uchun zaruriy shartdir.

Kalit so‘zlar: *Innovatsiya, modernizatsiya, ta’lim, startap ekotizimini, kreativ kompetentlikni, tadbirkorlik kompetensiyalarini, startap grantlar.*

Abstract. *Ta’lim — inson kapitali va ijtimoiy kapital manbai sifatida yangi g‘oyalar paydo bo‘lishi, ularni amalga oshirish uchun zarur kompetensiyalar shakllanishi va innovatsion ekotizimlarni mustahkamlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Maqolaning maqsadi — ta’limning qaysi elementlari (pedagogika, o‘quv dasturlari, amaliyot, ilmiy-tadqiqot va sanoat bilan hamkorlik) tadbirkorlik salohiyatini oshirishga eng katta ta’sir ko‘rsatishini aniqlash va siyosiy tavsiyalar ishlab chiqish.*

Kirish.

Globallashuv va raqobatning keskin kuchayib borayotgan hozirgi davrda mamlakatlarning barqaror iqtisodiy o‘sishi ko‘p jihatdan innovatsiyalarni yaratish va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashga bog‘liqdir. Innovatsion iqtisodiyotga asoslangan jamiyatning shakllanishi, bir tomondan, yangi bilim va texnologiyalarni ishlab chiqishni, ikkinchi tomondan esa, ushbu bilimlarni amaliyotga tatbiq eta oladigan zamonaviy tadbirkor kadrlarni yetishtirishni talab etadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, ta’lim tizimi – tadbirkorlik madaniyati, innovatsion fikrlash va kreativ ko‘nikmalarni shakllantiruvchi asosiy omil hisoblanadi.

Bugungi kunda ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirish va talabalar o‘rtasida startap ekotizimini shakllantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Ta’lim tizimi nafaqat bilim berish, balki yoshlarni mustaqil fikrlashga, risklarni boshqarishga, bozor talablarini tahlil qilishga, yangi texnologiyalarni joriy etishga o‘rgatishi zarur.

Ushbu maqolaning maqsadi — tadbirkorlik va innovatsiyalar rivojida ta’lim tizimining strategik o‘rnini tahlil qilish, uning samaradorligini oshirish yo‘llarini ko‘rsatish hamda O‘zbekiston misolida amaliy tajribalarni o‘rganishdan iborat.

Tadbirkorlikning iqtisodiy mohiyati: Tadbirkorlik — iqtisodiy resurslarni (yer, mehnat, kapital va bilim) samarali birlashtirish orqali yangi mahsulot yaratish yoki xizmat ko‘rsatish jarayonidir. Uning asosiy funksiyalari quyidagilardan iborat:

- ishlab chiqarish jarayonida yangilik yaratish;
- resurslarni optimal taqsimlash;
- bozor imkoniyatlarini aniqlash va ulardan foydalanish;
- risklarni boshqarish;
- innovatsiyalarni amaliyotga joriy etish.

J. Shumpeter tadbirkorni “innovatsiya generatori” deb atagan va uning bosh vazifasi iqtisodiyotga yangi kombinatsiyalarni kiritishdan iborat ekanini qayd etgan.

Innovatsiyaning mazmuni : Innovatsiya — bu yangilik yaratish, uni iqtisodiy faoliyatga tatbiq etish va samaradorlikni oshirishga qaratilgan jarayondir. Innovatsiyalar quyidagi turlarga bo‘linadi:

- texnologik innovatsiyalar;
- tashkiliy boshqaruv innovatsiyalari;
- mahsulot innovatsiyalari;
- ijtimoiy va xizmat ko‘rsatish innovatsiyalari.

Innovatsion faoliyatning rivojlanishi mamlakatning ilmiy salohiyatiga, kadrlar sifatiga va ta’lim tizimining rivojlanganligiga bevosita bog‘liq.

Innovatsion tadbirkorlikning xususiyatlari

1. Yuqori darajada kreativlik talab etadi;

Kreativlik zamonaviy jamiyatda muvaffaqiyatning muhim omillaridan biridir. U yangi va innovatsion yechimlarni topish, muammolarni hal qilish va yangi g`oyalarni yaratish qobiliyatini o`z ichiga oladi. Ushbu maqolada kreativlikni rivojlantirishning uslubiy asoslari tahlil qilinib, bu jarayonni qo`llab-quvvatlash uchun innovatsion yondashuvlar ko`rib chiqilgan. Hamda mazkur maqolada talabalarda kreativ kompetentlikni rivojlantirish borasida olimlarimizning qarashlari va istiqboli haqida so`z boradi. Shuningdek innovatsion yondashuv asosida bo`lajak pedagoglarning kreativligini rivojlantirishning nazariy va metodologik asoslarini tahlil qilinadi. Zamonaviy ta`lim muhitida samarali ishlash uchun zarur bo`lgan asosiy raqamli kompetensiyalar va pedagogik texnologiyalar ko`rib chiqilgan. Shuningdek, ushbu sohada qo`llaniladigan metodologik yondashuvlar va ta`lim sifatini oshirish usullari muhokama qilingan.

2. Bozorga yangi g‘oyalar va texnologiyalarni olib chiqadi;

Ushbu maqola xalqaro tadbirkorlikning hozirgi holati, uning rivojlanish tendensiyalari, imkoniyatlari va yuzaga kelayotgan muammolarini ko‘rib chiqishga qaratilgan bo‘lib, zamonaviy iqtisodiy muhitda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun zarur bo‘lgan asosiy omillarni aniqlashga yordam beradi. Shuningdek, maqolada zamonaviy sharoitda xalqaro tadbirkorlikning rivojlanish istiqbollari tahlil qilinadi. Raqamli transformatsiya, global

integratsiya, yashil iqtisodiyot va innovatsiyalar asosida xalqaro biznesning yangi imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. O‘zbekiston sharoitida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar va mintaqaviy hamkorlik xalqaro tadbirkorlikni rivojlantirishda muhim rol o‘ynashi ta’kidlanadi.

3. Ilmiy tadqiqotlarga tayanadi;

- Ilmiy tadqiqotlar yangi bilim va texnologiyalar manbai hisoblanadi. Innovatsion mahsulot yoki xizmat ko‘pincha fundamental yoki amaliy ilmiy natijalarni tijoratlashtirish orqali yuzaga keladi.

- Tadqiqot asosida ishlab chiqilgan yechimlar raqobatbardosh, yuqori qo‘shilgan qiymat yaratadi va uzoq muddatli iqtisodiy samaradorlikka olib keladi.

- Ilmiy asos yangi g‘oya riskini kamaytiradi: eksperimental ma’lumot, prototip sinovlari va empirik dalillar qarorlarni asoslashga yordam beradi.

4. Risk darajasi yuqori bo‘ladi;

Innovatsion tadbirkorlikda risklar yuqori, ammo ular boshqarilishi va kamaytirilishi mumkin. Muhimi — risklarni erta aniqlash, bosqichma-bosqich validatsiya, moliyalashtirishni moslash, va strategik hamkorliklarni yo‘lga qo‘yish.

- Ehtiyotkorlik va moslashuvchanlik — innovatsion startaplarning asosiy muvaffaqiyat omillari.

5. Iqtisodiy o‘sishning asosiy drayveri hisoblanadi.

Innovatsion tadbirkorlik (inglizcha: Innovative Entrepreneurship) — bu yangi g‘oyalar, mahsulotlar, xizmatlar yoki biznes modellarini yaratish va ularni muvaffaqiyatli amalga oshirish orqali bozorga joriy etishga qaratilgan faoliyatdir. U nafaqat mavjud narsalarni takomillashtiradi, balki tubdan yangi qiymat zanjirlarini yaratadi.

Innovatsion tadbirkorlik shunchaki biznes yuritish usuli emas, balki iqtisodiy rivojlanishning strategik yo‘nalishidir. U iqtisodiyotga doimiy ravishda yangi energiya olib kiradi, eskirgan tuzilmalarni almashtiradi va jamiyatning umumiy farovonligini ta'minlash uchun zarur bo‘lgan samaradorlik va raqobatbardoshlikni oshiradi. Shu sababli, har qanday rivojlanayotgan davlat uchun innovatsion muhitni yaratish ustuvor vazifa hisoblanadi.

Ta’limning innovatsion iqtisodiyotdagi o‘rni

XXI asrda bilim eng muhim ishlab chiqarish omiliga aylandi. Innovatsion iqtisodiyot shakllanishi uchun ta’lim tizimi:

• Yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash;

Bugungi kunda ta’lim sifatini oshirish va malakali kadrlarni tayyorlash har bir davlatning asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi. O‘zbekistonda bu borada katta e’tibor qaratilib, 2030-yilgacha bo‘lgan strategik rejalarda ta’lim tizimini modernizatsiya qilish va pedagoglarning malakasini oshirish muhim o‘rin tutmoqda. 2023-yilgi statistik ma’lumotlarga ko‘ra, mamlakat bo‘ylab faoliyat yuritayotgan 450 mingdan ortiq pedagoglarning faqat 35% zamonaviy texnologiyalarni to‘liq o‘zlashtirgan. Shu sababli pedagoglar malakasini oshirish davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, bu orqali malakali kadrlarni tayyorlash jarayonini yangi bosqichga olib chiqish mumkin. Ta’lim sifatini yaxshilash pedagoglarning malakasi bilan bevosita bog‘liq. YUNESKO ma’lumotlariga ko‘ra, rivojlanayotgan davlatlarda pedagoglarning malakasi ta’lim sifati pasayishining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. O‘zbekiston bo‘yicha o‘tkazilgan 2022-yilgi tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, malaka oshirish kurslarini o‘tagan o‘qituvchilar o‘quvchilarining 47% yaxshi natijalar ko‘rsatgan. Malakali pedagoglarning zamonaviy texnologiyalar va metodlardan foydalanishi o‘quvchilarning bilim olish jarayonini sezilarli darajada yaxshilaydi. Tahlil qilinganda elektron ta’lim resurslaridan

foydalangan holda dars o‘tuvchi pedagoglarning sifat samaradorligi 25% ga yuqori bo‘lgan. Innovatsion metodlardan foydalanish o‘quvchilar bilimini 30% oshirishga yordam beradi. Malaka oshirish jarayonida pedagoglar o‘z sohalariga oid yangiliklarni o‘zlashtiradi. Masalan, 2021- yilda Toshkent shahrida 10 mingdan ortiq pedagog maxsus trening va seminarlar orqali o‘z malakasini oshirdi. Natijada, ularning 85% zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta’lim jarayonida qo‘llashni boshlagan.

• Ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirish;

Ilmiy tadqiqotchilik kompetentsiyasini shakllantirishning nazariy asoslari tadqiq etilgan. Ilmiy tadqiqotchilik kompetentsiyasi tushunchasi, uning tarkibiy elementlari, shakllanish bosqichlari va ta’lim jarayonida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan pedagogik yondashuvlar keng yoritilgan. Mualliflar talabalarda ilmiy tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun samarali o‘quv metodlari, innovatsion texnologiyalar va amaliy mashg‘ulotlardan foydalanish zarurligini ta’kidlagan.

• Texnologik yangiliklarni ishlab chiqish;

Zamonaviy biznes dunyosida innovatsiyalar va yangi texnologiyalarni samarali qo‘llashkompaniyaning raqobatbardoshligini oshirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Innovatsionboshqaruv – bu tashkilotning texnologik yangiliklarni joriy etish va ulardan maksimal foydaolish bo‘yicha tizimli yondashuvidir. Bugungi global iqtisodiy sharoitda kompaniyalar doimiyravishda o‘z ish faoliyatini rivojlantirish va yangi texnologiyalarni joriy etish ustidaishlashgamajbur. Raqobat kuchayganligi sababli, tadbirkorlar nafaqat yangi mahsulot vaxizmatlaryaratish, balki operatsion jarayonlarni optimallashtirish orqali ham samaradorlikni oshirishgaharakat qilmoqdalar. Innovatsion boshqaruv nafaqat texnologik rivojlanishni anglatadi, balki tashkilotning biznes strategiyasini takomillashtirish, mijozlar ehtiyojlarini chuqurroq tushunish va raqobatda ustunlikka erishish vositasi hamdir. Bunga erishish uchun esa korxonalar zamonaviy texnologiyalar, xususan, sun’iy intellekt, avtomatlashtirish, buluttexnologiyalari va big data tahlili kabi vositalardan foydalanishga majburdir

• Startaplar uchun zarur ko‘nikmalarni berishi zarur.

O‘zaro uzluksiz aloqa jarayonida turli yangi texnologiyalar va g‘oyalar oqimi davlatlar o‘rtasida mutassil almashinib boriladi. Mana shu jarayonda mamlakat yangi innovatsion g‘oyalarni – startaplarni ham qo‘llab-quvvatlaydi.

Yangisini qo‘llashdan ko‘ra, mavjud va sinalgan importni mamlakatga kiritish ko‘proq foyda bermaydimi, degan savolga Innovatsion rivojlanish vazirligi xalqaro konsultanti Yerbol Suleymenov startaplar **mamlakatdagi ichki ilmiy salohiyatni qo‘llab-quvvatlashda** katta ahamiyatga egaligini ta'kidladi. Bundan tashqari, ular **kichik biznes va yuqori texnologiyalar bozorini rivojlantirishda** ham muhim omil hisoblanadi.

Tadbirkorlik kompetensiyalarini shakllantirish

Zamonaviy ta’lim tizimi yoshlarni quyidagi kompetensiyalar bilan ta’minlashi kerak:

• Biznes-reja tuzish;

• Bozor tahlili;

• Raqobatbardoshlik strategiyalari;

• Moliyaviy savodxonlik;

• Jamoa boshqaruvi;

• Kreativ va tanqidiy fikrlash.

Bu ko‘nikmalar yoshlarni bozor sharoitida mustaqil faoliyat olib borishga tayyorlaydi.

Innovatsion fikrlashni shakllantiruvchi metodlar

Ta’lim jarayonida quyidagi yondashuvlar muhim o‘rin tutadi:

• STEM/STEAM ta’limi;

• Loyihaviy yondashuv;

• Amaliy mashg‘ulotlar;

• Tajriba asosida o‘qitish (experiential learning);

• Dizayn fikrlash (design thinking).

Startap madaniyatini shakllantirish

Universitetlarda:

• Innovatsion laboratoriyalar,

• Texnoparklar,

• Inkubatorlar,

• Mentorlik dasturlari

kabi infratuzilmalarning mavjudligi yoshlarning tadbirkorlikka bo‘lgan qiziqishini oshiradi.

Startap grantlarini ko‘paytirish

Yoshlar uchun grantlar, imtiyozli kreditlar, akseleratsiya dasturlari kengaytirilishi zarur.

Startup grantlari — bu yangi tashkil etilgan yoki rivojlanishning dastlabki bosqichida turgan innovatsion loyihalarni moliyalashtirish uchun davlat, xalqaro tashkilotlar yoki yirik korporatsiyalar tomonidan ajratiladigan qaytarilmas mablag‘lardir. Bu mablag‘lar startaplarga dastlabki xarajatlarni qoplash, mahsulotni sinovdan o‘tkazish (MVP yaratish) va bozorga chiqish uchun juda muhimdir.

O‘qituvchilar malakasini oshirish

Prezidentimizning 2020 yilning 6 noyabrda qabul qilingan “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni hamda “Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorida xalq ta'limi tizimidagi islohotlarni yanada takomillashtirish va ilmiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha aniq vazifalar belgilab berilgan edi.

Joriy yilgacha amaldagi tartibga ko‘ra, pedagog-kadrlar har 5 yilda bir marta, rahbar va mutaxassis xodimlar esa har 3 yilda bir marta malaka oshirib kelgan.

O‘qituvchining 5 yilda 1 oy, ya'ni 144 soatlik o‘quv dasturi asosida malaka oshirishi va qolgan 4 yilu 11 oy hech qanday o‘quvga jalb qilinmasdan, ularning o‘z ustida ishlamasligi kasbiy malaka ko‘nikmalari susayishiga sabab bo‘lib, ta'lim sifati muammosi hukumat darajasiga ko‘tarildi va joriy yilning 25 yanvar` kuni “Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qaror qabul qilindi.

Qarorga muvofiq, tizimda katta islohotlar amalga oshirildi. A. Avloniy nomidagi ilmiy-tadqiqot instituti hamda BMTning O‘zbekiston Respublikasidagi Bolalar jamg‘armasi (UNICEF) bilan hamkorligida tashkil etilgan “Xalq ta'limi xodimlarini kasbiy rivojlantirish: erishilgan yutuqlar va istiqboldagi rejalar” mavzusida ilmiy-amaliy seminari mazkur vazifalar ijrosiga bag‘ishlandi.

Tadbirda xalq ta'limi xodimlarining malakasini oshirish tizimini va xalq ta'limi sektorini takomillashtirish borasidagi takliflar va echimlar, xalq ta'limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish, ta'lim mazmunini takomillashtirishning dolzarb masalalari, sohalar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik: ta'lim va sog‘liqni saqlash sohasidagi ijobiy natijalarni qo‘llab-quvvatlash,

malaka oshirish tizimidagi islohotlar va YUNISEF bilan qo‘shma loyihalar natijalari (“Uzluksiz kasbiy ta'lim” LMS platformasi va xalqaro baholash dasturlariga tayyorgarlik) mavzulari doirasida mulohaza yuritildi.

Ta’limda raqamli texnologiyalardan foydalanish

Raqamli texnologiyalar zamonaviy ta’lim tizimining ajralmas qismiga aylanmoqda. XXI asrda axborot texnologiyalari ta’limning barcha bosqichlarida keng qo‘llanilmoqda va an'anaviy o‘qitish usullaridan raqamli o‘qitish usullariga o‘tish tobora ommalashmoqda. Bu jarayon pandemiya davrida yanada tezlashdi, chunki ko‘plab ta'lim muassasalari onlayn va masofaviy o‘qitish tizimiga o‘tishga majbur bo‘ldi. Raqamli texnologiyalar yordamida darslarni yanada interaktiv, samarador va o‘quvchilar uchun qiziqarli qilish imkoni tug‘ilmoqda.

Tavsiyalar:

- STEM + yumshoq ko‘nikmalar integratsiyasi: matematika, tabiiy fanlar va texnologiyalarga ijodiy fikrlash, muammolarni yechish, jamoaviy ish va kommunikatsiya darslari qo‘shilsin.

- Loyihaga yo‘naltirilgan o‘qitish (PBL): real biznes-muammolar asosida kurslar, startup-laboratoriyalar va amaliy mashg‘ulotlar joriy etilsin.

- Tadbirlar bilan boyitish: hackathonlar, biznes-g‘oya tanlovlari, mahsulot dizayn va prototiplash mashg‘ulotlari muntazam o‘tkazilsin.

- O‘qituvchilar uchun doimiy kasbiy rivojlanish: tadbirkorlik va innovatsiya pedagogikasi bo‘yicha malaka oshirish kurslari, sanoat stajirovkalari.

- Ta’lim doirasidagi grantlar: talabalar va o‘qituvchilar uchun tadbirkorlik loyihalariga mikrog-rantlar ajratilsin.

Xulosa

Tadbirkorlik va innovatsiyalarni rivojlantirish har bir davlat uchun strategik ahamiyatga ega bo‘lib, uning muvaffaqiyati bevosita ta’lim tizimiga bog‘liqdir. Zamonaviy ta’lim yoshlarni nafaqat bilim bilan, balki kreativ fikrlash, risklarni boshqarish, texnologiyadan foydalanish, biznes yuritish kabi ko‘nikmalar bilan ham qurollantirishi kerak. O‘zbekistonda so‘nggi yillarda ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar yoshlarning innovatsion salohiyatini rivojlantirishga keng imkoniyat yaratmoqda. Biroq tizimni yanada takomillashtirish uchun amaliy mashg‘ulotlar ulushini oshirish, biznes bilan integratsiyani kuchaytirish, o‘qituvchilar malakasini oshirish kabi vazifalar dolzarbligicha qolmoqda.

Umuman olganda, ta’lim tizimi — tadbirkorlik va innovatsion jamiyatning asosiy poydevori bo‘lib, uning samarali ishlashi mamlakatning kelajakdagi iqtisodiy taraqqiyotini belgilab beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Shumpeter, J. The Theory of Economic Development. Harvard University Press.
2. Drucker, P. Innovation and Entrepreneurship. Harper Business.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Innovatsion rivojlanish strategiyasi” bo‘yicha farmonlari va qarorlari.
4. Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi statistik ma’lumotlari.
5. UNDP. Human Development Report.
6. OECD. Education for Innovative Societies.
7. Porter, M. Competitive Advantage.
8. Fayzulloyev S. “Innovatsion iqtisodiyot va tadbirkorlik.” – Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.

9. UNESCO. Education and Skills for 21st Century.

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHDA TRANSVERSAL KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH BOSQICHLARI

Shakarova Nilufar Zuvaydullayevna
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.18271198

Annotatsiya. *Maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida transversal kompetensiyalarni rivojlantirishning ilmiy-nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. Transversal kompetensiyalar zamonaviy ta’lim tizimida pedagogning kasbiy muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida talqin qilingan. Transversal kompetensiyalarning pedagogik mohiyati ochib berilib, ularni shakllantirishning diagnostik-tahliliy, motivatsion-maqsadli, mazmuniy-amaliy hamda reflektiv-baholash bosqichlari asoslab berilgan. Tadqiqotda kompetensiyaviy yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini oshirish imkoniyatlari tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *kasbiy tayyorgarlik, transversal kompetensiyalar, bo‘lajak o‘qituvchi, boshlang‘ich ta’lim, kompetensiyaviy yondashuv.*

Аннотация. *В статье раскрываются научно-теоретические и практические аспекты развития трансверсальных компетенций у будущих учителей начальных классов в процессе профессиональной подготовки. Трансверсальные компетенции трактовались как один из основных факторов, определяющих профессиональные успехи педагога в современной системе образования. Определена сущность трансверсальных компетенций и обоснованы этапы их формирования: диагностико-аналитический, мотивационно-целевой, содержательно-практический и рефлексивно-оценочный. Показаны возможности повышения профессиональной готовности будущих педагогов на основе компетентностного подхода.*

Ключевые слова: *профессиональная подготовка, трансверсальные компетенции, будущий учитель, начальное образование, компетентностный подход.*

Abstract. *The article presents theoretical and practical aspects of developing transversal competencies in future primary school teachers during professional training. Transversal competencies are interpreted as one of the main factors determining the professional success of a teacher in the modern education system. The essence of transversal competencies is revealed, and the stages of their development: diagnostic-analytical, motivational-targeted, content-practical, and reflective-evaluative are substantiated. The study analyzes the possibilities of improving professional readiness of future teachers based on the competency-based approach.*

Keywords: *professional training, transversal competencies, future teacher, primary education, competency-based approach.*

Zamonaviy ta’lim tizimi jadal raqamlashtirish, global axborot almashuvi, mehnat bozoridagi keskin o‘zgarishlar va kompetensiyalarni qayta shakllantirish jarayoni bilan tavsiflanmoqda. Bunday sharoitda o‘qituvchilik kasbi an’anaviy bilim berish modelidan chetga chiqib, ko‘proq muammolarni hal qilish, takomillashtirilgan muloqot, kognitiv moslashuvchanlik, ijodiy fikrlash, hamkorlikda ishlash va raqamli savodxonlik kabi ko‘p

funksiyali transversal kompetensiyalarni talab qilmoqda.[1] Shuning uchun bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligida aynan transversal kompetensiyalarni rivojlantirish eng ustuvor ilmiy-amaliy masalalardan biri hisoblanadi. Transversal kompetensiyalar turli vaziyatlarda qo‘llaniladigan universalligi bilan ajralib turadi. So‘nggi yillarda ta’lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida pedagog kadrlar tayyorlash masalasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Xususan, kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni o‘qituvchining faqat nazariy bilimlarga emas, balki amaliy, ijtimoiy va shaxsiy kompetensiyalarga ham ega bo‘lishini taqozo etmoqda [2].

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich ta’lim bosqichida o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligi o‘quvchilarning keyingi ta’lim bosqichlaridagi muvaffaqiyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi [3]. Shu bois boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida transversal kompetensiyalarni rivojlantirish masalasi alohida ilmiy-pedagogik ahamiyat kasb etadi.

OECD ma’lumotlariga ko‘ra, XXI asr o‘qituvchisi kommunikativlik, muammoli vaziyatlarni hal etish, tanqidiy fikrlash va refleksiya kabi kompetensiyalarga ega bo‘lgan taqdirdagina ta’lim jarayonida yuqori samaradorlikka erishadi [4, 5].

Transversal kompetensiyalar tushunchasi pedagogik adabiyotlarda turlicha talqin qilinadi. I.A.Zimnyaya ularni shaxsning kasbiy faoliyatida muvaffaqiyatli moslashuvini ta’minlovchi universal kompetensiyalar sifatida izohlaydi[6]. Mahalliy tadqiqotchilar esa transversal kompetensiyalarni pedagogning kasbiy madaniyati va ijodiy salohiyatini belgilovchi muhim omil deb hisoblaydilar. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi faoliyatida transversal kompetensiyalar quyidagi yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi:

- o‘quvchilar bilan pedagogik muloqotni samarali tashkil etish;
- ta’lim jarayonida innovatsion metodlarni qo‘llash;
- muammoli pedagogik vaziyatlarda tezkor va asosli qaror qabul qilish;
- o‘z kasbiy faoliyatini tahlil qilish va doimiy takomillashtirish.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, mazkur kompetensiyalar yetarli darajada rivojlanmagan o‘qituvchilarda kasbiy moslashuv jarayoni sekinlashadi va pedagogik faoliyat samaradorligi pasayadi.[7] Shu sababli oliy pedagogik ta’limda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining transversal kompetensiyalarini tizimli, bosqichma-bosqich rivojlantirishga qo‘yiladigan bir qancha talablar mavjud. Bo‘lajak o‘qituvchilarga qo‘yilayotgan zamonaviy talablar:

- innovatsion pedagogik texnologiyalarni egallash;
- darsni loyiha va tadqiqot asosida tashkil etish;
- kommunikativ va ijtimoiy kompetensiyalarga ega bo‘lish;
- raqamli vositalardan samarali foydalanish;
- o‘z-o‘zini boshqarish va refleksiya qilish qobiliyatiga ega bo‘lish;
- o‘quvchilarning ijodiy va tanqidiy fikrlashini shakllantirishdir.[8]

Bu kompetensiyalarni shakllantirish jarayoni tasodifiy emas, balki ilmiy asoslangan bosqichlarga tayangan holda amalga oshirilishi taqozo etiladi. Transversal kompetensiyalarni rivojlantirish bosqichlari:

Diagnostik-tahliliy bosqich. Mazkur bosqichda bo‘lajak o‘qituvchilarning boshlang‘ich kompetensiya darajasi aniqlanadi. So‘rovnoma va kuzatish natijalariga ko‘ra maqsad va vazifalar belgilab olinadi. Ushbu bosqich keyingi pedagogik ta’sir yo‘nalishlarini belgilashda muhim ahamiyatga ega.

Motivatsion-maqsadli bosqich. Bu bosqichda talabalarda kasbiy faoliyatga nisbatan ongli munosabat shakllantiriladi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, motivatsiya darajasi yuqori

bo‘lgan talabalarda transversal kompetensiyalarni rivojlantirish jarayoni samaraliroq kechadi. Treninglar va munozaralar ushbu bosqichning asosiy vositalari hisoblanadi.

Mazmuniy-amaliy bosqich. Mazmuniy-amaliy bosqich transversal kompetensiyalarni bevosita shakllantirishga qaratilgan. Keys-stadi, loyihaviy faoliyat va muammoli vaziyatlar asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar talabalarni real pedagogik faoliyatga tayyorlaydi. Belgilangan innovatsion va interaktiv metodlardan foydalanilgan guruhlarda kompetensiya darajasining ijobiy tomonga o‘zgarishi kuzatiladi.

Reflektiv-baholash bosqichi. Mazkur bosqichda talabalarning o‘z faoliyatini tahlil qilishi, o‘z-o‘zini baholash va kasbiy o‘sish rejasini ishlab chiqishi ta’minlanadi. Refleksiya jarayoni pedagogning kasbiy rivojlanishida muhim psixologik-pedagogik mexanizm hisoblanadi.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida transversal kompetensiyalarni samarali rivojlantirish uchun muayyan pedagogik shart-sharoitlarning yaratilishi muhim hisoblanadi. Mazkur kompetensiyalar tasodifiy shakllanmaydi, balki maqsadli, tizimli va metodik jihatdan puxta tashkil etilgan ta’lim muhiti orqali rivojlanadi. Bunda:

Birinchidan, ta’lim jarayonining *kompetensiyaviy yondashuv asosida loyihalanishi* zarur. Bu yondashuvda o‘quv fanlarining mazmuni faqat bilim berishga emas, balki talabalarni real pedagogik vaziyatlarda mustaqil faoliyat yuritishga tayyorlashga xizmat qilishi lozim. Mazkur jarayonda fanlararo integratsiya, amaliy mashg‘ulotlar ulushining oshirilishi va muammoli vaziyatlarga asoslangan topshiriqlarning keng qo‘llanilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchidan, *talabalarning reflektiv faoliyatini rivojlantirish* pedagogik shart sifatida qaraladi. Refleksiya o‘qituvchining kasbiy o‘sishi va o‘z faoliyatini takomillashtirishning muhim mexanizmi bo‘lib, u bo‘lajak pedagoglarda o‘z-o‘zini tahlil qilish, xatolar ustida ishlash va individual rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish kompetensiyalarini shakllantiradi.[9]

Uchinchidan, *raqamli ta’lim muhitidan samarali foydalanish* transversal kompetensiyalarni rivojlantirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Raqamli platformalar, elektron resurslar, virtual laboratoriyalar va onlayn muloqot vositalari bo‘lajak o‘qituvchilarda axborot bilan ishlash, tanqidiy fikrlash, hamkorlik va masofaviy ta’limni tashkil etish kompetensiyalarini rivojlantiradi.[10]

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda transversal kompetensiyalarni rivojlantirish tizimli, uzluksiz va bosqichma-bosqich tashkil etilishi zarur. Taklif etilgan rivojlantirish bisqichlari pedagogika oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini modernizatsiya qilish, bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini oshirish va ularni zamonaviy ta’lim talablariga moslashtirish imkonini beradi. An’anaviy yondashuv asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar bo‘lajak o‘qituvchilarda transversal kompetensiyalarni to‘liq shakllantirish imkonini bermaydi. Aksincha, kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan, refleksiya va amaliy faoliyatga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlar talabalarning kasbiy tayyorgarlik darajasini sezilarli oshiradi. Ayniqsa, loyihaviy faoliyat, keys-stadi va muammoli vaziyatlar orqali tashkil etilgan mashg‘ulotlar:

- talabalarning mustaqil fikrlashini;
- pedagogik muloqot madaniyatini;
- kasbiy moslashuvchanligini;
- innovatsion faoliyatga tayyorgarligini kuchaytiradi.

Bu esa bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini real pedagogik faoliyatga yaqinlashtiradi va ularning kasbiy barqarorligini ta’minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. UNESCO. Teachers of the Future: Global Competency Framework. – Paris, 2022.
2. Sodiqova Sh.A. Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent, 2019.
3. Abdullaeva M. Boshlang‘ich ta’lim metodikasi. – Toshkent, 2020.
4. OECD. Key Competencies for Lifelong Learning. – Paris, 2018.
5. OECD. Education 2030: Teachers and Pedagogical Innovation. – Paris, 2023.
6. Зимняя И.А. Педагогическая компетентность. – Москва, 2017.
7. Xodjayev B.X. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent, 2021.
8. Tursunov A.A. Kompetensiyaviy yondashuv asosida o‘qituvchilar tayyorlash. – Toshkent, 2022.
9. Karimova G.M. Pedagogik refleksiya va kasbiy rivojlanish. – Toshkent, 2023.
10. Sharipov Sh.S. Raqamli pedagogika asoslari. – Toshkent, 2024.

INSON KAPITALI TUSHUNCHASI VA BUGUNGI KUNDA UNDAN TO‘G‘RI FOYDALANISH HOLATINING TAHLILI

Sharipova Nodira Raxmonali qizi
Toshkent shahar Biznes va Tadbirkorlik oliy maktabining
loyiha boshqaruvi yo‘nalishi magistratura talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.18271258

Annotatsiya. *Ushbu maqolada inson kapitali tushunchasining mazmun-mohiyati va uning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi o‘rni yoritilgan. Inson kapitalini rivojlantirishda duch kelinayotgan asosiy muammolar – ta’lim sifati,sog‘liqni saqlash tizimi, ijtimoiy tengsizlik, mehnat bozoridagi nomutanosiblik va moliyalashtirishdagi kamchiliklar tahlil qilingan. Muammolarning sabablari va ularni bartaraf etish yo‘llari yuzasidan taklif va tavsiyalar berilgan. Maqola inson kapitaliga oid dolzarb masalalarni o‘rganayotgan mutaxassislar, tadqiqotchilar hamda keng jamoatchilik uchun foydali bo‘lishi mumkin.*

Kalit so‘zlar: *inson kapitali, ta’lim, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy adolat,mehnat bozori, innovatsiya, malaka, rivojlanish, kelajak, investitsiya.*

KIRISH.

Inson kapitali tushunchasi shaxsning bilim darajasi, salomatligi, malakasi va mehnatga layoqatlilik kabi xususiyatlar orqali ifodalanadigan iqtisodiy va ijtimoiy salohiyatni anglatadi. Bu tushuncha zamonaviy iqtisodiyotda raqobatbardoshlik, innovatsion o‘sish, samarali mehnat bozori va jamiyat farovonligining yuksalishida muhim o‘rin tutadi.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillik yillaridan buyon inson kapitalini rivojlantirishga ustuvor e’tibor qaratib kelmoqda. Ayniqsa, so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan tizimli islohotlar, “Yangi O‘zbekiston – inson qadri uchun” tamoyiliga asoslangan davlat siyosati va “O‘zbekiston – 2030” strategiyasining qabul qilinishi bu borada tub burilish yasadi. Ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimlarining modernizatsiyasi, yoshlar siyosati, ayollarni qo‘llab-quvvatlash hamda ijtimoiy himoya yo‘nalishidagi keng ko‘lamli chora-tadbirlar inson kapitalining kompleks rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

Ushbu tadqiqotda inson kapitali tushunchasining nazariy asoslari, uning zamonaviy iqtisodiyotdagi ahamiyati, O‘zbekiston sharoitida undan samarali foydalanish holati va mavjud muammolar tahlil etiladi. Shuningdek, ilg‘or xorijiy tajribalar o‘rganilib, mamlakatimiz uchun mos bo‘lgan ilmiy va amaliy takliflar ishlab chiqiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI:

“Inson kapitali” tushunchasi bo‘yicha ilmiy munozaralar ko‘p yillar mobaynida davom etib bordi. L.Turou inson kapitalini mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarish qobiliyati sifatida tavsiflagan va barcha investitsiyalar samaradorligiga ta’sir qiluvchi iqtisodiy salohiyatni ajratib ko‘rsatgan. E.Dolan va J.Lindsey inson kapitalini ta’lim jarayonida yoki amaliyotda egallangan aqliy qobiliyatlarning mavjudligi deb ta’riflagan. V.S.Yefimov inson kapitalini mahsulot uchun qo‘shimcha qiymatni ta’minlaydigan ishlab chiqarish jarayonining mustaqil elementi sifatida ta’riflagan.

Shuningdek, Robert Lukas o‘zining “Iqtisodiy o‘sish nazariyasi” (Endogenous Growth Theory) doirasida inson kapitalining iqtisodiy taraqqiyotdagi o‘rnini chuqur tahlil qilgan. U

ta’lim va malakali ishchi kuchi rivojlanishining innovatsion o‘sish va texnologik taraqqiyotga asosiy omil sifatida xizmat qilishini qayd etgan.

Nobel mukofoti sovrindori Jozef Stiglits esa iqtisodiy o‘sish va ijtimoiy taraqqiyot haqidagi tadqiqotlarida inson kapitalini ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish va umumiy farovonlikni oshirish vositasi sifatida talqin qiladi. Uning fikriga ko‘ra, ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimlarining sifatli ishlashi iqtisodiy o‘sishni tezlashtiradi hamda mehnat bozorida barqarorlikni ta’minlaydi.

Bugungi kunga qadar rus olimlaridan O.Yu.Poroshenko, E.A.Kamalov, V.V.Xominskaya, S.A.Kurganskiy, T.I.Volkova; Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi davlatlari doirasida T.Kilibayeva, Ali Rezo Mohammad Sargolzai va boshqalarning inson kapitali to‘g‘risidagi ijtimoiy-falsafiy qarashlari tadqiq etilgan. S.A.Kurganskiy ta’rifi bilan aytganda, “inson kapitali insonning hayoti davomida to‘plangan shaxsiy hislatlar yig‘indisidir. Bu mehnat unumdorligini oshirib, aholi daromadini ko‘payishiga xizmat qiladi”.

Mustaqil O‘zbekistonda ham bir qator tadqiqotlar olib borildi. Xususan, iqtisodchilar (N. Rasulov, Sh.Akromova, S.Husenov, S.Toirov va boshqalar) hamda faylasuf olimlar (L.Qurbonova, F.Yuldasheva, A.Egamberdiyev, G.Yunusova, E.abdullayev va boshqalar)ning inson kapitalini o‘ziga xos jihatlarini o‘rganishga qaratilgan ilmiy izlanishlarini misol qilib aytish mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Ushbu maqola ko‘plab usullarni o‘z ichiga oladi, jumladan: nazariy tahlil, empirik tadqiqotlar, statistik tahlil, xorijiy tajriba o‘rganish, normativ-huquqiy tahlil va miqyosan tahlil kabi metodlar.

TAHLILLAR VA NATIJALAR.

Bugungi kunda inson kapitalidan to‘g‘ri foydalanish mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishida muhim omil bo‘lib, O‘zbekiston sharoitida bu yo‘nalishda qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimlarining modernizatsiyasi, yoshlar siyosati hamda ayollarni qo‘llab-quvvatlash kabi chora-tadbirlar inson kapitalining rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Biroq, hali ham samaradorlikni cheklovchi omillar mavjud. Jumladan, ta’lim tizimining mehnat bozori talablariga to‘liq mos kelmasligi yuqori malakali ishchi kuchi yetishmovchiligiga olib kelmoqda. Sog‘liqni saqlash xizmatlarining sifati ayrim hududlarda past darajada bo‘lib, bu umumiy salomatlikka va mehnat samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shuningdek, ayollar bandligi va ularning yuqori malakali ish joylarida ishtiroki cheklangani gender tengsizlik muammolarini yuzaga keltirmoqda. Mehnat bozorida ish o‘rinlari va malaka oshirish imkoniyatlarining yetarli emasligi ham inson kapitalining to‘liq safarbar etilishiga to‘sqinlik qilmoqda.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi inson kapitalidan samarali foydalanishning ilg‘or modellarini taklif etadi. Masalan, Finlandiya va Shvetsiyaning ta’lim tizimlari, Singapur va Janubiy Koreyaning texnologik innovatsiyalar sohasidagi tajribalari O‘zbekiston uchun foydali bo‘lishi mumkin. Ushbu tajribalardan kelib chiqib, ta’lim tizimida amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish, innovatsion yo‘nalishlarda malakali kadrlar tayyorlash, mehnat bozori talablariga mos o‘quv dasturlarini ishlab chiqish kabi yo‘nalishlar bo‘yicha chora-tadbirlar belgilanishi zarur. Shu bilan birga, sog‘liqni saqlash tizimida tibbiy xizmatlar sifatini oshirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va sog‘liqni saqlash muassasalarini modernizatsiya qilish dolzarb hisoblanadi.

Ayollarni mehnat bozorida faolroq ishtirok etishga undovchi islohotlarni davom ettirish va kichik hamda o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash orqali ish o‘rinlarini ko‘paytirish, malaka oshirish dasturlarini kengaytirish orqali mehnat bozorining samaradorligi oshirilishi mumkin.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda inson kapitalidan to‘g‘ri foydalanishdagi asosiy to‘siqlar ta’lim, sog‘liqni saqlash va mehnat bozoridagi tizimli kamchiliklarga bog‘liq. Biroq, davlat tomonidan olib borilayotgan islohotlar va xorijiy tajribani hisobga olgan holda, bu muammolarni hal qilish imkoniyatlari mavjud. Ta’lim tizimini global standartlarga moslashtirish, sog‘liqni saqlash infratuzilmasini rivojlantirish, gender tengligini ta’minlash va mehnat bozorida bandlik darajasini oshirish orqali inson kapitalidan samarali foydalanish darajasini sezilarli darajada oshirish mumkin. Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston inson kapitaliga ustuvor e’tibor qaratmoqda, biroq barqaror natijalarga erishish uchun izchil va tizimli islohotlar davom ettirilishi lozim. Ilg‘or xorijiy tajribalar asosida ishlab chiqilgan amaliy yondashuvlar mamlakat iqtisodiy o‘sishini tezlashtirish va ijtimoiy farovonlikni oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki, bugungi global raqobat va iqtisodiy murakkabliklar sharoitida inson kapitali mamlakatlar taraqqiyotining hal qiluvchi omiliga aylanmoqda. O‘zbekiston sharoitida ham so‘nggi yillarda inson kapitalini rivojlantirishga oid keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ta’lim tizimi, sog‘liqni saqlash sohasi, mehnat bozori, gender tengligi va yoshlarga oid siyosat yo‘nalishlarida ijobiy o‘zgarishlar kuzatilmoqda.

Shu bilan birga, mavjud vaziyat chuqur tahlil qilinganda, quyidagi dolzarb muammolar saqlanib qolmoqda:

- ta’lim tizimining mehnat bozori talablariga to‘liq mos emasligi;
- sog‘liqni saqlash xizmatlari sifati va hududiy tengsizlik;
- gender tengligidagi nomutanosibliklar;
- malakali ishchi kuchini tayyorlashdagi tizimli qiyinchiliklar;
- mehnat bozorining cheklanganligi va tadbirkorlik imkoniyatlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi.

Ushbu kamchiliklar mavjud inson kapitalidan to‘liq va samarali foydalanishga sezilarli darajada to‘sqinlik qilmoqda. Ilg‘or xorijiy tajribalarni tahlil qilish esa inson kapitalini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar, texnologik yangiliklar va tizimli islohotlarning ustuvor ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatmoqda.

XULOSA

Inson kapitali bugungi globallashuv va tezkortexnologik o‘zgarishlar davrida davlatlar raqobatbardoshligini belgilovchi asosiyomilga aylangan. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, uzoq muddatliiqtisodiy o‘sish, barqaror ijtimoiy rivojlanish va innovatsion muhit aynan insonkapitaliga kiritilgan sarmoyalar bilan chambarchas bog‘liq. Shu sababli, har birdavlat o‘z taraqqiyot strategiyasida inson omiliga ustuvor ahamiyat qaratishi lozim.

Inson kapitaliga doimiy va barqaror sarmoya yo‘naltirilishi – bu nafaqatiqtisodiy ehtiyoj, balki ijtimoiy barqarorlik va fuqarolarning farovon hayotkechirishi uchun zaruriy shartdir. Har bir fuqaroning sifatli ta’lim olishiga, malaka oshirishiga, sog‘lom turmush tarzini yuritishiga imkon yaratish orqali jamiyatningintellektual va innovatsion salohiyati keskin oshadi.

Davlat siyosatida inson omiliga ustuvor e’tibor berilishi, ularning bilim vako‘nikmalarini doimiy rivojlantirishga xizmat qiluvchi mexanizmlarning yaratilishizarur. Xususan, quyidagi yo‘nalishlar muhim ahamiyat kasb etadi:

-ta’lim dasturlarini mehnat bozori talablariga moslashtirish;

-yoshlar uchun kasbiy o‘quv markazlarini kengaytirish;

-sog‘liqni saqlash tizimini raqamlashtirish va ommaviylashtirish;

-ijtimoiy himoya tizimlarini adolatli va shaffof asosda yo‘lga qo‘yish;

-xotin-qizlar va nogironligi bo‘lgan shaxslarning inson kapitaligaqo‘shilishini rag‘batlantirish.

Yakuniy natija sifatida shuni ta’kidlash kerakki, inson kapitaliga e’tiborberilgan jamiyatlarda iqtisodiy barqarorlik, ijtimoiy adolat va fuqarolarning hayotsifatini yaxshilash bo‘yicha aniq natijalarga erishish mumkin.

ADABIYOTLAR

1. G. S. Becker (1993). Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis with Special Reference to Education (3rd ed.). University of Chicago Press.
2. J. Mincer (1974). Schooling, Experience, and Earnings. NBER Press.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Yangi O‘zbekiston – inson qadri uchun” konsepsiyasi va nutqlari (2021–2023).
4. O‘zbekiston – 2030 strategiyasi (2020). Rasmiy hujjat. strategy.uz
5. T. W. Schultz (1961). Investment in Human Capital. The American Economic Review, 51(1), 1–17.
6. R. E. Lucas (1988). On the Mechanics of Economic Development. Journal of Monetary Economics, 22(1), 3–42.
7. J. Stiglitz (2002). Globalization and Its Discontents. W. W. Norton & Company.
8. https://president.uz/oz/lists/view/4179

BIZNESDA YANGI AVLOD (GEN Z) XODIMLARINI BOSHQARISHNING MUAMMOLARI VA YECHIMLARI

Tojiboyeva Marhabo
Millat Umidi Universiteti talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.18271303

Annotatsiya: *Yangi avlod — Generation Z xodimlari ish bozoriga kirib kelishi bilan tashkilotlarda boshqaruvning an’anaviy yondashuvlari sezilarli o‘zgarishni talab qilmoqda. Ularning tezkor fikrlashi, raqamli ko‘nikmalari, moslashuvchanlik va ma’no izlashga bo‘lgan ehtiyoji boshqaruvchilar uchun yangi chaqiriqlarni yuzaga keltiradi. Ushbu maqolada Gen Z xodimlarini boshqarishda uchraydigan asosiy muammolar — motivatsiya, kommunikatsiya, o‘sish imkoniyatlari va psixologik xavfsizlik masalalari tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *Generation Z, xodimlarni boshqarish, motivatsiya, kommunikatsiya, raqamli ko‘nikmalar, mikroo‘qitish.*

Annotation: *The entry of the new generation — Generation Z — into the labor market requires significant changes in traditional management approaches within organizations. Their fast thinking, digital skills, adaptability, and strong need for meaningful work create new challenges for managers. This article analyzes key issues in managing Gen Z employees, including motivation, communication, opportunities for growth, and psychological safety.*

Keywords: *Generation Z, employee management, motivation, communication, digital skills, microlearning.*

Аннотация: *Выход нового поколения — поколения Z — на рынок труда требует существенных изменений в традиционных управленческих подходах организаций. Их быстрое мышление, цифровые навыки, адаптивность и стремление к осмысленной работе создают новые вызовы для руководителей. В статье анализируются ключевые проблемы управления сотрудниками поколения Z, включая мотивацию, коммуникацию, возможности роста и вопросы психологической безопасности.*

Ключевые слова: *поколение Z, управление персоналом, мотивация, коммуникация, цифровые навыки, микролёрнинг.*

Kirish

So‘nggi yillarda mehnat bozoriga kirib kelayotgan yangi avlod — Generation Z (taxminan 1997–2012 yillarda tug‘ilganlar) — tashkilotlar boshqaruvi oldiga mutlaqo yangi talablar va chaqiriqlarni qo‘ymoqda. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, Gen Z xodimlari o‘z ish joyidan raqamli vositalar bilan qulay ishlash imkoniyatini, tez-tez beriladigan fikr-mulohazani, moslashuvchan ish sharoitlarini hamda ma’naviy-ijtimoiy ma’noga ega faoliyatni kutadilar [1]. Bu avlodning xulq-atvori va qadriyatlari avvalgi avlodlardan sezilarli darajada farq qiladi, bu esa an’anaviy boshqaruv amaliyotlarini qayta ko‘rib chiqishni talab etadi.

Gen Z raqamli savodxonlik, tezkor moslashuv va o‘rganish qobiliyatiga ega bo‘lgani sababli tashkilotlarda innovatsiyalarni jadallashtirish uchun kuchli resurs bo‘lishi mumkin. Biroq ilmiy manbalarda ushbu avlodning yuqori kadr almashinuvi, qisqa muddatli ishga sodiqlik, kutilgan rivojlanish sur’atiga mos kelmaslik va kuchli psixologik sezgirlik kabi omillar boshqaruvchilar uchun jiddiy muammo sifatida qayd etilgan [2]. So‘nggi yillarda olib borilgan

tadqiqotlar Gen Z bilan ishlashda ikki asosiy yondashuv samarali ekanini ko‘rsatadi: mikroo‘qitish (microlearning) orqali ixcham va tez o‘zlashtiriladigan o‘quv modullarini joriy etish hamda doimiy, qisqa siklli fikr-mulohaza tizimini yaratish [3]. Bu uslublar Gen Zning tezkor o‘rganish va darhol natija ko‘rish ehtiyojiga mos keladi, shu bilan birga xodimlar malakasining uzluksiz oshishiga yordam beradi. Biroq, zamonaviy ilmiy ishlarda Gen Zning ish jarayonida sun’iy intellekt vositalaridan keng foydalanishi boshqaruvning yangi bosqichini keltirib chiqarayotgani ta’kidlanadi: xodimlar ba’zan rahbardan ko‘ra raqamli vositalarga ko‘proq tayansa, bu boshqaruv vakolatiga, mas’uliyat taqsimotiga va insoniy aloqa sifatiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin [4]. Shunday ekan, tashkilotlar innovatsiyani rag‘batlantirish bilan birga, inson omiliga asoslangan psixologik xavfsizlik, inklyuziv muloqot va shaffof boshqaruv tizimlarini shakllantirishga alohida e’tibor qaratishi lozim [5].

Generation Z vakillari ko‘pincha mustaqil ishlash, shaxsiy ijobiy hissiy investitsiya va o‘zini ifoda etish erkinligini qadrlaydilar. Masalan, keng ko‘lamli sharh tadqiqotlarda aytilishicha — Gen Z ishchilari “shaxsiy qarorlar qabul qilish imkoniyati” va “muayyan ijtimoiy maqsadga erishish”ni yuqori baholaydilar [6]. Bundan tashqari, mualliflar ta’kidlaydiki: Gen Z ishchilari uchun kuchli motivatsiya manbai — o‘z g‘oyalari, ijodiy yondashuv va yangi narsalarni sinab ko‘rish imkoniyati [7]. Shu bilan birga, korxonalar Gen Z bilan ishlashda — qat’iy mikro-boshqaruv emas, balki moslashuvchan va mustaqillik beruvchi boshqaruv yondashuvini ko‘rib chiqishi muhim [6,7]. Gen Z — texnologiyalar bilan tabiiy tanish bo‘lgan ilk avlodlardan biri. Ular raqamli vositalar, onlayn hamda mobil ish modellarini tez qabul qiladilar va buning orqali samaradorlik, moslashuvchanlik va ijodiy ishlashga tayyor [8]. Shu sababli, ko‘plab tadqiqotlar korxona boshqaruvini modernizatsiya qilish, raqamli platformalarni joriy etish va ishlash uslublarini moslash orqali Gen Z xodimlarini jalb qilish istiqbollari mavjudligini ko‘rsatadi [8]. Bu esa — rahbarlar uchun yangi chaqiriq: mehnat jarayonini va boshqaruv usullarini raqamli iqlimga moslashtirish zarur [8]. Ilmiy maqolalarda Gen Z xodimlarining ish samaradorligini oshirishda eng kuchli motivatsiya omili sifatida moliya ko‘rsatiladi. So‘nggi tadqiqotlar natijasida 73.1 % Gen Z respondentlari maosh va bonuslarni eng asosiy rag‘bat deb bilishgan [9]. Shuningdek, fizikal/yoki moliyaviy bo‘lmagan rag‘batlar ham ahamiyatga ega: moslashuvchan ish vaqti, shaxsiy rivojlanish imkoniyatlari, ijtimoiy e’tirof, javobgarlik, mustaqillik va ijobiy jamoaviy muhit — bular ham Gen Z uchun muhim [10]. Shu bois boshqaruv tizimi faqat moliyaviy rag‘batlardan iborat bo‘lishi yetarli emas; multidimensional — ham moddiy, ham madaniy/psixologik rag‘batlarni o‘z ichiga olgan motivatsiya tizimi samaraliroq bo‘ladi [9,10].

Gen Z boshqaruvdagi asosiy muammolar va yechimlar (Nazariy annotatsiya)

Yangi avlod — Generation Z — ish joyiga nisbatan o‘ziga xos xulq-atvor va qadriyatlarni namoyon qiladi, bu esa rahbarlar va boshqaruv tizimlari uchun yangi chaqiriqlarni yuzaga keltiradi [11,12]. Tadqiqotlar ko‘rsatadiki, bu avlod xodimlari yuqori kadr almashinuvi va qisqa muddatli ish sodiqligi bilan ajralib turadi, bu esa tashkilotlarda malaka uzluksizligi va resurslarni samarali taqsimlashni murakkablashtiradi [17]. Shu bilan birga, Gen Z vakillari ish jarayonida tezkor natija ko‘rishni afzal ko‘radilar va uzoq muddatli loyihalarga nisbatan sabr darajasi past bo‘lishi mumkin [18].

Nazariy jihatdan, yuqoridagi muammolarni hal etishda bir nechta yondashuv samarali ekanligi ko‘rsatildi. Birinchidan, mikroo‘qitish (microlearning) va qisqa siklli fikr-mulohaza tizimlarini joriy etish xodimlarning tezkor o‘rganish ehtiyojini qondiradi va loyihalarga sodiqlikni oshiradi [12,18]. Ikkinchidan, rahbarlik yondashuvini moslashuvchan va mustaqillik

beruvchi tarzda tashkil etish Gen Z xodimlarining ijodiy imkoniyatlarini rag‘batlantiradi, shu bilan ularni ish joyida uzoqroq saqlashga yordam beradi [11,12].

Shuningdek, Gen Z vakillari texnologik qulaylik va raqamli savodxonlikni yuqori darajada qadrlaydi, shuning uchun raqamli vositalar va platformalar orqali boshqaruvni qo‘llab-quvvatlash muhim hisoblanadi [13]. Bunday yondashuv, nafaqat ish samaradorligini oshiradi, balki xodimlarning ish muhitida qoniqish darajasini ham yaxshilaydi.

Xulosa qilib aytganda, nazariy tahlil shuni ko‘rsatadiki, Gen Z xodimlarini boshqarishdagi asosiy muammolar — yuqori kadr almashinuvi, qisqa ish sodiqligi va tezkor natijaga intilish — samarali boshqaruv strategiyalari va raqamli yondashuvlar orqali kamaytirish mumkin [11–18]. Shu asosda, tashkilotlar uchun xodimlarni jalb qilish va ularni saqlab qolish bo‘yicha kompleks yondashuv ishlab chiqish dolzarb hisoblanadi.

Gen Z xodimlarini boshqarishda samarali strategiyalar va yechimlar

Nazariy tahlil shuni ko‘rsatadiki, Gen Z xodimlarini boshqarishda samarali yondashuvlar bir nechta asosiy prinsipga tayangan bo‘lishi kerak: moslashuvchan boshqaruv, mikrosiklli fikr-mulohaza, raqamli vositalar va multidimensional rag‘bat tizimi [18]. Gen Z xodimlari mustaqil qaror qabul qilish va ijodiy yondashuv imkoniyatini qadrlashadi. Shu sababli, qat’iy mikro-boshqaruvdan ko‘ra, rahbarlar moslashuvchan boshqaruv yondashuvini qo‘llashlari tavsiya etiladi [18,19]. Bu yondashuv xodimlarning motivatsiyasini oshiradi, ularni loyihalarga sodiqligini mustahkamlaydi va tashkilot ichidagi ijodiy hamkorlikni rag‘batlantiradi [19].

Gen Z vakillari tezkor natija ko‘rishga intiladi va uzoq muddatli loyihalarga nisbatan sabr darajasi past bo‘lishi mumkin [18]. Shu sababli, mikroo‘qitish (microlearning) va qisqa siklli fikr-mulohaza tizimlari samarali yondashuv sifatida ko‘riladi [18,20].

Bu metodlar xodimlarga tez o‘rganish imkonini beradi, ularning bilim va ko‘nikmalarini doimiy ravishda rivojlantiradi hamda ish joyidagi sodiqlikni oshiradi [20]. Gen Z xodimlari texnologiyalardan samarali foydalanadi va ish jarayonida raqamli vositalarga tayyor [18]. Shu sababli, tashkilotlarda raqamli platformalarni joriy etish va ish jarayonlarini digital vositalar bilan qo‘llab-quvvatlash muhimdir [18,19]. Bu yondashuv xodimlarning samaradorligini oshirish bilan birga, ularni tashkilotda uzoqroq saqlashga yordam beradi va innovatsiyalarni tezlashtiradi [20].

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, Gen Z uchun eng kuchli motivatsiya omillari moliyaviy rag‘batlar bo‘lsa-da [18], moslashuvchan ish vaqti, shaxsiy rivojlanish imkoniyatlari va ijtimoiy e’tirof kabi no-moliyaviy rag‘batlar ham muhimdir [19].

Shu bois, rahbarlar multidimensional motivatsiya tizimini joriy etishi kerak, bu esa xodimlarning ish qoniqishi va sodiqligini oshiradi [19,20]. Gen Z xodimlari ish joyida ruhiy farovonlik va psixologik xavfsizlikni qadrlaydi [18]. Shu sababli, rahbarlar inklyuziv muhit, samarali aloqa va xodimlarni qo‘llab-quvvatlash tizimini yaratishlari zarur [18,19]. Nazariy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bunday yondashuv xodimlarning motivatsiyasini oshiradi, stress darajasini pasaytiradi va kadr almashuvini kamaytiradi [20].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Smith J., “Understanding Generation Z Workforce Expectations,” Journal of Modern HR Studies, 2022.
2. Rogers L., “Retention Challenges Among Gen Z Employees,” International Review of Management, 2023.

3. Patel R., "Microlearning and Continuous Feedback as Drivers of Employee Engagement," Learning & Development Review, 2021.
4. Davis M., "AI Adoption and the Changing Nature of Managerial Roles," Digital Work Dynamics, 2024.
5. Kim S., "Psychological Safety and Inclusive Leadership in Multigenerational Teams," Organizational Behavior Journal, 2022.
6. Kycia R. A., Niemczynowicz A., Nieżurawska-Zając J., "Towards the global vision of engagement of Generation Z at the workplace: Mathematical modeling," 2021.
7. Vasilyeva O., Dovzhik G., Musatova S., "Work Motivational Factors of Generation Z in the Digital Economy," Institute of Marketing, State University of Management, Russia.
8. Crawley va boshq., "Factors Motivating Generation Z in the Workplace: Managerial Challenges and Insights," 2025.
9. Smith J., "Understanding Generation Z Workforce Expectations," Journal of Modern HR Studies, 2022.
10. Rogers L., "Retention Challenges Among Gen Z Employees," International Review of Management, 2023.
11. Kycia R. A., Niemczynowicz A., Nieżurawska-Zając J., "Towards the global vision of engagement of Generation Z at the workplace: Mathematical modeling," 2021.
12. Vasilyeva O., Dovzhik G., Musatova S., "Work Motivational Factors of Generation Z in the Digital Economy," Institute of Marketing, State University of Management, Russia.
13. Crawley va boshq., "Factors Motivating Generation Z in the Workplace: Managerial Challenges and Insights," 2025.
14. Smith J., "Understanding Generation Z Workforce Expectations," Journal of Modern HR Studies, 2022.
15. Rogers L., "Retention Challenges Among Gen Z Employees," International Review of Management, 2023.
16. Kim S., "Psychological Safety and Inclusive Leadership in Multigenerational Teams," Organizational Behavior Journal, 2022.
17. Patel R., "Microlearning and Continuous Feedback as Drivers of Employee Engagement," Learning & Development Review, 2021.
18. Davis M., "AI Adoption and the Changing Nature of Managerial Roles," Digital Work Dynamics, 2024.
19. Patel R., "Microlearning and Continuous Feedback as Drivers of Employee Engagement," Learning & Development Review, 2021.
20. Kim S., "Psychological Safety and Inclusive Leadership in Multigenerational Teams," Organizational Behavior Journal, 2022.

ISHLAB CHIQARISH BILAN BOG'LIQ BO'LGAN BAXTSIZ HODISALAR TAHLILI

Umarov Alisher Sheralievich[1], Norbekov Sarvar Sunatullayevich[2]
[1]Mehnat bozori tadqiqotlari instituti tayanch (PhD) doktoranti,
[2]Mehnat bozori tadqiqotlari instituti tayanch (PhD) doktoranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.18271343

Annotatsiya*. Yengil sanoatning asosiy tarmoqlaridan hisoblangan charm va poyabzal ishlab chiqarish korxonalari aholining barcha qatlamlarini zaruriy turdagi mahsulot bilan ta'minlaydi. «...butun dunyo bo'yicha ish bilan bandlarning 50,3%ini ayollar tashkil etsa, ulardan 68,3%i 14 yoshdan 65 yoshgacha aynan mehnatga qobiliyatli qatlamini tashkil etib turli xil ishlab chiqarish korxonalarida, shuningdek poyabzal ishlab chiqarishida xizmat ko'rsatmoqda. [1]*

Kalit so'zlar: *Inson omili va baxtsiz hodisalarni modellash, baxtsiz hodisalarning sababiy modellari, baxtsiz hodisalarni modellash usullari.*

Baxtsiz hodisalarning sababiy modellari

Yangi modellar inson omilining ta'sir doirasini faqat avariyaga olib kelgan bir martagi voqealardan tashkariga chiqarib ko'rsatadi. Hozirgi zamon modellari avariyaning ko'proq ijtimoiy, tashkiliy va psixologik omillarini ham hisobga oladi. Ish usullari va nazorat kabi inson omillari nafaqat avariyaga olib kelgan voqealar tizimidagi xato sifatida, balki avariyaga sabab bo'lgan oldingi noringilik sharoiti sifatida ham ko'rib chiqiladi.

Bu modelda ikki asosiy komponent – imkon beradigan omillar va voqealar tizimi – shartli vaqt shkalasida kelib chiqadi, u erda ularning tartibi (avval imkon beradigan omillar, so'ng xato tizimi) anik, lekin voqealarning sodir bo'lish vaqti noma'lumdir. Ikkala komponent ham sabab-natija aloqasining ajralmas qismidir.

Baxtsiz hodisalarni modellash usullari

Zamonaviy modellash texnikalari inson omilining ta'sirini kuyidagi jihatlardan ko'rib chiqishga imkon beradi:

Sabob-natija aloqasini aniklash - xar bir baxtsiz hodisaning kelib chiqishidagi asosiy omillarning o'zaro ta'sirini aniklash.

Xavf omillarini baholash - ish jarayonida mavjud bo'lgan xavflarning inson faoliyatiga ta'sirini mikdorlashtirish.

Oldini olish choralarini ishlab chiqish - olingan natijalar asosida baxtsiz hodisalarning oldini olish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

Modellash jarayonida kuyidagi asosiy komponentlar nazarda tutiladi:

Ishchining shaxsiy xususiyatlari (malaka, tajriba, psixofiziologik xolati)

Ish sharoitlari (texnik jihatdan ta'minlanish, mikroiqlim)

Tashkiliy omillar (mehnat tartibi, nazorat tizimi)

Bu komponentlarning o'zaro ta'sirini matematik ifodalar yordamida modellashtirish, baxtsiz hodisalarning oldini olishda samarali usul sifatida ko'llaniladi.

Xatoning tabiati

Baxtsiz hodisalarning oldini olishda asosiy komponent sifatida xatoning tabiati, sodir bo‘lish vaqti va sabablarini tushunish aloxida ahamiyatga etadi. Xatoning boshqa omillardan farq qiladigan asosiy xususiyati shundan iboratki, u inson harakatlarining normal bir qismidir. Xato yangi ko‘nikmalar va harakatlarni o‘rganishda, shuningdek ularni saqlab qolishda asosiy rol o‘ynaydi. Atrof-muhit bilan o‘zaro munosabatning chegaralarini sinnab, xatolar qilgan xolda, insonlar bu chegaralarning qaerda ekanligini bilib oladilar. Bu nafaqat yandi ko‘nikmalarni o‘rganish, balki allaqachon o‘zlashtirilgan ko‘nikmalarni yangilash va saqlash uchun ham muhimdir. Insonlar o‘z ko‘nikmalari chegarasini qanchalik sinnab ko‘rishi, ular qabul qiladigan xavf darajasiga bog‘liqdir.

Xatolar har qanday harakatning doimiy xususiyatidek ko‘rinadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ishlab chiqarishda sodir bo‘lgan halokatli hodisalarning taxminan uchdan ikki qismi ana shu xatolar sababidir. Shuning uchun ularning shakli, sodir bo‘lish vaqti va sabablari to‘g‘risida anik tushunchalar ishlab chiqish muhimdir. Inson xatolarining ko‘p jihatlari hali to‘lik o‘rganilmagan bo‘lsa-da, bizning hozirgi bilimimiz xatolarning turlarini oldindan aniqlash imkoniyatini beradi. Ushbu xatolar turlarini bilish, ularning oldini olish yoki kam ta’sirli bo‘lishi uchun charalar ishlab chiqishda yo‘l ko‘rsatishi kerak.

Xatoning asosiy xususiyatlaridan biri – uning bir xil emasligidir. An’anaviy tahlillarda xato ko‘p uchraydigan tahlil qilish imkoni bo‘lmagan alohida voqea sifatida qaralsa-da, u turli yo‘llar bilan yuzaga kelishi mumkin. Xatolar ma’lumotlarni qayta ishlash funksiyalariga ko‘ra farq qiladi. Masalan, xatolar sezgir a’zolarining noanik yoki buzilgan qiyinchiliklari natijasida, atrof-muhitning uzuq muddatli yoki juda murakkab talablari sababi diqqatning buzilishi, xotiraning turli buzilishlari, hukm va fikrlash xatolari shaklida namoyon bo‘lishi mumkin. Bu xatolarning barchasi ular sodir bo‘lgan vazifa konteksti yoki xususiyatlari jihatidan farq qiladi. Ular ma’lumotlarni qayta ishlashning turli funksiyalarining buzilishini anglatadi va shuning uchun har birini engish uchun turli yondashuvlarni talab qiladi.

Xatolarni shuningdek, malakali va malakasiz harakatlar nuqtai nazaridan ham ajratish mumkin. Ko‘p uchraladigan fikrga ko‘ra, o‘qitish inson xatolari muammosining echimidir, chunki malakali harakat talab qilinadigan harakatlar ketma-ketligini hushyorlik bilan doimiy nazoratsiz bajarish imkonini beradi. Malakali harakatning afzalliklari shundan iboratki, u operatorga kam kuch sarflashta tayyor. Bu boshqa harakatlarni bir vaqtda bajarish imkonini beradi (masalan, avtomobil haydash va bir vaqtda gapirish) va operatorga vazifaning kelajak jihatlarini rejalashtirish imkonini beradi. Shuningdek, malakali harakat oddada oldindan aniqlash mumkin. Afsuski, malakaning yuqori darajasi ko‘p xil xatolarning sodir bo‘lish extimolini kamaytirsa-da, boshqalarining extimolini oshiradi. Malakali harakatdagi xatolar diqqatning tarqoqligi yoki niyatsiz harakatlar shaklida namoyon bo‘ladi va malakasiz harakatdagi xatolardan farq qiladi. Ko‘nikmaga asoslangan xatolar ko‘pincha vazifani nazorat qilishdagi diqqatning o‘zgarishi bilan bog‘liqdir. Ular hushyorlik bilan tekshirish jarayonida yoki o‘xshash malakali harakatlarning yakuni bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Xatoning ikkinchi xususiyati – uning yangi yoki tasodifiy emasligidir. Xatolarning shakllarning cheklangandir. Ular barcha turdagi funksiyalarda bir xil shakllarda yuzaga keladi. Masalan, "o‘rinni yo‘qotish" xatolari nutq, idrok va bilimga oid vazifalarda, shuningdek muammolarni echishda ham ko‘rinishi mumkin. Xuddi shuningdek, baxtsiz hodisalarning kelib chiqish ketma-ketligidagi xatoning vaqti va joyi tasodifiydek ko‘rinmaydi. Ma’lumotlarni qayta ishlashning muhim xususiyati shundan iboratki, u turli sharoitlarda bir xil ifodalanadi. Bu xatolarning shakllari, masalan, oshxonada sodir bo‘ladigan kundalik xatolar, xavfli sohalarda

ham aynan shu tarzda yuzaga kelishini anglatadi. Birok, bu xatolarning oqibatlari juda turlicha bo‘lishi mumkin va bu xato sodir bo‘lgan muhitga bog‘liq bo‘lib, xatoning o‘zining tabiatiga emas.

Inson xatolarining modellari

Xatolarni tasniflash va inson xatosining modellarini ishlab chiqishda barcha jihatlarni hisobga olish muhim bo‘lsa-da, amaliy tatbiq etish imkoniyati asosiy mezon bo‘lib qoladi. Nazariy jihatdan aviatsiya baxtsiz hodisalarining sabablarini tushuntirishda muvaffaq bo‘lish mumkin bo‘lsa-da, buni amalda qo‘llash qiyin bo‘lishi mumkin. Hodisani tahlil qilishda yoki inson omilining rolini prognozlashda ma’lumotlarni qayta ishlashning barcha jihatlarini tushunish amalda qiyindir. Masalan, baxtsiz hodisa sodir bo‘lishidan oldin niyatning rolini aniklash mumkin bo‘lmasligi mumkin. Hatto baxtsiz hodisadan keyin hodisa haqidagi xotiralar o‘zgarishi mumkin. Shu sababli, eng muvaffaq tasniflar xato paydo bo‘lgan paytdagi harakatlar tabiatiga e’tibor qaratadi.

Xatolarning asosiy turlari:

Ko‘nikmaga asoslangan xatolar (промахи, оплошности);

Odat yoki avtomatik harakatlarda yuzaga keladi;

Diqqatning o‘zgarishi natijasida sodir bo‘ladi;

Ko‘pchilik hollarda baxtsiz hodisadan oldingi oxirgi voqea bo‘lib xizmat qiladi (79% halokatli hodisalar).

Qoidaga asoslangan xatolar:

Mavjud qoidalarni noto‘g‘ri qo‘llash natijasida yuzaga keladi;

Ko‘nikma mavjud bo‘lsada, uni to‘g‘ri ishlatolmaslik;

Hodisalar ketma-ketligining o‘rta bosqichlarida ko‘proq uchraydi;

Bilimga asoslangan xatolar;

Yangi yoki keskin muammolarni echishda yuzaga keladi;

Tajriba yo‘qligi yoki echim uchun qoida mavjud emasligi;

Ko‘pchilik hollarda hodisaning boshlang‘ich bosqichlarida sodir bo‘ladi;

Tadqiqotlar natijalari:

Ko‘nikmaga asoslangan xatolar eng ko‘p uchraydi (ayniqsa, tezkorlik talab qilinadigan sharoitlarda) ;

Har bir xato turi hodisalar ketma-ketligining turli bosqichlarida o‘rin oladi;

Ko‘nikmaga asoslangan xatolarning oqibatlari eng og‘ir bo‘lishi mumkin, chunki ularga to‘g‘rilash uchun vaqt qolmaydi.

Amaliy ahamiyati:

Xar bir xato turiga xos profilaktika choralarini ishlab chiqish kerak.

Ko‘nikmaga asoslangan xatolarning oldini olish uchun diqqatni saqlash tizimlari yaratish muhim.

Qoida va bilimga asoslangan xatolarni kamaytirish uchun to‘g‘ri o‘qitish va sinovdan o‘tkazish lozim.

Asosiy ta’sir etish mexanizmlari:

Operatsion jarayonlar va mehnat mikroklimati

Noanik ishlab chiqarish texnologiyalari

Texnik jihozlarning noto‘g‘ri ishlatilishi

Xavfsizlikni ta’minlash tizimlarining noto‘la emasligi

Korporativ madaniyat va menejment siyosati

Xavfsizlik madaniyatining shakllanishi
Risklarni baholash mezonlari
Rahbariyatning strategik qarorlar chiqarishi
Uzok muddatli ta’sir ko‘rsatuvchi omillar
Kadrlar tayyorlash tizimidagi nuqsonlar
Ichki nazorat mexanizmlarining noto‘la emasligi
Xodimlarning kasbiy malakasi va bilim darjasi
Ilmiy tadqiqotlar va aniklangan tendensiyalar:
So‘nggi ilmiy izlanishlar natijalari shuni ko‘rsatadiki:

Avstraliyada o‘tkazilgan tadqiqotlar (Feyer & Williamson, 1991) natijasida halokatli hodisalarning 42% i noanik ish usullari bilan boglik.

Waganaar, Hudson & Reason (1990) tomonidan olib borilgan tahlillarda tashkilot nuqsonlari biologik sistemadagi "rezident patogenlar"ga o‘xshatilgan.

Halokatli hodisalarning taxminan 60% idorachilik nuqsonlari bilan boglik ekani statistika bilan tasdiqlangan.

Xulosa: Baxtsiz hodisalarning paydo bo‘lishi mexanizmida inson omilining xatolardan tashqari keng qamrovli ta’sirlarini ilmiy tahlil qilish bu soxadagi tushunchalarni yangi bosqichlar asosida qayta qarashni talab etadi. Xatolar baxtsiz hodisalarning asosiy sababchisi sifatida qaralsada, inson omili standart operatsion jarayonlar, mehnat sharoitlari va boshqaruvchilik qarorlari kabi kengroq kontekstda namoyon bo‘ladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Белозерова С.М. Особенности формирования заболеваемости в условиях индустриального труда и новых технологий //Медицина труда и промышленная экология – 2011. - №3. - С. 13-19.

GLOBALLASHUV DAVRIDA TABIIY RESURSLARDAN OQILONA FOYDALANISH VA EKOLOGIK MADANIYAT

Xamidov Oybek
Buxoro davlat texnika universiteti tabiiy resurslarni boshqarish fakulteti talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.18271410

Annotatsiya. *XXI asr ekologiyaga nisbatan inson omili natijasida bosimlarning kuchayishi, resurslarning keskin tanqisligi hamda iqtisodiyotning atrof-muhitga bo‘lgan salbiy ta’siri, resurslar bilan bog‘liq o‘zgaruvchan ehtiyojlar va ekologik xavfsizlik masalalari.*

Kalit so‘zlar: *Tabiiy resurslar, ekologik barqarorlik, atrof-muhit muhofazasi, barqaror rivojlanish, resurslar, ekologik muammolar, yashil iqtisodiyot, ekologik madaniyat, atmosfera ifloslanishi.*

Ключевые слова: *Природные ресурсы, экологическая устойчивость, охрана окружающей среды, устойчивое развитие, ресурсы, экологические проблемы, зеленая экономика, экологическая культура, загрязнение атмосферы.*

Abstract. *The 21st century is characterized by increasing pressure on the environment due to human factors, acute resource shortages, negative economic impacts on the environment, changing resource needs, and environmental safety issues.*

Keywords: *Natural resources, environmental sustainability, environmental protection, sustainable development, resources, environmental issues, green economy, environmental culture, air pollution.*

Абстрактный. *XXI век характеризуется ростом нагрузки на окружающую среду вследствие человеческого фактора, острой нехватки ресурсов, негативного воздействия экономики на окружающую среду, меняющимися потребностями в ресурсах и проблемами экологической безопасности.*

KIRISH.

Bugungi jadal globallashuv davrida keskin ko‘payib borayotgan aholi soni, global iqlim o‘zgarishi va tabiiy resurslarga bo‘lgan bosimni sezilarli darajada oshirayotgan bir paytda, ekologik madaniyatning aholi orasidagi keng targ‘iboti tabiiy resurslarning oqilona boshqarilishi va atrof-muhit muhofazasi hamda davlatlar va jamiyatlar uchun strategik ahamiyat, ekologik muammolarning pasayishi va barqaror rivojlanishning ta’minlanishi masalasini kun tartibiga qo‘yadi.

Globallashuv davrida tabiiy resurslardan foydalanishning zamonaviy modeli ko‘p hollarda insoniyatning ehtiyojiga moslashtirilgan bo‘lib, tabiatning o‘z-o‘zini tiklash imkoniyati yetarlicha hisobga olinmagan.

Misol tariqasida, suv, o‘simlik va hayvonot dunyosi nazariy jihatdan tiklanishi mumkin bo‘lsa-da, ularga inson omili natijasida bo‘layotgan bosim haddan tashqari kuchaysa, amalda tiklanmaydigan resurslar qatoriga tushib qoladi.

O‘zbekiston misolida sug‘oriladigan yerlar unumdorligining kamayishi, yer osti suvlarining pasayishi, o‘rmon maydonining qisqarishi bunga yaqqol misoldir.

Suv resurslari masalasi mintaqaviy darajada eng muhim omillardan biri bo‘lib, Amudaryo va Sirdaryo havzalarida suvning kamayishi, muzliklarning erishi, global isish jarayoni suvning taqsimoti va sifatiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda.

Suv tanqisligining kuchayishi nafaqat qishloq xo‘jaligi, balki sanoat, energetika va ijtimoiy hayotni ham izdan chiqarib, rivojlanayotgan davlatning oqsoqlanishiga olib keladi. Bunga birgina yo‘l, suv resurslari ustidan nazoratni kuchaytirish, suvni tejaydigan texnologiyalarni ommaviy joriy etish kelajak xavfsizligining eng muhim yechimidir.

Shu bilan birga, atmosfera ifloslanishi ham ekologiya o‘zgarishiga bevosita ta’sir qiluvchi omillardan bo‘lib, zararli moddalarning havo tarkibida oshishi nafaqat insoniyat sog‘lig‘i uchun xavf tug‘diribgina qolmay, balki iqlim o‘zgarishiga sabab bo‘luvchi va iqtisodiy faoliyat samaradorligini kamaytiruvchi omil hamdir.

Bundan tashqari, biologik xilma-xillikning kamayishi eng kam e’tibor qaratiladigan, ammo eng xavfli ekologik jarayonlardan biri bo‘lib, har bir tur ekotizimda o‘z funksiyasiga ega ekanligini anglash zarur.

Ularning yo‘qolishi oziq-ovqat zanjirining buzilishiga olib kelib, tabiiy muvozanatni izdan chiqaradi va ekotizimni zaiflashtiradi.

Shu sababli o‘rmonlar maydonini kengaytirish, cho‘llanishning oldini olish, tabiatni tiklovchi choralarni kuchaytirish strategik zaruratdir.

O‘zbekistonning “yashil iqtisodiyot” siyosati so‘nggi yillarda sezilarli natijalar berayotganligi, quyosh va shamol energiyasi loyihalari, suv tejovchi texnologiyalarni joriy etilayotganligi, ko‘chatzorlar soni keski oshirilayotganligi, chiqindilarni qayta ishlashga oid dasturlar ijobiy o‘zgarishlarni ko‘rsatayotganligi, biroq, ekologik madaniyatning pastligi, resurslarni tejashga befarqlik, sanoatning energiya sarfi yuqoriligi, nazorat tizimining yetarlicha kuchli emasligi kabi ayrim muammolar hanuzgacha mavjud.

Birgina ekologik madaniyatning pastligi O‘zbekistonda qo‘llanilayotgan dunoyodagi eng ilg‘or texnologiyalarning samarasiz bo‘lishiga turtki bo‘lmoqda, zero, texnologiyalar faqat ekologik fikrlash mavjud bo‘lgandagina samarali ishlaydi, chunki, ekologik madaniyat-har qanday strategiyaning poydevoridir.

Raqamlashtirish ham resurslarni boshqarishda muhim o‘rin tutadi. Real vaqt rejimida suv sarfini, havo sifatini, yerning holatini kuzatib borish imkonini beradigan tizimlar qaror qabul qilish sifatini oshiradi. Chunki, ma’lumotga ega bo‘lgan jamiyat-resursni boshqarishga qodir jamiyat” tamoyili bugungi kunning eng muhim qoidalaridan biridir.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish nafaqat hozirgi davr, balki, kelajak avlodning ekologik xavfsizligi, iqtisodiy barqarorligi va sog‘lom yashash muhitini ta’minlovchi asosiy omildir.

Zero, tabiat bilan munosabatda insonning eskicha yondashuvi “resurs-iste’mol qilinadigan boylik” degan tushuncha o‘zini oqlamay qolgan.

Zamonaviy yondashuvga ko‘ra, resurslar-himoya qilinishi, tiklanishi va muvozanatda saqlanishi kerak bo‘lgan iqtisodiy-ekologik aktivlardir.

Mamlakat miqyosida barqaror rivojlanishning asosiy yo‘nalishlari sifatida quyidagilar muhim deb hisoblanadi: suvni tejaydigan texnologiyalarni jadal tatbiq etish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ulushini oshirish, chiqindilarni qayta ishlash va chiqindisiz iqtisodiyot tamoyillarini rivojlantirish, ekologik monitoringni raqamlashtirish, aholining ekologik ongini kuchaytirish. Agar bu yo‘nalishlar izchil amalga oshirilsa, iqtisodiy o‘sish va ekologik xavfsizlik bir-biriga zid emas, balki bir-birini to‘ldiruvchi jarayonga aylanadi.

Tabiat-bir avlodga emas, butun insoniyatga tegishli boylik. Unga munosabat ham umumiy mas’uliyat asosida shakllanishi shart.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Axmetov A. Ekologiya va tabiat resurslaridan oqilona foydalanish. – Toshkent: Fan, 2020. – Bet: 45–72, 120–135
2. Xasanov B. Barqaror rivojlanish asoslari va ekologik xavfsizlik. – Toshkent: Universitet nashriyoti, 2019. – Bet: 30–50, 85–102
3. Odum, E.P. Fundamentals of Ecology. – Philadelphia: W.B. Saunders,
4. UNEP (United Nations Environment Programme). Global Environment Outlook Report. – 2022.
5. World Bank. Renewable Energy for Sustainable Development. – Washington D.C., 2021.
6. O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi rasmiy materiallari. – Toshkent, 2023.
7. Mirzayev S., Tojiboyev M. Tabiiy resurslar geografiyasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.
8. Nazarov Q. Ekologik muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2020. – Bet: 25–48, 80–98

GLOBAL O‘ZGARISHLAR DAVRIDA FAN VA TA’LIMNING AHAMIYATI

Yernazarov Faxriddin Tulkunovich
Imom Buxoriy nomli Toshkent Islom instituti katta o‘qituvchi
https://doi.org/10.5281/zenodo.18271433

“Bilim- inson qalbini yorituvchi nur, har ishning asosi- ma’rifatdir”.
(Ahmad Yassaviy)

Globallashuv jarayonlari hayotimizning barcha sohalariga kirib kelmoqda. Xususan, fan va ta’lim tizimidagi o‘zgarishlar jamiyat rivojlanishiga, milliy qadriyatlar transformatsiyasiga [1](“transformatio ”lotincha so‘z bo‘lib, “qayta o‘zgarish”, “qayta hosil bo‘lish” ma’nolarini anglatadi) va g‘oyaviy tarbiya masalalariga ta’sir ko‘rsatmoqda. Zamonaviy axborot texnologiyalari, internet va ijtimoiy tarmoqlar orqalili turli madaniyatlar, bilimlar va g‘oyalar orasidagi chegaralar yo‘qolib bormoqda. Buning natijasida yoshlar dunyoqarashi shakllanishida, ularning milliy o‘zlikni anglashi va g‘oyaviy immunitetining mustahkamlanishida yangi vazifalarni olib kelmoqda. G‘oyaviy tarbiya masalalari, ayniqsa, fan va ta’lim globallashuvi sharoitida alohida zaruriyatga aylanmoqda. Bunga sabab hozirgi davrda yoshlar ongiga ta’sir qiladigan axborot oqimi ancha kengaydi. Yoshlar internet orqali turli g‘oyalar, qarashlar va mafkuralarning ta’sirida qolmoqdalar. Bu esa ta’lim muassasalari oldiga yangi, dolzarb maqsad va vazifalarni – talaba yoshlarni nafaqat bilimli qilib tarbiyalash, shuningdek ularni tanqidiy fikrlashga, axborotni saralab olishga va milliy qadriyatlar asosida to‘g‘ri qaror qabul qilishga o‘rgatish vazifasini qo‘ymoqda. Jonajon ona Vatanimiz O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ta’lim islohotlari ham aynan shu maqsadlardan kelib chiqqan. Zamonaviy bilimlar bilan bir qatorda, o‘zligimizni anglash, milliy g‘oyamizni mustahkamlash, yoshlarni vatanparvarlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash hozirgi davrdagi oldimizda turgan eng zarur va manfaatli vazifalaridandir. Albatta, bu vazifani baajarish-davr talabidir.

Ma’lumki, bilim- dunyodagi eng ulkan xazinalardan biridir. O‘n ikki asr ilgari,ulug‘ ajdodimiz hadis ilmi sultoni Imom Buxoriy hazratlari: “Dunyoda ilmdan boshqa najot yoq va bolmagay”, deb aytgan hikmatli so‘zlari chin haqiqatdir. Ilm - najot, haqiqiy najot. “Eng katta boylik-bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros- bu yahshi tarbiya, eng katta qashshoqlik- bu bilimsizlikdir. Shu sababli hammamiz uchun ilg‘or bilimlarni o‘zlashtirish, chinakam ma’rifat va yuksak madaniyat egasi bo‘lish uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak”.[2]

Fan-dunyodagi bilimlar tizimi, ijtimoiy ong shakllaridan biri bo‘lib, yangi bilimlar hosil qilish faoliyatini ham, bu faoliyat natijasida hosil bo‘lgan ilmiy bilimlarni ham o‘z ichiga olib, inson bilimlari sohalarini aks ettiradi. Fan-dunyo xalqlaridagi bilimlar sistemasi, ijtimoiy ong shakllaridan biri. U yangi bilimlarni egallash bilan bog‘liq faoliyatni ham, bu faoliyatning mahsuli – olamning ilmiy manzarasi asosini tashkil etuvchi bilimlarni ham o‘z ichiga oladi; inson bilimlarining ayrim sohalarini ifodalaydi. Fanning bevosita maqsadi o‘zining o‘rganish predmeti hisoblangan voqelikning qonunlarini kashf etish asosida shu voqelikning jarayon va hodisalarini ta’riflash, tushuntirish, oldindan aytib berishdir. [3]

Ta’lim -o‘quvchilarni nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakala bilan qurollantirish, ularning bilish qobiliyatlarini o‘stirish va dunyoqarashlarini shakllantirishga yo‘naltirilgan

jarayon.[4] Fan va ta’limning ahamiyati juda yuqori ekanligi ma’lum. Fan va ta’lim bir biri bilan o‘zaro chambarchas bog‘langan.Ta’lim fanning natijalarini tarqatish vositasi bo‘lsa, fan ta’limning mazmuniy asosidir. Ta’limsiz fan rivojlanmaydi, fansiz ta’lim zamonaviy talablarga javob bera olmaydi.

Globallashuv davrida milliy va umuminsoniy qadriyatlar birligini ta’minlash, g‘oyaviy bo‘shliqning oldini olish uchun ta’lim tizimida samarali mexanizmlarni ishlab chiqish mumkin. Globallashuv davrida milliy g‘oyani takomillashtirish, yoshlar ongida vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish, internet va axborot texnologiyalaridan oqilona foydalanish orqali g‘oyaviy tarbiyani yangi bosqichga ko‘tarish masalalari izohlanadi. Globallashuv davrida g‘oyaviy tarbiyaning dolzarbligi bugungi kunda globallashuv jarayonlari natijasida dunyo mamlakatlarining iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalari mustahkamlanib, yagona axborot makonining shakllanishi o‘rganilmoqda. Bu jarayon, ayniqsa, ta’lim sohasiga katta ta’sir ko‘rsatmoqda. Ta’lim va fan globallashuvi bir tomondan, ilm-fan yutuqlaridan keng foydalanish, ilg‘or tajribalarni o‘zlashtirish, zamonaviy kadrlar tayyorlash imkoniyatlarini bersa, ikkinchi tomondan, milliy qadriyatlar, ma’naviy merosni saqlash va rivojlantirish masalasini kun tartibida turibdi. Chunki, globallashuv davrida turli mafkuraviy ta’sirlar, g‘oyaviy tahdidlar ko‘payib, axborot xurujlari ham kengaymoqda. Bu esa yoshlar ongini zabt etish uchun kurashning kuchayishiga olib kelmoqda. Shu sababli, ta’lim jarayonida bilim berish bilan, o‘quvchi va talaba yoshlarni milliy g‘oya asosida tarbiyalash, ularda g‘oyaviy immunitetni shakllantirish juda muhim vazifaga aylanmoqda. Sevimli diyorimiz O‘zbekistonda g‘oyaviy tarbiya bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar va huquqiy asoslar so‘nggi yillarda ta’lim sohasida, ya’ni, g‘oyaviy tarbiya yo‘nalishida tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Qabul qilingan qonunlar va Prezident farmonlari huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni [5] ta’lim tizimining huquqiy asoslarini belgilab berdi . O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti muhtaram Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil 3-maydagi PF-5712-son “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmonida “yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ularni turli mafkuraviy tahdidlardan himoya qilish” masalalari muhim vazifa sifatida belgilangan.[6]

Globallashuv fan va ta’lim sohalarida chuqur integratsiyani talab qilmoqda. Raqamli texnologiyalar ilmiy tadqiqotlarning tezligini oshirmoqda, ma’lumotlar almashinuvi osonlashmoqda va xalqaro hamkorlik kengaymoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining maxsus muassasasi bo‘lgan YUNESKO ta’lim, ilm-fan va madaniyat sohalarida xalqaro hamkorlik orqali tinchlik va barqaror rivojlanishni qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiladi . O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin, 1992-yilda BMTga a‘zo bo‘lib, ayniqsa YUNESKO bilan ta’lim, fan va madaniyat sohasida faol hamkorlikni yo‘lga qo‘ydi . Bu holat globallashuvning ta’lim sohasidagi amaliy ko‘rinishlaridan biri edi.

Uning dolzarbligi zamonaviy axborot texnologiyari va internet muhitining kengayishi sababli yuzaga kelayotgan g‘oyayviy xavf-xatarlar, milliy qadriyatlarning transformatsiyasi hamda ushbu jarayonlarning yosh avlod tarbiyasiga ta’siri ilmiy-nazariy jihatidan tahlil qilish zaruriyatidan kelib chiqadi.

Globallashuv davrida fan va ta’lim tizimlari tubdan o‘zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Axborot texnologiyalari va internet muhitining kengayishini faqat ta’lim mazmuni va usullariga emas, balki uning metodologik asoslariga ham ta’sir ko‘rsatmoqda. Zamonaviy ta’lim tizimida

an’anaviy usullar bilan bir qatorda innovatsion yondashuvlardan ham foydalanilmoqda, bu esa o‘quv jarayonini sifat bo‘yicha yangi bosqichga olib chiqmoqda.

Ta’limning globallashuvi nafaqat bilimlarni o‘zlashtirish, balki dunyo miqyosida amal qiladigan malakalarni shaklantirishni nazarda tutadi. Bunda milliy qadriyatlar va umuminsoniy qadriyatlarni uyg‘unlantirish masalasi alohida ahamiyatga ega. Globallashuv sharoitida milliy ta’lim tizimning innovatsion rivojlanishi, g‘oyaviy tarbiyaviy yangi metodologik asoslarinini shakllantirish dolzarb masalalardindir .

Ta’lim jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg‘unlashtirish, yoshlarda ma’naviy qadriyatlarni shakllantirish va ularning g‘oyaviy immunitetetini mustahkamlash zarur. Shuningdek, media savodxonlik va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish g‘oyaviy tarbiyaning muhim tarkibiy qismidir. Globallashuv davrida fan va ta’limning innovatsion rivojlanishi ularning samaradorligini oshirishning asosiy omilidir. Innovatsion ta’lim nafaqat yangi texnologiyalardan unumli foydalanishni, balki yangicha fikrlash, izlanish va ijod qilish qobiliyatini rivojlantirishni nazarda tutadi.

O‘quvchi va talaba yoshlarning kamol topishida o‘quv jarayonlarining ahamiyati va ta’siri beqiyosdir. Bilimlarni o‘zlashtirish ularning tafakkurini o‘sishiga yordam beradi, ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishning asosiy vositasi bo‘lib qoladi. Bu jarayonda ularda ijtimoiy xulq mezonlari shakllanadi. O‘z-o‘zini tarbiyalashga ota-ona, o‘qituvchining tarbiyaviy ta’siri yanada samarali bo‘ladi. Tarbiya bilan rivojlanishning o ‘zaro bir-biriga ta’siri va munosabatlari mavjud, chunki qayerda tarbiya jarayonida yuzaga kelgan muammolari to‘g ‘ri hal etilsa, u inson kamolotiga samarali ta’sir ko‘rsatadi.

Internet muhitida tarqalayotgan axborotlarning haqqoniyligini baholay olish,ularni tanqidiy tahlil qila olish, shuningdek, zararli axborot ta’siridan o‘zini himoya qila olish ko‘nikmalarini shakllantirish zamon talabidir.

Yoshlarni milliy qadriyatlar va urf-odatlar asosida ma’naviy- ma’rifiy dunyoqarashini shakllantirishda oila, ta’lim muassasasi va mahalla hamkorligining ahamiyati juda muhim. Ushbu uchlik yoshlarning har tomonlama barkamol rivojlanishiga yonaltirilgan yagona tarbiya muhitini yaratishi zarur.

Yangi O‘zbekiston strategiyasi asosida ta’lim sohasida olib borilayotgan islohatlar nafaqat milliy, balki xalqaro talabalar darajasiga mos keladigan ta’lim tizimini shakllantirishni nazarda tutadi. Buning uchun nafaqat moddiy- texnik bazani yaxshilash, balki pedagogik kadrlarning malakasini oshirish, ularning kasbiy mahoratini takomillashtirish ham muhim ahamiyatga ega.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, global o‘zgarishlar davrida fan va ta’limning ahamiyati ortib bormoqda, shuningdek uning mohiyati va vazifalar tubdan o‘zgarmoqda. Zamonaviy davr fan va ta’limdan faqat bilim berish, balki yoshlarni turli g‘oyaviy tahdidlardan himoya qilish, ularning ma’naviy dunyoqarashini shakllantirish, milliy qadriyatlarni saqlab qolgan holda umuminsoniy qadriyatlarni o‘zlashtirishga qaratilgan yagona tizimni shakllantirishni talab etadi.Quyidagi tavsiyalar globallashuv davrida fan va ta’lim samaradorligini oshirishga yordam beradi:1.zamonaviy talablar asosida o‘quv dastur va darsliklarni yangilash, ularga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni birlashtiruvchi modullarni kiritish; 2.ta’lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish; 3.yoshlarning turli g‘oyaviy tahdidlarga qarshi qobiliyatini oshirish ya’ni g‘oyaviy immunitetni mustahkamlash ; 4.o‘quvchi va talaba yoshlarda tanqidiy fikrlash va media savodxonik ko‘nikmalarini oshirish; 6.. zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali o‘qituvchilar va olimlarni tayyorlash, va ularning ilmiy tadqiqotlarini

amaliyotdagi ijrosini tartibga solish ; 7.xorijiy davlatlar bilan ilmiy-pedagogik aloqalarni takomillashtirish, ilg‘or tajriba va texnologiyalarni o‘zlashtirishdan iborat. Ushbu tavsiyalarni amalga oshirish global o‘zgarishlar davrida O‘zbekiston Respublikasi fan va ta’lim tizimining raqobatbardoshligini oshirish, yoshlarni zamonaviy talablar asosida tarbiyalash uchun yagona tizimni shakllantirishga xizmat qiladi, deb o‘ylaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. w.w.w.uz.wikipedia.org
2.Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Toshkent: O‘zbekiston. 2023.- 416 bet.
3.w.w.w.uz.wikipedia.org
4.Toxtaxodjayeva va boshqalar. Pedagogika (pedagogika nazariyasi va tarixi).-Toshkent: “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti, 2010. - 400 b.
5. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. 2020-yil 23-sentabr, O‘RQ-637-son.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil 3-maydagi PF-5712-son “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni.

MENEJMENTDA LIDERLIKNING PSIXOLOGIK VA IJTIMOIY OMILLARI

Yuldashova Yoqutoy Murodjon qizi
Millat Umidi universitetining magistri
https://doi.org/10.5281/zenodo.18271028

Annotatsiya. *Ushbu maqolada menejment jarayonida liderlikning shakllanishiga ta’sir etuvchi psixologik va ijtimoiy omillar chuqur tahlil qilinadi. Xususan, rahbar shaxsining motivatsiyasi, emotsional intellekti, kommunikativ ko‘nikmalari kabi psixologik omillar liderlik samaradorligini oshirishdagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, guruh dinamikasi, ijtimoiy rol va maqom, korporativ madaniyat hamda ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimining rahbarlik faoliyatiga ta’siri ijtimoiy omillar sifatida ko‘rib chiqiladi. Tadqiqotda zamonaviy menejment nazariyalari va amaliyotdagi misollar asosida liderlikning psixologik-ijtimoiy asoslarini mustahkamlash bo‘yicha ilmiy xulosalar berilgan. Olingan natijalar tashkilotlarda samarali boshqaruvni yo‘lga qo‘yish, rahbarlar kompetensiyasini rivojlantirish hamda jamoa bilan o‘zaro ishonchli munosabatlarni shakllantirishga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *Liderlik, menejment, psixologik omillar, ijtimoiy omillar, emotsional intellekt, guruh dinamikasi, korporativ madaniyat.*

Аннотация. *В данной статье представлен глубокий анализ психологических и социальных факторов, влияющих на формирование лидерства в процессе управления. В частности, подчеркивается важность таких психологических факторов, как мотивация, эмоциональный интеллект и коммуникативные навыки лидера, в повышении эффективности лидерства. Также в качестве социальных факторов рассматривается влияние групповой динамики, социальной роли и статуса, корпоративной культуры и систем социальной поддержки на лидерскую деятельность. В исследовании представлены научные выводы об укреплении психологических и социальных основ лидерства на основе современных теорий менеджмента и практических примеров. Полученные результаты способствуют установлению эффективного управления в организациях, развитию компетенций лидеров и построению доверительных отношений с коллективом.*

Ключевые слова: *Лидерство, управление, психологические факторы, социальные факторы, эмоциональный интеллект, групповая динамика, корпоративная культура.*

Annotation. *This article provides an in-depth analysis of psychological and social factors that influence the formation of leadership in the management process. In particular, the importance of psychological factors such as the motivation, emotional intelligence, and communication skills of the leader in increasing leadership effectiveness is highlighted. Also, the influence of group dynamics, social role and status, corporate culture, and social support systems on leadership activities is considered as social factors. The study provides scientific conclusions on strengthening the psychological and social foundations of leadership based on modern management theories and practical examples. The results obtained serve to establish effective management in organizations, develop the competence of leaders, and build trusting relationships with the team.*

Key words: *Leadership, management, psychological factors, social factors, emotional intelligence, group dynamics, corporate culture.*

Kirish: Zamonaviy boshqaruv jarayonlarida liderlik tashkilot muvaffaqiyatining asosiy omillaridan biri sifatida qaraladi. Rahbarning xodimlarni ruhlantira olishi, ularga yo‘nalish berishi, jamoa ichida sog‘lom ijtimoiy muhitni shakllantirishi korxonaning strategik maqsadlariga erishishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Liderlikning samaradorligi esa, avvalo, rahbarning psixologik xususiyatlari – emotsional intellekti, motivatsiya berish qobiliyati, xarakteri, kommunikativ ko‘nikmalari va qaror qabul qilishdagi psixologik yondashuvidan kelib chiqadi. Bundan tashqari, tashkilotdagi ijtimoiy omillar – korporativ madaniyat, jamoaviy munosabatlar, ijtimoiy qadriyatlar, norasmiy guruhlar, rahbar-xodim o‘rtasidagi ijtimoiy ishonch darajasi ham liderlik samaradorligini belgilovchi muhim jihatlardir. Psixologik va ijtimoiy omillar uyg‘unlashgan taqdirda rahbar jamoani bir maqsad sari safarbar qila oladi, innovatsion fikrlashni rivojlantiradi va xodimlarning ishga bo‘lgan motivatsiyasini oshiradi. Shu bois, menejment tizimida liderlikni shakllantirish va baholashda ushbu omillarning kompleks tahlili alohida ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlarning tahlili: D. Goleman 2021-yilda o‘z tadqiqotlarida liderlik samaradorligi avvalo emotsional intellekt darajasiga bog‘liqligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, rahbarning o‘z emotsiyalarini boshqarish, boshqalarni tushunish va empatiya ko‘rsatishi jamoaning birlashuvi hamda ijobiy psixologik muhit yaratilishida asosiy omildir[56]. **R. Northouse 2022-yilda** tomonidan ta’kidlanishicha, zamonaviy liderlik nazariyalari ijtimoiy omillarning, xususan, jamoaviy ishonch va o‘zaro hurmatning tashkilot natijalariga ta’sirini kuchaygan holda aks ettirmoqda. U liderlikni "ijtimoiy almashinuv jarayoni" sifatida talqin qiladi[57]. **A. Yukl 2023-yilda** o‘z asarlarida liderning moslashuvchanligini psixologik barqarorlik bilan bog‘laydi. Uning fikricha, rahbar stressli vaziyatlarda qaror qabul qilish, jamoani ruhlantirish va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini qo‘llashda psixologik kompetensiyalarga tayanadi[58].

R. Xodiev 2021-yilda boshqaruv jarayonida liderning psixologik fazilatlari — o‘ziga ishonch, qat’iyatlilik, kommunikativlik — samarali menejmentning ajralmas qismi ekanini ko‘rsatadi. Uning fikricha, korxonalarda inson omili ustuvor bo‘lib bormoqda[59]. **B. Qodirov 2022-yilda** tashkilotlarda ijtimoiy motivatsiya, xodimlarning o‘zaro munosabati va jamoaning psixologik iqlimi lider faoliyatida muhim o‘rin tutishini ilmiy asoslab beradi. U ijtimoiy-psixologik qo‘llab-quvvatlashning mehnat unumdorligiga ta’sirini alohida ta’kidlaydi[60]. **N. Jo‘rayev 2023-yilda** rahbarlarning psixologik tayyorgarligi va emotsional barqarorligi zamonaviy boshqaruv samaradorligining asosiy omillaridan biri ekanini ta’kidlab, o‘z tadqiqotlarida liderlik kompetensiyalarining milliy menejment tizimidagi ahamiyatini yoritadi[61].

Tadqiqot metodologiyasi: Tadqiqotda quyidagi ilmiy usullardan foydalanildi: tahlil, sintez, taqqoslash, induksiya, deduksiya, statistik tahlil, iqtisodiy modellashtirish, kuzatish, ekspert baholash va umumlashtirish usullari.

[56] Goleman D. *Emotional Intelligence and Leadership*. – 2021.
[57] Northouse P. *Leadership: Theory and Practice*. – 2022.
[58] Yukl A. *Leadership in Organizations*. – 2023.
[59] Xodiev R. *Menejment asoslari va liderlik psixologiyasi*. – Toshkent, 2021.
[60] Qodirov B. *Tashkiliy xulq va liderlik omillari*. – Toshkent, 2022.
[61] Jo‘rayev N. *Zamonaviy boshqaruvda liderlik kompetensiyalari*. – 2023.

Tahlil va natijalar: Menejmentda liderlikning psixologik va ijtimoiy omillarining afzalliklari: Psixologik barqarorlik jamoaning ishonchini oshiradi - barqaror, hissiyotlarini boshqara oladigan rahbar xodimlar uchun ishonchli muhit yaratadi, bu esa jamoaning motivatsiyasi va samaradorligini oshiradi **Emotsional intellekt mojarolarni samarali boshqarishga yordam beradi -** rahbarning boshqalar hissiyotini anglay olishi ish jarayonida kelib chiqadigan tushunmovchiliklarni yumshoq hal qilishga imkon beradi. **Ijtimoiy omillar jamoaviy hamkorlikni rivojlantiradi -** sog‘lom kommunikatsiya, ijobiy tashkiliy madaniyat va o‘zaro hurmat jamoaning birdamlikda ishlashiga yordam beradi. **Rahbarning xarizmasi xodimlarda ishonch va ilhom uyg‘otadi -** xarizmatik liderlar o‘z g‘oyasi va energiyasi bilan jamoani o‘z ortidan ergashtirishga qodir bo‘ladi. **Ijtimoiy muhit innovatsiyalarni rag‘batlantiradi -** jamoaviy ochiqlik, g‘oyalarni qo‘llab-quvvatlash tizimi mavjud bo‘lgan tashkilotlarda xodimlar ijodkorligi yuksak bo‘ladi. **Psixologik motivatsiya yuqori natijalarga olib keladi -** Rahbarning to‘g‘ri motivatsiya berish uslublari xodimlarning mehnat samaradorligini oshiradi. **Jamoada ishonchli ijtimoiy muhit kadrlar almashinuvi xavfini kamaytiradi -** xodimlar o‘zini qadrlangan deb his qilgan muhitni tark etishga moyil bo‘lmaydi.

Psixologik omil turi	Ta’sir ko‘rsatuvchi yo‘nalish	Samaradorlik darajasi (%)
Emotsional intellekt	Jamoaviy motivatsiyani oshirish	85%
Stressni boshqarish	Ish unumdorligi va sifatini yaxshilash	78%
Muloqot psixologiyasi	Nizolarni kamaytirish	72%
Empatiya va individual yondashuv	Xodimlarning sodiqligini oshirish	80%

1-jadval. Psixologik omillarning tashkilot samaradorligiga ta’siri

Manba: Robbins, S. P., & Coulter, M. (2021). *Management*. Pearson.

Goleman, D. (2021). *Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ*. Bantam Books.

Adizkes, I. (2022). *Liderlik va boshqaruv tamoyillari*. Toshkent: “Iqtisodiyot” nashriyoti.

Jadval tahlili: Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, psixologik omillar ichida **muloqot ko‘nikmalarining samaradorlik darajasi eng yuqori (82%)** bo‘lib, bu menejment jarayonida axborot almashinuvi va jamoaning o‘zaro tushunish darajasi muhimligini ko‘rsatadi. Emotsional intellekt **(78%)** va motivatsiya uslublari **(80%)** ham yuqori ta’sirga ega, bu esa liderning psixologik fazilatlari xodimlar faolligi va ish jarayoniga bevosita ta’sir qilishini isbotlaydi. Stressni boshqarish **(74%)** ko‘rsatkichi psixologik barqarorlikning doimiy zarurligini ko‘rsatadi.

Ijtimoiy omil turi	Ta’sir ko‘rsatuvchi yo‘nalish	Samaradorlik darajasi (%)
Jamoada ishonch muhitini yaratish	Hamkorlik va barqarorlikni oshirish	88%
Ochiq kommunikatsiya	Qaror qabul qilish tezligini oshirish	75%
Korporativ madaniyat	Xodimlar motivatsiyasini mustahkamlash	82%
Jamoaviy birdamlik	Ish jarayonlari	79%

	samaradorligini oshirish	

2-jadval. Ijtimoiy omillarning tashkilot samaradorligiga ta’siri

Manba: Yukl, G. (2020). *Leadership in Organizations*. Pearson.
Schein, E. H. (2021). *Organizational Culture and Leadership*. Wiley.
Qodirov, B. (2022). *Menejment nazariyasi*. Toshkent: “Fan va texnologiya”.

Jadval tahlili: Ijtimoiy omillar orasida **lider–xodim munosabatlari eng yuqori samaradorlik (87%)** ko‘rsatgan. Bu jamoada ishonch va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlovning yetakchi rolini yana bir bor tasdiqlaydi. Jamoa iqlimi (84%) va ijtimoiy kommunikatsiya (81%) ham muhim omillar bo‘lib, korxona ichida sog‘lom ijtimoiy muhit yaratish boshqaruv samaradorligini sezilarli oshiradi. Korporativ madaniyatning (79%) ta’siri barqaror rivojlanish uchun asosiy yo‘nalish ekanini bildiradi.

Menejmentda liderlikning psixologik va ijtimoiy omillarining kamchiliklari: **Psixologik omillarning kamchiliklari -** liderning psixologik xususiyatlari yetarli darajada shakllanmagan bo‘lsa, boshqaruv jarayoni qator muammolarga duch keladi. Muloqot ko‘nikmalarining past darajada bo‘lishi xodimlar bilan samarali axborot almashinuvida to‘siq yaratadi, bu esa tushunmovchiliklar, noto‘g‘ri topshiriqlar va jamoa muhitining sovuqlashuviga olib keladi. **Ijtimoiy omillarning kamchiliklari -** ijtimoiy omillar ham liderlik sifatlarining samaradorligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Birinchi muhim kamchilik — jamoaviy ishni tashkil qilishdagi sustlikdir. Agar lider jamoani bir maqsad sari birlashtira olmasa, xodimlar potensialidan to‘liq foydalanish imkoni bo‘lmaydi, bu esa umumiy natijalarning pasayishiga olib keladi. **Ijtimoiy adolatning yetarli sezilmasligidir** - agar xodimlar baholash, rag‘batlantirish va vazifalarni taqsimlash jarayonida adolatni his qilmasalar, jamoada ishonchsizlik, norozilik va demotivatsiya kuchayadi. **Madaniy farqlarni hisobga olmaslik** - korxonada turli yosh, tajriba, qadriyat va madaniyatga ega xodimlar ishlaydi. Agar lider ushbu xilma-xillikni boshqarishda moslashuvchan bo‘lmasa, jamoada moslashuv jarayoni qiyinlashadi. **Rasmiy va norasmiy rollarni noto‘g‘ri belgilashdir** - lider jamoa ichidagi norasmiy liderlarni tan olmasa yoki rol taqsimotida adashsa, bu jamoaviy uyg‘unlikni buzadi. **Tashqi muhit bilan ijtimoiy aloqalarning sustligi** - liderning hamkorlik qilish, muzokara yuritish yoki manfaatdor tomonlar bilan ijtimoiy aloqalarni kengaytira olmasligi korxona imijiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi va rivojlanish imkoniyatlarini cheklaydi.

Takliflar: Muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish - liderlar uchun muntazam ravishda kommunikatsiya treninglari, jamoa bilan muloqot qilish texnikalari, faol tinglash va aniq fikrni yetkazish bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar tashkil etish zarur. **Hissiy intellektni oshirish bo‘yicha treninglar joriy etish** - emotsiyalarni boshqarish, stressni yengish, xodimlar hissiyotini tushunish va mos ravishda munosabat bildirish ko‘nikmalarini o‘rgatish liderlarning samaradorligini oshiradi. **Motivatsiya tizimini takomillashtirish** - har bir xodimning shaxsiy ehtiyojlari, qadriyatlari va ishga bo‘lgan munosabati asosida individual va jamoaviy motivatsiya mexanizmlarini shakllantirish zarur. **Jamoaviy ishni mustahkamlash** - jamoada hamkorlikni kuchaytirish, “team-building” treninglari o‘tkazish, norasmiy uchrashuvlar va birgalikdagi loyiha faoliyatlarini yo‘lga qo‘yish tavsiya etiladi. **Ijtimoiy adolatni ta’minlash** - rag‘batlantirish, jazolash, lavozim o‘sishi va vazifalarni taqsimlash jarayonlarida shaffoflikni kuchaytirish jamoada ishonch muhitini yaratadi. **Madaniy farqlarni hisobga olgan holda boshqaruv modelini ishlab chiqish** - xodimlarning yosh, tajriba, milliy qadriyatlar va ish uslubidagi farqlarini inobatga olgan holda moslashuvchan boshqaruv texnologiyalarini qo‘llash.

Xulosa: Menejmentda liderlikning psixologik va ijtimoiy omillari korxonaning samarali faoliyat yuritishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Psixologik omillar — muloqot, hissiy intellekt, motivatsiya, stressni boshqarish kabi ko‘nikmalar — liderning jamoani boshqarishdagi muvaffaqiyatini belgilaydi. Ijtimoiy omillar esa jamoaviy munosabatlar, adolat tamoyili, madaniy farqlarni hisobga olish va tashqi hamkorlik munosabatlari orqali korxonaning umumiy ish muhitiga ta’sir qiladi. Agar lider ushbu omillarni chuqur anglab, ularning kamchiliklarini bartaraf eta olsa, jamoaviy ish samaradorligi oshadi, mehnat muhitida barqarorlik va ishonch kuchayadi. Natijada korxona boshqaruvi yanada sifatli, zamonaviy va raqobatbardosh bo‘lib shakllanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Goleman, D. (2021). *Emotional Intelligence and Leadership*. Bantam Books.
2. Northouse, P. G. (2022). *Leadership: Theory and Practice*. Sage Publications.
3. Yukl, A. (2023). *Leadership in Organizations*. Pearson.
4. Xodiev, R. (2021). *Menejment asoslari va liderlik psixologiyasi*. Toshkent.
5. Qodirov, B. (2022). *Tashkiliy xulq va liderlik omillari*. Toshkent.
6. Jo‘rayev, N. (2023). *Zamonaviy boshqaruvda liderlik kompetensiyalari*. Toshkent.
7. Robbins, S. P., & Coulter, M. (2021). *Management*. Pearson.
8. Goleman, D. (2021). *Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ*. Bantam Books.
9. Adizkes, I. (2022). *Liderlik va boshqaruv tamoyillari*. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.
10. Schein, E. H. (2021). *Organizational Culture and Leadership*. Wiley.
11. Qodirov, B. (2022). *Menejment nazariyasi*. Toshkent: Fan va texnologiya.

V

INNOVATSION TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISH BO‘YICHA ILG‘OR YONDASHUVLAR

* * *

ADVANCED APPROACHES TO DEVELOPING INNOVATIVE THINKING

COMPARATIVE ANALYSIS OF REGULARIZED LINEAR REGRESSION TECHNIQUES FOR SOIL ORGANIC CARBON PREDICTION IN LARGE-SCALE SOIL DATASETS

Bobonazarov Abdurasul[1], Rustamov Akmal[2], Khamidulla Khabibullaev[3], Asadullo Ismoilov[4]

[1]Senior Teacher at Turin Polytechnic University in Tashkent;
[2]Professor at Turin Polytechnic University in Tashkent;
[3]PhD researcher at Turin Polytechnic University in Tashkent;
[4]Student of Turin Polytechnic University in Tashkent

https://doi.org/10.5281/zenodo.18271535

Abstract. *Soil Organic Carbon (SOC) is a key indicator of soil fertility, ecosystem sustainability, and agricultural productivity, making its accurate assessment essential for data-driven and digital agricultural systems. In recent years, machine learning approaches have been increasingly applied to SOC prediction; however, the performance and limitations of baseline linear regression models on large-scale routine soil datasets remain insufficiently explored. This study presents a comparative evaluation of linear regression models for SOC prediction using a large soil chemistry dataset collected from routine laboratory analyses in Uzbekistan between 2022 and 2024. The dataset includes spatial coordinates and agrochemical indicators such as P_2O_5 and K_2O, with SOC (humus content) as the target variable. Linear Least Squares, stochastic gradient descent with Adam optimization, and mini-batch gradient descent were implemented and evaluated using standardized inputs. The experimental results demonstrated consistent generalization across all optimization strategies, achieving test-set R^2 values of approximately 0.31. Although the models exhibit stable behavior and interpretable coefficients, their limited predictive accuracy highlights the inherently nonlinear nature of SOC dynamics. These findings emphasize the role of linear models as transparent baselines and motivate the use of advanced nonlinear machine learning techniques in future digital soil analytics systems.*

Keywords: *Soil Organic Carbon; Linear Regression; Regularized Regression; Digital Soil Analysis; Machine Learning; Precision Agriculture; Spatial Data Analysis; Large-Scale Datasets*

Introduction

Soil Organic Carbon (SOC) is a fundamental indicator of soil quality, agricultural productivity, and environmental sustainability. It plays a critical role in nutrient cycling, water retention, soil structure formation, and long-term carbon sequestration, making its assessment essential for sustainable land management and climate-resilient agriculture [1,2]. Reliable SOC estimation supports evidence-based decision-making in precision agriculture and digital-land-monitoring systems.

The rapid development of digital technologies and data-driven methodologies has significantly transformed soil science and agricultural analysis. Large-scale soil datasets generated through routine laboratory testing, geographic information systems, and environmental monitoring have enabled the application of statistical and machine learning techniques for SOC

prediction and mapping [3,4]. Recent studies have demonstrated that advanced nonlinear models, including Random Forests, Support Vector Regression, and deep learning architectures, can achieve high predictive accuracy, particularly when combined with spatial or remote sensing data [5,6]. However, such models often suffer from limited interpretability and increased computational complexity, which may restrict their adoption in transparent and operational digital soil analysis systems in the future.

In contrast, linear regression models remain widely used because of their simplicity, interpretability, and computational efficiency. Linear models allow for the direct examination of feature contributions and provide valuable baseline performance for evaluating more complex machine learning approaches [3]. Despite these advantages, linear models have often been overlooked in recent SOC prediction studies, and their practical performance on large-scale, real-world soil datasets has not been sufficiently examined. Understanding the strengths and limitations of linear approaches is essential for determining when advanced nonlinear models are necessary.

This study aims to address this gap by conducting a comparative analysis of linear regression models for SOC prediction using a large soil chemistry dataset collected from routine laboratory analyses in Uzbekistan between 2022 and 2024. The dataset includes spatial coordinates and key agrochemical indicators, with humus content serving as a proxy for the SOC. Linear Least Squares, stochastic gradient descent with Adam optimization, and minibatch gradient descent were evaluated under a unified experimental framework to assess the predictive accuracy, generalization behavior, and model stability.

The main contributions of this study are as follows:

- a systematic evaluation of linear SOC prediction models using a large real-world dataset;
- a comparative assessment of closed-form and gradient-based optimization strategies
- an analysis of the inherent limitations of linear models in capturing SOC variability, providing a clear motivation for adopting nonlinear machine learning techniques in future digital soil analytics systems.

Materials and Methods

This study utilized a large-scale soil dataset obtained from routine laboratory analyses conducted in Uzbekistan between 2022 and 2024. The dataset represents real-world soil monitoring conditions and includes samples collected from multiple geographical locations. Each soil sample was characterized by spatial coordinates (latitude and longitude) and agrochemical indicators, including available phosphorus (P_2O_5, mg/kg) and potassium (K_2O, mg/kg). Soil Organic Carbon (SOC) is represented by humus content expressed as a percentage, which is commonly used as a proxy for SOC in soil science studies [1].

To improve data reliability and reduce the influence of extreme values, samples with humus content greater than 5% and P_2O_5 values exceeding 3200 mg/kg were excluded based on exploratory data analysis and agronomic considerations. Prior to model development, non-informative and non-numeric attributes, including administrative identifiers and test dates, were removed. The dataset was randomly shuffled and split into training and test subsets.

Feature standardization was performed using z-score normalization as follows:

$$x_N = \frac{x - \mu}{\sigma} \quad (1)$$

where μ and σ denote the mean and standard deviation, respectively, computed exclusively from the training data. These statistics were subsequently applied to both the training and test sets to avoid information leakage. The target variable (humus content) was separated from the predictor variables after the normalization.

To explore the linear dependencies among the input features and between the predictors and SOC, a correlation analysis was conducted on the standardized dataset. The resulting correlation matrix was visualized to assess the strength of the pairwise relationships and potential multicollinearity. This analysis provides preliminary insights into linear associations and supports the interpretation of regression coefficients in subsequent modeling stages.

1.1. Linear Regression Framework

Let

$$x_i = \left[x_{i_1}, x_{i_2}, \ldots, x_{i_N}\right]^T \in R^N \quad (2)$$

denote the feature vector of the *i*-th soil sample, and

$$y_i \in R \quad (3)$$

represents the corresponding SOC value. The linear regression model is defined as

$$\hat{y}_i = w^T x_i \quad (4)$$

where $w \in R^N$ is the vector of regression coefficients.

The model parameters were estimated by minimizing the Mean Squared Error (MSE) loss:

$$J(w) = \frac{1}{M}\sum_{i=1}^{M}(y_i - w^T x_i)^2 \quad (5)$$

where M is the number of training samples.

1.2. Linear Least Squares (LLS)

In matrix form, let:

$$X \in R^{M\times N}, \qquad y \in R^M \quad (6)$$

The closed-form solution of the Linear Least Squares problem is obtained by minimizing $J(w)$, yielding:

$$\hat{w}_{LLS} = (X^T X)^{-1} X^T y \quad (7)$$

This solution provides the optimal parameter vector under the assumption of a full column rank and serves as a reference baseline for evaluating gradient-based optimization methods.

1.3. Stochastic Gradient Descent with Adam Optimization

Gradient-based optimization methods iteratively update model parameters according to the gradient of the loss function. In the case of stochastic gradient descent, the gradient is approximated using individual samples or small subsets:

$$\nabla J(w) \approx -2(y_i - w^T x_i)x_i \quad (8)$$

The Adam optimizer enhances stochastic gradient descent by incorporating adaptive moment estimation [7]. Parameter updates are computed as:

$$m_t = \beta_1 m_{t-1} + (1-\beta_1)\nabla J(w_t) \quad (9)$$

$$v_t = \beta_2 v_{t-1} + (1-\beta_2)(\nabla J(w_t))^2 \quad (10)$$

$$w_{t+1} = w_t - \eta\frac{m_t}{\sqrt{v_t} + \epsilon} \quad (11)$$

where η is the learning rate, β_1 and β_2 are decay coefficients, and ϵ is a small constant to ensure numerical stability.

1.4. Gradient Algorithm with Minibatches (GAM)

In minibatch gradient descent, the training dataset is partitioned into batches of size B. For each minibatch B_k,the gradient is computed as:

$$\nabla J_{B_k}(w) = \frac{1}{B}\sum_{i\in B_k} -2(y_i - w^T x_i)x_i \quad (12)$$

Model parameters are updated according to:

$$w_{t+1} = w_t - \eta \nabla J_{B_k}(w_t) \quad (13)$$

This approach balances convergence stability and computational efficiency, making it suitable for large-scale datasets.

Model performance was assessed on both training and test datasets using multiple metrics, including mean prediction error, standard deviation of prediction error, Mean Squared Error (MSE), and the coefficient of determination (R^2). The coefficient of determination was computed using its standard definition based on the ratio of residual variance to total variance [3]. Quantitative performance results are summarized in tabular form, while qualitative model behavior is illustrated through error distributions, regression coefficients, and predicted-versus-observed plots.

Results

Figure 1 presents the correlation matrix of the standardized input features and the target SOC variable. The analysis reveals moderate linear correlations between SOC (humus content) and spatial coordinates (latitude and longitude), while agrochemical indicators such as P_2O_5 and K_2O exhibit weaker linear relationships with SOC. Additionally, moderate correlations are observed among some chemical variables, indicating limited multicollinearity.

These findings suggest that spatial factors contribute more strongly to linear SOC variability than individual nutrient indicators, while the overall absence of strong linear dependencies highlights the inherent limitations of linear regression models for SOC prediction.




Figure 1

Figures 2-4 summarize the results obtained using the closed-form Linear Least Squares model. Figure 2 presents the optimized regression coefficients, revealing stable and interpretable feature contributions. Figure 3 illustrates the relationship between predicted and observed SOC values for the test dataset. Figure 4 shows the error distributions for training and test datasets, which are centered near zero and exhibit similar shapes, indicating unbiased predictions and good generalization.

The LLS model captures a general linear trend in SOC variability but exhibits increasing dispersion at higher SOC values, indicating heteroscedastic behavior and systematic underestimation of higher SOC levels.




Figure 2. $\hat{w}$




Figure 3. $\hat{y}$ vs y for test dataset





Figure 4. Histogram of $y - \hat{y}$ for training and test datasets

The results obtained using minibatch gradient descent are presented in Figures 5-7. The regression coefficients in Figure 5 are consistent with those obtained using the closed-form solution, confirming convergence toward the same linear model. Predicted versus observed SOC values shown in Figure 6 demonstrate prediction patterns nearly identical to those of the LLS model. Error distributions shown in Figure 7 closely resemble those of the LLS model, with training and test errors displaying similar spread and near-zero mean.

These results indicate that minibatch gradient descent effectively approximates the closed-form solution while maintaining stable generalization performance.






Figure 5. $\hat{w}$

Figure 6. $\hat{y}$ vs y for test dataset





Figure 7. Histogram of $y - \hat{y}$ for training and test datasets

Figures 8-10 present the results for the stochastic gradient descent model optimized using the Adam algorithm. The optimized regression coefficients shown in Figure 8 remain consistent in magnitude and relative importance across features. Figure 9 illustrates the predicted versus observed SOC values for the test dataset. Figure 10 shows the error distributions for training and test sets, which remain centered around zero but exhibit slightly higher variance compared to the LLS and minibatch models.

Although the Adam-optimized model converges to a similar solution, slight variability in prediction errors is observed, reflecting the stochastic nature of the optimization process.






Figure 8. $\hat{w}$

Figure 9. $\hat{y}$ **vs** y **for test dataset**




Figure 10. Histogram of $y - \hat{y}$ **for training and test datasets**

Quantitative performance metrics for all models are summarized in **Table 1**, including mean error (μ_e), standard deviation of error (σ_e), Mean Squared Error (MSE), and coefficient of determination (R^2) for both training and test datasets.

	Dataset	μ_e	σ_e	**MSE**	$\mathbf{R^2}$
LLS	Training	-1.1×10^{-15}	0.325	0.106	0.339
	Test	-3.8×10^{-3}	0.329	0.108	0.312
SGD	Training	-1.2×10^{-15}	0.328	0.107	0.328
	Test	-4.2×10^{-3}	0.338	0.114	0.272
GAM	Training	-1.0×10^{-15}	0.325	0.106	0.338
	Test	-3.6×10^{-3}	0.329	0.108	0.311

All three linear regression models achieve comparable performance, with test-set R^2 values ranging from approximately **0.27 to 0.31**. The Linear Least Squares and minibatch gradient descent models demonstrate nearly identical predictive accuracy, while the stochastic gradient descent model with Adam optimization yields slightly lower test performance. The small gap between training and test metrics across all models indicates stable generalization and absence of overfitting.

Overall, these results confirm that predictive performance is primarily limited by the linear model structure rather than by the choice of optimization strategy.

Discussion. The results demonstrate that linear regression models provide stable and interpretable predictions for Soil Organic Carbon (SOC) when applied to large-scale soil

datasets. Across all optimization strategies, including Linear Least Squares, minibatch gradient descent, and stochastic gradient descent with Adam, model behavior and predictive performance remain highly consistent. This confirms that optimization methodology has limited influence on predictive outcomes when the underlying model structure is linear.

Quantitative evaluation shows that linear models explain approximately 27–31% of SOC variance on the test dataset. While lower than the performance reported for advanced machine learning models [4–6], this result is expected given the complex and nonlinear nature of SOC dynamics. The small difference between training and test performance indicates good generalization and suggests that predictive limitations arise from model expressiveness rather than overfitting.

Analysis of regression coefficients and correlation patterns reveals that spatial variables contribute more strongly to linear SOC prediction than individual agrochemical indicators. This finding aligns with prior studies emphasizing the spatial structure of SOC variability [1,5]. The relatively weak linear influence of chemical variables suggests that their relationship with SOC is nonlinear or context-dependent.

Overall, the findings highlight the role of linear regression models as transparent and computationally efficient baselines in digital soil analytics, while underscoring the need for nonlinear machine learning approaches to achieve higher predictive accuracy in practical applications.

Conclusions

This study presented a comparative analysis of linear regression models for Soil Organic Carbon (SOC) prediction using a large-scale soil dataset derived from routine laboratory analyses. Closed-form Linear Least Squares, minibatch gradient descent, and stochastic gradient descent with Adam optimization were evaluated within a unified framework. All models exhibited stable generalization behavior, with consistent regression coefficients and similar predictive performance across optimization strategies.

Quantitative results indicate that linear regression models explain approximately 27–31% of SOC variability, highlighting both their interpretability and their inherent limitations. These findings confirm that predictive performance is primarily constrained by the linear model structure rather than by the choice of optimization method. While linear models serve as transparent and computationally efficient baselines for digital soil analysis, they are insufficient for capturing the complex, nonlinear dynamics governing SOC distribution.

Future work will focus on extending this analysis to regularized linear models and advanced nonlinear machine learning approaches, including ensemble and kernel-based methods. Incorporating additional data sources, such as remote sensing and temporal information, is expected to further enhance SOC prediction accuracy within digital agriculture and soil monitoring systems.

Acknowledgements

The authors express their gratitude to the Republican Center for Agrochemical Analysis of Uzbekistan for providing access to the soil laboratory data used in this study.

REFERENCES

1. U. Stockmann, M. A. Adams, J. W. Crawford, et al., *The knowns, known unknowns and unknowns of sequestration of soil organic carbon.* Agriculture, Ecosystems & Environment, vol. 164, pp. 80-99 (2013).

https://doi.org/10.1016/j.agee.2012.10.001

1. R. Lal. *Soil carbon sequestration impacts on global climate change and food security*. Science, vol. 304, no. 5677, pp. 1623-1627 (2004). https://doi.org/10.1126/science.1097396
2. T. Hengl, J. M. de Jesus, G. B. Heuvelink, et al., *SoilGrids250m: Global gridded soil information based on machine learning*. PLOS ONE, vol. 12, no. 2, pp. 1-40, (2017). https://doi.org/10.1371/journal.pone.0169748
3. P.D.S.N. Somarathna, B.P. Malone, and B. Minasny. *Local regression kriging for mapping soil organic carbon*. Geoderma Regional, vol. 7, no. 1, pp. 38-48 (2016). https://doi.org/10.1016/j.geodrs.2015.12.002
4. J. Padarian, B. Minasny, and A.B. McBratney. *Using deep learning for digital soil mapping*. SOIL, vol. 5, no. 1, pp. 79-89 (2019). https://doi.org/10.5194/soil-5-79-2019
5. A. Kumar, P.C. Moharana, R.K. Jena, et al., *Digital Mapping of Soil Organic Carbon Using Machine Learning Algorithms in the Upper Brahmaputra Valley of Northeastern India*. Land, vol. 12, n. 10, 1841. https://doi.org/10.3390/land12101841
6. D.P. Kingma, J. Ba, *Adam: A Method for Stochastic Optimization*. International Conference on Learning Representations, (2014).
7. https://doi.org/10.48550/arXiv.1412.6980

ЭВОЛЮЦИЯ ПОДГОТОВКИ КАДРОВ КАК ФАКТОР УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ

Икрамов Мурат Акрамович[1], Абдурашидова Нигора Алишеровна[2]
[1]д.э.н., профессор кафедры “Маркетинг” Ташкентского государственного экономического университета, Узбекистан;
[2]PhD кафедры “Маркетинг” Ташкентского государственного экономического университета, Узбекистан
https://doi.org/10.5281/zenodo.18271767

Аннотация. *В условиях цифровизации экономики существенно возрастает роль высококвалифицированных специалистов, в том числе маркетологов, что обуславливает необходимость уточнения требований, предъявляемых к профессиональным компетенциям кадров в сфере маркетинга, а также к системе их подготовки. В статье на основе анализа опыта системы высшего образования Республики Узбекистан предложены мероприятия, направленные на пересмотр содержания образовательных стандартов, учебных планов и сроков подготовки специалистов-маркетологов с учётом современных требований цифровой экономики.*

Ключевые слова. *Система подготовки и переподготовки, требования к маркетологам, подходы к подготовке магистрантов.*

Введение. В принятой Стратегии «Узбекистан-2030» особое внимание уделено подготовке кадров, в особенности креативных, способных решать проблемы в условиях высокой конкуренции, неопределенности и различных катаклизмов, которые происходят в настоящее время (COVID-19, локальные войны и др.). При этом современные кадры должны позволить достичь поставленных целей в этой стратегии - увеличение объема валового внутреннего продукта до 160 млрд. долларов и дохода на душу населения до 4 тыс. долларов [1]. Достижению этих задач должны соответствовать знания и опыт кадров-маркетологов, которые в условиях развития международных отношений выходит на первые планы, так как внутренние и внешние проблемы любой страны, в том числе и Узбекистана, необходимо решать с учётом интересов всех стран, а это требует хорошей подготовленности кадров, занимающихся удовлетворением потребностей.

В данной статье, нами предлагается совершенствование системы подготовки и переподготовки маркетологов, изменения подхода и требований к подготовке магистрантов по этой специальности.

Анализ теоретических или практических решений проблемы. К большому сожалению, классиками теории маркетинга, таких как Ф.Котлер, Д.Траут, П. Друкер и других, во множественных их научных трудах и учебниках мало уделялось внимание таким вопросам, как должен формироваться современный маркетолог, каким требованиям они должны соответствовать, какими качествами должны обладать. Хотя, Питер Друкер в своих работах отмечал, что «В современной экономике успех приходит к тому, кто способен познать самого себя - изучить свои сильные стороны и свои ценности, понять, что ему нужно для эффективной работы» [4]. Но это явно недостаточно для выработки требований к личности маркетолога в современных условиях.

Большой вклад в формирование маркетологов, как специалистов использующих современные техники и технологии, методы изучения и удовлетворения потребностей предприятий и населения можно встретить в трудах И.А.Аренкова, Г.Л.Багиева, С.Г.Божук, С.В.Карповой, Ш.Дж,Эргашходжаевой и др. Однако целостного подхода к подготовке маркетологов, на наш взгляд, ещё сформировать не удалось, тем более, в условиях повсеместной цифровизации и внедрения искусственного интеллекта.

Методология авторского исследования. Будущие маркетологи, выбирая эту профессию, должны понять, что маркетинг это такая система, которая предполагает, превращения спроса и желаний потребителей в прибыль производителей. Иначе говоря, любой субъект производства, который производит товар или оказывает услугу, ориентируется на получение прибыли, а потребитель, хочет удовлетворить свой потребность при своих ограниченных ресурсах. Исходя из этого, нами использованы методы дедукции, анализа конкретных ситуаций и прогнозирования, которые позволили сделать предложения по совершенствованию подготовки современных маркетологов.

Обеспечение эффективной системы подготовки маркетологов требует обратить внимание на следующие направления:

1. Создание целостной, диалектической, гибкой системы маркетинга, которая была бы адаптивной и восприимчивой к спросу потребителей, рыночным изменениям (конъюнктура и т.п.), маркетинговым инновациям, интеллектуальному сервису, международному бизнесу.
2. При рационализации маркетинговой функциональной организации, обеспечивающей четкого распределения должностных функций между работниками управления и производства, появляется возможность принимать программный маркетинг.
3. Совершенствование организационного механизма маркетинга за счёт расширения кооперирования и интегрирования маркетинговых функций в рамках ассоциации или масштабе различных предприятий, то есть, рационализация структуры управления и т.д.
4. Улучшение кадровой политики, подразумевающую организации эффективной системы подготовки и переподготовки кадров-маркетологов.
5. Цифровизация маркетинговой деятельности предполагает обновления техники, технологии, методов обработки информации и принятия маркетинговых решений.
6. Совершенствование управления- создание системы управления маркетингом, научное обоснование системы (функциональных и обеспечивающих) и организация рационального их функционирования.
7. Одним из важнейших функций маркетологов должна состоять из формирования культуры потребления, продвижения местных брендов, сохранять окружающую среду.

Вышеуказанные направления требуют пересмотра учебных образовательных стандартов и технологии обучения, укрепления материально-технической базы ВУЗов, а также их корпоративных связей с предприятиями потребителями, которые устанавливают требования к будущим маркетологом.

На наш взгляд, при подготовке в бакалавриатуре направления «Маркетинг», достаточным является три года, как по опыту развитых стран, когда как основное

внимание должно уделяться подготовке специалистов в магистратуре, где полноценно будут обучаться будущие маркетологи.

Полученные результаты и выводы наших исследований показывают, как нам представляются, подготовка в магистратуре должна осуществляться в трёх формах, а именно:

1. Подготовка кадров для научной и педагогической деятельности в области маркетинга.

Здесь магистранты должны учиться в течение 2-3 лет, если иметь уклон научной деятельности, то 60-70% диссертационный работы по PhD, должно осуществляться в процессе обучения в магистратуре. Иначе говоря, из отведённых 2-3 лет только год необходимо отводить на получение теоретических знаний по специальным предметам, где магистрантам даются азы научно-педагогической деятельности, методики, социологии, психологии, а остальное время работать индивидуально с научным руководителем, проводить исследования в предприятиях и организациях, посещать занятия профессора, чтоб приобрести навыки преподавателя и научного исследователя.

2. Подготовка руководящих работников для отрасли. За рубежом практикуется подготовка по системе MA (Master of Administration), в основном для руководства подразделениями компании. На наш взгляд, обучение по этой системе также должно происходить в течение 2-3 лет, при этом опять же в течение года должно осуществляться теоретическая подготовка в области менеджмента, законодательства, работы с финансовыми и другими учреждениями, а остальное время должно уделяться прохождению стажировки, желательно дублером какого-то руководителя подразделения компании, где в последующем магистрант будет продолжать свою трудовую деятельность. Как нам представляется, по итогам обучения нет надобности писать диссертацию, как это делается сейчас, ограничиться защитой проекта по теме исследования.

3. Последняя группа, наиболее многочисленная чем предыдущие, эта подготовка специалистов для ведения частного бизнеса.

Опять же если посмотреть опыт зарубежных компаний, это система MBA (Master of Business Administration), где идет обучение ведению личного бизнеса, который требует знаний по работе с органами налогообложения, банками по получению кредитов, таможней и другими организациями, касающихся ведения собственного дела. В рамках такого обучения сроки могут варьироваться от года до двух, где также не рекомендуется выполнение диссертационной работы, а ограничиться бизнес-проектом, которую следует защитить перед комиссией. При этом за счет сокращения сроков обучения можно увеличить охват желающих, собирающихся начать или развивать свой бизнес.

На наш взгляд, система переподготовки и повышения квалификации, также требует реформирования. В этих целях надо начать с преподавателей ВУЗов, которые в дальнейшем будут обучать кадров по новым методикам и технологиям. При этом они могут осуществляться различными формами: повышение квалификации как в традиционных Центрах подготовки и переподготовки кадров, так в ведущих зарубежных ВУЗах; проходить краткосрочные стажировки от месяца до года на предприятиях и организациях, партнеров по интеграции «наука-образование-производство»; проходить научно-методическую стажировку при выполнении совместных проектов, научных грантов и других форм кооперирования.

Особое внимание следует уделить специалистам, которые работают на определённых должностях маркетологов организаций и предприятий. Как показывает кадровый анализ, большинство работающих на этих должностях, не имеют соответствующего образования, что требует их переподготовки и прохождения повышения квалификации. В настоящее время наша кафедра «Маркетинг» совместно с Ассоциацией Маркетологов Республики Узбекистан намечаются проведение сертификации этих кадров, которые входят в состав Ассоциации. В условиях цифровизации, маркетологам отраслевых предприятий и организаций, необходимы новые современные навыки, которые будут очень полезными и необходимы при работе в условиях конкуренции. Как отмечал наш партнёр и соавтор многих научных и методических трудов проф. Асаул А.Н., что «Наличие образования-еще не залог успешной и богатой жизни. Образование, безусловно необходимо, но главное-научиться заробатывать» [3].

В целях достижения основных задач подготовки квалифицированных маркетологов надо, как нам представляется, проводить отбор среди одарённой молодежи уже в-пятых-шестых классах школы, чтобы уже начиная с 8-9 классов их обучать по целевым программам. В частности, форма дуального обучения, определенная в принятом в 2020 году в Законе Республики Узбекистан “Об образовании”, когда теоретическая часть овладения обучающимся необходимыми знаниями, квалификацией и навыками осуществляется при образовательной организации практически -на рабочем месте обучающегося [4].

Возможные направления будущих исследований.

Самый главный вопрос заключается в том, кто и как будет финансировать такую непрерывную подготовку. Как нам представляется, финансирование должно происходить в форме государственного-частного партнерства, то есть за счет средств государственного бюджета, международных фондов и фонда “Эл-юрт Умиди” (“Надежда страны”), предприятий и предпринимателей, различных спонсоров. Важное значение играет участие ВУЗов при отборе, обучении, выделения именных стипендий, оплаты контрактов на обучение. ВУЗ ы также должны регулировать учебные стандарты и планы, обеспечивающие интеграцию с производством, а также непрерывность образования и согласовать с заказчиками- потребителями по насущным требованиям современной техники и технологии.

Необходимо работать над восстановлением учебно-методических объединений в области маркетинга, включающих специалистов как теоретиков, так и практиков различных стран. Например, на базе ведущих Российских ВУЗов (СПбГУ, СПбГЭУ, СПбГПУ и др.), в которых ранее действовали УМО по различным специальностям.

Расширять совместную деятельность по выполнению научных, учебных, методических и других организационных работ, которые на данный момент ведутся, но явно в недостаточных масштабах, а самое главное, без надлежащей эффективности.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Указ Президента Республики Узбекистан “О стратегии Узбекистана- 2030” УП-158, от 11 сентября 2023 г.
2. Закон Республики Узбекистан “Об образовании” от 23 сентября 2020г.

3. *Асаул А.Н.* Как консервировать образование в успех. / За строительные кадры, май 2023 г. №5(199)
4. *Друкер П.* Рынок: как выйти в лидеры. –М.: Прогресс, 1992. с 132.
5. *Икрамов М.А.* Проблемы и решения подготовки интеллектуальных кадров в условиях цифровизации экономики// International journal of theoretical and practical research., Т.2, №24, 2022 г.
6. *Гулямов С.С., Икрамов М.А.* Модель образования Республика Узбекистан в условиях цифровой трансформации. // Евразийский журнал “Проблемы современной экономики” №3, 2024.,с.179-182.

O‘ZBEKISTON SHAROITIDA KICHIK BIZNESI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARI

Narmamatova Muxlisa Rasul qizi[1], Umarova Mukaddas Abbasovna[2]
[1]Millat Umidi “Biznes boshqaruvi” kafedrasi 2-kusr Bakalavri
[2]Ilmiy rahbar: Millat Umidi Universiteti Biznes boshqaruvi kafedrasi professori i.f.d.
https://doi.org/10.5281/zenodo.18279641

Annotatsiya*. Ushbu maqolada O‘zbekiston sharoitida kichik biznesni rivojlantirishning strategik yo‘nalishlari o‘rganilgan. Kichik biznesning iqtisodiyotdagi o‘rni, bandlikni oshirish va tadbirkorlik muhitini yaxshilashdagi roli tahlil qilingan. Shuningdek, davlat tomonidan berilayotgan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari, kreditlash tizimi, soliq yengilliklari, innovatsion startaplar, ayollar va yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish bo‘yicha strategiyalar misollar bilan yoritilgan. Keltirilgan xulosalar kichik biznesning barqaror rivoji uchun muhim omillarni aniqlashga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *Kichik biznes, tadbirkorlik, innovatsiya, soliq imtiyozlari, davlat qo‘llab-quvvatlashi, klaster tizimi, eksport, startap, raqamli iqtisodiyot, ayollar tadbirkorligi, yoshlar tadbirkorligi.*

Аннотация*. В данной статье анализируются стратегические направления развития малого бизнеса в условиях Узбекистана. Рассматриваются роль малого предпринимательства в экономике, государственные механизмы поддержки, налоговые и кредитные льготы, а также развитие инновационного и цифрового предпринимательства. Кроме того, изучены стратегии увеличения экспортного потенциала, формирования региональных кластеров и стимулирования молодёжного и женского предпринимательства. Полученные выводы направлены на определение факторов устойчивого развития малого бизнеса в стране.*

Ключевые слова: *малый бизнес, предпринимательство, инновации, налоговые льготы, государственная поддержка, кластерная система, экспорт, стартап, цифровая экономика, женское предпринимательство, молодёжное предпринимательство.*

Abstract*. This article analyzes the strategic directions for the development of small business in Uzbekistan. It examines the role of small entrepreneurship in the national economy, state support mechanisms, tax and credit incentives, as well as the development of innovative and digital entrepreneurship. The study also highlights strategies for expanding export potential, establishing regional clusters, and promoting youth and women entrepreneurship. The conclusions identify essential factors that ensure the sustainable growth of small businesses in the country.*

Keywords: *small business, entrepreneurship, innovation, tax incentives, state support, cluster system, export, startup, digital economy, women entrepreneurship, youth entrepreneurship.*

Kirish. O‘zbekiston iqtisodiy taraqqiyotining muhim omillaridan biri — kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishdir. Bugungi globallashuv sharoitida kichik biznes nafaqat ichki bozorni to‘ldirish, balki yangi ish o‘rinlari yaratish, innovatsiyalarni joriy etish, eksport salohiyatini oshirish kabi jarayonlarda ham muhim rol o‘ynaydi. Mamlakatda so‘nggi yillarda

tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, soliqlarni soddalashtirish, elektron davlat xizmatlarini yo‘lga qo‘yish, imtiyozli kreditlar ajratish kabi bir qator islohotlar amalga oshirildi.Ushbu maqolaning maqsadi — O‘zbekiston sharoitida kichik biznesni rivojlantirishning asosiy strategiyalarini tahlil qilish, ularni amaliy misollar asosida asoslab berish va takomillashtirish bo‘yicha xulosalar chiqarishdan iborat.

1. Kichik biznesning milliy iqtisodiyotdagi makroiqtisodiy ahamiyati

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sektori milliy iqtisodiyotning strukturaviy barqarorligini ta’minlovchi asosiy institutsional komponentlardan biri hisoblanadi. Mazkur sektor iqtisodiy tizimda moslashuvchanlik darajasi yuqori bo‘lgan subyektlar majmuasini shakllantiradi hamda bozor kon’yunkturasidagi o‘zgarishlarga tezkor javob qaytarish imkoniyatiga ega. Kichik biznes kapital sig‘imi nisbatan past bo‘lgan faoliyat turlarini rivojlantirish orqali resurslardan samarali foydalanishni ta’minlaydi.

Bundan tashqari, kichik biznes hududiy rivojlanish nomutanosibliklarini yumshatish, ichki mehnat bozorida bandlikni oshirish va aholi daromadlarini diversifikatsiya qilishda muhim rol o‘ynaydi. Hududlarda kichik biznesning rivojlanishi lokal iqtisodiy faollikni kuchaytirib, ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka xizmat qiladi.

Misol:

Qishloq hududlarida faoliyat yuritayotgan kichik ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish subyektlari mahalliy bandlik darajasini oshirib, ichki migratsiya jarayonlarini sekinlashtirmoqda

2. Davlatning institutsional siyosati va kichik biznesni tartibga solish mexanizmlari

Davlat tomonidan amalga oshirilayotgan institutsional islohotlar kichik biznes uchun qulay biznes-muhitni shakllantirishga yo‘naltirilgan. Normativ-huquqiy bazaning liberallashtirilishi, ruxsat berish tartib-taomillarining qisqartirilishi va davlat xizmatlarining raqamlashtirilishi tadbirkorlik faoliyatining tranzaksiya xarajatlarini kamaytiradi.Soliq siyosatining optimallashtirilishi va fiskal yukning bosqichma-bosqich kamaytirilishi kichik biznes subyektlarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlaydi hamda ularni norasmiy sektordan rasmiy iqtisodiyotga integratsiyalashuviga turtki beradi.

Misol:

Soddalashtirilgan soliq rejimlarining joriy etilishi kichik biznes subyektlari sonining rasmiy statistika bo‘yicha ortishiga olib keldi.

3. Innovatsion va raqamli tadbirkorlikni rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmlari

Innovatsion faoliyat kichik biznesning uzoq muddatli raqobatbardoshligini ta’minlovchi asosiy determinant hisoblanadi. Raqamli texnologiyalarni joriy etish ishlab chiqarish va boshqaruv jarayonlarining samaradorligini oshiradi, axborot asimmetriyasini kamaytiradi hamda bozorga kirish to‘siqlarini pasaytiradi.

Elektron tijorat, raqamli marketing va onlayn to‘lov tizimlari kichik biznes subyektlari uchun yangi iqtisodiy platformalarni shakllantirib, ularning geografik qamrovini kengaytiradi.

Misol:

Raqamli savdo platformalaridan foydalangan kichik ishlab chiqaruvchilar mahsulot realizatsiyasi hajmini sezilarli darajada oshirmoqda.

4. Kichik biznesning eksport salohiyatini oshirish va tashqi iqtisodiy integratsiya

Kichik biznes subyektlarining tashqi bozorlarga chiqishi milliy iqtisodiyotning eksport diversifikatsiyasini ta’minlashda muhim omil hisoblanadi. Eksport faoliyati mahsulot sifatini xalqaro standartlarga moslashtirishni talab etib, ishlab chiqarish jarayonlarining modernizatsiyasiga olib keladi.

Davlat tomonidan eksportchilarni institutsional qo‘llab-quvvatlash, bojxona va sertifikatlash tizimlarini soddalashtirish kichik biznesning tashqi iqtisodiy faoliyatdagi ishtirokini faollashtiradi

Misol:

Mahalliy oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi kichik korxonalar xalqaro sertifikatlar asosida qo‘shni davlatlarga eksportni kengaytirmoqda.

5. Hududiy klasterlash va ishlab chiqarish kooperatsiyasi

Klasterlash modeli kichik biznes subyektlarini yagona qiymat zanjiri doirasida integratsiyalash orqali sinergetik samaradorlikni yuzaga keltiradi. Bunda ishlab chiqarish, qayta ishlash, logistika va marketing jarayonlari o‘zaro bog‘langan holda rivojlanadi. Hududiy klasterlar mahalliy resurslardan optimal foydalanish, texnologik transfer va innovatsion jarayonlarning tezlashuviga xizmat qiladi.

Misol:

Agrosanoat klasterlari doirasida kichik fermer xo‘jaliklari va qayta ishlash korxonalari o‘zaro kooperatsiyada faoliyat yuritmoqda.

6. Ayollar va yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati

Ayollar va yoshlar tadbirkorligi iqtisodiy inklyuziya va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda strategik ahamiyatga ega. Ushbu ijtimoiy guruhlarning tadbirkorlik faoliyatiga jalb etilishi mehnat resurslaridan samarali foydalanish, daromadlar tengligini ta’minlash va innovatsion salohiyatni oshirishga xizmat qiladi.

Ayollar va yoshlar ko‘pincha xizmat ko‘rsatish, raqamli texnologiyalar va kreativ industriyalarda faol bo‘lib, ushbu yo‘nalishlar kichik biznes uchun yuqori qo‘shilgan qiymat yaratadi.

Misol:

Yosh tadbirkorlar tomonidan tashkil etilgan IT-startaplar eksportga yo‘naltirilgan raqamli xizmatlar orqali tashqi bozorlarga chiqmoqda.

Xulosa. O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish iqtisodiy o‘sishni jadallashtirish, bandlik darajasini oshirish hamda milliy iqtisodiyotning barqarorligini ta’minlashda muhim strategik ahamiyatga ega. Kichik biznesning moslashuvchanligi va innovatsion salohiyati uni bozor iqtisodiyotining faol va raqobatbardosh subyekti sifatida namoyon etadi.

Davlat tomonidan amalga oshirilayotgan institutsional va fiskal islohotlar, soliq tizimining liberallashtirilishi, moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlarining kengaytirilishi hamda raqamli infratuzilmaning rivojlanishi kichik biznes uchun qulay biznes-muhitni shakllantirmoqda. Shu bilan birga, innovatsion va raqamli tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, eksport faoliyatini rag‘batlantirish va hududiy klasterlar orqali kooperatsiyani rivojlantirish kichik biznesning raqobatbardoshligini sezilarli darajada oshirmoqda.

Alohida e’tibor talab qiladigan yo‘nalishlardan biri — ayollar va yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish bo‘lib, ushbu qatlamlarning iqtisodiy faolligini oshirish ijtimoiy inklyuziya, daromadlar tengligini ta’minlash va innovatsion iqtisodiyotga o‘tishda muhim omil hisoblanadi. Ularni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini yanada takomillashtirish, bilim va malaka oshirish dasturlarini kengaytirish, shuningdek, biznesni raqamlashtirish jarayonlarini jadallas

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va biznes muhitini yanada yaxshilashga doir chora-tadbirlar to‘g‘risidagi Farmon. — Toshkent, 2022.
2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi.
3. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. — Toshkent: Adolat nashriyoti, 2024-yilgi tahrir.
4. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi.
5. O‘zbekistonda kichik biznes va tadbirkorlik rivoji bo‘yicha rasmiy statistik va tahliliy ma’lumotlar. — Toshkent, 2023–2024.
6. Karimov, A., Xolmatov, B. Kichik biznes va tadbirkorlik asoslari. O‘quv qo‘llanma. — Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti, 2023.
7. Porter, M. E. Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance. — Boston: Harvard Business School Press, 1985.
8. International Monetary Fund (IMF). Uzbekistan: Country Report and Economic Review. — Washington, DC, 2022–2024.
9. World Bank. Doing Business Reports: Measuring Business Regulations. — Washington, DC, 2018–2020. OECD.
10. Innovation, Automation and Entrepreneurship in Emerging Economies. — Paris, 2021. UNDP.
11. Digital Transformation and Entrepreneurship Development in Uzbekistan. — New York, 2022.

ZAMONAVIY AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARINI QO‘LLASH ORQALI BOSHQARUV JARAYONINI RAQAMLASHTIRISH

Adiljonova Fotimai Zahro Azizbek qizi, Raxmonqulova Madinabonu Osmonqul qizi
BA-103 guruh Millat Umidi universiteti
https://doi.org/10.5281/zenodo.18271486

Annotatsiya. *Ushbu maqolada zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) boshqaruv jarayonlariga ta’siri, ularning tashkilotlarda, davlat boshqaruvida hamda iqtisodiy sohalarda qo‘llanilishining ustunliklari va afzalliklari yoritiladi. Raqamlashtirishning boshqaruv tizimidagi roli, elektron axborot almashinuvi, avtomatlashtirish, shaffoflikni ta’minlash va tezkor qaror qabul qilish jarayonlariga ta’siri tahlil qilinadi. Shuningdek, O‘zbekistonda so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan raqamli islohotlar misolida AKTning amaliy ahamiyati ko‘rsatib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *raqamlashtirish, AKT, boshqaruv, elektron tizim, avtomatlashtirish, ma’lumotlar bazasi, qaror qabul qilish, innovatsiya.*

Annotation. *This article highlights the impact of modern information and communication technologies (ICT) on management processes, as well as their advantages and benefits in organizations, public administration, and economic sectors. The role of digitalization in management systems, electronic information exchange, automation, ensuring transparency, and accelerating decision-making processes is analyzed. Additionally, the practical significance of ICT is demonstrated through recent digital reforms in Uzbekistan.*

Keywords: *digitalization, ICT, management, electronic system, automation, database, decision-making, innovation.*

Аннотация. *В данной статье освещается влияние современных информационно-коммуникационных технологий (ИКТ) на управленческие процессы, а также их преимущества и выгоды в организациях, государственном управлении и экономических секторах. Анализируется роль цифровизации в управленческих системах, электронного обмена информацией, автоматизации, обеспечения прозрачности и ускорения процессов принятия решений. Кроме того, практическая значимость ИКТ демонстрируется на примере последних цифровых реформ в Узбекистане.*

Ключевые слова: *цифровизация, ИКТ, управление, электронная система, автоматизация, база данных, принятие решений, инновации*

Bugungi globallashuv davrida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari inson faoliyatining barcha jabhalariga kirib bormoqda. Ayniqsa, boshqaruv tizimida raqamli texnologiyalarni qo‘llash davlat idoralari, korxonalar va tashkilotlar uchun zaruratga aylandi. Chunki bugungi kunda ma’lumot hajmi keskin oshgan, jarayonlar tezlashgan va boshqaruvdan talab qilinadigan aniqlik avvalgidan ko‘ra qat’iyroq bo‘lgan.

Shu sababli boshqaruv tizimini raqamlashtirish nafaqat qulaylik, balki raqobatbardoshlik, samaradorlik va shaffoflikning asosiy omiliga aylandi. O‘zbekistonda ham oxirgi yillarda “Raqamli O‘zbekiston – 2030” dasturi doirasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Bu islohotlarning markazida boshqaruv jarayonini to‘liq raqamlashtirish, elektron hukumat tizimini rivojlantirish va davlat xizmatlarini avtomatlashtirish kabi ustuvor vazifalar turadi.

Raqamlashtirishning boshqaruvdagi o‘rni

1. Ma’lumotlarni tezkor qayta ishlash

An’anaviy boshqaruv tizimlari ko‘plab qog‘ozbozlik, ortiqcha vaqt va inson mehnatini talab qiladi. Raqamli texnologiyalar esa har qanday ma’lumotni soniyalar ichida tahlil qilish, saqlash, saralash va yetkazish imkonini beradi. Buning natijasida:

- hujjatlar elektron shaklda yuritiladi,
- ortiqcha byurokratiya kamayadi,
- xodimlarning ishlash sur’ati oshadi.

2. Avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari

Zamonaviy dasturiy tizimlar yordamida boshqaruvning eng murakkab bo‘g‘inlari ham avtomatlashtirilmoqda. Masalan:

- elektron hujjat aylanishi (E-Hujjat),
- soliq va bojxona jarayonlarining raqamlashtirilishi,
- korxonalarda ERP (Enterprise Resource Planning) tizimlari,
- ta’lim tizimida elektron kundaliklar, reyting tizimi.

Avtomatlashtirish xodimlarning vaqtini tejaydi va xatolarning oldini oladi.

3. Shaffoflik va ochiqlikning oshishi

Raqamli tizimlarda barcha jarayonlar elektron iz qoldiradi. Bu korrupsiyaning kamayishiga, fuqarolarning davlat idoralariga ishonchining ortishiga xizmat qiladi. Masalan, davlat xizmatlarining aksariyati elektron shaklga o‘tib, ortiqcha muloqotga ehtiyoj qolmayapti.

4. Tezkor qaror qabul qilish imkoniyati

Raqamli tizimlar real vaqt rejimida tahliliy ma’lumot taqdim etadi. Bu esa rahbarlarga:

- vaziyatni aniq baholash,
- muammolarni tez aniqlash,
- eng maqbul yechimni topish

imkonini beradi.

O‘zbekistonda raqamlashtirish bo‘yicha amalga oshirilgan islohotlar

O‘zbekiston so‘nggi besh yil ichida raqamli boshqaruvni shakllantirish bo‘yicha katta yo‘l bosib o‘tdi.

1. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi

Ushbu strategiya:

- davlat boshqaruvini,
- bank tizimini,
- ta’lim va tibbiyotni,
- sanoatni

to‘liq raqamlashtirishni ko‘zda tutadi.

2. “Elektron hukumat” tizimi

Bugungi kunda 200 dan ortiq davlat xizmatlari elektron shaklda ko‘rsatilmoqda. Masalan:

- ID karta olish,
- pensiyani hisoblash,
- tadbirkorlikni ro‘yxatga olish,
- soliq hisobotlarini topshirish kabi jarayonlar onlayn amalga oshiriladi.

3. IT-Parklar va texnoparklar tashkil etilishi

IT-Parklar yoshlar uchun:

- startap g‘oyalarini amalga oshirish,
- dasturiy mahsulotlar yaratish,
- yangi loyihalarni moliyalashtirish

uchun keng imkoniyat yaratmoqda.

4. Ta’lim tizimining raqamlashtirilishi

Maktablar, kollejlar va universitetlarda:

- elektron kundalik,
- masofaviy ta’lim,
- onlayn test tizimlari

keng joriy qilindi.

Zamonaviy AKT orqali boshqaruv jarayonining afzalliklari

1. Xatoliklar kamayadi

Inson omili kamaygan sari xatolar ham kamayadi. Avtomatik tizimlar ma’lumotni aniq qayd etadi.

2. Tejamkorlik oshadi

Qog‘oz sarfi, arxiv joylari, ortiqcha xodimlar soni kamayadi.

3. Ish jarayoni soddalashadi

Har bir jarayon tez, oson va izchil bo‘lib qoladi.

4. Fuqarolarga qulaylik yaratiladi

Endi odamlar davlat xizmatidan foydalanish uchun navbatga turmaydi — ularning aksariyati onlayn.

5. Boshqaruv samaradorligi oshadi

Raqamli tahlillar, grafiklar, statistika boshqaruvni zamonaviy qiladi.

Raqamlashtirish jarayonida uchraydigan muammolar

Har qanday islohot singari, raqamlashtirish ham ayrim muammolar bilan kechadi:

- texnik vositalarning yetishmasligi,
- ayrim xodimlarning raqamli ko‘nikmalarining pastligi,
- internet tezligining barcha hududlarda bir xil emasligi,
- ma’lumotlar xavfsizligini ta’minlash masalalari.

Biroq bu muammolar muntazam ravishda hal qilinmoqda va davlat tomonidan ularni bartaraf etishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Xulosa: Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini boshqaruv jarayoniga joriy etish — bu kelajakga qo‘yilgan eng katta qadamdir. Boshqaruvni raqamlashtirish:

- davlat xizmatlarining sifatini oshiradi,
- korxona va tashkilotlarda samaradorlikni kuchaytiradi,
- iqtisodiyotni modernizatsiya qiladi,
- fuqarolarga qulaylik yaratadi,
- korrupsiya xavfini kamaytiradi.

Eng muhimi, raqamlashtirilgan boshqaruv tizimi O‘zbekistonning global raqobatga kirishida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Raqamli texnologiyalar – zamonaviy boshqaruvning yuragi, uning barqaror rivojlanishining eng muhim tayanchi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN MANBALAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida. — Toshkent, 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. “Elektron hukumatni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori. — Toshkent, 2021.
3. Turdiyev, B. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari. — Toshkent: “Iqtisodiyot” nashriyoti, 2022.
4. Karimov, O. Raqamli boshqaruv asoslari. — Toshkent: TDIU nashriyoti, 2021.
5. Shodmonov, S., Xasanov, U. Innovatsion boshqaruv va AKT rivoji. — Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2020.
6. United Nations E-Government Survey 2022. Digital Government in the Decade of Action. — New York: UN, 2022.
7. World Bank Report (2021). Digital Transformation and Governance Efficiency. — Washington, D.C.
8. OECD. Digital Government Review: Fostering Innovation and Data-Driven Public Sector. — Paris: OECD Publishing, 2020.
9. Hasanboyeva, M. Raqamli iqtisodiyot asoslari. — Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2021.
10. Qodirov, A. Davlat boshqaruvida AKTdan foydalanish. Ilmiy maqola. — “Ijtimoiy fanlar” jurnali, №3, 2022.
11. E-Government Development Index (EGDI) — United Nations, 2022.
12. IT Park Uzbekistan rasmiy veb-sayti. https://it-park.uz

РЕФОРМИРОВАНИЕ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА ОСНОВНЫХ СРЕДСТВ В СООТВЕТСТВИИ С МЕЖДУНАРОДНЫМИ СТАНДАРТАМИ ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ

Ахмедова Ирода Джуманазаровна
магистрант Ташкентского Государственного Экономического Университета – Полоцкого Государственного Университета
https://doi.org/10.5281/zenodo.18271508

Аннотация: *В условиях усиления процессов экономической глобализации и вхождения национальных экономик в международные финансовые рынки внедрение Международных стандартов финансовой отчетности (МСФО) становится особенно востребованным. Одной из приоритетных сфер преобразования бухгалтерского учета выступает учет основных средств, так как они занимают значительную долю в структуре активов организаций и оказывают заметное влияние на их финансовое положение. Учет основных средств в рамках МСФО осуществляется на основе стандарта IAS 16 «Основные средства», устанавливающего правила их признания, оценки, начисления амортизации и списания. Использование МСФО способствует повышению уровня прозрачности, надежности и сопоставимости финансовой отчетности, а также положительно влияет на инвестиционную привлекательность хозяйствующих субъектов.*

Ключевые слова: *основные средства, МСФО, IAS 16, амортизация, переоценка, обесценение активов.*

В условиях глобализации экономики и активной интеграции национальных хозяйственных систем в мировые финансовые рынки особую актуальность приобретает переход на Международные стандарты финансовой отчетности (МСФО). Одним из ключевых объектов бухгалтерского учета, требующих реформирования, являются основные средства, поскольку они формируют значительную часть активов организаций и оказывают существенное влияние на их финансовое состояние.

В соответствии с требованиями МСФО учет основных средств регламентируется стандартом IAS 16 «Основные средства», который устанавливает порядок их признания, оценки, амортизации и выбытия. В отличие от национальных стандартов бухгалтерского учета, МСФО предусматривают возможность последующей оценки основных средств по модели переоценки, применение компонентного подхода к начислению амортизации, а также обязательное тестирование активов на обесценение в соответствии с IAS 36 «Обесценение активов».

Реформирование учета основных средств на основе МСФО позволяет обеспечить более достоверное отражение стоимости активов, повысить прозрачность и сопоставимость финансовой отчетности, а также улучшить инвестиционную привлекательность организаций. Вместе с тем переход на МСФО сопровождается рядом проблем, включая недостаток квалифицированных специалистов, высокие затраты на переоценку активов и необходимость модернизации учетных информационных систем.

В результате проведённого исследования установлено, что последовательное внедрение Международных стандартов финансовой отчетности в систему учета основных средств, повышение профессиональной квалификации бухгалтерских кадров, а также приведение национальной нормативно-правовой базы в соответствие с международными требованиями выступают основными факторами эффективного реформирования бухгалтерского учета.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Международные стандарты финансовой отчетности (МСФО). Официальный перевод. — М.: IFRS Foundation, 2023.
2. IAS 16 «Основные средства» // Международные стандарты финансовой отчетности. — Лондон: IFRS Foundation.
3. IAS 36 «Обесценение активов» // Международные стандарты финансовой отчетности. — Лондон: IFRS Foundation.
4. Ковалев В. В. Финансовый учет и анализ: концепции МСФО. — М.: Финансы и статистика, 2021.
5. Палий В. Ф. Международные стандарты финансовой отчетности. — М.: ИНФРА-М, 2020.
6. Соколов Я. В., Соколов В. Я. Бухгалтерский учет: от истоков до наших дней. — М.: Магистр, 2019.
7. Ефимова О. В. Бухгалтерский учет по международным стандартам. — М.: Юрайт, 2022.

SAVDO VA ELEKTRON-TIJORATDA SUN’IY INTELLEKTDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI

Ismatillayev Amirxon Alisher o‘g‘li
Millat Umidi Universiteti talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.18271557

Annotatsiya. *Mazkur maqolada sun’iy intellekt texnologiyalarining savdo va elektron tijorat sohalarida samaradorlikka ta’siri tahlil qilinadi. Sun’iy intellekt vositalarining sotuv jarayonlarini avtomatlashtirish, mijozlarga individual yondashuvni kuchaytirish, ma’lumotlarni tahlil qilish va xarajatlarni optimallashtirishdagi o‘rni ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari ushbu texnologiyalardan foydalanishning biznes rivojlanishiga ta’sirini ochib beradi.*

Kalit so‘zlar: *sun’iy intellekt, elektron tijorat, savdo, avtomatlashtirish, mijoz yondashuvi, ma’lumot tahlili, samaradorlik.*

Аннотация. *В данной статье анализируется влияние технологий искусственного интеллекта на эффективность в сферах торговли и электронной коммерции. Рассмотрена роль инструментов искусственного интеллекта в автоматизации процессов продаж, усилении индивидуального подхода к клиентам, анализе данных и оптимизации затрат. Результаты исследования раскрывают влияние использования этих технологий на развитие бизнеса.*

Ключевые слова: *искусственный интеллект, электронная коммерция, продажи, автоматизация, клиентский подход, анализ данных, эффективность.*

Abstract. *This article analyzes the impact of artificial intelligence technologies on efficiency in the areas of trade and e-commerce. The role of artificial intelligence tools in automating sales processes, enhancing an individual approach to customers, analyzing data, and optimizing costs is considered. The results of the study reveal the impact of using these technologies on business development.*

Keywords: *artificial intelligence, e-commerce, sales, automation, customer approach, data analysis, efficiency.*

KIRISH

Globalizatsiya va raqamli texnologiyalarning tezkor rivojlanishi savdo va elektron tijorat sohalarida yangi imkoniyatlarni ochib bermoqda. Sun’iy intellekt (AI) bugungi kunda ushbu jarayonlarning ajralmas qismiga aylanib, kompaniyalar va mijozlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni yangi bosqichga olib chiqmoqda [1-2]. AI texnologiyalari savdo va elektron tijoratda katta o‘zgarishlarni amalga oshirishga yordam bermoqda. Kompaniyalar AI yordamida mijozlarning xulq-atvorini chuqurroq tahlil qilish, ularga individual takliflar yaratish va sotuv jarayonlarini avtomatlashtirish imkoniga ega bo‘lmoqdalar. Misol uchun, AI asosidagi tavsiya tizimlari mijozlarga qiziqishi mumkin bo‘lgan mahsulotlarni taklif etib, sotuvlarni oshirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, AI logistika va ta’minot zanjiri boshqaruvida ham katta rol o‘ynamoqda. Ma’lumotlarni real vaqtda tahlil qilish orqali kompaniyalar mahsulotlarning yetkazib berilish muddatlarini qisqartirish va xarajatlarni kamaytirish imkoniga ega bo‘lishadi. Shuningdek, AI asosida ishlaydigan chatbotlar va virtual yordamchilar mijozlarga 24/7 rejimida xizmat ko‘rsatib, ularning savollariga tezkor javob beradilar [8]. Elektron tijoratning raqobatbardosh bozorida AI

texnologiyalari kompaniyalarga strategik ustunlik beradi. Bozor tendensiyalarini oldindan bashorat qilish, marketing kampaniyalarini optimallashtirish va mijozlar bilan uzoq muddatli munosabatlarni qurish AI yordamida ancha samarali amalga oshiriladi [7]. Ushbu maqolada savdo va elektron tijoratda AI dan foydalanishning hozirgi holati, uning afzalliklari va qiyinchiliklari, shuningdek, kelajakdagi rivojlanish istiqbollari batafsil tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi — AI texnologiyalarining biznes jarayonlariga qo‘shadigan qiymatini aniqlash va kompaniyalarga ushbu texnologiyalardan samarali foydalanish bo‘yicha tavsiyalar berishdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Savdo va elektron tijoratda sun’iy intellektdan (AI) foydalanish bo‘yicha ilmiy adabiyotlar va amaliy tajribalar ushbu texnologiyalarning samaradorlikka sezilarli ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi. AI asosida ishlaydigan avtomatlashtirilgan tizimlar sotuv jarayonlarini soddalashtiradi va mijozlarga xizmat ko‘rsatish sifatini oshiradi. Kaplan va Haenlein tomonidan olib borilgan tadqiqotlar chatbotlar va virtual yordamchilarning mijozlar bilan samarali muloqotni ta’minlashdagi rolini ko‘rsatib beradi[62]. Ushbu vositalar kompaniyalarga mijozlar bilan 24/7 muloqot qilish va operatsion xarajatlarni kamaytirishga yordam beradi.

Shuningdek, personalizatsiya AI dan foydalanishning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Agrawal, Gans va Goldfarb mijozlarning xarid qilish xatti-harakatlarini chuqur tahlil qilish orqali ularga individual takliflar yaratish strategiyalarining samaradorligini tahlil qilgan. Bunda mijozlarning ma’lumotlari asosida tayyorlangan maxsus takliflar sotuvlarni oshiradi va mijoz sodiqligini mustahkamlaydi. Amazon va Netflix kabi kompaniyalar ushbu yondashuvdan foydalanib, tavsiya tizimlarini muvaffaqiyatli amalga oshirmoqda.

AI texnologiyalari katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish imkonini berib, bozor tendensiyalarini oldindan bashorat qilish va strategik qarorlar qabul qilishda yordam beradi. Brynjolfsson va McAfee tomonidan olib borilgan tadqiqotlar bozor dinamikasini o‘rganishda katta ma’lumotlarni qayta ishlash texnologiyalarining o‘rni haqida batafsil ma’lumot beradi. Bu, ayniqsa, raqobatbardosh elektron tijorat bozorida ahamiyatlidir.

Narxlarni dinamik belgilash algoritmlari ham AI dan foydalanishning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Davenport va Ronanki tomonidan olib borilgan tadqiqotlar narxlarni talab va taklifga mos ravishda avtomatik o‘zgartirish orqali kompaniyalarning daromadini oshirish imkoniyatlarini ko‘rsatadi[63]. Bu yondashuv bozordagi talab o‘zgarishlariga tezkor javob berishga yordam beradi va kompaniyalarni strategik jihatdan moslashuvchan qiladi.

Marketing va reklama kampaniyalarini optimallashtirishda AI vositalari katta ahamiyatga ega. Ransbotham va Kiron mijozlar segmentatsiyasini aniqlash va moslashtirilgan reklama takliflarini yaratishda AI vositalaridan foydalanishning Ahamiyatini ta’kidlaydi.

Ushbu yondashuv nafaqatmijozlarni jalb qilish samaradorligini oshiradi, balki marketing xarajatlarini optimallashtiradi[64].

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotda savdo va elektron tijoratda sun’iy intellekt (AI) texnologiyalarining samaradorligini baholash va tahlil qilish uchun bir nechta tadqiqot usullari qo‘llanildi.

[62] Kaplan, A. M., & Haenlein, M. (2020). Artificial Intelligence and Consumer Behavior. Journal of Business Research.

[63] Davenport, T. H., & Ronanki, R. (2018). Artificial Intelligence for the Real World. MIT Sloan Management Review, 59(1), 107-116

[64] Ransbotham, S., & Kiron, D. (2021). Expanding AI’s Impact with Organizational Learning. MIT Sloan Management Review, 62(3), 1-14.

Tadqiqotning asosiy maqsadi AI texnologiyalarining biznes jarayonlariga ijobiy ta’sirini aniqlash va ularni joriy etish strategiyalarini ishlab chiqishdan iborat. Birinchi bosqichda adabiyotlarni o‘rganish usuli qo‘llanildi. Ilmiy maqolalar, nashrlar va sohadagi ilg‘or kompaniyalar tajribasi o‘rganilib, AI texnologiyalarining savdo va elektron tijorat sohalaridagi asosiy qo‘llanilish yo‘nalishlari tahlil qilindi. Bu bosqichda AI asosidagi personalizatsiya, avtomatlashtirish, katta ma’lumotlarni tahlil qilish, dinamik narx belgilash va marketing strategiyalarining samaradorligi haqida ma’lumotlar yig‘ildi.


Keyingi bosqichda empirik tadqiqot usuli qo‘llanildi. Elektron tijorat platformalari (Amazon, Alibaba, Shopify va boshqalar) va savdo sohasidagi kompaniyalarning real amaliyoti o‘rganilib, AI texnologiyalarining joriy etilishi natijalari tahlil qilindi. Ushbu bosqichda quyidagi yo‘nalishlar baholandi:

- savdo hajmlariga AI texnologiyalarining ta’siri;
- xarajatlarni optimallashtirish natijalari;
- mijozlarga xizmat ko‘rsatish sifati va mijoz sodiqligining o‘zgarishi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Sun’iy intellekt (AI) texnologiyalari savdo va elektron tijoratda katta imkoniyatlar yaratmoqda. Ushbu texnologiyalar mijozlarning xulq-atvorini chuqur tahlil qilish, ularga individual takliflar yaratish, sotuv jarayonlarini avtomatlashtirish, xarajatlarni optimallashtirish va xizmat ko‘rsatish sifatini oshirishga xizmat qiladi [6]. AI texnologiyalari nafaqat korxonalarning samaradorligini oshiradi, balki mijozlarning ehtiyojlarini aniqroq qondirish orqali ularning qoniqish darajasini ham yuksaltiradi. Ayniqsa, pandemiya davrida raqamli transformatsiyaning tezlashuvi bu texnologiyalarga talabni yanada oshirdi. AI asosidagi tizimlar mijozlarni chuqurroq tushunish imkonini beradi. Masalan, AI yordamida xarid qilish odatlarining o‘zgarishi real vaqtda kuzatiladi va ularga moslashgan takliflar ishlab chiqiladi. Amazon, Alibaba kabi global gigantlar ushbu imkoniyatdan foydalangan holda, mijozlar ehtiyojlarini oldindan bashorat qilmoqda. Bu esa sotuv hajmlarining sezilarli darajada oshishiga olib keladi. Bundan tashqari, AI asosidagi tavsiya tizimlari mijozlarning individual xatti-harakatlari va qiziqishlarini hisobga olib, mos mahsulotlarni tavsiya qiladi. Netflix kabi platformalar bunday tizimlarni samarali qo‘llab, mijozlar tajribasini boyitmoqda va ularni platformada uzoqroq vaqt saqlashga erishmoqda[65].

[65] https://stat.uz/uz/



1-rasm. Savdo va Elektron-tijoratda AI dan foydalanish natijalari

Savdo va elektron tijorat sohasida sun’iy intellekt (AI) texnologiyalarining joriy etilishi sezilarli o‘zgarishlarga olib keldi [9]. Tadqiqot natijalari AI dan foydalanish samaradorligi kompaniyalarning savdo jarayonlari va mijozlarga xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilashda muhim rol o‘ynayotganini ko‘rsatadi. Quyida asosiy tahlil natijalari keltirilgan:

- Mijozlarga xizmat sifati yaxshilanishi.

AI asosidagi chatbotlar va virtual yordamchilar mijozlar savollariga tezkor va sifatli javob berishga imkon yaratadi. Ularning joriy etilishi mijozlarga xizmat ko‘rsatish vaqtini qisqartirib, ularga doimiy yordam ko‘rsatish imkonini beradi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, ushbu texnologiyalarni qo‘llash mijozlarga xizmat ko‘rsatish sifatini 35% ga oshirishga olib kelgan.

- Mijoz sodiqligining oshishi.

AI asosidagi personalizatsiya tizimlari orqali mijozlarning xarid qilish odatlari tahlil qilinib, ularga individual takliflar yaratildi. Bu esa mijozlarning kompaniyaga sodiqligini oshirdi. Tadqiqot natijalari mijozlarning qayta xarid qilish ko‘rsatkichlari 25% ga oshganini ko‘rsatmoqda.

- Xarajatlarni qisqartirish.
- AI avtomatlashtirish texnologiyalari, jumladan, dinamik narx belgilash va operatsion jarayonlarni optimallashtirish, kompaniyalar xarajatlarini sezilarli darajada kamaytirishga yordam berdi. Olingan ma’lumotlarga ko‘ra, AI yordamida xarajatlarni

AI avtomatlashtirish texnologiyalari, jumladan, dinamik narx belgilash va operatsion jarayonlarni optimallashtirish, kompaniyalar xarajatlarini sezilarli darajada kamaytirishga yordam berdi. Olingan ma’lumotlarga ko‘ra, AI yordamida xarajatlarni 20% ga qisqartirishga erishilgan.

- Bozor tendensiyalarini oldindan bashorat qilish.

AI texnologiyalari katta ma’lumotlarni (Big Data) qayta ishlash imkoniyatidan foydalanib, bozor dinamikasini kuzatish va kelajakdagi tendensiyalarni oldindan bashorat

qilishga yordam beradi. Ushbu yondashuv kompaniyalarga bozor sharoitlariga moslashish va strategik qarorlar qabul qilishda yordam berdi.

- Savdo hajmining oshishi.

AI asosidagi tavsiya tizimlari orqali mijozlarga mos mahsulot va xizmatlarni tavsiya qilish kompaniyaning umumiy savdo hajmini oshirdi. Tadqiqot natijalariga koʻra, tavsiya tizimlarini joriy etgan kompaniyalarda savdo hajmi oʻrtacha 30% ga oshgan.

- Diagramma natijalari.

Yuqoridagi ma’lumotlar quyidagi diagrammada aks ettirilgan boʻlib, u AI texnologiyalarining asosiy sohalarda qanday samaradorlikka erishganini koʻrsatadi:

- mijozlarga xizmat sifati yaxshilanishi: 35%
- mijoz sodiqligining oshishi: 25%
- xarajatlarni qisqartirish: 20%

Bu natijalar AI texnologiyalarining savdo va elektron tijoratda joriy etilishi nafaqat kompaniyalarga iqtisodiy foyda keltirayotganini, balki ularning raqobatbardoshligini oshirishda ham muhim rol oʻynayotganini tasdiqlaydi. AI texnologiyalari mijozlarning ehtiyojlarini oldindan bilish, xizmat koʻrsatish sifatini yaxshilash va sotuv jarayonlarini optimallashtirish orqali korxonalarning rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

Logistika va yetkazib berishda ham AI texnologiyalari katta oʻrin tutadi. AI yordamida ta’minot zanjiri tahlil qilinib, yetkazib berish muddatlari optimallashtiriladi. Masalan, AI asosidagi xaritalash va marshrutni optimallashtirish algoritmlari FedEx va UPS kabi kompaniyalar xarajatlarini sezilarli darajada kamaytirishga yordam berdi. Marketingda AI dan foydalanish esa nafaqat mijozlarga yoʻnaltirilgan reklama takliflarini yaratish, balki ushbu reklamalarning samaradorligini real vaqtda kuzatib borish imkonini ham beradi. Facebook va Google kabi platformalar oʻz reklama algoritmlarida AI dan foydalanib, foydalanuvchilarning qiziqishlari asosida moslashtirilgan reklama kampaniyalarini yaratadi.

AI, shuningdek, inson resurslarini tejashda ham katta ahamiyatga ega. Masalan, chatbotlar va virtual yordamchilar mijozlarning oddiy savollariga javob berib, inson ishtirokini minimallashtiradi [3]. Bu esa korxonalarga operatsion xarajatlarni kamaytirish va resurslarni boshqa strategik sohalarga yoʻnaltirish imkonini beradi. AI texnologiyalari yordamida kompaniyalar:

- bozor tendensiyalarini oldindan bashorat qilish;
- mijozlar segmentatsiyasini aniqroq aniqlash;
- narxlarni dinamik belgilash va moslashtirish kabi koʻplab afzalliklarga ega boʻladilar.

SAVDO VA ELEKTRON TIJORATDA SUN’IY INTELLEKTNING KELAJAK TRENDLARI

Generativ AI asosidagi vizual va ovozli kontent yaratish

Yaqin yillarda generativ AI savdo platformalaring asosiy drayverlariga aylanadi. AI yordamida mahsulot tavsiflari, reklama bannerlari, video taqdimotlar, ovozli sharhlar avtomatik yaratilinadi. Bu jarayon marketing xarajatlarini sezilarli qisqartiradi va kontent ishlab chiqarish tezligini oshiradi. Synthesia, HeyGen, DeepBrain kabi platformalar trend bosqichida boʻlsa, lokal bozorlar uchun moslashtirilgan yechimlar yangi imkoniyatlar yaratadi.

AI operatorlar va ovozli yordamchilarning kengayishi

Mijozlar bilan 24/7 muloqot qilish — savdo sektorining asosiy ehtiyojlaridan biri. Kelajakda AI asosidagi ovozli operatorlar ko‘p tilli virtual yordamchilar, personalizatsiyalangan chatbotlar mijozlar bilan real va tabiiy dialog yuritishga qodir bo‘ladi. AI operatorlar bir vaqtning o‘zida minglab mijozlarga xizmat ko‘rsata oladi, bu esa xizmat ko‘rsatish narxini 3–5 barobar kamaytiradi.

Dinamik narxlashning to‘liq avtomatlashtirilishi

Kelajakda AI narxlarni quyidagi faktorlar bo‘yicha real vaqt rejimida o‘zgartirib boradi. Talab va taklif, ombor zaxiralari, raqobatchi narxlari, xaridorning xarid tarixi, mavsumiylik va ob-havo. Amazon, Alibaba singari gigantlar bunga allaqachon o‘tgan, biroq 2026–2030 yillarda bu texnologiya kichik savdo korxonalariga ham ommalashadi. AI narx optimizatsiyasi savdo daromadini 5–12% ga oshirishi kutilmoqda.

Virtual do‘konlar va 3D xarid tajribasi

AR/VR texnologiyalari bilan integratsiyalashgan AI xaridorlarga quyidagilarni taqdim etadi. Mahsulotni 3D ko‘rinishda sinab ko‘rish, kiyimni virtual o‘lchab ko‘rish, mebelni uyda joylashtirilgan holatda ko‘rish. Metaverse savdo modeli rivojlanishi bilan virtual do‘konlar yangi sotuv kanali sifatida shakllanadi.

Shunday qilib, AI texnologiyalari savdo va elektron tijoratning raqobatbardoshligini oshirishda asosiy vositalardan biriga aylanib, kompaniyalarni kelajakda muvaffaqiyatli rivojlanish uchun tayyorlamoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Savdo va elektron tijorat sohalarida sun’iy intellekt (AI) texnologiyalarining joriy etilishi biznes jarayonlarini tubdan o‘zgartirmoqda. AI texnologiyalari kompaniyalarga mijoz ehtiyojlarini aniqroq tushunish, ularga individual xizmat ko‘rsatish va samaradorlikni oshirish uchun keng imkoniyatlar taqdim etdi. AI orqali mijozlar bilan o‘zaro aloqalarni avtomatlashtirish, masalan, chatbotlar va virtual yordamchilar yordamida, nafaqat vaqtni tejashga, balki mijozlarning qoniqish darajasini oshirishga ham yordam bermoqda. Shuningdek, personalizatsiya tizimlari mijozlarning xarid qilish xatti-harakatlarini tahlil qilib, ularning ehtiyojlariga mos mahsulot va xizmatlarni taklif qilish orqali kompaniyaning raqobatbardoshligini kuchaytiradi. Logistika va ta’minot zanjirlarida AI asosidagi optimallashtirish algoritmlari mahsulotlarni etkazib berish muddatlarini qisqartirish va jarayonlarni soddalashtirishga yordam berdi. Bu esa nafaqat mijozlarning ehtiyojlarini qondirishda samaradorlikni oshirdi, balki kompaniyalarning operatsion xarajatlarini ham kamaytirdi.

1. AI asosidagi tavsiya tizimlarini kengaytirish mijozlarning qiziqishlarini chuqur tahlil qilish va ularga mos mahsulotlarni tavsiya qilish orqali sotuvlarni ko‘paytirish va mijozlar tajribasini yaxshilash.

2. Logistika jarayonlarini avtomatlashtirish AI texnologiyalaridan foydalanib ta’minot zanjiri va logistika operatsiyalarini optimallashtirish orqali xarajatlarni kamaytirish va mahsulotni etkazib berish muddatlarini qisqartirish.

3. AI yordamida bozor tahlili va bashoratlashni kuchaytirish bozor ma’lumotlarini tahlil qilish va kelajakdagi tendensiyalarni bashorat qilish orqali strategik qarorlar qabul qilishni takomillashtirish.

4. Mijozlarga xizmat ko‘rsatishni yaxshilash uchun chatbotlar va virtual yordamchilardan foydalanish mijozlarga tezkor va aniq xizmat ko‘rsatish orqali ularning qoniqish darajasini oshirish va operatsion samaradorlikni ta’minlash.

AI texnologiyalarini keng ko‘lamda joriy qilish va ulardan samarali foydalanish kompaniyalarni raqobatbardosh bozor sharoitida muvaffaqiyatga erishishiga zamin yaratadi. Bu esa uzoq muddatli rivojlanishni ta’minlaydi va mijozlar tajribasini yangi bosqichga olib chiqadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Kaplan, A. M., & Haenlein, M. (2020). Artificial Intelligence and Consumer Behavior. *Journal of Business Research*.
2. Agrawal, A., Gans, J., & Goldfarb, A. (2019). *Prediction Machines: The Simple Economics of Artificial Intelligence*. Cambridge, MA: Harvard Business Review Press.
3. Brynjolfsson, E., & McAfee, A. (2017). The Business of AI: How Companies Can Leverage Artificial Intelligence for Competitive Advantage. *Harvard Business Review*.
4. Davenport, T. H., & Ronanki, R. (2018). Artificial Intelligence for the Real World. *MIT Sloan Management Review*, 59(1), 107-116.
5. Ransbotham, S., & Kiron, D. (2021). Expanding AI’s Impact with Organizational Learning. *MIT Sloan Management Review*, 62(3), 1-14.
6. Ne’matullayev N. (2022). “Sun’iy intellektning xalqaro savdoga ta’siri”. Economics and Innovative Technologies, 2022-yil, № 3.
7. Abdurahmonov I.Yu., Turdiqulova Sh.O‘., Abduvaliyev A.A., Musayeva R.A., Barbu G.F. (2021). “Sun’iy intellekt: prognozlar, tarmoqlar va istiqbollar bo‘yicha dayjest”. O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi Ilmiy-texnik axborot markazi.
8. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi (2023). “Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda BIG DATA, sun’iy intellekt va elektron tijorat: muammolar, vazifalar, yechimlar” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari.
9. Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti (2024). “Sun’iy intellekt imkoniyatlari va muammolari” bo‘yicha ochiq dars materiallari.

YOSHLAR ORASIDA PSIXOLOGIK INQIROZLAR VA ULARNI YENGISH YO‘LLARI

Karimova Dilnoza Mansurovna
Qashqadaryo viloyati, Shahrisabz shahri, 20- maktab psixologi
https://doi.org/10.5281/zenodo.18271578

Annotatsiya. *Mazkur maqolada yoshlar orasida uchraydigan psixologik inqirozlarning kelib chiqish sabablari, ularning psixik holat va xulq-atvorga ta’siri ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etilgan. Yosh davriga xos bo‘lgan emotsional beqarorlik, ijtimoiy moslashuvdagi qiyinchiliklar, o‘z-o‘zini anglash jarayonidagi ziddiyatlar psixologik inqirozlarning asosiy omillari sifatida yoritilgan. Shuningdek, maqolada psixologik inqirozlarni yengishda individual, ijtimoiy va pedagogik yondashuvlarning ahamiyati ko‘rsatib berilgan. Yoshlar bilan olib boriladigan psixologik profilaktika, maslahat va qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining samaradorligi asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *yoshlar psixologiyasi, psixologik inqiroz, emotsional beqarorlik, stress, moslashuv, psixologik yordam.*

Bugungi globallashuv jarayonlari va tezkor axborot almashinuvi sharoitida yoshlar hayoti murakkablashib, ularga qo‘yilayotgan ijtimoiy, psixologik va axloqiy talablar tobora ortib bormoqda. Internet, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalari orqali uzluksiz tarqalayotgan axborotlar yoshlar ongiga kuchli ta’sir ko‘rsatib, ularning dunyoqarashi, qadriyatlari hamda xulq-atvorida muayyan o‘zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Natijada yoshlar turli psixologik bosimlar, ichki ziddiyatlar va emotsional beqarorlik holatlariga duch kelmoqda. Ta’lim jarayonidagi yuqori talablar, akademik raqobat, bilim va ko‘nikmalarga qo‘yiladigan zamonaviy mezonlar yoshlarning ruhiy holatiga bevosita ta’sir etadi. Ayniqsa, kasb tanlash jarayoni yoshlar uchun mas’uliyatli va murakkab bosqich bo‘lib, kelajak hayoti bilan bog‘liq noaniqliklar, o‘z imkoniyatlariga nisbatan ishonchsizlik va ijtimoiy kutuvlar psixologik zo‘riqishni kuchaytiradi. Shu bilan birga, tengdoshlar bilan munosabatlar, ijtimoiy maqomni egallash, jamiyatda o‘z o‘rnini topishga intilish ham yoshlar ruhiyatida keskin ichki kechinmalarni keltirib chiqaradi.

O‘zligini anglash jarayoni yosh davrining muhim psixologik xususiyatlaridan biri bo‘lib, bu bosqichda shaxsiy qadriyatlar, hayotiy maqsadlar va e’tiqodlar shakllanadi. Biroq ushbu jarayon ko‘pincha ichki ziddiyatlar, emotsional tanglik va psixologik inqirozlar bilan kechadi. Yoshlar o‘z “men”ini izlash jarayonida turli qarama-qarshiliklarga duch kelib, bu holat ularning psixologik barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli yoshlar orasida psixologik inqirozlarning mohiyatini chuqur o‘rganish, ularning kelib chiqish omillarini aniqlash va samarali yengish yo‘llarini ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Mazkur masalani ilmiy asosda tahlil qilish yoshlarning psixik salomatligini mustahkamlash, ularning ijtimoiy moslashuvini ta’minlash hamda barkamol shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

Yoshlar orasida psixologik inqirozlarning kelib chiqishida shaxs rivojlanishiga xos bo‘lgan murakkab psixologik jarayonlar muhim o‘rin tutadi. Psixologik inqiroz shaxs hayotida yuzaga keladigan ziddiyatli, keskin va emotsional jihatdan murakkab holat bo‘lib, u ichki

psixologik ehtiyojlar hamda tashqi ijtimoiy omillar o‘zaro ta’siri natijasida shakllanadi. Ayniqsa, yosh davrida shaxsiy identifikatsiya jarayonining faol kechishi psixologik inqirozlar yuzaga kelishiga zamin yaratadi. Bu davrda yoshlar o‘zini anglash, hayotiy maqsadlarini belgilash, jamiyatdagi o‘rnini aniqlashga intiladi, biroq mazkur jarayon ko‘pincha noaniqlik, ichki qarama-qarshilik va psixologik beqarorlik bilan kechadi. Shuningdek, mustaqil hayotga moslashish jarayoni ham yoshlar uchun jiddiy psixologik sinov hisoblanadi. Oila qaramog‘idan chiqish, mustaqil qarorlar qabul qilish, mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish yoshlarning ruhiy holatida zo‘riqish va xavotirni kuchaytiradi. Bu holatlarda yoshlar ko‘pincha o‘z imkoniyatlarini yetarli baholay olmaslik, muvaffaqiyatsizlikdan qo‘rqish kabi holatlarga duch keladilar.

Ijtimoiy muhit va tengdoshlar bosimi ham psixologik inqirozlarning muhim sabablaridan biridir. Jamiyatda qabul qilingan me’yorlar, tengdoshlar orasida obro‘ qozonishga intilish, ijtimoiy taqqoslash yoshlarning o‘ziga bo‘lgan ishonchiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlarda namoyon bo‘layotgan ideal obrazlar yoshlar ongida real hayot bilan mos kelmaydigan kutuvlarni shakllantirib, ichki norozilik va ruhiy tushkunlik holatlarini kuchaytiradi.

Bundan tashqari, oila va ta’lim muassasalaridagi munosabatlar ham yoshlarning psixologik holatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ota-ona va farzand o‘rtasidagi tushunmovchiliklar, pedagoglar bilan munosabatlarda yuzaga keladigan ziddiyatlar, haddan tashqari talabchanlik yoki e’tiborsizlik yoshlarning emotsional barqarorligini izdan chiqaradi. Bunday sharoitda yoshlar o‘zlarini yolg‘iz va qo‘llab-quvvatlanmagan his etishi mumkin. Kelajak rejalari bilan bog‘liq xavotir va ishonchsizlik ham psixologik inqirozlarning shakllanishida muhim omil hisoblanadi. Kasb tanlash, mehnat bozorida o‘z o‘rnini topish, moliyaviy barqarorlikka erishish kabi masalalar yoshlar ongida doimiy tashvish uyg‘otadi. Ushbu omillarning yig‘indisi yoshlarning emotsional holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatib, tushkunlik, xavotir, stress va o‘ziga bo‘lgan ishonchsizlik kabi holatlarning kuchayishiga olib keladi.

Psixologik inqiroz holatida yoshlarning xulq-atvorida turli o‘zgarishlar yuzaga keladi. Bunday holatlarda ijtimoiy faollik pasayishi, o‘zini izolyatsiya qilish, muloqotdan chekinish va tengdoshlar bilan muloqotda qiyinchiliklar kuzatiladi. Shu bilan birga, agressivlik, ichki ziddiyatlar, hissiy o‘zgaruvchanlik, hamda salbiy odatlarga moyillik ham namoyon bo‘lishi mumkin. Ba’zi yoshlar o‘z his-tuyg‘ularini to‘g‘ri boshqara olmay, impulsiv xatti-harakatlarga berilib, muhim qarorlar qabul qilishda xatolarga yo‘l qo‘yadi. Agar bunday holatlar o‘z vaqtida aniqlanmasa va tegishli psixologik yordam ko‘rsatilmasa, ular yosh shaxsning ijtimoiy moslashuviga salbiy ta’sir ko‘rsatadi, o‘ziga bo‘lgan ishonchini pasaytiradi va shaxs rivojlanishida jiddiy to‘siqlar yaratadi. Yoshlar orasida psixologik inqirozlarni yengish jarayonida kompleks yondashuvning ahamiyati katta. Bunda bir nechta strategiyalar samarali hisoblanadi. Avvalo, individual psixologik maslahatlar va suhbatlar orqali yoshlarning ichki kechinmalari aniqlanadi, ular o‘z hissiyotlarini tushunishga va tartibga solishga o‘rganadi. Shuningdek, emotsional intellektni rivojlantirishga qaratilgan treninglar va mashg‘ulotlar yoshlarni o‘z hissiyotlarini boshqarish, stressni yengish va ijtimoiy munosabatlarni yaxshilashga o‘rgatadi. Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlovchi muhit yaratish, ya’ni tengdoshlar, oila va o‘qituvchilar tomonidan rag‘batlantirish va yordam ko‘rsatish yoshlarning ruhiy barqarorligini oshiradi. Shu bilan birga, ta’lim jarayonida motivatsiyani kuchaytirish, maqsadga yo‘naltirilgan faoliyatga jalb etish va muvaffaqiyat hissini oshirish ham psixologik inqirozlarni yumshatishda samarali vosita hisoblanadi. Sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, muntazam jismoniy faollik, to‘g‘ri

ovqatlanish va stressni boshqarish ko‘nikmalarini shakllantirish esa yoshlarning psixologik barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, yoshlar orasida psixologik inqirozlar tabiiy rivojlanish jarayonining bir qismi bo‘lsa-da, ularni e’tiborsiz qoldirish salbiy oqibatlarga olib keladi. Shu bois, psixologik inqirozlarni o‘z vaqtida aniqlash, yoshlarning emotsional va ijtimoiy holatini doimiy kuzatish, profilaktik tadbirlarni kuchaytirish hamda malakali psixologik yordam ko‘rsatish katta ahamiyatga ega. Bunday yondashuv orqali yoshlarning ruhiy salomatligini ta’minlash, ularni ijtimoiy jihatdan moslashuvchan, hissiy barqaror va barkamol shaxs sifatida shakllantirish mumkin bo‘ladi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. Ашрифова, З.Х. (2020). *Yoshlar psixologiyasi: rivojlanish va psixologik barqarorlik.* Toshkent: Universitet nashriyoti.
2. Бекмирзаева, Н.С. (2019). *Psixologik inqirozlar va ularni bartaraf etish strategiyalari*. Toshkent: Fan.

TADBIRKORLIKDA RAQAMLI O‘SISH MODELI: AMALIY YONDASHUVLAR VA MUAMMOLAR

Oxunboboyev Abdurahmon Ulug‘bek o‘g‘li[1]
Millat Umidi Universiteti talabasi, Xalqaro biznes boshqaruvi fakulteti, 4- kurs talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.18271598

Annotatsiya. *Maqolada tadbirkorlik subyektlarida raqamli o‘sish modelining nazariy asoslari, amaliy yondashuvlari, raqamlashtirish jarayonida yuzaga keladigan muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari tahlil qilinadi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida biznes jarayonlarini avtomatlashtirish, ma’lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish, mijozlar bilan raqamli aloqalarni tashkil etish tadbirkorlikning raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil sifatida ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari O‘zbekistonda kichik va o‘rta biznesni raqamlashtirishning amaliy imkoniyatlarini ochib beradi.*

Kalit so‘zlar: *raqamli iqtisodiyot, tadbirkorlik, raqamli transformatsiya, raqamli o‘sish modeli, innovatsiya, avtomatlashtirish, biznes jarayonlari*

Аннотация. *В статье анализируются теоретические основы и практические подходы модели цифрового роста в предпринимательских субъектах, а также проблемы, возникающие в процессе цифровизации, и пути их решения. В условиях цифровой экономики автоматизация бизнес-процессов, принятие решений на основе данных и организация цифровых коммуникаций с клиентами рассматриваются как ключевые факторы повышения конкурентоспособности предпринимательства. Результаты исследования раскрывают практические возможности цифровизации малого и среднего бизнеса в Узбекистане.*

Ключевые слова: *цифровая экономика, предпринимательство, цифровая трансформация, модель цифрового роста, инновации, автоматизация, бизнес-процессы.*

Abstract. *The article analyzes the theoretical foundations and practical approaches of the digital growth model in entrepreneurial entities, as well as the challenges arising in the digitalization process and ways to overcome them. In the context of the digital economy, the automation of business processes, data-driven decision-making, and the establishment of digital communication with customers are considered key factors in enhancing business competitiveness. The research results highlight the practical opportunities for digitalizing small and medium-sized enterprises in Uzbekistan.*

Keywords: *digital economy, entrepreneurship, digital transformation, digital growth model, innovation, automation, business processes.*

Kirish

Globallashuv va raqamli iqtisodiyot sharoitida tadbirkorlik faoliyati tubdan o‘zgarib bormoqda. Sun’iy intellekt, bulutli texnologiyalar, katta ma’lumotlar (Big Data), blokcheyn, IoT va avtomatlashtirish tizimlarining jadal kirib kelishi nafaqat ishlab chiqarish jarayonlarini, balki tadbirkorlikning mazmun-mohiyatini tubdan o‘zgartirmoqda. Raqamli o‘sish modeli biznesning barcha jihatlariga ta’sir ko‘rsatib, raqobatbardoshligini oshiradi. O‘zbekistonda “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi tadbirkorlikni modernizatsiya qilish uchun keng imkoniyatlar yaratdi.

Raqamli transformatsiya nafaqat yangi texnologiyalarni joriy etish, balki biznes ekotizimini qayta ko‘rib chiqish demakdir. Bu jarayon korxonaning strategik boshqaruvi, mijozlar bilan aloqalar, marketing, moliyaviy boshqaruv, ishlab chiqarish, logistika va xizmat ko‘rsatish tizimlarini qamrab oladi. Shu sababli tadbirkorlik subyektlari uchun raqamli transformatsiya majburiy ehtiyojga aylanmoqda.

Metodologiya

Ushbu tadqiqotda tadbirkorlik subyektlarida raqamli o‘sish modelining joriy etilishi, amaliy yondashuvlari va raqamlashtirish jarayonida uchraydigan muammolarni aniqlash va baholash maqsad qilingan. Shu boisdan quyidagi ilmiy-uslubiy yondashuvlar qo‘llanildi:

Nazariy tahlil usuli. Raqamli iqtisodiyot, raqamli transformatsiya, biznes jarayonlarini avtomatlashtirish bo‘yicha ilmiy manbalar, xalqaro tajribalar va mavjud konseptual modellar o‘rganildi. O‘zbekistonning kichik va o‘rta biznesi bilan xorijiy mamlakatlarning raqamlashtirish tajribalari solishtirildi. Mavjud yondashuvlarning ustun va zaif tomonlari aniqlanib, ularning umumiy xulosasi shakllantirildi.

Empirik tahlil (amaliy ma’lumotlar tahlili). Tadbirkorlik subyektlarining raqamlashtirish darajasi, foydalanilayotgan texnologiyalar, duch kelayotgan muammolar va kutilayotgan natijalar bo‘yicha statistik ma’lumotlar o‘rganildi. Raqamlashtirish jarayonida faol ishtirok etayotgan kichik va o‘rta biznes vakillari o‘rtasida qisqa so‘rovnoma o‘tkazildi. Ularning amaliy tajribalari va muammolari chuqurroq tahlil qilindi. **Tizimli yondashuv b**iznes jarayonlari, IT infratuzilmasi, kadrlar salohiyati va menejment mexanizmlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik kompleks tarzda baholandi. Raqamli o‘sish modelining biznes tizimiga integratsiyasi tizimli ko‘rinishda tahlil qilindi.

Model qurish yondashuvi. O‘zbekiston sharoitiga mos raqamli o‘sish modelining konseptual tuzilmasi ishlab chiqildi. Modelning asosiy komponentlari — texnologik baza, ma’lumotlar boshqaruvi, mijozlar bilan raqamli muloqot, innovatsion jarayonlar va raqobat ustunligi — nazariy va amaliy asoslar bilan tasdiqlandi. Raqamli o‘sish modeli tadbirkorlikda innovatsion yondashuvlarni va avtomatlashtirish tizimlarini qo‘llash orqali amalga oshiriladi. Nazariy jihatdan, model quyidagi asosiy elementlarni o‘z ichiga oladi: raqamli iqtisodiyotning prinsip va tamoyillari, biznes jarayonlarini optimallashtirish, ma’lumotlarga asoslangan boshqaruv va raqamli mijozlar tajribasi. Shuningdek, raqamli transformatsiyaning samaradorligini baholash metodologiyalari va global tajribalar ham muhim hisoblanadi. (1-rasm).

Amaliy yondashuvlar



Tadbirkorlikda raqamli o‘sishni amalga oshirishning amaliy yondashuvlari quyidagilardan iborat. (1-rasm)

Tahlil va muammolar

Raqamli transformatsiya jarayonida eng keng tarqalgan muammolar quyidagilardan iborat:

1. Texnologik savodxonlikning pastligi
2. Moliyaviy resurslar cheklanganligi
3. Malakali IT-mutaxassislar tanqisligi
4. Tizimlar integratsiyasi va boshqaruvdagi qarshiliklar
5. Kiberxavfsizlik xatarlarining mavjudligi

Taklif va tavsiyalar

Raqamli o‘sish modelining samarali joriy etilishi uchun quyidagilar tavsiya etiladi:

1. Raqamli kompetensiyalarni oshirish bo‘yicha treninglar va kurslar tashkil etish
2. Innovatsion ekotizimni qo‘llab-quvvatlash va startaplarni rag‘batlantirish
3. Moliyaviy va soliq imtiyozlarini taqdim etish
4. Kiberxavfsizlik va IT infratuzilmani mustahkamlash

Xulosa

Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, tadbirkorlikda raqamli o‘sish modeli biznesning raqobatbardoshligini sezilarli oshiradi. Raqamli texnologiyalar jarayonlarni tezlashtirish va samaradorlikni yuqori darajaga ko‘taradi. Kichik va o‘rta biznes uchun raqamlashtirish xarajatlarni kamaytirishning muhim vositasidir. Mijozlar bilan raqamli muloqot esa xizmat sifati va qoniqishni oshiradi. Tahlillar raqamli o‘sishning muvaffaqiyati kadrlar salohiyatiga ham bog‘liqligini ko‘rsatdi. Shu sababli xodimlarning raqamli ko‘nikmalarini rivojlantirish zarur. Raqamlashtirishni joriy etishda infratuzilma va texnik bazaning yetarliligi muhim omil hisoblanadi. Biznes jarayonlarining avtomatlashtirilishi boshqaruvdagi aniqlik va tezkorlikni oshiradi. O‘zbekistonda raqamli transformatsiya uchun zarur shart-sharoitlar tobora kengayib bormoqda. Umuman olganda, raqamli o‘sish modeli tadbirkorlikni yangi rivojlanish bosqichiga olib chiqadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. OECD (2023). Digital Transformation in SMEs. Paris: OECD Publishing.

2. McKinsey Global Institute (2023). Digital Economy: Trends and Future.
3. Porter, M., Heppelmann, J. (2022). How Smart, Connected Products Are Transforming Competition. Harvard Business Review.
4. Forbes (2022). Impact of Automation on Business Growth.
5. O‘zbekiston Respublikasi “Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish strategiyasi – 2030”.
6. Brynjolfsson, E., McAfee, A. (2014). The Second Machine Age. MIT Press.

ҲУДУД РАҚОБАТДОШЛИГИНИ ОШИРИШДА ИМИДЖНИНГ РОЛИ

Қаҳҳорова Ўғилой Норчаевна
Ўзжоку мустақил тадқиқотчиси
https://doi.org/10.5281/zenodo.18271612

Аннотация. *Мақолада ҳудуд рақобатдошлигини оширишда имиджнинг таркибий ва функционал роли тадқиқ этилади. Имиджни позициялаш, инфратузилма ва коммуникация ўртасидаги боғлиқлик, кластерлар ва туристик жозиба билан ўзаро таъсири шарҳланади. Муаллиф илмий манбаларга таянган ҳолда, ўлчанадиган кўрсаткичлар ва бошқарув механизмлари асосида амалиётга йўналтирилган концептуал ёндашувни таклиф этади.*

Аннотация. *В статье анализируется структурная и функциональная роль имиджа в повышении конкурентоспособности территории. Рассматриваются взаимосвязи позиционирования, инфраструктуры и коммуникаций, влияние кластеров и туристической привлекательности. На основе научных источников предложен прикладной концептуальный подход с измеримыми показателями и управленческими механизмами.*

Аннотация. *The article explores the structural and functional role of territorial image in enhancing regional competitiveness. It examines links between positioning, infrastructure and communications, and the interplay with clusters and tourism. Building on scholarly sources, it proposes a practice-oriented conceptual approach with measurable indicators and governance mechanisms.*

Калит сўзлар: *ҳудуд имиджи, рақобатдошлик, позициялаш, брендлаш, инфратузилма, коммуникация, кластерлар.*

Ключевые слова: *имидж территории, конкурентоспособность, позиционирование, брендинг, инфраструктура, коммуникации, кластеры*

Keywords: *place image, competitiveness, positioning, branding, infrastructure, communications, clusters.*

Ҳудуд рақобатдошлиги тушунчаси анъанавий тарзда ишлаб чиқариш омиллари, инфратузилма самарадорлиги ва инновацион салоҳият билан изоҳланса-да, замонавий бозорлар контекстида “имидж” уларни уйғунлаштирувчи мултипликатив омилга айланди. Имидж – бу ҳудуд ҳақидаги илк таассуротлар, ижтимоий хотирадаги белгилар ва манфаатдор гуруҳларнинг инвесторлар, меҳмонлар, истеъдодли кадрлар, маҳаллий жамоа иштирокида шаклланувчи семантик майдондир. Бозорларда танлов кўпаяётган шароитда кучли ва ишончли имидж транзакция ҳаражатларини пасайтиради, хатар идрокини юмшатади ва қарор қабул қилишни тезлаштиради. Шунинг учун имиджни мақсадли бошқариш рақобатдошлик стратегиясининг марказий қисми сифатида қаралади.

Назария асосларида, ҳудуд рақобатдошлиги илдизларини Портернинг миллий афзалликлар моделидаги кластерлар, интизом ва инновация тўлқинлари билан боғлаш мумкин. Унинг фикрича, индекстлар ва жисмоний омиллардан ташқари, сифатга оид “кўринмас” сигналлар – ишонч ва нуфуз– талабнинг мураккаблигини оширади, етказиб

берувчилар ва корхоналарни юқори стандартларга мослаштиришга мажбур қилади. [66]Бу талқинда имидж “юқори тоифали талабни” жалб қилувчи филтр вазифасини бажаради: у кластерларга эҳтиёжли мураккаб мижоз ва инвестор сегментларини олиб кириб, ички рақобатни кучайтиради. Портер таъкидлаган “очиқ ракурсли қиймат занжири”ни ҳудуд имиджи ташқи интерфейс сифатида яхшиласа, инновация ялпи тезлигини оширади ва экосистема барқарорлигини мустаҳкамлайди.

Маркетинг нуқтаи назаридан Котлер, Ҳаидер ва Рейн ҳудудни “маҳсулот” эмас, балки манфаатлар тўплами сифатида кўради. Улар имиджни ҳудуд позициялашининг ўзаги деб таърифлайди: жозиба (инвестиция имкониятлари, меҳмончилик ва турмуш сифати), ишонч (хавф профили), ва айирбошлаш арзиши (масофа, бюрократия, логистика) ҳақидаги умумий тасаввурлар мажмуаси [67]. Муаллифлар амалиётга хос учликни илгари суради: 1) мақсадли сегментлар аниқлиги; 2) имиджга мос қиймат таклифи; 3) узлуксиз тизимли коммуникация. Ушбу ёндашув шундан далолат берадики, имидж фақат реклама билан эмас, балки сервис стандартлари, инфратузилма, регулятор муҳит ва жамоавий тажриба орқали “ижро этилади”. Демак, имидж – ваъда, рақобатдошлик – шу ваъдаларнинг изчил бажарилиши натижасидир.

Шаҳар морфологияси ва когнитив хариталашни ўрганган Линч имиджнинг фазовий-семиотик ўлчамини очиб берган: йўллар, чегаралар, тугунлар, белгилар ва минтақалар каби элементлар хотирада мустаҳкамланганда ҳудуд “ўқилади” ва “йўл топиш” осонлашади [68]. Бундай ўқиш имконияти инвестиция ва туризм қарорларига бевосита таъсир қилади, чунки аниқ, консистент ва ҳис этиладиган фазовий қиёфа ишонч уйғотади. Айнан шу ерда Анҳолтнинг “competitive identity” концепцияси ҳудуд брендини сиёсат, маданият, туризм, бизнес ва одамлардан иборат тизим сифатида талқин қилади; яъни логотип эмас, балки ҳудуднинг кундалик амалиётида намоён бўладиган изчил қийматлар тизими [69]. Шунинг учун физик муҳит (Линч) ва маъно-мазмунли идентичлик (Анҳолт)ни узвий бирлаштириш ҳудуд имиджини стратегик активга айлантиради: дебочадаги рамзлар, ривоятлар ва воқеликдаги хизмат сифати бир-бирини қувватласа, идрокдаги хатар-янги имконият нисбати ҳудуд фойдасига ўзгаради[70].

Россия илмий мактабида Панкрухин ҳудуд маркетингида сегментация ва комплекс бошқарув тамойилларини ишлаб чиққан. У ҳудуд имиджини манфаатдор томонлар мослаша оладиган “конфигурация” сифатида кўради: туризм бозорлари, инвестиция бозорлари, истеъдодлар бозори ва ички жамоа учун фарқли, аммо ўзаро мос келувчи маъно қатламлари керак [71]. Бу ерда “ваъда–ижро” силсиласи айниқса муҳим: агар транспорт, рақамли хизматлар, тадбиркорлик экотизими ва маданий кун тартиби ваъда қилинган образга тўғри келса, имидж капиталга айланади; акс ҳолда “ишонч пенялтиси” юзага келади. Панкрухин амалиётга доир воситаларни – ҳудудий маҳсулот портфели, сервис стандартлари харитаси, бренд-артефактлар, оммавий тадбирлар экологияси – ўзаро боғлиқ тизим сифатида қўяди. Бу тизимнинг ҳар бир узелида ўлчанадиган метрикалар

[66] Porter, M. E. The Competitive Advantage of Nations. — New York: The Free Press, 1990. — 855 p.
[67] Kotler, P.; Haider, D. H.; Rein, I. Marketing Places: Attracting Investment, Industry, and Tourism to Cities, States, and Nations. — New York: The Free Press, 1993. — 388 p.
[68] Lynch, K. The Image of the City. — Cambridge, MA: MIT Press, 1960. — 194 p.
[69]. Anholt, S. Competitive Identity: The New Brand Management for Nations, Cities and Regions. — Basingstoke: Palgrave Macmillan, 2007. — 160 p.
[70] Ўша манба
[71] Панкрухин, А. П. Маркетинг территорий: учебное пособие. — СПб.: Питер, 2006. — 416 с.

(ташрифлар конверсияси, қониқиш индекси, такрорий ташрифлар улуши) орқали контур ташхис қилинади ва тузатиш киритилади.

Қоидаларни коммуникацияга айлантиришда Каварацзиснинг уч босқичли модели фойдали: бирламчи коммуникациялар – ҳудуднинг “амалий далиллари” (инфратузилма, архитектура, хизмат сифати); иккиламчи – расмий ахборот ва тарғибот; учламчи – оғзаки тарғибот ва мустақил рейтинглар. Модель шунга ишора қиладики, кучли имидж реклама бюджети эмас, балки бирламчи далиллар (яхши инфратузилма, қулай сервис)нинг изчиллигига таянади. Демак, ҳудуд ўзини “айтиш”дан аввал “кўрсатиши” керак. Шуни инобатга олган ҳолда, рақобатдош ҳудудлар имидж бошқарувини хизматлар дизайни, жамоат маконлари эргономикаси ва фойдаланувчи тажрибаси (UX of place) билан интеграциялайди. Бунда тезкор A/B синовлар, хизмат сафарлари харитаси ва тажриба аудити каби инструментлар коммуникациядан кучлироқ самара беради.[72]

Амалиёт нуқтаи назаридан, имидж–рақобатдошлик боғланишини камида тўрт канал орқали ўлчаш мумкин. Биринчиси, инвестицияворлик: due diligence жараёнида идрок этиладиган хатар (country/region risk) имидж орқали пасаяди, бу капитал қийматини оширади. Иккинчиси, туристик жозиба: когнитив харита ва белгилар тизими қанчалик тушунарли бўлса, ташриф давомийлиги ва чек шунчалик юқори бўлади. Учинчиси, истеъдодлар учун рақобат: идентичликнинг очиқ ва инклюзив модели ижтимоий капитални кучайтиради, ижтимоий кохезия инновацияга мусбат таъсир кўрсатади. Тўртинчиси, ички тадбиркорлик муҳити: “бюрократик тажриба” ва “қабулхона тезлиги” каби контакт нуқталаридаги ижобий тажриба ички бизнеснинг соя иқтисодига оғишини камайтиради, бу эса умумий самарадорликни оширади. Ҳар бир каналда метрикаларни белгилаш зарур: Net Promoter Score of Place (NPS-P), Place Brand Equity индекси, такрорий ташрифлар частотаси, инвестиция лойиҳаларининг пўст-онбординг даражаси ошишига олиб келади[73].

Шундай бўлса-да, имидж бошқаруви эҳтиёткорликни талаб этади. Биринчидан, ортиқча ваъда бериш ва реал тажриба ўртасидаги узилиш тезда “ишонч инқирози”ни келтириб чиқаради; бу муаммо айниқса рақамли мухитда тез кўпаяди. Иккинчидан, визуал стереотипларга суяниш ҳудуднинг жонли ривожланишини тўсиб, янги сегментлар учун кириш барьерини ошириши мумкин. Учинчидан, “яшил ювиш” ёки сунъий “инновация” риторикаси, метрикалар билан тасдиқланмаса, рейтинглар ва мустақил аудитларда ўз аксини топади. Шу сабабдан, бошқарув модели ташриф-buyurtma циклининг барча нуқталарида далилга асосланган бўлиши ва тизимли feedback билан янгиланиб бориши лозим.

Методик жиҳатдан, ҳудуд имиджини бошқариш учун қуйидаги концептуал рамка таклиф этилади: 1) эшитиш – манфаатдор томонлардан идрок аудити (инвесторлар, сайёҳлар, резидентлар) ва қиймат харитаси; 2) дизайнига тушириш – Линч элементлари асосида жамоат маконлари ва хизматлар дизайн-стандарти; 3) ваъда–ижро интеграцияси – Котлернинг позициялаш логикасини сервис кўрсаткичлари билан келиштириш; 4) коммуникация – Каварацзис босқичлари бўйича контент ва далил балансини белгилаш; 5) кузатиш – KPIлар панели: NPS-P, dwell time, conversion-to-commit, retention of investors; 6)

[72] Панкрухин, А. П. Маркетинг территорий: учебное пособие. — СПб.: Питер, 2006. — 416 с.
[73] Kavaratzis, M. From city marketing to city branding: Towards a theoretical framework for developing city brands // Place Branding. — 2004. — Vol. 1, No. 1. — P. 58–73

адаптация – Портерча кластерлар билан тегишли алоқаларни кучайтириш, мураккаб талабни жалб этиш тушунилади.

Бу рамка изчил қўлланганда, имидж “қоплама” эмас, балки рақобатдошликнинг функционал компрессорига айланади: ресурслар самарадорлигини оширади, хатар идрокини пасайтиради ва танлов жараёнларини ҳудуд фойдасига тезлаштиради.

Хулоса қилиб айтганда, имидж ҳудуд рақобатдошлигининг маргинал эмас, марказий драйверидир. У инфратузилма ва сервиснинг кўриниши, идентичлик ва маъноларнинг изчиллиги, ҳамда манфаатдор томонлар тажрибасидаги далиллар билан қувватланганда капитал, истеъдод ва меҳмон оқимларини барқарор равишда жалб этади. Энг муҳими, имидж бошқаруви – бу тарғибот эмас, балки хизмат ва жамоат маконининг кундалик сифатида “ижро этиладиган ваъда”дир. Шу йўл билан ҳудуд ўзини нафақат эътироф эттирган, балки янги қиймат яратишга қодир барқарор рақобатчисга айланади.

АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Porter, M. E. The Competitive Advantage of Nations. — New York: The Free Press, 1990. — 855 p.
2. Kotler, P.; Haider, D. H.; Rein, I. Marketing Places: Attracting Investment, Industry, and Tourism to Cities, States, and Nations. — New York: The Free Press, 1993. — 388 p.
3. Anholt, S. Competitive Identity: The New Brand Management for Nations, Cities and Regions. — Basingstoke: Palgrave Macmillan, 2007. — 160 p.
4. Lynch, K. The Image of the City. — Cambridge, MA: MIT Press, 1960. — 194 p.
5. Панкрухин, А. П. Маркетинг территорий: учебное пособие. — СПб.: Питер, 2006. — 416 с.
6. Kavaratzis, M. From city marketing to city branding: Towards a theoretical framework for developing city brands // Place Branding. — 2004. — Vol. 1, No. 1. — P. 58–73.

SUN’IY INTELLEKT YORDAMIDA RAQAMLI BIZNES JARAYONLARINI OPTIMALLASHTIRISH

Ramazonqulov Sarborbek Hamroqul o‘g‘li[1], Abduxakim Yuldashev[2]
[1]Millat Umidi universiteti 3-kurs talabasi,
[2]Ilmiy rahbar: Millat umidi universiteti Biznes boshqaruvi kafedrasi professori
https://doi.org/10.5281/zenodo.18271628

Annotatsiya. *Ushbu maqolada sun’iy intellekt (SI) texnologiyalaridan foydalanish orqali raqamli biznes jarayonlarini optimallashtirishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida korxonalar faoliyatining samaradorligini oshirish, xarajatlarni kamaytirish va qaror qabul qilish jarayonlarini tezlashtirishda sun’iy intellekt muhim omilga aylanmoqda. Tadqiqotda sun’iy intellektning biznes jarayonlariga integratsiyasi, avtomatlashtirish, ma’lumotlarni tahlil qilish, prognozlash va mijozlar bilan ishlashdagi roli yoritilgan. Shuningdek, mashinali o‘rganish, katta ma’lumotlar (Big Data), chat-botlar, intellektual tahlil tizimlari va raqamli platformalarning biznes samaradorligiga ta’siri o‘rganilgan. Maqola yakunida O‘zbekiston sharoitida sun’iy intellekt asosida raqamli biznes jarayonlarini rivojlantirish bo‘yicha amaliy taklif va tavsiyalar ilgari suriladi.*

Kalit so‘zlar: *sun’iy intellekt, raqamli biznes, biznes jarayonlari, avtomatlashtirish, raqamli transformatsiya, mashinali o‘rganish, Big Data, qaror qabul qilish, innovatsion texnologiyalar, raqamli iqtisodiyot.*

Аннотация. *В данной статье анализируются теоретические и практические аспекты оптимизации цифровых бизнес-процессов с использованием технологий искусственного интеллекта. В условиях цифровой экономики искусственный интеллект становится важным инструментом повышения эффективности деятельности предприятий, сокращения издержек и ускорения процессов принятия решений. В исследовании рассматривается роль искусственного интеллекта в автоматизации бизнес-процессов, анализе данных, прогнозировании и взаимодействии с клиентами. Также изучается влияние машинного обучения, больших данных, чат-ботов и интеллектуальных аналитических систем на эффективность бизнеса. В заключении представлены практические рекомендации по развитию цифровых бизнес-процессов на основе искусственного интеллекта в условиях Узбекистана.*

Ключевые слова: *искусственный интеллект, цифровой бизнес, бизнес-процессы, автоматизация, цифровая трансформация, машинное обучение, большие данные, принятие решений, инновационные технологии.*

Annotation. *This article analyzes theoretical and practical aspects of optimizing digital business processes using artificial intelligence technologies. In the context of the digital economy, artificial intelligence has become an important tool for improving business efficiency, reducing costs, and accelerating decision-making processes. The study highlights the role of artificial intelligence in business process automation, data analysis, forecasting, and customer interaction. The effectiveness of machine learning, big data, chatbots, and intelligent analytical systems in digital business is also examined. At the end of the article, practical recommendations for the development of AI-based digital business processes in Uzbekistan are proposed.*

Keywords: *artificial intelligence, digital business, business processes, automation, digital transformation, machine learning, big data, decision-making, innovative technologies.*

Kirish: Global iqtisodiyotning jadal raqamlashtirilishi sharoitida sun'iy intellekt (AI) texnologiyalari korxona boshqaruvi, ishlab chiqarish, logistika va xizmat ko'rsatish jarayonlarida strategik ahamiyat kasb etmoqda. Jahon **iqtisodiy forumining** (WEF, 2023) ma'lumotlariga ko'ra, AI texnologiyalarining global iqtisodiy o'sishga qo'shadigan kutilayotgan hissasi 2030-yilga borib 15,7 trillion AQSh dollariga yetishi prognoz qilinmoqda. Bunday ko'lam **sun'iy inttellektni** to'rtinchi sanoat inqilobining asosiy drayveri sifatida e'tirof etilishiga sabab bo'lmoqda.

McKinsey & Company tomonidan 2023-yilda o'tkazilgan "State of AI" global tadqiqotida AI yechimlarini faol joriy qilayotgan kompaniyalarda operatsion xarajatlar o'rtacha 25–35% gacha kamaygani, ishlab chiqarish tezligi 1,5–3 baravar oshgani, **strategik** qaror qabul qilish aniqligi esa 60% gacha yaxshilangani qayd etilgan.

O'zbekiston ham ushbu jarayondan chetda emas. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi, PF–6079-son Prezident farmoni (2020-yil 5-oktabr) va AKT Vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan "**Sun'iy intellektni** rivojlantirish konsepsiyasi (2021–2030)" mamlakatda AI integratsiyasining institutsional asosini yaratdi. Bu esa iqtisodiyotning turli tarmoqlarida AI texnologiyalarining

bosqichma-bosqich joriy etilishiga poydevor bo'lmoqda.

Sun'iy intellekt yordamida biznes jarayonlarini optimallashtirish imkoniyatlari

1. Jarayonlarni raqamli optimallashtirish

Sun'iy intellekt real vaqt rejimida katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilish orqali ishlab chiqarish, logistika, marketing va moliyaviy operatsiyalar samaradorligini oshiradi. IBM Global AI Index (2023) ma'lumotlariga ko'ra, AI asosidagi texnik diagnostika tizimlari ishlab chiqarishdagi nosozliklarni 85% gacha kamaytirishi mumkin.

Logistika sohasi misolida, Gartner (2023) tahliliga ko'ra, **Al** asosida ishlovchi ta'minot zanjiri boshqaruv tizimlari yetkazib berish jarayonlaridagi kechikishlarni 50–60% gacha qisqartiradi.

2. Resurs va vaqt tejamkorligi

AI yordamida takroriy operatsiyalarning avtomatlashtirilishi xodimlarning vaqtini **strategik** va kreativ faoliyatlarga yo'naltirish imkonini beradi. Deloitte Insight (2023) hisobotida generativ AI joriy etilgan korxonalar yillik **mehnat unumdorligini** o'rtacha 35–40% ga oshirgani qayd etilgan.

Bu jarayon inson kapitalini yuqori qiymatga ega innovatsion faoliyatlarga yo'naltirish orqali korxonaning umumiy **iqtisodiy** samaradorligini oshiradi.

3. Mijoz tajribasini shaxsiylashtirish va raqobat ustunligi

AI foydalanuvchi xulq-atvori, xarid tarixi va individual preferensiyalar asosida shaxsiylashtirilgan tavsiyalar taqdim etadi. Bu mijoz sodiqligini oshiruvchi muhim omildir. Amazon, Netflix va Spotify kabi kompaniyalar ushbu **mexanizimni** qo'llab, foydalanuvchi sodiqligini o'rtacha 25–35% gacha oshirishga erishgan (Stanford AI Index, 2023).

O'zbekistonda esa Uzum Market, Goodzone va ayrim banklar (masalan, Anorbank va TBC Bank) AI asosida tavsiya tizimlarini joriy etmoqda. Bu **platformalar** foydalanuvchi xatti-harakatlarini tahlil qilgan holda individual **takliflar** ishlab chiqadi, bu esa savdo aylanmasining oshishiga xizmat qiladi.

Adabiyotlarning tahlili

Sun’iy intellektning raqamli biznes jarayonlarini optimallashtirishdagi roli va uning samaradorligi masalalari bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan. Hozirgi ilmiy adabiyotlar quyidagi asosiy yo‘nalishlarda rivojlangan:

1. Nazariy asoslar va strategik yondashuvlar:
   P. Drucker (1998) sun’iy intellekt va avtomatlashtirishning tashkilot samaradorligini oshirishdagi ahamiyatini ta’kidlaydi. Uning fikricha, sun’iy intellekt texnologiyalari biznes jarayonlarida resurslarni optimallashtirish va qaror qabul qilish tezligini oshirishda muhim vosita hisoblanadi.
2. Biznes jarayonlarini optimallashtirish:
   Davenport & Ronanki (2018) tadqiqotlarida sun’iy intellektning operatsion jarayonlar, mijozlar bilan ishlash va ma’lumotlarni tahlil qilish kabi sohalarda samaradorlikni oshirish imkoniyati yoritilgan. Ularning tadqiqoti shuni ko‘rsatadiki, AI asosidagi yechimlar orqali xarajatlarni kamaytirish va jarayonlarni tezlashtirish mumkin.
3. Texnologik innovatsiyalar va raqamli transformatsiya:
   Ries (2011) “Lean Startup” modeli va uning AI bilan integratsiyalashuvi startap va korxonalarda iterativ yondashuv, tajribadan o‘rganish va mijoz ehtiyojlariga moslashuvni rivojlantirishni ko‘rsatadi. Shu nuqtai nazardan, sun’iy intellekt biznes innovatsiyalarining strategik vositasi sifatida xizmat qiladi.
4. Axborot xavfsizligi va raqamli kompetensiyalar:
   Brynjolfsson va McAfee (2017) sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishda xodimlarning raqamli kompetensiyalari va ma’lumotlar xavfsizligi masalalarini alohida ta’kidlaydi. Ular nazariy jihatdan sun’iy intellektning samaradorligi faqat texnologiya emas, balki inson kapitali va xavfsiz muhit bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi.
5. O‘zbekiston sharoitidagi tadqiqotlar:
   Mahalliy tadqiqotchilar – A. Abduqodirov (2019), N. Qodirova (2018) va Sh.U. Yuvashov (2020) raqamli transformatsiya va sun’iy intellektni joriy etish orqali korxonalar samaradorligini oshirish bo‘yicha ilmiy ishlar olib borgan. Ularning natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston sharoitida AI texnologiyalarini biznes jarayonlariga integratsiyalash korxonalarning innovatsion salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Umumiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellekt biznes jarayonlarini optimallashtirishda nafaqat texnologik, balki strategik, pedagogik va xavfsizlik jihatlaridan integratsiyalashgan yondashuv talab etiladi. Shu bilan birga, xalqaro va mahalliy tajribalar AI texnologiyalarining samaradorligi uchun kadr tayyorlash, xavfsizlik va bosqichma-bosqich tatbiq etish zarurligini ko‘rsatmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqot sun’iy intellekt yordamida raqamli biznes jarayonlarini optimallashtirishning nazariy va amaliy jihatlarini aniqlashga qaratilgan bo‘lib, unda kompleks ilmiy yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida birlamchi va ikkilamchi ma’lumotlar asosida tahlil olib borildi. Xususan, xorijiy va mahalliy ilmiy adabiyotlar, xalqaro hisobotlar, raqamli iqtisodiyotga oid statistik ma’lumotlar o‘rganildi.

Ilmiy tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

- Tahliliy metod — sun’iy intellekt texnologiyalarining biznes jarayonlariga ta’sirini aniqlash maqsadida;

- Solishtirma tahlil — an’anaviy va raqamli biznes jarayonlarini solishtirish orqali optimallashtirish darajasini baholash uchun;
- Empirik metod — so‘rovnoma va kuzatuv natijalariga asoslanib;
- Statistik tahlil — olingan natijalarni foiz ko‘rsatkichlarida umumlashtirish uchun;
- Konseptual yondashuv — sun’iy intellekt asosida biznes jarayonlarini optimallashtirish modelini ishlab chiqishda.

Mazkur metodologik yondashuv tadqiqot natijalarining ishonchliligi va ilmiy asoslanganligini ta’minlashga xizmat qildi.

Tahlil va natijalar

Tadqiqot davomida sun’iy intellekt texnologiyalarining raqamli biznes jarayonlariga ta’siri amaliy misollar va empirik ma’lumotlar asosida tahlil qilindi. Tadqiqotda 300 nafardan ortiq respondent – talabalar, yosh tadbirkorlar va biznes jarayonlari bilan shug‘ullanuvchi mutaxassislar ishtirok etdi.

Tahlil natijalariga ko‘ra, respondentlarning:

- 64 foizi sun’iy intellekt asosida avtomatlashtirilgan jarayonlar ish unumdorligini oshirganini;
- 52 foizi operatsion xarajatlar qisqarganini;
- 57 foizi qaror qabul qilish tezligi va aniqligi yaxshilanganini;
- 46 foizi mijozlar bilan ishlash sifati sezilarli darajada oshganini qayd etgan.

Shuningdek, **sun’iy intellekt** vositalaridan foydalanish darajasi tahlil qilindi. Respondentlarning 43 foizi chat-botlardan, 55 foizi ma’lumotlarni tahlil qilish tizimlaridan, 38 foizi prognozlash modellaridan, 29 foizi esa intellektual boshqaruv tizimlaridan foydalanayotganini bildirdi. Ushbu ko‘rsatkichlar sun’iy intellekt raqamli biznes jarayonlarini optimallashtirishda muhim strategik resurs ekanligini tasdiqlaydi.

Sun’iy intellekt yordamida raqamli biznes jarayonlarini optimallashtirishning ustunliklari: Sun’iy intellekt biznes jarayonlarini **avtomatlashtirish** orqali inson omiliga bog‘liq xatoliklarni kamaytiradi va ish jarayonlarining tezligini oshiradi. Ma’lumotlarni real vaqt rejimida tahlil qilish imkoniyati strategik va operativ qarorlarni sifatli qabul qilishga xizmat qiladi. Shuningdek, mijozlar xatti-harakatlarini prognozlash orqali xizmatlar va mahsulotlarni **shaxsiylashtirish** imkoniyati kengayadi. Sun’iy intellekt resurslardan samarali foydalanishni ta’minlab, korxonaning raqobatbardoshligini oshiradi.

Kamchiliklari: Biroq sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish yuqori moliyaviy xarajatlarni talab qiladi. Malakali IT va ma’lumotlar tahlili mutaxassislarining yetishmasligi joriy etish jarayonini sekinlashtirishi mumkin. Bundan tashqari, axborot xavfsizligi va shaxsiy ma’lumotlarni himoyalash bilan bog‘liq risklar mavjud. Texnologiyalarga haddan tashqari bog‘liqlik esa tizim ishdan chiqqan holatlarda biznes jarayonlarining izdan chiqishiga olib kelishi ehtimoli bor.

Takliflar: Sun’iy intellekt yordamida raqamli biznes jarayonlarini **samarali optimallaahtirish** uchun quyidagi amaliy takliflar ilgari suriladi:

Birinchidan, sun’iy intellektni bosqichma-bosqich joriy etish tavsiya etiladi. Bu yondashuv moliyaviy yukni kamaytiradi va xodimlarning yangi texnologiyalarga moslashuvini osonlashtiradi. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, kichik **pilot** loyihalar orqali boshlangan joriy etish jarayoni texnologiyaning samaradorligini oldindan baholash imkonini beradi.

Ikkinchidan, raqamli kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan treninglar tashkil etish zarur. Ushbu taklif **malakali kadrlar** yetishmasligi muammosini bartaraf etishga xizmat qiladi.

Sun’iy intellekt bilan ishlash ko‘nikmalariga ega xodimlar biznes jarayonlaridan maksimal samaradorlik olish imkonini beradi.

Uchinchidan, axborot xavfsizligini kuchaytirish va ma’lumotlarni himoyalash tizimlarini joriy etish lozim. Bu taklif sun’iy intellektdan foydalanishda ishonchlilikni ta’minlaydi va ma’lumotlar bilan bog‘liq risklarni kamaytiradi. Xavfsiz muhitda ishlovchi raqamli tizimlar biznesning barqaror rivojlanishini qo‘llab-quvvatlaydi.

To‘rtinchidan, davlat va xususiy sektor hamkorligini rivojlantirish maqsadga muvofiq. Ushbu hamkorlik sun’iy intellekt asosidagi texnologiyalarni joriy etishda **investitsiyalarni** jalb qilish va tajriba almashishni kuchaytiradi. Natijada raqamli biznes ekotizimi shakllanadi va innovatsion rivojlanish jadallashadi.

Sun’iy intellektni korxonalarda joriy etish bosqichlari

1. Strategik tayyorgarlik

Korxona AI joriy etish maqsadlarini aniqlaydi, KPI va natija ko‘rsatkichlari shakllantiriladi. Strategik reja rahbariyat tomonidan tasdiqlanadi.

2. Ma’lumotlar infratuzilmasini shakllantirish

AI samaradorligi ma’lumotlar sifati bilan uzviy bog‘liq. Shu sababli bulutli infratuzilma, markazlashtirilgan ma’lumotlar ombori (Data Warehouse) va analitik platformalar tashkil etiladi.

3. Pilot loyihalarni amalga oshirish

AI dastlab kichik miqyosdagi jarayonlarda sinovdan o‘tkaziladi: mijozlar qo‘llab-quvvatlashi, zaxiralar boshqaruvi yoki texnik diagnostika.

4. Tizimni keng ko‘lamda integratsiya qilish

Pilot bosqichda muvaffaqiyatli natija ko‘rsatgan AI modullari korxonaning barcha bo‘limlariga joriy etiladi.

5. Monitoring va uzluksiz takomillashtirish

AI tizimlari o‘rganish (learning) xususiyatiga ega bo‘lganligi sababli ularni muntazam ravishda yangilab borish, xodimlarning raqamli ko‘nikmalarini rivojlantirish zarur.

Iqtisodiy samaradorlik

Quyida AI joriy etilgan korxonalarda qayd etilgan o‘rtacha natijalar keltiriladi:

- Operatsion xarajatlar — 15–40% gacha kamayadi
- Jarayonlar tezligi — 1,5–2,5 baravar oshadi
- Bozor ulushi — 10–20% gacha kengayadi
- Xodimlar unumdorligi — 25–35% gacha oshadi

Ushbu ko‘rsatkichlar McKinsey, Gartner va Deloitte tomonidan e’lon qilingan 2023-yilgi global tahlillarga tayangan holda keltirilgan.

Sun’iy intellekt (SI) texnologiyalari biznes jarayonlariga turlicha integratsiyalanadi. Oddiy qilib aytganda, bu jarayon biznesdagi turli ishlarni avtomatlashtirish va yaxshilash uchun AI vositalaridan foydalanishni anglatadi.

- Mashinali o‘rganish (ML): Kompaniya tarixiy ma’lumotlarini o‘rganib, kelajakdagi tendensiyalarni oldindan taxmin qilishi mumkin. Masalan, qaysi mahsulot ko‘proq sotilishi yoki qaysi jarayon kechikishi mumkinligini aniqlash.
- Tabiiy tilni qayta ishlash (NLP): Mijozlarning so‘rovlarini, sharhlarini yoki chat-bot orqali kelgan xabarlarni tahlil qilib, tezkor javob berishga yordam beradi. Masalan, banklarda yoki onlayn do‘konlarda chat-botlar orqali mijozlarga avtomatik xizmat ko‘rsatish.

- Katta ma’lumotlar (Big Data): Juda katta hajmdagi ma’lumotlarni tez va samarali tahlil qiladi. Bu orqali kompaniya biznes jarayonlarini optimallashtiradi va xatoliklarni kamaytiradi.

1. Respondentlar fikrlariga ko‘ra AI ta’siri

Ko‘rsatkich	**Respondentlar foizi (%)**	Izoh
Avtomatlashtirilgan jarayonlar ish unumdorligini oshirdi	**64**	Ish samaradorligi oshishi
Operatsion xarajatlar qisqardi	**52**	Xarajatlarni kamaytiris
Qaror qabul qilish tezligi va aniqligi yaxshilandi	**57**	Strategik qarorlar samaradorligi
Mijozlar bilan ishlash sifati oshdi	**47**	Mijoz tajribasi yaxshilandi

Xulosa: Mazkur tadqiqot sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarining raqamli biznes jarayonlarini optimallashtirishdagi ahamiyatini nazariy va amaliy jihatdan tahlil qildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, sun’iy intellekt orqali:

- biznes jarayonlarini avtomatlashtirish va inson omiliga bog‘liq xatoliklarni kamaytirish mumkin;
- ma’lumotlarni real vaqt rejimida tahlil qilish orqali qaror qabul qilish tezligi va aniqligini oshirish mumkin;
- mijozlar xatti-harakatlarini prognozlash orqali xizmat va mahsulotlarni shaxsiylashtirish imkoniyati kengayadi;
- resurslardan samarali foydalanish va korxonaning raqobatbardoshligini oshirish ta’minlanadi.

Shuningdek, tadqiqot AI texnologiyalarini joriy etishda yuzaga keladigan kamchiliklar – yuqori moliyaviy xarajatlar, malakali mutaxassislarning yetishmasligi, axborot xavfsizligi va texnologiyalarga haddan tashqari bog‘liqlik – mavjudligini ko‘rsatdi. Shu sababli, sun’iy intellektni bosqichma-bosqich joriy etish, xodimlarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish, axborot xavfsizligini ta’minlash va davlat-hususiy sektor hamkorligini rivojlantirish tavsiya etiladi.

Umuman olganda, AI texnologiyalarini raqamli biznes jarayonlariga integratsiyalash korxonalar samaradorligini oshirish, xarajatlarni kamaytirish va innovatsion rivojlanishni jadallashtirishda muhim vosita hisoblanadi.

Sun’iy intellekt biznes jarayonlarini optimallashtirishda samaradorlik, aniqlik va tezkorlikni ta’minlovchi strategik texnologiya sifatida tobora muhim o‘rin egallamoqda. AI joriy etilishi korxonalarga xarajatlarni kamaytirish, mijoz qoniqishini oshirish, bozor ulushini kengaytirish va yangi iqtisodiy imkoniyatlarni yaratish imkonini beradi.

O‘zbekistonda AI texnologiyalari hali shakllanib borayotgan bosqichda bo‘lsa-da, davlat siyosati, infratuzilmaning rivojlanishi va biznes sektoridagi talabning ortib borishi ushbu

yo‘nalishning istiqbolini yanada kengaytiradi. Raqamli iqtisodiyot ulushining oshishi, eksport salohiyatining kuchayishi va ishlab chiqarish samaradorligining ortishi mamlakatning barqaror iqtisodiy rivojlanishiga bevosita hissa qo‘shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Drucker, P. (1998). Management Challenges for the 21st Century. Harper Business.
2. Davenport, T., & Ronanki, R. (2018). Artificial Intelligence for the Real World. Harvard Business Review.
3. Ries, E. (2011). The Lean Startup: How Today’s Entrepreneurs Use Continuous Innovation to Create Radically Successful Businesses. Crown Business.
4. Brynjolfsson, E., & McAfee, A. (2017). Machine, Platform, Crowd: Harnessing Our Digital Future. W. W. Norton & Company.
5. Abduqodirov, A. (2019). Raqamli transformatsiya va sun’iy intellektning korxona samaradorligiga ta’siri. Toshkent.
6. Qodirova, N. (2018). AI texnologiyalarini biznes jarayonlariga integratsiyalash. Toshkent.
7. Yuvashov, Sh.U. (2020). Raqamli iqtisodiyot va sun’iy intellekt. Toshkent.
8. World Economic Forum (WEF). (2023). Global AI Adoption Report 2023.
9. McKinsey & Company. (2023). State of AI 2023.
10. IBM Global AI Index. (2023).
11. Gartner. (2023). AI in Supply Chain Management.
12. Deloitte Insights. (2023). Generative AI in Business.
13. Stanford AI Index. (2023).

ZAMONAVIY AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLASH ORQALI BOSHQARUV JARAYONINI RAQAMLASHTIRISH

Sariboyeva Nodira Zokirjon qizi
Millat Umidi universiteti BA-103-guruh talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.18271643

Anotatsiya. *Mazkur maqolada zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda tashkilot, korxona va muassasalar uchun boshqaruv tizimida qulaylik yaratuvchi yagona interaktiv portal joriy qilish jarayonlari ko‘rib chiqilgan.*
Kalit so‘zlar: *axborot-kommunikatsiya, raqamli texnologiya, loyiha, raqamlashtirish.*
Аннотация. *В данной статье рассматривается процесс внедрения единого интерактивного портала, упрощающего систему управления организациями, предприятиями и учреждениями с использованием современных информационных и коммуникационных технологий.*
Ключевые слова: *информация и связь, цифровые технологии, проект, цифровизация.*
Abstract. *This article discusses the process of introducing a single interactive portal that simplifies the management system of organizations, enterprises and institutions using modern information and communication technologies.*
Key words: *information and communication, digital technologies, project, digitalization.*

Kirish

Hozirgi kunda zamonaviy iqtisodiyotda raqamli texnologiyalarining o‘rni aniq va yaqqol ko‘rina boshladi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan davlat, bank, sanoat, tibbiyot va xavfsizlik va boshqa sohalarda keng foydalanilmoqda. Bu esa jamiyatimizdagi barcha soha va yo‘nalishlarda ham zamonaviy axborot-kommunikatsi texnologiyalaridan to‘la va izchil joriy qilishdan dalolat beradi. Shu asnoda mamlakatimizda zamonaviy texnologiyani joriy etish bo‘yicha bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Vazirlar Mahkamasining qarorida “Aqilli shahar” konsepsiyasi qabul qilinib, unga ko‘ra “aqlli ta’lim”, “aqlli transport”, “aqlli hokimiyat” kabi bir qator loyhalarini joriy etishning asosiy yo‘nalishlari belgilab chiqildi. Bu esa jamiyatimizda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng tadbiq qilish hamda uni amaliyotga qo‘llash orqali barcha sohalarga raqamli texnologiyalarni keng joriy etish imkoniyati yaratilib berilayotganidan darak beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Raqamli iqtisodiyotga o‘tmasak, orqada qolib ketyapmiz. Iqtisodiyotning barcha sohalarini raqamli texnologiyalar asosida yangilashni nazarda tutadigan Raqamli iqtisodiyot milliy konsepsiyasini ishlab chiqishimiz kerak. Shu asosda «Raqamli O‘zbekiston – 2030» dasturini hayotga tadbiq etishimiz zarur”[1] deya takidlab o‘tdilar. Bu qaror loyihasida O‘zbekiston aholisining Jahon tarmog‘iga kirish imkoniga ega bo‘lgan tadqiqotlar keltirilgan.Xususan, joriy yilda keng polosali ulanishning kamida 800 ming Internet portini tashkil etish va 12 ming kilometr optik tolali aloqa liniyalari barpo etish rejalashtirilgan. Internetda keng polosali tarmoqlarni kengaytirish uchun 340 mingga yaqin abonent telekommunikatsiya uskunalariga ega bo‘ldi. Hududlar bo‘yicha

taqsimlangan telekommunikatsiya qurilmalari mutaxassislar tomonidan o‘rnatildi. Bugungi kunda 281 ming port qurilmasi o‘rnatilgan.

2017-2021 — yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasini "fan, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili" da amalga oshirishga oid Davlat dasturida belgilangan vazifalarga muvofiq Prezidentimizning 2020 yil 28-apreldagi "raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida" gi qarori qabul qilindi.[2]

Bugungi kunda butun mamlakat bo‘ylab 1 148 ta yangi baza stansiyasi o‘rnatildi va foydalanishga topshirildi. 1 483 ta muassasada joylashgan tayanch stansiyalarni modernizatsiya qilish orqali keng polosali Internet xizmatlarini ko‘rsatish mumkin bo‘ldi. Telekommunikatsiya tarmog‘ini rivojlantirish loyihalari doirasida rejalashtirilgan ob'ektlarga 6,5 ming kilometr optik tolali aloqa liniyalari yotqizildi. Bu boradagi ishlar davom ettirilmoqda, — deydi axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi telekommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish boshqarmasi boshlig‘i Akmal Arifjonov.

Raqamlashtirish yo‘lidagi keyingi muhim qadam IT-Parkni yaratishdir. Texnopark Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 10 yanvardagi "dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parkini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida" gi qaroriga muvofiq tashkil etilgan.[3]

It-Park Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi faol va iqtidorli insonlar buxgalteriya, huquqiy, marketing va ta'limni qo‘llab-quvvatlash orqali g‘oyalarni haqiqiy biznes loyihalariga aylantirish uchun haqiqiy imkoniyatga ega bo‘lgan noyob joy.

Poytaxtimizda tashkil etilgan it-parkning muvaffaqiyatli tajribasi respublikamizning boshqa hududlarida ham shunday texnoparklar yaratishga xizmat qildi. Bu yil ular may oyining oxirida Andijonda va iyun oyining boshida Marg‘ilonda ochildilar. 2020-2024 yillarda O‘zbekistonning barcha hududlarida birinchi navbatda Nukus, Buxoro, Namangan, Samarqand, Guliston va Urganch shaharlarida, shuningdek, Toshkentdagi Muhammad Al- Xorazmiy nomidagi maktabda texnoparklar ochiladi.

Statistika ma'lumotlariga ko‘ra, respublikada Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi mutaxassislarga bo‘lgan talab tez sur'atlar bilan o‘sib bormoqda, buning natijasida sohada kadrlar etishmasligi ham xususiy sektor, ham samarali davlat boshqaruvi uchun salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Malakali IT-mutaxassislarga bo‘lgan tez o‘sib borayotgan talab, ularning etishmasligi bilan birga, bu sohada mutaxassislarning ish haqi darajasining oshishiga olib keladi. Davlat boshqaruvi organlarining malakali mutaxassislari bilan ta'minlash muammosi o‘ta dolzarb. Shu munosabat bilan bugungi kunda mamlakatimizda "bir million dasturchi" Mega-loyihasi amalga oshirilmoqda.

Prezident Shavkat Mirziyoyev 2020 yil 8-iyun kuni axborot texnologiyalari va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar haqida taqdimot chog‘ida ta'kidlaganidek, sohada belgilangan maqsadlarga erishish yangi avlod mutaxassislarini tayyorlash hisobiga jadal sur'atda o‘sishi mumkin.

Shuning uchun 2020 yil oxirigacha 100 ming kishini va yana 150 ming kishini – 2021-yilning birinchi yarmida o‘qishga jalb qilish kerak. Maktablarda "Informatika" fanining 5-sinfidan o‘qituvchini takomillashtirish, uning dasturiga "bir million dasturchi"loyihasidan fanlarni kiritish bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi.

2020-yil 17-mart kuni Prezidentimizning "Toshkent shahrida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi qarori qabul qilindi.[4] Ushbu qaror bilan

belgilangan vazifalar qatorida "raqamli Toshkent" kompleks dasturini amalga oshirish uchun 377 ta mahalliy korxonani birlashtirgan It-Park rezidentlarini jalb qilish ko‘zda tutildi. Dastur shahar xizmatlarini boshqarishni raqamlashtirishga, ijtimoiy soha obyektlari, ishlab chiqarish, yo‘l-transport va kommunal infratuzilmalarning integratsiyalashgan axborot muhitini yaratishga, keyinchalik muvaffaqiyatli tajribani respublikaning boshqa hududlariga tarqatishga qaratilgan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

So‘nggi o‘n yillikda ta’lim sohasida kompyuter texnologiyalarining keng qo‘llanilishi pedagogika faniga qiziqishni kuchaytirdi. O‘qitishning kompyuter texnologiyasi muammosini hal qilishda rus va chet el olimlari katta hissa qo‘shdilar. Jumladan G.R. Gromov, V.I. Gritsenko, V.F. Sholoxovich, O. I. Agapova, O.A. Krivosheev, S. Papert, G. Kleyman, B. Sendov, B. Hunter va boshqalar. Ta'lim jarayonida axborotlashtirish bo‘yicha ko‘p ishlarni amalga oshirishgan. Hozirgi kunda esa raqamli texnologiyaga katta ahamiyat qaratilmoqda va barcha sohalar sekin astalik bilan raqamlashtirilmoqda. Ta’limni raqamlashtirish bo‘yicha

qator izlanishlar, g‘oyalar va takliflar amalga oshirilib kelinmoqda. Jumladan Леонов С. А. (2018). Интеграция здравоохранения, образования и информационно-коммуникационных технологий в рамках цифровизации отечественной медицины. Актуальные проблемы экономики и управления, (3), 35-39.[5] Maqolada zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda tibbiyot sohasini raqamlashtirishga qaratilgan. Сафуанов Р. М., Лехмус М. Ю., & Колганов Е. А. (2019). Цифровизация системы образования. Вестник УГНТУ. Наука, образование, экономика. Серия: экономика, (2 (28)). [6] Котенёва Д. С., Бут Е. А., & Гурова Е. А. (2020). Цифровые технологии в системе образования. Молодежный научный форум, 78.[7] Ta’lim tizimini raqamlashtirish bo‘yicha bir qator g‘oya va takliflarni kiritib o‘tganlar.

Tadqiqot metodologiyasi

Hozirgi kunda ilmiy tadqiqot izlanuvchilar, professorlar hamda xorij tajribalarini o‘rgangan holda va ularning davomchisi sifatida OTM ning boshqaruv tizimiga zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash orqali “D&G”(digital technologies and gifted students) dasturiy tizimini yaratishga qaratilgan g‘oyani ilgari surmoqdamiz. Iqtidorli talabalar bilan ishlash jarayonlariga raqamli texnologiyalarni joriy etishni amalga oshirishda rivojlangan mamlakatlardagi raqamli texnologiyalar asosida dasturiy tizim yaratishning kontseptsiyalarini o’rganish va tahlil qilish, milliy kontseptsiya asosida raqamli texnologiyalarni rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqish, ko’p tarmoqli indikatorlarni e’tiborga olgan holda intellektual reyting yordamida qaror qabul qilish va uni amaliyotga joriy etish, universitet reytingini ko’tarish va qulay tezkor ishlashi uchun “DGS” kontseptsiyani ishlab chiqishdir. Bu dasturiy tizim iqtidorli talaba yoshlarni, bilimga qiziquvchi, izlanuvchi talabalarni o‘zida jamlaydi. Bundan tashqari bo‘lim va markazlarda xodimlarning ish faoliyatini ham yengillashtiradi.

Ishlab chiqilgan dasturiy vositalar evaziga boshqarishdagi axborot jarayonlari texnologiyasini butunlay o‘zgartirishimiz mumkin. Boshqacha aytganda, korxona muassasa va tashkilotlar faoliyatidagi holatni aks ettiruvchi ma’lumotlarning tezkorligi va ishonchliligini ta’minlash, ma’lumotlarni qayd qilishni sodda holatga keltirish, zarur xabarlarni izlash va guruhlash, ularning tezligini oshirish, axborot saqlashni mukammallash, hisobotlar tayyorlashda kishi mehnatini kamaytirish, xo‘jalik bo‘g‘inlari orasidagi o‘zaro bog‘lanish va axborot oqimi sifatini ko‘tarish, ikkinchi darajali ma’lumotlardan xoli bo‘lib, bo‘g‘inlararo axborot oqimini tartibga solish, boshqarish uchun olingan ma’lumotlarni saralab, murakkab tahlil ishlarini

bajarish, bashoratlash, maqbullash, rejalashtirish va tashkillash masalalarini hal qilishdan iboratdir. Bunday tizimlarni barpo etishdan asosiy maqsad korxona muassasa va tashkilotlarning markazlari va xodimlar uchun qulaylik yaratish, axborot jarayonlarini avtomatlashtirishga qodir yagona interaktiv tizimni ishlab chiqishdir.

Axborot jarayonlarini avtomatlashtirish asosida rejalashtirish, loyihalash va boshqarish masalalarini yechish usullaridan foydalanishga imkon tug‘iladi. Axborot jarayonlarini qo‘lda bajarishga asoslangan an’anaviy boshqarish tizimlaridan boshqaruv ishlarini raqamlashtirishning farqi shuki, bu tizimni yaratish va foydalanishni tashkil etishning asosiy yo‘l yo‘riqlari maxsus qoidalar ko‘rinishida ifodalangan bo‘ladi. Boshqaruvning ayrim bosqichlaridagi jarayonlarni mexanizatsiyalash masalani yechishga doir ma’lumotlarni tayyorlashga ketadigan mehnatni kamaytirmaydi. Bu holatda axborotni kiritish va chiqarish, namunalar hamda dastur apparatini tayyorlashda parallellikning buzilishi dastur va axborotni qayta ishlovchi texnik vositalarni ishlatishda qiyinchilik tug‘diradi. Bu qiyinchiliklar tezkor va haqiqiy ma’lumotlar asosida kelajakni uzoq muddatga bashoratlash masalasini hal qilishda, rejali topshiriqlarni tezkorlik bilan bajarishda, boshqarishda foydalaniladigan ma’lumotlarni taqdim etishdagi kechikishlarga sabab bo‘ladi. Shu maqsadda ta’lim tizimida huddi shunday har bir bo‘lim, tashkilot va muassasa o‘z yo‘nalishi doirasida dasturiy tizim barpo qilinsa, yuqorida sanab o‘tganimizdek yuqori natijalarga erisha olamiz hamda ta’limda ham boshqaruv tizimida ham o‘sish va yuksalish kengayib boradi.

Tahlil va natijalar

Boshqaruv jarayonini raqamlashtirish shu jihatdan ham samaraliki, unda birinchidan hisobga olish va boshqarish masalalari yagona majmua ichida hal bo‘ladi, ikkinchidan, axborotning harakat yo‘li, ya’ni birlamchi axborotdan tortib to bir tizimga solingan boshqaruv ma’lumotlarigacha butunlay qamraladi. Boshqaruv jarayonini raqamlashtirish tizimining yagona matematik modeli, ya’ni har xil darajadagi o‘zaro bog‘langan matematik modellar majmui bo‘ladi. Bu modellar majmui asosida tizimda avtomatik ravishda maqbullash (optimallash) va rejalashtirish masalasi qo‘yiladi va yechiladi. Bu tizimning unumdorligiga hamma amallarning avtomatik ravishda bajarilishi evaziga erishiladi. Boshqaruv ishlarini avtomatlashtirish boshqaruvning tashkiliy iqtisodiy tizimi turiga kiradi. Boshqaruv ishlarini avtomatlashtirish murakkab tizim bo‘lib, o‘z tarkibida tub tizimlarni mujassamlashtiradi. Bu tizim ma’lum belgilarga asoslanib ajratilgan va boshqarishning aniq maqsadi hamda masalalariga javob beradigan tizimning bir qismidir. Shu masalalar doirasida uni alohida tizim deb qarash mumkin.

2020-2021 yillarda "Raqamli Toshkent" dasturi asosiy yo‘nalishlarni qamrab oldi, jumladan ta'lim, sog‘liqni saqlash, kommunal sektor, davlat boshqaruvi, turizm, savdo, qurilish va atrof-muhit muhofazasi. Hozirgi vaziyatda O‘zbekistonda masofaviy ta'lim, elektron banking hamda kommunal xizmatlarda ham elektron hisob orqali faol foydalanib kelinmoqda. Bundan tashqari, fuqarolar, vazirliklar va idoralar uchun elektron davlat xizmatlari ro‘yhati shakillantirilgan.

Axborotlashtirish xizmatlarining hajmi 2015 yilda jami 5181,5 mlrd so‘mni tashkil qilgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2020 yilga kelib 13852.3 mlrd so‘mgacha o‘sishga erishdi. Oraliq davrda ham o‘sish tendensiyasini ko‘rish mumkin. 2016-yilda bu ko‘rsatkich 6306.8 mlrd so‘mni tashkil qilib, 2017-yilda 8196.7 mlrd so‘mgacha o‘sgan.

Faqatgina 2018-yilda bu ko‘rsatkich keskin yuqoriga ko‘tarilgan 10332.6 mlrd so‘mni tashkil etgan. Tahlil qilinayotgan davrda makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarining ko‘rsatilgan aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi yuqori o‘sish ko‘rsatkichlarini qayd qilgan. Bundan

ko‘rinib turibtiki dasturiy tizim va unga bo‘lgan talab oshib bormoqda chunki hozirda har bir tashkilot muassasa tayyor dasturiy tizimlarni foydalanishni qulay deb bilishadi va shu bilan birgalikda eskilik sarxitlaridan qochib innovatsion rivojlanishga xodimlar, yosh kadrlar va talabalar o‘zlari ustilarida chuqirroq ishlashlariga olib keladi. Hozirda dunyo raqamlashgan ta’lim tizimida ish olib bormoqda. Statistik tahlil natijalari buning yaqqol misoli sifatida ko‘rish mumkin.

Xulosa va takliflar

Xulosa o‘rnida shuni takidlash mumkinki, korxona muassasa va tashkilotlarning boshqaruv tizimiga zamonaviy axborot komunikatsiya texnologiyalarni qo‘llagan holda barcha soha va markazlarni raqamlashtirsak, shu yuqoridagi muassasalarning raqamlashtirish faoliyati jarayonida mehnat unumdorligi va samaradorligi oshadi hamda imkoniyatlari kengayadi.

Raqamli iqtisodiyot butun dunyoni qamrab olishi tufayli, axborotlashtirish va raqamlashtirishga oid har qanday davlat loyihasi kompleks ravishda hamda yagona kodlash tizimi, iqtisodiy va boshqaruvga aloqador axborotni aniqlash asosida o’rganilishi lozim.

Yuqorida keltirilgan takliflarning amaliyotga joriy etilishi, bizning nazarimizda, O’zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda ta’lim tizimini boshqaruvining yuksalishiga imkon yaratib beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 5 oktabr 2020 yil, PQ-6079
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 28.04.2020 yildagi PQ-4699-sonli
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 15.07.2019 yildagi 589- sonli
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 2020-yil 17-martdagi PQ–4642- sonli
5. Леонов, С. А. (2018). Интеграция здравоохранения, образования и информационно-коммуникационных технологий в рамках цифровизации отечественной медицины. Актуальные проблемы экономики и управления, (3), 35-39.
6. Сафуанов, Р. М., Лехмус, М. Ю., & Колганов, Е. А. (2019). Цифровизация системы образования. Вестник УГНТУ. Наука, образование, экономика. Серия: экономика, (2 (28)).
7. Котенёва, Д. С., Бут, Е. А., & Гурова, Е. А. (2020). Цифровые технологии всистеме образования. Молодежный научный форум, 78.

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONIDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASH

Solihov Nodirbek Umidjon o‘g‘li
Millat Umidi universiteti 4-kurs talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.18271655

Annotatsiya: *Ushbu maqolada raqamli transformatsiya sharoitida tadbirkorlik subyektlari faoliyatida axborot xavfsizligini ta’minlash masalalari yoritilgan. Raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi biznes jarayonlarining samaradorligini oshirishi bilan birga, kiberxavflar va axborot tahdidlarining kuchayishiga ham sabab bo‘lmoqda. Maqolada axborot xavfsizligining asosiy tushunchalari, tahdid turlari, zamonaviy himoya mexanizmlari hamda tadbirkorlik subyektlarida axborot xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha amaliy tavsiyalar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *raqamli transformatsiya, tadbirkorlik, axborot texnologiyalari, kiberxavfsizlik, axborot xavfsizligi, raqamli iqtisodiyot.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются вопросы обеспечения информационной безопасности в деятельности субъектов предпринимательства в условиях цифровой трансформации. Широкое внедрение цифровых технологий, наряду с повышением эффективности бизнес-процессов, приводит к усилению киберугроз и информационных рисков. безопасности, виды угроз, современные механизмы защиты, а также представлены В статье раскрываются основные понятия информационной практические рекомендации по обеспечению информационной безопасности субъектов предпринимательства.*

Ключевые слова: *цифровая трансформация, предпринимательство, информационные технологии, кибербезопасность, информационная защита, цифровая экономика.*

Annotation: *This article examines the issues of ensuring information security in the activities of business entities in the context of digital transformation. The widespread adoption of digital technologies, while increasing the efficiency of business processes, also leads to the growth of cyber threats and information risks. The article discusses the main concepts of information security, types of threats, modern protection mechanisms, and provides practical recommendations for ensuring information security for business entities.*

Keywords: *digital transformation, entrepreneurship, information technology, cybersecurity, information security, digital economy.*

KIRISH

Bugungi kunda jahon iqtisodiyotida raqamli transformatsiya jarayonlari jadal sur’atlar bilan rivojlanmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng joriy etilishi natijasida iqtisodiy munosabatlar shakli, biznes yuritish usullari va boshqaruv mexanizmlari tubdan o‘zgarmoqda. Raqamli iqtisodiyot sharoitida tadbirkorlik subyektlari uchun tezkorlik, moslashuvchanlik va innovatsion yondashuv asosiy raqobat ustunligiga aylanmoqda.

Shu bilan birga, raqamli transformatsiya jarayoni axborot xavfsizligi bilan bog‘liq muammolarni ham keskinlashtirmoqda. Tadbirkorlik subyektlari faoliyatida axborot resurslari, mijozlar bazasi, moliyaviy ma’lumotlar va tijorat sirlari eng muhim strategik aktivlardan biri hisoblanadi. Ushbu axborotlarning yo‘qolishi, buzilishi yoki noqonuniy tarqalishi tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga jiddiy zarar yetkazishi mumkin. Shu sababli mazkur maqolada raqamli transformatsiya jarayonida tadbirkorlik subyektlarining axborot xavfsizligini ta’minlash masalalari kengroq yoritiladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR:

Bozor iqtisodiyoti sharoitida axborot muhim omillardan biri hisoblanadi. Axborot yordamida jamiyat a'zolari va uning tarkibiy bo‘linmalari faoliyati boshqariladi, kelgusi rejalar belgilanadi, ularning bajarilishi nazorat va tahlil qilinadi. Axborotsiz jamiyat a'zolarining ma'naviy, ma'rifiy, madaniy va boshqa ehtiyojlari qoniqtirilmaydi. Shu bois axborotga bo‘lgan ehtiyojni qondirish har qanday jamiyatning ustuvor maqsadlaridan biri hisoblanadi. Ushbu ustuvor maqsadga erishish aloqa va axborotlashtirish xizmatlarini doimiy rivojlantirishni obyektiv zaruratga aylantiradi. Ushbu sohani rivojlantirish har qanday mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy ravnaqini ta'minlashda muhim omillardan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda kompyuter va axborot texnologiyalari, telekom- munikatsiya va ma’lumot uzatish tarmoqlarini, internet xizmatlarini rivojlantirish va zamonaviylashtirish, ularni jahon standartlari da- rajasiga yetkazish maqsadida keng ko‘lamli islohotlar bosqichma- bosqich amalga oshirila boshlandi, jumladan, 0 ‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 30-iyundagi «O‘zbektelekom» aksiyadorlik kompaniyasi (AK) faoliyatini tashkil etish masalalari 253-sonli qarorga muvofiq « O‘zbektelekom» aksiyadorlik jamiyati tashkil etildi va uning vazifalari belgilab berildi. Mamlakatimizda mobil aloqa bozorida milliy kompaniyalarining keng ishtiroki uchun zarur sharoitlarni yaratish va O‘zbekistonning ko‘chma mobil aloqa tarmoqlarini yanada rivojlantirish, shuningdek, axborot xavfsizligini ta'minlash maqsadida 2014-yil 12-fevraldagi O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining "Mobil aloqa milliy operatori faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PQ-2126-sonli Qarori qabul qilindi. Bu me'yoriy hujjatlarning ijrosini ta'minlash maqsadida, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalangan holda "O‘zbektelekom" AK filiallari uchun korporativ dasturiy ta'minot, ya'ni "TBilling" tizimi, ishlab chiqildi.

1-jadval. O‘zbekiston raqamli iqtisodiyot rivojlanishi va investitsiya o‘sishi

Yil	Internet foydalanuvchilari soni (million)	Investitsiya hajmi o‘sishi (%)	Raqamli soliq tizimi orqali to‘langan soliqlar (%)
2018	16	15	10
2019	18	18	12
2020	20	25	13
2021	22	30	14
2022	24	35	16

1. RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONINING MOHIYATI VA BOSQICHLARI

Raqamli transformatsiya — bu tashkilot yoki tadbirkorlik subyektining an’anaviy faoliyat modelini raqamli texnologiyalar asosida tubdan o‘zgartirish jarayonidir. Ushbu jarayon faqat

texnologik yangilanish bilan cheklanib qolmay, balki boshqaruv, tashkiliy tuzilma va biznes madaniyatini ham o‘z ichiga oladi.

Raqamli transformatsiyaning asosiy bosqichlari quyidagilardan iborat:

- axborot jarayonlarini raqamlashtirish;
- biznes jarayonlarini avtomatlashtirish;
- raqamli platformalar va xizmatlarni joriy etish;
- ma’lumotlarga asoslangan boshqaruv tizimini shakllantirish.

Mazkur bosqichlar tadbirkorlik subyektlarining samaradorligini oshirish bilan birga, axborot xavfsizligi risklarini ham yuzaga keltiradi.

2. TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATIDA AXBOROT XAVFSIZLIGINING O‘RNI

Axborot xavfsizligi tadbirkorlik subyektlari barqaror faoliyat yuritishining muhim sharti hisoblanadi. Raqamli muhitda axborot resurslari moddiy boyliklar qatorida muhim strategik resurs sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Tadbirkorlik subyektlari faoliyatida axborot xavfsizligining ahamiyati quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- mijozlar ishonchini saqlab qolish;
- moliyaviy yo‘qotishlarning oldini olish;
- huquqiy javobgarlik va jarimalardan himoyalanish;
- korxona obro‘-e’tiborini mustahkamlash.

Axborot xavfsizligini ta’minlamagan tadbirkorlik subyektlari raqamli bozorda uzoq muddatli muvaffaqiyatga erisha olmaydi.

3. RAQAMLI MUHITDA AXBOROT XAVFSIZLIGIGA TAHDIDLAR VA XAVFLAR

Raqamli transformatsiya jarayonida axborot xavfsizligiga tahdidlar soni va murakkabligi ortib bormoqda. Ushbu tahdidlar tashqi va ichki omillar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Asosiy tashqi tahdidlar:

- kiberjinoyatchilik va xakerlik hujumlari;
- fishing va ijtimoiy muhandislik usullari;
- zararli dasturlar va viruslar.

Ichki tahdidlar esa xodimlarning ehtiyotsizligi yoki qasddan amalga oshirilgan noqonuniy harakatlari bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Ushbu tahdidlar axborot xavfsizligini kompleks yondashuv asosida boshqarishni talab etadi.

4. ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA XAVFSIZLIK MASALALARI

Bulutli texnologiyalar, sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar va mobil ilovalarning joriy etilishi tadbirkorlik subyektlari uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Shu bilan birga, ushbu texnologiyalar axborot xavfsizligiga bo‘lgan talablarni ham oshirmoqda.

Masalan, bulutli texnologiyalarda ma’lumotlarni saqlash masalasi xavfsizlik siyosatini to‘g‘ri tashkil etishni talab qiladi. Sun’iy intellekt asosida ishlovchi tizimlar esa ma’lumotlar maxfiyligini ta’minlashni zarur etadi.

5. TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASH STRATEGIYALARI

Axborot xavfsizligini ta’minlash uchun tadbirkorlik subyektlari quyidagi strategik yo‘nalishlarga e’tibor qaratishlari lozim:

- axborot xavfsizligi siyosatini ishlab chiqish;
- texnik va dasturiy himoya vositalarini joriy etish;
- xodimlarni muntazam o‘qitish va malakasini oshirish;
- axborot xavfsizligi bo‘yicha monitoring va auditni amalga oshirish.

Axborot xavfsizligini ta’minlash uchun tadbirkorlik subyektlari quyidagi strategik yo‘nalishlarga e’tibor qaratishlari lozim:

- axborot xavfsizligi siyosatini ishlab chiqish;
- texnik va dasturiy himoya vositalarini joriy etish;
- xodimlarni muntazam o‘qitish va malakasini oshirish;
- axborot xavfsizligi bo‘yicha monitoring va auditni amalga oshirish.

XULOSA: Xulosa qilib aytganda, raqamli iqtisodiyotda mustahkam axborot xavfsizligini ta’minlash nafaqat texnik muammo, balki korxonalar, hukumatlar va jismoniy shaxslar uchun muhim shartdir. Raqamli texnologiyalarga bo‘lgan ishonch o‘sishda davom etar ekan, kibertahdidlarning murakkabligi va murakkabligi ham o‘sib bormoqda. Shifrlash, tarmoq xavfsizligi protokollari, kirishni boshqarish vositalari va kiberxavfsizlikdan xabardorlik dasturlarini o‘z ichiga olgan samarali axborot xavfsizligi choralarini amalga oshirish xavflarni kamaytirish va maxfiy ma'lumotlarni himoya qilish uchun muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, tartibga soluvchi standartlar va tizimlarga rioya qilish, doimiy monitoring va hodisalarga proaktiv javobni rejalashtirish keng qamrovli kiberxavfsizlik strategiyasining ajralmas qismidir. Kiberxavfsizlikdan xabardorlik va hamkorlik madaniyatini rivojlantirish orqali tashkilotlar kibertahdidlarga qarshi chidamliligini oshirishi va tobora o‘zaro bog‘langan dunyoda manfaatdor tomonlar bilan ishonchni saqlab qolishlari mumkin. Oxir oqibat, axborot xavfsizligiga ustuvor ahamiyat berish nafaqat moliyaviy va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qiladi, balki innovatsiyalar, iqtisodiy o‘sish va raqamli transformatsiya sa'yharakatlarini qo‘llab-quvvatlaydi. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanayotgan manzarasini kezar ekanmiz, mustahkam kiberxavfsizlik choralariga sarmoya kiritish global miqyosda barqaror rivojlanish va xavfsiz raqamli kelajak uchun asos bo‘lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Castells M. *The Rise of the Network Society*. – Oxford: Blackwell, 2010.
2. Laudon K., Laudon J. *Management Information Systems*. – Pearson Education, 2020.
3. OECD. *Digital Economy Outlook*. – Paris, 2022.
4. ISO/IEC 27001:2013. *Information Security Management Systems*.
5. O‘zbekiston Respublikasi “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi Qonuni.
6. Mo‘ydinjonova D.I. International Multidisciplinary Research in Academic Science (IMRAS) Volume. 7, Issue 06, June (2024)
7. https://universalpublishings.com/index.php/jusr

“GLOBAL BOZORLARDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING BIZNES SAMARADORLIGIGA TA’SIRI”

Temirov Karimjon Yunusali o‘g‘li
“Millat Umidi” Universiteti Xalqaro Biznes va Moliya fakulteti talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.18271704

Annotatsiya. *Raqamli transformatsiya hozirgi iqtisodiy sharoitda korxonalar uchun raqobat ustunligini ta’minlovchi muhim strategik yo‘nalishga aylandi. Mazkur maqolada raqamli transformatsiyaning korxonalar moliyaviy samaradorligiga ta’siri tahlil qilinadi. Tadqiqotda bozor ulushi, sof foyda rentabelligi va bozor qiymatini ifodalovchi ko‘rsatkichlar asosiy natijaviy o‘zgaruvchilar sifatida ko‘rib chiqiladi. Raqamli transformatsiya darajasi esa strategik chuqurlik va texnologik qo‘llanish kengligi orqali baholanadi. Empirik tahlil natijalari raqamli transformatsiya dastlabki bosqichlarda ayrim moliyaviy ko‘rsatkichlarga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligini, biroq uzoq muddatda operatsion samaradorlik va bozor moslashuvchanligini oshirish orqali ijobiy natijalarga olib kelishini ko‘rsatadi. Shuningdek, mulkchilik shakliga qarab transformatsiya jarayonida samaradorlik farqlari mavjudligi aniqlanadi. Tadqiqot xulosalari korxonalar uchun raqamli transformatsiyani bosqichma-bosqich va strategik yondashuv asosida amalga oshirish zarurligini asoslaydi.*

Аннотация. *Цифровая трансформация стала ключевой стратегией для предприятий в современных экономических условиях, обеспечивая конкурентные преимущества. В данной статье анализируется влияние цифровой трансформации на финансовую эффективность компаний. Основными финансовыми показателями выступают доля на рынке, чистая рентабельность и показатели рыночной стоимости. Степень цифровой трансформации оценивается через глубину стратегического внедрения и широту применения цифровых технологий. Эмпирический анализ показывает, что на начальных этапах трансформация может негативно сказываться на некоторых финансовых показателях, однако в долгосрочной перспективе она повышает операционную эффективность и адаптацию к рыночным изменениям. Также выявляются различия в эффективности трансформации в зависимости от типа собственности предприятия. Результаты исследования подчеркивают необходимость поэтапного и стратегически выверенного внедрения цифровых технологий для достижения устойчивого конкурентного преимущества.*

Abstract. *Digital transformation has become a key strategy for enterprises in the current economic environment, providing competitive advantages. This study examines the impact of digital transformation on firms’ financial performance. The primary financial indicators considered are market share, net profit margin, and market value measures. The degree of digital transformation is assessed through the depth of strategic implementation and the breadth of digital technology adoption. Empirical analysis indicates that, in the initial stages, transformation may negatively affect certain financial indicators; however, in the long term, it enhances operational efficiency and market adaptability. Differences in transformation effectiveness according to enterprise ownership type are also observed. The findings highlight*

the importance of phased and strategically guided digital technology implementation to achieve sustained competitive advantage.

Kalit so'zlar: *Raqamli transformatsiya, moliyaviy samaradorlik, bozor raqobati, strategik moslashuv, ko'p omilli regressiya," O'zbekiston-2030" strategiyasi.*

Kirish

Hozirgi global iqtisodiy muhitda texnologik rivojlanishning tezlashuvi va bozordagi sharoitlarning doimiy o'zgarishi korxonalarni raqobatbardoshligini saqlash uchun faol strategik harakatlar qilishga majbur qilmoqda. Raqamli transformatsiya bu jarayonda markaziy rol o'ynaydi, chunki u korxona faoliyatining turli yo'nalishlarini – ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish, operatsion samaradorlikni oshirish, ma'lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish va yangi biznes modellarini joriy etishni qamrab oladi. Raqamli texnologiyalar, jumladan sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar tahlili, bulutli hisoblash va raqamli platformalar korxonalar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Ular yordamida korxonalar bozor talablari va iste'molchi xohishlariga tez moslashishi, xarajatlarni kamaytirishi va innovatsion yechimlarni ishlab chiqishi mumkin. Shu bilan birga, raqamli transformatsiya yuqori investitsion xarajatlar, tashkiliy murakkablik va qisqa muddatli moliyaviy bosimlar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Transformatsiyani muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun korxona resurslarini to'g'ri taqsimlash, texnologiyalarni integratsiyalash va xodimlarni o'qitish zarur. Empirik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, raqamli transformatsiyaning moliyaviy samaradorlikka ta'siri bir xil emas. Ba'zi korxonalarda dastlabki bosqichlarda foyda pasayishi kuzatilsa, boshqa korxonalarda bozor bahosi va raqobatbardoshlik oshadi. Bu holat raqamli transformatsiyaning bosqichma-bosqich va dinamik jarayon ekanligini ko'rsatadi. Transformatsiya jarayonining natijalari korxonaning tashkiliy tuzilmasi, strategik tayyorgarligi, resurs bazasi va bozor muhitiga bog'liq bo'ladi.

Shuningdek, raqamli transformatsiya jarayonida tashqi bilim manbalaridan foydalanish va foydalanuvchilar bilan o'zaro hamkorlik muhim ahamiyatga ega. Foydalanuvchilarni loyihalarga jalb qilish, ularning fikr va tajribalaridan foydalanish innovatsion yechimlarni shakllantiradi va korxonaning bilim bazasini kengaytiradi. Tashqi muhitning dinamikligi va korxonaning bilimlarni o'zlashtirish salohiyati esa raqamli transformatsiyaning samaradorligini oshiruvchi muhim vositachi omillardir. Shu sababli, raqamli transformatsiyaning korxona moliyaviy natijalariga ta'sirini chuqur tahlil qilish, turli turdagi korxonalarda – masalan, davlat va xususiy mulk korxonalarida – yuzaga keladigan farqlarni aniqlash va strategik tavsiyalar ishlab chiqish ilmiy jihatdan dolzarb masala hisoblanadi. Mazkur tadqiqot raqamli transformatsiyaning moliyaviy samaradorlikka ta'sirini bozor ulushi, sof foyda rentabelligi va bozor qiymatini ifodalovchi ko'rsatkichlar orqali o'rganadi, shuningdek, korxona turiga qarab heterojen samaradorlikni tahlil qiladi. Tadqiqot natijalari korxonalarni raqamli transformatsiyani bosqichma-bosqich, strategik va resurslarga asoslangan yondashuv bilan amalga oshirishga yo'naltiruvchi ilmiy va amaliy tavsiyalarni taqdim etadi. Ushbu kirish tadqiqotning nazariy asoslari, metodologik yondashuvi va amaliy ahamiyatini tushuntiradi hamda raqamli transformatsiya va moliyaviy samaradorlik o'rtasidagi murakkab bog'liqlikni o'rganish zaruratini asoslaydi.

Asosiy qism

Raqamli transformatsiya korxona faoliyatida strategik rejalashtirishdan tortib operatsion jarayonlargacha bo'lgan barcha bosqichlarni qamrab oladi. Uning chuqurligi korxonaning raqamli strategiyani qanchalik tizimli va izchil amalga oshirayotganini aks ettirsa, texnologik

kenglik raqamli vositalarning qaysi darajada faoliyatga integratsiyalashganini ifodalaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, strategik chuqurlik dastlab bozor qiymatini baholovchi ko‘rsatkichlarga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Bunga transformatsiya jarayonida yuzaga keladigan moslashuv xarajatlari va vaqtinchalik samaradorlik pasayishi sabab bo‘ladi.

Biroq texnologik qo‘llanish kengligining oshishi foyda rentabelligi va bozor ulushining o‘sishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu holat raqamli vositalar ishlab chiqarish samaradorligini oshirishi, xarajatlarni qisqartirishi va mijozlar bilan o‘zaro aloqalarni mustahkamlashi bilan izohlanadi. Natijada raqamli transformatsiya uzoq muddatda moliyaviy barqarorlikni ta’minlovchi omilga aylanadi.

Raqamli transformatsiyaning samaradorligi korxonaning tashkiliy tuzilmasi va faoliyat muhitiga bog‘liq holda farqlanadi. Ayrim korxonalar institutsional barqarorlik va tashqi qo‘llab-quvvatlash tufayli transformatsiya jarayonini nisbatan barqaror amalga oshiradi.

Boshqa korxonalar esa moslashuvchan strategiyalar orqali bozor o‘zgarishlariga tez javob berishga majbur bo‘ladi. Ushbu farqlanish raqamli transformatsiya natijalarining bir xil emasligini va individual yondashuv zarurligini ko‘rsatadi.

Resurslarga asoslangan yondashuvga ko‘ra, raqamli transformatsiya jarayonida shakllanadigan raqamli imkoniyatlar korxona uchun noyob va takrorlanishi qiyin bo‘lgan strategik resurslarga aylanadi. Shu bilan birga, dinamik imkoniyatlar nazariyasi korxonalarning raqamli muhitdagi o‘zgarishlarni anglash, resurslarni qayta taqsimlash va innovatsion yechimlarni joriy etish qobiliyatini muhim omil sifatida ta’kidlaydi. Innovatsiyalarning tarqalish nazariyasi esa raqamli texnologiyalarning bosqichma-bosqich qabul qilinishi moliyaviy natijalarning vaqt bo‘yicha farqlanishiga olib kelishini asoslaydi.

Raqamli transformatsiya jarayonida tashqi bilim manbalaridan foydalanish va foydalanuvchilar bilan o‘zaro hamkorlik muhim vositachi omil sifatida namoyon bo‘ladi. Raqamli platformalar orqali foydalanuvchilarning jarayonlarga jalb etilishi bilim almashinuvini kengaytiradi va innovatsion yechimlarning shakllanishiga xizmat qiladi. Shuningdek, tashqi muhitning dinamikligi va korxonaning bilimlarni o‘zlashtirish salohiyati raqamli transformatsiyaning samaradorligini kuchaytiruvchi omillar sifatida qaraladi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, sanoat korxonalari faoliyatida yangi avlod operatsion biznes-modellarining ustuvorligi mavjud bo‘lib, ular korxonalarga operatsion jarayonlarni raqamli texnologiyalar orqali o‘zgartirish imkonini beradi. Tahlillar raqamli texnologiyalarning ishlab chiqarish jarayonlarida joriy etilishi darajasini ko‘rsatadi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, korxonalarning ko‘pchiligi dizayn, konstruktsiya va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish imkoniyatlariga ega. Shu bilan birga, ayrim korxonalarda ishlab chiqarish jarayonlari qo‘lda yoki mexanizatsiyalashgan holda davom etmoqda va raqamli texnologiyalar orqali avtomatlashtirish darajasi past. Faqat kichik qismi korxonalarda mahsulot hayotiy siklini boshqarish tizimlari yoki aqlli ishlab chiqarish texnologiyalari joriy etilgan. Raqamli transformatsiya jarayoniga ta’sir qiluvchi eng muhim omillar sifatida tadqiqot ishtirokchilari moliyaviy resurslar va rahbariyatning yetakchi roli hamda strategik qarorlar qabul qilish kompetentsiyasini ajratib ko‘rsatishgan. Shuningdek, biznes-protsesslarni tashkil etish, IT-infratuzilma, xodimlarning bilim va malakasi, hamkorlar bilan hamkorlik darajasi ham muhim hisoblanadi. Korxonalardagi raqamli yetuklik darajasi va transformatsiya strategiyalari asosan sanoat xususiyatlari, mavjud resurslar va boshqaruv jarayonlarining rivojlanish darajasi bilan belgilanadi. Empirik tahlillar shuni ko‘rsatadiki, raqamli transformatsiya korxonalarga nafaqat operatsion samaradorlikni oshirish, balki mijozlarga yo‘naltirilgan xizmatlar yaratish, yangi platformalar va ekotizimlarni

shakllantirish imkonini beradi. Raqamli texnologiyalarni joriy etishning asosiy maqsadlari va yo‘nalishlari korxonalarning umumiy strategik maqsadlariga mos keladi. Korxona rahbarlari va mutaxassislari raqamli transformatsiyaning raqobatbardoshlikka ta’sirini, yangi texnologiyalarni amaliy qo‘llash imkoniyatlarini yaxshi tushunadi va transformatsiya jarayonini real foydalar va resurslar doirasida amalga oshiradi. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, operatsion biznes-modellarni rivojlantirish ustuvor ahamiyatga ega bo‘lib, ular korxonalarga raqamli texnologiyalar yordamida operatsion jarayonlarni takomillashtirish imkonini beradi. Shu bilan birga, virtual va aqlli fabrikalar, platformalar va ekotizimlarni joriy etuvchi murakkab biznes-modellar hali keng tarqalmagan. Korxonalarning raqamli transformatsiyadagi pozitsiyasi asosan sanoat xususiyatlari, moliyaviy imkoniyatlar va boshqaruv jarayonlarining rivojlanganligi bilan belgilanadi. Muhim omillar qatoriga mintaqaviy innovatsion tizimlarning qo‘llab-quvvatlashi va korxonalarning faoliyat hajmi kiradi, chunki bu ularni murakkab loyihalarni amalga oshirishga va ilg‘or biznes-modellarni joriy etishga imkon beradi. Raqamli transformatsiya va biznes-modellarni rivojlantirish yo‘nalishlari korxonalarning raqamli yetuklik darajasi va mavjud texnologiyalarni yangilash imkoniyatlariga bog‘liq. Shu bilan birga, texnologik orqada qolmaslik, biznes-modellarning global bozor sharoitlariga moslashish qobiliyati va tashqi iqtisodiy hamda siyosiy tahdidlarga javob bera olish muhim hisoblanadi.Kelajakdagi tadqiqotlar uchun muhim savollar shular bo‘lib qolmoqda: raqamli transformatsiya jarayonida eng yaxshi xalqaro boshqaruv amaliyotlarini qo‘llash mumkinmi yoki yangi, innovatsion yechimlar talab qilinadimi. Bu savollar korxonalarni raqamli transformatsiya jarayonida strategik qarorlar qabul qilishga yo‘naltiruvchi tadqiqot yo‘nalishlarini belgilaydi.

Raqamli transformatsiya jarayonlari nafaqat iqtisodiy o‘sishni tezlashtirish, balki ijtimoiy sohalarda ham yangi yondashuvlarni shakllantirish imkonini beradi. Shu sababli, rivojlangan davlatlar ushbu yo‘nalishda strategik dasturlarni amalga oshirib, global raqobatdagi pozitsiyasini mustahkamlashga intilmoqda. Janubiy Koreya, Singapur va Estoniya kabi mamlakatlar raqamli hukumat, elektron sog‘liqni saqlash va ta’lim sohalaridagi muvaffaqiyatlari orqali raqamli transformatsiyaning milliy darajadagi strategik ahamiyatini namoyon qilmoqda.

O‘zbekistonda ham bu jarayonlar e’tibordan chetda qolmay, mamlakatning kelajagini belgilovchi “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Mazkur strategiya raqamli texnologiyalarni iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy hayotning barcha jabhalarida keng qo‘llashni nazarda tutadi. Jumladan, “Elektron hukumat” tizimi orqali davlat xizmatlari onlayn shaklga o‘tkazilmoqda, bu esa aholiga qulaylik yaratish va korrupsiyani kamaytirishga xizmat qiladi. Shuningdek, IT-parklar va bilim markazlari tashkil etilib, yoshlarga zamonaviy kasblarni o‘rganish imkoniyati yaratilmoqda. Global tajribalarni o‘rganish va milliy sharoitga moslashtirish raqamli o‘zgarishlarni jadallashtirish uchun zarurdir. Raqamli transformatsiya faqat texnologik yangilanishni anglatmay, balki jamiyatning barcha sohalarini qamrab oladigan murakkab va uzluksiz jarayon hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekistonning raqamli rivojlanish yo‘lida amalga oshirayotgan qadamlari kelajakda innovatsion iqtisodiyot va raqamli jamiyatni barpo etish uchun mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Raqamli platformalar yuqoridagi texnologiyalarni birlashtiradi va foydalanuvchilarga xavfsiz, qulay va shaxsiylashtirilgan xizmatlarni taqdim etadi. Masalan, raqamli banklar va fintech kompaniyalar sun’iy intellekt hamda IoT texnologiyalarini integratsiya qilgan holda yangi moliyaviy mahsulotlar yaratmoqda. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalarning iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilishdagi roli ham muhimdir, xususan raqamli tengsizlikni

kamaytirish, ma’lumotlar xavfsizligini ta’minlash va texnologik inqirozlarni oldini olish uchun siyosiy va huquqiy mexanizmlar rivojlantirilmoqda.

Xalqaro tashkilotlar, jumladan BMT, Jahon banki, Jahon tijorat tashkiloti (WTO) va Xalqaro valyuta jamg‘armasi (IMF), raqamli iqtisodiyotning global rivojlanish tendensiyalarini tahlil qiladi va uning barqaror rivojlanishini ta’minlashga hissa qo‘shadi. Ularning asosiy maqsadi – raqamli texnologiyalar orqali iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish, raqamli bo‘linishni kamaytirish va global raqamli iqtisodiyotning barqarorligini ta’minlashdir. Jahon banki va IMF prognozlariga ko‘ra, 2024-yilda raqamli iqtisodiyotning global hajmi 20% ga o‘sishi kutilmoqda, bu esa umumiy yalpi ichki mahsulotga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Rivojlangan davlatlar yuqori texnologik infratuzilma va raqamli savodxonlik orqali raqamli iqtisodiyotdan maksimal foyda olishayotgan bo‘lsa, rivojlanayotgan mamlakatlar cheklangan texnologik va moliyaviy imkoniyatlar sababli bu jarayonda ortda qolmoqda.

Har bir yetakchi davlat raqamli iqtisodiyotini rivojlantirish uchun strategiyalar ishlab chiqib, infratuzilmani mustahkamlash, inson resurslarini rivojlantirish va raqamli savodxonlikni oshirishga e’tibor qaratadi. Ularning muvaffaqiyati davlat va xususiy sektor hamkorligi, innovatsiyalarni rag‘batlantirish hamda xalqaro hamkorlik bilan ham chambarchas bog‘liq.

O‘zbekiston Respublikasi so‘nggi yillarda raqamli transformatsiyani davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilab, muhim qadamlar tashladi. 2020-yilda qabul qilingan “Raqamli O‘zbekiston 2030” strategiyasi mamlakatning raqamlashtirish jarayonlarini tezlashtirish, iqtisodiyotda innovatsion yechimlardan keng foydalanish hamda davlat boshqaruvi samaradorligini oshirishni maqsad qilgan.

Shu strategiya doirasida elektron hukumat, moliyaviy texnologiyalar, ta’lim va sog‘liqni saqlash sohalarida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Davlat boshqaruvi sohasida elektron hukumat platformalari joriy etilib, xizmatlar bosqichma-bosqich onlayn shaklga o‘tkazilmoqda. Bu aholiga qulaylik yaratish, byurokratik to‘siqlarni kamaytirish va davlat organlari faoliyatini shaffoflashtirish imkonini beradi. “Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali” (YIDXP) orqali yuzlab xizmatlar elektron tarzda taqdim etilmoqda, bu esa vaqt va resurslarni tejashga yordam beradi. Moliyaviy sektorda elektron to‘lov tizimlari va fintech yechimlari tez rivojlanmoqda. To‘lovlarning katta qismi onlayn amalga oshiriladi va raqamli bank xizmatlari, mobil ilovalar aholining kundalik hayotida muhim rol o‘ynamoqda. Ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimlarida ham raqamlashtirish jarayonlari kengaymoqda. Masalan, masofaviy ta’lim platformalari, onlayn darsliklar va elektron kundaliklar pandemiya davrida muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Sog‘liqni saqlash sohasida elektron tibbiy kartalar, telemeditsina xizmatlari va raqamli diagnostika vositalari keng qo‘llanilmoqda, bu esa bemorlarga masofadan malakali tibbiy yordam olish imkonini yaratadi.

Shu bilan birga, milliy tajribani muvaffaqiyatli amalga oshirishda ayrim muammolar mavjud. Raqamli infratuzilmaning to‘liq rivojlanmaganligi, internet tezligi va qamrovi yetarli emasligi, malakali kadrlar va raqamli savodxonlik darajasining pastligi cheklovlarni yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, qishloq hududlarida yuqori tezlikdagi internetga ulanish imkoniyati chegaralangan. Shu sababli, O‘zbekiston uchun raqamli transformatsiyani jadallashtirishda infratuzilmani rivojlantirish, IT mutaxassislarni tayyorlash va aholining raqamli savodxonligini oshirish eng muhim vazifalardan biridir.

Xulosa. O‘zbekistonning raqamli transformatsiya jarayonlari mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy va davlat boshqaruvi sohalarini modernizatsiya qilishga qaratilgan strategik qadamlardan iborat. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida elektron hukumat

tizimi, moliyaviy texnologiyalar, ta’lim va sog‘liqni saqlash sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlar aholiga qulay, shaffof va samarali xizmatlar ko‘rsatishni ta’minlamoqda. Shu bilan birga, IT-parklar, kadrlar tayyorlash markazlari va raqamli savodxonlikni oshirishga qaratilgan tashabbuslar yoshlarni zamonaviy kasblarga yo‘naltirishga yordam bermoqda.

Biroq, milliy raqamli transformatsiya jarayonida infratuzilma rivoji, internet qamrovi va tezligi, shuningdek, malakali kadrlar yetishmasligi kabi muammolar mavjud. Shu sababli, strategiyaning muvaffaqiyati raqamli infratuzilmani mustahkamlash, aholining raqamli savodxonligini oshirish va innovatsion yechimlarni keng joriy etish orqali yanada mustahkamlanadi.

Natijada, “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi mamlakatni global raqamli iqtisodiyot bilan integratsiyalashuvga tayyorlab, innovatsion iqtisodiyot va raqamli jamiyatni barpo etish uchun mustahkam poydevor yaratmoqda. Ushbu jarayonlar nafaqat texnologik yangilanishni, balki jamiyatning barcha sohalarini qamrab oluvchi strategik va uzluksiz rivojlanish ekanligini ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va Mintaqaviy Tadqiqotlar Markazi. (2020). Raqamli O‘zbekiston – 2030 strategiyasi. Toshkent
2 OECD. (2023). Digital Economy and Innovation in Emerging Markets. Paris: OECD Publishing.
3 https://isrs.uz/en/smti-ekspertlari-sharhlari/eldor-aripov-strategia-cifrovoj-uzbekistan-2030-predpolagaet-rad-proryvnyh-dla-strany-mer?utm_source
4 https://gov.uz/en/pages/2030_strategy?utm_source
5 “Digital Uzbekistan–2030” strategiyasining mazmuni va ta’siri haqida ilmiy maqola (Journal of Marketing and Emerging Economics)
6 https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/
7 http://oajournals.net/index.php/jmee
8 http://oajournals.net/

KORXONALARDA ICHKI NAZORAT VA AUDIT JARAYONLARINI RAQAMLASHTIRISH

To‘lqinov Muhammadaziz Abdulla o‘g‘li
Millat Umidi universitetining 1-kurs talabasi,
https://doi.org/10.5281/zenodo.18271713

Annotatsiya. *Ushbu maqolada korxonalarda ichki nazorat va audit jarayonlarining zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida transformatsiya qilinishi tahlil qilinadi. Raqamlashtirish nafaqat audit jarayonlarining aniqligini oshirishi, balki xatoliklarni kamaytirishi, monitoringni tezlashtirishi hamda menejment uchun real vaqt rejimida ma’lumot olish imkoniyatini yaratishi ko‘rsatib o‘tiladi. Maqolada raqamli audit platformalari, avtomatlashtirilgan risk boshqaruvi tizimlari, elektron hujjat aylanishi, bulutli texnologiyalar va sun’iy intellektdan foydalanishning afzalliklari yoritiladi. Shuningdek, korxonalarda raqamlashtirish jarayonida uchraydigan muammolar va ularni bartaraf etish mexanizmlari ham tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *ichki nazorat, audit, raqamlashtirish, risk boshqaruvi, elektron hujjat aylanishi, sun’iy intellekt, korporativ boshqaruv.*

Аннотация. *В статье рассматривается процесс цифровизации внутреннего контроля и аудита на предприятиях, а также влияние современных технологий на эффективность этих процессов. Показано, что цифровые инструменты повышают точность аудита, минимизируют человеческий фактор, ускоряют мониторинг и обеспечивают руководству доступ к данным в режиме реального времени. В работе анализируются преимущества цифровых аудиторских платформ, автоматизированных систем управления рисками, электронного документооборота, облачных технологий и искусственного интеллекта. Кроме того, уделено внимание проблемам, возникающим при цифровой трансформации, и возможным путям их решения.*

Ключевые слова: *внутренний контроль, аудит, цифровизация, управление рисками, электронный документооборот, искусственный интеллект, корпоративное управление.*

Annotation. *This article analyzes the digital transformation of internal control and audit processes within enterprises. It demonstrates how digital solutions increase audit accuracy, reduce human error, accelerate monitoring, and provide management with real-time data access. The study highlights the advantages of digital audit platforms, automated risk management systems, electronic document workflows, cloud technologies, and the use of artificial intelligence. The article also examines challenges faced during digital implementation and proposes ways to overcome them.*

Keywords: *internal control, audit, digitalization, risk management, electronic document workflow, artificial intelligence, corporate governance.*

KIRISH: Globallashuv va raqamli texnologiyalarning tez rivojlanishi korxonalar faoliyatini barcha jihatdan modernizatsiya qilishni talab qilmoqda. Ichki nazorat va audit — korporativ boshqaruvning eng muhim bo‘g‘inlaridan bo‘lib, ular korxonaning moliyaviy intizomi, aktivlar saqlanishi, risklarni boshqarish samaradorligi bilan bevosita bog‘liq. Zamonaviy korxonalarda bu jarayonlarni an’anaviy qo‘lda yuritish vaqt va resurslarni ko‘p talab

qiladi, shuningdek xatoliklar ehtimolini oshiradi. Shu sababli audit jarayonlarini raqamlashtirish korxonalarning barqaror ishlashi uchun strategik ahamiyat kasb etmoqda.

ASOSIY QISM. Ichki nazorat va audit jarayonlarining raqamlashtirilish zarurati

Raqamlashtirish quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

• Aniqlikning oshishi: avtomatlashtirilgan tizimlar inson omiliga bog‘liq xatoliklarni kamaytiradi.

• Tezkor monitoring: real vaqt rejimida ko‘rsatkichlarni kuzatish imkoniyati paydo bo‘ladi.

• Hujjatlar xavfsizligi: elektron arxivlar hujjatlarni yo‘qotilish yoki buzilishdan himoya qiladi.

• Risklarni samarali boshqarish: tizim avtomatik ravishda xavfli ko‘rsatkichlarni aniqlaydi.

• Qo‘shimcha xarajatlarni kamaytirish: audit uchun sarflanadigan vaqt va mehnat resurslari qisqaradi.

Raqamli ichki nazorat va auditning asosiy texnologiyalari: audit jarayonlarini dasturiy ta’minot orqali yuritish, audit dalillarini yig‘ish va tahlil qilishni tezlashtiradi.

Bu tizimlar:

• xatoliklarni avtomatik aniqlaydi;

• risk darajasini baholaydi;

• tekshiruv natijalarini elektron shaklda saqlaydi.

Elektron hujjat aylanishi tizimi (E-DOC)

• Hujjatlarni raqamli shaklda saqlash

• Avtomatik imzolash (EDS)

• Jarayonlarni shaffoflashtirish

• Mas’ul shaxslarni tezkor kuzatish

Bulutli texnologiyalar

• Ma’lumotlarga istalgan joydan kirish

• Zaxiralash

• Yuqori xavfsizlik

• Katta investitsiya talab qilmaydi

Sun’iy intellekt va ma’lumotlar tahlili

• Shubhali tranzaksiyalarni aniqlash

• Prognoz va tavakkal tahlili

• Audit xulosalarini avtomatlashtirish

• Noto‘g‘ri ma’lumotlar asosida qaror qabul qilish xavfini kamaytirish

ERP tizimlari bilan integratsiya

Audit modullarini 1C, SAP, Oracle kabi korporativ tizimlarga ulash orqali ichki nazoratning uzluksiz ishlashi ta’minlanadi.

Raqamlashtirish jarayonida uchraydigan muammolar

• Xodimlarning raqamli savodxonligi pastligi

• Dasturiy ta’minot xarajatlari yuqoriligi

• Ma’lumotlar xavfsizligi bilan bog‘liq risklar

• Korporativ qarshilik (yangi tizimlarga moslashish qiyinligi)

• Integratsiya jarayonlarining murakkabligi

Muammolarni bartaraf etish bo‘yicha takliflar

• Xodimlar uchun muntazam IT-treninglar tashkil etish

• Raqamlashtirish strategiyasini bosqichma-bosqich amalga oshirish

• Axborot xavfsizligi standartlarini kuchaytirish

• Moslashuvchan va kengaytiriladigan IT-platformalarni tanlash
• Ichki audit bo‘limini raqamli kompetensiyalar bilan kuchaytirish

XULOSA. Korxonalarda ichki nazorat va audit jarayonlarini raqamlashtirish - bu faqat texnologik modernizatsiya emas, balki boshqaruv madaniyatini tubdan o‘zgartiruvchi strategik jarayondir. Raqamli audit tizimlari real vaqt rejimida tahlil qilish, xatoliklarni erta aniqlash, risklarni oldindan prognoz qilish va faol monitoring olib borish imkonini beradi. Bu esa korxonaning moliyaviy barqarorligini oshiradi, aktivlar xavfsizligini ta’minlaydi va boshqaruv qarorlarining sifatini yaxshilaydi. Raqamlashtirish natijasida ichki audit faqat tekshiruvchi emas, balki korxonani tashqi va ichki tahdidlardan himoya qiluvchi strategik sherikka aylanadi. Elektron hujjat aylanishi, sun’iy intellekt, bulutli texnologiyalar, ma’lumotlarni tahlil qilish tizimlari auditning samaradorligini oshiribgina qolmay, uni global standartlarga moslashtiradi. Shu bilan birga, raqamli transformatsiya jarayonida axborot xavfsizligi, xodimlarning raqamli ko‘nikmalari va texnologiyalarga moslashish darajasi alohida e’tibor talab qiladi. Raqamlashtirish bosqichma-bosqich, aniq reja asosida amalga oshirilganda, ichki nazorat tizimi korxonaning raqobatbardoshligini oshiruvchi kuchli instrumentga aylanadi. Umuman olganda, ichki nazorat va audit jarayonlarini raqamlashtirish korxonaning strategik ustuvorliklarini aniq belgilashiga, bozor talablariga moslashishiga, moliyaviy va operatsion barqarorlikni mustahkamlashiga xizmat qiladi hamda uzoq muddatli rivojlanishning muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Moeller R. Modern Internal Auditing. — Wiley, 2022.
2. Spira L., Page M. Risk Management and Corporate Governance. — Routledge, 2021.
3. ISACA. Digital Transformation in Audit. — 2023.
4. COSO. Internal Control Framework. — 2017 (yangilangan tahrir).
5. O‘zbekiston Respublikasi “Elektron hujjat aylanishi to‘g‘risida”gi Qonun.
6. ACCA Professional Materials on Digital Audit, 2022.

INNOVATSION TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISH BO'YICHA ILG'OR YONDASHUVLAR

Mo'minov Muslimbek[1], Umarova Mukaddas Abbasovna[2]
[1]Millat umidi universiteti BA yo'nalish talabasi,
[2]Ilmiy rahbar, Millat umidi universiteti Biznes boshqaruvi kafedrasi professori i.f.d.
https://doi.org/10.5281/zenodo.18271725

Kirish

Zamonaviy jamiyatda ilm-fan va texnologiyalarning jadal rivojlanishi ta'lim tizimi oldiga mutlaqo yangi talablarni qo'ymoqda. Ayniqsa, oliy va o'rta maxsus ta'limda o'qitiladigan fanlar mazmunini zamon talablariga mos ravishda yangilash, ta'lim oluvchilarda mustaqil fikrlash, tahlil qilish va yangicha yondashuv asosida qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirish dolzarb masalaga aylangan. Shu nuqtayi nazardan, statistika fanini o'qitish jarayonida innovatsion tafakkurni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Statistika fani ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni o'rganish, ularni miqdoriy jihatdan tahlil qilish va ilmiy asoslangan xulosalar chiqarishda muhim vosita hisoblanadi. Mazkur fan orqali talabalarda mantiqiy fikrlash, tahliliy yondashuv va umumlashtirish qobiliyatlari rivojlanadi. Biroq bugungi kunda statistikani faqat an'anaviy nazariy bilimlar doirasida o'qitish yetarli emas. Ta'lim jarayonida innovatsion tafakkurni shakllantirishga qaratilgan ilg'or pedagogik yondashuvlardan foydalanish ta'lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Introduction

In modern society, the rapid development of science and technology places entirely new demands on the education system. Under the conditions of globalization, digital transformation, and the sharp increase in information flow, it is no longer sufficient for learners to acquire ready- made knowledge alone; rather, it is essential for them to develop the ability to analyze, compare, generalize, and draw practical conclusions. Especially in higher and secondary specialized educational institutions, improving the content of academic disciplines in accordance with contemporary requirements and organizing the educational process on an innovative basis has become one of the most pressing tasks.

Today, a learner-centered approach prevails in the education system, where the primary objective is to develop students' independent thinking, critical analysis, innovative problem-solving skills, and decision-making abilities. In this context, innovative thinking occupies a

central place. Innovative thinking reflects a learner's capacity to creatively assimilate knowledge, strive for novelty, and effectively apply existing knowledge in practice.

From this perspective, the development of innovative thinking in the process of teaching statistics is of particular importance. Statistics is a crucial scientific tool for studying socio- economic processes, analyzing them quantitatively, and drawing scientifically grounded conclusions. Through the study of statistics, students develop logical thinking, analytical approaches, as well as the ability to compare and generalize information.

However, under current conditions, teaching statistics solely within the framework of traditional theoretical knowledge does not fully meet educational objectives. A deep understanding of statistical concepts, their connection with real-life processes, and meaningful interpretation require innovative approaches. Therefore, the use of advanced pedagogical

approaches, interactive methods, and elements of problem-based learning aimed at fostering innovative thinking significantly enhances the effectiveness of the educational process.

This article examines the theoretical foundations of forming innovative thinking in the process of teaching statistics, its necessity, and the essence of advanced pedagogical approaches from a scientific perspective.

Innovatsion tafakkur tushunchasining mazmuni

Innovatsion tafakkur – bu shaxsning yangilikka intilishi, mavjud muammolarga noodatiy yondashuvi, tanqidiy va ijodiy fikrlash asosida yechim topa olish qobiliyatidir. Pedagogik adabiyotlarda innovatsion tafakkur ko‘pincha ijodiy fikrlash, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va zamonaviy bilimlardan samarali foydalanish bilan bog‘lab talqin etiladi.

Ta’lim jarayonida innovatsion tafakkur quyidagi asosiy belgilar bilan namoyon bo‘ladi: mustaqil fikrlash, yangicha g‘oyalar ilgari surish, bilimlarni amaliyot bilan bog‘lash, shuningdek, muammolarga tanqidiy yondashish. Statistika fanida bu jarayon ma’lumotlarni tahlil qilish, ularni taqqoslash va umumlashtirish orqali shakllanadi. Shuning uchun ham statistikani o‘qitishda innovatsion tafakkurni rivojlantirish talabalarning kasbiy tayyorgarligini oshirishga xizmat qiladi.

Statistika fanida innovatsion tafakkurni shakllantirish zarurati

Statistika fani murakkab va ko‘p qirrali fanlardan biri bo‘lib, u nafaqat nazariy bilimlarni, balki mantiqiy va analitik fikrlashni ham talab etadi. Talabalar statistik tushunchalarni faqat yod olish orqali emas, balki ularning mazmunini chuqur anglab yetish orqali o‘zlashtirishi lozim. Shu bois, innovatsion tafakkurni shakllantirish statistika fanini o‘qitishda muhim metodik vazifa hisoblanadi.

Ilmiy manbalarda ta’kidlanishicha, innovatsion yondashuv asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni talabalarni faollikka undaydi, ularning bilimga bo‘lgan qiziqishini oshiradi va mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Statistikani o‘qitishda bu yondashuv fan mazmunini hayotiy misollar, tahliliy savollar va muammoli vaziyatlar bilan boyitish orqali amalga oshiriladi.

Ilg‘or pedagogik yondashuvlar va ularning mazmuni

Statistika fanida innovatsion tafakkurni shakllantirishda ilg‘or pedagogik yondashuvlar muhim o‘rin tutadi. Jumladan, muammoli ta’lim, kompetensiyaviy yondashuv, interaktiv metodlar va integrativ ta’lim usullari keng qo‘llanilmoqda.

Muammoli ta’lim yondashuvida talabalar oldiga aniq muammo qo‘yiladi va ular mazkur muammoni hal qilish jarayonida mustaqil fikrlashga o‘rganadi. Bu usul statistik tushunchalarni chuqurroq anglash va tahlil qilish imkonini beradi. Masalan, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga oid umumiy statistik vaziyatlar muhokama qilinib, talabalar sabab–oqibat bog‘liqligini aniqlashga harakat qiladi.

Kompetensiyaviy yondashuv esa talabalarda nazariy bilimlar bilan bir qatorda tahliliy, mantiqiy va kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan. Statistika fanida bu yondashuv talabalarni statistik fikrlashga o‘rgatish, ma’lumotlar asosida xulosa chiqarish madaniyatini rivojlantirish bilan namoyon bo‘ladi.

Interaktiv metodlar, jumladan, munozara, guruhli ishlash, taqdimot va tahliliy suhbatlar statistikani o‘rganish jarayonini jonlantiradi. Ushbu metodlar talabalarning faolligini oshirib, bilimlarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, innovatsion tafakkur shakllanishida integrativ yondashuv ham muhim bo‘lib, u statistikani boshqa fanlar bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganishga imkon yaratadi.

Innovatsion ta’lim jarayonida statistika fanining o‘rni

Innovatsion ta’lim jarayonida statistika fani markaziy o‘rinlardan birini egallaydi. Chunki statistika ijtimoiy, iqtisodiy va ta’limiy jarayonlarni tahlil qilishda universal ilmiy vosita hisoblanadi. Mazkur fan orqali talabalar real jarayonlarni tushunish, ularni umumlashtirish va ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Ilmiy tadqiqotlarda qayd etilishicha, statistik tafakkur rivojlangan shaxslar voqelikni chuqurroq anglaydi va qarorlar qabul qilishda xolis yondashuvni qo‘llaydi. Shu sababli, statistika fanini innovatsion ruhda o‘qitish talabalar tafakkurini rivojlantirishda muhim pedagogik vosita bo‘lib xizmat qiladi.

O‘qituvchi va ta’lim muhitining roli

Innovatsion tafakkurni shakllantirishda o‘qituvchining roli beqiyosdir. O‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki yo‘naltiruvchi, maslahat beruvchi va motivatsiya yaratuvchi shaxs sifatida faoliyat yuritishi lozim. Statistika fanini o‘qitishda o‘qituvchining yangicha pedagogik texnologiyalarni qo‘llashi, dars jarayonini interaktiv tashkil etishi muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek, qulay va ijodiy ta’lim muhiti innovatsion tafakkurning rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Talabalar erkin fikr bildirishi, savollar berishi va muammolarni muhokama qilishi mumkin bo‘lgan muhit ta’lim samaradorligini oshiradi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, statistika fanini o‘qitishda innovatsion tafakkurni shakllantirish zamonaviy ta’lim tizimining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Ilg‘or pedagogik yondashuvlardan foydalanish, ta’lim jarayonini interaktiv va muammoli asosda tashkil etish talabalarning bilim saviyasini oshirish bilan birga, ularning ijodiy va tahliliy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

Innovatsion tafakkurga ega bo‘lgan talaba statistik bilimlarni chuqur anglaydi, ularni amaliyotda qo‘llashga tayyor bo‘ladi hamda kelajakda raqobatbardosh mutaxassis sifatida shakllanadi. Shu bois, statistika fanini o‘qitishda innovatsion yondashuvlarni izchil joriy etish muhim ilmiy- pedagogik ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. **Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch**. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
2. Ziyomuhammadov B., Tojiyev M. **Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat**. – Toshkent: O‘qituvchi, 2016.
3. Saidahmedov N. **Yangi pedagogik texnologiyalar**. – Toshkent: Fan, 2018.
4. Abdurahmonov Q.X. **Ta’limda innovatsion yondashuvlar**. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2020.
5. G‘ofurov A., Xudoyberdiyev O. **Oliy ta’limda zamonaviy o‘qitish metodlari**. – Toshkent, 2021.
6. Xodjayev B. **Ta’lim jarayonida innovatsion faoliyat**. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
7. Muslimov N.A. **Kasbiy ta’lim metodikasi**. – Toshkent: Sharq, 2017.
8. UNESCO. **Innovative Teaching and Learning Methods in Higher Education**. – Paris, 2019.
9. OECD. **Education and Innovation: The Future of Learning**. – Paris, 2020.
10. Hasanov S. **Oliy ta’limda innovatsion pedagogik texnologiyalar**. – Toshkent, 2022.

TARMOQDA QO‘LLANILADIGAN PROTOKOLLAR VA ULARNING VAZIFASI

Yo‘ldosheva Asaloy
Millat umidi universitetining 1- kurs talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.18271750

Annotatsiya. *Ushbu maqolada kompyuter tarmoqlarida qo‘llaniladigan asosiy protokollar, ularning funksional vazifalari hamda ma’lumot almashinuvi jarayonidagi o‘rni tizimli ravishda yoritiladi. Protokollarning OSI modeli bo‘yicha taqsimlanishi, tarmoqdagi qurilmalar o‘rtasida ma’lumotlarni ishonchli va xavfsiz yetkazib berishdagi roli tahlil qilinadi. Shuningdek, TCP/IP, HTTP, HTTPS, FTP, DNS, DHCP va boshqa keng qo‘llaniladigan protokollarning amaliy qo‘llanilishi ham ko‘rsatib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *Tarmoq protokollari, TCP/IP, OSI modeli, ma’lumot uzatish, marshrutlash, xavfsizlik, internet xizmatlari.*


Аннотация. *В статье проводится системный анализ основных сетевых протоколов, их функциональных задач и роли в инфраструктуре компьютерных сетей. Рассматриваются особенности передачи данных, распределение протоколов по уровням модели OSI, а также практическое применение таких стандартов, как TCP/IP, DNS, HTTP, FTP и DHCP. Полученные результаты показывают, что сетевые протоколы обеспечивают надежность, безопасность и непрерывность процессов обмена информацией в цифровой среде.*

Ключевые слова: *сетевые протоколы, TCP/IP, модель OSI, передача данных, DNS, DHCP, HTTP, маршрутизация, безопасность.*

Annotation. *This article provides a systematic analysis of major network protocols, their functions, and their role within computer network infrastructure. It examines data transmission mechanisms, the distribution of protocols across the OSI model layers, and the practical application of widely used standards such as TCP/IP, DNS, HTTP, FTP, and DHCP. The study demonstrates that network protocols play a crucial role in ensuring the reliability, security, and continuity of information exchange in digital environments.*

Keywords: *network protocols, TCP/IP, OSI model, data transmission, DNS, DHCP, HTTP, routing, security.*

Kirish. Zamonaviy axborot texnologiyalari asosida faoliyat yurituvchi har qanday kompyuter tarmog‘i ma’lumot almashinuvi jarayonining aniq, ishonchli va izchil bo‘lishini talab qiladi. Bunday boshqaruvni ta’minlaydigan asosiy mexanizmlardan biri — bu tarmoq protokollaridir. Protokol — bu qurilmalar o‘rtasida ma’lumot uzatish qoidalari, formatlari va tartiblarini belgilovchi standartlar majmui bo‘lib, u tarmoqda kompyuterlar o‘zaro “tilda gaplashish” imkonini yaratadi. Hozirda tarmoq texnologiyalari global miqyosda rivojlangan bo‘lib, internetning uzluksiz ishlashi ham aynan to‘g‘ri tashkil etilgan protokollar tizimiga bog‘liq.



Asosiy qism: OSI modeli va protokollar o‘rtasidagi bog‘liqlik

OSI (Open Systems Interconnection) modeli — tarmoqlarni yetti pog‘onaga bo‘lib tushuntiruvchi konseptual model bo‘lib, protokollar aynan shu qatlamlarda faoliyat yuritadi:

Fizik qatlam – elektr signallar, kabellar, portlar.

Kanal darajasi – MAC-manzillar, ramkalar, xatoliklarni aniqlash.

Tarmoq darajasi – IP-manzillar, marshrutlash.

Transport – segmentatsiya, oqimni boshqarish (TCP/UDP).

Seans – seanslarni boshqarish.

Taqdimot – shifrlash, formatlash, kodlash.

Ilova darajasi – HTTP, DNS, FTP kabi yuqori daraja protokollari.

Har bir protokol aynan ma’lum qatlamda ma’lumot uzatish vazifasini bajaradi.

Asosiy tarmoq protokollari va ularning funksiyalari

TCP/IP protokollar majmuasi

Bu — internetning “yuragi” bo‘lib, barcha global tarmoqlar asosiy standart sifatida aynan TCP/IPga tayanadi.

TCP (Transmission Control Protocol)

Ma’lumotlarni ishonchli uzatadi

Paketlar ketma-ketligini nazorat qiladi

Yo‘qolgan paketlarni qayta yuboradi

Aloqa seansini boshqaradi

Vazifasi: ishonchli, xatosiz, tartibli ma’lumot uzatishni ta’minlash.

UDP (User Datagram Protocol)

Tezkor, lekin ishonchliligi past

O‘yinlar, videotranslyatsiya, ovozli aloqa uchun mos

Vazifasi: yuqori tezlikda ma’lumot jo‘natish.

IP (Internet Protocol)

Qurilmalarni IP-manzil orqali aniqlaydi

Paketlarni manziliga yetkazish uchun marshrutni belgilaydi

Vazifasi: tarmoqlar orasida marshrutlashni ta’minlash.

DNS (Domain Name System)

Domen nomlarini IP-manzillarga aylantiradi
Masalan: **google.com - 142.250.184.206**
Vazifasi: internetda nomlar orqali qidirishni osonlashtirish.
DHCP (Dynamic Host Configuration Protocol)
Kompyuterlarga avtomatik IP-manzil, shlyuz va DNS ma’lumotlarini beradi
Qo‘lda sozlashga hojat qoldirmaydi
Vazifasi: tarmoqni avtomatik konfiguratsiya qilish.
HTTP va HTTPS protokollari
HTTP (HyperText Transfer Protocol)
Veb-sahifalar yuklanishini boshqaradi
Brauzer va server o‘rtasida matn, rasm, video almashadi
Vazifasi: veb-xizmatlarni ishlashini ta’minlash.
HTTPS (HTTP Secure)
SSL/TLS shifrlash asosida xavfsiz aloqani yaratadi
Bank tizimlari, login-parol kiritiladigan sahifalarda qo‘llanadi
Vazifasi: internetda xavfsiz aloqa.
FTP va SFTP
FTP (File Transfer Protocol)
Fayllarni yuklash va yuklab olish uchun qo‘llanadi
Vazifasi: tarmoqlararo fayl uzatish.
SFTP (Secure FTP)
SSH orqali xavfsiz fayl almashinuvi
Vazifasi: himoyalangan uzatish kanali.
SMTP, POP3, IMAP
SMTP (Simple Mail Transfer Protocol)
Xatlarni jo‘natadi
POP3
Xatlarni serverdan yuklab oladi
IMAP
Xatlarni serverda saqlagan holda boshqaradi
Vazifasi: elektron pochta almashinuvi.
ARP (Address Resolution Protocol)
IP-manzilni MAC-manzilga aylantiradi
Vazifasi: lokal tarmoq ichida qurilmalarni aniqlash.
3. Tarmoq protokollarining iqtisodiyot va texnologik jarayonlardagi ahamiyati
Korxonalarda ma’lumotlar tez va uzluksiz almashinadi
Bulutli xizmatlar ishlashi yo‘lga qo‘yiladi
Onlayn to‘lovlar, bank tizimlari barqaror ishlaydi
IoT qurilmalar yagona tarmoqda ishlay oladi
Kiberxavfsizlikni ta’minlashning texnik asosini yaratadi. Tarmoqlararo barqaror aloqa butun iqtisodiyot uchun strategik ahamiyatga ega.

Xulosa: Tarmoq protokollari zamonaviy raqamli infratuzilmaning eng muhim bo‘g‘inidir. Ular nafaqat kompyuterlar o‘rtasida ma’lumot almashish qoidalarini belgilaydi, balki internet, mobil aloqa, elektron hukumat, bulutli texnologiyalar va barcha raqamli xizmatlarning

asosiy poydevorini tashkil etadi. Har bir protokolning o‘ziga xos vazifasi mavjud bo‘lib, ularning o‘zaro uyg‘un ishlashi global tarmoqlarning ishonchli faoliyatini ta’minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Stallings W. Data and Computer Communications. — Pearson, 2021.
2. Tanenbaum A. Computer Networks. — Prentice Hall, 2020.
3. Forouzan B. TCP/IP Protocol Suite. — McGraw-Hill, 2022.
4. RFC 791 — Internet Protocol.
5. RFC 2616 — HTTP/1.1.
6. Cisco Network Academy materiallari, 2023.

RAHBAR XODIMLARNING TA’LIM MUASSASALARIDA BOSHQARISH KOMPETENTSIYASI

Ishimov Faxriddin Mamarejabovich
Surxondaryo viloyati Jarqo‘rg‘on tumani 64-maktab psixologi
https://doi.org/10.5281/zenodo.18265403

Har birimiz qanday kasb egasi bo‘lishimizdan qat’iy nazar, psixologik bilimlarga ega bo‘lishimizni kasbimiz va zamon ham talab qiladi. Qaysi sohada faoliyat olib bormasin, inson o‘zini muntazam nazorat qila olishi va muomala madaniyatiga ega bo‘lishi darkor. Ayniqsa, pedagoglar va rahbar xodimlarga bu borada juda kuchli talablar qo‘yiladi. Zero, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy ravnaqi aynan rahbar xodimlar faoliyati bilan bog‘liq. Shunday ekan, rahbar butun bir jamiyatni harakatga keltiruvchi kuch sifatida o‘z sohasini mukammal darajada bilishi, bilim va malakaga ega bo‘lishi, hamisha zimmasiga yuklatilgan vazifasini yodida saqlashi va aslo xatoga yo‘l qo‘ymasligi kerak. Bu borada rahbar o‘z kompetentsiyasiga ega bo‘lishi juda muhim ahamiyatga ega. Xo‘sh, kompetentlik o‘zi nima? Rahbar xodimlar kompetentligi to‘g‘risida juda ko‘plab fikrlar mavjud bo‘lib, ularning barchasi mazmunan va shaklan turlicha talqin qilinadi. Bizning fikrimizcha, kompetentlik – bu soha egasining kasbiy bilim, ko‘nikma, malaka, shuningdek, shaxsiy sifat va fazilatlar integratsiyasidir. Demak, rahbar nazariy bilim va amaliy ko‘nikmaga ega bo‘lishi, shuningdek, uning qanday strategiya va usullarni qo‘llashi, muomala madaniyati, jamoasiga nisbatan motivatsiyasi, his-tuyg‘ulari, boshqarish jarayonidagi murakkab muammolarni hal qila olishi uning kompetentligini belgilab beradi. Ta’kidlash joizki, bugungi kunda maktabgacha va maktab ta’lim muassasasining rahbar va pedagog xodimlari quyidagi metodologik bilimlarga asoslanishi talab etiladi:

- Falsafiy nuqtai nazardan tabiat va jamiyatning rivojlanish qonuniyatlari;
- Milliy va xalqaro qonunchilik asoslari;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ta’lim sohasidagi farmon, qaror va farmoyishlari;
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tegishli qaror, farmoyish, Davlat dasturlari va boshqa huquqiy-me’yoriy hujjatlari;
- Maktabgacha va maktab ta’lim vazirligining huquqiy-me’yoriy hujjatlari;
- Xalqaro va mamlakatimiz yetakchi olimlarining ta’lim boshqaruvi borasidagi asosli qarashlarini bilish.

Bu borada ilg‘or tajribalar asosida ishlab chiqilgan xulosalarga tayanish ham katta ilmiy-amaliy maktab hisoblanadi.

Maktabgaha va maktab talimi muassasasi rahbarlari ta’lim-tarbiya jarayonini kompetentli boshqarish jarayonida o‘ziga xos vazifalarni bajarishi talab qilinadi:loyihalashtirish, tashkillashtirish, tahlil qilish, nazorat qilish va motivatsiyalash.

Rahbar ushbu vazifalarning hammasini o‘zaro uyg‘unlashtirgan holda o‘z faoliyatini amalga oshirishi darkor. Rahbar kompetentligida motivatsiya muhim ahamiyatga ega. U o‘z jamoasida faoliyatni adolatli amalga oshirishi, xodimlarining qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarishi va yutuqlarini rag‘batlantirishi muhim vazifalaridan biridir. Rahbar kerakli vaziyatda o‘z xodimlarini ish faoliyatini yanada oshirish maqsadida ularga turli usullar bilan motivatsiya berib borishi kerak: samarali ishi va erishgan yutuqlari uchun xodimlarini rag‘batlantirishi, turli

mehnat orqali motivatsiya berishi, xodimlari bilan o‘zaro muloqotni kuchaytirishi, ular bilan chin dildan suhbat qilishi va lozim bo‘lgan vaziyatlarda jazolash usulini ham qo‘llashi kerak.

Albatta, bular har bir rahbarning vazifasi hisoblanadi va ish faoliyatining samaradorligini ham oshiradi. Shuningdek, rahbarning bilimdonlik darajasi ham jamoani samarali boshqarishda muhim omillardan biridir. Rahbar o‘zida yetarli darajada bo‘lmagan bilim yoki malakani boshqalardan talab qila olmaydi. Xodimlarni boshqarish jarayonida talab qilayotgan har bir faoliyatini rahbar oldin o‘zi mukammal darajada bilishi kerak. Psixolog olimlar rahbarning bilimdonlik qirralarini quyidagi guruhlarga ajratadi:

- Kasbiy bilimdonlik – o‘zi boshqarayotgan soha faoliyatini mukammal yo‘lga qo‘yishi uchun o‘sha faoliyat borasida to‘la ma’lumotlar, bilim va malakaga ega bo‘lishi;

- Uslubiy bilimdonlik – bilgan narsalari, shaxsiy ko‘nikma va malakalari, turli loyihalar xususidagi ma’lumotlar, topshiriqlarni tez, to‘g‘ri va tushunarli tarzda yetkaza olish qobiliyati;

- Ijtimoiy-psixologik bilimdonlik – odamlar bilan ishlash, ular bilan til topisha olish, jamoani uyushtira olish, uni yaxshi ishlashga safarbar qila olish, o‘zidagi liderlik sifatlarini to‘la namoyon eta olish qobiliyati.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, maktabgaha va maktab talimi muassasasi rahbarlari o‘z kompetentliliga bo‘lishi, ya’ni o‘z sohasi bo‘yicha yuksak darajadagi bilim,malaka va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi zarur. Nafaqat o‘z sohasi, balki boshqa sohalardan ham xabardor bo‘lmog‘i talab qilinadi. Jumladan, psixologik bilimga ega bo‘lishi, chet tillarida bemalol gapira olishi, jahonning ilg‘or tajribalaridan foydalana olishi va hokazolar. Bugungi jamiyatimiz kelajagi, biz qurmoqchi bo‘lgan jamiyat kelajagi aynan bugungi kunda ta’lim olayotgan yoshlarga bog‘liq desam, adashmagan bo‘laman. Zamon o‘z kasbining mohir egasi bo‘lgan, faoliyatini sidqidildan bajaradigan va faqat adolat bilan ish ko‘ruvchi, insonlar manfaatini o‘z manfaatidan ustun qo‘yuvchi rahbar xodimlarni talab qilmoqda.

TURIZM BOSHQARUVI: STRATEGIYA, INNOVATSIYA VA BARQAROR RIVOJLANISH

Karimova Mohinur Dilshod qizi
Millat umidi universiteti, MBA yo'nalishi
https://doi.org/10.5281/zenodo.18271817

Annotatsiya: *Ushbu maqola turizm boshqaruvi sohasining zamonaviy yondashuvlarini, strategik rejalashtirish va barqaror rivojlanish tamoyillarini tahlil qiladi. Shuningdek, maqolada turizm sohasidagi innovatsiyalar, raqamli texnologiyalar va xizmat sifatini oshirish metodlari ko'rib chiqiladi. Turizm boshqaruvi hududiy va milliy miqyosda turistik salohiyatni rivojlantirishga, mahalliy jamiyatlar va atrof-muhitga ta'sirni kamaytirishga qaratilgan muhim vosita sifatida ta'riflanadi.*

Kalit so'zlar: *Turizm boshqaruvi, barqaror turizm, innovatsiyalar, turizm strategiyasi, xizmat sifati, raqamli texnologiyalar*

Аннотация: *В данной статье анализируются современные подходы в области управления туризмом, принципы стратегического планирования и устойчивого развития. В статье также будут рассмотрены инновации в сфере туризма, цифровые технологии и методы повышения качества обслуживания. Управление туризмом определяется как важный инструмент, направленный на развитие туристического потенциала на территориальном и национальном уровнях, а также на снижение воздействия на местные общества и окружающую среду.*

Ключевые слова: *управление туризмом, устойчивый туризм, инновации, стратегия туризма, качество обслуживания, цифровые технологии*

Abstract: *This article analyzes modern approaches in the field of tourism management, principles of strategic planning and sustainable development. The article will also discuss innovations in the field of tourism, digital technologies and methods of improving the quality of service. Tourism management is defined as an important tool aimed at developing tourism potential at the territorial and national levels, as well as reducing the impact on local societies and the environment.*

Keywords: *tourism management, sustainable tourism, innovation, tourism strategy, quality of service, digital technologies.*

Kirish

Turizm sohasining jadal rivojlanishi global iqtisodiyotda muhim o'rin egallaydi. So'nggi yillarda turizm nafaqat mamlakatlarning yalpi ichki mahsulotiga sezilarli hissa qo'shibgina qolmay, balki ish o'rinlari yaratish, madaniyatlararo muloqot va hududiy rivojlanishga ham ta'sir ko'rsatmoqda[74]. Shu bilan birga, turizmning tez sur'atlarda kengayishi atrof-muhitga, tabiiy resurslarga va mahalliy jamiyatlarning ijtimoiy-iqtisodiy holatiga turli tahdidlar tug'diradi. Shu sababli turizm sohasidagi faoliyatni samarali boshqarish va barqaror rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Turizm boshqaruvi – bu turizm resurslarini rejalashtirish, tashkil etish, nazorat qilish va rivojlantirish jarayonlarini o'z ichiga olgan kompleks tizimdir. U hududning turistik

[74] World Tourism Organization (UNWTO). *Tourism and Sustainable Development.* 2021. // https://www.unwto.org/sustainable-development

salohiyatini oshirish, xizmat sifatini yaxshilash va raqobatbardosh turistik mahsulotlar yaratishga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, turizm boshqaruvi sohasida innovatsiyalarni joriy etish, raqamli texnologiyalardan foydalanish va barqaror rivojlanish tamoyillarini qo‘llash muhim ahamiyatga ega.

Bundan tashqari, zamonaviy turizm boshqaruvi ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik[75] omillarni birlashtirgan integratsiyalashgan yondashuvni talab qiladi. Masalan, turizm infratuzilmasini rivojlantirish jarayonida nafaqat iqtisodiy foyda, balki ekologik barqarorlik va mahalliy aholi manfaatlari ham hisobga olinishi zarur. Shu bois, turizm boshqaruvi tizimlarida strategik rejalashtirish, sifat menejmenti, marketing va innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish tadqiqotchilar va amaliyotchilar uchun dolzarb masalalardan biridir. Ushbu maqolada turizm boshqaruvining zamonaviy yondashuvlari, strategik rejalashtirish, barqaror turizm va innovatsiyalar orqali xizmat sifatini oshirish masalalari tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi – turizm boshqaruvini samarali tashkil etishning asosiy tamoyillari va amaliy usullarini aniqlashdir, shuningdek, sohada mavjud dolzarb muammolar va ularni yechish yo‘llarini ko‘rsatishdir.

Asosiy qism

Turizm boshqaruvining strategik yondashuvlari

Turizm boshqaruvi[76] samarali bo‘lishi uchun hududiy va milliy darajada strategik rejalashtirish muhim ahamiyatga ega. Strategik rejalashtirish turizmning rivojlanish yo‘nalishlarini aniqlash, resurslardan samarali foydalanish va raqobatbardosh turistik mahsulotlar yaratishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, strategik yondashuv turizmni uzoq muddatli rivojlantirishga, iqtisodiy foydani oshirishga va mahalliy jamiyat manfaatlarini hisobga olishga imkon beradi. Hududiy rivojlanish strategiyasi mahalliy turistik obyektlarni rivojlantirish, transport va infratuzilma tarmoqlarini yaxshilashga qaratilgan. Masalan, O‘zbekistonning Samarqand va Buxoro shaharlarida amalga oshirilgan turizm infratuzilmasini modernizatsiya qilish loyihalari hududiy rivojlanishga yaqqol misol bo‘la oladi. Ushbu loyihalar natijasida transport tarmoqlari takomillashtirildi, mehmonxonalar va sayyohlik xizmatlari soni oshirildi, bu esa hududga keluvchi turistlar oqimini sezilarli darajada ko‘paytirdi.

Milliy turizm strategiyasi esa mamlakatni xalqaro miqyosda turistik brend sifatida targ‘ib qilish va turistlarni jalb qilishga qaratiladi. Masalan, “Visit Uzbekistan” milliy turizm kampaniyasi orqali mamlakatning tarixiy merosi, tabiat go‘zalligi va madaniy tadbirlari xorijiy turistlarga taqdim etildi. Natijada, 2019 yilda O‘zbekistonga kelgan xorijiy turistlar soni 6,7 milliondan oshdi, bu esa mamlakatning yalpi ichki mahsulotiga sezilarli hissa qo‘shdi. Shuningdek, xizmat sifati va mijozlarga e’tibor ham strategik boshqaruvning ajralmas qismi hisoblanadi. Turizm kompaniyalari va mehmonxonalar sifat menejmenti tizimlarini joriy etish orqali xizmat ko‘rsatish darajasini oshiradi, mijozlarning mamnuniyati va sadoqatini ta’minlaydi. Strategik boshqaruv shuningdek, moliyaviy resurslarni samarali taqsimlash, kadrlar tayyorlash va marketing faoliyatini rivojlantirishga ham qaratilgan. Shu yo‘l bilan turizm boshqaruvi nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, balki hududning xalqaro raqobatbardoshligini kuchaytiradi va barqaror rivojlanishga xizmat qiladi.

Barqaror turizm va uning ahamiyati

[75] OECD. *Tourism Trends and Policies.* 2020. // https://www.oecd.org/cfe/tourism/

[76] **Бухалис Д.** Туристский менеджмент: анализ, поведение и стратегия. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2003. – 384 с.

Barqaror turizm[77] zamonaviy turizm boshqaruvining eng muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. U turizm faoliyatining iqtisodiy samaradorligini ta’minlash bilan birga, atrof-muhitni muhofaza qilish va mahalliy aholi manfaatlarini hisobga olishni nazarda tutadi. Jahon Turizm Tashkiloti (UNWTO) ta’rifiga ko‘ra, barqaror turizm hozirgi va kelajak avlodlar ehtiyojlarini qondirish bilan bir vaqtda tabiiy, madaniy va ijtimoiy resurslarni asrashga qaratilgan turizm shaklidir. Shu sababli, barqarorlik tamoyillarini turizm boshqaruviga joriy etish uzoq muddatli rivojlanish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Barqaror turizmni rivojlantirish jarayonida tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik muvozanatni saqlash va madaniy merosni himoya qilish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Masalan, ekoturizm yo‘nalishlari orqali muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda turizm faoliyatini nazorat ostida tashkil etish nafaqat tabiatni asrashga, balki mahalliy aholi uchun qo‘shimcha daromad manbalarini yaratishga ham xizmat qiladi. Shu bilan birga, barqaror turizm mahalliy aholining turizm jarayonlarida faol ishtirokini ta’minlab, ijtimoiy tenglik va hududiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlaydi.

Turizm boshqaruvida barqarorlik tamoyillarini qo‘llash infratuzilma loyihalarini rejalashtirishda ham muhim rol o‘ynaydi. Mehmonxonalar, transport va dam olish maskanlarini qurishda ekologik standartlarga rioya qilish, energiya va suv resurslarini tejovchi texnologiyalardan foydalanish barqaror turizmning amaliy ko‘rinishlaridan hisoblanadi. Bunday yondashuv turizmning salbiy ekologik ta’sirini kamaytiradi va hududning uzoq muddatli turistik jozibadorligini saqlab qolishga yordam beradi. Barqaror turizm turizm boshqaruvining ajralmas qismi bo‘lib, u iqtisodiy rivojlanish, ekologik muhofaza va ijtimoiy barqarorlik o‘rtasida muvozanatni ta’minlashga qaratilgan. Ushbu tamoyillarni amaliyotga tatbiq etish orqali turizm sohasida barqaror va raqobatbardosh rivojlanishga erishish mumkin.

Innovatsiyalar va texnologiyalarning turizm boshqaruvidagi roli

Zamonaviy sharoitda innovatsiyalar va raqamli texnologiyalar turizm boshqaruvining samaradorligini oshirishda muhim omilga aylandi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi turistik xizmatlarni rejalashtirish[78], boshqarish va nazorat qilish jarayonlarini sezilarli darajada soddalashtirdi. Masalan, xalqaro mehmonxona tarmoqlarida qo‘llaniladigan onlayn bron qilish tizimlari (Booking, Expedia kabi global platformalar) mehmonxonalar bandligini real vaqt rejimida boshqarish, narxlarni moslashtirish va talabni prognoz qilish imkonini bermoqda. Bu jarayon turizm boshqaruvida resurslardan samarali foydalanishga xizmat qiladi. Turizm boshqaruvida katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish texnologiyalaridan foydalanish amaliyotda keng qo‘llanilmoqda[79]. Masalan, aviakompaniyalar va yirik turizm operatorlari tarixiy ma’lumotlar asosida mavsumiy talabni oldindan aniqlab, reyslar sonini va xizmat paketlarini moslashtiradi. Bunday yondashuv ortiqcha xarajatlarni kamaytirish va turistlar ehtiyojini to‘liq qondirishga yordam beradi. Shu kabi tizimlar shahar darajasida ham qo‘llanilib, turistlar oqimini boshqarish va haddan tashqari yuklamaning oldini olishga xizmat qiladi.

Virtual texnologiyalar turizmni[80] targ‘ib qilish jarayonida muhim misollardan biridir. Masalan, ko‘plab muzeylar va tarixiy obyektlar virtual ekskursiyalarni joriy etib, turistlarga

[77] **Dedusenko E. A., & Wagenseil U.** Sustainability Focus in Destination Management: The Case of Russia. p. 529-537, 2025. doi: https://doi.org/10.14505//jemt.v11.3(43).04.

[78] Goeldner C.R., Ritchie J.R.B. Tourism: Principles, Practices, Philosophies. – New York: Wiley, 2012. – 528 p.

[79] Giotis G., Papadionysiou E. *The Role of Managerial and Technological Innovations in the Tourism Industry: A Review of the Empirical Literature.* Sustainability, 2022, 14(9), 5182. https://doi.org/10.3390/su14095182

[80] Open Innovation in the Tourism Industry: A Systematic Review. Tourism and Hospitality Journal, 2025. // https://doi.org/10.3390/tourhosp6030124

obyekt bilan oldindan tanishish imkonini bermoqda. Bu esa sayohatga bo‘lgan qiziqishni oshirib, real tashriflar sonining ko‘payishiga olib keladi. O‘zbekiston tajribasida ham ayrim tarixiy maskanlar bo‘yicha raqamli axborot platformalari va mobil ilovalar ishlab chiqilgan bo‘lib, ular turistlarga navigatsiya, tarixiy ma’lumot va xizmatlar haqida ma’lumot beradi. Shuningdek, raqamli texnologiyalar xizmat sifati nazoratida ham qo‘llaniladi. Masalan, mehmonxonalar va restoranlarda mijozlar fikrini onlayn platformalar orqali yig‘ish va tahlil qilish xizmat ko‘rsatishdagi kamchiliklarni tezkor aniqlash va ularni bartaraf etishga imkon yaratadi. Bu jarayon turizm boshqaruvida sifat menejmentining muhim elementi hisoblanadi. Innovatsiyalar va texnologiyalarni turizm boshqaruvi jarayonlariga tatbiq etish rejalashtirish, tashkil etish, nazorat va tahlil bosqichlarining samaradorligini oshiradi. Amaliy misollar shuni ko‘rsatadiki, texnologik yondashuvlar turizm sohasida raqobatbardoshlikni ta’minlash va barqaror rivojlanishga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xizmat sifati va kadrlar salohiyati

Turizm boshqaruvida xizmat sifati va kadrlar salohiyati hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lib, ular turistlarning umumiy qoniqish darajasi va hududning turistik raqobatbardoshligini belgilaydi[81]. Turistik xizmatlar bevosita inson omili bilan bog‘liq bo‘lgani sababli, xodimlarning kasbiy malakasi, muloqot madaniyati va xizmat ko‘rsatish ko‘nikmalari boshqaruv tizimining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Xizmat sifati yuqori bo‘lgan turistik maskanlar odatda doimiy mijozlar oqimiga ega bo‘lib, bu holat turizmning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, kadrlarni muntazam tayyorlash va qayta tayyorlash xizmat sifatini oshirishning eng samarali usullaridan biridir. Masalan, xalqaro mehmonxona tarmoqlarida xodimlar uchun standartlashtirilgan trening dasturlari joriy etilgan bo‘lib, ular xizmat ko‘rsatish sifati, mijozlar bilan muloqot va muammoli vaziyatlarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. O‘zbekiston sharoitida ham turizm sohasida faoliyat yuritayotgan xodimlar uchun malaka oshirish kurslari va qisqa muddatli treninglar tashkil etilmoqda, bu esa xizmatlar sifatini bosqichma-bosqich yaxshilashga yordam bermoqda.

Xizmat sifati boshqaruvida mijozlar fikrini o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Onlayn baholash tizimlari va so‘rovnomalar orqali turistlarning mulohazalarini tahlil qilish xizmat ko‘rsatish jarayonidagi kamchiliklarni aniqlash va tezkor choralar ko‘rish imkonini beradi. Bunday yondashuv sifat menejmenti tizimlarining amaliy ko‘rinishi bo‘lib, u turizm tashkilotlarining doimiy rivojlanishiga xizmat qiladi. Shuningdek, kadrlar salohiyatini rivojlantirish turizm boshqaruvida innovatsion yondashuvlarni joriy etish bilan chambarchas bog‘liqdir. Raqamli texnologiyalar bilan ishlay oladigan, xorijiy tillarni biladigan va zamonaviy marketing vositalaridan foydalana oladigan mutaxassislar turizm tashkilotlari faoliyatining samaradorligini oshiradi. Shu sababli, turizm boshqaruvida inson kapitaliga investitsiya kiritish uzoq muddatli strategik ahamiyatga ega hisoblanadi. Xizmat sifati va kadrlar salohiyati turizm boshqaruvining asosiy tayanch omillaridan biri bo‘lib, ularni rivojlantirish orqali turistlar qoniqishini oshirish, ijobiy imijni shakllantirish va turizm sohasining barqaror rivojlanishini ta’minlash mumkin.

Xulosa

Mazkur maqolada turizm boshqaruvining zamonaviy yondashuvlari, uning strategik ahamiyati hamda barqaror rivojlanishdagi o‘rni tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni

[81] Atadjanova Shaxnoza Shuxratovna. Management of Tourist Destinations Based on Modern Trends. Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance, 2024 5(1), 67-71. https://doi.org/10.51699/cajitmf.v5i1.682

ko‘rsatadiki, turizm sohasini samarali boshqarish hududiy va milliy darajada puxta rejalashtirish, resurslardan oqilona foydalanish va raqobatbardosh turistik mahsulotlarni yaratishga bevosita bog‘liqdir. Strategik boshqaruv turizm infratuzilmasini rivojlantirish, marketing faoliyatini takomillashtirish va xizmat sifatini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Shuningdek, barqaror turizm tamoyillarini turizm boshqaruviga joriy etish ekologik muvozanatni saqlash, madaniy merosni asrash va mahalliy aholi manfaatlarini himoya qilishga xizmat qilishi aniqlandi. Barqaror yondashuvsiz turizmning uzoq muddatli rivojlanishini ta’minlash mushkul bo‘lib, ushbu tamoyillar turizm siyosatining ajralmas qismi bo‘lishi zarur.

Maqolada innovatsiyalar va raqamli texnologiyalarning turizm boshqaruvidagi roli ham asoslab berildi. Amaliy misollar shuni ko‘rsatadiki, raqamli yechimlar rejalashtirish, nazorat va xizmat ko‘rsatish jarayonlarining samaradorligini oshirib, turistlar ehtiyojlarini chuqurroq tahlil qilish imkonini yaratadi. Shu bilan birga, xizmat sifati va kadrlar salohiyatini rivojlantirish turizm boshqaruvida muhim strategik ustuvorliklardan biri ekanligi ta’kidlandi. Xulosa qilib aytganda, turizm boshqaruvi kompleks va ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, u strategik rejalashtirish, barqarorlik, innovatsiyalar hamda inson kapitaliga asoslangan holda amalga oshirilgandagina samarali natija beradi. Ushbu yondashuvlar turizm sohasining raqobatbardoshligini oshirish, iqtisodiy samaradorlikni ta’minlash va barqaror rivojlanishga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. World Tourism Organization (UNWTO). *Tourism and Sustainable Development.* 2021. // https://www.unwto.org/sustainable-development
2. OECD. *Tourism Trends and Policies.* 2020. // https://www.oecd.org/cfe/tourism/
3. Бухалис Д. Туристский менеджмент: анализ, поведение и стратегия. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2003. – 384 с.
4. Goeldner C.R., Ritchie J.R.B. Tourism: Principles, Practices, Philosophies. – New York: Wiley, 2012. – 528 p.
5. **Dedusenko E. A., & Wagenseil U.** Sustainability Focus in Destination Management: The Case of Russia. p. 529-537, 2025. doi: https://doi.org/10.14505//jemt.v11.3(43).04.
6. Giotis G., Papadionysiou E. *The Role of Managerial and Technological Innovations in the Tourism Industry: A Review of the Empirical Literature.* Sustainability, 2022, 14(9), 5182. https://doi.org/10.3390/su14095182
7. *Open Innovation in the Tourism Industry: A Systematic Review*. Tourism and Hospitality Journal, 2025 // https://doi.org/10.3390/tourhosp6030124
8. Atadjanova Shaxnoza Shuxratovna. (2024). Management of Tourist Destinations Based on Modern Trends. *Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance, 5*(1), 67-71. https://doi.org/10.51699/cajitmf.v5i1.682

INNOVATSION TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISH BO‘YICHA ILG‘OR YONDASHUVLAR

Komiljonov Akbarjon Iskandar o‘g‘li[1], Umarova M. A.[2]
[1]Millat Umidi universiteti 2-kurs talabasi,
[2]Ilmiy rahbar: Millat umidi universiteti Biznes boshqaruvi kafedrasi professori i.f.d.
https://doi.org/10.5281/zenodo.18271831

Annotatsiya. *Ushbu maqolada innovatsion tafakkurni shakllantirishning zamonaviy va ilg‘or yondashuvlari tahlil qilingan. Raqamli transformatsiya jarayonlarining tezlashuvi sharoitida ijodkorlik, tanqidiy fikrlash, moslashuvchanlik va yechimlarni tez topish kabi kompetensiyalarni rivojlantirish ta’lim hamda boshqaruv tizimlarining ustuvor yo‘nalishiga aylanmoqda. Maqolada innovatsion fikrlashning nazariy asoslari, inson kapitalini rivojlantirishdagi roli, innovatsion muhit va ekotizimlarning ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, STEAM-ta’lim, loyiha asosida o‘qitish, akseleratsiya dasturlari, startap inkubatsiyalari va raqamli simulyatorlardan foydalanish kabi ilg‘or metodlar samaradorligi o‘rganilgan. O‘zbekiston sharoitida innovatsion tafakkurni rivojlantirish bo‘yicha amaliy taklif va tavsiyalar ilgari surilgan..*

Kalit so‘zlar: *Innovatsion tafakkur, innovatsion yondashuvlar, kreativ fikrlash, raqamli kompetensiyalar, loyiha asosida o‘qitish, startap ekotizimi, innovatsion muhit, tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, raqamli transformatsiya, inson kapitali, innovatsion faoliyat.*

Аннотация: *В данной статье анализируются современные и прогрессивные подходы к формированию инновационного мышления. В условиях ускорения процессов цифровой трансформации развитие таких компетенций, как креативность, критическое мышление, гибкость и быстрый поиск решений, становится приоритетом для образования и систем управления. В исследовании освещаются теоретические основы инновационного мышления, роль человеческого капитала в развитии, значение инновационной среды и экосистем. Также изучалась эффективность передовых методов, таких как STEAM-образование, проектное обучение, программы ускорения, инкубации стартапов и использование цифровых симуляторов. В заключение статьи будут выдвинуты практические предложения и рекомендации по развитию инновационного мышления в условиях Узбекистана. Результаты данного исследования имеют практическое значение для чиновников, осуществляющих реформы в сфере образования, организаций, занимающихся инновационной деятельностью, а также программ, направленных на повышение творческого потенциала молодежи.*

Ключевые слова: *инновационное мышление, инновационные подходы, креативное мышление, цифровые компетенции, проектное обучение, экосистема стартапов, инновационная среда, критическое мышление, креативность, цифровая трансформация, человеческий капитал, инновационная деятельность.*

Annotation. *This article analyzes modern and advanced approaches to the formation of innovative thinking. In the context of the acceleration of digital transformation processes, the development of competencies such as creativity, critical thinking, flexibility and quick finding of solutions are becoming a priority of educational and management systems. The study highlights the theoretical foundations of innovative thinking, its role in the development of human capital,*

the importance of innovative environments and ecosystems. The effectiveness of advanced techniques such as STEAM-education, project-based training, Accelerator Applications, startup incubations, and the use of digital simulators has also been studied. At the end of the article, practical proposals and recommendations for the development of innovative thinking in the conditions of Uzbekistan will be put forward. The results of this study are of practical importance for organizations engaged in innovative activities and programs aimed at increasing the creative potential of young people, responsible for reforms in the field of Education.

Keywords: *innovative thinking, innovative approaches, creative thinking, digital competencies, project-based training, startup ecosystem, innovation environment, critical thinking, creativity, digital transformation, human capital, innovative activities.*

Kirish. Hozirgi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida innovatsion tafakkurni shakllantirish jamiyat rivojining eng muhim omillaridan biriga aylanmoqda. Texnologiyalar tez sur'atlarda yangilanayotgan bir davrda shaxsning ijodkorligi, tanqidiy fikrlashi, yangicha yondasha olishi va murakkab vaziyatlarda samarali qaror qabul qilishi iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotning poydevorini tashkil etadi. Shu bois, ta'lim tizimi, korxona boshqaruvi va davlat darajasidagi strategik qarorlar innovatsion tafakkurni rivojlantirishga yo'naltirilgan ilg'or tamoyil va mexanizmlar asosida shakllanmoqda. Innovatsion tafakkur nafaqat yangi g'oya yaratish, balki mavjud jarayonlarni qayta ko'rib chiqish, muammolarga kreativ yechimlar topish, zamonaviy texnologiyalarni ongli ravishda qo'llay olish kabi ko'nikmalarni qamrab oladi. Bu esa inson kapitalining sifatini oshirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash va iqtisodiyotning innovatsion rivojlanish modeliga o'tishga xizmat qiladi. Bugungi kunda dunyo bo'yicha dizayn-o'ylash, STEAM-ta'lim, loyiha va kompetensiya asosida o'qitish, startap inkubatsiyalari, akseleratsiya dasturlari, raqamli treninglar kabi ilg'or yondashuvlar innovatsion fikrlashni shakllantirishda keng qo'llanilmoqda. Shuningdek, O'zbekiston sharoitida innovatsion tafakkurni shakllantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar va mavjud imkoniyatlar o'rganilib, istiqbolli takliflar ilgari suriladi.

Adabiyotlarning tahlili: Ushbu sohada ko'plab tadqiqotchilar innovatsion fikrlashning mazmuni, pedagogik yondashuvlar, ta'lim dasturlari va ijtimoiy-iqtisodiy omillar ta'sirini turli jihatlardan sharhlab kelmoqdalar. **P. Drucker (1998)** innovatsion tafakkurni tashkilot rivojining asosiy drayveri sifatida baholagan va insonning yangi imkoniyatlarni ko'ra olish qobiliyatini innovatsion faoliyatning markaziy unsuriga kiritadi. Uning fikricha, kreativ fikrlash tizimli trening va muammoga yechim topishga yo'naltirilgan metodlar bilan shakllanadi. **J. Schumpeter (1934)** innovatsiyalarni iqtisodiy rivojlanishning harakatlantiruvchi kuchi deb bilib, "kreativ vayronkorlik" kontseptsiyasida innovatsion tafakkurning yangilik yaratish va mavjud tizimlarni yangilashdagi rolini asoslab beradi. Shu nuqtayi nazardan, innovatsion tafakkur iqtisodiy jarayonlardagi o'zgarishlar bilan uzviy bog'liq**. Design thinking** yondashuvi bo'yicha *T. Brown (2009)* va *D. Kelley (2013)ning tadqiqotlarida innovatsion tafakkurni rivojlantirish inson ehtiyojlarini chuqur o'rganish, empatiya, tezkor prototiplash va eksperimentlar orqali shakllanishi ta'kidlanadi. Ushbu metod global ta'lim tizimlarida innovatsion fikrlashni o'rgatishda asosiy tamoyillardan biriga aylangan. **STEAM-ta'lim modeli** bo'yicha *Yakman (2006),* shuningdek *Bybee (2013)* tadqiqotlarida fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika integratsiyasi bolalarda ijodkorlik, tahliliy fikrlash va muammolarni kompleks hal etish kompetensiyalarini rivojlantirishi isbotlangan. Startap ekotizimlari va akseleratsiya dasturlari bo'yicha Ries (2011)ning "Lean Startup" modeli innovatsion fikrlashni tajriba,

xatolardan o‘rganish, iterativ yondashuv va mijoz ehtiyojlariga moslashtirilgan g‘oyalar orqali rivojlantirishni taklif qiladi. Bu metod yoshlar va tadbirkorlarda innovatsion tafakkur shakllanishiga samarali ta’sir ko‘rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi: Innovatsion tafakkurni shakllantirish bo‘yicha ilg‘or yondashuvlarning mohiyati, qo‘llanish sohalari va samaradorligi haqida ilmiy maqolalar, hisobotlar va statistik ma’lumotlar o‘rganildi. Shu bilan birga **tahliliy usul, solishtirma tahlil, empirik va statistik yondashuv, model yaratish va konsepual tahlil** metodlari qo‘llanildi.

Tahlil va Natijalar: Tadqiqot davomida innovatsion tafakkurni shakllantirishga doir ilg‘or yondashuvlarning qo‘llanilishi, ularning samaradorligi va respondentlarning innovatsion kompetensiyalariga ta’siri har tomonlama o‘rganildi. Umumiy hisobda **420 nafar** respondent – talabalar, pedagoglar, startap asoschilari va yosh tadbirkorlar ishtirok etdi. Respondentlarning innovatsion tafakkur darajasi o‘zini baholash usulida aniqlanib, ularning **23 foizi** yuqori darajadagi innovatsion fikrlashga ega ekanini bildirgan, **57 foizi** o‘rta darajada, **20 foizi** esa past darajada ekanini qayd etdi. Ilg‘or yondashuvlardan foydalanish darajasi tahlil qilindi. Respondentlarning **31 foizi** design thinking metodidan foydalanishini, **44 foizi** STEAM-elementlarini qo‘llashini, **58 foizi** loyiha asosida o‘qitish usullaridan muntazam foydalanishini, faqat **19 foiz** ishtirokchi startap inkubatsiyasi yoki akseleratsiya dasturlarida qatnashganini ma’lum qildi. Raqamli kompetensiyalar darajasi bo‘yicha statistik tahlil shuni ko‘rsatdiki, respondentlarning **68 foizi** asosiy raqamli ko‘nikmalarga ega, **42 foizi** murakkabroq raqamli texnologiyalar bilan ishlay oladi, atigi **14 foizi** sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar (big data), obyektlar interneti (IoT) kabi innovatsion texnologiyalarni biladi. Bu esa innovatsion tafakkur uchun zarur bo‘lgan zamonaviy texnologik kompetensiyalar yetishmasligini ko‘rsatadi. Respondentlarning **63 foizi** zamonaviy ta’lim metodlarini, **54 foizi** raqamli texnologiyalarni, **47 foizi** shaxsiy ijodkorlik va motivatsiyani, **41 foizi** esa startap ekotizimini muhim omil deb baholadi. Design thinking metodidan foydalangan guruhlarda innovatsion tafakkur darajasi **28 foizga**, STEAM-ta’lim joriy etilgan guruhlarda **34 foizga**, startap va akseleratsiya dasturlarida ishtirok etganlarda esa **41 foizga** oshgani qayd etildi.


Innovatsion tafakkurni shakllantirish bo‘yicha ilg‘or yondashuvlar afzalliklari: Muammolarni kreativ hal qilish qobiliyatini kuchaytiradi: Il**g‘**or yondashuvlar shaxs yoki jamoada bir xil fikrlashdan chiqib, masalaga turli rakurslardan yondashishni shakllantiradi. Natijada yangi, noodatiy va amaliy yechimlar topish osonlashadi. Raqobatbardoshlikni oshiradi: Innovatsion fikrlashni shakllantirish strategiyalari korxona va shaxsga tez **o‘**zgaruvchan bozor sharoitlarida ustunlikka ega b**o‘**lish imkonini beradi. Inson yangi **g‘**oyalarni tez ishlab chiqadi va ulardan samarali foydalanadi. Tez **o‘**rganish va moslashuvchanlikni rivojlantiradi: Agile learning, adaptive thinking kabi il**g‘**or metodlar insonni yangi sharoitlarga qisqa vaqt ichida moslashishga **o‘**rgatadi. **O‘**zgaruvchan texnologiyalar davrida bu juda muhimdir. Shaxsiy va kasbiy samaradorlikni oshiradi: Innovatsion tafakkur shaxsga tashabbuskor b**o‘**lish, mustaqil qaror qabul qilish, jarayonlarni optimallashtirish, xatolardan tez **o‘**rganish kabi k**o‘**nikmalarni shakllantiradi. Bu esa faoliyatning umumiy natijalarini sezilarli yaxshilaydi. Jamoaviy innovatsion madaniyatni kuchaytiradi: Il**g‘**or yondashuvlarda kollektive learning, open innovation, co-creation kabi tamoyillar q**o‘**llanadi. Bu jamoada ochiq muloqot, **g‘**oya almashish, birgalikda ijodiy fikrlash muhitini yaratadi. Natijada tashkilot doimiy innovatsiya manbaiga aylanadi. Texnologiyalardan samarali foydalanishni ta’minlaydi: Digital thinking, computational thinking kabi metodlar yordamida shaxs texnologiyalardan ijodiy maqsadlarda foydalanishni **o‘**rganadi. Bu innovatsion mahsulot va xizmatlar yaratish jarayonini tezlashtiradi. Tadqiqot va

eksperimentlarga bo‘lgan qiziqishni kuchaytiradi: Ilg‘or yondashuvlar o‘rganish jarayonini tajriba asosida olib borishni rag‘batlantiradi. Bu yangi bilimlarning chuqurroq egallanishi va tajribaga asoslangan fikrlashni shakllantiradi. Strategik fikrlashni rivojlantiradi: Innovatsion tafakkur uzun muddatli rejalashtirish, imkoniyatlarni oldindan ko‘ra bilish, xavflarni boshqarish ko‘nikmalarini mustahkamlaydi. Yangi texnologik tendensiyalarni tez anglash imkonini beradi. Innovatsion loyihalar samaradorligini oshiradi: Lean innovation, kaizen, rapid prototyping kabi yondashuvlar: resurslarni tejaydi, vaqtni qisqartiradi, jarayonni soddalashtiradi, mahsulot sifatini oshiradi.Bu esa innovatsion loyihalarning muvaffaqiyat ehtimolini sezilarli ko‘paytiradi. Mustaqil fikrlash va tashabbuskorlikni rivojlantiradi: Ilg‘or yondashuvlar insonni erkin fikrlashga, xavf-xatar olishga, yangi g‘oyalarni ilgari surishga undaydi. Bu esa har qanday sohada innovatsion salohiyatning asosiy omili bo‘lib xizmat qiladi.

Innovatsion tafakkurni shakllantirish bo‘yicha ilg‘or yondashuvlar kamchilliklari: **Amalga oshirishning yuqori xarajatlari:** Ilg‘or innovatsion metodlar maxsus resurslar, malakali trenerlar va texnologik vositalarni talab qiladi. Bu kichik tashkilotlar uchun qiyinchilik tug‘dirishi mumkin. **Xodimlar tomonidan qarshilik ko‘rsatish ehtimoli:** Yangi yondashuvlar odatda o‘zgarishlarga tayyor bo‘lmagan xodimlarda. Xavotir konservativ fikrlash yangilikdan qo‘rquv kabi to‘siqlarni yuzaga keltiradi. **Natijalarni tez ko‘rsatmasligi:** Innovatsion tafakkur rivojlanishi vaqt talab qiladi. Tezkor natija kutuvchi tashkilotlar uchun bu jarayon sekin ko‘rinadi. **No‘to‘g‘ri tatbiq etilganda samarasi past bo‘lishi:** Ilg‘or metodlar noto‘g‘ri rejalashtirilsa, jamoaning innovatsion madaniyati bo‘lmasa, yetarli tajriba bo‘lmasa kutilgan natijani bermaydi. **Ijodiy jarayonning haddan tashqari cho‘zilishi:** Ba’zan ko‘p g‘oya ishlab chiqarish amaliy qaror qabul qilishni sekinlashtirishi mumkin. Bu esa operativlikni pasaytiradi. **Raqamli ko‘nikmalar yetishmasligi:** Digital thinking yoki texnologiyaga asoslangan yondashuvlar xodimlarning raqamli savodxonligi past bo‘lsa, samarali ishlamaydi. **Risk va noaniqlik darajasining oshishi:** Innovatsion fikrlash tajriba va tajribaga asoslanganligi sababli noto‘g‘ri qarorlar qabul qilinishi, resurslarning behuda sarflanishi ehtimoli mavjud. **Jamoada kelishmovchiliklar paydo bo‘lishi:** Turli g‘oyalar va bahslar kuchaygani sari fikrlar to‘qnashuvi, qarama-qarshiliklar ortib ketishi mumkin. **Tashkiliy-intizomni ushlab turish murakkablashishi**: Ijodiy erkinlikni oshirish ba’zan nazoratning pasayishiga, muddatlarga rioya qilinmasligiga olib kelishi mumkin. **Resurslar cheklangan sharoitda to‘liq ishlamasligi**: Innovatsion yondashuvlar: vaqt, texnika, jamoaviy hamkorlik, boshqaruv qo‘llab-quvvatlashi talab qiladi. Bu omillar bo‘lmasa, jarayon samaradorligi pasayadi.



1-Grafik. Ochiq ma’lumotlar inventarizatsiyasi reytingi 2020-2024 yillar.



2- grafik. Global Innovation bozor hajmi 2024-2034 yillar.

Takliflar. Yuqoridagi maqola yozish uchun izlanishlarimdan kelib chiqib, bir nechta takliflarni taqdim eta olaman. **Ta’lim va o‘quv dasturlarini modernizatsiya qilish:** Maktab va oliy ta’limda tanqidiy fikrlash, muammolarni yechish va kreativ yondashuvlarni o‘rgatadigan alohida kurslar kiritish. STEM va ijodiy fanlarni integratsiyalashgan holda o‘qitish. **Innovatsion muhit yaratish:** Ish joylari va ta’lim muassasalarida tajriba laboratoriyalari, startap markazlar va “maker space”lar tashkil etish. Innovatsion fikrlashni rag‘batlantiradigan tanlovlar, hackathonlar va ilmiy loyihalarni ko‘paytirish. **Texnologiyalardan foydalanish:** Sun’iy intellekt, virtual va kengaytirilgan reallik kabi zamonaviy texnologiyalar yordamida o‘quv va ish jarayonlarini boyitish. Digital platformalar orqali tajriba almashish va innovatsion loyihalarni rivojlantirish. **Mentorlik va hamkorlik tizimini rivojlantirish:** Innovatorlar, tadbirkorlar va olimlar bilan doimiy mentorlik dasturlarini joriy etish. Mahalliy va xalqaro innovatsion tarmoqlar bilan hamkorlikni kengaytirish. **Ijodiy erkinlikni rag‘batlantirish:** Xodimlar va talabalarni yangi g‘oyalarni sinashga ruhlantirish, xatolarni konstruktiv o‘rganish imkoniyatini yaratish. Rag‘batlantiruvchi siyosat, mukofotlar va grantlar orqali innovatsion tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash. **Ilmiy tadqiqot va amaliyot uyg‘unligini oshirish:** Tadqiqot natijalarini tezkor amaliy loyihalarga aylantirish mexanizmlarini joriy etish. Startap va ilmiy laboratoriyalarni universitet va sanoat korxonalari bilan integratsiyalash. **Shaxsiy rivojlanish va doimiy o‘qishni rag‘batlantirish:** Innovatsion tafakkurga ega bo‘lish uchun doimiy professional rivojlanish va onlayn kurslar orqali bilimlarni yangilash. Kreativlikni oshiruvchi o‘yinlar, simulyatsiyalar va interaktiv mashg‘ulotlardan foydalanish.

Xulosa: Innovatsion tafakkurni shakllantirish bo‘yicha ilg‘or yondashuvlar texnologiyalari zamonaviy biznesni rivojlantirishda inqilobiy vositalardan biri hisoblanadi. Innovatsion tafakkur zamonaviy jamiyat va iqtisodiyotning rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Ilg‘or yondashuvlar — ta’lim tizimida tanqidiy va kreativ fikrlashni rivojlantirish, innovatsion muhit yaratish, texnologiyalardan samarali foydalanish, mentorlik tizimlarini joriy etish va ilmiy-amaliy loyihalarni qo‘llab-quvvatlash kabi choralarni o‘z ichiga oladi.Bunday yondashuvlar shaxs va jamoalarning yangi g‘oyalarni ishlab chiqish, muammolarni innovatsion yechimlar orqali hal qilish, shuningdek startap va tadqiqot loyihalarini muvaffaqiyatli amalga oshirish qobiliyatini oshiradi. Shuningdek, innovatsion tafakkur rivojlangan jamiyatlarda raqobatbardoshlikni kuchaytiradi va iqtisodiy, ilmiy hamda ijtimoiy sohalarda barqaror o‘sishni

ta’minlaydi. Natijada, innovatsion tafakkur shakllantirish bo‘yicha ilg‘or yondashuvlarni tizimli joriy etish, nafaqat individual, balki milliy darajada ham raqobatbardosh va kreativ muhitni yaratishga xizmat qiladi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. Nurmatova N. Tarbiyachilarda kreativlikni shakllantirishning innovatsion yondashuvlari // *Ta’lim innovatsiyasi va integratsiyasi* jurnali. – Toshkent, 2021.
2. Ostonova M. O‘quvchilarda tanqidiy tafakkurni shakllantirish: zamonaviy pedagogik yondashuvlar // *Maktabgacha va maktab ta’limi* jurnali. – Toshkent, 2020.
3. Komilov U., Tulyaganova G. Innovatsion ta’lim texnologiyalari asosida talabalarning metodik tayyorgarligini shakllantirish // Ilmiy maqola. – Toshkent, 2019.
4. Mamadaliyev A. O‘quvchilarning innovatsion fikrlash ko‘nikmalarini takomillashtirishning nazariy asoslari // *Maktabgacha va maktab ta’limi* jurnali. – Toshkent, 2021.
5. Adilova N. B. q. Klax metodikasi yordamida bolalarda texnologik tafakkurni rivojlantirishning innovatsion yondashuvlari // Ilmiy-uslubiy maqola. – Toshkent, 2022.
6. Aliyeva D. Sh. q. Innovative teaching strategies for promoting critical thinking in the classroom // Ilmiy maqola. – Toshkent, 2021.
7. Yuvashov Sh. U. Developing critical thinking skills // *International Journal of Artificial Intelligence*. – 2020.
8. Bekchanova G. M. q. The role of creativity and innovation in methodology of teaching with multimedia tools in Uzbekistan // Ilmiy maqola. – Toshkent, 2019.
9. Jo‘rayev A. Ta’limda innovatsion yondashuvlar va kreativ fikrlashni rivojlantirish. – Toshkent: Innovatsiya nashriyoti, 2020.
10. Qodirova N. Zamonaviy pedagogik tafakkurni shakllantirish omillari. – Toshkent: O‘zMU nashriyoti, 2018.
11. Abduqodirov A. A. Pedagogik innovatsiyalar nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2019.

KICHIK BIZNESDA RISKLARNI KAMAYTIRISHNING INNOVATSION STRATEGIYALARI

Ozodova Shahzoda Ulug‘bek qizi, Muhiddinov Ozodbek Ikromjon o‘g‘li, Tursunov Rasul

[1]Millat Umidi Universiteti, Magistratura bosqichi talabalari, [2]Ilmiy rahbar, PhD.

https://doi.org/10.5281/zenodo.18271841

Annotatsiya. *Mazkur maqolada kichik biznes faoliyatida uchraydigan moliyaviy, bozor, operatsion va tashkiliy risklarni kamaytirishning innovatsion strategiyalari tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish, biznes jarayonlarini avtomatlashtirish, diversifikatsiya siyosati, moslashuvchan boshqaruv usullari hamda ma’lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish mexanizmlarining ahamiyati yoritib berilgan. Shuningdek, kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligini oshirishda innovatsion yondashuvlarning o‘rni va ularning iqtisodiy barqarorlikka ta’siri asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari kichik biznes vakillari uchun risklarni samarali boshqarish va barqaror rivojlanishni ta’minlashda amaliy ahamiyat kasb etadi.*

Kirish

Hozirgi globallashuv va bozor munosabatlarining jadallashuvi sharoitida kichik biznes subyektlari faoliyati turli xil iqtisodiy, moliyaviy va tashkiliy risklar bilan chambarchas bog‘liq. Bozor talablarining tez o‘zgarishi, raqobatning kuchayishi, resurslar cheklanganligi hamda texnologik taraqqiyot kichik biznes uchun yangi imkoniyatlar bilan bir qatorda qo‘shimcha xavf-xatarlarni ham yuzaga keltirmoqda. Shu sababli kichik biznes faoliyatida risklarni aniqlash, baholash va ularni kamaytirishga qaratilgan samarali strategiyalarni ishlab chiqish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

So‘nggi yillarda innovatsion yondashuvlar, xususan, raqamli texnologiyalar, zamonaviy boshqaruv usullari, moslashuvchan biznes-modellar va ma’lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish tizimlari kichik biznesda risklarni boshqarish jarayonida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Innovatsion strategiyalar orqali korxonalar nafaqat mavjud risklarni kamaytirish, balki o‘z faoliyatining barqarorligini ta’minlash, raqobatbardoshlikni oshirish hamda bozor sharoitlariga tez moslashish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda. Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi kichik biznesda uchraydigan asosiy risk turlarini aniqlash va ularni kamaytirishda innovatsion strategiyalarning o‘rni hamda samaradorligini ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot natijalari kichik biznes subyektlari faoliyatini rivojlantirish va ularning iqtisodiy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: kichik biznes, risklarni boshqarish, innovatsion strategiyalar, moliyaviy risklar, bozor risklari, raqamli texnologiyalar, biznes jarayonlarini avtomatlashtirish, diversifikatsiya, strategik rejalashtirish, barqaror rivojlanish.

Adabiyotlar tahlili

Kichik biznesda risklarni boshqarish masalalari iqtisodiy adabiyotlarda keng yoritilgan bo‘lib, mazkur yo‘nalishda mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Risk tushunchasi va uning iqtisodiy mohiyati dastlab klassik iqtisodiy nazariyalarda

yoritilgan bo‘lsa, zamonaviy tadqiqotlarda risklarni boshqarish innovatsion yondashuvlar bilan uyg‘un holda o‘rganilmoqda.

Xorijiy olimlardan I. Ansoff, P. Drucker, H. Mintzberg va J. Knight tadqiqotlarida risk va noaniqlik sharoitida strategik qaror qabul qilish masalalari chuqur tahlil qilingan. Ularning ilmiy ishlarida innovatsion strategiyalar, strategik rejalashtirish hamda moslashuvchan boshqaruv mexanizmlarining biznes risklarini kamaytirishdagi ahamiyati asoslab berilgan. Xususan, P. Drucker innovatsiyalarni korxonaning uzoq muddatli barqarorligini ta’minlovchi muhim omil sifatida ko‘rsatadi.

Kichik biznes subyektlari faoliyatida moliyaviy va bozor risklarini boshqarish masalalari G. Hubbard, R. Kaplan va R. Mikes tadqiqotlarida yoritilgan. Ular risklarni identifikatsiya qilish, baholash va monitoring qilish jarayonlarida ma’lumotlarga asoslangan yondashuvlar va raqamli vositalardan foydalanish samaradorligini ta’kidlaydi. Shuningdek, diversifikatsiya va sug‘urta mexanizmlarining risklarni kamaytirishdagi o‘rni ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

So‘nggi yillarda innovatsion texnologiyalarning rivojlanishi kichik biznesda risklarni boshqarish jarayoniga yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Bu borada raqamli platformalar, sun’iy intellekt va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlaridan foydalanish masalalari K. Schwab, E. Brynjolfsson va A. McAfee tadqiqotlarida keng yoritilgan. Mualliflar raqamli transformatsiya kichik biznes uchun operatsion risklarni kamaytirish va qaror qabul qilish tezligini oshirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini qayd etadilar.

Mahalliy olimlar tomonidan ham kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, ularning moliyaviy barqarorligini ta’minlash masalalari o‘rganilgan. O‘zbekiston iqtisodchilari tadqiqotlarida kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari, davlat siyosati va institutsional muhitning risklarni kamaytirishdagi roli yoritilgan. Shu bilan birga, innovatsion faoliyatni rag‘batlantirish orqali kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligini oshirish zarurligi ta’kidlanadi.

Umuman olganda, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, kichik biznesda risklarni kamaytirish masalasi ko‘p qirrali bo‘lib, uni hal etishda innovatsion strategiyalarni qo‘llash muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq aksariyat tadqiqotlarda innovatsion strategiyalarning kichik biznes sharoitidagi amaliy qo‘llanilishi yetarlicha yoritilmagan. Mazkur tadqiqot aynan ushbu bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda kichik biznes subyektlari faoliyatida risklarni kamaytirishga qaratilgan innovatsion strategiyalarni o‘rganish maqsadida kompleks ilmiy-uslubiy yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi nazariy va amaliy tahlil usullarini o‘z ichiga oladi hamda qo‘yilgan maqsad va vazifalarga erishishni ta’minlashga xizmat qiladi. Tadqiqotning nazariy asosini risklarni boshqarish, strategik menejment va innovatsion rivojlanish bo‘yicha mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari tashkil etadi. Ushbu manbalar asosida kichik biznesda risk tushunchasi, uning turlari hamda innovatsion strategiyalarning mohiyati tizimli ravishda o‘rganildi. Tadqiqot jarayonida umumilmiy tahlil va sintez usullari qo‘llanilib, kichik biznes faoliyatida uchraydigan moliyaviy, bozor, operatsion va tashkiliy risklar aniqlanib, ularning o‘zaro bog‘liqligi tahlil qilindi.

Taqqoshlash usuli yordamida an’anaviy va innovatsion risklarni boshqarish strategiyalarining samaradorligi solishtirildi. Empirik tahlil doirasida statistik ma’lumotlarni tahlil qilish usullaridan foydalanildi. Kichik biznes subyektlarining faoliyat ko‘rsatkichlari, risk

darajasi va innovatsion yondashuvlardan foydalanish holati o‘rtasidagi bog‘liqlik kuzatildi. Shuningdek, iqtisodiy-matematik modellashtirish elementlari orqali innovatsion strategiyalarning risklarni kamaytirishga ta’siri baholandi.

Tadqiqotda ekspert baholash usuli ham qo‘llanilib, kichik biznes sohasidagi mutaxassislar fikrlari asosida risklarni kamaytirishning eng samarali innovatsion strategiyalari aniqlashtirildi. Olingan natijalar grafik va jadval ko‘rinishida umumlashtirilib, ilmiy xulosalar chiqarildi. Umuman olganda, qo‘llanilgan metodologiya kichik biznesda risklarni kamaytirishda innovatsion strategiyalarning o‘rni va samaradorligini har tomonlama yoritishga imkon beradi hamda tadqiqot natijalarining ishonchliligini ta’minlaydi.

Muhokama va natijalar

Tadqiqot natijalari kichik biznes subyektlari faoliyatida risklarni kamaytirishda innovatsion strategiyalarning qo‘llanilishi muhim ustunliklar yaratishini ko‘rsatdi. Xususan, raqamli texnologiyalar va zamonaviy boshqaruv vositalaridan foydalangan korxonalarda risklarni aniqlash va ularga tezkor javob berish imkoniyati sezilarli darajada oshgan.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, moliyaviy risklarni kamaytirishda avtomatlashtirilgan buxgalteriya va moliyaviy rejalashtirish tizimlaridan foydalanish samarali natija bermoqda. Ushbu tizimlar pul oqimlarini real vaqt rejimida nazorat qilish, kutilmagan xarajatlarni oldindan prognozlash hamda qarzdorlik bilan bog‘liq risklarni minimallashtirish imkonini beradi. Natijada kichik biznes subyektlarining moliyaviy barqarorligi mustahkamlanmoqda.

Bozor risklarini boshqarishda innovatsion marketing strategiyalari va raqamli savdo platformalaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etishi aniqlandi. Onlayn savdo kanallarining joriy etilishi mahsulot va xizmatlarga bo‘lgan talabni kengaytirib, mijozlar bazasini diversifikatsiya qilishga xizmat qilmoqda. Bu esa an’anaviy savdo shakllariga xos bo‘lgan mavsumiy va hududiy risklarni kamaytirishga yordam bermoqda.

Operatsion risklarni kamaytirishda biznes jarayonlarini optimallashtirish va avtomatlashtirish muhim omil sifatida namoyon bo‘ldi. Xususan, ta’minot zanjirini raqamlashtirish, ombor va logistika jarayonlarini boshqarish tizimlaridan foydalanish orqali kechikishlar, mahsulot yetishmovchiligi va ortiqcha zahiralar bilan bog‘liq risklar sezilarli darajada kamaygan.

Muhokama natijalari shuni ko‘rsatadiki, innovatsion strategiyalarni muvaffaqiyatli joriy etishda inson omili alohida ahamiyatga ega. Xodimlarning raqamli savodxonligi va innovatsion fikrlash darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa, innovatsion yechimlarning samaradorligi shunchalik ortadi. Shu bois, kichik biznes subyektlarida kadrlar malakasini oshirish va doimiy o‘qitish tizimini yo‘lga qo‘yish muhim hisoblanadi.

Shuningdek, tadqiqot davomida davlat tomonidan yaratilayotgan qulay institutsional muhit va qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining innovatsion strategiyalarni joriy etishdagi o‘rni ham muhokama qilindi. Soliq imtiyozlari, grantlar va imtiyozli kreditlar kichik biznes subyektlarining innovatsion faoliyatga bo‘lgan qiziqishini oshirib, risklarni kamaytirishda muhim rag‘batlantiruvchi omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, tadqiqot natijalari innovatsion strategiyalarni kompleks va tizimli tarzda qo‘llash kichik biznesda risklarni kamaytirish, raqobatbardoshlikni oshirish va barqaror rivojlanishni ta’minlashda muhim vosita ekanligini ko‘rsatdi. Ushbu natijalar kelgusida kichik biznes faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish uchun mustahkam asos bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa

Mazkur tadqiqot kichik biznes subyektlari faoliyatida risklarni kamaytirish masalasining naqadar dolzarb ekanligini yana bir bor tasdiqladi. Tadqiqot jarayonida olib borilgan nazariy va empirik tahlillar kichik biznesda moliyaviy, bozor, operatsion hamda tashkiliy risklar o‘zaro chambarchas bog‘liq ekanligini va ularni samarali boshqarish korxonaning barqaror rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, innovatsion strategiyalarni joriy etgan kichik biznes subyektlari an’anaviy boshqaruv usullariga tayangan korxonalarga nisbatan risklarga nisbatan chidamliroq bo‘ladi. Xususan, raqamli texnologiyalar, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari, moslashuvchan strategik rejalashtirish va diversifikatsiya siyosati moliyaviy barqarorlikni ta’minlash, bozor noaniqliklariga tez moslashish hamda operatsion xatoliklarni kamaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, tadqiqot davomida inson omilining ahamiyati alohida ta’kidlandi. Innovatsion strategiyalarning samaradorligi nafaqat texnologik yechimlarga, balki xodimlarning malakasi, innovatsion fikrlash darajasi va boshqaruv salohiyatiga ham bevosita bog‘liq ekanligi aniqlandi. Bundan tashqari, davlat tomonidan yaratilayotgan institutsional muhit, imtiyozlar va qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari kichik biznesda innovatsion faoliyatni rag‘batlantirish va risklarni kamaytirishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

Umuman olganda, olib borilgan tadqiqot kichik biznesda risklarni kamaytirishda innovatsion strategiyalarni kompleks va tizimli ravishda qo‘llash zarurligini ilmiy va amaliy jihatdan asoslab berdi. Olingan xulosalar kichik biznes subyektlarining uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta’minlashda muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Takliflar

Tadqiqot natijalari asosida kichik biznesda risklarni kamaytirishga qaratilgan quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi:

1. **Raqamli texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish.** Kichik biznes subyektlarida moliyaviy hisob-kitob, monitoring va rejalashtirish jarayonlarini avtomatlashtirish orqali risklarni oldindan aniqlash va ularni boshqarish imkoniyatlarini kengaytirish zarur.
2. **Innovatsion strategik rejalashtirish tizimini rivojlantirish.** Qisqa va uzoq muddatli strategiyalarni ishlab chiqishda bozor tendensiyalari, raqamli tahlil natijalari va risk omillarini hisobga olgan holda moslashuvchan rejalashtirish mexanizmlarini joriy etish tavsiya etiladi.
3. **Biznes faoliyatini diversifikatsiya qilishni kengaytirish.** Mahsulot va xizmatlar turlarini ko‘paytirish, yangi bozor segmentlariga chiqish orqali talab tebranishlari va bozor risklarini kamaytirish mumkin.
4. **Kadrlar salohiyatini oshirish va innovatsion madaniyatni shakllantirish.** Xodimlar uchun muntazam treninglar, malaka oshirish kurslari va raqamli savodxonlikni oshirish dasturlarini tashkil etish innovatsion strategiyalarning samaradorligini oshiradi.
5. **Risklarni boshqarish bo‘yicha ichki tizimlarni yaratish.** Kichik biznes subyektlarida risklarni aniqlash, baholash va monitoring qilish bilan shug‘ullanuvchi oddiy, ammo samarali ichki mexanizmlarni yo‘lga qo‘yish lozim.
6. **Davlat qo‘llab-quvvatlash mexanizmlaridan samarali foydalanish.** Grantlar, imtiyozli kreditlar, soliq yengilliklari va konsalting xizmatlaridan faol foydalanish kichik biznesda innovatsion faoliyatni rivojlantirish va risklarni kamaytirishda muhim rol o‘ynaydi.

7. **Ilmiy-tadqiqot va amaliyot integratsiyasini kuchaytirish.** Oliy ta’lim muassasalari, ilmiy markazlar va kichik biznes subyektlari o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish innovatsion yechimlarning amaliyotga tez joriy etilishiga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, mazkur takliflarni amaliyotga tatbiq etish kichik biznes subyektlarida risklarni samarali boshqarish, raqobatbardoshlikni oshirish va barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta’minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ansoff I. **Strategic Management.** – New York: McGraw-Hill, 1988.
2. Drucker P. **Innovation and Entrepreneurship.** – New York: Harper & Row, 2007.
3. Knight F.H. **Risk, Uncertainty and Profit.** – Boston: Houghton Mifflin, 1921.
4. Mintzberg H. **The Rise and Fall of Strategic Planning.** – New York: Free Press, 1994.
6. Kaplan R.S., Norton D.P. **Strategy-Focused Organization.** – Boston: Harvard Business School Press, 2001.
7. Hubbard D.W. **The Failure of Risk Management: Why It’s Broken and How to Fix It.** – New Jersey: John Wiley & Sons, 2009.
8. Schwab K. **The Fourth Industrial Revolution.** – Geneva: World Economic Forum, 2016.
9. Brynjolfsson E., McAfee A. **The Second Machine Age.** – New York: W.W. Norton & Company, 2014.
10. OECD. **SME and Entrepreneurship Outlook.** – Paris: OECD Publishing, 2020.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga oid qaror va farmonlari.
12. Abdurahmonov Q.X. **Iqtisodiyotda risklar va ularni boshqarish.** – Toshkent: Iqtisodiyot, 2018.
13. Xodiev B.Yu. **Strategik menejment.** – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
14. Karimov I.A. **Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida.** – Toshkent: O‘zbekiston, 2016.
15. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari. World Bank. **Small Business Risk Management Report.** – Washington D.C., 2021

KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA INNOVATSION VOSITALAR ORQALI RISKLARNI BOSHQARISH

Ozodova Shahzoda Ulug‘bek qizi[1], Muhiddinov Ozodbek Ikromjon o‘g‘li[1], Tursunov Rasul[2]

[1]Millat Umidi Universiteti, Magistratura bosqichi talabalari, [2]Ilmiy rahbar, PhD

https://doi.org/10.5281/zenodo.18271882

Annotatsiya. *Mazkur maqolada kichik biznes subyektlarida risklarni boshqarishning innovatsion vositalari va yondashuvlari tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida moliyaviy, bozor, operatsion va tashkiliy risklarni aniqlash, baholash va kamaytirishning samarali usullari o‘rganildi. Shuningdek, raqamli texnologiyalar, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari, ma’lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish va diversifikatsiya strategiyalarining kichik biznesdagi amaliy qo‘llanilishi yoritilgan. Tadqiqot natijalari innovatsion vositalardan foydalanish orqali risklarni samarali boshqarish, raqobatbardoshlikni oshirish va barqaror rivojlanishni ta’minlash imkoniyatlarini ko‘rsatadi. Ushbu ish kichik biznes subyektlari va tadbirkorlar uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda ilmiy asos sifatida xizmat qiladi.*

Kirish

Hozirgi globallashuv sharoitida kichik biznes subyektlari turli iqtisodiy, moliyaviy va bozor risklari bilan yuzma-yuz kelmoqda. Bozor talablarining tez o‘zgarishi, raqobatning kuchayishi, resurslarning cheklanganligi va texnologik taraqqiyot kichik biznes faoliyatini nafaqat imkoniyatlar, balki qo‘shimcha xavf-xatarlar bilan ham yuzlashtirmoqda. Shu sababli kichik biznesda risklarni aniqlash, baholash va ularni minimallashtirishga qaratilgan samarali strategiyalarni ishlab chiqish dolzarb vazifa sifatida namoyon bo‘lmoqda.

So‘nggi yillarda innovatsion vositalar kichik biznes subyektlarida risklarni boshqarishda muhim rol o‘ynamoqda. Raqamli texnologiyalar, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari, ma’lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish tizimlari va biznes jarayonlarini optimallashtirish vositalari risklarni tez aniqlash va samarali boshqarishga imkon yaratadi. Shuningdek, diversifikatsiya va moslashuvchan strategik rejalashtirish kichik biznesning bozor sharoitlariga moslashuvchanligini oshiradi va barqaror rivojlanishni ta’minlaydi.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi kichik biznes subyektlarida uchraydigan asosiy risk turlarini aniqlash va ularni boshqarishda innovatsion vositalarning samaradorligini ilmiy va amaliy jihatdan tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot natijalari kichik biznes subyektlari faoliyatini rivojlantirish va ularning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: kichik biznes, risklarni boshqarish, innovatsion vositalar, raqamli texnologiyalar, diversifikatsiya, strategik rejalashtirish, barqaror rivojlanish.

Adabiyotlar tahlili

Kichik biznes subyektlarida risklarni boshqarish masalalari iqtisodiy adabiyotlarda keng o‘rganilgan bo‘lib, bu yo‘nalishda mahalliy va xorijiy olimlarning tadqiqotlari mavjud. Risk tushunchasi dastlab klassik iqtisodiy nazariyalarda moliyaviy va bozor noaniqliklarini o‘rganish doirasida ilgari surilgan bo‘lsa, zamonaviy tadqiqotlarda risklarni boshqarish innovatsion yondashuvlar bilan uyg‘un holda tahlil qilinmoqda.

Xorijiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, kichik biznesda risklar turli jihatlardan o‘rganilishi kerak: moliyaviy risklar, bozor va raqobat risklari, operatsion risklar, shuningdek, tashkiliy va strategik risklar. I. Ansoffning “Strategic Management” asarida strategik rejalashtirish va risklarni baholash jarayoni tizimli ravishda yoritilgan. U kichik biznes uchun risklarni kamaytirish va imkoniyatlarni aniqlashda strategik yondashuvning ahamiyatini ta’kidlaydi.

P. Drucker “Innovation and Entrepreneurship” asarida innovatsiyalarni biznes faoliyatining markaziy qismi sifatida ko‘rsatadi va innovatsion yondashuvlar orqali risklarni kamaytirish va korxonaning uzoq muddatli barqarorligini ta’minlash imkoniyatini o‘rganadi. Druckerning fikricha, kichik biznes subyektlari innovatsion faoliyat orqali raqobatbardoshlikni oshirish va bozor sharoitlariga tez moslashish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

H. Mintzberg o‘z tadqiqotlarida strategik rejalashtirishning chegaralari va uning amaliyotda risklarni boshqarishdagi rolini tahlil qilgan. Unga ko‘ra, kichik biznesda moslashuvchan va tezkor strategiyalarni joriy etish an’anaviy rejalashtirishga qaraganda samaraliroq hisoblanadi.

Moliyaviy va operatsion risklarni boshqarish masalalari R. Kaplan va D. Norton tadqiqotlarida keng yoritilgan. Ular risklarni baholash va monitoring qilish jarayonida ma’lumotlarga asoslangan yondashuv, moliyaviy ko‘rsatkichlarni avtomatlashtirish va nazorat qilish tizimlaridan foydalanishni tavsiya qiladi. Kichik biznes subyektlarida bu yondashuvlar operatsion xatoliklarni kamaytirish va resurslardan samarali foydalanishni ta’minlashda muhim hisoblanadi.

So‘nggi yillarda K. Schwab, E. Brynjolfsson va A. McAfee tadqiqotlarida raqamli transformatsiya va innovatsion texnologiyalarning biznes risklarini kamaytirishdagi roli o‘rganilgan. Ularning fikriga ko‘ra, raqamli platformalar, sun’iy intellekt va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari kichik biznes subyektlarining bozor va operatsion risklariga chidamliligini oshiradi, qaror qabul qilish jarayonini tezlashtiradi va resurslarni optimal taqsimlash imkonini yaratadi.

Mahalliy olimlar ham kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, innovatsion yondashuvlar va risklarni boshqarish bo‘yicha qator tadqiqotlar olib borgan. O‘zbekiston iqtisodchilari tadqiqotlarida kichik biznesning moliyaviy barqarorligini ta’minlash, davlat siyosati va institutsional muhitning risklarni kamaytirishdagi roli, shuningdek, innovatsion faoliyatni rag‘batlantirish orqali raqobatbardoshlikni oshirish masalalari yoritilgan. Masalan, Q. Abdurahmonovning ishlarida moliyaviy va operatsion risklarni boshqarish metodlari va innovatsion vositalardan foydalanish samaradorligi batafsil tahlil qilingan.

Shuningdek, davlat statistikasi va so‘nggi yillarda chop etilgan ilmiy maqolalar kichik biznes subyektlarining real faoliyati, risklar darajasi va innovatsion vositalardan foydalanish holatini ko‘rsatadi. Bu tadqiqotlar shuni namoyish qiladiki, kichik biznes subyektlarida risklarni boshqarishda innovatsion yondashuvlar nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham samarali.

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki:

- kichik biznesda risklar ko‘p qirrali va ularni boshqarishda kompleks yondashuv talab etiladi;
- innovatsion vositalar (raqamli texnologiyalar, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari, ma’lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish) risklarni kamaytirishda samarali;
- inson omili va malakali kadrlar innovatsion strategiyalarni muvaffaqiyatli joriy etish uchun muhim ahamiyatga ega;

- mahalliy va xorijiy tajribalarni integratsiyalash kichik biznesda barqaror rivojlanishni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi.

Adabiyotlar tahlili asosida tadqiqotning nazariy va amaliy asoslari mustahkamlandi va kichik biznes subyektlarida risklarni kamaytirishning innovatsion strategiyalarini o‘rganish uchun poydevor yaratildi.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi kichik biznes subyektlarida risklarni boshqarishda innovatsion vositalarning samaradorligini ilmiy va amaliy jihatdan tahlil qilishdir. Shu sababli tadqiqot metodologiyasi **nazariy, empirik va analitik yondashuvlarni** birlashtirgan kompleks uslubga asoslangan.

1. Nazariy-metodik yondashuv

Tadqiqotning nazariy asosini kichik biznes, risklarni boshqarish, innovatsion strategiyalar va raqamli transformatsiya bo‘yicha mahalliy va xorijiy olimlarning ishlari tashkil etadi. Nazariy tahlil orqali risklar turlari, ularning tabiati, innovatsion vositalarning biznes faoliyatidagi roli va samaradorligi o‘rganildi. Bu bosqichda adabiyotlar tahlili, taqqoslash, sintez va sistematik yondashuvlardan foydalanildi.

2. Empirik tadqiqot usullari

Empirik tadqiqot doirasida kichik biznes subyektlarining real faoliyati tahlil qilindi. Ushbu bosqichda quyidagi usullar qo‘llanildi:

- **Statistik tahlil:** Kichik biznes subyektlarining moliyaviy ko‘rsatkichlari, bozor ulushi, operatsion faoliyatlari va risk darajasi o‘rganildi. Ma’lumotlar asosida innovatsion vositalardan foydalanish va risklarni kamaytirish samaradorligi o‘lchandi.
- **Ekspert baholash:** Kichik biznes sohasidagi mutaxassislar va tadbirkorlar fikri yig‘ilib, innovatsion strategiyalarni joriy etishdagi samaradorlik va qiyinchiliklar aniqlab olindi.
- **So‘rovnoma va intervyu:** Kichik biznes subyektlarining rahbarlari va xodimlari orasida so‘rovlar o‘tkazilib, innovatsion vositalardan foydalanish holati, tajribalar va muammolar aniqlandi.

3. Analitik va modellashtirish usullari

Tadqiqot jarayonida iqtisodiy va operatsion risklarni kamaytirish bo‘yicha innovatsion vositalarning samaradorligini baholash uchun quyidagi usullar qo‘llandi:

- **Taqqoshlash usuli:** An’anaviy va innovatsion yondashuvlarning natijalari solishtirildi.
- **Grafik va jadval tahlili:** Statistik ma’lumotlar vizual ko‘rinishda taqdim etilib, risklar va innovatsion vositalar o‘rtasidagi bog‘liqlik aniqlashda foydalanildi.
- **Iqtisodiy-matematik modellashtirish:** Innovatsion vositalardan foydalanish orqali risklarni kamaytirishning moliyaviy va operatsion samaradorligi baholandi.

4. Integratsiyalangan yondashuv

From an economic perspective, these findings suggest that the Uzbek stock market may partially incorporate sector-specific information and reform-related signals into prices, particularly in sectors with higher trading activity or greater exposure to policy initiatives. At the same time, the prevalence of price inertia across many firms highlights structural constraints, including limited liquidity, thin trading, and information frictions, which may impede the full transmission of policy effects through capital market channels. As such, stock price movements provide, at best, an indirect and incomplete indicator of real economic responses to reform.

The methodology employed in this study offers several advantages. The use of categorical analysis and non-parametric testing is well suited to small samples and reduces sensitivity to extreme values in stock returns. The approach is transparent, easily replicable, and requires minimal distributional assumptions. Nevertheless, the methodology also has important limitations. Discretizing continuous price changes entails a loss of information regarding the magnitude of returns, while sector classification serves only as a rough proxy for government

ownership and policy exposure. In addition, the chi-square test identifies association but does not establish causality or direction of influence.

Based on these findings, several policy implications emerge. First, the modest and uneven sectoral responses suggest that ongoing reforms may not yet be fully capitalized by the stock market, underscoring the need to deepen market liquidity and broaden investor participation. Second, improving disclosure standards and transparency—particularly for state-influenced firms—could enhance the informational role of stock prices. Finally, policymakers seeking to use capital markets as a barometer of reform effectiveness should complement market-based indicators with firm-level ownership data and real-sector performance measures. Strengthening these institutional foundations would improve the capacity of the stock market to reflect and support Uzbekistan's broader economic transformation.

REFERENCES

1. Khakimov, B.A.. (2024a). Тенденции и факторы развития пищевой промышленности в Узбекистане. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot, № 1-son. https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz
2. Khakimov, B.A.. (2024b). Studying seasonality in food industry of Uzbekistan. Academic Research in Modern Science. https://doi.org/10.5281/zenodo.10640435
3. Perotti, E., van Oijen, P.. (1999). Privatization, Political Risk and Stock Market Development in Emerging Economies. Tinbergen Institute/CEPR. https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S0261560600000322
4. Bortolotti, B., de Jong, F., Nicodano, G., Schindele, I.. (2007). Privatization and Stock Market Liquidity: Evidence from Share Issue Privatizations. Journal of Banking and Finance. Vol. 31, Issue 2. https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S0378426606001695
5. Henry, P. B. (2000). Stock Market Liberalization, Economic Reform, and Emerging Market Equity Prices. Journal of Financial Economics. Vol. 55, No. 2 (Apr., 2000), pp. 529-564 (36 pages). https://www.jstor.org/stable/222515
6. Mackenzie, G.A.. (1997). The Macroeconomic Impact of Privatization. IMF Paper on Policy Analysis and Assessment. International Monetary Fund. https://www.imf.org/external/pubs/ft/ppaa/ppaa9709.pdf
7. Pistor, K., Xu, C.. (2005). Governing Stock Markets in Transition Economies : Lessons from China. American Law and Economics Review. Vol. 7, No. 1, Special Issue on Comparative Law (Spring 2005), pp. 184-210 (27 pages). https://www.jstor.org/stable/42705473
8. Bennett, J., Maw, J. (2000). Privatisation and Market Structure in a Transition Economy. Journal of Public Economics. Volume 77, Issue 3, September 2000, Pages 357-382. https://doi.org/10.1016/S0047-2727(99)00117-6
9. Kikeri, S., Nellis, J.. (2002). Privatization in Competitive Sectors: The Record to Date. World Bank Policy Research Working Paper No. 2860. https://ssrn.com/abstract=636224
10. Ahnafeld, M., Mietzner, M., Roediger, T., Schiereck, D.. (2008). Information Signaling and Ownership Transition – Value Effects of Share Issue Privatizations. Corporate Ownership & Control / Volume 6, Issue 1, Fall 2008. https://www.virtusinterpress.org/IMG/pdf/10-22495cocv6i1p5.pdf

11. Bokros, L., Fleming, A., Votava, C.. (2001). Financial Transition in Europe and Central Asia: Challenges of the New Decade. The World Bank. https://documents1.worldbank.org/curated/en/303211468760761590/pdf/multi0page.pdf
12. Mukhitdinova, D.. (2025). Development of the Stock Market and Emission Activity of Joint-Stock Companies in Uzbekistan: Trends and Prospects. European Journal of Economics, Finance and Business Development. ISSN (E): 2938-3633. Volume 3, Issue 5, May - 2025. https://europeanscience.org/index.php/2/article/download/1435/1368/2771
13. Trade Statistics. (2025). Toshkent Republican Stock Exchange. https://uzse.uz/itogitorg?locale=en

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA KORXONA STRATEGIK BOSHQARUVINI RIVOJLANTIRISHNING AFZALLIKLARI

Abdujabborov Abdushukur Anvar o‘g‘li
Millat Umidi universitetining 4-kurs talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.18278984

Annotatsiya. *Ushbu maqolada korxonalarda strategik boshqaruv jarayonlariga raqamli texnologiyalarni joriy etishning afzalliklari, samaradorlikka ta’siri va boshqaruv qarorlarini qabul qilishdagi rolini tahlil qilinadi. Raqamli transformatsiya sharoitida sun’iy intellekt, biznes-analitika, bulut texnologiyalari, IoT va big data kabi zamonaviy texnologiyalar korxonalarning tashkiliy tuzilmasini takomillashtirish, ma’lumotlarga asoslangan boshqaruvni shakllantirish hamda raqobatbardoshlikni oshirishda muhim omil sifatida ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalar strategik rejalashtirishning aniqligini oshiradi, risklarni boshqarish tizimini optimallashtiradi, resurslardan foydalanish samaradorligini yaxshilaydi va bozor o‘zgarishlariga tez moslashish imkonini yaratadi. Shuningdek, raqamli boshqaruv korxona faoliyatida shaffoflikni kuchaytirib, operatsion xarajatlarni kamaytirish, innovatsion yechimlarni joriy qilish va strategik maqsadlarga tezroq erishishga yordam beradi.*

Kalit so‘zlar: *Raqamli texnologiyalar, strategik boshqaruv, raqamli transformatsiya, sun’iy intellekt, big data, IoT, biznes-analitika, raqamli innovatsiyalar, korxona raqobatbardoshligi, boshqaruv samaradorligi.*

Аннотация. *В данной статье анализируются преимущества внедрения цифровых технологий в процессы стратегического управления на предприятиях, их влияние на эффективность и роль в принятии управленческих решений. В контексте цифровой трансформации современные технологии, такие как искусственный интеллект, бизнес-аналитика, облачные технологии, Интернет вещей и большие данные, рассматриваются как важный фактор совершенствования организационной структуры предприятий, формирования управления на основе данных и повышения конкурентоспособности. Результаты исследования показывают, что цифровые технологии повышают точность стратегического планирования, оптимизируют систему управления рисками, улучшают эффективность использования ресурсов и позволяют быстро адаптироваться к изменениям рынка. Цифровое управление также повышает прозрачность деятельности предприятия, помогает снизить операционные издержки, внедрять инновационные решения и быстрее достигать стратегических целей.*

Ключевые слова: *Цифровые технологии, стратегическое управление, цифровая трансформация, искусственный интеллект, большие данные, Интернет вещей, бизнес-аналитика, цифровые инновации, конкурентоспособность предприятий, эффективность управления.*

Annotation. *This article analyzes the advantages of introducing digital technologies into strategic management processes in enterprises, their impact on efficiency and their role in making management decisions. In the context of digital transformation, modern technologies such as artificial intelligence, business analytics, cloud technologies, IoT and big data are*

considered an important factor in improving the organizational structure of enterprises, forming data-based management and increasing competitiveness. The results of the study show that digital technologies increase the accuracy of strategic planning, optimize the risk management system, improve the efficiency of resource use and allow for rapid adaptation to market changes. Digital management also increases transparency in the activities of the enterprise, helps to reduce operating costs, implement innovative solutions and achieve strategic goals faster.

Key words: *Digital technologies, strategic management, digital transformation, artificial intelligence, big data, IoT, business analytics, digital innovation, enterprise competitiveness, management efficiency.*

Kirish: Hozirgi globallashuv va raqobatbardoshlik kuchayib borayotgan sharoitda korxonalar o‘z strategik rivojlanish yo‘nalishlarini qayta ko‘rib chiqishga majbur bo‘lmoqda. Raqamli texnologiyalar biznes jarayonlarini tubdan o‘zgartirib, yangi imkoniyatlar, tezkorlik va samaradorlik yaratmoqda. Sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar (big data), bulut texnologiyalari, IoT kabi raqamli yechimlar boshqaruvni avtomatlashtirish, strategik qarorlarning aniqligini oshirish va resurslardan oqilona foydalanishga keng imkoniyatlar taqdim etadi. Raqamli transformatsiya jarayoni korxonaning strategik boshqaruvini yanada takomillashtirib, bozor o‘zgarishlariga moslashuvchanlikni kuchaytiradi, xarajatlarni kamaytiradi va yangi biznes modellari yaratish uchun zamin hozirlaydi. Shu bois, raqamli texnologiyalar asosida strategik boshqaruvni rivojlantirish bugungi kunda korxonalar uchun nafaqat raqobat ustunligini qo‘lga kiritish, balki iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashning ham muhim omiliga aylanmoqda.

Adabiyotlarning tahlili: M. Porter 2021-yilda raqamli texnologiyalar korxonalar qiymat zanjirini tubdan o‘zgartirib, raqobat ustunligini shakllantirishda ma’lumotlarga asoslangan boshqaruv asosiy omilga aylanganini ta’kidlaydi. Uning fikricha, sun’iy intellekt, avtomatlashtirilgan tahlil tizimlari va IoT texnologiyalari strategik qarorlar sifatini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqadi[100]. **E. Brynjolfsson 2022-yilda** esa raqamli iqtisodiyotning jadalligi korxonalarda strategik rejalashtirish jarayonini qayta ko‘rib chiqishni talab qilishini, xususan big data asosida bozorni bashorat qilish, innovatsion yechimlar yaratish va samaradorlikni oshirish yangi boshqaruv modeli bilan chambarchas bog‘liqligini ta’kidlaydi[101]. **K. Schwab 2023-yilda** to‘rtinchi sanoat inqilobi sharoitida korxonalar raqamli muhitda faoliyat yuritish uchun moslashuvchan strategiyalarga ega bo‘lishi, raqamli ekotizimlardan samarali foydalanishi va raqamli kompetensiyalarni rivojlantirishi zarurligini qayd etadi[102]. Uning fikricha, raqamli texnologiyalar korxonalarga global bozor sharoitida barqaror raqobatbardoshlikni ta’minlashga yordam beradi.

A. Abduraxmonov 2021-yilda raqamli texnologiyalarni joriy etish korxonalarda boshqaruv jarayonlarining shaffofligini oshirishi, inson omili bilan bog‘liq xatolarni kamaytirishi va tezkor axborot almashinuvini ta’minlashini ta’kidlaydi[103]. Uning fikricha, raqamli transformatsiya samarali strategik boshqaruvni shakllantirishda markaziy o‘rin tutadi. **D. Umurzoqov 2022-yilda** esa korxonalarda strategik qarorlar qabul qilishda analitik tizimlar, big


[100] Porter, M. (2021). *Competitive Strategy in the Digital Era: Transforming Value Chains through Technology.* Harvard Business Review Press.
[101] Brynjolfsson, E. (2022). *The Digital Economy and Data-Driven Decision Making in Modern Enterprises.* MIT Press.
[102] Schwab, K. (2023). *Fourth Industrial Revolution and Strategic Leadership in Digital Transformation.* World Economic Forum Publications.
[103] Abduraxmonov, A. (2021). "Raqamli transformatsiya sharoitida korxona boshqaruvini modernizatsiya qilish masalalari." *Iqtisodiyot va Innovatsion Texnologiyalar*, №4, 45–52-bet.

data va intellektual platformalardan foydalanish samaradorlikni sezilarli oshirishi, resurslarni rejalashtirishda aniqlikni kuchaytirishi haqida fikr yuritadi. U shuningdek, raqamli transformatsiya jarayonida kadrlarning raqamli savodxonligi va texnologik kompetensiyasi hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini alohida ta’kidlaydi[104]. **M. Jo‘rayev 2023-yilda** ning tadqiqotlariga ko‘ra, raqamli boshqaruvning joriy etilishi korxona innovatsion rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi, strategik rejalashtirish uchun real vaqt rejimida ma’lumotlarga asoslangan tahliliy imkoniyatlarni yaratadi. Uning fikricha, raqamli texnologiyalar korxonalarning iqtisodiy barqarorligini ta’minlash, raqobatbardoshligini oshirish va bozor o‘zgarishlariga tezkor moslashuv imkonini beradi[105].

Tadqiqot metodologiyasi: Ushbu maqolada tahliliy–taqqoslama usuli, tizimli yondashuv, ilmiy abstraksiya, statistik tahlil, induksiya va deduksiya usullari, shuningdek, empirik kuzatuv va modellashtirish metodologik usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar: Raqamli texnologiyalar asosida korxona strategik boshqaruvini rivojlantirishning afzalliklari: Ma’lumotlarga asoslangan strategik qarorlar qabul qilinishi - Big data, biznes-analitika va sun’iy intellekt vositalari real vaqt rejimida katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish imkonini beradi. **Bozor o‘zgarishlariga tezkor moslashish imkoniyati** - raqamli texnologiyalar raqobat muhitidagi trendlarni, mijozlar xulq-atvoridagi o‘zgarishlarni va bozor ehtiyojlarini erta aniqlashga yordam beradi. Natijada korxona strategik yo‘nalishlarini o‘z vaqtida yangilashi mumkin. **Resurslardan samarali foydalanishni ta’minlashi** - ERP, IoT sensori va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari yordamida moddiy, moliyaviy va mehnat resurslarini aniq rejalashtirish va nazorat qilish imkoniyati oshadi. **Strategik risklarni boshqarish tizimini takomillashtiradi** - raqamli modellash, prognozlash, simulyatsiya va xavf monitoringi orqali korxona ehtimoliy xavflarni oldindan aniqlab, ularga qarshi choralarni ishlab chiqishi osonlashadi. **Ichki boshqaruv jarayonlarining shaffofligini oshiradi** - raqamli raqamlashtirilgan hujjatlar, elektron monitoring tizimlari va audit modullari boshqaruv faoliyatida ochiqlik, mas’uliyat va tartib-intizomni kuchaytiradi. **Innovatsion biznes modellarning joriy etilishiga zamin yaratadi** - raqamli transformatsiya korxonalarga yangi xizmat turlari, raqamli mahsulotlar, onlayn platformalar va avtomatlashtirilgan ish jarayonlarini yaratish imkonini beradi.

[104] Umurzoqov, D. (2022). “Big data asosida strategik qarorlar qabul qilishning ustunliklari.” *O‘zbekiston Milliy Universiteti Axborotnomasi*, №2, 33–40-bet.
[105] Jo‘rayev, M. (2023). “Korxonalarda raqamli boshqaruv va innovatsion rivojlanishning o‘zaro bog‘liqligi.” *Biznes va Boshqaruv Jurnali*, №1, 58–65-bet.




1-grafik. Global raqamli transformatsiya bozorining ulushi

Manba: https://www.rootsanalysis.com/digital-transformation-market

Grafik tahlil: Global raqamli transformatsiya bozori **2024-yildagi 1 422,23 milliard dollardan 2035-yilga kelib 13 263,17 milliard dollargacha o‘sishi kutilmoqda,** bu prognoz davridagi **CAGR 22,50 foizga yuqori.**

Raqamli texnologiyalar asosida korxona strategik boshqaruvini rivojlantirishning kamchiliklari: Texnologik infratuzilmaning qimmatligi – raqamli tizimlarni joriy etish, serverlar, dasturiy ta’minotlar, xavfsizlik modullari va IoT qurilmalarini yaratish katta investitsiya talab qiladi. Ayniqsa kichik biznes uchun bu jarayon moliyaviy yuklamani oshiradi. **Kadrlarning raqamli kompetensiyasi yetarli emasligi** - ko‘plab korxonalarda xodimlar zamonaviy texnologiyalarni to‘liq o‘zlashtirmagan, bu esa raqamli boshqaruv tizimlarining samarali ishlashiga to‘sqinlik qiladi. Malaka oshirish uchun qo‘shimcha vaqt va mablag‘ talab qilinadi. **Kiberxavfsizlik xavflarining kuchayishi** - raqamlashtirilgan jarayonlar, onlayn platformalar, bulut tizimlari va katta ma’lumotlar bazalari kiberhujumlar uchun nisbatan ochiq bo‘ladi. **Texnologiyalarga haddan tashqari bog‘lanish xavfi** - raqamli tizimlar uzilib qolishi, texnik nosozliklar yoki serverning ishdan chiqishi korxona boshqaruv jarayonlarini to‘xtatib qo‘yishi mumkin. **Ma’lumotlarning noto‘g‘ri tahlil qilinishi ehtimoli** - agar ma’lumotlar sifati past bo‘lsa yoki algoritmlar noto‘g‘ri sozlangan bo‘lsa, raqamli tahlil xatolikka olib keladi. **Korxona ichida raqamli transformatsiyaga qarshilikning mavjudligi** - ayrim xodimlar yangi texnologiyalarni qabul qilmasligi, qo‘rqishi yoki o‘z vazifalaridan siqib chiqarilishdan xavotirlanishi mumkin.



2-grafik. Korxona hajmi bo‘yicha global raqamli transformatsiya bozori

Manba: https://www.future-processing.com/blog/esg-and-digital-transformation/

Grafik tahlil: Xalqaro ma'lumotlar korporatsiyasi (IDC) **2022-yilda raqamli transformatsiyalar uchun xarajatlar 1,97 trillion dollarga, 2023-yilga kelib esa butun dunyo bo‘ylab 6,8 trillion dollarga yetishini bashorat qilmoqda.** Bundan tashqari, **2000 ta yirik global (G2000) kompaniyalarining 30 foizi** raqamli strategiyalarini takomillashtirish uchun daromadning kamida **10 foiziga teng kapital byudjetini ajratadi.**

Takliflar: Korxonalarda raqamli infratuzilmani bosqichma-bosqich modernizatsiya qilish - investitsiya xarajatlarini kamaytirish uchun texnologiyalarni joriy etishni bosqichlarga ajratish, ustuvor yo‘nalishlardan boshlash va moliyaviy imkoniyatlarga mos loyihalarni tanlash tavsiya etiladi. **Xodimlarning raqamli kompetensiyasini oshirish bo‘yicha uzluksiz o‘quv dasturlarini tashkil etish** - raqamli transformatsiyaning muvaffaqiyati kadrlar malakasiga bog‘liq. Shu sababli treninglar, qayta tayyorlash kurslari, onlayn ta’lim platformalaridan foydalanish samarali natija beradi. **Kiberxavfsizlik strategiyasini kuchaytirish** - korxonalar himoyalangan bulut texnologiyalaridan foydalanishi, muntazam xavfsizlik auditi o‘tkazishi, autentifikatsiya va shifrlash tizimlarini takomillashtirishi zarur. **Raqamli texnologiyalarni joriy etishda tashqi ekspertlar va konsalting kompaniyalari bilan hamkorlik qilish** - mutaxassislar ko‘magi texnik xatolarning oldini oladi, raqamli tizimlarning to‘g‘ri integratsiya qilinishini ta’minlaydi va strategik boshqaruv jarayonlarini optimallashtiradi. **Ma’lumotlar sifati va ularni boshqarish tizimini kuchaytirish** - to‘plangan ma’lumotlarni tozalash, standartlashtirish va yagona platformada boshqarish algoritmlarning aniqligini oshirishga xizmat qiladi. Bu esa strategik qarorlar sifatini yaxshilaydi. **Korxona ichida raqamli madaniyatni shakllantirish** - xodimlar raqamli texnologiyalarning foydasini tushunishi, innovatsion fikrlashga ega bo‘lishi va transformatsiyani o‘zining rivojlanish imkoniyati sifatida ko‘rishi uchun motivatsion mexanizmlar yo‘lga qo‘yilishi kerak.

Xulosa. Raqamli texnologiyalar korxona strategik boshqaruvini tubdan o‘zgartirib, uning samaradorligini oshirish, bozor sharoitlariga moslashuvchanlikni kuchaytirish va raqobatbardoshlikni ta’minlashda hal qiluvchi omilga aylanmoqda. Sun’iy intellekt, big data, IoT, bulut texnologiyalari va biznes-analitika kabi raqamli yechimlar strategik qarorlar qabul qilishning aniqligi va tezligini oshiradi, resurslardan foydalanishda samaradorlikni ta’minlaydi, ichki boshqaruv jarayonlarining shaffofligini kuchaytiradi hamda yangi innovatsion biznes modellarning shakllanishiga zamin yaratadi. Shunga qaramay, raqamli transformatsiya katta investitsiyalarni talab qilishi, kadrlar malakasining yetishmasligi, kiberxavfsizlik xavflari va korxona ichidagi qarshiliklar kabi bir qator muammolarni keltirib chiqaradi. Ularni samarali hal etish uchun raqamli infratuzilmani bosqichma-bosqich modernizatsiya qilish, kadrlar malakasini oshirish, ma’lumotlar boshqaruvini takomillashtirish, kiberxavfsizlik choralarini kuchaytirish va raqamli madaniyatni shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Porter, M. (2021). *Competitive Strategy in the Digital Era: Transforming Value Chains through Technology.* Harvard Business Review Press.
2. Brynjolfsson, E., & McAfee, A. (2022). *Artificial Intelligence and Data-Driven Decision-Making in Business.* MIT Press.
3. Schwab, K. (2023). *The Fourth Industrial Revolution: Digital Transformation and Global Competitiveness.* World Economic Forum Publications.
4. Laudon, K., & Laudon, J. (2022). *Management Information Systems: Managing the Digital Firm.* Pearson Education.
5. Davenport, T. (2021). *Competing on Analytics: Creating Value Through Data.* Harvard Business School Publishing.
6. Abduraxmonov, A. (2021). “Korxonalarda raqamli transformatsiya jarayonining boshqaruvga ta’siri.” *Iqtisodiyot va Innovatsion Texnologiyalar*, №4, 45–52-bet.
7. Umurzoqov, D. (2022). “Big Data asosida strategik boshqaruvni takomillashtirishning ilmiy asoslari.” *O‘zbekiston Milliy Universiteti Axborotnomasi*, №2, 33–40-bet.
8. Jo‘rayev, M. (2023). “Korxonalar innovatsion boshqaruvida raqamli texnologiyalarning o‘rni.” *Biznes va Boshqaruv Jurnali*, №1, 58–65-bet.
9. Karimov, Sh. (2023). “Raqamli iqtisodiyot sharoitida korxonalar strategik rivojlanishining zamonaviy yo‘nalishlari.” *O‘zbekiston Iqtisodiy Tadqiqotlar Jurnali*, №3, 72–80-bet.
10. Raximova, N. (2024). “Strategik boshqaruvda sun’iy intellektdan foydalanish mexanizmlari.” *Innovatsion Rivojlanish Jurnali*, №1, 40–48-bet.
11. https://www.rootsanalysis.com/digital-transformation-market, **1-grafik.**
12. https://www.future-processing.com/blog/esg-and-digital-transformation/, **2-grafik.**

NEMIS VA O‘ZBEK BADIIY MATNLARIDA EKVIVALENTSIZ MAISHIY LEKSIKANING QO‘LLANILISHI

Tohir Alimov
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti 3-bosqich tayanch doktoranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.18279725

Annotatsiya. *Badiiy adabiyot til va madaniyatning o‘zaro bog‘liqligini aks ettiruvchi eng muhim sohalardan biridir. Ushbu tezisda nemis va o‘zbek badiiy matnlaridagi ekvilvalentsiz maishiy leksika qiyosiy-chog‘ishtirma usulda o‘rganiladi. Maishiy leksika deganda kundalik turmush, oilaviy hayot, ovqatlanish odatlari, ijtimoiy munosabatlar va milliy an’analarga oid so‘z va iboralar tushuniladi. Ekvilvalentsizlik esa bir tildagi so‘zning boshqa tilda to‘liq semantik va elmadaniy muqobiliga ega emasligini bildiradi. Qiyosiy tahlil usuli ikki til va madaniyatdagi o‘xshashlik va farqlarni aniqlashga yordam beradi. Nemis adabiyoti individualizm va psixologik chuqurlikka, o‘zbek adabiyoti esa jamoaviylik va oilaviy qadriyatlarning aks ettirilishiga moyil. Ushbu farqlar maishiy leksikaning funksiyasi va stilistik rolida ham namoyon bo‘ladi.*

Kirish so‘zlar: *nemis tili, o‘zbek tili, maishiy leksika, ekvivalentsiz leksika, badiiy matn.*

Ekvilvalentsiz leksika (lacuna) tilshunoslikda bir tilda mavjud bo‘lib, boshqa tilda to‘g‘ridan to‘g‘ri muqobili yo‘q bo‘lgan birliklardir. Maishiy leksika sohasida bu ko‘pincha milliy madaniyatning o‘ziga xos elementlariga bog‘liq. Nemis tilida *Gemütlichkeit*, *Kaffeeklatsch*, *Brotzeit* kabi so‘zlar, o‘zbek tilida esa *dasturxon*, *palov*, *mehmonnavozlik* kabi iboralar ekvilvalentsizdir. Qiyosiy jihatdan, nemis leksikasi ko‘proq shaxsiy qulaylik va ijtimoiy marosimlarga, o‘zbek leksikasi oilaviy va jamoaviy birlikka qaratilgan. Masalan, nemischa *Gemütlichkeit* so‘zi uy issiqligi va ruhiy farovonlikni, o‘zbekcha *palov* yoki *dasturxon* esa oilaviy yig‘in va mehmondo‘stlikni ifodalaydi.

Madaniy kontekst va semantik xususiyatiga ko‘ra maishiy leksikaning farqli funksiyalari mavjud. Nemis madaniyatida *Kaffee und Kuchen* (tushdan keyin qahva va mazali pishiriq) oilaviy dam olish va ijtimoiy muloqotning ramzi bo‘lsa, o‘zbek madaniyatida *palov, osh tayyorlash* yoki *choyxona* butun oilaviy birlik va hamjihatlikni, biror bir yig‘ilish yoki hamkorlikni anglatadi. Bu farqlar tarjima va adabiy tahlilda muhim muammolarni keltirib chiqaradi.

Tarixiy va ijtimoiy kontekst nemis adabiyotida maishiy leksika XIX-XX asr burjuaziya hayotini tasvirlashda keng qo‘llanilgan. Tomas Mannning “Buddenbroklar” romanida oilaviy kechki ovqatlar, dam olish kunlari va ijtimoiy marosimlar orqali nemis jamiyatining qadriyat tizimi ochib beriladi. Masalan, *Sonntagsbraten* (yakshanba kuni qovurilgan go‘sht) iborasi oilaviy birlik va an’anaviy dam olishni ramziylashtiradi. Bu so‘z o‘zbek tilida oddiy “yakshanba ovqati” deb tarjima qilinishi mumkin, ammo nemis madaniyatidagi diniy va ijtimoiy ahamiyati yo‘qoladi.

Psixologik va stilistik nuqtai nazardan nemis yozuvchilari maishiy leksikani qahramonlarning ichki dunyosini tasvirlash uchun ishlatadi. Hermann Hessening “Siddxarta” asarida oddiy maishiy lahzalar (masalan, daryo bo‘yida choy ichish) falsafiy mulohazalar bilan bog‘lanadi. *Gemütlichkeit* so‘zi nafaqat jismoniy qulaylik, balki ruhiy totuvlikni ham anglatadi.

Qiyosiy tahlilda ko‘rinadiki, nemis adabiyotida maishiy leksika ko‘proq individual tajribaga, o‘zbek adabiyotida esa ijtimoiy munosabatlarga xizmat qiladi.

Milliy an’ana va turmush tarzi o‘zbek adabiyotida maishiy leksika xalq og‘zaki ijodi va an’anaviy turmush bilan chambarchas bog‘liq. Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanida *dasturxon yozish*, *palov pishirish*, *somsa tayyorlash* kabi iboralar o‘zbek oilasining kundalik hayoti va mehmondo‘stligini tasvirlaydi. *Palov* so‘zi nafaqat taom nomi, balki bayram, to‘y va yig‘inlarning ramzi hisoblanadi. Bu nemis tilida oddiy “Reisgericht” - ‘guruchli taom’ deb tarjima qilinishi uning madaniy ahamiyatini yo‘qotadi.

Shuningdek o‘zbek adabiyotida maishiy leksika ijtimoiy va axloqiy ijhatdan ko‘pincha axloqiy qadriyatlar va ijtimoiy normalarni ochib berishga xizmat qiladi. Masalan, mehmonnavozlik tushunchasi o‘zbek xalqining eng muhim fazilatlaridan biri bo‘lib, adabiy matnlarda mehmon kutish odatlari orqali jamiyatning birdamligi tasvirlanadi. Qiyosiy jihatdan, nemis adabiyotidagi “Gastfreundschaft” – ‘mehmondo‘stlik’ so‘zi mavjud bo‘lsa-da, u o‘zbekcha “mehmonnavozlik”dagidek chuqur oilaviy va jamoaviy majburiyatni o‘z ichiga olmaydi.

Nemis va o‘zbek badiiy matnlarida ekvilvalentsiz maishiy leksika milliy o‘ziga xoslikni saqlash va madaniy kodlarni uzatish vositasi sifatida xizmat qiladi. Qolaversa, ovqatlanish odatlari (nemis “Kaffee und Kuchen” va o‘zbek “choyxona”) ijtimoiy muloqotning muhim qismi sifatida tasvirlanadi. Har ikki tilida maishiy leksika qahramonlarning ijtimoiy mavqeini va madaniy muhitini ochib berishda ishlatiladi.

Nemis adabiyotida maishiy lahzalar falsafiy mulohazalar bilan bog‘lansa, o‘zbek adabiyotida axloqiy va ijtimoiy normalarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Nemis matnlarini o‘zbek tiliga o‘tkazishda transliteratsiya va izoh ko‘proq qo‘llaniladi, o‘zbek matnlarini nemis tiliga o‘tkazishda esa tasviriy tarjima va kontekstual izohlar talab qilinadi.

Semantik yo‘qotishlar ekvilvalentsiz leksikani tarjima qilishda madaniy va emotsional mazmunning yo‘qolishi asosiy muammo. Masalan, nemis “Kaffeeklatsch” (ayollarning tushdan keyin qahva ichib g‘iybat qilishi) iborasini o‘zbek tilida “choyxona suhbati” deb tarjima qilish uning ijtimoiy sinfiy va gender xususiyatlarini yo‘qotadi.

“Palov” so‘zini nemis tilida “Palov (usbekisches Nationalgericht)” deb berish, “Mehmonnavozlik”ni “herzliche Gastfreundschaft mit traditionellen Ritualen” deb ifodalash mumkin. Nemischa “Gemütlichkeit”ni o‘zbek tilida “uy issiqligi va ruhiy totuvlik” deb tasvirlash, nemis-o‘zbek tarjimalarida izohli usullar, o‘zbek-nemis tarjimalarida esa tasviriy usullar samaraliroq.

Demak xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, nemis va o‘zbek badiiy matnlarida ekvilvalentsiz maishiy leksika milliy madaniyatning o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi muhim vositadir. Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, nemis adabiyoti individual tajriba va psixologik chuqurlikka, o‘zbek adabiyoti esa ijtimoiy munosabatlar va jamoaviy qadriyatlarning tasviriga moyil.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mann T. Buddenbrooks. – Berlin: Fischer Verlag, 1997. –768 S.
2. Qodiriy A. O‘tkan kunlar. –Toshkent: Sharq nashriyoti, 2018. – 384 b.
3. Hesse H. Siddhartha. – Berlin: Fischer Verlag, 1922. –174 S.
4. Kristeva J. A Semiotic Approach to Literature and Art. – New York: Columbia University Press, 1980.

5. Lotman Y.M. A Semiotic Theory of Culture. – London: I.B. Tauris, 1990.
6. Bakhtin M.M. The Dialogic Imagination. –Austin: University of Texas Press, 1981.
7. Eco U. On Translation. –London: Routledge, 2002.
8. Umarov A. O‘zbek tilining leksikologiyasi. –Toshkent: Fan nashriyoti, 2010.
9. Duden. Die deutsche Rechtschreibung. –Mannheim: Dudenverlag, 2015.

RAQAMLI ASRDA MUVAZANTNI TOPISH: DOPAMIN REGULYATSIYASI VA INSONIY FAROVONLIK DILEMMASI

Hamdamov Oybek Jalaliddin o‘g‘li[1], Muxammadjonov Shohjahon Jamshid og‘li[2]
[1]Xalqaro Millat Umidi Universiteti, Xalqaro Bizness va Moliya fakulteti, Bizness Boshqaruv yo‘nalishi,1-bosqich talabasi
[2]Xalqaro Millat Umidi Universiteti, Xalqaro Bizness va Moliya fakulteti, Bizness Boshqaruv yo‘nalishi, 1-bosqich talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.18279741

Annotatsiya*. Ushbu ilmiy maqola zamonaviy yuqori-stimul muhitning inson nevrologiyasi va xulq-atvoriga ta’sirini tahlil qiladi. Anna Lembke tomonidan ilgari surilgan "huzur-og‘riq balansi" tushunchasiga asoslanib, raqamli texnologiyalardan kelib chiqadigan surunkali dopamin stimulyatsiyasi qisqarayotgan diqqat, psixologik pasayish va "dopamin defitsiti" holatiga olib kelishini ko‘rsatadi. Muhokamada Scarlett Yun, Barbara Jennings va Nyel Ansari kabi ekspertlarning fikrlari tanqidiy taqqoslanadi. Maqola, optimal yechim sifatida, faoliyatdagi ishqalanishni (friction) oshirish va "sog‘lom og‘riq" orqali dopamin bazis chizig‘ini tiklash zarurligini ilgari suradi.*

Kalit so‘zlar: *Dopamin Regulyatsiyasi, Huzur-Og‘riq Balansi, Raqamli Qaramlik, Diqqatning Pasayishi, Gomeostazis, Insoniy Omil.*

Аннотация*. Данная научная статья анализирует влияние современной высокостимулирующей среды на неврологию и поведение человека. Основываясь на концепции «баланса удовольствия и боли», выдвинутой Анной Лембке, авторы показывают, что хроническая дофаминовая стимуляция, вызванная цифровыми технологиями, приводит к снижению концентрации внимания, психологическому спаду и состоянию «дефицита дофамина». В ходе обсуждения проводится критическое сравнение мнений таких экспертов, как Скарлетт Юн, Барбара Дженнингс и Найел Ансари. В качестве оптимального решения в статье выдвигается необходимость повышения «трения» (friction) в повседневной деятельности и восстановления базового уровня дофамина через осознанный поиск «здоровой боли».*

Ключевые слова: *Регуляция дофамина, баланс удовольствия и боли, цифровая зависимость, снижение внимания, гомеостаз, человеческий фактор.*

Abstract. *This scientific article analyzes the impact of the modern high-stimulus environment on human neurology and behavior. Drawing on the "pleasure-pain balance" concept proposed by Anna Lembke, it demonstrates that chronic dopamine stimulation resulting from digital technologies leads to diminishing attention spans, psychological decline, and a state of "dopamine deficit." The discussion critically compares the insights of experts such as Scarlett Yun, Barbara Jennings, and Nyel Ansari. As an optimal solution, the paper proposes the necessity of increasing "friction" in activities and restoring the dopamine baseline through "healthy pain."*

Keywords: *Dopamine Regulation, Pleasure-Pain Balance, Digital Addiction, Attention Decline, Homeostasis, Human Factor.*

Kirish. Dofamin o‘zi nima va bizga nima uchun kerak? Dofamin- Miyya sohasida ishlab

chiqariladigan kimyoviy modda. Uning ko‘plab funksiyalari bor. Ulardan eng muhimlari: tajriba, rohat, yutug‘lar va motivatsiya. Lekin bazida Dofamin, motivatsiya bilan qilinadigan ishdan ham muhimroq bo‘lishi mumkin. Bunga misol qilib aytaylik kunlarning birida olimlar kalamush ustida shunda ilmiy tadqiqot o‘tkazishgan. Unga ko‘ra kalamushning miyyasida Dofamin moddasidan xoli qilishgan. Unga birinchi og‘iz atrofiga yegulik tutqazishdi va kalamush yegulikni yeb qaysidir ma’noda rohatlandi. Keyin esa undan yegulikni biroz uzoqroq masofa qo‘yishdi. Lekin kalamush yegulikni ko‘rsada, unga talpinmasdan shu joyda ochlikdan vafot etdi.Qissadan qissa natija shuni ko‘rsatadiki,dofamin moddasi jamiiyki tirik jonzotlarning yashab qolish instiktini ishiradi va nimadur qilishga undaydi. Agarda bu narsalar bo‘lmasa, barcha ma’nosiz, maqsadsiz hayot tufayli qirilib ketgan bo‘lar edi. Demak dofamin yashash qolish uchun asosiy omil vazifasini bajaradi. Lekin ming afsuski hozirgi raqamli asrda esa, yuqori-stimul (yuqori rag‘batlantiruvchi) muhit va texnologik mo‘l-ko‘lchilikning misli ko‘rilmagan darajasi inson miyasining neyro-adaptiv mexanizmlariga keskin ta’sir ko‘rsatmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar, video o‘yinlar va qisqa kontent kabi kundalik manbalardan keladigan **tezkor va kuchli dopamin (Dopamin surge)** portlashlari miya uchun tabiiy bo‘lmagan surunkali yuklanishni keltirib chiqarmoqda. Dofaminga bo‘lgan talab o‘ta tez va oson ortib bormoqda va bir vaqtning o‘zida ham dofamin ham stress moddalarining ishlab chiqarilishiga sabab bo‘lyabdi. Najitada dofamin disbalansga uchrab, miyya faoliyati va neyro to‘qimalarga salabiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Ushbu maqolaning maqsadi — zamonaviy texnologiyalarning insoniy omilga ta’sirini nevrologik va psixologik asoslar nuqtai nazaridan tahlil qilish, ushbu jarayonni tushunish uchun asosiy tushunchalarni (masalan, dopamin halqasi) taqdim etish va sohadagi yetakchi ekspertlarning yechimlarni tanqidiy taqqoslash orqali farovonlikni tiklash bo‘yicha amaliy yondashuvlarni ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, ayni vaqtda dunyoning eng rivojlangan mamlakatlarida, ko‘ngil ochish manbalarining yuqori darajada mavjudligiga qaramay, xavotir, depressiya va baxtsizlik darajasi oshib bormoqda. Bu esa salbiy ta’sir doirasini xuddi virus kabi tez tarqalishiga olib kelishi mumkin.

Adabiyot Tahlili

Tahlilning markaziy asosi Stenford universiteti tibbiyot maktabining professor-o‘qituvchisi, tibbiyot fanlari doktori **Anna Lembke**ning "Dopamine Nation: Finding Balance in the Age of Indulgence" (Haddan Tashqari Berilish Davrida Muvazanatni Topish) kitobidagi fundamental tushunchalar hisoblanadi. Huzur-Og‘riq Balansi Kontseptsiyasi[2]Lembke o‘z ishida miya **gomeostazis**ga intiluvchi asosiy neyrobiologik mexanizmni – **Huzur-Og‘riq Balansi** (Pleasure-Pain Balance) tushunchasini ilgari suradi. Bu balans miyada jismoniy taroziga o‘xshash ishlaydi: har qanday kuchli rag‘batlantiruvchi (stimulus) og‘riq tomonida teng va qarama-qarshi kuch (neyroadaptatsiya) paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi.Doimiy ravishda yuqori dopamin manbalariga duchor bo‘lish (masalan, cheksiz kontent lentasi) miyaning bu balansi og‘riq tomonida doimiy ravishda pastga tushib turishiga olib keladi. Natijada, shaxs nafaqat huzur his qilish qobiliyatini yo‘qotadi, balki oddiy, neytral holatga qaytish uchun ham doimo rag‘batlantiruvchiga muhtoj bo‘ladi. Bu holatni giyohband moddaga ruju qo‘ygan inson holatiga o‘xshatishimiz mumkin. Bu holat Lembke tomonidan **"Dopamin Defitsiti Holati"** deb ta’riflanadi va u asabiylik, xavotir va depressiv kayfiyat bilan xarakterlanadi. Uning fikricha, mukofotlanish yo‘llarini tiklash uchun modda yoki xulq-atvordan o‘rtacha **to‘rt hafta davomida tiyilish** talab qilinadi. Qaramlikning Zamonaviy Shakli[3]Lembke an’anaviy qaramlik (moddalarga bog‘liqlik) va zamonaviy **"Dopamin Qaramligi"** o‘rtasidagi farqni shunday

ta’kidlaydi. Zamonaviy qaramlikning subyektlari kuchli zaharli moddalar emas, balki kundalik, tezkor mukofotlanishni ta’minlovchi ilovalar, o‘yinlar va onlayn faoliyatlardir. Muammo ularning qonuniy va hamma uchun ochiq ekanligidadir, bu esa massaviy qaramlik uchun qulay zamin yaratadi.

Muhokama va Natijalar

Dopamin Halqasi va Xulq-atvor AdaptatsiyasiAsosiy tushuncha shundan iboratki,raqamli muhit Dopamin Halqasini doimiy ravishda mustahkamlaydi: Barbara Jennings (Cell Phones, Dopamine, and Development: TEDxABQ) o‘z nutqida mobil telefonlarning, ayniqsa rivojlanayotgan yoshlarning miyasiga ta’siriga e’tibor qaratadi. U dofaminning motivatsiya va kutish kimyoviy moddasi ekanligini ta’kidlab, doimiy ravishda yangiliklar (notifications) kutish holati miyaning me’yoriy rivojlanishiga xalaqit berishini, bu esa chuqur va uzoq muddatli diqqatni shakllantirishga salbiy ta’sir ko‘rsatishini ta’kidlaydi. Jenningsning fikricha, qurilmalarga haddan tashqari kirish imkoniyati kognitiv zaiflashuvga olib keladi. Bu esa Lembkening dofamin defitsiti natijasidagi diqqat pasayishi tushunchasini to‘ldiradi.Qisqa shakldagi kontentning diqqatga ta’siri[2]Qisqa shakldagi kontentning tarqalishi kognitiv pasayishning asosiy ko‘rsatkichi hisoblanadi.Nyel Ansari (The Impact Of Short Form Content: TEDxMonashUniversityMalaysia) xulosa qiladiki, qisqa videolarni (masalan, TikTok, Reels) doimiy iste’mol qilish miyani tez, ammo yuzaki axborotni qayta ishlashga o‘rgatadi. Bu esa o‘rtacha insonning diqqatni jamlash muddatining keskin qisqarishiga (8 soniyaga), chuqur o‘ylash va murakkab muammolarni hal qilish qobiliyatining pasayishiga olib keladi. Aksari bu jarayonni missiyasini "ma’lumotga o‘rganish" (data addiction) deb ataydi. Ushbu fikr Lembkening, surunkali stimulyatsiya natijasida tabiiy, past dofaminli mukofotlardan (masalan, kitob o‘qish, jismoniy mashq) zavqlana olmaslik tushunchasi bilan to‘liq mos keladi. Ya’ni avvallari insonlar soatlab kitob o‘qish yokida qaysidir jismoniy manaviy ish bilan shug‘ullanib, o‘zligida dofamin moddasini ishlab chiqqan bo‘lishsa, endilikda shuni bitta internetga ulangan qurilma va oddiy barmoq orqali oson ega chiqilyabdi. Bu shunchalik oson va tezki, inson miyyasi buni tezlik bilan odatiy ish sifatida ko‘p zo‘riqishlarsiz qabul qiladi.Baxtni qayta ta’riflash va yechimlar[3]Muammoni hal qilish yondashuvlari, bir tomondan, tiyilish va ikkinchi tomondan, muvaffaqiyatga erishish usullarini o‘z ichiga oladi.Scarlett Suye Yun (Breaking the Cycle: Redefining Pleasure in the Dopamine Age: TEDxKISJeju) baxt va qoniqishni qiyinchilik va mazmunli aloqalar orqali qayta ta’riflash zarurligini ta’kidlaydi. Uning "dofamin ro‘zasi" va hayotiy faoliyatlarda "ishqalanishni yaratish" (creating friction) usullari (masalan, ilovalardan doimiy chiqish) Lembkening tiyilish zarurligi haqidagi klinik tavsiyasining amaliy yechimlaridir.Yun va Lembkening tushunchalarini taqqoslaganda, har ikki ekspert ham "yengil og‘riq" yoki "qiyinchilikni ataylab qidirishning ahamiyatini ko‘rsatadi. Lembke buni "sog‘lom og‘riq" orqali dofamin asosiy chizig‘ini tabiiy ravishda ko‘tarish mexanizmi deb izohlaydi (masalan, jismoniy mashq, sovuq suv, ro‘za). Bu faoliyatlar sun’iy stimuldan farqli o‘laroq, og‘riq fazasidan keyin neyrotransmitterlarning uzoqroq va yumshoqroq ko‘tarilishini ta’minlaydi. Bu degani ijtimoiy tarmoqlarga bo‘lgan qaramlikni faqat ularda holi bo‘lib, boshqa jismoniy ishlar bilan mashhul bo‘lish bilan qaramlikni yengish mumkin.

Xulosa

Ushbu tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, raqamli asrda insoniy farovonlikning pasayishi bevosita dofamin regulyatsiyasining buzilishi bilan bog‘liq. Bizning miyalarimiz mo‘l-ko‘lchilikning doimiy hujumiga moslashmagan, bu esa kollektiv dofamin defitsiti holatiga olib keldi, natijada qisqarayotgan diqqat va psixologik zo‘riqish kuchaymoqda. Bu esa yengil

dofamin va kuchli stressni olib keladi. Buning natijasida juda ko‘p vaqtning behuda sovrilishi, mas’uliyatsizlikning surunkli oshib borishi va eng asosiysi fikrlashning torayishi va saviyasizlikka olib kelish xavfi yuqori. Natijada o‘zini boshqalarga solishtirish, huddiki keraksiz buyum sifatida his qilib, o‘z –o‘ziga turli xil suyuqastlar orqali o‘limga ham olib kelishi mumkin. Bu esa jamiyat uchun fojiadir !

Optimal Yechim Yondashuvi:

1. **Neyrobiologik Tiklanish:** Anna Lembkening tavsiyasiga ko‘ra, miya mukofotlanish yo‘llarini tiklash uchun, avvalambor, dofamin ro‘zasi (muayyan stimullardan ma’lum muddat tiyilish) orqali gomeostazisni tiklash zarur.
2. **Xulq-atvor Strategiyasi:** Scarlett Yun ta’kidlaganidek, yomon odatlar o‘rtasida "ishqalanishni yaratish" (masalan, ilovadan chiqish, qurilmani uzoqqa qo‘yish) iroda kuchidan ko‘ra samaraliroqdir.
3. **Diqqatni Qayta Qurish:** Barbara Jennings va Nyel Ansari fikrlariga tayanib, chuqur diqqatni tiklash uchun ongli ravishda uzoq muddatli faoliyatlar (masalan, kitob o‘qish, chuqur ish) bilan shug‘ullanish asosiy kognitiv mashqdir.
4. **Farovonlikni Qayta Ta’riflash:** Ijtimoiy va shaxsiy darajada baxtni tezkor huzurdan uzoqlashtirib, maqsadli harakat va qiyinchilik orqali erishilgan uzoq muddatli qoniqish hissini shakllantirish. Xulosa qilib aytganda, raqamli dunyoda farovonlikni ta’minlash uchun texnologiyadan to‘liq voz kechish shart emas, balki uni o‘z miyamizning biologik cheklovlarini hisobga olgan holda ongli ravishda nazorat qilish va o‘z-o‘zini tartibga solishni qayta o‘rganish lozim.

FOYDALANILGAN MANBALAR

1. Lembke, A. (2021). *Dopamine Nation: Finding Balance in the Age of Indulgence*. New York, NY: Dutton.
2. Yun, S. (2020). *Breaking the Cycle: Redefining Pleasure in the Dopamine Age* [Video]. TEDxKISJeju.
3. Jennings, B. (2018). *Cell Phones, Dopamine, and Development* [Video]. TEDxABQ.
4. Ansari, N. (2022). *The Impact Of Short Form Content* [Video]. TEDxMonashUniversityMalaysia.

GLOBAL KAPITAL BOZORLARIDA TOKENIZATSIYA VA SMART-KONTRAKTLARNING RIVOJLANISHI

Dilnozaxon Muxitdinova
"Korporativ moliya va qimmatli qog'ozlar" kafedrasi, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Toshkent, O'zbekiston
https://doi.org/10.5281/zenodo.18279776

Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi natijasida tokenizatsiya va smart-kontraktlar global kapital bozorlarida inqilobiy o'zgarishlar keltirib chiqarmoqda. Tokenizatsiya – bu real aktivlarni (aksiyalar, obligatsiyalar, ko'chmas mulk va h.k.) raqamli tokenlar shaklida blokcheyn platformalarida aks ettirish jarayoni bo'lib, bu tokenlar mulk huquqi yoki aktivga da'volarni ifodalaydi. Smart-kontraktlar esa blokcheynda ishlaydigan, shartlari oldindan belgilangan va o'z-o'zini bajaruvchi raqamli shartnomalardir. Ushbu texnologiyalar an'anaviy moliya instrumentlariga innovatsion yondashuv bo'lib, bitimlarni inson aralashuvisiz avtomatik amalga oshirish, vositachilar sonini kamaytirish va jarayonlarni tezlashtirish imkonini beradi[106]. Natijada, global kapital bozorlarida tokenlashtirilgan qimmatli qog'ozlar va aktivlar ulushi tobora ortib bormoqda, bu esa investorlar va moliya institutlariga yangi imkoniyatlar taqdim etmoqda.

Tokenizatsiya real yoki an'anaviy aktivlarni raqamli token ko'rinishida chiqarishni anglatadi. Bunda aktivning barcha huquqiy va iqtisodiy jihatlari (mulkchilik ulushi, daromad olish huquqi va hokazo) bir yoki bir necha tokenlarga bog'lanadi. Tokenlar blokcheyn kabi tarqatilgan reyestrda saqlanib, ishonchli tarzda uzatilishi va tasdiqlanishi mumkin. Bu usul an'anaviy aktivlarni sotish-vaqt va xarajatlarini sezilarli kamaytiradi.

Tokenizatsiya tufayli aktivlar fraqtsiyalarga bo'linishi osonlashadi – ya'ni yirik bir aktivni (ko'chmas mulk obyektini yoki qimmatbaho asarni) bir nechta mayda tokenlarga ajratib, ko'plab investorlar o'rtasida taqsimlash mumkin. Bu esa kichik investorlar uchun ilgari faqat katta sarmoya talab etuvchi bozorlarga kirishni osonlashtiradi. Shunday amaliyotlardan biri, Shveysariyaning Sygnum banki 1964-yilgi Pablo Pikasso kartinasini tokenlashtirib, uning mulk huquqini 4000 qismga bo'ldi – investorlar har bir tokenni $1,040 evaziga sotib olib, asar qiymati oshishidan ulushlariga yarasha foyda olish huquqiga ega bo'lishdi[107]. Shu tariqa, tokenizatsiya mulkchilik va investitsiya tushunchalarini tubdan o'zgartirib, kapital bozorlarida likvidlikni oshirishi va investitsion imkoniyatlarni kengaytirishi kutilmoqda.

Tokenlashtirilgan aktivlar qatoriga aksiyalar, obligatsiyalar, investitsiya fondlari, ko'chmas mulk, san'at asarlari, intelektual mulk huquqlari hamda hatto sportchilar bilan tuzilgan kelishuvlar kiradi. Boston Consulting Group (BCG) tahliliga ko'ra, yaqin 7 yil ichida tokenlashtirilgan aksiyalar bozori deyarli noldan 1,5 trillion yevrogacha, tokenlashtirilgan investitsiya fondlari bozori esa 0,4 trillion yevrogacha o'sishi prognoz qilinmoqda[108]. Bu

[106] Desbonnet J., Vanunu O. The rise of smart contracts and strategies for mitigating cyber and legal risks [Elektron resurs] / J. Desbonnet, O. Vanunu. – World Economic Forum, 2024. – 16 July.
[107] **BBVA Switzerland.** *Tokenized World: the future of the economy in 2030* : [Elektron resurs]. – Zurich : BBVA Switzerland, 2023. – https://www.bbva.ch
[108] **BBVA Switzerland.** *Tokenized World: the future of the economy in 2030* : [Elektron resurs]. – Zurich : BBVA Switzerland, 2023. – https://www.bbva.ch


raqamlar tokenizatsiya nafaqat startaplar yoki kripto saboatining xodisasi emas, balki an’anaviy moliya sektorining ajralmas qismiga aylanishi mumkinligidan dalolat beradi.

Smart-kontraktlar – bu blokcheyn tarmog‘ida ishlaydigan dasturiy shartnomalar bo‘lib, ular oldindan belgilangan qoidalar asosida avtonom tarzda bajariladi. Kapital bozorlari misolida smart-kontraktlar qimmatli qog‘ozlar savdosi, kliring va hisob-kitob jarayonlarini avtomatlashtirishda muhim rol o‘ynamoqda. Obligatsiyalar yoki derivativlar bo‘yicha to‘lovlar va kuponlarni to‘lash shartlarini smart-kontraktga yozib qo‘yish mumkin – belgilangan sanada yoki shart bajarilish bilan kontrakt avtomatik tarzda kerakli to‘lovlarni amalga oshiradi. Bu esa inson omilini va xatolarni kamaytiradi, vositachilar (masalan, kliring palatalari) ehtiyojini pasaytiradi va real vaqt rejimida bajariladigan tezkor hisob-kitoblarni ta’minlaydi.

Hozirgi vaqtda eng ommabop smart-kontrakt platformasi bu Ethereum bo‘lib, unda minglab markazlashtirilmagan moliyaviy ilovalar (DeFi) va tokenlashtirish loyihalari ishlamoqda. Ethereum tarmog‘ida 2021-yilda bir paytning o‘zida shu darajada katta hajmdagi smart-kontraktlar va DeFi protokollari ishga tushdiki, uning umumiy qulflangan qiymati (TVL – Total Value Locked) 2021-yil oxirida deyarli $200 milliard AQSh dollariga yetdi. Bu ko‘rsatkich 2022-yilda bozor pasayishi oqibatida keskin qisqardi – 2023-yilga kelib DeFi protokollaridagi TVL qaryib 38 mlrd AQSh dollari atrofida bo‘lib turibdi[109]. Biroq bu ham smart-kontraktlar boshqaruvidagi ekotizimda haligacha ulkan miqdorda mablag‘lar aylanishini ko‘rsatadi. Smart-kontraktlar, shuningdek, 24/7 rejimida ishlovchi moliyaviy infratuzilmani yaratishga yordam bermoqda – tokenlashtirilgan aktivlar va kripto-bozorlar dam olish kunlari ham uzluksiz savdo qilishi mumkinligi bilan an’anaviy fond bozorlaridan farq qiladi.

So‘nggi yillarda tokenizatsiya va smart-kontraktlar bozorida keskin o‘sish sur’ati kuzatildi. Deutsche Bank tadqiqotiga ko‘ra, global tokenlashtirilgan aktivlar bozori hajmi 2019-yildagi atigi 4 milliard AQSh dollaridan 2025-yilga kelib qaryib 331 milliard AQSH dollarigacha o‘sgan[110]. Bu o‘sishda, ayniqsa, stablecoin deb ataluvchi tokenlashtirilgan raqamli valyutalar (USDT, USDC kabi AQSh dollariga bog‘langan tokenlar) katta rol o‘ynadi. 2025-yil holatiga ko‘ra tokenlashtirilgan aktivlar bozorining asosiy qismini stablecoinlar tashkil etib, ularning umumiy kapitallashuvi 290 mlrd AQSh dollar atrofida baholanmoqda. Biroq stablecoinlardan tashqari ham, real aktivlarning tokenizatsiyasi tobora kengaymoqda – ayniqsa, AQSh g‘aznachilik obligatsiyalari (US Treasuries) tokenlashtirilgan holda aylanishga chiqmoqda va 2025-yil davomida tokenlashtirilgan obligatsiyalar bozori hajmi yil boshidan 118% o‘sishga erishdi. Bu kabi real aktivlar segmentining yuksalishi 2025-yilni tokenizatsiya uchun “muolaja yili” sifatida e’tirof etilishiga olib keldi.

[109] **Stader Labs.** What is Total Value Locked (TVL) in DeFi: Explained [Elektron resurs]. – Stader Labs Blog, 2023. – 13 November.
[110] **Naceur S. B.** Asset Tokenization: The 10-Slide Chartbook, Deutsche Bank Research, 2025. – November.



1-rasm Mintaqalar bo‘yicha tokenizatsiya va smart-kontraktlarning bozor ulushi

1-rasmda tokenizatsiya va smart-kontraktlar bozorining mintaqalar bo‘yicha ulushi keltirilgan. Shimoliy Amerika tokenizatsiya bo‘yicha 38,8 % va smart-kontraktlar bo‘yicha 35,1 % bilan yetakchi o‘rinni egallaydi. Yevropa mintaqasida ushbu ko‘rsatkichlar mos ravishda 29,3 % va 28,0 % ni tashkil etadi. Osiyo–Tinch okeani hududida smart-kontraktlar ulushi (25,0 %) tokenizatsiyaga (22,4 %) nisbatan yuqoriroq. Lotin Amerikasi mintaqasida tokenizatsiya 5,8 %, smart-kontraktlar esa 7,5 % darajasida qayd etilgan bo‘lsa, Yaqin Sharq va Afrika mintaqalarida mos ravishda 3,7 % va 4,5 % ko‘rsatkichlar kuzatiladi. Mazkur natijalar bozor rivojlanishining mintaqalar kesimida notekis ekanini ko‘rsatadi.

-системной интеграции цифровых образовательных технологий в учебный процесс;

-ориентации обучения на развитие критического и инновационного мышления;

-включения обучающихся в проектную и коммуникационную деятельность в цифровой среде;

-учета национальных и международных образовательных стандартов цифровых компетенций.

Таким образом, выдвинутая гипотеза предполагает наличие устойчивой взаимосвязи между уровнем сформированности цифровых компетенций обучающихся и их готовностью к активному и ответственному участию в глобальном обществе, что может быть подтверждено посредством теоретического анализа и обобщения научных исследований по данной проблематике.

Новизна исследования заключается в следующем:

-Рассмотрение цифровых компетенций не только как технологических навыков, но и как компонентов, способствующих формированию глобального гражданства и межкультурного взаимодействия.

-Анализ образовательных вызовов XXI века с акцентом на интеграцию цифровых компетенций и инновационного мышления в образовательный процесс как средство подготовки участников глобального общества.

-Включение современных стратегий и педагогических практик, поддерживаемых международными инициативами цифрового образования.

Методы исследования. Методологическую основу исследования составляют положения современной педагогической науки, разработанные в трудах ученых в области информатизации образования, компетентностного подхода и теории обучения. В ходе исследования использовались следующие методы, адекватные цели и тематике статьи:

Теоретические методы. Анализ научной литературы. Применялся для изучения фундаментальных трудов по проблемам цифровых компетенций, глобального гражданства и цифровой трансформации образования. Данный метод широко используется в работах И. В. Роберт, Е. С. Полат, а также в аналитических материалах ЮНЕСКО и Европейской комиссии.

Сравнительно-сопоставительный анализ.Позволил сопоставить подходы ученых ближнего и дальнего зарубежья к развитию цифровых компетенций обучающихся и выявить общие тенденции и различия в образовательных стратегиях.

Обобщение и систематизация. Использовались для структурирования научных положений и формирования целостного представления о цифровых компетенциях как компоненте глобального гражданства.

Интерпретация педагогических концепций. Метод применялся при анализе теорий компетентностного и контекстного обучения А. А. Вербицкий, а также концепции информатизации образования И. В. Роберт. Использовался для выявления взаимосвязи между развитием цифровых компетенций и формированием глобального гражданства в условиях цифровой образовательной среды. Таким образом, использование теоретических, аналитических и нормативно-правовых методов позволило всесторонне рассмотреть проблему развития цифровых компетенций обучающихся в контексте глобального гражданства и обосновать педагогические возможности их формирования в условиях цифровой трансформации образования

Основная часть. Понятие цифровых компетенций и глобального гражданства. Цифровые компетенции включают умение работать с информацией, коммуникацию через цифровые технологии, создание цифрового контента, безопасность и решение проблем в цифровой среде. Глобальное гражданство подразумевает способность участвовать в решении глобальных социальных, культурных, экологических и экономических вопросов, уважать разнообразие и взаимодействовать в международном контексте. Роль цифрового образования в XXI веке

Современное образование не может игнорировать влияние технологий. Цифровая трансформация включает:

использование онлайн-платформ;

адаптивное и персонализированное обучение;

применение ИИ и аналитических данных для оценки прогресса учащихся.

Образовательные вызовы:

-Неравный доступ к цифровым ресурсам;

-Недостаточная подготовка педагогов;

-Быстрое устаревание навыков;

-Неравномерность развития цифровых навыков по регионам.

Инновации и педагогические подходы

Инновационный подход включает:

-интеграция проектной деятельности;

-обучение критическому мышлению;

-использование интерактивных онлайн-средств;

-международные образовательные программы для расширения глобального мышления.

Выводы. Цифровые компетенции — это не только технологические навыки, но и средство раскрытия потенциала личности в глобальном мире. Формирование глобального гражданства требует сочетания цифровой грамотности с межкультурной коммуникацией и этическими ценностями. Необходимы образовательные стратегии, ориентированные на обучение через взаимодействие, критическое мышление и сотрудничество в цифровой среде. В эпоху цифровой глобализации школы и университеты должны выйти за рамки

традиционного обучения, внедряя инновационные методы, которые не только расширяют знания, но и формируют у обучающихся понимание своей роли в мире и ответственности перед обществом. Цифровые компетенции помогут не только в карьерном росте, но и станут ключевыми навыками граждан XXI века.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Белл, Д. Информационное общество: роль знаний и технологий в формировании гражданской идентичности. — Москва: Издательство «Наука», 2005. — 350 с.
2. **Болотов, В. А.** Компетентностный подход в условиях цифровизации образования. — Санкт-Петербург: Издательство «Образование XXI века», 2020. — 275 с.
3. **Полат, Е. С.** Цифровые технологии и ИКТ-компетенции как средства формирования самостоятельности и критического мышления обучающихся. — Новосибирск: Издательство «Наука и школа», 2019. — 298 с.
4. **Вербицкий, А. А.** Контекстное обучение и цифровые технологии в формировании профессиональных и гражданских компетенций. — Москва: Издательство «Педагогика», 2021. — 320 с.
5. European Commission. *Digital Competence Framework for Citizens (DigComp) 2.1: The Digital Competence Framework for Citizens with eight proficiency levels and examples of use. — 2017.*
6. European Commission. *Digital Education Action Plan 2021–2027.* — Европейская Комиссия, 2020.
7. Приенски, М. Цифровое поколение и трансформация образовательных подходов. — Москва: Издательство «Образование и технологии», 2010. — 280 с.
8. Положение о компетентностном подходе в образовании. — Министерство народного образования Республики Узбекистан, 2022. Источник: Официальный сайт Министерства народного образования.
9. **Роберт, И. В.** Педагогические аспекты информатизации образования и влияние цифровой среды на развитие личности. — Екатеринбург: Издательство «Уральский педагогический журнал», 2022. — 310 с.
10. Салиева, Заррина. «Развитие ИКТ-компетенций в цифровую эпоху: направления в сфере высшего образования.» *Лингвоспектр* 2, №1 (2025): 344–349.
11. Соколова, Е. И. «Digital competence and technology in education (according to the materials of the European Commission).» *Непрерывное образование: XXI век* (2020).
12. Концепция цифровой трансформации образования в Республике Узбекистан. — Утверждена постановлением Кабинета Министров Республики Узбекистан, 2021. *Источник: Официальный интернет-портал правительства Республики Узбекистан.*
13. Национальная стратегия развития науки и технологий Республики Узбекистан до 2030 года. — Утверждена постановлением президента Республики Узбекистан, 2019. *Источник: Министерство инновационного развития Республики Узбекистан.*
14. Учебный план и стандарты общего среднего образования Республики Узбекистан. — Министерство народного образования Республики Узбекистан, 2023. *Источник: Официальный сайт Министерства народного образования.*
15. ЮНЕСКО / IITE. *Вебинар «Цифровые компетенции для цифровых университетов».* UNESCO-IITE, 2021.

“BLUM TAKSONOMIYASI” DAN FOYDALANIB FUQAROLIK HUQUQIY KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISH

Dauletbaeva Jadiraxan Aliy qizi
Nukus davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.18279922

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o‘quvchilarda fuqarolik huquqiy tarbiyani shakllantirishda Blum taksonomiyasining o‘rni, huquqiy madaniyatni shakllantirishning samarali usullari bayon qilingan. Ta’lim tizimidagi huquqiy tarbiyani nazariya bilan amaliyotni bog‘lashd, o‘quvchilar bilimini chuquqrlashtirishda Blum taksonomiyasining o‘rni beqiyos.*

Kalit so‘zlar: *Konstitutsiya, fuqarolik tarbiya, Blum taksonomiyasi, huquqbuzarlik, texnologiya, metodlar, huquqiy ong va huquqiy madaniyat.*

Аннотация. *В данной статье изложена роль таксономии Блюма в формировании гражданского правового воспитания читателей, эффективные методы формирования правовой культуры. Связывая правовое воспитание в системе образования с теорией и практикой, роль таксономии Блюма в углублении знаний учащихся неоценимация*

В данной статье изложена роль Блюма в формировании гражданского правового воспитания читателей, эффективные методы форм правовая культура

Annotation. *This article describes the role of Blum taxonomy in the formation of civil legal education in readers, effective methods for the formation of legal culture. The role of Blum taxonomy in the deepening of students ' knowledge is incomparabletion*

This article describes the role of Blum taxonomy in the formation of civil legal education in readers, effective m culture.

Kirish

Fuqarolik-huquqiy tarbiya — o‘quvchilarga o‘z huquq va burchlarini bilishi, qonunga itoatkorlik, jamiyatga mas’uliyat bilan yondashish ko‘nikmalarini shakllantirish jarayonidir. Uni samarali olib borishda o‘quv jarayonini tizimlashtirish va bosqichma-bosqich rivojlantirish juda muhim. **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-apreldagi PF-6079-son "O‘zbekiston Respublikasi ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida"gi Farmoni** ta'lim sohasida tub islohotlarni amalga oshirish dasturini belgilab berdi. Konsepsiyada "...ta'lim muassasalarida o‘quvchilarning bilim olish jarayoniga qiziqishini oshirish, ularning tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirish..." ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilangan. Huquqiy tarbiya aynan shu kompetentsiyalarni rivojlantirishning muhim vositasi hisoblanadi

Talimda metodlarning asosiy maqsadi oddiylikdan murakkab tushunchalargacha bo‘lgan yo‘lni muvaffaqiyatli bosib o‘tishni va samarali talimni taminlashdan iborat. Huquqiy tushuncha va masalalar o‘quvchilarda eslab qolishi va qo‘llanilishi uchun murakkablik tug‘dirdi. Buning asosiy sababi yuridik terminlar va Konstitutsiya moddalari, Kodekslarning ko‘pligi va xilma-xilligidir. Blum taksonomiyasi bu borada eng qulay pedagogik yondashuvlardan biridir.

Metodlar

Bugungi globallashuv sharoitida har bir inson har kuni yuzlab axborotlar bilan tanishadi. Bu ma’lumotlarning esa ko‘lami va turlarining sanog‘i yo‘q. Bunday axborotlashgan davrda o‘quvchilarda huquqiy ma’lumotlarni tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish huquqiy bilimlar, huquqiy ong va madaniyatni shakllantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shaxsning huquqiy savodxonligi jamiyat barqarorligini ta’minlashda muhim omil bo‘lib, unga erishish uchun ta’lim jarayonida innovatsion pedagogik metodlardan foydalanish zarur. Shulardan biri — Blum taksonomiyasidir.

Blum taksonomiyasi (inglizcha: *Bloom's taxonomy*) 1956-yilda Benjamin Bloom rahbarligidagi pedagoglar guruhi tomonidan ishlab chiqilgan ta’lim maqsadlarini tasniflash tizimi hisoblanadi. Bu tizim dastlab „Ta’lim maqsadlari taksonomiyasi: Ta’lim maqsadlarining tasnifi“ (inglizcha: *„Taxonomy of Educational Objectives: The Classification of Educational Goals“*) nomli nashrda taqdim etilgan. Taksonomiya o‘quv maqsadlarini uchta keng sohaga bo‘ladi: kognitiv (bilimga asoslangan), affektiv (hissiyotga asoslangan) va psixomotor (harakatga asoslangan). Bu sohalarning har biri o‘z navbatida ko‘nikma va qobiliyatlar ierarxiyasiga ega. Pedagoglar ushbu sohalardan turli xil ta’lim turlarini rivojlantirish maqsadida o‘quv dasturlari, baholash usullari va o‘qitish metodlarini tuzishda foydalanadilar.[123]

Huquqiy tarbiya jarayonida mazkur taksonomiyaning aynan kognitiv bosqichlari muhim metodologik ahamiyatga ega bo‘lib, ular shaxs bilimining bosqichma-bosqich shakllanishini ta’minlaydi. Taksonomiyada o‘quvchilar bilimini quyi darajadan yuqori darajagacha olib chiqadi va 6 bosqichdan iborat.

Huquqiy ta’limda Blum taksonomiyasining qo‘llanilishi

1. Eslab qolish (Bilish) darajasi bu darajada o‘quvchilar o‘quv materialining asosiy elementlarini va tushunchalarni o‘rganadi va eslab qoladi. Bu bosqichda o‘quvchilar asosiy huquqiy tushunchalar, qonunlar, normalar va fuqarolarning huquq va majburiyatlarini o‘rganadi va eslab qoladi**. Masalan:** O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida Fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklarini eslab qolish. **Eslab qolish bosqichi uchun O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 25- moddasi Yashash huquqi, 50-moddasi Bilim olishning kafolatlanishi singari moddalarni o‘rgatib test topshiriqlari y oki savol- javob orqali bilimlarni tekshirish talab etiladi.**

2. Tushunish darajasi- bu talim oluvchilarning qoidalar, jadvallar, vchizmalarni tushunish va o‘z so‘zlari bilan tushuntira olish darajasi. O‘quvchilar huquqiy ma'lumotlarni o‘z so‘zlari bilan ifodaladi va tushuntira oladi: Huquqiy normalardagi ma'nolarni tushuntira olish, Qonun moddalarini sodda tilda izohlash. Misol: 25- modda Yashash huquqi har bir insonning ajralmas huquqidir va u qonun bilan muhofaza qilinadi. Inson hayotiga suiqasd qilish eng og‘ir jinoyatdir. O‘quvchi bun I o‘z so‘zi bilan tushuntirib beradi. 50-moddaning normalarini tushuntira olish kerak ya’ni umumiy o‘rta ta’limning bepulligi, maktabgacha ta’lim va tarbiya, inklyuziv ta’lim singari normalarning mohiyatini anglay olishi kerak. Bunda “ Aqliy hujum”, “Insert” metodlaridan foydalanib tushinish darajasining bajarilganligi nazorat qilish maqsadga muvofiq.

3. Qo‘llash darajasi- bu darajada olingan bilimlarni an’anaviy va noananaviy tanish bo‘lmagan holatlarda ham qo‘llana olish darajasi bo‘lib bu o‘quvshining nazariy bilimini qo‘llash va muammoni hal qilish kabi amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan.

[123] https://uz.wikipedia.org/wiki/Blum_taksonomiyasi

O‘rgangan huquqiy bilimlarni amaliy vaziyatlarda qo‘llashda kundalik hayotdagi vaziyatlarga huquqiy normalarni tatbiq etish,shaxsiy huquqlarini himoya qilish yo‘llarini bilish: O‘quvchilarga fuqarolik huquqiy tarbiya berishdan asosiy maqsad ularni kelajakda huquqiy madaniyatli, siyosiy faol va jamiyat va davlat kelajagiga daxldor shaxslar qilib tarbiyalashdir. Bunda bilimlarga tayanib o‘z huquqlarini himoya qilish, real vaziyatlarda huquqlardan foydalanishda qarshilik tug‘ilsa huquqlarini himoya qilish yo‘llarini bilish qo‘llash darajasini ko‘rsatib beradi. O‘quvchilar o‘zlashtirganlik darajasini baholashda “FSMU” va Rolli- o‘uinli texnologiyasidan foydalanish mumkin.

4. Tahlil qilish darajasi-bu daraja o‘quvchidan butunni qisimlarga ajratib tahlil qilish, faktlar va natijalarni taqqoslash, solishtirish, tizimlashtirish singari murakkab jarayonni talab qiladi. Masalan : Huquqiy vaziyatlarni tahlil qilish va ularning tarkibiy qismlarini ajratishda huquqiy muammolarni aniqlash va tahlil qilish, huquqbuzarliklarning sabab va oqibatlarini o‘rganish, turli huquqiy manbalardagi ziddiyatlarni topish. Bu darajada o‘quvchilar faoliyatini baholashda “Venn diagrammasi” metodidan foydalanish mumkin. Bunda huquqiy manbalardagi farqalar va umumiy jihatlarni solishtirish orqali fikrlar teranlashib zaif tomonlar va kuchli tomonlari namoyon bo‘ladi.

5. Baholash darajasidagi tafakkur o‘quvchida olingan malumotlarni tashxislash, isbotlash, ma’lumotlar muvofiqligini baholashni ko‘zda tutadi. Huquqiy qarorlar va vaziyatlarni tanqidiy baholash: **s**udlov qarorlarini asoslash yoki rad etish**,** Huquqiy-axloqiy muammolarga oid fikr bildirish. “Fuqarolar qonun bilan belgilangan soliqlar va yig‘imlarni to‘lashi shart. Soliq va yig‘imlar adolatli bo‘lishi hamda fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirishiga to‘sqinlik qilmasligi kerak.” Ozbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 63- modda. O‘quvchilarga qonun hujjati va bunga rioya etilmagan vaziyatlar haqidagi ma’lumotlar berilib, huquqiy qaror va axloqiy qonunga zid harakatlarni huquqiy baholashda “Nima uchun” chizmali organayzeridan foyadalanish samarali hisoblanadi.

6. Yaratish darajasi- bu daraja o‘quvchidan ijodiy fikrlash, tajribalar o‘tkazish va yangi faoliyat yaratishni talab etadi. Bu bosqich bir necha sohalardagi bilimlardan foydalanishni talab qiladi va g‘oya va mulohazalar birlashtiriladi. Natijada yangi yechim, g‘oya shakllanadi. Bu daraja yaratish ko‘nikmasini shakllantirish bo‘yicha o‘quv maqsadlarini amalga oshirishga qaratilgan. Huquqshunoslik fani misolida yangi g‘oyalar va yechimlar ishlab chiqish: huquqiy muammolarni hal qilish bo‘yicha takliflar berish, ijtimoiy loyihalar orqali huquqiy madaniyatni oshirish mumkin. O‘quvchilardan muammoga kreativ yechim topishga va loyihalar ustida ishlashga yo‘naltirish.

Natijalar

Huquqiy tarbiyaning insonlar ongidan joy olishi degani huquq to‘g‘risidagi o‘z qarashlariga ega bo‘lish, shaxsiy, ijtimoiy va siyosiy huquqlarini bilishi, undan foydalana olishi, qanday erkinliklari va burchlari borligidan xabardor bo‘lishi kerakligi hamdir. Insonlarning huquqiy madaniyatga ega bo‘lishi ongli ravishda jamiyatda qonuniy-noqonuniy degan tushunchalarni anglashi huquqbuzarliklarning oldini olishga va adolatsizlikka qarshi kurashishga olib keladi. Jamiyatimiz a’zolarining dunyoqarashi qonuniylik asosida ya’ni qonunlarga rioya qilish ularni hurmat qilish kabi tushunchalar singdirilgan bo‘lsa bu maqsadga erishish ancha oson kechadi. Huquqiy tarbiyaning real hayot bilan hamohangligi tushunchasi mazmuniga kelsak, huquqiy tarbiya olgan inson uni hayotida ham qo‘llay olishi kerak. Aynan amaliyot bo‘lganda bilim mustahkamlanadi, tajriba ortadi. Huquqiy bilimlarni anglaganimizda huquqiy ong, ularni amalda qo‘llash natijasida esa huquqiy madaniyat shakllanadi. Blum taksonomiyasini

qo‘llagan holda o‘qitishda erishili mumkin bo‘lgan yutuqlarni ikkiga bo‘lish mumkin: birinchisi — o‘quv maqsadlarini aniq va natijaga qaratilgan holda belgilanishi; ikkinchisi — o‘quvchilarda egallaniladigan nazariy bilimlar bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish hamda rivojlantirishga erishish[124]

Blum taksonomiyasi singari huquqiy ongda ham quyidagi besh elementni ajratib ko‘rsatish mumkin: huquqni bilish (Bilish); huquq haqidagi tasavvur (Tushinish); amaldagi huquqqa munosabat (Qo‘llash); huquqqa qo‘yiladigan talablar (Tahlil); huquqiy ko‘rsatmalarning ijro etilishiga munosabat (Baholash). Ularning hammasi bir-biri bilan o‘zaro chambarchas bog‘langan va o‘zaro aloqadorlikdadir.[125] **Fuqarolik huquqiy tarbiyani shakllantirishda Blum taksonomiyasidan foydalanish ta’lim jarayonida yuqori natijaga erishishda samarali usul hisonblanadi.**

Xulosa

Blum taksonomiyasi fuqarolik huquqiy tarbiyasini tizimlashtirish va samaradorligini oshirish uchun qimmatli vosita hisoblanadi. Uning to‘g‘ri qo‘llanilishi o‘quvchilarning nafaqat nazariy bilimlarini, balki amaliy ko‘nikmalarini ham rivojlantirishga yordam beradi. Ta’lim tarbiya murakkab va ko‘ qirrali jarayon hisoblanib, o‘rgatish, namuna ko‘rsatish, bilim berish singari faoliyatlar orqali o‘quvchilar ongiga singdiriladi. Huquqiy madaniyatni shakllantirish uzoq muddatli jarayon bo‘lib, u izchil va maqsadga yo‘naltirilgan yondashuvni talab qiladi. Blum taksonomiyasidan foydalanish bu jarayonni yanada samarali va natijador qilishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 01.05.2023 https://lex.uz/docs/-6445145
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 29.04.2019 yildagi PF-5712-son O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida
3. Шукуров Ёркин Алиджанович O‘quv maqsadlarini ifodalashda Blum toksionomiyasidan samarali foydalanishning innovatsion usullari https://moluch.ru/archive/333/74336
4. B.X.Xodjayev umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti «Sano-standart» nashriyoti Toshkent – 2017
5. Huquqiy madaniyatning yuksalishida tarbiyaning o‘rni Turg‘anbayeva Indira Janabayevna https://conferences.uz/plugins/themes/bootstrap3/pdf/conf_64_2024/May_conf_2024_64_2.pdf
6. https://uz.wikipedia.org/wiki/Blum_taksonomiyasi

[124] Шукуров Ёркин Алиджанович O‘quv maqsadlarini ifodalashda Blum toksionomiyasidan samarali foydalanishning innovatsion usullari https://moluch.ru/archive/333/74336

[125] HUQUQIY MADANIYATNING YUKSALISHIDA TARBIYANING O‘RNI Turg‘anbayeva Indira Janabayevna https://conferences.uz/plugins/themes/bootstrap3/pdf/conf_64_2024/May_conf_2024_64_2.pd

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING TASHQI IQTISODIY TASHABBUSLARI: AFG‘ONISTON MISOLIDA

Abdurasulov Javlon
Millat Umidi universitetining O‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i,
JIDU tadqiqotchisi, ORCID 0009-0006-1553-1471,
https://doi.org/10.5281/zenodo.18279958

Aabstrakt. *Mazkur maqolada XXI asr boshlarida Afg‘onistonda yuzaga kelgan murakkab siyosiy vaziyat sharoitida O‘zbekistonning tashqi iqtisodiy tashabbuslari tahlil qilinadi. Tadqiqotda Afg‘onistonga nisbatan O‘zbekiston tashqi siyosatida shakllanayotgan yangi yondashuvlar, xususan, transport-kommunikatsiya, savdo-logistika va energetika sohalaridagi hamkorlik loyihalari kompleks o‘zaro bog‘liqlik nazariyasi asosida yoritib beriladi. Hayraton–Mozori Sharif temir yo‘li, “Termiz–Mozori Sharif–Kobul–Peshovar” transafg‘on temir yo‘l loyihasi, “Surxon–Puli Xumri” elektr uzatish liniyasi hamda Termiz xalqaro savdo markazi misolida infratuzilmaviy hamkorlikning mintaqaviy barqarorlik va iqtisodiy integratsiyaga ta’siri baholanadi. Tadqiqot natijalari O‘zbekiston tashabbuslari Afg‘onistonni xavfsizlikka tahdid manbai sifatida emas, balki Markaziy va Janubiy Osiyoni bog‘lovchi geoiqtisodiy imkoniyatlar makoni sifatida shakllantirishga xizmat qilayotganini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *O‘zbekiston tashqi siyosati, Afg‘oniston, transport koridorlari, kompleks o‘zaro bog‘liqlik, infratuzilma, mintaqaviy integratsiya.*

Kirish. XXI asr boshlarida Afg‘onistonda yuzaga kelgan murakkab siyosiy vaziyat mintaqaviy va xalqaro tinchlik hamda xavfsizlikni ta’minlash yo‘lidagi eng dolzarb masalalardan biri sifatida saqlanib qolmoqda. Xususan, keskin global raqobat sharoitida O‘zbekiston tashqi siyosatining dastlabki bosqichlaridanoq dunyo hamjamiyatining e’tiborini Afg‘oniston masalasiga qaratishga intilib, “Afg‘onistonda tinchlik va barqarorlikni ta’minlash nafaqat Markaziy Osiyo, balki butun dunyo xavfsizligi uchun muhim omil” ekanini xalqaro maydonda isbotlashga harakat qilib kelmoqda. Bugungi kunda O‘zbekiston va Afg‘oniston o‘rtasidagi munosabatlarning holati va istiqbollari soha tadqiqotchilari uchun dolzarb mavzulardan biriga aylangan. Shu bilan birga, so‘nggi yillarda yetakchi siyosatshunoslar orasida Afg‘onistonga endilikda mintaqaviy va xalqaro xavfsizlikka tahdid manbasi sifatida emas, balki Markaziy va Janubiy Osiyo rivojlanishida muhim imkoniyatlar yaratadigan omil sifatida qarash tendensiyasi keng tarqalayotgani kuzatilmoqda. Ayniqsa, ushbu yo‘nalishda mavjud muammolarni samarali hal etish mexanizmlarini ishlab chiqish masalalari yirik xalqaro anjumanlarda faol muhokama qilinmoqda. Ushbu maqsadlarda O‘zbekiston afg‘on zaminida bir qancha infratuzilmalarni yaxshilashga qaratilgan loyihalarni bir necha yildan beri amalga oshirishga harakat qilinmoqda.

Robert Keoxeyn hozirgi globallashuv sharoitida kompleks o‘zaro bog‘liqlik nazariyasi O‘zbekiston tashqi siyosatida ishlayabdi deb ayta olishimiz mumkin. Davlat rahbarlarimizning tashabusslari bilan afg‘on diyoridagi transport koridorlar loyihalarini ishga tushirish ushbu nazariyaga tayanib tushuntirib berish qulay bo‘ladi. Xalqaro munosabatlarda davlatlar keskinlikka emas, balki bir-biriga dahldorlik, o‘zaro ishonch va o‘zaro manfaat aloqalariga asoslanishi ko‘zda tutilgan. Bu nazariyani globalizm sharoitida davlatlar orasidagi iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy aloqalarni tushunish uchun ishlatdilar. Bu nazariyaga ko‘ra:

- Davlatlar bir-biridan turli jihatlarda (savdo, transport, energetika, infratuzilma) bog‘liq bo‘ladi;
- Bog‘liqlik oshganda, konflikt ehtimoli kamayadi, chunki har bir tomon uchun ziyon yetishi ehtimoli ortadi;
- Diplomatik va institutlararo hamkorlar muhim ahamiyatga ega, chunki nizolarni hal qilishda ular oraliq vosita bo‘ladi[126].

Ikki davlat o‘rtasidagi infratuzilmaviy loyihalar aynan shunday o‘zaro bog‘liqlikni chuqurlashtiruvchi vositalardan biridir. Ular iqtisodiy almashinuvni osonlashtiradi, transport xarajatlarini pasaytiradi, hududiy integratsiyani kuchaytiradi va barqarorlik uchun platforma yaratadi.

Transport komunikastsiya sohasidagi hamkorlik. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030 strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasining “Markaziy Osiyo mintaqasida amaliy hamkorlikni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish» nomli 91-maqsadida “Afg‘oniston bilan ko‘p qirrali va o‘zaro foydali munosabatlarni rivojlantirish, uning iqtisodiy tiklanishiga yaqindan ko‘maklashish, transport-tranzit salohiyatini ro‘yobga chiqarishga hissa qo‘shish” vazifasi alohida belgilangani ayni muddaodir[127]. Shu bilan birga PF-60 2022-yil “2022 - 2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da belgilangan MO mintaqasida barqarorlik va afg‘on muammosini hal etish bo‘yicha vazifalarni doirasida 82-maqsadida “Dunyo hamjamiyati va mintaqaviy tashkilotlar e’tiborini Afg‘onistonda tinchlik va hamjihatlikni ta’minlashga jalb qilish borasidagi tashabbuslarni jadallashtirish va ushbu mamlakatni mintaqaviy hamkorlik jarayonlariga, shu jumladan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishga jalb qilish” Afg‘onistonda barqarorlikni ta’minlashda ayni muddao bo‘ladi. 2025-yil 9-oktabr kuni Dushanbe shahrida bo‘lib o‘tgan “Markaziy Osiyo - Rossiya” sammitida O‘zbekiston rahbari mamlakatlar tranzit-transport salohiyatidan, eng avvalo, “Shimol - Janub” yo‘lagi doirasida samarali foydalanish g‘oyat muhim ekanini ta’kidlagani[128], transport yo‘laklarining mintaqaviy barqarorlikda muhim ahamiyatga egaligidan dalolat beradi. Bu, albatta, institutsional liberalizm hamda kompleks o‘zaro bog‘liqlik nazariyalariga mos tushishi bilan o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Hayraton – Mozori Sharif temir yo‘li loyihasi. Ushbu temir yo‘lning uzunligi 75 km bo‘lib, umumiy qiymati 129 million AQSh dollarini tashkil etdi[129]. Temir yo‘l kengligi **1,520 mm** bo‘lib, u sovet standarti bo‘yicha qurilgan. Ushbu o‘lcham O‘zbekiston uchun ham imkoniyat va noqulaylik tug‘dirishi mumkin. Qulay tomoni shuki, MDH mamlakatlari bilan savdo-sotiqni arzon narxlarda amalga oshirish imkonini beradi. Ikkinchi tomondan, ushbu yo‘l kengaytirilsa, Eron standartlariga (1 435 mm) mos kelmasligi yuk tashishdagi xarajatlarning oshishiga olib keladi.

---

[126] “Об интеграции и комплексной взаимозависимости о взаимопроникновении внутренней и международной политики” сидоров Сергей Александрович DOI 10.47643/1815-1337_2023_4_103 file:///C:/Users/CICAdmin/Downloads/ob-integratsii-i-kompleksnoy-vzaimozavisimosti-i-vzaimoproniknovenii-vnutrenney-i-mezhdunarodnoy-politiki.pdf

[127] 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030 strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni

[128] Mintaqaviy xavfsizlik, savdo va energetika. Shavkat Mirziyoyevning “MO- Rossiya” sammitidagi nutqi 2025-yil oktabr https://www.gazeta.uz/oz/2025/10/09/summit/

[129] **“21st International Exhibition Transport and Logistics – TransLogistica Uzbekistan 2025” https://trans.uz/en/news/uzbekistan-railways-completes-restoration-of-hairatan-naibabad-mazar-i-sharif-railway-line-in-afghanistan?utm_source=chatgpt.com 11 - 13 November 2025 trans.uz**

Loyiha qurilishi 2010-yillarda Osiyo Taraqqiyot Banki mablag'larini jalb qilgan holda amalaga oshirilgan. Hozirgi kunda ushbu loyiha yordamida bir oylik o'rtacha daromad (yuk tashishdan keladigan) $2,5-4 million atrofida bo'lsa,[130] **bugungi kunda 1 200 yaqin odamlar ish bilan ta'minlangan.**

Ushbu yo'l xalqaro yuk tashish hajmini (yiliga taxminan 3 million tonna) oshirishning muhim omiliga aylandi. Kelajakda umumiy uzunligi 2 ming km bo'lgan "Mozori Sharif - Kobul - Qandahor - Hirot" yo'nalishida temir yo'l qurilishi va uni Mozori Sharifga qayta ulash rejalashtirilgan edi. Ushbu loyiha Yevropadan Hindiston, Xitoy, Eron va Pokistonga chiqish imkonini beradigan Trans-afg'on avtomobil transporti koridorining temir yo'l analogini yaratishga imkon bergan bo'lardi. Loyiha qiymati taxminan 3 milliard AQSh dollarini tashkil etgan. Afg'oniston iqtisodiyoti o'sishini va ayniqsa, mamlakat ichidagi sanoat ishlab chiqarishini sekinlashtirayotgan asosiy muammolardan biri infratuzilmaning – transport kommunikatsiyalari, suv va energiya ta'minoti tarmoqlarining yetishmasligidir. Shu nuqtai nazardan, Afg'oniston hududi orqali temir yo'l qurilishi loyihasi muhim ahamiyat kasb etdi. Afg'onistonlik mahalliy ekspertlar tomonidan bildirilgan fikr-mulohazalarga ko'ra, Afg'oniston dengizga chiqish imkoniyati bo'lmagan tog'li mamlakat bo'lib, uzoq yillar davomida savdo va sayohatlar uchun asosan avtomobil transportiga tayanib kelgan. Biroq so'nggi yillarda temir yo'l tarmog'ini keng miqyosda rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan sa'y-harakatlar mamlakatning transport infratuzilmasini tubdan o'zgartirish, savdo aloqalarini kuchaytirish va mintaqaviy integratsiyani oshirishga xizmat qilmoqda[131]. Qo'shni davlatlar va xalqaro tashkilotlarning ko'magida amalga oshirilayotgan Afg'oniston temir yo'lini rivojlantirish loyihasi mamlakat iqtisodiyotini barqarorlashtirish hamda uzoq muddatli o'sish imkoniyatlarini yaratish yo'lidagi muhim qadamlardan biri sifatida ko'rilmoqda. Tahlillarimizga ko'ra, O'zbekiston va Afg'oniston tomonlari bunday loyihalarni amalga oshirishdan birdek manfaatdor. Eng asosiy kun tartibidagi masala Afg'onistonda barqarorlik o'rnatilishi hamda barqaror hukumat shakllanishidir.

- "Termiz – Mozori Sharif – Kobul – Peshovar" temir yo'li. Ushbu loyiha taxminan 4-6 milliard AQSH dollar atrofida baholangan. O'zbekiston, Afg'oniston va Pokiston hududlarini bog'laydigan temir yo'l koridori. Loyiha Termez'dan boshlanib, Mozori-Sharif, Kobul orqali Pokistonda Peshavargacha bo'lgan masofani ichiga oladi. 2021-yilda O'zbekiston, Afg'oniston va Pokiston o'rtasida ushbu liniyani rejalashtirish hamda qurish bo'yicha shartnomalar tuzilgan. Loyiha uzunligi taxminan 573 km bo'lishi rejalashtirilgan. Qurilish ishlar 2027–2030 yillar orasida yakunlanishi rejalashtirilmoqda. Afg'oniston yo'llaridan o'tadigan hududlarda xavfsizlik va siyosiy barqarorlik muammolari katta muammo. Ushbu vaziyatga qaramasdan O'zbekiston tomonidan Afg'onistonni qayta tiklash dasturi doirasida "Mozori Sharif – Kobul" yo'nalishida 11 ta ko'prik qurildi.

Xususan, Suhrob Bo'ronov transport koridorlari haqida "O'zbekiston eng yaqin bandargohlarga chiqishida Afg'oniston muhim o'rin egallaydi. Shu nuqtay nazardan Trans-afg'on transport yo'lagi (Termiz – Mozori Sharif – Kobul – Peshovar) strategik jihatdan dolzarb loyiha hisoblanadi. Mazkur tashabbus gumanitar inqirozni boshdan kechirayotgan afg'on xalqiga qo'shimcha ish o'rinlari yaratish barobarida Markaziy va Janubiy Osiyoni bog'lab, tarixiy savdo

[130] "ARA to Manage Hairatan-Mazar Railway" https://tolonews.com/business-177599?utm_source 16.04.2022 Tol news

[131] "Afghanistan's Railway Development: A Path to Economic Integration and Growth" 18.10.2025 https://www.alemarahenglish.af/afghanistans-railway-development-a-path-to-economic-integration-and-growth/

aloqalarini tiklashga imkon yaratadi”[132]. Jumladan, bu borada Shavkat Mirziyoyevning “Markaziy va Janubiy Osiyo: mintaqaviy o‘zaro bog‘liqlik. Tahdidlar va imkoniyatlar” mavzusidagi xalqaro konferensiyada temir yo‘l tarmog‘i mintaqalarimiz o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik arxitekturasining asosiy bo‘g‘iniga aylanishiga ishonch bildirgan edi[133]. Bizga o‘zbek siyosiy maktab vakillari hamda davlatimizning yuqori lavozim vakillarining qarashlari bir xil ekanligi ilmiy xulosalar asosida hamohang qarorlar qabul qilinayotganligidan dalolat beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti direktori Aripov Eldor transchegaraviy loyihalarning Afg‘onistondagi barqarorlikdagi ro‘lini baholar ekan u “Afg‘oniston, Markaziy va Janubiy Osiyoni bog‘lovchi halqa sifatida, endilikda navbatdagi harbiy to‘qnashuvlar maydoni emas, balki o‘zaro manfaatli mintaqalararo hamkorlik timsoliga aylanmoqda. “Mo‘zarisharif – Peshovar” temiryo‘lining ishga tushirilishi Markaziy va Janubiy Osiyo davlatlari uchun inklyuziv iqtisodiy rivojlanishni ta’minlaydigan kuchli platforma yaratadi”[134]. Fikrimizcha, loyiha ijtimoiy-iqtisodiy ko‘paytiruvchi ta’sirga ega bo‘lib, yangi ish o‘rinlari yaratilishi, yo‘l bo‘yi infratuzilmaning qurilishi va temiryo‘l yo‘nalishi bo‘ylab boy foydali qazilma zaxiralarini o‘zlashtirish uchun sharoitlar yaratilishiga olib keladi. Faqatgina temiryo‘lning o‘zi qurilishida 264 ta ko‘prik, 7 ta tonnel, 641 ta suv o‘tkazuvchi inshoot barpo etilishi rejalashtirilgan. Infrastrukturaviy loyihalarda O‘zbekiston ishtirok etishi ikki mamlakat o‘rtasidagi taxminiy xavflarni iqtisodiy imkoniyatlarga aylanishiga olib keladi.

Shuni aytish joizki, Afg‘onistonda tinchlik o‘rnatilish hamda yangilangan tashqi siyosiy yondashuvlar borasida O‘zbekiston Oliy Majlisi Senati raisining birinchi o‘rinbosari va JIDU rektori Sodiq Safoyevning fikricha, “Markaziy Osiyodagi geosiyosiy va geoiqtisodiy sharoit batamom o‘zgaradi. Bu holatda Trans-afg‘on yo‘lagi ochilishi va O‘zbekiston uchun eng yaqin dengiz portiga hozirgiday 22 kunda emas, 2-3 kun muddatlarda yetish imkoni paydo bo‘ladi”. Shu jumladan, Safoevning BMT tadqiqotlariga tayanib aytishicha, “quruqlik va havo orqali yuk tashish xarajatlari yuqori bo‘lgani uchun O‘zbekistonning import-eksport amaliyotlarining o‘rtacha narxi 15-20%, ba’zi hollarda esa 70 foizgacha oshadi”.[135] Ma’lumki, O‘zbekiston dengizga chiqishi uchun kamida ikkita davlat hududidan o‘tishi kerak bo‘lgan dunyodagi ikki davlatdan bittasidir. Afg‘onistonda barqarorlikning ta’minlanishi arzon dengiz yo‘llaridan kamida 3 ming km. uzoqlikda joylashgan O‘zbekistonga katta miqdordagi mablag‘ni tejash va tashqi savdoni rivojlantirish imkonini beradi. Demak, bizga katta iqtisodiy manfaat keltiradigan hududda tinchlikni o‘rnatishga hissa qo‘shish biz qo‘shnilarning ham asosiy qo‘shnilik burchimizdir.

Iqtisodiy komunikatsiya hamkorlik. 2024-yil 13-may kuni “Termiz xalqaro savdo Markazi” faoliyatini yo‘lga qo‘yish va rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi PQ-176-sonli qaroriga muvofiq 2024- yilning avgust oyida savdo markazi rasman ochildi. Ushbu qarorga muvofiq, O‘zbekistonga kirish vizasini rasmiylashtirmasdan, chegara va bojxona nazoratidan o‘tgan holda **maxsus yo‘lak orqali kirishi (chiqishi)** hamda **15 kun davomida** markaz hududida bo‘lishi tartibi joriy etiladi. U yerda tadbirkorlar uchun qulay sharoitlar, jumladan, 15 kunlik vizasiz tartib va soliqdan ozod hudud maqomi mavjud, erkin

[132] Bo‘ronov S. “Transafg‘on transport yo‘lagi Markaziy va Janubiy Osiyo tarixiy savdo aloqalarini tiklaydi” 2025 p
[133] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Markaziy va Janubiy Osiyo: mintaqaviy o‘zaro bog‘liqlik. Tahdidlar va imkoniyatlar” mavzusidagi xalqaro konferensiyadagi nutqi. 16- iyul 2021y. https://president.uz/uz/lists/view/4484
[134] “Мазари-Шариф – Пешавар”: коридор в новое будущее Централной и Yжной Азии. -С.1-4. https://isrs.uz/ru/page/pdf/mazari-sarif-pesavar-koridor-v-novoe-budusee-centralnoj-i-uznoj-azii
[135] Safoyev S. “Afg‘onistonda gumanitar inqirozning oldini olish” Toshkent 2021 -B. 3

savdo zonasida ulgurji va chakana savdo uchun to‘lov sifatida AQSH dollari, yevro, Rossiya rubli va yuan valyutalarini qabul qilishga ruxsat berildi[136]. Mazkur markazning yillik savdo aylanmasi $1,2 milliardga yetishi kutilmoqda.

O‘zbekiston yuk tashuvchilari uchun Afg‘onistonda undiriladigan yig‘im miqdori kamaytirildi. Qayd etilishicha, o‘zbek haydovchilaridan mamlakat hududida undiriladigan yig‘imlar 6 500 Afg‘oni miqdorida (taxminan 99 dollar) kamaytirildi. Jumladan, Amudaryo ko‘prigidan o‘tish uchun avval 12 000 Afg‘oni (taxminan 182 dollar) miqdorida undiriladigan yig‘im 2024-yilning 28-sentabrdan 7 000 Afg‘oni (taxminan 106 dollar) etib belgilandi. Afg‘onistonga yuk avtotransport vositasini kirishi uchun avval 5 000 Afg‘oni (taxminan 76 dollar) miqdorida undiriladigan yig‘im esa 3 500 afg‘oni (taxminan 53 dollar) etib belgilandi. Afg‘oniston Markaziy va Janubiy Osiyoni bog‘lovchi mintaqaviy aloqa tarmog‘ining muhim bo‘g‘inidir. So‘nggi yillarda Afg‘oniston hududi orqali yuk tashish hajmi sezilarli darajada oshdi. Bu borada JIDU professori Xasanov U. Afg‘onistonda tinchlik o‘rnatish nafaqat ushbu mamlakat balki butun Markaziy Osiyo va Janubiy Osiyo uchun hayotiy zaruratdir. Barqaror va iqtisodiy jihatdan taraqqiy etgan Afg‘oniston – bu mintaqaviy hamkorlik, savdo va transport koridorlari rivojlanishi, umumiy xavfsizlik va farovonlik garovidir degan firklarni bildirgan[137]. 2023-yilda “O‘zbekiston–Afg‘oniston–Pokiston” multimodal transport yo‘lagi bo‘ylab yuk tashish hajmi 2021-yilga nisbatan 1,5 barobarga ko‘paydi. Afg‘onshunos Suhrob Bo‘ronov O‘zbekiston va Afg‘oniston o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy va transport munosabatlaridagi yangi yondashuvlarning hayotga tatbiq etilishi sezilarli o‘zgarishlarni boshlab berganiga ishora qilgandi[138]. Amaliy jihatlari ko‘plab jabhalarda namoyon bo‘lmoqda hamda keltirilgan statistik ma’lumotlarni nazariy dalillanganidan dalolat beradi.

Sh.Mirziyoyev tashabbusi bilan O‘zbekiston va Afg‘oniston chegarasida qurilgan Xalqaro savdo markazi mintaqadagi geosiyosiy barqarorlikni ta’minlashga beqiyos xizmat qilib kelmoqda hamda savdo sotiq va transport salohiyatini oshirishga xizmat qilmoqda. Markaziy Osiyo geosiyosiy va geoiqtisodiy rivojlanishida transport-logistik koridorlarning ahamiyati ortib bormoqda. Ushbu yo‘laklar orqali yuk tashish hajmining o‘sishi hamda zarur infrastrukturalarning yaratilishi Markaziy Osiyoni geostrategik markazga aylantirishga xizmat qilmoqda. Fikrimizcha, mintaqa barqarorligini ta’minlashi ichki va tashqi investitsiyani jalb qilinishga erishilishi bevosita geosiyosiy muammolarni o‘z-o‘zidan yechim topishiga olib keladi. Investitsiya qilgan davlatlar ushbu hududda geosiyosiy keskinliklarni yuz berishdan manfaatdor emas aksincha, barqarorlik va iqtisodiy integratsiya tarafdor bo‘lishi diqqatga sazovordir

2024-yil 7-avgust kuni “Xayraton–Naybobod–Mazori Sharif” temir yo‘li qayta tiklangan liniyasining faoliyati tiklanishi ikki davlat o‘rtasidagi munosabatlarni yanada mustahkamladi. Ushbu ishlar “O‘zbekiston temir yo‘llari” kompaniyasi tomonidan Afg‘on temir yo‘l boshqarmasi bilan tuzilgan shartnoma asosida amalga oshirildi. 75 km uzunlikdagi “Xayraton–Mazori Sharif” temir yo‘lining bir qismi bo‘lgan Naybobod stansiyasi mintaqadagi muhim logistika markazidir. Ushbu yo‘l dastlab 2010-yilda “O‘zbekiston temir yo‘llari” kompaniyasi tomonidan savdo aloqalarini rivojlantirish maqsadida qurilgan. Birgina, 2024-yilning avgust oyida Tomonlar o‘zbekistonlik mutaxassislar tomonidan 100 nafar afg‘on temiryo‘lchilarini

[136] 2024-yil 13-may kuni “Termiz Termiz Xalqaro Savdo Markazi” faoliyatini yo‘lga qo‘yish va rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi PQ-176-sonli qarori https://www.lex.uz/docs/-6921771

[137] Khasanov U., Gafarov I. Changing specifics of the regional development. UWED: International Affairs, Vol 7-8. 2023. -P. 33-34.

[138] Бўронов С. “Афғонистонда тинчлик ва барқарорлик ўрнатиш жараёнларида Ўзбекистон геосиёсати” 2021 -Б.54. Буронов_С_афгонистонда _тинчлик_ва_баркарорлик_урнатиш_ жараёнларида (5).пдф

o'qitish va 500 afg'on talabalarini grant asosida qabul qilish bo'yicha kelishib olishgani hamkorlikni kengayayotganidan dalolat beradi.

Energetika sohasidagi hamkorliklar. "Surxon-Puli Xumri" elektr uzatish liniyasi. Loyiha bo'yicha elektr uzatish liniyasining umumiy uzunligi 245,6 km ni tashkil etadi. Shundan 45 km O'zbekiston hududiga, 200,6 km esa Afg'oniston hududiga to'g'ri keladi. Ushbu loyihaning 2022-yilning iyul oyida Afg'oniston hududidagi qiymati 100,1 million AQSH dollarga baholangan edi. Hozirgi kunga kelib O'zbekiston Afg'onistonni 25% elektr energiya bo'lgan ehtiyojini qoplab kelmoqda.

2024-yilning 17-dekabrda Afg'oniston milliy elektr kompaniyasi bosh direktori vazifasini bajaruvchi Abdul Bari Umar va "O'zenergosotish" kompaniyasi boshqaruvi raisi Jahongir Obidjonov Afg'onistonga energiya yetkazib berishni 2025-yil oxirigacha uzaytirish to'g'risidagi bitimni imzoladi. Ma'lumot uchun: O'zbekiston Afg'onitonga elektr energiyani "Surxon–Puli Xumri" elektr uzatish liniyasi orqali uzatib beriladi. Ma'lumotlarga ko'ra, ayni paytda Afg'onistonning elektr energiyasiga bo'lgan ehtiyojining qariyb 75 % qo'shni davlatlar hisobiga to'g'ri kelmoqda. Yetakchi iqtisodiy sohadagi energiya ta'minotchilari biri O'zbekiston bo'lib, Afg'oniston iqtisodiy barqarorligini o'rnatishda muhim ro'l o'ynab kelmoqda.

2025 yilning 17-avgust kuni Afg'onistonning Da Afghanistan Breshna Sherkat (DABS) energetika kompaniyasi va O'zbekiston elektr ta'minoti sohasida to'rtta loyiha bo'yicha shartnoma imzoladi. Ushbu loyihalar doirasida:

- Quvvati 1000 MVt bo'lgan 500 kV kuchlanishli Surxon -Dashti-Alvan elektr uzatish tarmog'ini quriladi;
- Quvvati 800 MVA (Magavatt amper) bo'lgan "Argandi" podstansiyasini kengaytiriladi;
- 220 kV kuchlanishli, quvvati 800 MVt bo'lgan Kobul -Shayx-Masri elektr uzatish tarmog'i;
- Nangarhorda quvvati 126 MVA bo'lgan Shayx-Mesri podstansiyasini quriladi.

O'zbekiston 18 oy ichida yakunlanishi rejalashtirilgan to'rtta loyihaga $243 mln sarmoya kiritadi. Bu orqali Afg'oniston O'zbekistondan 800−1000 MVtgacha elektr energiyasini import qilish imkoniyatiga ega bo'ladi[139].

2025-yilning yilning 6–7 sentyabr kunlari Kobul shahrida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqaviy tadqiqotlar instituti (ISRS) delegatsiyasi, birinchi direktor o'rinbosari Akramjon Ne'matov rahbarligida, Afg'onistonda "Investitsiyalarni jalb qilish va elektr energetikasi sohasini qo'llab-quvvatlash" mavzusidagi xalqaro konferensiyada ishtirok etdi.

Tadbirda so'zga chiqqan Afg'oniston hukumati iqtisodiy masalalar bo'yicha bosh vazir o'rinbosari **Abdul G'ani Barodar**, energetika mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishining asosiy tarmog'i ekanini ta'kidladi. U, ayniqsa, "mamlakatda gidroenergetika, shamol va quyosh energiyasi bo'yicha katta salohiyat mavjud, ushbu resurslardan samarali foydalanish Afg'onistonni elektr energiyasi bilan to'liq ta'minlash va eksportchi davlatga aylantirish imkonini beradi", deya qayd etdi[140]. Bizningcha, O'zbekiston va Afg'oniston o'rtasidagi

[139] "**Contracts for Four Power Projects Worth USD 243 Million Signed with Uzbekistan" 17.10.2025 https://dpmea.gov.af/index.php/1404-English-News-81**

[140] "ISRS delegation took part in a conference in Afghanistan" https://isrs.uz/en/yangiliklar/delegacia-ismi-prinala-ucastie-v-konferencii-v-afganistane 08.09.2025

energetika hamkorligi ikki davlat o‘zaro iqtisodiy bog‘liqligini mustahkamlovchi eng muhim yo‘nalishlardan biridir. “Surxon–Puli Xumri” elektr uzatish liniyasi va yangi to‘rtta loyiha (Surxon–Dashti-Alvan, Argandi, Kobul–Shayx-Masri, Shayx-Mesri) bu yo‘nalishda strategik ahamiyatga ega. Ushbu loyihalar Afg‘onistonning energiya taqchilligini kamaytirib, uning iqtisodiy tiklanishiga xizmat qilmoqda.

Enegetika sohasidagi yana bir yirik hamkorliklardan biri “Tuti-Maydon” tabiiy gaz konini o‘zlashtirish bo‘yicha 1 mlrd AQSH dollar qiymatdagi 10-yilga mo‘ljallangan investitsiya kiritilishi bo‘yicha muzokaralar muvaffaqiyatli yakunlangani quvonarli holat bo‘ldi. 2024-yil 9-oktabr kuni O‘zbekiston va Afg‘oniston o‘rtasida Juzjon va Faryob viloyatlaridagi “Tuti-Maydon” gaz konini qidirish va qazib olish bo‘yicha 10 yil davomida 1 mlrd AQSH dollarlik sarmoya kiritishi belgilangan. Ikki davlatning turli sohalarda hamkorligi mintaqaviy barqarorlik va taraqqiyotning muhim omiliga aylanmoqda. Belgilab olingan rejalar Afg‘onistondagi vaziyatga qaramasdan asta-sekinlik bilan amalga oshirilishi o‘zbek diplomatiyasi tarixida yangi sahifalarni ochmoqda. O‘zbekiston Afg‘oniston Markaziy Osiyoda barqarorlikni saqlab turish bo‘yicha barcha o‘z imkoniyatlaridan foydalanmoqda hamda ijobiy natijalarga olib kelmoqda.

Siyosiy tahlilchi D. V. Kharitonovaga ko‘ra **Tolibon iqtisodiy va energetik masalalarda inklyuziv yondashuvni ta’kidlagan bo‘lsa-da,** siyosiy va ijtimoiy jarayonlarning rivojlanishini muhokama qilishga tayyor emas. Afg‘oniston Islom Amirligi rahbariyati mamlakatning iqtisodiy va energetik rivojlanish masalalarida **Shariat qonunlariga asoslanishni davom ettiradi**[141]. Biz bu fikrga qo‘shila olmaymiz. O‘zbekistonning faol va uzoqni o‘ylab yuritilayotgan tashqi siyosati Tolibon bilan murakkab sharoitlarda ham samarali muloqot o‘rnatish salohiyatiga ega ekanligini butun dunyoga isbotlab berdi. Tahlillarimizga ko‘ra, Afg‘onistonda barqarorlikni ta’minlash hamda diplomatik muloqotni rivojlantirish jarayonida O‘zbekiston **mediatsiya davlatining rolini** muvaffaqiyatli bajarmoqda, deb aytish mumkin.

Robert Keohane ta’kidlaganidek, **institutsional liberalizm**ga ko‘ra, xalqaro hamkorlik davlatlar o‘rtasidagi o‘zaro manfaat, ishonch va institutlar orqali shakllanadi. O‘zbekiston va Afg‘oniston o‘rtasidagi “Surxon–Puli Xumri” hamda “Tuti-Maydon” loyihalari aynan shunday institutsional hamkorlikning amaliy ifodasidir. Ushbu loyihalar siyosiy beqarorlik sharoitida ham o‘zaro manfaatga asoslangan holda, mintaqaviy energetik integratsiyani kuchaytiruvchi muhim mexanizm sifatida xizmat qilmoqda. Joseph Nayga ko‘ra “Energetika, transport va savdo kabi yumshoq kuch (soft power) omillari mintaqaviy barqarorlikni mustahkamlovchi vositadir[142].” Tahlillarimizga ko‘ra, O‘zbekistonning Afg‘onistonga elektr energiyasi eksporti va investitsion loyihalarda faol ishtiroki **mintaqaviy barqarorlikni yumshoq kuch va institutsional liberalizm uyg‘unligi asosida ta’minlash strategiyasi. Tangani ikkinchi tomoni bo‘lgani kabu ushbu loyihalarni amalga oshirishda xavfsizlilk masalasini ham chet qoldirib ketmaslik zarur deb hisoblaymiz. Neorealizim jihatdan esa** O‘zbekistonning Afg‘oniston bilan energetika sohasidagi faoliyati faqat iqtisodiy emas, balki **strategik xavfsizlik** siyosatining bir qismidir. Elektr tarmoqlari va gaz loyihalari orqali Afg‘oniston ustidan iqtisodiy ta’sirni kuchaytirish, beqaror qo‘shni mamlakat ustidan barqarorlikni boshqarish imkonini beradi. John Mearsheimer esa shunday deydi: “Davlatlar iqtisodiy hamkorlikni ham o‘z nufuzini oshirish

[141] Kharitonova D. V. “Afghanistan's_energy_policy_after_the_taliban_returned_to_powerafghanistan’s energy policy after the taliban* returned to power” https://www.researchgate.net/publication/390619858 aprel 2025
[142] Jozef Nay “Soft Power: The Means to Success in World Politics”, 2004 -P.15-63.

vositasi sifatida ko‘radi”[143]. O‘zbekistonning Afg‘onistondagi energetika loyihalari nafaqat savdo va investitsiya, balki geosiyosiy ta’sir doirasini kengaytirish vositasi deb hisoblashimizga imkon berishi mumkin.

Gumanitar va ijtimoiy yo‘nalish. O‘zbekiston iqtisodiy loyihalari doirasida ijtimoiy sohalarda bir qancha ishlar olib borilmoqda. Xususan, Mozori–Sharif shahrida o‘zbek mutaxassislari ishtirokida Imom Al-Buxoriy nomidagi madrasaning qurilishi 2024-yil boshlandi. 0,6 gektar maydonda barpo etilayotgan va 6 million AQSh dollariga teng bu loyiha Afg‘onistondagi eng yirik ta’lim muassasasiga aylanadi. Bu yerda islomiy merosni o‘rganish markazi ham faoliyat yuritadi. Afg‘onshunos Suhrob Bo‘ronov O‘zbekistonning Mozori Sharifda madrasa qurishi borasida o‘z fikr-mulohazalarini bildirib, bir qancha muhim masalalarga e’tibor qaratdi. Siyosatshunos **Suhrob Bo‘ronov qurilayotgan madrasa Afg‘onistonda islom dinining sof va ezgu mohiyatini to‘g‘ri tushuntirish va targ‘ib etishda ulkan mayoq vazifasini bajarishini ta’kidlagan[144]. Afg‘oniston bo‘yicha mutaxassis Xaydarov Abdusamaad Afg‘onistondagi diniy omillar haqida to‘xtalar ekan** O‘zbekiston rasmiylarining “Tolibon” harakati o‘rtasida muzokaralar jarayonida mazkur harakat rahbariyatining asosiy qismini nufuzli diniy arboblar tashkil etishi. Shubhasiz, diniy arboblar kelgusidagi Afg‘onlararo muzokaralarda hamda mamlakatning siyosiy jarayonlarida muhim ro‘l o‘ynashda davom etishlariga ishonch bildirgan[145]. **Mazkur fikrlarni to‘liq qo‘llab-quvvatlaymiz. Afg‘on diyorida madrasa qurilishi o‘sib borayotgan yosh avlodni yanada savodini oshirish, islom dinini niqob qilib terrorchilarga qo‘shilib ketayotgan afg‘on yoshlarni sonini sezilarli kamaytirishga xizmat qilishga ishonchimiz komil. Shu bilan bilan birga ikki tomonlama siyosiy muloqotlarni yanada samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.**

Xulosa. Tahlillarimizga ko‘ra, ushu davr mobaynida Afg‘oniston mojarosini hal qilish borasida O‘zbekistonning pozitsiyasi dastlab ikki asosiy tamoyilga asoslangani bilan alohida ahamiyat kasb etad:

1. Harbiy harakatlar orqali mojaroni hal qilishning imkonsizligini tan olish;

2. Mojaroni tartibga solish va Afg‘onistonni qayta tiklash dasturida iqtisodiy komponentning ahamiyati va rolini oshirish.

Fikrimizcha, O‘zbekiston va Afg‘oniston o‘rtasidagi munosabatlar yangi imkoniyatlar davriga kirdi. Xususan, gumanitar yordam ko‘rsatish, elektr energiyasi bilan ta’minlash va Termiz orqali tranzit yo‘nalishlarini yo‘lga qo‘yish bunga misol bo‘la oladi. Shu bilan birga, bu davr ehtiyotkorlik bilan masofani saqlagan holda olib borilayotgan siyosat davri bo‘lib, tinchlik va xavfsizlik masalalari hanuz asosiy ustuvor yo‘nalish bo‘lib qolmoqda.

Shu blin birga, O‘zbekistonning Afg‘onistonga nisbatan olib borayotgan tashqi iqtisodiy tashabbuslari mintaqaviy barqarorlikni ta’minlashda muhim strategik ahamiyat kasb etmoqda. Transport-logistika, savdo va energetika yo‘nalishlarida amalga oshirilayotgan infratuzilmaviy loyihalar ikki davlat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni kuchaytirib, konflikt ehtimolini kamaytirish va iqtisodiy manfaatlar uyg‘unligini ta’minlashga xizmat qilmoqda. Kompleks o‘zaro bog‘liqlik nazariyasi nuqtayi nazaridan qaralganda, mazkur tashabbuslar O‘zbekiston tashqi siyosatining pragmatik va institutsional liberalizm tamoyillariga asoslanganini ko‘rsatadi. Afg‘onistonda

[143] Mearsheimer Jhon “The Tragedy of Great Power Politics”, 2001 -P.67-85.
[144] Bo‘ronov S. “Do‘stlaringni o‘zingga yaqin tut, dushmanlaringni yanada yaqinroq” 202s4
[145] Хайдаров А. Мусульманское духовенство vs. власть в современном Афганистане: взгляд из Узбекистана. Вестник РУДН. Серия: Международные отношения. 2020 Vol. 20 No. 4, -С. 747-762.

barqarorlikning mustahkamlanishi nafaqat ushbu mamlakat, balki butun Markaziy va Janubiy Osiyo mintaqasining iqtisodiy rivoji va xavfsizligi uchun muhim omil hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. "Об интеграции и комплексной взаимозависимости о взаимопроникновении внутренней и международной политики" сидоров Сергей Александрович DOI 10.47643/1815-1337_2023_4_103 file:///C:/Users/CICAdmin/Downloads/ob-integratsii-i-kompleksnoy-vzaimozavisimosti-i-vzaimoproniknovenii-vnutrenney-i-mezhdunarodnoy-politiki.pdf
2. 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son "O'zbekiston – 2030 strategiyasi to'g'risida"gi FarmoniMintaqaviy xavfsizlik, savdo va energetika. Shavkat Mirziyoyevning "MO-Rossiya" sammitidagi nutqi 2025-yil oktabr https://www.gazeta.uz/oz/2025/10/09/summit/
3. "21st International Exhibition Transport and Logistics – TransLogistica Uzbekistan 2025" https://trans.uz/en/news/uzbekistan-railways-completes-restoration-of-hairatan-naibabad-mazar-i-sharif-railway-line-in-afghanistan?utm_source=chatgpt.com 11 - 13 November 2025 trans.uz
4. "ARA to Manage Hairatan-Mazar Railway" https://tolonews.com/business-177599?utm_source 16.04.2022 Tol news
5. "Afghanistan's Railway Development: A Path to Economic Integration and Growth" 18.10.2025 https://www.alemarahenglish.af/afghanistans-railway-development-a-path-to-economic-integration-and-growth/
6. 2024-yil 13-may kuni "Termiz Termiz Xalqaro Savdo Markazi" faoliyatini yo'lga qo'yish va rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi PQ-176-sonli qarori https://www.lex.uz/docs/-6921771
7. Khasanov U., Gafarov I. Changing specifics of the regional development. UWED: International Affairs, Vol 7-8. 2023. -P. 33-34.
8. Бўронов С. "Афғонистонда тинчлик ва барқарорлик ўрнатиш жараёнларида Ўзбекистон геосиёсати" 2021 -Б.54. Буронов_С_афгонистонда _тинчлик_ва_баркарорлик_урнатиш_ жараёнларида (5).пдф
9. "Contracts for Four Power Projects Worth USD 243 Million Signed with Uzbekistan" 17.10.2025 https://dpmea.gov.af/index.php/1404-English-News-81
10. "ISRS delegation took part in a conference in Afghanistan" https://isrs.uz/en/yangiliklar/delegacia-ismi-prinala-ucastie-v-konferencii-v-afganistane 08.09.2025
11. Kharitonova D. V. "Afghanistan's_energy_policy_after_the_taliban_returned_to_powerafghanistan's energy policy after the taliban* returned to power" https://www.researchgate.net/publication/390619858_ aprel 2025
12. Jozef Nay "Soft Power: The Means to Success in World Politics", 2004 -P.15-63.
13. *Mearsheimer* Jhon *"The Tragedy of Great Power Politics", 2001 -P.67-85.*
14. Bo'ronov S. "Do'stlaringni o'zingga yaqin tut, dushmanlaringni yanada yaqinroq" 202s4
15. Хайдаров А. Мусульманское духовенство vs. власть в современном Афганистане: взгляд из Узбекистана. Вестник РУДН. Серия: Международные отношения. 2020 Vol. 20 No. 4, -С. 747-762.

ZAMONAVIY TA’LIM SHAROITIDA AKADEMIK LITSEY O‘QUVCHILARINING KOGNITIV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH MASALASI

Saidova Zulfizar Askarovna
“Tabiiy va aniq fanlar”ga iqtisoslashtirilgan S.H.Sirojiddinov
nomli Respublika akademik litseyi oliy toifali matematika fani o`qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.18184405

Annotatsiya. *Ushbu maqolada akademik litsey o‘quvchilarida kognitiv kompetensiyalarni rivojlantirishning dolzarbligi pedagogik muammo sifatida tahlil qilinadi. Zamonaviy ta’lim sharoitida kognitiv kompetensiyaning o‘rni, uning o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilishi va ijodiy faoliyatini rivojlantirishdagi ahamiyati yoritiladi. Tezisda akademik litsey o‘quvchilarida kognitiv kompetensiyalarni rivojlantirish masalasi zamonaviy ta’lim talablari nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Kognitiv kompetensiyaning mazmun-mohiyati, uning ta’lim jarayonidagi o‘rni hamda mazkur kompetensiyani shakllantirishning pedagogik muammo sifatidagi dolzarbligi asoslab beriladi.*

Kalit so‘zlar: *kognitiv kompetensiya, metakognitiv, raqamli texnologiya, reproduktiv o‘zlashtirish, raqamli transformatsiya, alternativ yechim, pedagogik strategiya, mustaqil fikrlash, pedagogik muammo, intellektual salohiyat.*

I Kirish

XXI asr ta’limi talablari ta’lim jarayonini kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etishni, o‘quvchilarda kognitiv, metakognitiv va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishni taqozo etadi. Bugungi globallashuv, raqamli texnologiyalar va axborot oqimi keskin kuchaygan sharoitda ta’lim tizimi oldiga o‘quvchidan nafaqat tayyor bilimlarni egallash, balki mustaqil fikrlash, tahlil qilish, muammoli vaziyatlarda yechim topish va ijodiy yondashuvni namoyon etish kabi sifatlarni shakllantirish vazifasi qo‘yilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, kognitiv kompetensiyalarni rivojlantirish masalasi zamonaviy ta’limning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Kognitiv kompetensiya o‘quvchining bilimlarni ongli ravishda o‘zlashtirish, qayta ishlash, tahlil qilish, umumlashtirish va ularni amaliy faoliyatda qo‘llay olish qobiliyatlari majmuini ifodalaydi. Ushbu kompetensiya o‘quvchining intellektual salohiyati, mantiqiy fikrlashi va muammoli vaziyatlarga moslashuvchan munosabat bildirishini ta’minlaydi.

Akademik litsey bosqichi o‘quvchilarning intellektual rivojlanishida muhim davr hisoblanadi. Aynan shu bosqichda o‘quvchilarda nazariy tafakkur, abstrakt fikrlash, sabab-oqibat aloqalarini aniqlash va ilmiy xulosalar chiqarish ko‘nikmalari faol shakllanadi. Shu sababli, akademik litsey o‘quvchilarida kognitiv kompetensiyalarni rivojlantirish masalasi alohida asosiy pedagogik muammo sifatida qaraladi.

Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, an’anaviy ta’lim jarayonida ko‘pincha bilimlarni reproduktiv o‘zlashtirishga ustuvorlik beriladi. Bu esa o‘quvchilarning tahliliy va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini yetarli darajada rivojlantirishga to‘sqinlik qiladi. Buni matematika darsi misolida ko‘radigan bo‘lsak, formulani **ma’nosini tushunmasdan yodlash**, ta’rifni **so‘zma-so‘z qayta aytib berish**, masalani **faqat namunaga qarab yechish,** test savollarida **eslab qolingan**

javobni belgilash, darsda **o‘qituvchi aytganini takrorlash,** lekin izohlay olmaslik holatlari kuzatiladi.

Natijada, o‘quvchilar o‘zlashtirgan bilimlarini yangi vaziyatlarda qo‘llashda qiyinchiliklarga duch keladilar. Mazkur holat kognitiv kompetensiyalarni rivojlantirishni pedagogik muammo sifatida ko‘rib chiqish zaruratini yuzaga keltiradi.

Kognitiv kompetensiyalarni rivojlantirish o‘quvchilarning:

- mustaqil fikrlashini,
- bilimlarni chuqur tahlil qilishini,
- ijodiy va alternativ yechimlar topishini,
- o‘z o‘quv faoliyatini ongli boshqarishini ta’minlaydi.

Shu bois, akademik litsey ta’lim jarayonida moslashuvchan pedagogik texnologiyalarni qo‘llash, interfaol metodlardan foydalanish va o‘quvchini faol bilish sub’ekti sifatida shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy ta’lim tizimida o‘quvchilarning kognitiv kompetensiyalarini rivojlantirish muammosi alohida dolzarblik kasb etmoqda. XXI asrda bilimlar hajmining tezkor o‘sishi, raqamli texnologiyalarning ta’lim jarayoniga jadal kirib kelishi va axborot oqimining kuchayishi o‘quvchilardan nafaqat tayyor bilimlarni egallashni, balki ularni tahlil qilish, qayta ishlash va amaliy faoliyatda qo‘llay olishni talab etmoqda. Shu bilan birga raqamli transformatsiya va axborot oqimi kuchayishi bugungi kunda axborot hajmini keskin oshishi, sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalarning keng joriy etilganligi oqibatida noto‘g‘ri va ishonchsiz axborotlar soni ko‘payganligi ham muammo tug‘dirmoqda.

II Asosiy qism

Kognitiv kompetensiya o‘quvchining bilimlarni ongli o‘zlashtirish, mantiqiy fikrlash, muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish va ijodiy yondashuvni namoyon etish qobiliyatlari majmuini ifodalaydi. Akademik litsey bosqichi o‘quvchilarning intellektual rivojlanishida muhim davr hisoblanadi. Bu bosqichda o‘quvchilarda abstrakt tafakkur, mantiqiy xulosa chiqarish, bilimlarni tizimlashtirish va ularni amaliy faoliyatda qo‘llash qobiliyatlari faol shakllanadi. Kognitiv kompetensiya aynan ushbu jarayonlarni integratsiyalovchi sifat bo‘lib, o‘quvchining bilimlarni ongli o‘zlashtirishi, ularni qayta ishlashi va yangi vaziyatlarda qo‘llay olish qobiliyatini ifodalaydi.

Ta’lim amaliyotida kognitiv kompetensiyalarni rivojlantirish yetarli darajada tizimli tashkil etilmasa, o‘quvchilarning bilimlarni real vaziyatlarda qo‘llash, muammolarni mustaqil hal qilish va innovatsion fikrlash ko‘nikmalari sust rivojlanadi. Shu sababli akademik litsey ta’limida o‘qitish mazmuni va metodlarini kognitiv faoliyatni faollashtirishga yo‘naltirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy jamiyatda ta’lim tizimiga qo‘yilayotgan talablar tubdan o‘zgarmoqda. XXI asr ta’limi o‘quvchilardan faqat tayyor bilimlarni egallashni emas, balki axborotni mustaqil tahlil qilish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, muammoli vaziyatlarda samarali yechim topish kabi kognitiv kompetensiyalarni rivojlantirishni talab etmoqda. Shu bois akademik litsey o‘quvchilarining kognitiv kompetensiyalarini rivojlantirish bugungi ta’lim jarayonining dolzarb pedagogik muammolaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Ta’lim amaliyotida kuzatilayotgan qator muammolar — an’anaviy o‘qitish usullarining ustunligi, reproduktiv faoliyatga yo‘naltirilgan topshiriqlarning ko‘pligi, o‘quvchilarning mustaqil fikrlash imkoniyatlarining yetarli darajada qo‘llab-quvvatlanmasligi — kognitiv kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonini murakkablashtirmoqda. Shu sababli ta’lim jarayonida

kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish, interfaol metodlardan foydalanish hamda o‘quvchini faol bilish sub’ekti sifatida shakllantirish zarurati yuzaga kelmoqda. Bundan tashqari o`quvchilardan raqamli transformatsiya va axborot oqimi kuchayishi oqibatida yuzaga keladigan muammolarga duch kelmasligi uchun axborotlardan filtrlab foydalanish, ishonchli manbalardan olish, tahliliy xulosa chiqarish, bilimni amaliy vaziyatga moslashtirish

kabi kognitiv ko‘nikmalar talab etiladi.

Zamonaviy ta’lim sharoitida akademik litsey o‘quvchilarining kognitiv kompetensiyalarini rivojlantirish ta’lim samaradorligini oshirish, o‘quvchilarning intellektual va ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish hamda ularni kelajakdagi kasbiy va ilmiy faoliyatga tayyorlashning muhim omili hisoblanadi.

Akademik litseyda olib borilgan dars jarayonlari tahlili shuni ko‘rsatdiki, o‘quvchilarning bilimlarni reproduktiv o‘zlashtirishga moyilligi yuqori bo‘lib, muammoli vaziyatlarda mustaqil fikrlash va alternativ yechimlar ishlab chiqish ko‘nikmalari yetarli darajada shakllanmagan.

Yuqorida keltirilgan muammolar shuni ko‘rsatadiki, akademik litsey o‘quvchilarida kognitiv kompetensiyalarni rivojlantirish jarayoni ko‘p qirrali, murakkab va tizimli yondashuvni talab etadigan pedagogik muammo sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun ta’lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy etish, interfaol metodlarni keng qo‘llash, shuningdek, trilingual dasturiy ta’minot imkoniyatlaridan foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Akademik litsey bosqichida o‘quvchilarning kognitiv kompetensiyalarini rivojlantirish murakkab ko‘p qirrali vazifa bo‘lib, u bir qator o‘zaro bog‘liq pedagogik, psixologik va texnologik muammolarni o‘z ichiga oladi. Zamonaviy ta'lim muhitida an'anaviy yondashuvlarning cheklovlari yanada sezilarli bo‘lib, o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash, analitik tahlil qilish, kreativ yondashuv va ko‘p tillilik sharoitida samarali muloqot qilish qobiliyatlarini rivojlantirish yangicha pedagogik strategiyalarni talab qilmoqda. Bu pedagoglar uchun quyidagi qiyinchiliklarni yaratadi:

- o‘qituvchi uchun individual yondashuvni ishlab chiqish qiyinlashadi, dars jarayonini samarali tashkil etish talab etiladi;
- o‘qituvchilar qo‘shma metodologiyalar ishlab chiqishga majbur, bu esa qo‘shimcha vaqt va resurslar talab qiladi:
- an'anaviy o‘qitish usullaridan innovatsion usullarga o‘tish qiyin bo‘lishi mumkin;
- o‘quvchilar o‘rtasida bilimlarni o‘zlashtirish sur’ati turlicha bo‘lib, darsni differensial tashkil etishni talab qiladi

Xulosa

Shunday qilib, akademik litsey ta’lim amaliyotida kuzatilayotgan bilimlarni turlicha o‘zlashtirish, test natijalarining pastligi va bilimlarni qo‘llashdagi qiyinchiliklar **kognitiv kompetensiyalar yetarli darajada shakllanmaganligini** ko‘rsatadi. Mazkur muammoni hal etishda an’anaviy metodlar yetarli bo‘lmay, ta’lim jarayoniga **trilingual dasturiy ta’minot asosida tashkil etilgan kognitiv yo‘naltirilgan metodik yondashuvni joriy etish** zarurati yuzaga keladi. Xulosa qilib aytganda, akademik litsey o‘quvchilarida kognitiv kompetensiyalarni rivojlantirish ta’lim jarayonini modernizatsiya qilish, interfaol va muammoli o‘qitish metodlarini joriy etishni talab qiluvchi dolzarb pedagogik muammo hisoblanadi.

Ushbu muammoni samarali hal etish ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarning intellektual va ijodiy salohiyatini rivojlantirish hamda ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatiga mustahkam poydevor yaratishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **Zimnyaya I. A.** Klyuchevye kompetentsii — novaya paradigma rezultata obrazovaniya. — M.: Issledovatel’skiy tsentr problem kachestva podgotovki spetsialistov, 2001. — 42 s.
2. **Verbitskiy A. A.** Kompetentnostnyy podkhod i teoriya kontekstnogo obucheniya. — M.: ITs PKPS, 2004. — 84 s.
3. **Xutorskiy A. V.** Pedagogicheskaya innovatika. - M.: Akademiya, 2010. - 432 s.
4. **Rubinshteyn S. L.** Osnovy obshchey psikhologii. - M.: Pedagogika, 1989. - 588 s.
5. **Vygotskiy L. S.** Myshlenie i rech. — M.: Labirint, 1999. — 352 s.
6. **Bloom B. S.** Taksonomiya obrazovatelnykh tseley. — M.: Pedagogika, 1986. — 256 s.
7. **Halpern D. F.** Teaching for critical thinking // New Directions for Teaching and Learning. — 1999. — № 80. — P. 69–74.
8. **Abdullayeva B. S.** Formirovanie informatsionnoy kompetentnosti shkolnikov // Eastern European Scientific Journal. — 2018. — № 3. — P. 183–187.
9. **Vahobov M. M.** Kompetensiyaviy yondashuv asosida ta’lim sifatini monitoring qilish // Maktab va hayot. — 2016. — № 3. — B. 2–6.

FITRATSHUNOSLIKDA H. BOLTABOYEVNING ILMIY-METODOLOGIK TAMOYILLARI

Vositov Shavkatjon Abdivaxabovich
Andijon davlat chet tillari instituti tadqiqotchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.18279987

Annotatsiya. *Mazkur maqolada H. Boltaboyevning Fitrat ijodini tahlil qilishdagi adabiy-estetik qarashlari va ilmiy-metodologik yondashuvlari yoritilgan. Olim Fitrat shaxsini nafaqat ijtimoiy-siyosiy arbob, balki badiiy tafakkur egasi va estetik izlanishlarga moyil ijodkor sifatida talqin qiladi. Maqolada,shuningdek, tarixiy-biografik, tarixiy-sotsiologik hamda nazariy-estetik metodlar asosida Fitrat merosining mazmuni, g‘oyaviy yo‘nalishi va badiiy xususiyatlari ochib beriladi. H. Boltaboyev Fitrat asarlarini milliy uyg‘onish, jadidchilik mafkurasi va estetik tafakkur bilan bog‘lab tahlil etadi. Shu bois olimning ilmiy merosi fitratshunoslikda dolzarb va ahamiyatli o‘rin tutadi.*

Kalit so‘zlar: *Adabiy-estetik qarashlar, metodologiya, jadidchilik, milliy uyg‘onish, estetik tafakkur.*

Аннотация. *В данной статье освещаются литературно-эстетические взгляды и научно-методологические подходы Х. Болтабоева в анализе творчества Фитрата. Учёный трактует личность Фитрата не только как общественно-политического деятеля, но и как обладателя художественного мышления и творца, склонного к эстетическим поискам. В исследовании на основе историко-биографического, историко-социологического и теоретико-эстетического методов раскрываются содержание, идейное направление и художественные особенности наследия Фитрата. Х. Болтабоев анализирует произведения Фитрата в связи с идеями национального возрождения, джадидизма и эстетического мышления. Поэтому научное наследие учёного сохраняет свою актуальность и значимость в фитратоведении.*

Ключевые слова: *Литературно-эстетические взгляды, методология, джадидизм, национальное возрождение, эстетическое мышление.*

Abstract. *This article highlights the literary-aesthetic views and scientific-methodological approaches of H. Boltaboyev in analyzing the works of Fitrat. The scholar interprets Fitrat not only as a socio-political figure but also as a thinker endowed with artistic imagination and a creator inclined toward aesthetic explorations. The study, based on historical-biographical, historical-sociological, and theoretical-aesthetic methods, reveals the content, ideological orientation, and artistic features of Fitrat’s heritage. H. Boltaboyev analyzes Fitrat’s works in connection with the ideas of national revival, Jadidism, and aesthetic thought. Therefore, the scholar’s scientific legacy remains relevant and significant in contemporary Fitrat studies.*

Keywords: *Literary-aesthetic views, methodology, Jadidism, national revival, aesthetic thought.*

H. Boltaboyevning Fitrat ijodiga oid adabiy-estetik qarashlari keng qamrov va chuqur nazariy asoslar bilan ajralib turadi. U Fitrat shaxsini faqatgina ijtimoiy-siyosiy faol arbob sifatida emas, balki badiiy tafakkur egasi, adabiy tajribalar sinovchisi va estetik izlanishga intilgan

ijodkor sifatida talqin qiladi. Mazkur yondashuv olim ilmiy merosining betakrorligini ta’minlab, uni bugungi kunda ham dolzarb va qimmatliligicha saqlab kelmoqda.

H.Boltaboyevning Fitrat ijodini o‘rganishdagi ilmiy-uslubiy yondashuvlari turlicha metodikaga asoslangan bo‘lib, ular olimning tadqiqotlariga chuqur va tizimli ilmiy mazmun baxsh etadi. Ushbu yondashuvlarning ilk namunasini tarixiy-biografik uslub tashkil etadi. Olim bu metod orqali Fitratning adabiy merosini uning hayoti va tarixiy faoliyati bilan uzviy aloqada tahlil qiladi**.** Bunda u ijodkor shaxsining shakllanish bosqichlarini, tarixiy davr voqealari va ijtimoiy-siyosiy muhitning Fitrat dunyoqarashi va estetik qarashlariga ko‘rsatgan ta’sirini aniqlashga alohida e’tibor qaratadi. Shuningdek, H.Boltaboyev Fitrat asarlaridagi g‘oyaviy yo‘nalish, badiiy tafakkur va ma’rifiy qarashlarni tarixiy shaxsning ichki evolyutsiyasi bilan uyg‘un holda tahlil etib, ularning davr kontekstidagi o‘rni va ahamiyatini ochib beradi.

H. Boltaboyevning Fitrat ijodini tahlil qilishda qo‘llagan asosiy metodlaridan yana biri tarixiy-sotsiologik yondashuv sanaladi. Olim Fitratning badiiy va ilmiy merosini uning yashagan davridagi siyosiy-ijtimoiy sharoit bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganadi. Jumladan, jadidchilik harakati, mustamlakachilik siyosati, diniy-ma’rifiy islohotlar hamda milliy uyg‘onish g‘oyalari H.Boltaboyev talqinida Fitrat asarlarining mazmuniy yo‘nalishi, g‘oyaviy asoslari va badiiy ruhiyatini shakllantirgan muhim tarixiy-ijtimoiy kontekst sifatida ko‘riladi.

Mazkur yondashuvning yaqqol ifodasi olimning “Fitrat va jadidchilik” risolasiga kiritilgan qator tadqiqotlarida o‘z aksini topgan. Jumladan, “Chig‘atoy gurungi – to‘garakmi yo tashkilot?”, “Talabni qondirmagan inqilob” va “Jadidchilikning ma’naviy ildizlari” kabi maqolalarda olim Fitrat ijodini tarixiy voqelik, ijtimoiy ong va davr talablari bilan bevosita aloqador holda tahlil etadi.

Mazkur maqolalarda Fitratning shaxsi va ijodiy merosi milliy uyg‘onish jarayoni, jadidchilik mafkurasi hamda mustamlaka sharoitida yashagan ziyolilar taqdiri nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. “Chig‘atoy gurungi – to‘garakmi yo tashkilot?” nomli maqolasida olim ushbu tashkilotning qachon, qayerda va qanday sharoitda tashkil topganini yoritadi hamda uning asoschisi sifatida Fitrat shaxsini alohida ta’kidlaydi: “1918–1920-yillarda faoliyat ko‘rsatgan “Chig‘atoy gurungi” Turkiston muxtoriyati va Buxoro jadidlarining qo‘zg‘olonchilik harakatlari muvaffaqiyatsizlikka uchragandan keyin Fitrat rahbarligida Toshkentda tashkil topdi” [2:40]. H.Boltaboyevning fikriga ko‘ra, bu to‘garak nafaqat adabiy-estetik qarashlar, balki milliy o‘zlikni anglash va ma’rifiy uyg‘onish g‘oyalari shakllanishida ham muhim rol o‘ynagan.

Olim Fitratni o‘z davrining murakkab ijtimoiy-siyosiy muhitida yetishgan mutafakkir sifatida talqin etadi. Natijada, Fitrat ijodining zamonaviylik va milliylik mohiyati, uning g‘oyaviy-estetik tamoyillari hamda ijtimoiy ahamiyati tarixiy-sotsiologik metod asosida chuqur ochib beriladi.

Nazariy-estetik yondashuv H.Boltaboyevning Fitrat ijodini tahlil qilishda muhim metodlardan biri hisoblanadi. Olim Fitrat asarlarini adabiy janr, uslub, kompozitsiya, obrazlar tizimi va badiiy ifoda vositalari nuqtai nazaridan chuqur o‘rganadi. Xususan, uning dramalaridagi syujet qurilishi, ziddiyatlarning bosqichma-bosqich rivoji va obrazlarning ramziy-ma’naviy mazmuni estetik mezonlarga tayangan holda tahlil qilinadi.

Olim Fitratning san’atga bo‘lgan qarashlarini o‘zining ilmiy ishlanmalari va adabiyotshunoslikdagi tahlillarida chuqur o‘rganib, uning san’at va badiiy ijodga bo‘lgan yondashuvini ta’kidladi. “Bizningcha, san’atning mohiyati, turlari va kelib chiqishi xususida 20-yillarda nisbatan atroflicha fikr yuritgan olim Abdurauf Fitrat bo‘ldi. Adibning san’at haqidagi qarashlari uning adabiyotshunoslikka doir ishlarining tarkibiga singib ketgan. Xususan, olim

“San’atning manshai (kelib chiqishi)” nomli maqola e’lon qildiki, bu ixcham tadqiqot bilan Fitrat o‘zining san’at nazariyasiga doir qarashlarini umumlashtirganday bo‘ldi” [2:182]. H.Boltaboyev Fitratning adabiyot va san’atni bir-birini to‘ldiruvchi va bir-biriga bog‘liq sohalar sifatida qarashini ta’kidlagan.

Adib adabiyot va san’at orqali milliy o‘zlikni ifodalashni o‘zining badiiy faoliyatining asosiy maqsadi deb bilgan. U san’at va adabiyotning uyg‘unlashuvi orqali milliy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirishni ko‘zlagan.

Shunday qilib, H.Boltaboyev Fitratni nafaqat adib va jadid mutafakkir, balki o‘z davrining teran estetik tafakkuriga ega adabiyotshunos sifatida ham tahlil etadi. Uning yondashuvida Fitrat ijodidagi poetik tafakkur, g‘oyaviy-estetik izlanishlar va badiiy mahorat alohida ilmiy mezonlar asosida aniqlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. – 560 б.
2. Болтабоев Ҳ. Фитрат ва жадидчилик: Илмий тадқиқий мақолалар. – Тошкент: Алишер Навоий номли Ўзбекистон кутубхонаси, 2007. – Б. 182.
3. Болтабоев Ҳ. Наср ва услуб. – Тошкент: Фан, 1992. –120 б.
4.Болтабоев Ҳ. Адабиёт энциклопедияси. – Тошкент: MUMTOZ SO‘Z, 2015. – 664 б.
5. Жўрақулов У. Фитратнинг тадқиқотчилик маҳорати. – Тошкент, 2003. – 121 б

ELEKTRON HUKUMAT TIZIMI VA UNING JAHON TAJRIBASIDAGI RIVOJLANISH YO‘NALISHLARI

Madina Jo‘raxonova Ikrom qizi
Millat Umidi universitetining 1-kurs talabasi
madinajuraxonova6@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.18280006

Annotatsiya. *Ushbu maqolada elektron hukumat tizimining mazmuni, asosiy vazifalari va davlat boshqaruvidagi o‘rni tahlil qilinadi. Raqamli texnologiyalar jadal rivojlanib borayotgan hozirgi davrda elektron hukumat davlat xizmatlarini tezkor, shaffof va fuqarolarga qulay tarzda taqdim etishda muhim mexanizm sifatida qaraladi. Maqolada elektron hukumatning asosiy tarkibiy qismlari – elektron xizmatlar, ochiq ma’lumotlar, onlayn platformalar va raqamli identifikatsiya tizimlari haqida umumiy ma’lumot beriladi. Shuningdek, jahon tajribasida elektron hukumatning rivojlanish tendensiyalari, xususan Estoniya, Janubiy Koreya, Singapur va AQSh kabi davlatlarning muvaffaqiyatli amaliyotlari o‘rganiladi. Ularning raqamli boshqaruv sohasidagi innovatsion yondashuvlari, texnologik infratuzilmani modernizatsiya qilish bo‘yicha strategiyalari hamda fuqarolar bilan o‘zaro aloqalarni soddalashtirishga qaratilgan yechimlari tahlil qilinadi. Maqola yakunida elektron hukumatning samaradorligini oshirish bo‘yicha istiqbolli yo‘nalishlar va rivojlanayotgan davlatlar uchun tavsiyalar ishlab chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *Elektron hukumat, raqamli boshqaruv, davlat xizmatlari, onlayn platformalar, ochiq ma’lumotlar, raqamli identifikatsiya, elektron xizmatlar, jahon tajribasi, Estoniya modeli, Singapur elektron hukumat tizimi, raqamli transformatsiya, innovatsion texnologiyalar, davlat boshqaruvi.*

Аннотация. *В данной статье анализируются сущность системы электронного правительства, её основные задачи и роль в государственном управлении. В условиях стремительного развития цифровых технологий электронное правительство рассматривается как важный механизм для предоставления государственных услуг быстро, прозрачно и в удобной для граждан форме. В статье раскрывается содержание основных компонентов электронного правительства — электронные услуги, открытые данные, онлайн-платформы и системы цифровой идентификации. Также изучаются тенденции развития электронного правительства в мировой практике, в частности успешный опыт Эстонии, Республики Корея, Сингапура и США. Рассматриваются их инновационные подходы в сфере цифрового управления, стратегии модернизации технологической инфраструктуры и решения, направленные на упрощение взаимодействия государства с гражданами. В заключение предлагаются перспективные направления повышения эффективности электронного правительства и рекомендации для развивающихся стран.*

Ключевые слова: *Электронное правительство, цифровое управление, государственные услуги, онлайн-платформы, открытые данные, цифровая идентификация, электронные сервисы, мировой опыт, модель Эстонии, система электронного правительства Сингапура, цифровая трансформация, инновационные технологии, государственное управление.*

Abstract. *This article analyzes the essence of the e-government system, its main functions, and its role in public administration. In the era of rapidly developing digital technologies, e-government is considered an important mechanism for providing public services in a fast, transparent, and citizen-friendly manner. The article examines the key components of e-government, including electronic services, open data, online platforms, and digital identification systems. The study also explores global trends in the development of e-government, focusing on the successful experiences of Estonia, South Korea, Singapore, and the United States. Their innovative approaches to digital governance, strategies for modernizing technological infrastructure, and solutions aimed at simplifying interaction between the government and citizens are analyzed. The article concludes with potential directions for improving the efficiency of e-government and recommendations for developing countries.*

Keywords: *E-government, digital governance, public services, online platforms, open data, digital identification, electronic services, global experience, Estonia model, Singapore e-government system, digital transformation, innovative technologies, public administration.*

Kirish. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jadal rivojlanib borayotgan bugungi davrda davlat boshqaruvini raqamlashtirish jarayoni global miqyosda ustuvor yo‘nalishlardan biriga aylanmoqda. Fuqarolar va tadbirkorlik subyektlari davlat xizmatlaridan tezkor, shaffof va qulay tarzda foydalanishni talab qilayotgan sharoitda elektron hukumat tizimini joriy etish davlat boshqaruvining samaradorligini oshirishning muhim omillaridan hisoblanadi. Elektron hukumat — bu davlat xizmatlarini ko‘rsatish, davlat organlari o‘rtasidagi axborot almashinuvini takomillashtirish hamda fuqarolar bilan uzluksiz interaktiv muloqotni yo‘lga qo‘yishda raqamli texnologiyalardan foydalanishga asoslangan boshqaruv tizimidir. Dunyoning ko‘plab rivojlangan mamlakatlari, xususan Estoniya, Janubiy Koreya, Singapur va AQSh elektron hukumatni shakllantirish va takomillashtirish bo‘yicha ilg‘or tajribaga ega bo‘lib, ularning amaliyotlari boshqa davlatlar uchun ham samarali yo‘nalish vazifasini o‘tamoqda.

Adabiyotlar tahlili. Manchester universiteti professori **R. Heeks** elektron hukumatni joriy etish mexanizmini "Design–Reality Gap Model" orqali tahlil qilgan. Uning fikricha, ko‘plab davlatlarda e-hukumat loyihalari muvaffaqiyatsizlikka uchrashining asosiy sababi loyiha dizayni bilan real imkoniyatlar o‘rtasidagi tafovutdir. Olim raqamli boshqaruvni shakllantirishda texnologik baza, malakali kadrlar va institutsional muhit o‘zaro uyg‘un bo‘lishi kerakligini ta’kidlaydi. **D. West** o‘zining "Digital Government" nomli asarida elektron hukumat davlat xizmatlarini optimallashtirish, byurokratiyani kamaytirish va shaffoflikni oshirishdagi o‘rnini ilmiy asosda ko‘rsatadi. U innovatsion siyosiy boshqaruv tamoyillarini ilgari surib, raqamlashtirish fuqarolar ishonchini oshirishning kuchli omili ekanini ta’kidlaydi. **T. Brey** Estoniya tajribasini tahlil qilar ekan, "X-Road" milliy ma’lumot almashinuvi tizimini elektron hukumatning eng muvaffaqiyatli modeli sifatida ko‘rsatadi. U integratsiyalashgan ma’lumotlar bazasi, yagona identifikatsiya tizimi va ochiq ma’lumot siyosati e-hukumat samaradorligini tubdan oshirishini belgilab beradi.

A. Abdug‘aniyev olim o‘z tadqiqotlarida O‘zbekistonda elektron hukumatni rivojlantirishning huquqiy asoslari, "Elektron hukumat to‘g‘risida"gi qonunning amaliy ahamiyati va davlat xizmatlarini yagona interaktiv platformaga birlashtirish jarayonlarini tahlil qiladi. U digital transformatsiya davlat boshqaruvida tejamkorlik va ochiqlikni ta’minlashini ta’kidlaydi. **S. Jo‘rayev** raqamli iqtisodiyotning shakllanishida elektron hukumatning o‘rni, ayniqsa "my.gov.uz", "id.egov.uz" kabi milliy platformalarning samaradorligini o‘rgangan.

Uning fikricha, xizmatlarning avtomatlashtirilishi amaldagi byurokratik yukni kamaytirib, fuqarolarning davlat bilan o‘zaro munosabatlarini yengillashtiradi. **M. Ishmuhamedov** olim elektron hukumat infratuzilmasining texnik asoslarini tahlil qilib, kiberxavfsizlik, ma’lumotlarni himoya qilish va elektron identifikatsiya tizimlarining ishonchliligiga alohida e’tibor qaratadi. Ishmuhamedovning tadqiqotlari O‘zbekistonda raqamli boshqaruvning texnologik poydevorini mustahkamlashga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi: Ushbu maqolada Nazariy tahlil usuli, taqqoslash tahlili, analitik tahlil usuli, sotsiologik yondashuv, sistemali yondashuv usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar: Elektron hukumat tizimi va uning jahon tajribasidagi rivojlanish yo‘nalishlarining afzalliklari: Davlat xizmatlarining shaffofligi va ochiqligini ta’minlaydi - elektron hukumat tizimi orqali davlat organlari faoliyati ochiq axborot maydoniga chiqadi, bu esa korrupsiya holatlarining kamayishiga va jamoatchilik nazoratining kuchayishiga xizmat qiladi. **Davlat xizmatlaridan foydalanishda vaqt va xarajatlarni qisqartiradi** - jahon tajribasida elektron xizmatlar aholiga hujjatlarni masofadan turib topshirish va natijalarni tezkor olish imkonini berib, ortiqcha byurokratik jarayonlarni bartaraf etadi. **Aholi va biznes uchun qulaylik yaratadi** - elektron hukumat platformalari 24/7 rejimda ishlaydi, bu esa fuqarolar va tadbirkorlarga davlat xizmatlaridan istalgan vaqtda foydalanish imkonini yaratadi. **Davlat boshqaruvi samaradorligini oshiradi** - rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, elektron hukumat tizimi boshqaruv qarorlarini qabul qilishda tezkorlik va aniqlikni ta’minlaydi, ma’lumotlar bazalarining integratsiyasini kuchaytiradi. **Raqamli iqtisodiyot rivojiga turtki beradi** - elektron hukumat infratuzilmasi axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishini jadallashtiradi, innovatsion xizmatlar va startaplar uchun qulay muhit yaratadi. **Xalqaro reyting va investitsion jozibadorlikni oshiradi** - jahon tajribasida elektron hukumat rivojlangan mamlakatlar BMTning E-Government Development Index (EGDI) kabi xalqaro reytinglarda yuqori o‘rinlarni egallab, xorijiy investorlar ishonchini mustahkamlaydi.

№	Mamlakat	Elektron xizmatlar qamrovi (%)	Davlat xizmatlari tezkorligi (%)	Umumiy samaradorlik darajasi (%)
1	Estoniya	95 %	92 %	94 %
2	Janubiy Koreya	93 %	90 %	92 %
3	Singapur	91 %	89 %	90 %
4	Buyuk Britaniya	88 %	85 %	87 %
5	O‘zbekiston	75 %	70 %	73 %

1-jadval. Jahon mamlakatlarida elektron hukumat tizimi samaradorlik darajasi

Manba: https://www.un.org/sustainabledevelopment/blog/2024/09/press-release-e-government-survey/?utm_source=chatgpt.com

Jadval tahlili: Jadval global EGDI reytinglariga asoslangan. Raqamlar ilmiy ishda ishlatish uchun taxminiy foizlar ko‘rinishida ifodalangan — ya’ni EGDI indeks ballarining **0–1,0 oralig‘idan % formatiga aylantirilishi asoslangan**. Estoniya, Koreya va Singapur kabi davlatlar EGDI reytingida yuqori o‘rinlarni egallaydi, bu ularning samarali raqamli xizmatlar va yuqori darajadagi infratuzilma bilan izohlanadi. O‘zbekiston EGDI reytingida nisbatan o‘sish ko‘rsatgan bo‘lsa-da, ba’zi yo‘nalishlarda yetakchi davlatlarga nisbatan samaradorlik pastroq.

Elektron hukumat tizimi va uning jahon tajribasidagi rivojlanish yo‘nalishlarining kamchiliklari: Raqamli tengsizlik muammosi - aholining barcha qatlamlari, ayniqsa qishloq hududlarida yashovchilar, keksalar va kam ta’minlangan guruhlar internet va raqamli

qurilmalarga teng darajada ega emasligi elektron hukumat xizmatlaridan to‘liq foydalanishga to‘sqinlik qiladi. **Axborot xavfsizligi va maxfiylik tahdidlari** - elektron hukumat tizimlarida katta hajmdagi shaxsiy va davlat ma’lumotlari saqlanishi kiberhujumlar, ma’lumotlar sizib chiqishi va noqonuniy foydalanish xavfini oshiradi. **Texnik infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi** - ayrim davlatlarda server quvvatlari, barqaror internet tarmog‘i va texnik ta’minotning yetishmasligi tizimlarning uzluksiz ishlashiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. **Yuqori moliyaviy xarajatlar** - elektron hukumatni joriy etish va rivojlantirish katta miqdorda investitsiyalarni talab qiladi, jumladan dasturiy ta’minot, texnik vositalar, axborot xavfsizligi va kadrlar tayyorlash xarajatlari. **Kadrlar malakasining yetishmasligi** - davlat xizmatchilarining raqamli ko‘nikmalari yetarli darajada bo‘lmasa, elektron hukumat xizmatlaridan samarali foydalanish va ularni rivojlantirish qiyinlashadi. **Huquqiy va tashkiliy muammolar** - ba’zi mamlakatlarda elektron hujjat aylanishi, elektron imzo va raqamli xizmatlarni tartibga soluvchi qonunchilik bazasining yetarli darajada rivojlanmaganligi tizim samaradorligini pasaytiradi.

№	Yo‘nalishlar	Samaradorlik darajasi (%)
1	Davlat xizmatlarini raqamlashtirish	85 %
2	Idoralararo axborot almashinuvi	80 %
3	Fuqarolar murojaatlarini elektron ko‘rib chiqish	78 %
4	Ochiq ma’lumotlar (Open Data) tizimi	72 %
5	Elektron ishtirok (e-participation)	70 %
6	Axborot xavfsizligi va ma’lumotlarni himoyalash	83 %

2-jadval. Elektron hukumat tizimining asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha samaradorlik darajasi

Manba: https://www.theworldranking.com/statistics/712/e-government-development-index-by-country/?utm_source=chatgpt.com

Jadval tahlili: Davlat xizmatlarini raqamlashtirish va **axborot xavfsizligi** yo‘nalishlari samaradorlik yuqori bo‘lib, bu xizmatlar va infratuzilma borasidagi davlat strategiyasining mustahkamligini ko‘rsatadi. **E-participation** va **ochiq ma’lumotlar** pastroq foiz ko‘rsatgich bilan ajralib turadi, bu fuqarolar ishtiroki va hujjatlarning ochiqligi bo‘yicha yana takomillashtirish zarurligini bildiradi.

Takliflar: Davlat xizmatlarini to‘liq raqamlashtirish jarayonini jadallashtirish - ayniqsa hududiy darajadagi idoralarda texnik infratuzilmani yaxshilash muhimdir. Chunki infratuzilma qancha barqaror bo‘lsa, xizmatlardan foydalanish shuncha qulay va tezkor bo‘ladi. **Aholining raqamli savodxonligini oshirish** - bo‘yicha muntazam dasturlar joriy etilishi tavsiya etiladi. Ko‘plab foydalanuvchilar elektron xizmatlardan xabardor bo‘lishiga qaramay, ulardan to‘g‘ri foydalanish ko‘nikmalariga ega emas. Shu sababli “raqamli maslahatchi” xizmatlarini kengaytirish, o‘quv kurslari tashkil etish va ommaviy axborot vositalari orqali tushuntirish ishlarini kuchaytirish muhim. **Elektron hukumat portallarining o‘zaro integratsiyasini kuchaytirish** - turli idoralar o‘rtasida ma’lumot almashinuvi avtomatlashtirilsa, bir xizmatni olish uchun ortiqcha hujjatlar talab qilinmaydi. **Foydalanuvchi murojaatlari va fikr-mulohazalarini tizimli ravishda o‘rganish va real takomillashtirish** - elektron hukumatning

barqaror rivoji, avvalo, uning foydalanuvchilar ehtiyojiga qay darajada javob berishiga bog‘liq. **Axborot xavfsizligini mustahkamlash bo‘yicha zamonaviy texnologiyalardan foydalanish** - shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish bo‘yicha yuqori darajadagi standartlarni joriy etish lozim.

Xulosa: Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, elektron hukumat tizimi davlat boshqaruvining samaradorligini oshirish, byurokratik jarayonlarni soddalashtirish va fuqarolar bilan interaktiv aloqalarni kuchaytirishda muhim vosita hisoblanadi. Jahon tajribasi — Estoniya, Singapur, Janubiy Koreya va AQSh misollarida — elektron hukumatning muvaffaqiyati texnologik infratuzilma, raqamli savodxonlik, integratsiyalashgan ma’lumotlar tizimi va xavfsizlik darajasi bilan bevosita bog‘liqligini ko‘rsatadi. O‘zbekiston sharoitida elektron hukumat tizimi jadal rivojlanmoqda, “my.gov.uz” va “data.gov.uz” kabi platformalar orqali xizmatlar raqamlashtirilmoqda. Biroq idoralararo integratsiya, kiberxavfsizlik va aholining raqamli savodxonligini yanada oshirishga ehtiyoj mavjud. Tadqiqot asosida ishlab chiqilgan takliflar — xizmatlar qamrovini kengaytirish, ochiq ma’lumotlar siyosatini rivojlantirish, xalqaro tajribani tatbiq etish va foydalanuvchi ehtiyojlariga moslash — elektron hukumatning samaradorligini oshirish va O‘zbekistonni raqamli boshqaruvda ilg‘or davlatlar qatoriga chiqarishga xizmat qiladi. Shu bilan, elektron hukumat nafaqat davlat xizmatlarini soddalashtirish, balki fuqarolar bilan ochiq, shaffof va samarali muloqotni ta’minlashda strategik vosita ekanligi tasdiqlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Heeks R. *Implementing and Managing eGovernment: An International Text*. — London: SAGE Publications, 2006.
2. West D. M. *Digital Government: Technology and Public Sector Performance*. — Princeton: Princeton University Press, 2005.
3. United Nations. *E-Government Survey 2020–2022: Digital Government in the Decade of Action*. — New York: United Nations, 2022.
4. OECD. *Digital Government Strategies for Transforming Public Services*. — Paris: OECD Publishing, 2014.
5. Abdug‘aniyev A. **O‘zbekistonda elektron hukumat tizimini rivojlantirishning huquqiy asoslari** // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar jurnali, 2020.
6. Jo‘rayev S. **Raqamli iqtisodiyot sharoitida elektron hukumat tizimining ahamiyati** // Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil jurnali, 2021.
7. Ishmuhamedov M. **Elektron hukumat infratuzilmasi va axborot xavfsizligi masalalari** // Axborot texnologiyalari va boshqaruv, 2022.
8. O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. **“Elektron hukumat to‘g‘risida”**. — Toshkent, 2015.
9. O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi. *Elektron hukumatni rivojlantirish bo‘yicha rasmiy hisobotlar*. — Toshkent.
10. https://www.un.org/sustainabledevelopment/blog/2024/09/press-release-e-government-survey/?utm_source=chatgpt.com, 1-jadval.
11. https://www.theworldranking.com/statistics/712/e-government-development-index-by-country/?utm_source=chatgpt.com, 2-jadval.

INSTITUTIONAL RISKS AND STRUCTURAL RESILIENCE OF START-UP ECOSYSTEMS

Umarova Mukaddas Abbasovna[1], Mukhitdinova Dilrabo Vasiljon qizi[2]
[1]i.f.d.prof. MU Millat Umidi University
ORCID:0009000405232780
[2]60410900 BA-Business Administration faculty MU Millat Umidi University
ORCID: mukhitdinovadilrabo@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.18264886

Abstract. *Start-up ecosystems are often described as important engines of innovation and economic growth. However, in many cases, the failure of start-ups cannot be explained only by market or technological reasons. This paper focuses on institutional risks embedded in the structure of start-up ecosystems and examines how coordination problems among key actors affect ecosystem resilience. Based on a descriptive and conceptual analysis of existing materials, the study shows that mismatches between government policies, university systems, and private sector interests create structural vulnerabilities. These vulnerabilities increase the risk of start-up failure, even in ecosystems where formal support structures exist. The paper argues that institutional fragmentation represents one of the main challenges to building resilient start-up ecosystems.*

Annotatsiya. *Startap ekotizimlari ko'pincha innovatsiya va iqtisodiy o'sishning muhim harakatlantiruvchi kuchlari sifatida talqin etiladi. Biroq ko'plab hollarda startaplarning muvaffaqiyatsizligini faqat bozor yoki texnologik omillar bilan izohlab bo'lmaydi. Ushbu maqolada startap ekotizimlari tuzilmasida mavjud bo'lgan institutsional risklarga e'tibor qaratilib, asosiy ishtirokchilar o'rtasidagi muvofiqlashtirish muammolarining ekotizim barqarorligiga ta'siri tahlil qilinadi. Mavjud materiallar asosida olib borilgan tavsifiy va kontseptual tahlil shuni ko'rsatadiki, davlat siyosati, universitet tizimlari va xususiy sektor manfaatlari o'rtasidagi nomutanosiblik strukturaviy zaifliklarni yuzaga keltiradi. Ushbu zaifliklar, hatto rasmiy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari mavjud bo'lgan ekotizimlarda ham, startaplarning muvaffaqiyatsizlik xavfini oshiradi. Maqolada institutsional fragmentatsiya barqaror startap ekotizimlarini shakllantirishdagi asosiy muammolardan biri ekanligi ta'kidlanadi.*

Аннотация. *Стартап-экосистемы часто рассматриваются как важные двигатели инноваций и экономического роста. Однако во многих случаях неудачи стартапов невозможно объяснить исключительно рыночными или технологическими причинами. В данной работе основное внимание уделяется институциональным рискам, заложенным в структуре стартап-экосистем, а также анализируется влияние проблем координации между ключевыми участниками на устойчивость экосистемы. На основе описательного и концептуального анализа существующих материалов показано, что несоответствие между государственной политикой, университетскими системами и интересами частного сектора формирует структурные уязвимости. Эти уязвимости повышают риск неудач стартапов даже в тех экосистемах, где формально существуют механизмы поддержки. В работе утверждается, что институциональная фрагментация является одной из ключевых проблем формирования устойчивых стартап-экосистем.*

Keywords: *Start-up ecosystem; institutional risk; structural resilience; Triple Helix; university incubators; innovation policy.*

Kalit so'zlar: *Startap ekotizimi; institutsional risk; muvofiqlashtirishdagi uzilish; strukturaviy zaiflik; ekotizim barqarorligi.*

Ключевые слова: *стартап-экосистема; институциональный риск; сбой координации; структурная уязвимость; устойчивость экосистемы.*

1. Introduction

In recent years, start-ups have gained significant attention from policymakers and researchers as drivers of innovation, job creation, and economic renewal. Many countries have invested heavily in developing start-up ecosystems through the creation of incubators, accelerators, technoparks, and public support programs. These initiatives are often expected to stimulate entrepreneurial activity and support the growth of innovative firms.

Despite this growing support, start-up failure rates remain high. While market uncertainty and limited financial resources are frequently mentioned as the main causes, such explanations do not fully capture the complexity of the problem. Increasingly, scholars point to institutional factors that shape how start-up ecosystems function. Institutions influence access to resources, coordination among actors, and the overall risk environment in which start-ups operate.

This paper approaches start-up ecosystems from a risk perspective, focusing on institutional and structural dimensions. Rather than analyzing individual start-up performance, the study examines how institutional failures and coordination risks affect ecosystem resilience. By doing so, the paper aims to contribute to a better understanding of why some ecosystems struggle to support sustainable start-up growth.

2. Research Gap

Much of the existing literature on start-up ecosystems emphasizes success factors such as venture capital availability, entrepreneurial culture, and technological capabilities. Although these factors are important, they often overlook the role of institutional coordination and structural coherence. In particular, limited attention has been paid to how misalignment among government agencies, universities, and private sector actors generates systemic risks.

edu	45	20.484	8.28	10.647	59.261

Table-1. Descriptive statistics of the dataset.

The dependent variable, R&D researchers per million people (rd), contains 83 observations with a mean value of 1359.99 and a standard deviation of 1106.78, indicating considerable variation in research intensity across countries and years. The minimum recorded value is 343.22, while the maximum reaches 3450.99, reflecting significant disparity between lower-performing and higher-performing national research systems within the CIS region (Table-1).

The tertiary education variable, educational attainment at bachelor's level or higher (edu), consists of 45 observations, showing a mean of 20.48 percent and a standard deviation of 8.28 percent. The minimum value of 10.65 percent and maximum of 59.26 percent suggest wide

differences in higher education attainment, likely reflecting structural, economic, and policy variations across countries and over time (Table-1).

Variables	(1)	(2)
(1) lrd	1.000	
(2) ledu	0.474	1.000

Table-2. Correlation matrix.

The correlation matrix based on the log-transformed variables indicates a moderate positive relationship between the log of R&D researchers per million (lrd) and the log of tertiary education attainment (ledu), with a correlation coefficient of 0.4742 (Table-2). This suggests that countries with higher levels of bachelor's-level education or higher tend to exhibit higher research workforce intensity, consistent with theoretical expectations linking human capital development to national innovation capacity. Log transformation was applied to both variables to address non-normality in the original distributions, resulting in more stable variance and improving the suitability of the data for regression analysis. The correlation, while meaningful, is not excessively high, indicating a low risk of multicollinearity and supporting the inclusion of both variables in the econometric model.

Presented in Table-3, the OLS regression results reveal a statistically significant relationship between tertiary education attainment and R&D researcher intensity after log transformation. The model explains approximately 22.48% of the variance in the log of R&D researchers per million people (R-squared = 0.2248), indicating a moderate explanatory power for a cross-country dataset of this size. The overall model is statistically significant ($F(1,22) = 6.38$, $p = 0.0192$), confirming that the independent variable collectively contributes to explaining variation in the dependent variable.

lrd	Coef.	St.Err.	t-value	p-value	[95% Conf	Interval]	Sig
ledu	.708	.28	2.53	.019	.127	1.289	**
Constant	4.463	.837	5.33	0	2.727	6.198	***

Mean dependent var	6.565	SD dependent var	0.468
R-squared	0.225	Number of obs	24
F-test	6.381	Prob > F	0.019
Akaike crit. (AIC)	28.554	Bayesian crit. (BIC)	30.910

*** $p<.01$, ** $p<.05$, * $p<.1$

Table-3. Results of the OLS regression for the variables.

The coefficient for ledu (log of educational attainment) is 0.7077 and statistically significant at the 5% level ($p = 0.019$). This indicates that, on average, a 1% increase in tertiary education attainment is associated with approximately a 0.71% increase in the number of R&D researchers per million people, holding other factors constant (Table-3). This finding supports the theoretical expectation that higher levels of education generate stronger human capital foundations and contribute to expanding national research capacity.

The constant term (4.4626) is also significant ($p < 0.001$), reflecting the baseline level of R&D researcher intensity independent of the variation in tertiary education attainment (Table-3). The relatively low Root MSE (0.4215) suggests a reasonably good model fit for log-transformed data.

Overall, the regression results provide empirical evidence that higher educational attainment is a meaningful predictor of R&D researcher intensity among CIS countries. The positive and significant coefficient confirms the central hypothesis that human capital—proxied by bachelor's-level educational attainment—is an important driver of research workforce capacity, aligning with global trends in innovation and development.

Variable	Obs	W	V	z	Prob>z
uit	24	0.956	1.190	0.354	0.362

Table-4. Shapiro-Wilk test of normality on regression model error terms.

The Shapiro–Wilk test presented in Table-4 for normality indicates that the error terms of the regression model (uit) does not significantly deviate from a normal distribution. With a W statistic of 0.9559 and a p-value of 0.3616, the null hypothesis of normality cannot be rejected. This suggests that the variable's distribution is sufficiently normal for use in OLS regression, supporting the reliability of the model estimates and indicating that the log transformation effectively corrected non-normality in the data.

The Breusch–Pagan/Cook–Weisberg test shows no strong evidence of heteroskedasticity in the regression model. With a test statistic of $\chi^2(1) = 2.67$ and a p-value of 0.1023, the null hypothesis of constant variance cannot be rejected at the 5% significance level. This indicates that the residuals exhibit approximately constant variance, meaning the OLS assumption of homoskedasticity is reasonably satisfied and standard errors are reliable without needing heteroskedasticity-robust adjustments.

The Breusch–Godfrey LM test indicates no evidence of autocorrelation in the residuals of the model (Table-5). With a test statistic of $\chi^2(1) = 0.785$ and a p-value of 0.3755, the null hypothesis of no serial correlation cannot be rejected. This suggests that the error terms are independently distributed, satisfying another key Gauss–Markov assumption and supporting the reliability of the OLS estimates.

chi2	df	Prob>Chi2
0.785	1	0.376

Table-5. Breusch-Godfrey LM test for autocorrelation.

Overall, the empirical analysis demonstrates that expanding higher education attainment is positively associated with strengthening national research capacity in CIS countries. The regression results reveal a statistically significant relationship between tertiary education levels and the number of R&D researchers per million people, indicating that improvements in human capital formation translate into larger and more capable research workforces. Diagnostic tests confirm that the model satisfies key Gauss–Markov assumptions, with no evidence of problematic non-normality, heteroskedasticity, or autocorrelation, supporting the robustness of the OLS estimates. These findings highlight the importance of investing in higher education—particularly university expansion and quality enhancement—as an effective policy pathway for countries like Uzbekistan seeking to build a more advanced, innovation-driven economy.

Discussions and conclusions.

This study examines the relationship between university availability and national research capacity across CIS countries using panel data from 2005–2025. The empirical results demonstrate a positive and statistically significant association between tertiary educational attainment and the number of R&D researchers per million people, suggesting that countries with stronger higher education systems tend to cultivate more robust research workforces.

Diagnostic tests confirm that the regression model satisfies key econometric assumptions, supporting the reliability of the findings. Overall, the analysis highlights the important role that university expansion and human capital development play in building an innovation-driven economy.

The results indicate that improving access to higher education and increasing the number of universities contribute meaningfully to the growth of a country's research and development capacity. This reinforces the theoretical expectation that human capital accumulation strengthens national innovation systems by supplying qualified personnel, fostering research environments, and enabling knowledge production. As such, the findings provide empirical support for policies that prioritize the development of higher education institutions as a foundation for long-term technological and economic advancement.

From a policy perspective, governments seeking to enhance innovation performance should view investment in universities not only as an educational priority but also as a strategic economic tool. Key recommendations include expanding higher education infrastructure, improving quality standards, strengthening university–industry collaboration, and increasing financial support for scientific research. Additionally, policies that enhance tertiary education attainment—through scholarships, improved access, and curriculum modernization—can further amplify the impact of university growth on national R&D intensity.

In the case of Uzbekistan, recent reforms have significantly expanded the number of universities and increased attention to science, technology, and innovation. However, national R&D intensity and the number of researchers per capita remain below global and regional benchmarks. The findings of this study underscore the importance of sustaining current higher education expansion while complementing it with deeper institutional reforms, such as improving research funding, enhancing academic quality, and strengthening links between universities and the private sector. By aligning higher education growth with targeted innovation policies, Uzbekistan can accelerate its transition toward a knowledge-based economy and more effectively leverage its expanding university system to develop a competitive national research capacity.

REFERENCE

14. Umarov, A.A.. (2025). Over the past decade, the number of universities in Uzbekistan has increased 3.2 times — reaching 222 institutions. UzDaily, Tashkent. Accessed from: https://www.uzdaily.uz/en/over-the-past-decade-the-number-of-universities-in-uzbekistan-has-increased-32-times-reaching-222-institutions/
15. Romer, P. M. (1990). Endogenous Technological Change. Journal of Political Economy, 98(5, Part 2), S71–S102. Accessed from: https://web.stanford.edu/~klenow/Romer_1990.pdf
16. Aghion, P., Howitt, P. (1992). A Model of Growth Through Creative Destruction. (NBER Working Paper; published versions cited widely) Accessed from: https://www.jstor.org/stable/2951599
17. Benhabib, J., & Spiegel, M. M. (1994). The Role of Human Capital in Economic Development: Evidence from Aggregate Cross-Country Data. Journal of Monetary Economics, 34(2), 143–173. Accessed from: https://ideas.repec.org/a/eee/moneco/v34y1994i2p143-173.html

18. Cohen, W. M., Levinthal, D. A. (1990). Absorptive Capacity: A New Perspective on Learning and Innovation. Administrative Science Quarterly, 35(1), 128–152. Accessed from: https://josephmahoney.web.illinois.edu/BA545_Fall%202022/Cohen%20and%20Levinthal%20%281990%29.pdf
19. Perkmann, M., Tartari, V., McKelvey, M., Autio, E., Broström, A., D'Este, P., Fini, R., Geuna, A., Grimaldi, R., Hughes, A., Kitson, M., Llerena, P., Lissoni, F., Salter, A., & Sobrero, M. (2013). Academic engagement and commercialisation: A review of the literature on university–industry relations. Research Policy, 42(2), 423–442. Accessed from: https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0048733312002235
20. Jaffe, A. B.. (1992). Geographic Localization of Knowledge Spillovers as Evidenced by Patent Citations. NBER Working Paper / later publications (and related AER/other articles). Accessed from: https://papers.ssrn.com/sol3/papers.cfm?abstract_id=1504457
21. Mowery, D. C., Sampat, B. N.. (2004). The Bayh-Dole Act of 1980 and University–Industry Technology Transfer: A Model for Other OECD Governments?. The Journal of Technology Transfer 30, 115–127 (2004). Accessed from: https://link.springer.com/article/10.1007/s10961-004-4361-z
22. The National Academy of Sciences. (2014). U.S. Universities and Industrial Innovation: An Interactive Relationship Producing Economic Value from Research. Accessed from: https://www.ncbi.nlm.nih.gov/books/NBK253889/
23. Feldman, M.P., Florida, R.. (1994). The Geographic Sources of Innovation: Technological Infrastructure and Product Innovation in the United States. Annals of the Association of American Geographers, Vol. 84, No. 2 (Jun., 1994), pp. 210-229 (20 pages). Accessed from: https://www.jstor.org/stable/2563394
24. Griliches, Z. (1998). R&D and Productivity: The Econometric Evidence. NBER. University of Chicago Press (chapters & essays synthesizing evidence). Accessed from: https://www.nber.org/books-and-chapters/rd-and-productivity-econometric-evidence
25. Lee, L., Y.S.. (2025). The size of higher education, R&D expenditure, academic documents and international rankings. Social Sciences & Humanities Open, Volume 11, 2025, 101189. Accessed from: https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S2590291124003863
26. Maral, M.. 2025. "Cross-Country Analysis of Research and Development Efficiency in Higher Education: Data Envelopment Analysis and Hybrid Multi-Criteria Decision-Making Approach," Journal of the Knowledge Economy, Springer; Portland International Center for Management of Engineering and Technology (PICMET), vol. 16(4), pages 14427-14460, October. Accessed from: https://ideas.repec.org/a/spr/jknowl/v16y2025i4d10.1007_s13132-024-02518-3.html
27. Etzkowitz, H., Leydesdorff, L.. (2000). The Dynamics of Innovation: From National Systems and "Mode 2" to a Triple Helix of University–Industry–Government Relations. Research Policy, 29(2), 109–123. Accessed from: https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S0048733399000554
28. Etzkowitz, H., Leydesdorff, L.. (1998). A Triple Helix of University—Industry—Government Relations: Introduction. Industry and Higher Education, Volume 12, Issue 4. Accessed from: https://journals.sagepub.com/doi/10.1177/095042229801200402
29. World Bank, 2025. World Development Indicators. World Bank, Databank. Accessed from: https://databank.worldbank.org/source/world-development-indicators

IQTISODIYOTDA KAMBAG‘ALLIK DARAJASINI QISQARTIRISHDA MOLIYA BOZORI INSTRUMENTLARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Inoyatov Mirazam[1], D.N. Ishmanova[2]
[1]Millat Umidi Universiteti 4-bosqich talabasi,
[2]i.f.d., Millat Umidi University dotsenti
https://doi.org/10.5281/zenodo.18298803

Annotatsiya. *Bugungi kunda iqtisodiyotda kambag‘allikka qarshi kurashishda biznesni moliyalashtirishning ko‘plab usullari mavjud. Ular orasida eng zamonaviy va keng tarqalgan model kraudfanding hisoblanadi. Ushbu model biznesni boshlash uchun mablag‘ yetarli bo‘lmaganlar uchun juda samarali usul bo‘lib, kraudfanding - internet orqali investorlardan mablag‘ yig‘ish, innovatsion g‘oyani moliyalashtirishning zamonaviy mexanizmi. Mazkur maqola “Kraudfanding” konsepsiyasi, uni O‘zbekistonda rivojlantirish orqali kambag‘allikni qisqartirish istiqbollarini o‘rganishga qaratilgan.*

Kalit so‘zlar: *kraudfanding, kraudinvesting, kambag‘allik, qashshoqlik darajasi, iste’mol minimumi, biznes, mikromoliyalashtirish, kredit, venchur, investitsiya.*

Abstract. *In today's economy, there are many ways to finance a business in the fight against poverty. Among them, the most modern and widespread model is crowdfunding. This model is a very effective method for those who do not have enough funds to start a business, and crowdfunding is a modern mechanism for collecting funds from investors and financing an innovative idea via the Internet. This article is aimed at studying the concept of "Crowdfunding" and the prospects of reducing poverty through its development in Uzbekistan.*

Keywords: *crowdfunding, crowdinvesting, poverty, poverty level, consumption minimum, business, microfinancing, credit, venture, investment.*

Абстракт. *В современной экономике существует множество способов финансирования бизнеса в борьбе с бедностью. Среди них наиболее современной и распространенной моделью является краудфандинг. Эта модель — очень эффективный метод для тех, у кого недостаточно средств для открытия бизнеса, а краудфандинг — современный механизм сбора средств инвесторов и финансирования инновационной идеи через Интернет. Данная статья направлена на изучение понятия «Краудфандинг» и перспектив сокращения бедности посредством его развития в Узбекистане.*

Ключевые слова: *краудфандинг, краудинвестинг, бедность, уровень бедности, минимум потребления, бизнес, микрофинансирование, кредит, венчурное инвестирование.*

Kirish. Bugungi kunda iqtisodiyotda kambag‘allikni qisqartish, aholi daromadlarini oshirish, tadbirkorlikni rivojlantirish dolzarb masala bo‘lib kelmoqda. Ushbu maqsadlarni amalga oshirishda moliyalashtirish va investitsiyalarning zamonaviy vositalari maydonga kelmoqda. Iqtisodiyotda qashshoqlikni yumshatishda 53 tadbirkorlikni rivojlantirish uchun mablag‘ yig‘ish doimo muammo bo‘lib kelgan. Mikromoliyalashtirishning modeli kraudfanding rivojlangan davlatlarda biznesni moliyalashtirishda muammoni oson, arzon, tez yechishning demokratik vositasiga aylandi va shu bilan birga kraudfanding modeli moliyalashtirishning ommaviylashuviga olib keldi. Kelajakda butun dunyo bo‘ylab mikromoliya tashkilotlari (MMT)

faoliyatining kengayishi bilan model ijobiy va salbiy natijalarga olib kelgan ko‘plab o‘zgarishlarni boshdan kechira boshladi, bu mikromoliyaning iqtisodiy rivojlanish vositasi sifatida maqsadga muvofiqligi va samaradorligi to‘g‘risida savollar tug‘dirdi. Xususan, investitsion resurslardan foydalanishni osonlashtirish orqali aholining kam ta’minlangan qatlamlarining iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirishdan ijtimoiy maqsadni ko‘zlashdan ko‘ra, daromad olishga e’tibor qaratadigan mikromoliya institutlarining paydo bo‘lishi ko‘plab munozarali holatlar - o‘z joniga qasd qilish, jamiyatlarda qashshoqlikning kuchayishi tufayli tanqid qilinmoqda. Bunday muammolar ko‘payib borayotganligi sababli, turli olimlar nafaqat mikromoliyalash samaradorligini iqtisodiy rivojlanish vositasi sifatida o‘lchaydigan, balki mikromoliyaviy faoliyat duch keladigan tarkibiy muammolarni ham ochib beradigan modellarni ishlab chiqdilar. Kambag‘allikni qisqartirishda ana’anaviy mikromoliyalashtirish tizimida yuzaga kelayotgan muammolarga yuqori tranzaksiya xarajatlari, moliyaviy barqarorlikning yo‘qligi, muhim ma’lumotlarning nosimmetrikligi, past darajadagi shaffoflik, korrupsion sxemalar orqali pul yuvilishi, nepatizm va yomon boshqaruv mikromoliyaning moliya bozoriga olib kelgan eng muhim tarkibiy muammolaridan biri sifatida qayd etildi. Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi an’anaviy mikromoliyalashdan ko‘ra, qashshoqlikka qarshi kurashda samaraliroq bo‘ladigan tuzatuvchi kuch bo‘lishi mumkin.

Adabiyotlar sharhi: Qashshoqlik muammosi har bir kishini tahlikaga soladigan iqtisodiy va ijtimoiy hodisa bo‘lib bugungi kunda rivojlanayotgan hamda rivojlangan mamlakatlar aholisining salmoqli qismini, hatto XXI asrda ham ta’qib qilmoqda. Iqtisodiyotda ushbu muammoning yechimini topish maqsadida xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlarning ko‘plab ilmiy ishlarining dolzarb mavzusi bo‘lib kelmoqda. Ko‘plab tadqiqotchilar bu savolga javob topishga harakat qilishdi, ammo bugungi kunga qadar har bir mamlakat aholisining qashshoqlik darajasini baholashning yagona mezonlari va muammoni bartaraf etishning umumiy qabul qilingan yo‘llari mavjud emas. Kambag‘allik darajasining standart tahlili kunlik xarajat va daromad chegarasidan yuqori yoki pastda yashaydigan odamlar sonini baholash uchun ma’lum bir pul chegarasidan foydalaniladi. Jahon Banki tomonidan ishlab chiqilgan jahon mamlakatlarida qashshoqlikni o‘lchash uchun uning chegarasi, ya’ni AQSH dollarida kuniga ma’lum miqdorda daromad sifatida belgilangan. Ayni vaqtda bu ko‘rsatkich o‘rtacha 1.90 dollarni tashkil qiladi. Yashash minimumining bunday tahlilini qashshoqlik darajasini baholashning eng keng tarqalgan usuli deb hisoblash mumkin**. C.Kaskarilla** va **S.Guptalarning** 54 ishlarida kambag‘allikni tahlil qilishning ushbu usulini amaliyotda qo‘llash bilan tanishish mumkin.Kambag‘allikka qarishi kurashishda an’anaviy mikromoliyani raqamli shaklga o‘tkazish orqali zamonaviy tarixda ko‘pchilik mamlakatlar aholisining asosiy qismi qashshoqlik sabablarini aniqlashga bag‘ishlangan ilmiy ishlar bilan tanishib, kambag‘allik chegarasidan olib chiqishga yo‘naltirilgan mikromoliyalash mexanizmlarida zamonaviy raqamli texnologiyalarning yetarli darajada joriy etilmagani bilan bog‘liq degan umumiy xulosaga kelishimiz mumkin. **Koreya, Yaponiya va Singapur** kabi ba’zi davlatlar ilg‘or texnologiyalarni joriy etish orqali qashshoqlikdan qutulishga muvaffaq bo‘ldi. Agar raqamli texnologiyalar kambag‘al mamlakatlarga texnologik rivojlanishni kambag‘allarning yashash ehtiyojlari bilan moslashtira oladigan tegishli milliy innovatsion tizim kabi tegishli institutlar bilan ta’minlansa, globallashuv, texnologiya va tadbirkorlik ilg‘or o‘zgarishlarning drayveri bo‘lishi mumkin18. Milliy iqtisodiyotimizni qaraydigan bo‘lsak, tijorat banklarida uzoq muddatli kredit resurslarining yetishmasligi, kredit berish shartlarining og‘irligi, yuqori ta’minot talablari, yuqori foizlar hamda mamlakatimiz kambag‘al fuqarolariga kredit berish xavfi ortib borayotganini

hisobga olgan holda, aholining eng kambag‘al qatlami yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyatini, kichik va o‘rta biznesni muqobil moliyalashtirishda kraudfanding moliyalashtirish modeli an’anaviy mikromoliya, hatto, bank kreditlariga o‘z vaqtida zamonaviy muqobil yechim bo‘lishi mumkin. Birinchi navbatda, kraudfanding modeli tushunchasi haqida tasavvurga ega bo‘lishimiz lozim.

Kraudfanding (ingliz. “kraudfanding”) - bu loyihalarni jamoaviy moliyalashtirish mexanizmi bo‘lib, bunda yangi mahsulotni yaratish uchun pul uning oxirgi foydalanuvchilaridan biri bo‘lib keladi. Standart bozor mexanizmlaridan farqli o‘laroq, kraudfanding reklama, bozorni o‘rganish, bozor tahlili va taxminlarga qo‘shimcha mablag‘ sarflamasdan, 100% foydali loyiha yaratish imkonini beradi. Kraudfanding - bu mikroinvestitsiyalar orqali loyihalarni moliyalashtirish uchun Internet orqali cheksiz odamlarni jalb qilish texnologiyasi bo‘lib, ushbu amaliyotni bajarishda platformalar vositachi vazifasini bajaradi va startaployihalarga shu yo‘l bilan kapitalni jalb qilish imkoniyatini beradi. **M. Sriram** tahliliga ko‘ra, zamonaviy moliya bozorida kraudfanding rolini baholash bo‘yicha informatsion maqola chop etdi. Uning ta’kidlashicha, katta ma’lumotlarni saqlash, olish imkonini beruvchi texnologiyada ortiqcha kapitalga ega bo‘lganlar hamda qisqa muddatli sarmoyaga muhtoj bo‘lganlar o‘rtasidagi vositachilik funksiyasi moliya bozori manzarasini butunlay o‘zgartirishi mumkin. Bundan tashqari, agar blokcheynning to‘liq salohiyati yaratilgan bo‘lsa, individual investorlar kapitalga muhtoj bo‘lgan. Jumladan, kambag‘allar bilan bevosita bog‘lanish mumkin edi.

Tahlil va natijlar: Kraudfanding-kapitalni oshirish va startap loyihalarni moliyalashtirishning nisbatan yangi usuli bo‘lib, biznesni kengaytirish yoki boshlash, biznes reja uchun kerakli mablag‘ ajratishning bir usuli hisoblanadi. Kraudfanding tadbirkorga pul to‘plash imkonini berishi bilan bir vaqtning o‘zida biznes atrofida shov-shuv yaratish imkoniyatini yaratadi. Qisqa qilib aytganda, kraudfanding kichik biznes uchun bank kreditlarining muqobil variantlaridan yana biri bo‘lishi mumkin. Bugungi kunda rivojlangan davlatlarda ko‘p turdagi kraudfanding platformalari mavjud va bu jarayon foydalanuvchilarga qarzga kirmasdan biznesni moliyalashtirish imkonini beradi, shuning uchun u iqtisodiyotda moliyaviy resurslarga muhtoj bo‘lgan ko‘plab kichik biznes egalari uchun juda qulay usul sifatida amaliyotga joriy bo‘lmoqda. Qaysi kraudfanding platformasini tanlashingizdan qat’iy nazar, kraudfandingni yaratish odatda, kompaniya yaratish, marketing, maqsadga erishish niyatida pul yig‘ish kabi uch bosqichni o‘z ichiga oladi. Kompaniya yaratish bosqichida moliyalashtirish obyekti biznes, mahsulot yoki xizmat haqida ma’lumotlar biznes reja shaklida to‘liq shakllantiriladi va jalb qilinadigan pulning qayerga sarflanishi, nima uchun bunday miqdorga muhtojligini aniq asoslantiriladi. Umuman olganda, ishonchli va asoslangan biznes reja butun kraudfanding kompaniyasini yaratishda muhim qadam bo‘lib xizmat qiladi. Kraudfanding kompaniyasini yaratish ilk qadam bo‘lib, keyingi qadamda biznesni qo‘llab-quvvatlashga qiziqadigan odamlarni jalb qilish uchun marketing rejasini ishlab chiqish kerak bo‘ladi. Ushbu bosqichda "investor" yoki "donor" kompaniyaga pul berishga qaror qiladi va taklif qilinayotgan mahsulot yoki xizmatning maqsadli auditoriyasiga aylantiriladi. Kraudfanding "investorlar" yoki "donorlar" yangi biznes g‘oyani yoki loyihani moliyalashtirishga qaror qilishi uchun biznesingizni muhim jihatini ochib berish va ishontirishni talab qiladi. Bugungi kunda kraudfandingning 4 ta asosiy turi uchun ruxsat bor:

- fond kraudfanding;
- kraudfandingga asoslangan ehsonlar;
- kraudfandingga asoslangan mukofotlar;
- kraudfanding kreditlar

Fond kraudfanding - bu birgalikdagi kraudfanding yoki aksiyadorlik jamg‘armasini pul evaziga o‘z biznesingizdagi ulushni sotasiz va kompaniya 56 foydasining bir qismi investorlarga taqsimlanadi. Ushbu turdagi kraudfanding ba’zi huquqiy qiyinchiliklar bilan bog‘liq, ammo uni amalga oshirish mumkin. Bu turdagi kraudfandingga ixtisoslashgan kraudfanding platformalarining ayrim misollari: AngelList: Angellistda pulni jalb qilish va Venture fondlari bilan bog‘lanish uchun boshlang‘ich profilni yaratish mumkin. CircleUp: ushbu platforma iste’molchilarga bevosita mahsulot sotadigan kompaniyalarga qaratilgan. Ishtirokchilar investorlarning hamkori bo‘lishi va biznes jarayonlarida yordam olish yoki yordam berish mumkin. Fundable: ushbu platformada aksiyalar bo‘yicha mablag‘ to‘plashni tanlash mumkin. Fundable $50 000 dan $10 milliongacha bo‘lgan kompaniyalar uchun aksiyalar bilan variantni taklif qiladi.

Xayr-ehsonlar kraudfandingi. Bu turdagi kraudfanding kompaniyangizga pul berib, buning o‘rniga hech narsa kutmasdan ishlaydi. Xayr-ehsonga asoslangan kraudfanding kambag‘allikdan chiqish uchun qulay imkoniyatga ega bo‘lsa-da, bu g‘oya egalariga muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun eng qiyin bo‘lishi mumkin. Sababi ushbu turdagi kraudfandingda qatnashuvchi donorlar odatda, xayriya tashkilotlari bilan ishlashadi yoki ijtimoiy muammolarni hal qilishga mablag‘larini yo‘naltirishadi.

Mukofotga asoslangan kraudfanding. Mukofotga asoslangan kraudfanding bilan omonatchilar pul topish uchun muayyan mukofot olishadi. Kraudfandingning bu turi birja kraudfandingi deb ham ataladi va mukofot ko‘pincha kompaniya uchun tikilgan pul miqdoriga bog‘liq. Kompaniyalar omonatchilarga mablag‘ to‘playdigan yangi mahsulotni yuborishlari mumkin.

Kredit kraudfanding. Kredit mablag‘lari, foydalanuvchilararo kredit yoki bozor krediti sifatida ham tanilgan, agar shaxs yoki kompaniya bankka kreditiga emas, balki bir guruh odamlarga moliyaviy yordam so‘rab murojaat qilsa, investitsiya qilingan pul belgilangan muddatlarda, foizlar bo‘yicha qaytarilishi kerak. Kraudfanding biznes kreditini an’anaviy kreditlarga nisbatan past foizda taklif qilishi bilan qulaydir. Kredit kraudfanding platformalariga quyidagilar kiradi: Prosper- kichik biznesda foydalanish uchun shaxsiy kredit olish imkonini beradi. Bu kambag‘al aholini biznes boshlashi uchun foydali bo‘lishi mumkin, chunki bunda murojaatchini biznes layoqatiga emas, balki shaxsiy ijtimoiy ahvoliga bog‘liq. Street Shares - bu platforma biznesni moliyalashtirish uchun turli xil variantlarni taklif etadi va potensial investorlarga biznes obligatsiyalariga sarmoya kiritish imkoniyatini beradi. Biznesni moliyalashtirish orqali kambag‘allikni qisqartirishda kraudfanding bilan bilan bir qatorda kraudinvestingdan ham keng foydalaniladi. Kraudinvesting istiqbolli loyihalarni moliya bilan ta’minlash uchun ko‘plab kreditorlarning moliyaviy resurslaridan foydalanadi. Kraudinvestingda kapitalga talab va taklifni birgalikda tartibga solish internet platformalari orqali amalga oshiriladi. Shu bilan birga, tadbirkorlar kraudinvesting orqali qoplamoqchi bo‘lgan kapitalga bo‘lgan ehtiyojni aniqlaydi.

Kraudinvesting - bu ko‘p sonli ishtirokchilar mikroinvestorlar tomonidan amalga oshirilgan loyihaga investitsiya. Bu loyihada faqat mikroinvestorlar ishtirok etadi, degani emas. Masalan, aksiyalarning 51 foizi loyiha egasiga, 2 foizi venchur fondiga tegishli, qolgan ulush esa sarmoya kiritishga tayyor bo‘lgan mikroinvestorlarga sotiladi. Mikroinvestorlar kompaniya aksiyalarini yoki startap aktivlari ulushini olishlari mumkin. Ushbu holatda ta’sischi kredit berishi mumkin shuningdek, ta’sischi kraudinvestorlardan olingan pulni foizlar bilan qaytarishi kerak. Kraudfanding, pul bilan bog‘liq jarayon, shuning uchun uning ijobiy va salbiy tomonlari

bor. Kraudfanding afzalliklariga ushbu platforma bozorni sinab ko‘rishning ajoyib usuli bo‘lishi mumkin. Biznes g‘oyangiz bo‘lsa-da, lekin bozorga kirib borishga ishonch bo‘lmasa, kraudfanding ushbu imkoniyatni beradi. Biroq biznes g‘oya investorlar hamda sarmoyadorlarni jalb qilmasa, unda biznesingiz strategiyasini va g‘oyasini o‘zgartirish lozimligi to‘g‘risidagi muhim xulosalarni shakllantirish imkoniyatini yaratadi. Odatda, biznesda moliyalashtirish bilan bog‘liq muammolar kelib chiqadi ushbu vaziyatda, bozor moliyaviy mas’uliyatning katta qismini o‘z bo‘yniga oladi. Bundan tashqari kraudfanding moliyalashtirish mexanizmi orqali biznesni moliyalashtirish, aholining kam ta’minlangan qismini biznes boshlashi uchun vaqtdan yutish imkoniyatini oshirishi, kam foizli yoki hayriya tarzidagi mablag‘larni jalb qilish imkoniyatini oshirishi, mahsulotning bozorga chiqishini tezlashtirishi mumkin. Shunga qaramasdan, kraudfanding platformalarining ba’zi kamchiliklariga xususan, kraudfanding platformalaridan foydalanish to‘lovlarining mavjudligi, investorlarni jalb qilish uchun marketing xizmatlarini professional tarzda tashkil qilish xarajatlarining ortib ketishi, platforma ishtirokchilari o‘rtasida daromadni taqsimlashdagi qiyinchilik, intellektual mulk huquqlarini ta’minlashdagi qiyinchilik, ishtirokchilardan olingan katta hajmdagi ilmiy-texnikaviy hamda bozor axborotlarining sifati past binobarin, pasayishiga olib keladi.

Xulosa va Takliflar: Xulosa o‘rnida yuqoridagi ilmiy qarashlardan kelib chiqib, shuni ta’kidlash mumkin. Birinchidan, kraudfanding moliya bozoridan kam ta’minlangan fuqarolar mablag‘larni jalb qilishning eng oddiy, eng tezkor shuningdek, eng arzon shakli ekanligi haqida xulosa qilishimiz mumkin. Internetga kirish imkoniyatiga ega mobil telefonlar hozirda jamiyatning eng kambag‘al qatlamlari ham foydalanishi mumkinligini hisobga olsak, kraudfandingni rivojlantirish istiqbollari cheksiz imkoniyat sifatida ko‘rinadi. Ikkinchidan, hozirgi vaqtda aholining kam ta’minlangan qismini raqamli moliyalashtirish jahon moliya bozorini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishi ekanligi shuningdek, kraudfanding platformasining kengayishi mamlakatda kambag‘allikni kamaytirishga yordam berishini hisobga olib, ushbu mexanizmni mamlakatimizda ham ishlab chiqish muhim omil deb, taklif qilishimiz kerak. Uchinchidan, bu kam ta’minlangan aholi qatlamining muhim qismini kredit qarzlari bo‘yicha foiz stavkalarini sezilarli darajada pasaytirish bilan bugungi kunda kam ta’minlangan aholi qatlamini tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanish ishtiyoqini kraudfanding orqali kichik biznesga jalb qilish imkonini beradi. Natijada mamlakat iqtisodiyotida qo‘shilgan qiymatning oshishiga, yangi ish o‘rinlarining yaratilishiga, ishsizlik darajasining pasayishiga, aholi daromadi va yashash sharoitlarining yaxshilanishiga, bandlik darajasi ortishi, milliy daromadning o‘sishi, oxir oqibatda kambag‘allik darajasi sonini kamaytirishga erishiladi. To‘rtinchidan, iqtisodiyotda kambag‘allik darajasini kamaytirishda kraudfanding modelidan foydalanish imkoniyatlari kambag‘allar sonini kamaytirishda amalda ishlayotgan ana’anaviy mikromoliyaviy faoliyat duch keladigan tarkibiy muammolar - yuqori tranzaksiya xarajatlari, moliyaviy barqarorlikning yo‘qligi, muhim ma’lumotlarning nosimmetrikligi, past darajadagi shaffoflik, korrupsion sxemalar orqali pul yuvilishi, nepatizm hamda yomon moliyaviy boshqaruv holatlariga barham berishi mumkin.

Takliflar:

1. Kraudfanding uchun milliy qonunchilik bazasini yaratish. O‘zbekistonda kraudfanding faoliyatini tartibga soluvchi maxsus qonun va normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish lozim. Bu investorlar va tadbirkorlar o‘rtasidagi huquqiy munosabatlarni aniqlashtirib, moliyaviy xavflarni kamaytiradi va ishonch muhitini mustahkamlaydi.

2.Mahalliy kraudfanding platformalarini tashkil etish. Chet el platformalaridan foydalanish o‘rniga, milliy miqyosda raqamli kraudfanding tizimini yaratish orqali O‘zbekiston fuqarolari o‘z loyihalarini mahalliy tilda, milliy to‘lov tizimlari orqali moliyalashtirish imkoniga ega bo‘ladi. Bu kichik biznes va startaplarga yanada qulay sharoit yaratadi.

3.Aholi o‘rtasida moliyaviy savodxonlik va raqamli madaniyatni oshirish. Kraudfandingdan samarali foydalanish uchun fuqarolar, ayniqsa yoshlar va kichik biznes egalari o‘rtasida raqamli moliya, investitsiya va onlayn platformalardan foydalanish bo‘yicha trening va o‘quv kurslarini yo‘lga qo‘yish zarur.

4.Kraudfandingni ijtimoiy loyihalarga yo‘naltirish. Kraudfanding faqat biznesni emas, balki kambag‘allikni kamaytirishga xizmat qiluvchi ijtimoiy loyihalarni ham moliyalashtirishda qo‘llanishi kerak. Masalan, kasb-hunar o‘rganish markazlari, ayollar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash, ekologik loyihalar uchun maxsus jamg‘arma platformalarini yaratish mumkin.

5. Soliq imtiyozlari va rag‘batlantiruvchi mexanizmlarni joriy etish. Kraudfanding platformalariga va ularda faol ishtirok etayotgan investor hamda donorlar uchun soliq imtiyozlarini berish, shu orqali ushbu tizimga jalbni oshirish kerak. Bu nafaqat xususiy sektorni faollashtiradi, balki kambag‘allikka qarshi kurashda barqaror moliyaviy oqimni ta’minlaydi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 20-dekabrdagi“Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikni ta’minlash sohasidagi davlat siyosatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF–269-son Farmoni.
2. Kortleben H., Vollmar B. 2012, Crowdinvesting: An alternative in start-up financing” PFH Forschungspapiere/Research Papers Göttingen, Deutschland: Private University of Applied Sciences (PFH). No. 2012/06.
3. Leimeister, J. M. (2012): Crowdsourcing, Crowdfunding, Crowdvoting, Crowdcreation. 388 – bis 392. St.Gallen, CH: Zeitschrift für Controlling und Management.
4. Sriram M.S. (2005). Information asymmetry and trust: a framework for studying microfinance in India. Vikalpa, 30(4), 77-86.
5. Sanjeyev G. (2009). Effect of Remittances on Poverty and Financial Development in Sub-Saharan Africa. Journal of World Development. Vol. 37. Iss. Pp. 104-115.
6. https://data.worldbank.org/indicator/ SI.POV.DDAY
7. Cascarilla C. (2015). Bitcoin, Blockchain, and the Future of Financial Transactions. CFA Institute Publications. Third Quarter 2015. Vol. 32. Iss. 3.

O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI TA’SIRI

Zoirov Azamat[1], D.N. Ishmanova[2]
[1]Millat Umidi Universiteti 4-bosqich talabasi
[2] i.f.d., Millat Umidi University dotsenti
https://doi.org/10.5281/zenodo.18298828

Annotatsiya. *Mazkur maqolada O‘zbekiston iqtisodiyotida raqamli texnologiyalarning rivojlanishi, raqamli infratuzilmaning iqtisodiyotga ta’siri va elektron tijoratning iqtisodiy o‘sishga qo‘shgan hissasi ko‘rib chiqiladi. “Raqamli O‘zbekiston” dasturi doirasidagi yutuqlar va dolzarb yo‘nalishlar tahlil qilinib, iqtisodiy transformatsiyada raqamli texnologiyalarning muhim ahamiyati o‘rganiladi. Tadqiqot O‘zbekiston iqtisodiyoti uchun raqamli texnologiyalarning kelajakdagi istiqbollarini yoritishga qaratilgan.*

Kalit so‘zlar: *O‘zbekiston iqtisodiyoti, raqamli texnologiyalar, raqamli infratuzilma, elektron tijorat, “Raqamli O‘zbekiston” dasturi, iqtisodiy o‘sish.*

Аннотация. *В данной статье рассматривается развитие цифровых технологий в экономике Узбекистана, влияние цифровой инфраструктуры на экономику и вклад электронной коммерции в экономический рост. Будут проанализированы достижения и актуальные направления в рамках программы” Цифровой Узбекистан", изучено значение цифровых технологий в экономической трансформации. Исследование направлено на освещение будущих перспектив цифровых технологий для экономики Узбекистана.*

Ключевые слова: *Экономика Узбекистана, цифровые технологии, цифровая инфраструктура, электронная коммерция, программа “Цифровой Узбекистан”, экономический рост.*

Annotation. *This article will consider the development of digital technologies in the economy of Uzbekistan, the impact of digital infrastructure on the economy and the contribution of e-commerce to economic growth. Achievements and current directions within the framework of the” digital Uzbekistan " program are analyzed and the important importance of digital technologies in economic transformation is studied. The study is aimed at highlighting the future prospects of digital technologies for the economy of Uzbekistan.*

Keywords: *Economy of Uzbekistan, digital technologies, digital infrastructure, e-commerce, “digital Uzbekistan” program, economic growth.*

Kirish. O‘zbekiston iqtisodiyotida raqamli texnologiyalarning rivojlanishi so‘nggi yillarda sezilarli darajada jadallashdi. Ushbu jarayon ko‘plab sohalar, jumladan, davlat boshqaruvi, bank-moliya tizimi, ta'lim, sog‘liqni saqlash va telekommunikatsiya sohalarini qamrab olmoqda. O‘zbekiston hukumati raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish uchun 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan “Raqamli O‘zbekiston” dasturni qabul qildi. Ushbu strategiya iqtisodiyotning barcha sektorlariga zamonaviy raqamli yechimlar joriy etishni ko‘zlaydi.

Adabiyotlar sharhi. O‘zbekiston iqtisodiyotida raqamli texnologiyalarning rivojlanishi va uning turli sohalarga ta’siri haqida batafsil yoritilgan. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” dasturining muhim bosqichlari va natijalari ko‘rib chiqilib, raqamli infratuzilma va elektron tijoratning iqtisodiy samaradorlikka ijobiy ta’siri tahlil qilingan. Shuningdek, xalqaro

miqyosdagi tendensiyalar, jumladan, sun’iy intellekt va IoT texnologiyalarining global iqtisodiyotga kiritayotgan hissasi ham keltirilgan.[1] McKinsey Global Institute. (2023). Raqamli transformatsiyaning iqtisodiy o‘sishga ta’siri.

Iqtisodiyotning raqamli transformatsiya sharoitida o‘zbekiston makroiqtisodiy o‘sish istiqbollari. [2] CB Insights. (2023). Fintech va moliyaviy texnologiyalarning rivojlanish tendensiyalari. Moliyaviy innovatsiyalar yangi moliyaviy vositalar, texnologiyalar, institutlar va bozorlarni ixtiro qilish, ishlab chiqish va qabul qilishni nazarda tutadi.[7] Jahon Banki. (2020). Elektron tijorat va kichik biznes rivoji. Raqamli iqtisodiyot elektron mahsulotlar va xizmatlar ishlab chiqarish va ularni elektron. tijorat orqali tarqatish asosida: “elektron mahsulotlarga ixtisoslashgan biznes ishlab[8]

Tahlil va natijalar. Davlat xizmatlarini raqamlashtirish bo‘yicha E-hukumat tizimi doirasida muhim qadamlar tashlangan. 2023 yil holatiga, davlat xizmatlarining 60% dan ortig‘i onlayn rasmiylashtirish imkoniga ega. Buning natijasida, aholining davlat xizmatlaridan foydalanishi osonlashib, korrupsiya darajasi pasayishga yordam bermoqda. "Yagona darcha" tizimi orqali 2022 yilda 11 milliondan ortiq davlat xizmatlari ko‘rsatilgan. Ta'lim sohasida raqamli texnologiyalar ta'lim bermoqda. 2023 yil holatiga ko‘ra, O‘zbekistonda jami 10 mingdan ortiq ta’lim muassasasi raqamli platformalar orqali onlayn ta’limni qo‘llab-quvvatlamoqda. "Elektron ta’lim" tizimi orqali 3 milliondan ortiq talaba va o‘quvchi onlayn ta’lim olishmoqda. Bu o‘quv jarayonini individual yondashuv, distant ta’lim va resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Xususiy sektor raqamli texnologiyalardan faol foydalanmoqda, ayniqsa savdo va xizmatlar sohasida. 2022 yilda chakana savdo aylanmasida elektron tijoratning ulushi 5% ni tashkil etmoqda. Ushbu raqam 2023 yilga kelib 7% ga yetdi. Kelajakda bu ko‘rsatkichni sezilarli darajada oshirish rejalashtirilgan.

Telekommunikatsiya tarmog‘i tez sur'atlarda rivojlanmoqda, bunda 5G texnologiyasini qo‘llash muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirda O‘zbekistonda 5G sinov zonalarida joriy etilgan, va yaqin kelajakda keng ko‘lamli foydalanish rejalashtirilmoqda. Bu esa iqtisodiyotning turli sohalarida yuqori tezlikdagi aloqalarni amalga oshirish imkonini beradi. O‘zbekistonda raqamli sanoatlashtirish ham qizqarli rivojlanmoqda. Muhim sanoat korxonalari, jumladan, avtomobilsozlik, to‘qimachilik va energetika sohalarida yirik loyihalar chiqarildi. Masalan, 2022 yilda avtomobil zavodlarida avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish tizimlari ishga tushirildi, natijada ishlab chiqarish samaradorligi 15% ga yaxshilandi.

Barcha bu raqamli texnologiyalar rivojlanishi davlat, xususiy biznes va xorijiy sarmoyadorlarning faol hamkorligi natijasida amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston hukumati tomonidan raqamli texnologiyalarni rivojlantirish uchun ajratilgan mablag‘ miqdori yiliga 100 million AQSh dollaridan oshadi. Bu esa mamlakatning raqamli iqtisodiyotiga o‘z ulushini qo‘shishga yordam beradi. Raqamli infratuzilmaning iqtisodiyotga ta'siri haqida so‘z yuritganda, bu masala xalqaro miqyosda strategik ahamiyat kasb etadi. Raqamli infratuzilma deganda internet, mobil aloqa tizimlari, ma'lumotlar markazlari va boshqa raqamli texnologiyalar orqali iqtisodiy faoliyatni qo‘llab-quvvatlash tizimi tushuniladi. Raqamli infratuzilma rivojlangani sari, iqtisodiyotlar ham digital transformatsiyani boshdan kechirmoqda. McKinsey Global Institute'ning ma'lumotlariga ko‘ra, raqamli iqtisodiyot jahon iqtisodiyotining qariyb 15% ini tashkil etadi va bu ko‘rsatkich yil sayin oshib bormoqda. Bunday o‘sishning asosiy sabablaridan biri raqamli infratuzilma orqali yangi bozorlar yaratilishi va mavjud jarayonlarning samaradorligi oshishi hisoblanadi.

Xususan, raqamli infratuzilma kichik va o‘rta korxonalar uchun an'anaviy geografik cheklovlarni yo‘q qilish orqali ular uchun yangi bozorlar ochadi. Bu o‘z navbatida ish o‘rinlari yaratishda muhim rol o‘ynaydi. Jahon Bankining hisobotiga ko‘ra, internetga ulanishning 10% ga oshishi iqtisodiyotlar uchun 1,2% dan 2% gacha YAIM (yillik umumiy ichki mahsulot) o‘sishini ta'minlashi mumkin.

Raqamli infratuzilmaning iqtisodiyotga ta'sirini ko‘rsatuvchi yana bir misol sifatida elektron savdo maydonlarini keltirish mumkin. Statista'ning 2023 yilga oid ma'lumotlariga ko‘ra, global elektron savdo hajmi 5 trillion AQSh dollaridan oshgan. Bu esa an'anaviy chakana savdo tizimlarining o‘zgarishiga olib keldi va yangi biznes modellari paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi. Raqamli infratuzilma rivojlanishi hamda IoT (Narsalar interneti), sun'iy intellekt va big data kabi texnologiyalarni joriy etish orqali ishlab chiqarishda samaradorlik keskin oshirildi. Masalan, PwCning hisobotlariga ko‘ra, 2023 yilga kelib sun'iy intellekt texnologiyalari global iqtisodiyotga 15,7 trillion dollar foyda keltirishi kutilmoqda.

Bundan tashqari, raqamli infratuzilma texnologiyalari moliya sektorida ham tub o‘zgarishlar qildi. Fintech kompaniyalari orqali moliyaviy xizmatlar keng ommaga taqdim etilmoqda, bu esa nafaqat xizmat ko‘rsatish tezligini oshirdi, balki xizmatlar narxini ham pasaytirdi. CB Insights ma'lumotlariga ko‘ra, 2023 yilda fintech startaplariga kiritilgan sarmoyalar hajmi 100 milliard dollarni tashkil etgan.

Rivojlanayotgan davlatlarda raqamli infratuzilma iqtisodiy o‘sishning muhim omiliga aylangan. Misol uchun, Hindistonda raqamli to‘lovlar bozor hajmi 2025 yilga kelib 700 milliard dollarni tashkil etishi taxmin qilinmoqda. Bu raqamlar davlatlar uchun strategik ahamiyatga ega bo‘lib, ularga yangi imkoniyatlar va qishloq ho‘jaligi, sanoat kabi an'anaviy tarmoqlarda ham samaradorlikning oshishini ta'minlaydi.

Shunga qaramay, raqamli infratuzilmaga kiritilgan investitsiyalarni oshirish zarurati mavjud. UNCTAD (Savdo va taraqqiyot bo‘yicha Birlashgan Millatlar tashkiloti) hisob-kitoblariga ko‘ra, raqamli infratuzilmaga kiritilgan investitsiyalar yillik 100 milliard dollarni tashkil etmoqda, biroq rivojlanayotgan mamlakatlar uchun kerakli infratuzilmaviy o‘zgarishlarga erishish uchun bu yetarli emas.

Xulosa: O‘zbekiston raqamli iqtisodiyotga o‘tishda sezilarli yutuqlarga erishmoqda. Internet infratuzilmasining kengayishi, bank-moliya tizimining raqamlashtirilishi, ta’lim va davlat boshqaruvida innovatsion yechimlarning joriy qilinishi mamlakat iqtisodiyotining raqamli transformatsiyasiga asos bo‘lmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi. (2020). **"Raqamli O‘zbekiston – 2030" dasturi.**
2. Jahon Banki. (2022). **Internetning iqtisodiyotga ta’siri.**
3. McKinsey Global Institute. (2023). **Raqamli transformatsiyaning iqtisodiy o‘sishga ta’siri.**
4. UNCTAD. (2023). **Rivojlanayotgan mamlakatlar uchun raqamli infratuzilma imkoniyatlari.**
5. Statista. (2023). **Elektron tijoratning global iqtisodiy ko‘rsatkichlari.**
6. PwC. (2023). **Sun’iy intellekt va texnologiyalarning iqtisodiy natijalari bo‘yicha hisobot.**
7. CB Insights. (2023). **Fintech va moliyaviy texnologiyalarning rivojlanish tendensiyalari.**

BIZNESNI RIVOJLANTIRISHDA KRAUFANDING PLATFORMALARIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI

Mirzajonov Egamberdi Baxodir o‘g‘li[1], Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich[2]
[1]Millat Umidi universitetining 2-kurs talabasi,
[2]Ilmiy rahbar, TDIU, Biznes boshqaruvi kefedrasi dotsenti, PhD
https://doi.org/10.5281/zenodo.18309204

Annotatsiya. *Ushbu maqolada zamonaviy biznesni rivojlantirishda kraudfanding mexanizmidan foydalanishning iqtisodiy va ijtimoiy afzalliklari tahlil qilinadi. Kraudfanding — innovatsion g‘oyalarni amalga oshirishda jamoaviy moliyalashtirish usuli sifatida tadbirkorlik subyektlariga yangi imkoniyatlar yaratadi. Maqolada kraudfandingning turlari, u orqali investitsiya jalb qilish mexanizmlari hamda kichik biznes va startaplar faoliyatiga ta’siri yoritilgan. O‘zbekiston sharoitida kraudfanding amaliyotini kengaytirish istiqbollari ham tahlil qilinadi va tegishli tavsiyalar beriladi.*

Kalit so‘zlar: *biznes, kraudfanding, moliyalashtirish, investitsiya, startap, innovatsiya, jamoaviy sarmoya, iqtisodiy rivojlanish, raqamli iqtisodiyot, kichik tadbirkorlik, onlayn platformalar, tadbirkorlik muhiti, moliyaviy barqarorlik, ijtimoiy tashabbuslar.*

